


# JAHON MAMLAKATLARI



**QISQA MA'LUMOTNOMA**

26.89  
J-39

# JAHON MAMLAKATLARI

*Qisqa ma'lumotnoma*

Qayta ishlangan ikkinchi nashri



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH Tahririyati  
Toshkent – 2007

T u z u v ch i-m u a l l i f l a r:

*Shuhrat Ergashev, To'lqin Bobomatov, Nodir Tursunov,  
Nozim Sariqulov, Komil Ahmedov, Sharif Shoniyozov,  
Nizomiddin Saxyev, Umid Bobomatov*

M a s' u l m u h a r r i r:

*tarix fanlari doktori Abror Hazratqulov*

T a q r i z ch i l a r:

*tarix fanlari doktori, professor R. Farmonov,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent U. To'ychiyev,  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent F. Pardayev*

*Tarix fanlari nomzodi  
Shuhrat Ergashev tahriri ostida*

**Jahon mamlakathari:**

Qisqa ma'lumotnomma /mas'ul muharrir A. Hazratqulov. — T.: «Sharq», 2007. — 416 b.

**ББК.26.89**

**ISBN 978-9943-00-109-1**

## K I R I SH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan vaqt ichida jahon hamjamiyatida o'z o'mniga, dunyo siyosati maydonida o'z mustaqil ovoziga ega bo'lgan davlat sifatida tan olindi. Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov olib borayotgan oqilona tashqi siyosat tufayli yurtdoshlarimiz jahon mamlakatlari bo'ylab erkin safar qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

«Jahon mamlakatlari» deb atalgan ushbu kitobda dunyoning 224 ta davlati to'g'risida qisqa ma'lumotlar to'plangan. Dastlab O'zbekiston Respublikasi, keyin esa chet mamlakatlar alisbo bo'yicha joylashtirilgan. Har bir davlat to'g'risidagi ma'lumotlar davlatning rasmiy nomi, poytaxti, hududi, aholisi, tili, dini, pul birligi kabilalar bilan boshlanadi. Geografik joylashuvi va tabiatni, davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari, iqtisodi, transport kommunikatsiyalari va tarixiga esa kengroq o'rinn berilgan. Buning sababi davlatlar haqidagi faqat rasmiy, siyosiy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki o'guvchi uchun qiziqarli ma'lumotlarni ham berishga harakat qilindi. Ayniqsa, tabiatni va tarixini yoritishda bunga katta e'tibor berilgan.

Hozir adabiyotlarda keng qo'llaniladigan qisqartma so'zlar bu yerda ham shunday ishlatilgan. Masalan, MDH — Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, AQSH — Amerika Qo'shma Shtatlari, m. a. — miloddan avvalgi kabilalar. Aytilganidek, bu so'zlar muomalada keng qo'llanilganligi sababli ularga alohida izoh berish lozim topilmadi.

Barcha davlatlar haqidagi ma'lumotlar bir xil tuzilishga ega, biroq ayrim davlatlar (masalan, Rossiya, AQSH, Xitoy) to'g'risida ma'lumotlarning ko'pligi sababli ularga kitobda kengroq o'rinn berilgan.

Umuman, bunday nashrlar rus, ingliz tillarida anchagini bo'lishiga qaramasdan, ushbu kitob o'zbek kitobxonlarida qiziqish uyg'otadi, degan umiddamiz.

## O'ZBEKISTON

*Rasmiy nomi — O'zbekiston Respublikasi.  
Poytaxti — Toshkent. Hududi — 447400 km<sup>2</sup>.  
Aholisi — 25981600 kishi (2003). Davlat tili — o'zbek. Dini — islom. Pul birligi — o'zbek so'mi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Markaziy Osiyodagi davlat. Shimolda va g'arbda — Qozog'iston (chegaraning uzunligi — 2203 km), janubda — Turkmaniston (1621 km) va Afg'oniston (137 km), janubi sharqda — Tojikiston (1161 km), sharqda Qirg'iziston (1099 km) davlatlari bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 6221 km. O'zbekiston relyefiga ko'ra tekislik va adir-tog' qismlarga bo'linadi. Hududning 4/5 qismini tekisliklar, aksari Turon pasttekisligi ishg'ol qilgan. O'zbekistonning shimoli g'arbida Ustyurt platosi, markaziy qismining sharqida Qizilqum sahrosi joylashgan. Turon pasttekisligi sharqqa tomon davom etib, tog'lar orasiga kirib borgan: shimolda — Mirzacho'l, o'rta qismida — Qarnob cho'li va Qarshi cho'li joylashgan. Bu cho'llar bora-bora tog'oldi qiya tekisliklariga qo'shilib ketadi. Farg'ona, Ohangaron vodiylari, Sangzor—Nurota soyligi, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo soyliklari tog'lar orasida joylashgan tekisliklardir. O'zbekiston hududidagi tog'lar Tyan-Shan va Hisor—Oloy tog' tizmalariga kiradi. Tizmalarning balandligi 4000 m dan ziyod. Hisor tizmasida joylashgan cho'qqi (4683 m) O'zbekistonning eng baland nuqtasidir. Asosiy daryolari: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron. Yirik ko'llari: Orol dengizi (global ekologik muammo), Aydarko'l. Tabiiy gaz, neft, qo'ng'ir ko'mir, tosh ko'mir, oltin, kumush, mis, qalay, molibden, marganes, xrom, volfram, vismut, uran, flyuorit, granit, marmar, ohaktosh, kaolin, topaz, feruza, amitist, tog' xrustali, xalsedon, yashma, nefrit, amazonit, rodonit,

marmar oniksi O'zbekiston qazilma boyliklarini tashkil etadi.

Iqlimi — issiq, quruq, kontinental. Janubi subtropik mintaqaga kiradi. O'zbekiston hududida 120 oilaga kiradigan 3700 ga yaqin turdag'i yovvoyi o'simliklar uchraydi. Cho'llarda juzg'un, saksovul, iloq, quyon-suyak, cherkez, qumarchiq, biyurg'un, shuvoq, tuyapay-poq, qolgan hududlarda tog'olcha, yong'oq, pista, archa, zarang, do'lana, tol, terak, omonqora, suvqalam-pir, bargizub, zira, qizilpoycha, zirk, kiyiko't va boshqa o'simliklar o'sadi. Yumronqoziq, qumsichqon, qo'sho-yoq, bo'ri, tulki, jayron, sayg'oq, bo'rsiq, to'ng'iz, morxo'r, arxar, ayiq, bars, chiyabo'ri, sug'ur, sassiqko'zan, bir necha tur ilon, kaltakesak, zaharli hasharotlar, burgut, qora tasqara, qumoy, boltayutar, qirg'ovul, kaklik, bedana va boshqa qushlar hayvonot olamini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — Respublika. Mamlakat tarkibiga 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi kiradi. O'zbekiston o'z mustaqilligini 1991-yil 31-avgustda e'lon qilgan. Milliy bayrami — 1-sentabr (Mustaqillik kuni). Ijro etuvchi hokimiyat — Prezident (davlat boshlig'i) va Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Senat (yuqori palata) va Qonunchilik palatasi (quyi palata)dan iborat ikki palatali parlament — Oliy Majlisga tegishli. Siyosiy partiyalari: Xalq demokratik partiyasi, «Adolat» sotsial-demokratik partiya, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, Fidokorlar partiyasi, O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi, Xalq birligi harakati.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** So'nggi yillarda hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat bozor islohotlarini chuqurlashtirishga, xususiy lashtirish va tadbirkorlikni kengaytirishga, moliyaviy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, milliy valyutani mustahkamlashga qaratilgan. Chet el investitsiyalari kirib kelishiga imkoniyatlarning yaratilishi ishlab chiqarishning taraqqiy etishiga turtki bo'ldi. Sanoatning rivojlangan tarmoqlari: rangli metallurgiya,

to‘qimachilik, yonilg‘i, kimyo, oziq-ovqat, qurilish, mashinasozlik, avtomobilsozlik, samolyotsizlik. Paxta, bug‘doy, sholi, turli meva va sabzavotlar, poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Chorvachilik rivojlangan. Tola, tabiiy gaz, rangli metallar, kimyo va neft kimyosi mahsulotlari, avtomobil, meva va sabzavotlar, qorako‘l terilari eksport qilinadi. 2004-yil YIM miqdori 47590 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: MDH davlatlari, Germaniya, Yaponiya, XXR, Janubiy Koreya.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 7000 km dan oshiq, avtomobil yo‘llari — 80 000 km.

**Tarixi.** Hozirigi O‘zbekiston hududida m. a. I ming yillikdayoq dastlabki quzdorlik davlatlar — Xorazm, Baqtriya, Sug‘d, Parfiya vujudga keladi. M. a. VI asrda ahamoniylar O‘rtal Osiyoning ko‘pchilik yerlariida mahalliy aholining qarshiligiga qaramay (Shiroq, To‘maris) o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. M. a. 329—327-yillarda makedoniyalik Iskandar bu hududlarni o‘z imperiyasi tarkibiga qo‘sib oladi. Mahaliy aholining bosqinchilarga qarshi eng yirik qo‘zg‘oloniga sug‘d lashkarboshisi Spitamen bohchilik qiladi. Iskandarning vafotidan so‘ng hozirgi O‘zbekiston hududlari Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi. M. a. 250-yilda Grek—Baqtriya podsholigi tashkil topadi. M. a II asrda Qang‘, Parfiya, Farg‘ona davlatlari vujudga keladi. Grek—Baqtriya podsholigi toharlar tomonidan tor-mor etilgandan so‘ng Toharlar davlati tashkil topadi. I—IV asrlarda O‘rtal Osiyo, Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston hududlarida Kushon podsholigi mavjud bo‘lgan. V asrda Eftalitlar davlati, VI asrning o‘rtalarida Turk xoqonligi tashkil topadi. VIII asrda O‘rtal Osiyo Arab xalifaligi tomonidan zabt etiladi. O‘rtal Osiyo xalqlari arab hukmronligiga qarshi muttasil kurash olib boradi (G‘urak, Divashti, Sharik, Muqanna, Rofe’ ibn Lays qo‘zg‘olonlari). Qo‘zg‘olonlarni bostirishda katta xizmat ko‘rsatgan tohiriyalar, so‘ngra somoniylarga hokimiyat topshirib qo‘yiladi. Natijada IX asrning oxirlarida Somoniylar davlati O‘rtal Osiyo hududlarini mustaqil boshqara boshlaydi. X asr oxiri XI asrlarda O‘rtal Osiyoda

Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar davlatlari mavjud bo'lgan. XII asrda Xorazmshohlar davlati yuksaladi. IX—XII asrlarda O'rta Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti yuksak darajaga ko'tariladi. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi kabi qomusiy olimlar, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoniy, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy kabi tasavvuf namoyandalari yetishib chiqdi. 1218—1221-yillarda mo'g'ullar mahalliy aholining qattiq qarshiligiga qaramay (Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik) O'rta Osiyoni bosib oladi. 1238-yili Buxoroda mo'g'ullar istibdodiga qarshi Mahmud Torobiy boshchiligidagi yirik xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. 1370-yilda Amir Temur Samarqandda hokimiyatni qo'lga kiritib, yirik markazlashgan davlatga asos soldi. O'ttiz besh yillik hukmronligi davrida Temur katta hududlarni zabit etib, ulkan imperiyaga asos soladi. Temur vafotidan so'ng (1405) Movarounnahrda temuriylar o'rtasida taxt uchun kurash kechadi. 1409- yili Samarqand taxtiga Mirzo Ulug'bek o'tiradi. Temuriylar Movarounnahrda XVI asrgacha hukmronlik qilishadi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahrda hunarmandchilik, me'morchilik va adabiyot ravnaq topdi, ilm-fan yuksaldi, savdo rivojlandi. 1500-yili Dashti Qipchoqdan ko'chmanchi o'zbeklar xoni Muhammad Shayboniyxon Samarqandga hujum qiladi. Unga qarshi Samarqand taxti uchun Zahiriddin Bobur kurash olib boradi. Bir necha samarasiz urinishlardan so'ng Bobur Afg'onistoniga ketishga majbur bo'ladi va 1525-yili Hindistonga yurish uyushtirib, u yerda Boburiylar imperiyasiga asos soladi. XVI asrda O'rta Osiyoda ikkita xonlik — Buxoro xonligi va Xiva xonligi vujudga keladi. Shayboniylardan Abdullaxon II (1534—1598) uzoq urushlardan so'ng parchalanib ketgan Movarounnahrni birlashtiradi. 1599-yili Movarounnahrda hokimiyat ashtarxoniyilar (1599—1753) sulolasiga o'tadi. 1740-yili Eron shohi Nodirshoh Buxoroni egallaydi va Buxoro 7 yil Eronga tobe bo'ladi. 1753-yili Buxoroda hokimiyat mang'itlar sulolasining birinchi amiri Muhammad Rahim qo'liga o'tadi.

XVIII asr boshlarida Qo‘qon xonligi tashkil topadi. XIX asrning ikkinchi yarmidan Rossiya O‘rtalari Osiyoga bostirib kira boshlaydi. 1873-yilga kelib O‘rtalari Osiyodagi uchta davlat ham Rossiyaga qaram bo‘ladi. 1917-yilgi oktabr to‘ntarishidan so‘ng Qo‘qon muxtoriyati tashkil topadi, lekin bolsheviklar tomonidan qurol kuchi bilan tugatiladi. O‘tgan asrning 20-yillari yarmigacha bolsheviklar va milliy ozodlik harakati o‘rtasida keskin kurash kechadi. 1924-yilda SSSR tarkibidagi O‘zbekiston SSR tashkil topadi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qiladi.

## AVSTRALIYA

*Rasmiy nomi — Avstraliya Ittifoqi. Poytaxti — Kanberra. Hududi — 7682300 km<sup>2</sup>. Aholisi — 17320000 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — anglikanlar (26%), katoliklar (26%), protestantlar (20%), pravoslavlular (4%). Pul birligi — Avstraliya dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Avstraliya materigi Tasmaniya va uning yonidagi mayda orollarda Yerning Janubiy yarim sharida joylashgan davlat. Shimolda Timor dengizi, Arafur dengizi va Torres bo‘g‘izi, janubda — Bossa bo‘g‘izi va Hind okeani, sharqda — Marjon dengizi, g‘arbda — Hind okeani bilan tutashib ketgan. Avstraliya sathi asosan tekisliklardan iborat, baland tog‘ massivlari yo‘q. Mamlakat sharaqida, shimoldagi Keyp-Yorkdan janubdagisi Boss ko‘rfazi va Tasmaniya orolida davom etgan umumiyligi 3300 km bo‘lgan Katta suv ayiruvchi tizma joylashgan. Tizma Nyu-Inglend yassitog‘i, Moviy va Avstraliya tog‘laridan tashkil topgan. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi Kostyushko (2228 m) tog‘i.

Iqlimi — subekvatorial, tropik va subtropik. O‘simplik dunyosi boy — 20000 dan ortiq o‘simplik turlari mavjud. Mamlakat shimoli asosan tropik o‘rmonlar bilan qoplangan. Janubda, Avstraliya hududining o‘zida 500 turdan ortiq akatsiyalar o‘sadi. Hayvonot dunyosi ham

boy bo‘lib, bu yerda o‘rdakburun, kenguru, xaltali hayvonlarning boshqa turlarini, dengizlarda akula, dengiz iloni, meduza kabi jonivorlarni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — federal parlamentar davlat. Ijro etuvchi hokimiyat — Britaniya monarxi, general-gubernator, premyer-ministr. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — ikki palatali federal parlament (Senat, Deputatlar palatasi). Federatsiya 6 shtatdan iborat: Janubiy Avstraliya, G‘arbiy Avstraliya, Yangi Janubiy Uels, Viktoriya, Kvinslend, Tasmaniya hamda Shimoliy Hududlar va Avstraliya poytaxti federal hududi. Siyosiy partiyalari: Avstraliya milliy partiyasi, Avstraliya leyboristik partiyasi, Avstraliya liberal partiyasi, Avstraliya demokratik partiyasi

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Avstraliya bozor iqtisodi yuqori rivojlanishga ega bo‘lgan industrial-agrar mamlakat. Sanoatning rivojlangan sohalari: mashinasozlik, tog‘-kon, kimyo sanoati, oziq-ovqat, po‘lat quyish. Qishloq xo‘jaligi asosan eksportga ixtisoslashgan. Chorvachilik rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori — 61700 mln dollarni (aholi jon boshiga — 30700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Xitoy, Yaponiya, Misr, Indoneziya, MDH mamlakatlari.

**Tarixi.** Avstraliya aborigenlarining ajdodlari bu qit’aga 40000 yil muqaddam ko‘chib kelganlar. Avstraliya hududida yevropaliklar kelguniga qadar chorvachilik, dehqonchilik va temir nimaligini bilmagan aborigen qabilalari istiqomat qilishardi. Ularning asosiy mashg‘uloti termachilik va ovdan iborat edi. XVIII asr oxirlarida mamlakat hududida 300000 aborigen yashagan. 1606-yili gollandiyalik dengizchi V. Yanszon yevropaliklardan birinchi bo‘lib Avstraliya qirg‘oqlariga yetib keladi. 1643-yilda yana bir golland dengizchisi A. Tasman mamlakatning shimoliy qirg‘oqlari va Tasman orolini o‘rganib chiqdi. 1770-yilda ingliz kaptani J. Kuk Avstraliyaning sharqiy qirg‘oqlariga kelib tushdi va qit’ani Britaniya mulki deb e’lon qildi.

XVIII asr oxirida Avstraliyada birinchi ingliz manzilgohi — Sidney shahriga asos solindi. Angliya Avstraliya hududidan mahbuslarini surgun qilish joyi sifatida foydalandi. 1901-yilning 1-yanvarida Angliyadan dominion mavqeyini olgan Avstraliya Ittifoqi tashkil topdi. I jahon urushi davrida Avstraliya qo'shinlari Fransiya va Yaqin Sharqda olib borilgan harbiy harakatlarda ishtirok etdi. Urushdan so'ng Avstraliya Nauru oroliga ega bo'ldi. 1931-yilda Avstraliya Vestminster statutiga ko'ra tashqi va ichki siyosatda to'la mustaqillikni qo'lga kiritdi. Avstraliya II jahon urushi davrida antigitlerchilar ittifoqi tarafida turib jang qildi. 1967-yilda aborigenlarga barcha fuqarolik huquqlari berildi.

## AVSTRIYA

*Rasmiy nomi — Avstriya Respublikasi. Poytaxti — Vena. Hududi — 83500 km<sup>2</sup>. Aholisi — 8188200 kishi (2003). Davlat tili — nemis. Dini — katoliklar (86%), protestantlar (5,5%), boshqa dinlar (8,5%). Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Avstriya Markaziy Yevropada joylashgan davlat bo'lib, janubda — Italiya va Sloveniya, janubi g'arbda Shveysariya, g'arbda Germaniya va Lixtenshteyn, shimolda Chexiya, sharqda Vengriya, shimoli sharqda Slovakiya davlatlari bilan chegaradosh. Mamlakat hududining 75% ini Sharqiy Alp tog'lari va tog'oldi hududlari egallagan. Eng baland nuqtasi — Glokner tog'i (3797 m). Alp tog'lari shimolda Tirol va Zalsburg Alplaridan hamda janubda Sillertal va Karnik Alplaridan iborat. Hududning qolgan qismini Dunay daryosi yaqinida joylashgan tekisliklar tashkil etadi.

**Iqlimi — mo'tadil-kontinental.** Avstriyaning tekislik qismida iqlim issiq va nam. Mamlakatning asosiy suv resurslari: Dunay daryosi va Neyzidler-Ze hamda Boden ko'llaridir. Asosiy foydali qazilmalari: temir rudasi, neft, yog'och, alyuminiy, qo'rg'oshin, mis, toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir.

## *Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.*

Avstriya 9 federal hududrlarga bo'lingan federativ respublika. Federal hududlari: Burgenland, Karintiya, Vena, Yuqori Avstriya, Quyi Avstriya, Zalsburg, Shtiriya, Tirol, Forarlberg. Davlat boshlig'i — prezident, ammo ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i — Ministrlar Kengashi raisi — kansler. Ikki palatali parlament (Federal yig'in) — Federal Kengash va Milliy Kengashdan tashkil topgan. Siyosiy partiyalari: Avstriya sotsial-demokratik partiyasi, Avstriya xalq partiyasi, Kommunistik partiya, Yashil muqobililik partiyasi.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Avstriya milliylashtirilgan sanoat va ijtimoiy ta'minotning keng tizimiga ega bo'lgan rivojlangan iqtisodga ega davlat. Sanoat tarmoqlaridan quyidagilar rivojlangan: metallurgiya, mashinasozlik, oziq-ovqat, to'qimachilik, teri-poyabzal, energetika, sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish. Shu bilan bir qatorda turizm va bank ishi ham rivojlangan. Qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalişlari: oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, boshoqli madaniy o'simliklar, mevalar, kartoshka, qandlavlagi yetishtirish, chorvachilik va parrandalar boqish. 2004-yil YIM miqdori — 255900 mln dollarni (aholi jon boshiga — 31300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatalari, Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari, Yaponiya, AQSH.

Avtomobil va temiryo'l transport kommunikatsiyalaridan tashqari ichki suv yo'llaridan kema qatnovlari keng yo'lga qo'yilgan.

**Tarixi.** 3000 yil muqaddam zamonaviy Avstriya hududida illiriy qabilalari istiqomat qilishgan. M. a. V asrda kelt qabilalari bostirib kirdi va ularning illiriyalar bilan assimilyatsiyasi yuz berdi. Undan so'ng m. a. XV asrda mamlakat hududlari rimliklar tomonidan bosib olinib, Rim provinsiyalari Gretsiya va Pannoniya tarkibiga qo'shildi. VI—VII asrlarda zamonaviy Avstriya hududlariga german va qisman slavyan qabilalari kirib kela boshladi. Shu davrda u Franklar davlati tarkibiga kiradi. 955-yilda Avstriya hududida Sharqiy marka

(markgraflik) tashkil etildi. 1156-yilda Genrix II mustaqil Avstriya gersogligini tashkil etdi. Avstriyada gabsburglar sulolasining hukmronligi boshlandi. 1699-yilda Avstriya (Avstriya—Turk urushidan so'ng) Vengriyaning bir qismini, Transilvaniyani, Xorvatiya va Sloveniyani o'z tarkibiga qo'shib oldi. Shundan so'ng, 1714-yilda avstriyaliklar uchun g'alaba bilan tugagan «Ispan taxi uchun urush»dan so'ng, Gabsburglar imperiyasi tarkibiga janubiy Niderlandiya va shimoliy Italiyadagi yerlar kirdi. XVIII asr oxirlari — XIX asr boshlarida Avstriya Fransiyaga qarshi g'arbiy ittifoqlarda ishtirok etdi. 1867-yilda Avstriya imperiyasi dualistik monarxiya — Avstriya—Vengriya imperiyasiga aylandi. Sarayevoda Avstriya taxi merosxo'ri ersgersog Ferdinandning 1914-yil 28-iyunda o'ldirilishi oqibatida I jahon urushi boshlandi. 1918-yilda urushda mag'lubiyatga uchragan Avstro—Vengriya imperiyasi bir qator mayda mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi. 12-noyabr 1918-yilda Avstriya respublikasi tashkil topgani e'lon qilindi. 1919-yilda Sen-Jermen tinchlik sulhi zamonaviy Avstriya chegaralarini belgilab berdi. 1938-yil mart oyida nemis qo'shnlari Avstriyani bosib oladi va uning Germaniyaga qo'shilishi («anshlyus») ro'y beradi. Ikkinchi jahon urushida Avstriya german reyxining bir qismi sifatida ishtirok etdi. 1945-yilda mamlakatga SSSR, AQSH, Angliya va Fransiya qo'shnlari kirib keldi. Venada 1955-yilda mustaqil va demokratik Avstriya davlatining tiklanishi to'g'risida Davlat shartnomasi imzolandi. 1955-yilning oktabrida Avstriya parlamenti Avstriyaning doimiy betarafligi to'g'risidagi qonunni qabul qildi. 1966-yilda Avstriya Yevropa Hamjamiyatiga a'zo bo'lib kirdi.

## ALBANIYA

*Rasmiy nomi — Albaniya Respublikasi. Poytaxti — Tirana. Davlat tili — alban. Hududi — 28748 km<sup>2</sup>. Aholisi — 3582000 kishi (2003). Dini — musulmonlar (70%), pravoslavlolar (20%), katoliklar (10%). Pul birligi — lek.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Bolqon yarimorolining g'arbiy qismida, Janubiy-Sharqiy Yevropada joylashgan davlat. Shimolda va shimoli g'arbda Serbiya va Chernogoriya, sharqda Makedoniya, janubi sharqda va janubda Gretsiya bilan chegaradosh. G'arbda Adriatika dengizi, janubi g'arbda Ion dengizi suvlari qirg'oqlarini yuvib turadi. Qirg'oqbo'yining markaziy qismini tekisliklar, hududning qolgan qismini Shimoliy Alban Alplari, Korabi va Tomori tizmalari egallaydi. Albaniyada kontinental — O'rta Yer dengizi iqlimi hukm suradi. Albaniya hududining uchdan bir qismini o'rmonlar va butazorlar qoplagan, to'rtdan bir qissi esa tog' yaylovlardan iborat. Aholi kam yashaydigan joylarda bo'ri, shoqol, qobon va qirg'oq bo'ylarida turli qushlarni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — demokratik respublika. Ma'muriy-hududiy bo'linishi — 26 reti (viloyat). 1912-yil 28-noyabrda Turkiya I Bolqon urushida mag'lubiyatga uchragandan so'ng Usmoniyalar imperiyasidan ozod bo'lib, mustaqilligini e'lon qilgan. Milliy bayrami — 28-noyabr — Mustaqillik kuni. Bir palatali parlamenti — Xalq yig'ini. Eng nufuzli siyosiy partiyalari: Alban sotsialistik partiyasi (ASP), Albaniya demokratik partiyasi (DP), Alban respublika partiyasi (RP), Inson huquqlari uchun ittifoq (Omoniya, INR).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** 40 yildan ortiq vaqt davomida mamlakat iqtisodi markazdan rejorashtirish va ishlab chiqarish vositalari davlat mulki hisoblanishi tamoyillariga asoslangandi. 1991-yildagi saylovlarda g'alaba qozongan yangi demokratik hukumat «shok terapiyasi» va mamlakat iqtisodini tubdan isloh qilish dasturini qabul qiladi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: tog'-konchilik, oziqovqat, yengil sanoat, neft, kimyo, metallurgiya, gidroenergetika. Qishloq xo'jaligi YMMning 55% ini ta'minlaydi. 2004-yil YIM miqdori — 17460 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4900 dol.) tashkil etgan. Asfalt, neft va neft mahsulotlari, metall va metall rudasi, elektr energiyasi, meva va sabzavotlar, tamaki

eksportga chiqariladi. Mamlakatga mashinalar, asbob- uskunalar, temir va po'lat mahsulotlari, to'qimachilik, farmatsevtika, kemyoviy o'g'itlar import qilinadi. Asosiy savdo hamkorlari: Italiya, sobiq Yugoslaviya davlatlari, Germaniya, Chexiya, Slovakiya.

Temiryo'llar qurilishi sust rivojlangan (543 km), avtomobil yo'llari uzunligi — 18450 km. Asosiy portlari: Durres, Saranda, Vlera.

**Tarixi.** M. a. VII asrda greklar hozirgi Albaniya hududida o'z koloniyalarini tuzgan. Albaniya Makedoniya, Rim (m. a. II asr) va Vizantiya (IV asr) imperiyalari tarkibiga kirgan. IX asrda mamlakat Bolgariya qirolligi, XI asrdan esa yana Vizantiya ta'sirida bo'lgan. 1425-yildan Usmoniyalar imperiyasining bir qismi hisoblangan. Turkiyaning I Bolqon urushidagi mag'lubiyatidan so'ng 1912-yil Albaniya mustaqillikka erishgan. 1939-yil Albaniyani fashist Italiyasi bosib oladi. 1946-yili esa Albaniya Xalq Respublikasi e'lon qilinib, kommunistik tuzum o'rnatiladi va ko'p yillarga Albaniya boshqalar uchun yopiq mamlakatga aylanadi. 1976-yil mamlakat Albaniya Xalq Sotsialistik Respublikasi, 1991-yil aprelida esa Albaniya Respublikasi deb e'lon qilinadi.

## AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

*Rasmiy nomi — Amerika Qo'shma Shtatlari. Poytaxti — Vashington. Hududi — 9363200 km<sup>2</sup>. Aholisi — 290342600 kishi (2003). Rasmiy tili — ingliz, (ispan, fransuz, nemis, italyan, polyak, portugal, arman, arab, hind tillari ham keng tarqalgan). Dini — protestantlar (53%), katoliklar (26%), yahudiylar (2% ga yaqin), pravoslavlular (2% ga yaqin), musulmon diniga e'tiqod qiluvchilar (2% ga yaqin). Pul birligi — AQSH dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Shimoliy Amerikadagi davlat. Shimolda Kanada (chevara uzunligi — 8893 km, Shimoliy Amerikaning shimoli g'arbida

joylashgan Alyaska shtatining Kanada bilan chegarasini qo'shib hisoblaganda chegara uzunligi — 2477 km), janubda Meksika (3326 km) bilan chegaradosh. Mamlakat g'arbda Tinch okean, sharqda Atlantika okeani, janubda Meksika ko'rfazi bilan tutashib ketgan. Undan tashqari, AQSHga Gavay orollari, Guam oroli, Sharqiy Samoa, Virgin orollari hamda Kuba orolidagi Guantanamo harbiy bazasi qarashlidir. Chegaralarning umumiy uzunligi — 12248 km. Qirg'oq bo'ylab chegara uzunligi — 19924 km. AQSH maydon jihatdan dunyoda Rossiya, Kanada va Xitoydan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. AQSH tog'lar va bepoyon tekisliklar mamlakati. Mamlakat relyefining g'arbiy qismi tog'li, sharqiy qismi esa tekisliklardan iborat. Mamlakat hудудинг yarmiga yaqinini tog' tizmalari, tog' tekisliklari va Kordiler yassi tog'lari egallagan. Kordiler tog'larining yuqori cho'qqisi balandligi 4000 m bo'lgan Uit (4419 m) hisoblanadi. Sharqda Appalachi tog'lari joylashgan. Ularning baland nuqtasi — Mittchel (2037 m). Mamlakat va Shimoliy Amerikaning yuqori nuqtasi Mak-Kinli tog'i (6199 m) Alyaskada joylashgan. Qit'aning eng past joyi Kaliforniyadagi O'lim vodiysi (dengiz sathidan — 86 m pastda) hisoblanadi. Kordiler va Appalachi tog'lari orasida Markaziy va Ulug' keng ichki vodiylari hamda Meksika pasttekisliklari yastanib yotibdi. Asosiy daryolari Missisipi, Missouri, Ogayo, Kolorado, Kolumbiya va Yukon (irmoqlari bilan birga). Mamlakatning shimoli sharqida Buyuk, Yuqori Michigan, Guron, Eri, Ontario ko'llari tizimi mavjud. Mamlakatda ko'p sonli muzliklar davri ko'llari bor. Yuta shtatida joylashgan Katta Sho'r ko'l ham muzliklar davrida vujudga kelgan. AQSH quyidagi foydali qazilmalar zaxiralariga ega: ko'mir, tabiiy gaz, neft, oltin, uran, mis, qo'rg'oshin, temir, alyuminiy rudalari, fosforitlar hamda yog'och. Haydaladigan yerlar butun hududning 20%, o'rmonlar va dashtliklar 29%, o'tloq va yaylovlar 26% ini tashkil qiladi.

Iqlimi — keskin kontinental. O'simlik dunyosi juda boy. Bu yerda iqlim zonalarining o'zgarishiga qarab flora ham o'zgarib boradi. AQSHda mox va lishaynik-

lardan tortib palma va sekvoyya daraxtlarigacha mavjud. Hayvonot olami ham turfa, u ham flora kabi iqlim zonalarining o'zgarishiga qarab o'zgarib boradi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — federativ respublika. Mamlakat tarkibiga 50 ta shtat (Aydaxo, Ayova, Alabama, Alyaska, Arizona, Arkansas, Virjiniya, Vashington, G'arbiy Virjiniya, Viskonsin, Vayoming, Vermont, Gavayya, Delaver, Jorjiya, Illinoys, Indiana, Kaliforniya, Kolorado, Kon-nektikut, Kanzas, Kentukki, Luiziana, Men, Merilend, Massachusetts, Michigan, Minnesota, Missisipi, Missouri, Montana, Nebraska, Nevada, Nyu-Hempshir, Nyu-Jersi, Nyu-Meksika, Nyu-York, Ohayo, Oklaxoma, Oregon, Pensilvaniya, Rod-Aylend, Shimoliy Karolina, Shimoliy Dakota, Tennessi, Texas, Florida, Janubiy Karolina, Janubiy Dakota, Yuta va Kolumbiya okrugi. AQSHga qaram hududlar: Beyker oroli, Xoulend oroli, Kingem-Rif, Sharqiy Samoa, Guam, Jarvis, Jonston attoli, Miduey, Navassa orollari, Palmira attoli, Puerto-Rika, Virginiya orollari, Ueyn orollari. AQSH 1776-yil 4-iyulda mustaqillikka erishdi (ilgari Angliya mustam-lakasi). Milliy bayramlari: 4-iyul — Mustaqillik kuni, 22-fevral — Jorj Vashington tug'ilgan kun, 11-noyabr — Urush qahramonlari kuni. Qonunchiligi ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Davlat va hukumat boshlig'i Prezident, ijro etuvchi hokimiyat vitse-prezidentga hamda Vakillar palatasiga tegishlidir. Qonun chiqaruv-chi hokimiyatni Senat va Quyi palata (Yuqori palata va Vakillar palatasi)dan tashkil topgan ikki palatali parlament amalga oshiradi. AQSHda asosiy ikkita yirik partiya mavjud: Respublikachilar va Demokratlar.

**Iqtisodi, transport kəmmunihatsiyalari.** AQSH — ilg'or industrial va sanoatning yuqori diversifikasiyasiga ega davlat bo'lib, neft sanoati (dunyoda ikkinchi o'rinda), metallurgiya (alyuminiy, qo'rg'oshin, mis ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik davlat), mashinasozlik, aerokosmik, kimyo, elektron, oziq-ovqat, yog'ochni qayta ishlash va boshqa sanoat sohalari keng rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori — 11750000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 40100 dol.)

tashkil etgan. Qulay iqlim sharoiti va unumdon yerlarning mavjudligi qishloq xo'jaligi rivojlanishiga yaxshi omil yaratadi. Chorvachilik mahsulotlari ham turfa (dunyoda go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda). Asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari — makkajo'xori, soya, sorgo (uchalasini yetishtirish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda), bug'doy (uchinchi o'rinda), shakarqamish (ikkinchi o'rinda), tamaki (ikkinchi o'rinda), paxta (uchinchi o'rinda), kartoshka. Shu bilan bir qatorda AQSH baliq ovlash hajmi bo'yicha ham ilg'or mamlakatlardan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining katta qismi boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi. Qo'shma Shtatlar tashqi savdo hajmi bo'yicha dunyo mamalkatlaridan oldinda. Asosiy savdo hamkorlari: G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Kanada, Yaponiya.

Temiryo'lllarining umumiy uzunligi — 240000 km. Dunyodagi eng zamonaviy avtomobil yo'llari tarmog'iga ega bo'lib, umumiy uzunligi — 6365590 km (ulardan 88641 km tez yurishga mo'ljallangan trassalar), sifati bo'yicha ham oldingi o'rinda. Ichki suv yo'llarining umumiy uzunligi — 41009 km. Mamlakatning asosiy portlari: Ankorij, Boston, Gonolulu, Long-Bich, Los-Anjeles, Mayami, Norfolk, Yangi Orlean, Nyu-York, Portlend, San-Fransisko, Xyoston, Korpus-Kristi, Filadelfiya.

**Tarixi.** Birinchi yevropaliklar hindular istiqomat qilgan hozirgi AQSH hududiga ilk bor XVI asrda kelishgan. Shimoliy Amerikaning mustamlakalashtirilishi oqibatida XVIII asrga kelib bu yerda uchta ta'sir zonasi tarkib topdi: ispanlar — Floridada, Texasda va Tinch okean sohillarida, fransuzlar — Buyuk Ko'llar va Luizianada, inglizlar — Atlantika sohillari bo'ylaridagi hududlarda. 1774-yilda 13 ta britan mustamlakasi mustaqillik uchun kurash boshlab, 1776-yil 4-iyulda AQSH tashkil topishi bilan tugadi. J. Vashington va B. Franklin tomonidan tuzilgan demokratik davlatning asosiy tamoyillari bilan birga shtatlarning keng huquqlari hamda kuchli federal hokimiyat tamoyillari chambarchas bog'lanib ~~1787-yil~~ Konstitutsiya 1787-yil

17-sentabrda qabul qilindi. XIX asrning birinchi yarmida AQSH hududlarining kengaytirilishi yangi yerlarni xarid qilish bilan birga fransuzlardan Luizianani, ispanlardan Floridanini, o‘zga davlatlarning koloniyalarini bosib olish vositasida amalga oshirildi. Yangi yerlarni kolonizatsiya qilish mahalliy hindularni bo‘ysundirish yo‘li bilan olib borildi. Shimoliy va Janubiy shtatlar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy qarama-qarshiliklar 1781-yilda federatsiyadan ajrab chiqishni e’lon qilgan 11 ta janubiy shtatlar Konfederatsiyasining tashkil etilishiga olib keldi. Fuqarolar urushi boshida bir qator muvaffaqqiyatlarni qo‘lga kiritgan janubliklar oxir-oqibat mag‘lubiyatga uchrab, Shimol g‘alaba qozondi va federatsiya saqlab qolindi. 1867-yilda AQSH Rossiya dan Alyaskani va Aleut orollarini xarid qildi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Yevropa va boshqa qit’alar dan ko‘plab muhojirlar ko‘chib kelishi oqibatida AQSH iqtisodi qudratli davlatga aylandi. Markaziy Amerika, Karib havzasasi mamlakatlari va Tinch okeanda o‘z ta’sir zonalarini faollik bilan kengaytirib borgan AQSH uzoq vaqtgacha Yevropada bo‘lib o‘tayotgan voqealarga nisbatan betaraflikni saqlab keldi. AQSH 1917-yil 4-aprelda Birinchi jahon urushiga qo‘silib, urush tuga ganidan so‘ng Senat Versal shartnomasi qarorlarini qo‘llashdan bosh tortdi. Urushdan keyingi mamlakat iqtisodining tez sur’atlar bilan o‘sishi 1929-yilda Buyuk depressiya — liberal iqtisodning chuqur inqirozi davri bilan almashindi. Inqiroz ishlab chiqarishning qisqarishi va ishsizlar sonining keskin ko‘payishiga olib keldi. Yapon samolyotlari Pyorl-Xarbordagi Amerika harbiy bazasini bombardimon qilishganidan so‘ng, AQSH 1941-yil 7-dekabrda Ikkinci jahon urushiga qo‘shildi. AQSH qo‘sirlari Yaponiyaga qarshi harbiy harakatlarni boshladi. Bu to‘qnashuvlarning asosiy qismi Tinch okean hududlarida va dengizlarda sodir bo‘lgan. Tehron konferensiyasidan (1943) so‘ng AQSH Fransiyaning Atlantika hududlariga qo‘sish kiritib, Germaniyani tor mor qilishda ishtirok etdi. Yaponiyaga qarshi Tinch okean orollari va Janubi Sharqiy Osiyoda muvaffaqqiyatli harbiy harakatlar olib borayotgan AQSH 1945-yil

6-avgustda Yaponianing Xirosima, 9-avgustda esa Nagasaki shaharlariga atom bombasini tashladi. Urushdan so'ng AQSH G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodini tiklashga (Marshall rejasi) va Yevropa hamda dunyoning boshqa hududlarida kommunistik ta'sirning yoyilishiga qarshilik («sovuz urush») ko'rsatib keldi. Mamlakat ichida 40-yillar oxiri — 50-yillarning boshlarida kommunistik partiyaga moyillikda guman qilin-gan fuqarolar AQSH hokimiyati tomonidan ta'qib ostiga olindi. Urushdan keyingi yillarda AQSH to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita bir qator yirik xalqaro mojarolarda ishtirok etdi (Karib inqirozi, Vyetnam urushi, arab—isroil urushi). AQSH qo'shinlarining Vyetnamdagi urushda ishtirok etishga qarshi boshlangan patsifistlar (urushga qarshi) harakati qora tanli aholining irqiy segregatsiya (kamsitilish) qilinishiga qarshi kurashning boshlanishiga to'g'ri keldi. Qora tanlilarga o'z haq-huquqlari uchun kurashning tinch usullarini targ'ib qilgan Martin Lyuter King 1968-yil aprelda o'ldirildi, ammo uning siyosiy faoliyati qora tanlilarining Amerika jamiyati integratsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 70-yillarda AQSHda ro'y bergan asosiy voqealardan biri bu «Uotergeyt mojarosi» bilan bog'liq bo'lib, prezident Niksonning iste'foga chiqishidir. J. Karter prezidentligi davrida AQSH Xitoy bilan munosabatlarini yaxshilab, Misr va Isroil o'rtaida separat tinchlik sulhining imzolanishiga ko'maklashdi, biroq AQSHning Tehrondagi elchixonasidan garovga olinganlarni ozod qilish operatsiyasining muvaffaqqiyatsizlik bilan tugashi demokratik partyaning saylovlarda mag'lubiyatga uchrashi va mamlakat prezidenti etib 1980-yili R. Reyganning saylanishiga olib keldi. R. Reygan Sovet Ittifoqi hukumati bilan boshlagan muzokalarani 1989-yilda prezidentlik lavozimida uni almashtirgan J. Bush tomonidan davom ettirilib, qurollanish poygasining cheklanishiga va «sovuz urush»ning tugashiga olib keldi. Tashqi siyosatdagi muvaffaqqiyatlariga qaramasdan (Quvaytning Iroq qo'shinlaridan ozod qilinishi), respublikachilar 1992-yilgi saylovlarda mag'lubiyatga uchradi.

AQSHning yangi prezidenti Bill Clinton davrida mamlakatning tashqi faolligi 1997-yilda Isroil va Falastinni Ozod qilish uyushmasi o'rtasida tinchlik sulhining imzolanishida o'z aksini topib, unga ko'ra Isroil Falastinning avtonomiyaga bo'lgan huquqini tan oldi. Shu bilan bir qatorda AQSH Yugoslaviya mojarosida tinchlik munosabatlarini o'rnatish jaryonida faol ishtirok etdi. Biroq serblar va xorvatlar hamda Bosniya inqirozini chetdan aralashuvhsiz hal qilishga erishilgan bo'lsa-da, Yugoslaviyaning Kosovo viloyatida yashovchi albanlar muammosini hal etish uchun AQSH va uning NATO bo'yicha ittifoqchilari harbiy kuch ishlatishga majbur bo'ldi. Kosovodagi inqirozni to'xtatish uchun Yugoslaviyaning harbiy va fuqarolik obyektlarining bombardimon qilinishi dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, shu bilan bir qatorda Rossiyada ham e'tiroz hamda qarshilikni vujudga kelтирди.

## **ANGILIYA (Angilya, Anguilla)**

*Rasmiy nomi – Buyuk Britaniya mulki Angilya (Anguilla). Poytaxti – Valli. Hududi – 96 km<sup>2</sup>. Aholisi – 13200 kishi (2005). Davlat tili – ingliz. Dini – xristianlik. Pul birligi – Sharqiy Karib dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Karib dengizidagi Angilya (Anguilla) va Sombrero orollarida va Kichik Antil orollarining shimoliy qismida joylashgan davlat. Angilya ohaktoshli va marjon qoyalar bilan o'ralgan past orollardan iborat.

Iqlimi – tropik passatlari va issiq. Ikkilamchi tropik cho'l-biyobonlar bilan qoplangan. Kemiruvchilar va qushlarning bir qancha turlari yashaydi.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – 1982-yilda qabul qilingan konstitutsiya bo'yicha hudud o'z ichki boshqaruviga ega. Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan B. Kanti gubernator etib tayinlangan. Hukumat boshlig'i – Ijroiya

Kengashining bosh ministri — X. Xyuz. Ma'muriy jihatdan bo'linmagan. Siyosiy partiyalari: Angilya birlashgan partiyasi, Angilya Xalq Ittifoqi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Iqtisodining asosini dengiz ovchiligi, chet el turizmi tashkil etadi. Kartoshka, no'xat, makkajo'xori, jo'xori yetishtiriladi. Qo'y, echki, cho'chqa boqiladi. Baliq, dengiz qisqichbaqasi ovlanadi. Chetga qisqichbaqa, tuz, jun chiqariladi. 2004-yil YIM miqdori 93,7 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — AQSH, Trinidad va Tobago, Buyuk Britaniya.

***Tarixi.*** 1493-yilda Angilya orollariga X. Kolumb ekspeditsiyasi kelib tushgan. Dastlabki aholi punktlariga 1631-yilda gollandlar tomonidan asos solingan. XVII asrda Angilya inglizlar mustamlakasiga aylantirilgan. XVIII asrda Fransiya orolni 2 marta bosib olish uchun uringan. 1882-yili Buyuk Britaniya Angilyani mustamlakalari Sent-Kits va Nevis orollariga ma'muriy jihatdan birlashtirdi. 1958—1962-yillarda bu orollar Vest-Indiya federatsiyasi tarkibida bo'ldi, 1967-yilda esa «Buyuk Britaniyaga qo'shilgan davlat» maqomini oldi. Shu yili may oyida Angilya Sent-Kits va Nevisdan ajralganligini e'lon qildi. 1969-yil fevralda Buyuk Britaniyaning tan olishini talab qilib, bir tomonlama tartibda o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi. 1976-yilda orolga qisman o'z-o'zini boshqarish huquqi berildi. 1980-yilda inliz parlamenti qabul qilgan qonunga binoan Angilya Sent-Kits va Nevis orollaridan rasmiy ajraldi. Angilya va Britaniya Virgin orollari 1981-yil 18-iyunda tashkil topgan Karib havzasini davlatlari oilasi, Sharqiy Karib davlatlari tashkilotiga a'zo bo'lib qo'shildi.

## **ANGOLA**

*Rasmiy nomi — Angola Respublikasi. Poytaxti — Luanda. Hududi — 1246700 km<sup>2</sup>. Aholisi — 10766500 kishi (2003). Davlat tili — portugal. Dini — katoliklar (65%), protestantlar (20%), majusiyalar (10%). Pul birligi — kvanza.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrikaning janubi g'arbidagi davlat. Janubda — Namibiya (chegara uzunligi — 1376 km), sharqda — Kongo Demokratik Respublikasi (2511 km) va Zambiya (1110 km), shimolda — Kongo (201 km) bilan chegaradosh. Angola g'arbda Atlantika okeani bilan tutashgan. Mamlakatning asosiy qismini balandligi dengiz sathidan 1000—1500 m bo'lgan Angola yassitog'ligi egallagan. Eng yuqori nuqtasi — Moko tog'i (2620 m). Angolaning Kongo, Zambezi, Kasai va boshqa daryolari tog'lardan boshlanadi. Angola neft, olmos, temir rudasi, fosfat, mis, oltin, uranga boy.

Iqlimi — ekvatorial-mussonli va tropik passatl. Mamlakat janubiga xos bo'lgan cho'l o'simliklari, shimolda savannalar va quyuq tropik o'rmonlar bilan tugaydi. Angolada Afrika qit'asida uchraydigan barcha yirik hayvonlar yashaydi: fil, jirafa, karkidon, zebra, antilopa, sher, gippopotam va h.k.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Ma'muriy-hududiy jihatdan 18 ta viloyatga bo'lingan. Mustaqilligini Portugaliyadan 1975-yil 11-noyabrda olgan. Qonunchiligi fuqarolik huquqning portugal tizimi va mahalliy urf-odatlarga asoslangan. Milliy bayrami — Mustaqillik kuni 11-noyabrda nishonlanadi. Bir palatali parlamenti — Milliy Assambleya. Angolada 30 dan ortiq partiyalar qayd qilingan.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligida band. Sanoatning muhim sohasi neft qazib olish bo'lib, YMMning 60% ini tashkil qiladi. 2004-yil YIM miqdori 23170 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2100 dol.) tashkil etgan. Neft, suyultirilgan gaz, olmos, qahva, baliq — davlat byudjeti kirimining asosiy eksport mahsulotlari hisoblanadi. Asosiy savdo hamkorlari — AQSH, MDH davlatlari, Kuba, Portugaliya, Braziliya. Qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan qahva, bug'doy, paxta, shakar-qamish, manioka, tamaki eksportga chiqariladi.

Temiryo'llari uzunligi — 3189 km, avtomobil yo'llari — 73828 km. Asosiy portlari — Luanda, Ngenza-Kabolo, Lobitu, Kabinda.

**Tarixi.** Angola portugaliyaliklar tomonidan 1482-yil kashf etilgan. XIX asrdan boshlab Portugaliya mamlakat ichkarisini egallashga kirishadi. Zambezi va Kongo oralig‘ini o‘rganib chiqqan portugaliyalik sayohatchi Serpa Pintu 1889-yili Mozambik gubernatori lavozimiga tayinlangandan keyin Angolani Mozambikka qo‘sib olishga urinishi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. XX asr boshlarida Angola Portugaliyaning mustamlakasi, 1951-yildan — dengizorti hududi, 1955-yildan — Portugaliya viloyati. 1961-yilda boshlangan milliy-ozodlik kurashi 1975-yil mustaqil Angola Xalq Respublikasi tuzilishi bilan yakunlandi. SSSR qo‘llagan Angola ozodligi uchun Xalq harakati va AQSH qo‘llab turgan UNITA tashkiloti o‘rtasidagi qarama-qarshilik fuqarolar urushiga olib keldi. Bu urushda Janubiy Afrika va Kuba ham ishtirok etgan. 1991-yili tinchlik shartnomasi imzolangan, ammo prezident saylovlarida Dush Santush g‘alaba qozonishi yana fuqarolar urushi boshlanishiga sabab bo‘lgan.

## ANDORRA

*Rasmiy nomi — Andorra Knyazligi. Poytaxti — Andorra-la-Velya. Hududi — 465 km<sup>2</sup>. Aholisi — 70500 kishi (2005). Davlat tili — katalon. Dini — katolik. Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Yevropaning janubi g‘arbida joylashgan (Sharqiy Pireney) davlat. Janubda va g‘arbda Ispaniya (chegara uzunligi — 65 km), sharq va shimolda Fransiya (60 km) bilan chegaradosh. Mamlakat hududi asosan qoyali tog‘lardan iborat, eng yuqori nuqtasi — Kama Pedrosa tog‘i (2946 m). Ko‘p miqdorda muzlik davrida tashkil topgan ko‘llar mavjud. Tabiiy boyliklari: gidroenergiya, mineral suv, temir rudasi, qo‘rg‘oshin, yog‘och.

Iqlimi — mo‘tadil.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — suveren parlament knyazligi. Andorra ikkita knyaz — Fransiya prezidenti hamda Ispaniya yepiskopi

mahalliy vakillari tomonidan boshqariladi. Bir palatali parlamenti — Vodiylar Bosh Kengashi, Sud hokimiyati quyidagicha taqsimlangan: fuqarolik ishlarni Perpinyan (Fransiya)dagи Andorra Oliy sudi yoki yepiskop Urnelskiy cherkov sudi (Ispaniya) hal qilsa, jinoiy ishlarni — Sudlar Tribunali. Birinchi siyosiy partiya — Demokratik ittifoq — 1976-yilda tashkil topgan.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Andorra iqtisodining asosini turizm tashkil qiladi (yiliga 13 mln turist). Sigaretlar, sigalarlar va mebel ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan. Ekinga yaroqli yer kamligi uchun oziq-ovqatning asosiy qismi import qilinadi. Chorvachilikning asosiy turi — qo'ychilik. 2004-yil YIM miqdori 2113 mln dollarni (aholi jon boshiga — 26800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Fransiya va Ispaniya.

Temiryo'llari yo'q. Avtomobil yo'llari uzunligi — 96 km.

**Tarixi.** Andorra tarixiy manbalarda 805-yilda dastlab tilga olingan. XIII asrda graf Fua (Fransiya) va katalon yepiskopi Urnel boshqaruviga o'tadi. Ispaniya va Fransiya protektorati ostida bo'lgan Andorra 1993-yilda mustaqil davlat deb e'lon qilinadi.

## ANTIGUA va BARBUDA

*Rasmiy nomi — Antugua va Barbuda davlati. Poytaxti — Sent-Djons. Hududi — 442 km<sup>2</sup>. Aholisi — 79000 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — protestantlik. Pul birligi — Sharqiy Karib dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Vest-Indiyada Karib dengizining sharqiy qismida joylashgan orol-davlat. Mamlakat Antigua, Barbuda va deyarli kimsasiz Redonda orollaridan iborat. Marjon orollarida vulqonlar bor. Tabiiy boyliklari kam.

Iqlimi — tropik.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. 1981-yil 1-noyabr

Buyuk Britaniyadan mustaqillikka erishgan (1-noyabr — Milliy bayrami). Davlat boshlig'i — Britaniya monarxi nomidan general-gubernator boshqaradi. Ikki palatali parlament yuqori (Senat) va quyi (Vakillik palatasi) palatalardan iborat. Siyosiy partiyalari — Antigua leyboristlar partiyasi, Birlashgan progressiv partiya.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Turizm — iqtisodning muhim sohalaridan bo'lib (YMM — 17%), 2004-yil YIM miqdori 769 mln dollarni (aholi jon boshiga — 11000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya, Xitoy va Karib davlatlari. Qishloq xo'jaligi YMMning 5% ini beradi. Paxta, meva va sabzavotlar yetishtirish, chorvachilik rivojlangan.

Temiryo'llari uzunligi — 64 km, avtomobil yo'l-lari — 240 km.

***Tarixi.*** Antigua va Barbuda orollari Kolumb tomonidan 1493-yilda kashf etilgan bo'lib, ispan mustam-lakasiga aylandi. 1632-yili Buyuk Britaniya boshqaruvi o'rnatiladi, 1967-yilda Britaniyaning tarkibiy qismiga aylandi. 1981-yilda mustaqillikka erishgan Antigua va Barbuda Britaniya Hamdo'stligi a'zosi bo'lib qolgan.

## **ANTIL OROLLARI**

*Rasmiy nomi — Antil orollari (Niderlndiya mulki). Poytaxti — Villemstad. Hududi — 960 km<sup>2</sup>. Aholisi — 219900 kishi (2005). Davlat tili — niderland. Dini — katoliklar (85%), protestantlar (15%). Pul birligi — Niderlandiya Antil guldeni (florin).*

***Geografik joylashuvi va tabiat.*** Venesuela-dan shimalroqda, Karib dengizi havzasida joylashgan Niderlandiya mulki. Tarkibiga Bonayre, Kyurasao, Saba, Sint-Estatius va Sen-Marten orolining janubiy qismi kiradi. Kyurasao va Bonayre do'ngliklar, marjonli qoyalar bilan o'ralgan orollardir. Kyurasao orolida fosfat konlari, Sen-Marten va Bonayre orollarida tuz konlari mavjud.

Iqlimi — subekvatorial. Janubiy orollarda quruq o'rmonlar va kserafit o'simliklar bilan qoplangan changalzorlar mavjud. Bonayre orolida flamingolar va noyob qushlarning koloniyalari bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** 1954-yilgi Niderlandiya qirolligi maqomiga ko'ra, Antil orollari qirollikning bir qismi bo'lib, ichki ishlarda muxtoriyatga ega. Niderlandiya qirolichasining shaxsiy vakili gubernatordir. Hukumat rahbari — Bosh vazir. Har bir orolda mahalliy boshqaruvi organi — vitse-gubernator, kengash va hukumat mavjud. Siyosiy partiyalari: Antil islohot partiyasi, Milliy xalq partiyasi, Yangi Antil harakati, Kyurasao demokratik partiyasi, Ozodlik ishchi fronti, Bonayre vatanparvarlari ittifoqi, Sen-Marten demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining asosini chet el turizmi tashkil etadi. Neftni qayta ishslash sohasi rivojlangan. To'qimachilik, selluloza-qog'oz, oziq-ovqat, tamaki, spirtli ichimliklar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari mavjud. 2004-yil YIM miqdori 2500 mln dollarni (aholi jon boshiga — 11400 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Venesuela, Kanada.

**Tarixi.** XV asr oxirlarida orollarga dastlab ispanlar kelishadi. 1630—1640-yillarda orollar gollandlar tomonidan, keyinchalik ispanlar, ingлизлар, fransuzlar tomonidan istilo qilingan. 1816-yildan Niderlandiya mulkiga aylangan. 1954-yildan Niderlandiya qirolligining o'z-o'zini boshqaruvchi hududidir. Ilgari hudud tarkibiga Aruba oroli ham kirgan. Biroq 1986-yil 1-yanvardan Aruba oroli Niderlandiya qirolligi tarkibidagi alohida hududga aylangan.

## AOMIN

*Rasmiy nomi — Xitoyning ma'muriy markazi Aomin (Portugal Makaosi). Ma'muriy markazi — Aomin. Hududi — 15,51 km<sup>2</sup>. Aholisi — 400000 kishi (1992). Davlat tili — portugali. Dini —*

*buddistlar (45%), katoliklar (7%). Pul birligi – pataka.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Ushbu sobiq portugal mustamlakasi hozirgi kunda Xitoyning bir qismi hisoblanadi. Aomin yarimorolida joylashgan, janubi – Xitoy dengizi bilan o‘ralgan.

Iqlimi – subtropik.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat boshqaruvi – Portugaliya dengizorti avtonom hududi. Qonunchiligi Portugaliya fuqarolik huquqi tizimiga asoslangan. Milliy bayrami – 10 iyun – Portugaliya kuni. Davlat boshlig‘i – Portugaliya prezidenti hisoblanib, uning nomidan gubernator ish yuritadi. Ikkita asosiy siyosiy partiyasi mavjud: Aomin manfaatlari himoyasi Assotsiatsiyasi va Aomin demokratik markazi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining asosiy sohalari – turizm (bunga qimor biznesi ham kiradi), (YMM 25%) va pirotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish. 1991-yilda YMM 3,1 mlrd (aholi jon boshiga – 6900) dollarni tashkil qildi. Asosiy savdo hamkorlari: (Xitoy Aominni oziq-ovqat, chuchuk suv va elektroenergiya bilan ta’minlaydi), AQSH, Yaponiya va Gonkong.

Temiryo’llari yo‘q. Bitta avtomobil yo‘li va bitta ko‘prik bor. Porti – Makao.

**Tarixi.** Makao shahriga 1557-yilda asos solingan. 1987-yil shartnomasiga binoan Aomin (boshqa nomi – Makao) 1999-yil 20-dekabrda Portugaliya tasarrufidan Xitoya o‘tishi ko‘rsatilgan edi. Qo‘shma dekloratsiyada Xitoy Makaoning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini Makao uning yuridiksiyasiga o‘tgandan keyin 50 yil davomida o‘zgartirmaslik majburiyatini o‘z zimmasiga oldi.

## ARGENTINA

*Rasmiy nomi – Argentina Respublikasi. Poy-taxti – Buenos-Ayres. Hududi – 2778417 km<sup>2</sup>. Aholisi – 38740800 kishi (2003). Davlat tili – ispan. Dini – katolik. Pul birligi – pyeso.*

## ***Geografik joylashuvi va tabiat.*** Janubiy Amerikaning janubiy qismida joylashgan. Janubda va g'arbda Chili (chegara uzunligi — 5150 km), sharqda Braziliya (1224 km) va Urugvay (579 km), shimolda Boliviya (832 km) va Paragvay (1880 km) chegaradosh.

Sharq va janubda Atlantika okeani joylashgan. Urugvay va Buyuk Britaniya bilan hududiy kelishmovchiliklar mavjud. Chili va Argentina chegarasida And tog'lari mavjud. Janubiy Amerikaning eng baland cho'qqilari — Akonkagua tog'i (6959 m), Mersedario tog'i (6770 m). Tinch oqar daryo va o'simliklarga boy Gran-Chako tekisligi; Parana va Urugvay daryolari o'rtasidagi Argentina Mesopotamiyasi; Patagoniya cho'llari Argentinaning shimolidan janubigacha joylashgan. Yirik daryolari: Parana, Paragvay, Rio-Salado, Rio-Kolorado. Foydali qazilmalari — qo'rg'oshin, rux, qalay, mis, temir rudasi, neft, uran. Haydaladigan yerlar — 9%, o'tloq va yaylovlari — 52%, o'rmon va butazorlar hududning 22% ini egallagan.

Iqlimi — tropik, subtropik va mo'tadil. Mamlakat qarag'ay, kedr, evkalipt, palma kabi daraxtlarga boy. Argentina shimolida maymunlar, puma va yaguarlar, ot selot va tapirlar ko'p. Qushlardan — to'tiqush, flamingo va kolibri uchraydi. Sharqdagi pampaslarda tulkilar, yovvoysi mushuklar, kiyiklar ko'p.

### ***Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.*** Davlat tuzilishi — respublika. Ma'muriy-hududiy bo'linishi: 22 provinsiya, 1 milliy hudud va poytaxt federal okrugi. 1816-yil 9-iyulda Ispaniyadan mustaqil bo'lib ajrab chiqqan. Milliy bayramlari: 25-may — May inqilobi kuni (1810) va 9-iyul — Mustaqillik kuni. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Parlamenti ikki patali — yuqori (Milliy kongress) va quyi (Deputatlar palatasi). Nufuzli siyosiy partiyalari: Xustisialistlar partiyasi (XP), Fuqarolar radikal ittifoqi (FRI), Demokratik markaz ittifoqi (DMI), Konservativ partiya.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*** Sanoatning asosiy sohalari: oziq-ovqat, avtomobil, to'qimachilik, kimyo va neftkimyo, metallurgiya, matbuot. Qishloq xo'jaligi (bunga baliq ovi ham kiradi)

YMM 8% ini beradi. Yetishtiriladigan asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari — bug'doy, sorgo, soya, shakar-qamish. 2004-yil YIM miqdori 483500 mln dollarni (aholi jon boshiga — 12400 dol.) tashkil etgan. Argentina bug'doy va mol go'shti eksport qiluvchi dunyodagi 5 eng yirik davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatga mashina va asbob-uskunalar, ximikatlar, metall, yonilg'i va h.k. import qilinadi. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Braziliya, Germaniya, Boliviya, Yaponiya, Italiya.

Temiryo'llari uzunligi — 34572 km, avtomobil yo'llari — 208350. Dengiz portlari: Buenos-Ayres, La-Plata, Banya-Blanka.

**Tarixi.** Argentina ispaniyalik Dias de Solis tomonidan 1516-yilda kashf etilganda, bu yerda kam sonli hindu qabilalari yashashardi. 1536-yilda asos solingan Buenos-Ayres hududi Peru vitse-qirolligiga qo'shib olingan edi. Hozirgi kunda Argentina, Pargvay, Urugvay va Boliviya joylashgan hududda 1776-yili La-Plata vitse-qirolli tashkil topgan. 1810-yilda qo'z-g'olon ko'targan kreol aholisi vitse-qirolni taxtdan ag'darib La-Plata birlashgan provinsiyalar mustaqilligini e'lon qiladi. 1816-yilda ispan qo'shinlari uzil-kesil mag'lubiyatga uchraydilar. 1826-yilda La-Plata birlashgan provinsiyalari Argentina Federativ Respublikasi deb ataladi. XX asrda bir qator harbiy to'ntarishlar amalga oshirilib, oqibatda 1946—1955 va 1973—1974-yillarda Argentinada hukmronlik qilgan X. D. Peron keladi. 1982-yilda Malvin (Folkland) orollari masalasi bo'yicha harbiy to'qnashuvda Buyuk Britaniyadan mag'lubiyatga uchrangan Argentinada harbiy xunta ag'darilib, 1983-yildan hokimiyat tepasiga fuqarolik hukumati keladi.

## ARMANISTON

*Rasmiy nomi — Armaniston Respublikasi.  
Poytaxti — Yerevan. Hududi — 29800 km<sup>2</sup>.  
Aholisi — 3326400 kishi (2003). Davlat tili — arman. Dini — xristianlik. Pul birligi — dram.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** G'arbiy Osiyo (Kavkazorti)dagi davlat. Sharqda — Ozarbayjon (chegara uzunligi 566 km), g'arbda — Turkiya (268 km), janubda — Ozarbayjon (Naxichevan, 221 km) va Eron (35 km), shimolda Gruziya (164 km) bilan chegaradosh. Tog‘li Qorabog‘ muammosi bo‘yicha Ozarbayjon bilan jiddiy hududiy kelishmovchiliklar mavjud. Armaniston balandligi dengiz sathidan 1700 m bo‘lgan Arman yassitog‘ligida joylashgan tog‘li o‘lka. Eng yuqori nuqtasi — Ararat tog‘i (4090 m). Armanistonda yuzdan ortiq ko‘llar bor. Eng yirigi — maydoni 1200 km<sup>2</sup> bo‘lgan Sevan ko‘li. Yirik daryolari — Kaspiy dengiziga quyiladigan Araks va Kura. Mamlakat mineral buloqlari bilan mashhur. Uncha ko‘p bo‘limgan oltin, molibden, mis, rux zaxiralari bor. Ko‘p miqdorda qurilish toshlari mavjud. Haydaladigan yerlar hududning 17%, yaylov va o‘tloqlar 20% ini tashkil qiladi.

Iqlimi — quruq kontinental. Armanistonning tog‘-oldi hududlari o‘rmonlar, tog‘lar esa alp yaylovlardan iborat. Milliy qo‘riqxonalarda qo‘ngir ayiq, yovvoyi cho‘chqa, shoqol va boshqa hayvonlar uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — demokratik respublika. 1920-yil 29-noyabrda tuzilgan Armaniston Respublikasi 1922-yil 30-dekabrda SSSR tarkibiga kirgan. 1991-yili Armaniston mustaqilligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya imzolangan. Milliy bayrami — 28-may — Mustaqillik kuni. Davlat boshlig‘i — prezident. Bir palatali parlament — Oliy Kengash. Eng nufuzli siyosiy partiyalari: Arman umummilliy harakati, Liberal-demokratik partiya, Respublika partiyasi, Xristian-demokratik partiya, Dashnoqsutyun va h.k.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodning asosiy sohalari: rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, metallni qayta ishslash, yengil oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallarini ishlab chiqarish. Qishloq xo‘jaligida ishchi kuchining 31% i band. Sitrus mevalar, paxta yetishtiriladi; chorvachilik rivojlangan; mashhur konyak va vino turlari ishlab chiqiladi.

2004-yil YIM miqdori 13650 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4600 dol.) tashkil etgan. Eksportga mashinalar va transport uskunalarini, qora va rangli metall, kimyoviy o‘g‘itlar chiqariladi. Asosiy savdo hamkorlari — MDH davlatlari.

Temiryo‘llari uzunligi — 840 km, avtomobil yo‘llari — 11300 km.

**Tarixi.** Hozirgi Armaniston hududidagi dastlabki davlat tuzilmasi — Urartu (m. a. XIII asr). Mamlakat ko‘p yillar davomida ossuriyaliklar, VII asrda esa mahalliy aholi bilan aralashib arman millatiga asos solgan hind-yevropa qabilalari bosqiniga duchor bo‘lgan. Yangi davlat Ahamoniylar, Iskandar Zul-qarnayn, Rim imperiyasi hukmronligi ostida bo‘lgan. VII—XV asrlarda Armanistonga arablar, vizantiyaliklar, saljuqiy turklar, mo‘g‘ul-tatarlar hujum qilishgan. XVI—XVIII asrlarda mamlakatni Eron va Turkiya bo‘lib oladi, XIX asr boshlarida Armanistonning sharqiy qismi Rossiyaga qo‘sib olinadi. Armanlarning Turkiyaga qarshi milliy-ozodlik kurashining 1894—1896-yillari va 1915—1916-yillari bu millat ommaviy qirg‘in qilingan (2 million armani halok bo‘lgan).

## ARUBA

*Rasmiy nomi — Aruba. Poytaxti — Oranestad. Hududi — 193 km<sup>2</sup>. Aholisi — 71500 kishi (2005). Davlat tili — golland. Dini — katolik (82%). Pul birligi — Aruba florini.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Karib dengizining sharqiy qismida Kichik Antil orollarining birida joylashgan Vest-Indiyadagi davlat. O‘simlik dunyosi unchalik boy emas.

Iqlimi — subekvatorial.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsiyon monarxiya. Niderland Qirolligining sobiq avtonom qismi bo‘lgan Aruba 1966-yilda mustaqillikka erishgan. Qonunchiligi niderland fuqarolik huquqi tizimiga asoslangan. Milliy bayrami —

18-mart — Aruba bayrog‘i kuni. Davlat boshlig‘i — golland monarxi (uning nomidan gubernator ish yuritadi). Asosiy siyosiy partiyalari: Xalq saylov harakati va Aruba xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining muhim sektorlaridan biri — turizm. Offshor bank biznesi, neft tozalash va yuk saqlash ham rivojlangan. Qishloq xo‘jaligi aloe yetishtirish, uy hayvonlarini boqish va baliq ovlashdan iborat. 2004-yil YIM miqdori 2324 mln dollarni (aholi jon boshiga — 28000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — AQSH va YH davlatlari.

Temiryo‘llari yo‘q. Avtomobil yo‘llari uzunligi — 380 km. Dengiz portlari: Oranestad, Sent-Nikolas.

**Tarixi.** XV asrda ispanlar Antil orollarini kashf etganidan so‘ng Aruba dastlab Ispaniya, keyin Gollandiya mustamlakasiga aylanadi. 1986-yili orol muxtoriyat maqomiga, 1996-yildan esa mustaqillikka ega bo‘ldi.

## AFG‘ONISTON

*Rasmiy nomi — Afg‘on Islom davlati. Poytaxti — Qobul. Hududi — 652090 km<sup>2</sup>. Aholisi — 28717200 kishi (2003). Davlat tili — doriy (50%), pushtun (35% aholi so‘zlashadi). Dini — islom. Pul birligi — afg‘oni.*

**Geografik joylashuvi va tabiat** Osiyoning janubi g‘arbidagi davlat. Janubda — Pokiston (chegara uzunligi 2430 km), g‘arbda — Eron (936 km), shimolda — Tojikiston (1206 km), Turkmaniston (744 km) va O‘zbekiston (137 km), sharqda — Xitoy (76 km) bilan chegaradosh. Tog‘lar mamlakat hududining 75% ini egallaydi. Asosiy tog‘ tizimi — Hindikush — Afg‘onistonning shimoli sharqida joylashgan. Afg‘onistonning eng yuqori nuqtasi — Novshak tog‘i (7475 m). Shimoli va janubi g‘arbida Baqtriya, Registon, Dashti-Margo tekisliklari mavjud. Yirik daryolari — Amudaryo, Gilmend, Gerirud, Qobul. Foydali qazilmalari — tabiiy

gaz, neft, ko'mir, mis, oltingugurt, sink, temir rudasi, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar. Haydaladigan yerlar — 12%, yaylov va o'tloqlar — 46%, o'rmon va butazorlar — 3%.

Iqlimi — kontinental, subtropik. Mamlakatda cho'l va chala cho'l o'simliklari ko'p, 1800 m dan balandlikda ninabargli o'rmonlar, janubda esa xurmo va sitrus daraxtlari o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan tog' echkilari, bo'rilar, shoqollar, ayiqlar, ohular, tulkilar, yovvoyi mushuklar uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat boshlig'i — prezident. Davlat 30 viloyatga bo'lingan. Mustaqillikka 1919-yil 19-avgustda erishgan. Milliy bayramlari: 19-avgust — Mustaqillik kuni, 4-may — Xotira kuni. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — bir palatali parlament. Asosiy siyosiy partiyalari: Afg'oniston Islom jamiyat, Afg'oniston Islom partiyasi va h.k.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodi asosan qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan. 2004-yil YIM miqdori 21,5 mln dollarni (aholi jon boshiga — 800 dol.) tashkil etgan. Eksportga tabiiy gaz, meva va yong'oq, qo'lida to'qilgan gilamlar, movut, paxta, qorako'l chiqaziladi. Oziq-ovqat va neft mahsulotlari import qilinadi. Sanoati sust rivojlangan. Qishloq xo'jaligida natural xo'jalik hukmronlik qiladi.

Temiryo'llari uzunligi — 24,6 km; avtomobil yo'llari — 21000 km; asosan Amudaryodan o'tadigan suv yo'llari uzunligi 1200 km (500 tonnagacha bo'lgan kemalar suzishi mumkin).

**Tarixi.** Eron, Xitoy va Hindistonga boradigan yo'llarda joylashgan Afg'oniston Iskandar Zulqarnayn, hindlar, forsiylar, arablar, mo'g'ul-tatarlar, Bobur tomonidan zabt etilgan edi. 1747-yilda Ahmadshoh boshliq dastlabki afg'on davlati tuziladi. Durroniylar sulolasi 1818-yilgacha, aniqrog'i, Buyuk Britaniya Afg'onistonni o'z nazorati ostiga olgunga qadar hukmronlik qilgan. 1919-yilda hokimiyatni egallagan Omonulloxon Sovet Rossiyasi yordamida mustaqilligini e'lon qiladi. 1929—1973-yillarda hokimiyat Nodirshoh sulolasi qo'lida bo'lgan. 1978-yilgi navbatdagi harbiy

to‘ntarishdan so‘ng hokimiyat tepasiga kelgan Muhammad Taraqqiy Afg‘onistonni demokratik respublika deb e‘lon qiladi. 1979-yili hokimiyat tepasiga kelgan Babrak Karmalni qo‘llash uchun sovet qo‘sinchilarining «cheklangan kontingenti» mamlakatga kiritiladi. 1986-yilda uning o‘rniga Najibullo keladi. Afg‘on qurollangan muxolifatchilariga qarshi kurashda 15000 sovet askari halok bo‘lgan. 1989-yilda sovet qo‘sinchilari Afg‘onistondan chiqarilgandan keyin ham hukumat va mujohidlar o‘rtasidagi kurash davom etgan. Pokiston yordamida hokimiyat Tolibon islam harakati qo‘liga o‘tdi. 2001—2002-yillarda AQSH boshchiligidagi tolibonlarga qarshi olib borilgan antiterroristik harakat natijasida hokimiyat demokratik fuqarolar hukumati qo‘liga o‘tdi. Hozirgi kunda prezident etib Hamid Karzay saylangan.

## BAGAM OROLLARI

*Rasmiy nomi — Bagam orollari Hamdo‘stligi. Poytaxti — Nassau. Hududi — 13864 km<sup>2</sup>. Aholisi — 297500 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — katoliklar (26%), anglikanlar (21%), boshqa konfessiyalar (18%). Pul birligi — Bagam dollarasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Vest-Indiyada, 700 dan ortiq orollarda va ko‘plab (2500 ta atrofida) Florida qirg‘oqlaridan Kubaning sharqiy qirg‘oqlarigacha cho‘zilib ketgan marjonli qoyalarda joylashgan davlat. Yirik orollari: Nyu-Providens, Andros, Katta Bagama, Katta Abako, Kichik Abako, Berri va boshqalar. Bagam orollarining relyefi tekis bo‘lib, uncha baland bo‘lmagan tepaliklar dengiz sathidan 60 metrgacha balandlikda joylashgan.

Iqlimi — tropik, passat. Orollarda daryolar yo‘q, lekin dengiz bilan tutashib turadigan ko‘plab sho‘r ko‘llar bor. Orollar tabiiy resurslardan tuz, bo‘r, aroganitlarga boy. Orollar asosan savanna va to‘qaylar bilan qoplangan. Qarag‘ayli o‘rmonlar bor. Yirik orollardan

Andros va Katta Abakoda qimmatbaho daraxt turlari (qizil, sariq, temir) bor doimiy yashil tropik o'rmonlar saqlanib qolgan. Qirg'oq bo'ylarida kokos palmalari o'sadi. Bagam orollarining hayvonot dunyosi kambag'al, asosan qushlar ko'p, ko'rshapalak, kaltakesak, ilonlar uchraydi. Dengizda turli baliqlar, qisqichbaqa va mollyuskalar ko'p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Bagam orollari Buyuk Britaniya rahbarligidagi Hamdo'stlik tarkibiga kiradi. BMT va XVF a'zosi. Davlat boshlig'i — Britan monarxi, uning nomidan general-gubernator ish yuritadi. Hukumat boshlig'i — premyer-ministr. Qonun chiqaruvchi organi — Senat va Yig'ilish palatasidan iborat ikki palatali parlament. Asosiy siyosiy partiyalari — Taraqqiyot liberal partiyasi, Ozod milliy harakat.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Davlat iqtisodiyotining asosini chet el turizmi va bank offshori tashkil etadi. Mamlakat dunyoning ilg'or moliya markazlaridan biridir. Soliq imtiyozlari mavjudligi bois ko'plab kompaniyalar Bagam orollarida o'z banklarini ochishgan. Turizm industriyasidan tashqari sanoatning quyidagi sohalari rivojlangan: neftni qayta ishlash, farmatsevtika, sement, tuz ishlab chiqarish va rom tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligida shakarqamish, pomidor, ananas, sitruslar yetishtiriladi, baliq ovlash va dengiz mahsulotlarini qayta ishlash rivojlangan. Yog'och tayyorlanadi. Eksporti: neft mahsulotlari, kimyo-sanoat mahsulotlari, tuz, baliq, rom. Importi: mashina va transport uskunalarli, benzin va neft mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari. 2004-yil YIM miqdori — 5295 mln dollarni (aholi jon boshiga — 17700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Daniya.

Temiryo'llari yo'q, mamlakat iqtisodida undagi ko'plab avtomobil yo'llarining ahamiyati katta.

**Tarixi.** Qadimda mamlakat hududiga dastlab hindular kelib joylashgan. Orollar 1492-yilda X. Kolumb tomonidan kashf qilingan. Oldin Ispaniya koloniyasi, 1783-yildan esa Buyuk Britaniya koloniyasi-

ga aylantirilgan. 1964-yili mamlakatga o‘z-o‘zini boshqarish huquqi berildi. 1973-yili Bagam orollari mustaqil davlatga aylandi, lekin Britan Hamdo‘stligi tarkibida qoldi.

## BANGLADESH

*Rasmiy nomi — Bangladesh Xalq Respublikasi. Poytaxti — Dakka. Hududi — 143998 m<sup>2</sup>. Aholisi — 138448200 kishi (2003). Davlat tili — bengal, ingliz. Dini — islom. Pul birligi — taka.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Osiyo janubida joylashgan davlat. Janubi sharqda Myanma, g‘arbda, shimolda va sharqda Hindiston bilan chegaradosh. Bengal ko‘rfazi mamlakatning janubini yuvib turadi. Bangladesh — tekisliklardan iborat mamlakat. Uni ko‘p sonli daryolar kesib o‘tadi. Ulardan eng yiriklari — Gang va Braxmaputra. Mamlakat maydonining 1/10 Chittagong tepaliklari egallagan. Baland tog‘i — Modok-Mual (1003 m).

Iqlimi — subekvatorial, mussonli. Hududning 14% ini tropik o‘rmonlar egallagan, palma va mangr daraxtlari keng tarqalgan. Hayvonot dunyosi boy. Bu yerda maymun, lemur, bengal yo‘lbarsi va ayiq, chiyabo‘ri, yo‘l-yo‘l sirtlon, to‘ngiz, fil, timsoh kabi jonivorlarni uchratish mumkin. Qushlarning 700 dan ziyod turi va ilonlar keng tarqalgan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Bangladesh Buyuk Britaniya boshqarayotgan Millatlar Hamdo‘stligi tarkibiga kiruvchi parlamentar respublika. Davlat boshlig‘i — parlament tomonidan 5 yil muddatga saylanadigan prezident. Hukumat boshlig‘i — premyer-ministr. Bangladesh 19 okrug tarkibiga kiruvchi 4 viloyatga bo‘lingan. Asosiy portlari: Kxulna, Chittagong. Siyosiy partiyalari: Bangladesh Milliy partiyasi, Xalq ligasi, Milliy partiya, Bangladesh millatchilar partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Bangladesh — agrar mamlakat. Tamaki, choy, shakar-qamish yetishtiriladi. Asosiy madaniy o‘simliklar: gu-

ruch, bug'doy, dukkaklilar. Sanoat tarmoqlarida to'qimachilik, qog'oz, shakar, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Metallga ishlov berish, metallurgiya, sement, neftni qayta ishlash zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bulardan tashqari kemasozlik, oziq-ovqat, avto va radio yig'ish korxonalari ham mavjud. 2004-yil YIM miqdori — 275700 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Singapur.

**Tarixi.** Bengal qabilalari Quyi Gang vodiysiga m. a. 1000-yilda kirib kela boshladilar. Keyinchalik Vanga davlati tashkil topdi. XVI asrda Bangladesh islomni tarqatgan Buyuk Mo'g'ullar hukmronligi ostida qoladi. 1757-yilda mamlakat ingliz mustamlakachilari hukmronligiga itoat etishga majbur bo'ldi. 1947-yilda Sharqiy Bengaliya hududlari Pokistonga qo'shib yuborildi. «Bengallar yeri» (Bangladesh) 1971-yilda mustaqil Xalq respublikasi deb e'lon qilindi. 1975-yilda harbiy holat tartibi e'lon qilinadi. 1978—1979-yillarda fuqarolik boshqaruvi tiklanadi. 1982-yilda harbiy to'ntarish oqibatida mamlakatda harbiy tuzum o'rnatildi. 1996-yilda mamlakat hokimiysi betaraf hukumatga topshirildi.

## BARBADOS

*Rasmiy nomi — Barbados. Poytaxti — Brijtaun. Hududi — 431 km<sup>2</sup>. Aholisi — 297200 kishi (2005). Davlat tilii — ingliz. Dini — protestantlar (67%), katoliklar (4%). Pul birligi — Barbados dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Barbados Karib dengizining sharqidagi shu nomli orolda joylashgan davlat. Orol relyefi tekisliklardan iborat. Orol yuzasi qirg'oqdan markazga qarab terassa shaklida ko'tarilgan. Dengiz sathidan 340 m balandlikda joylashgan (Xilabi — Barbadosning eng yuqori cho'qqisi).

Iqlimi — tropik, passatli. Yog'ingarchilik va to'fonlar tez-tez bo'lib turadi. Tabiiy zaxiralari: neft, tabiiy gaz, baliq. Tropik o'simliklar bilan qoplangan.

Hayvonot olami kambag‘al: maymunlar, qurbaqa, quyon, mangust, bir necha qush turlari uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Barbados Buyuk Britaniya Hamdo‘stligi tarkibiga kiradi. BMT, XVF, ADT a’zosidir. Davlat rahbari — Buyuk Britaniya monarxi nomidan ish yurituvchi general-gubernator. Hukumat rahbari — Bosh vazir. Qonun chiqaruvchi organ — ikki palatali parlament (Senat va Umum-palata). Hududiy jihatdan 11 ta ma’muriy tumanga bo‘lingan. Asosiy siyosiy partiyalari: Milliy demokratik partiya, Demokratik leyboristlar partiyasi, Barbados leyboristlari partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining asosini shakar ishlab chiqarishi va chet el turizmi tashkil etadi. Turizm industriyasi Karib dengizi havzasidagi aholining yuqori turmush darajasini ta’minlab bermoqda. Yengil, oziq-ovqat, tabiiy gaz va neft qazib olish sanoati rivojlanmoqda. Baliq ovlash rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 16400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 11400 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Karib dengizi havzasi davlatlari.

Iqtisodiyot uchun avtomobil yo‘llari katta ahamiyatga ega. Temiryo‘llari yo‘q. Asosiy porti — Brijtaun.

**Tarixi.** Qadimda orolda aravak va karib qabilalari yashagan. Orol 1536-yili portugaliyalik Pedro Kamposh tomonidan kashf qilindi. 1625-yildan Barbados Britaniya mustamlakasiga aylandi. Afrikadan keltirilgan qullar hisobiga tamaki va shakar ishlab chiqarish sanoati vujudga keldi. 1834-yilda qullik bekor qilingan. 1961-yili orol o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga ega bo‘ldi. 1966-yili Buyuk Britaniyadan to‘liq mustaqillikka erishi, lekin Britaniya Hamdo‘stligi tarkibida qoldi.

## BAHRAYN

*Rasmiy nomi — Bahrayn. Poytaxti — Manama. Hududi — 695,15 km<sup>2</sup>. Aholisi 688300 kishi (2005 yil). Davlat tili — arab. Dini — islom. Pul birligi — Bahrayn dinori.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Yaqin Sharqda joylashgan davlat. Fors ko'rfazining shimoliy-g'arbiy qismida Saudiya Arabistonı va qator davlatlar qirg'oqlari bilan chegaradosh. 33 ta oroldan iborat. Ularning orasida eng yirigi Arabiston yarimoroli bilan uzunligi 25 km gacha yaqin bo'yin vositasida bog'-langan Bahrayn orolidir. Bahrayn orolining uzunligi 25 km, eni — 16 km ni tashkil etadi. Orollar materik va marjonli kelib chiqishga ega. Tuproq qatlamida ohak-tosh keng tarqalgan. Hududning katta qismini chala-cho'llar egallagan. Arxipelagning yuqori nuqtasi Jabal-ad-Duxan (134 m). Ba'zi orollar Bahrayn va Muharrar bilan to'g'onlar (damba) vositasida bog'langan.

Iqlimi — tropikdan subtropikka o'tuvchi. Oazislarda finik palmalari o'sadi. Hududning katta qismi tropik cho'llardan iborat. Ilonlar, chayonlar, kemiruvchi va shoqollar keng tarqalgan.

### **Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.**

Davlat tuzilishi — monarxiya. Davlat boshlig'i — Amir Shayx. Hukumat boshlig'i — premyer-ministr Shayx. Siyosiy partiyalari yo'q. Siyosiy tashkilotlari: Bahrayn xalq fronti, Bahrayn milliy ozodlik fronti.

### **Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.**

Mamlakat iqtisodining asosini neft qazib olish va uni qayta ishlash tashkil etadi. Kema ta'mirlash, sement va boshqa korxonalar bilan bir qatorda hunarmandchilik ham taraqqiy etgan. Kimyo sanoati ham rivojlangan, alyumin eritiladi. Madaniy o'simliklardan makkajo'xori, bug'doy, arpa yetishtiriladi. Echki, qo'y, eshak va zebusimon sigirlar boqiladi. 2004-yil YIM miqdori 13010 mln dollarni (aholi jon boshiga — 19200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistonı, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH, Avstraliya.

**Tarixi.** M. a. 3 ming yillikda zamonaviy Bahrayn kuchli savdo imperiyasi hisoblangan Dilmunning markazi bo'lgan. M. a. 1600-yillarda Dilmun inqirozga yuz tutadi. Bahrayn m. a. 600-yilda Bobil tarkibiga, IV—VI asrlarida Sosoniylar davlati tarkibiga kiradi. VIII asrda esa Bahrayn arab xalifaligi hukmronligi ostida

qoldi. IX—X asrlarda Bahrayn Ummaviylar imperiyasi, keyinchalik Abbosiylar davlati tarkibida bo'ldi. XIII asrda Bahrayn ma'lum muddatga mustaqillikni qo'liga kiritdi. 1487-yilda Bahrayn va Mohara orollari Ummonlik qabilalari tomonidan bosib olindi. 1536-yildan 1602-yilgacha orollarni portugallar nazorat qilishdi. XVIII asr o'rtalarida Bahraynda uni hozirgi kunda ham idora etayotgan Al-Xalifa urug'i vujudga keldi. XIX asrda Bahrayn inglizlar nazorati ostida edi. 1971-yil 14-avgustda Bahrayn mustaqillikka erishdi.

## BELIZ

*Rasmiy nomi — Beliz. Poytaxti — Belmopan. Hududi — 22963 km<sup>2</sup>. Aholisi — 266400 kishi (2003). Tili — ingliz. Dini — katoliklar (60%), protestantlar (35%). Pul birligi — Beliz dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Beliz Markaziy Amerikaning shimoli sharqida joylashgan davlat. Shimoli g'arbda — Meksika, g'arbda va janubda Gvatemala bilan chegaradosh. Sharqda Karib dengizi bilan tutash. Beliz hududining katta qismini zaxkash pasttekisliklar egallagan, janubi g'arbida Mayya tog'lari joylashgan. Eng yuqori nuqtasi — Viktoriya cho'qqisi (1122 m).

Iqlimi — passatli, tropik. Asosiy daryolari — Beliz, Rio-Onda. Tabiiy resurslardan faqat yog'och va baliqni ko'rsatish mumkin. Tog'lar va tepaliklar tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Cho'l-biyobonlar ham uchraydi. Hayvonot dunyosi turli xil yaguar, bug'u, tapirlar, qush-larning ko'p miqdordagi turlaridan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Beliz davlati Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik tarkibiga kiradi. Davlat boshlig'i — Britaniya monarxi. Hukumat boshlig'i — premyer-ministr. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali (Senat va Vakillar palatasi) Milliy Kengash. Davlat hududiy jihatdan 6 ta ma'muriy okrugga bo'linadi. Yirik partiyalari: Xalq boshlig'i partiyasi, Birlashgan demokratik partiya.

### **Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.**

Beliz — agrar davlat. Asosiy qishloq xo‘jalik mahsuloti — shakarqamish. Sitrus mevalar va banan yetishtiriladi. Sanoat tarmoqlaridan yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Savdo, chet el turizmi va qurilish rivojlanmoqda. Eksporti: shakar, sitrus mevalar, banan, dengiz mahsulotlari, kiyim va undan tayyorlangan mahsulotlar. Importi: mashina va transport jihozlari, mineral yoqilg‘i, kimyoviy sanoat mahsulotlari, farmatsevtik mollar, tikuvchilik mahsulotlari. 2004-yil YIM miqdori 1885 mln dollarni (aholi jon boshiga — 6500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Meksika.

**Tarixi.** Hozirgi Beliz hududlarida IV asrdan X asrgacha Mayya sivilizatsiyasi hukmronlik qilgan. XVI asrda Beliz ispanlar tomonidan bosib olingan va ispan mustamlakasi deb e’lon qilingan. Keyinroq XVII asrda bu yerga inglizlar keldi va bu yerda birinchi ingliz mustamlakasiga asos solindi. Ular o‘rmonlarni kesish bilan faol shug‘ullandilar va yangi yerlar ocha boshladilar. Plantatsiyalarda va qimmatbaho yog‘och tayyorlashda inglizlar negr qullar mehnatidan foydalandilar. Ispanlar quvib chiqarildi. 1862-yilda bu hudud Britan Gondurasi nomi bilan Britaniya mustamlakasi deb e’lon qilindi. 1964-yilda Beliz to‘la ichki o‘z-o‘zini boshqarish huquqini oldi. Beliz 1981-yilgacha Amerika qit’asidagi Britaniyaning oxirgi mustamlakasi bo‘ldi. 1981-yil sentabrda davlat mustaqil deb e’lon qilindi.

## **BELORUSSIYA**

*Rasmiy nomi — Belarus Respublikasi. Poytaxti — Minsk. Hududi — 207600 km<sup>2</sup>. Aholisi — 10322200 kishi (2003). Rasmiy tili — belorus va rus. Dini — pravoslav (80%), katolik (15%). Pul birligi — Belorus rubli.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Sharqiy Yevropada joylashgan davlat. Shimoli g‘arbda Litva va

Latviya, sharqda — Rossiya, janubda Ukraina, g'arbda Polsha davlatlari bilan chegaradosh.

Mamlakat hududi asosan tekisliklardan iborat. Tepaliklar kam uchraydi, ulardan Minsk tepaligi (345 m) alohida ajralib turadi. Iqlimi mamlakatning deyarli hamma joyida bir xil. Asosiy daryolari — Dnepr, Pripyat, Berezina, G'arbiy Dvina, Neman, Soj. Mamlakatda Naroch, Osvey, Svityaz kabi yirik ko'llar bor. Tabiiy qazilma boyliklari: kaliyli va toshli tuzlar, ko'mir, neft, temir rudasi, torf. Belorusda keng bargli o'rmonlar keng tarqalgan bo'lib, ular mamlakat hudu-dining 1/3 qismini egallagan. Belorus o'rmonlarida 28 turdag'i daraxtlar (ulardan eng ko'p tarqalganlari — qarag'ay, archa, qayin, eman va shumtol), 70 turdan ortiq butazor va yarimbutazorlar uchraydi. Mamlakat hududida juda ko'p dorivor o'simliklar — archagul, itburun, zira, landishlar o'sadi. Belorus hayvonot dunyosi 50 turdan ortiq hayvonlar (los, cho'chqa, bo'ri va boshq.), 200 turdan ortiq qushlardan iborat. Shuningdek, Belovej Pushasi deb ataladigan milliy qo'riqxonada zubrlar va kam uchraydigan botqoq tosh-baqasi ham bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Davlat boshlig'i — prezident. Hukumat boshlig'i — premyer-ministr. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Respublika Kengashi va Vakillar Palatasidan iborat parlament — Milliy yig'inga tegishli. Mamlakat 6 ta: Brest, Gomel, Grodno, Minsk, Mogilyov va Vitebsk viloyatlariga bo'lingan. Yirik siyosiy partiyalari: Belorus birlashgan demokratik partiyasi, Belorus sotsial-demokratik partiyasi, Belorus xalq fronti, Belorus kommunistik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sanoatning asosiy tarmoqlari: avtomobilsozlik va traktor mashinasozligi, radioelektronika, yengil, kimyo, usku-nasozlik, oziq-ovqat, harbiy texnika ishlab chiqarish. Qishloq xo'jaligi asosan donli ekinlar, kartoshka, sabzavotlar yetishtirishga hamda go'sht va sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Eksporti: mashinasozlik mahsulotlari, kimyo va oziq-ovqat mahsulotlari. Importi:

sanoat va oziq-ovqat xomashyosi. 2004-yil YIM miqdori 70500 mln dollarni (aholi jon boshiga — 6800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Ukraina, Polsha, Germaniya, Litva.

**Tarixi.** VII asrdan boshlab hozirgi Belorus hududlarida slavyan qabilalaridan — dregovichlar, radimichlar, krivichlar istiqomat qilganlar. IX asrda Belorus yerlari Kiyev Rusi tarkibiga kirdi. Dastlabki shaharlar — Minsk (1087), Vitebsk, Pinsk, Brest XI asrda paydo bo‘ldi. XII asrda feodal tarqoqlik boshlangan bir vaqtida bir qator mayda knyazliklar: Polotsk, Turovo-Pinsk, Grodno, Minsk va boshqalar vujudga keldi. XIV asrda butun Belorus yerlari Litva Buyuk Knyazligi tarkibiga kirdi. 1569-yili Polyak—Litva davlatlarining birlashushi oqibatida Rech Pospolita davlati tashkil topdi, Belorus ham o‘z-o‘zidan bu davlat tarkibiga kirdi. XVII asrdan bu hududlar Oq (Belaya) Rus deb atala boshladi va 1795-yili Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘sib olindi. I jahon urushi vaqtida mamlakat deyarli to‘liq nemis qo‘sinchilari tomonidan okkupatsiya qilindi. 1918-yili Belorussiya Xalq Respublikasi e’lon qilindi, biroq tez orada bolsheviklar uni yo‘q qilishdi. 1919-yili Sovet Belorussiyasi tuzildi. Polsha 1920-yili vaqtincha Belorussiya hududlarini bosib oldi va 1921-yilgi sovet-polyak «Riga tinchlik sulhi»ga ko‘ra unga G‘arbiy Belorussiya hududlari o’tdi. 1922-yil 30-dekabrda SSSR tashkil topdi va Belorussiya SSRning tarkibiga kirdi. 1939-yil SSSR va Germaniya o‘rtasidagi separat kelishuvlar natijasida G‘arbiy Belorussiya respublika tarkibiga qaytarildi. Ikkinci jahon urushida 1941—1944-yillarda Belorus yerlari nemis bosqinchilariga qarshi jang maydoniga aylandi. Urushda mamlakatning 2,5 mln aholisi qirib tashlandi, yirik shaharlar — Minsk, Brest, Vitebsk, Mogilyov vayron qilindi, 9 mingdan ortiq qishloqlar yondirib yuborildi. Urush vaqtida mamlakat hududida 1100 ta partizan otryadlari (375000 jangchi) harakat qildi. 1941-yilning yozida Belorussiya sovet qo‘sinchilari tomonidan ozod qilindi. 1945-yili Belorussiya SSSR tarkibida hozirgi hududlariga ega bo‘ldi. SSSRning parchalanishi oqibatida 1991-yilning

25-avgustida mustaqil davlat — Belorussiya e'lon qildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Belorussiya jiddiy iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Natijada aholining turmush darajasi sezilarli darajada pasaydi. Shuningdek, mamlakat prezidenti A. Lukashenko tutgan avtoritar siyosat nafaqat mamlakat ichida, balki jahonda ham norozilik kayfiyatini uyg'otmoqda. Shunga qaramasdan, hozirgi kunda Belorusda iqtisodiy va siyosiy ahvol barqarorlashib bormoqda.

## BELGIYA

*Rasmiy nomi — Belgiya Qirolligi. Poytaxti — Bryussel. Hududi — 30500 km<sup>2</sup>. Aholisi — 10289100 kishi (2003). Davlat tili — flamand, fransuz, nemis. Dini — katolik. Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Yevropaning shimoli g'arbida joylashgan davlat. Belgiya shimolda — Niderlandiya, sharqda — Germaniya, janubi sharqda — Lyuksemburg, janub va janubi g'arbda Fransiya bilan chegaradosh. G'arbiy qirg'oqlari Shimoliy dengiz bilan tutashgan. Belgiyani uch geografik hududga bo'lish mumkin, bular: sohilbo'yи tekisligi, markaziy yassitog' va Ardenn tepaliklari. Sohilbo'yи tekisliklari mamlakatning shimoli g'arbida joylashgan bo'lib, qumli tepaliklar va to'g'onlar vositasida dengizdan ajratib olingan yer maydonlaridan iborat. Markaziy yassitog'liklar past tepaliklardan iborat unumdar joylardir. Ardenn tepaligi mamlakatning janubi sharqida joylashgan bo'lib, o'rtacha balandligi 460 m ni tashkil etadi. Belgiyaning eng yuqori nuqtasi — Ardenndagi Botranj tog'i (694 m).

Iqlimi — mo'tadil. Mamlakatning asosiy daryolari — Shelda va Maas. Foydali qazilmalardan ko'mir, tabiiy gaz mavjud. Keng bargli o'rmonlarda eman, buk, grab kabi daraxtlar o'sadi. Qo'riqxonalar va tabiat parklari ko'p. Hayvonlardan qobon, quyon, o'rmon sichqonlari, olmaxon, ohularni uchratish mumkin. Valdshnep, tustovuq, o'rdak, kaklik kabi qushlar mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitusion monarxiya. Ijro etuvchi hokimiyat monarch va Vazirlar Mahkamasi boshlig'i — premyer-ministriga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament (yuqori palata — Senat va Vakillar palatasi)dan iborat. Mamlakat 9 provinsiyadan tashkil topgan, bular: Antverpen, Brabant, Sharqiy Flandriya, G'arbiy Flandriya, Lyej, Limburg, Lyuksemburg, Namyur, Eno. Siyosiy partiyalari: Sotsialistik partiya, Sotsial-xristianlar partiyasi, Flamand liberallari va demokratlari partiyasi, Belgiya komunistlari ittifoqi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Asosiy sanoat tarmoqlari — oziq-ovqat, kimyo, metalluriya, metallni qayta ishlash, mashinasozlik, to'qimachilik, oyna ishlab chiqarish (oyna va toshoyna eksporti bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi). Qishloq xo'jaligida qandlavlagi, meva va sabzavotlar, bug'doy yetishtiriladi. Chorvachilik ham rivojlangan. Belgiya Yevropada yirik sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchilaridan biridir. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, AQSH.

2004-yil YIM miqdori — 316200 mln dollarni (aholi jon boshiga — 27178 dol.) tashkil etgan. Asosiy portlari: Antverpen, Bryugge, Gent, Ostends va Zebryugge.

**Tarixi.** Mamlakat hududida qadimda belg qabilalari istiqomat qilishgan. M. a. 57-yilda Belgiya Sezar tomonidan bosib olindi va Rim imperiyasi takibiga qo'shildi. O'rta asrlarda Belgiya hududlari (Braband gersogligi, Flandriya, Lyuksemburg grafliklari) tarixiy Niderlandiya tarkibiga kirgan. XVI asrdagi Niderlandiya burjua inqilobi Belgiya hududida mag'lubiyat bilan yakunlandi. Ispan merosi uchun olib borilgan urushlar oqibatida Belgiya Avstriya Gabsburglari hukmronligi ostiga o'tdi. 1813—1830-yillarda mamlakat Niderlandiya qirolligi tarkibida bo'ldi. 1830-yildagi Belgiya inqilobi mustaqil Belgiya qirolligining e'lon qilinishiga olib keldi. Tez orada uning umrbod betarafligi e'lon qilindi. 1908-yilda Belgiya mustamlaka mulk — Belgiya

Kongosiga, 1922-yilda esa Ruanda-Urundu mandatiga ega bo'ldi. I va II jahon urushlari davrida Belgiya hududlari nemis qo'shnirlari tomonidan ishg'ol qilingan. 1960-yilda Belgiya Kongoga, 1962-yili esa Ruanda-Urunduga mustaqillik berdi. 1949-yildan buyon Belgiya NATO a'zosi. Bryusselda Yevropadagi qo'shma qurolli kuchlar Bosh qo'mondonligi va NATO kengashi shtab-kwartiralari joylashgan. 1958-yilda Belgiya Niderlandiya va Lyuksemburg bilan bojxona ittifoqchilik shartnomalarini imzolaydi. XX asrning 60—70-yillarda Belgiyadagi flamandlar va vallonlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashuvi oqibatida vaziyat birmuncha murakkablashdi. 1993-yilda ushbu mojarro konstitutsiyaga o'zgartirish kiritilishiga olib keldi va unga ko'ra Belgiya federativ davlat bo'lib, Flandriya va Valloniya o'z hukumatlariga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritishdi.

## BENIN

*Rasmiy nomi — Benin Respublikasi. Poytaxti — Porto-Novo. Hududi — 112622 km<sup>2</sup>. Aholisi — 7041500 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — majusiylar (70%), xristianlar (15%), musulmonlar (15%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** G'arbiy Afrikada joylashgan davlat. Shimolda — Burkina-Faso, Niger, sharqda — Nigeriya, g'arbda Togo davlati bilan chegaradosh. Janubda sohillari Gvineya ko'rfazi bilan tutashgan. Mamlakat yuzasi janubda pastlikdan, shimolda yassitog'likdan, shimoli g'arbda Atakora tog'laridan iborat. Asosiy daryosi — Veme.

Iqlimi — ekvatorial va subekvatorial. Mamlakatda marmar va neft zaxiralari mavjud. Hududning katta qismi savannalar, janubda daryo bo'yalarida nam tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Hayvonlardan fil, antilopa, qo'tos, maymun, timsohlar mavjud. Qushlar ham ko'p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Benin 6 ta viloyatga bo'lingan. Siyosiy

partiyalari: Benin Tiklanishi, Demokratik yangilanish partiyasi, Alafiya — yangilanish va rivojlanish uchun harakatlar Fronti.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Benin — agrar mamlakat. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat, to‘qimachilik korxonalarini faoliyat ko‘rsatmoqda. Chorvachilik rivojlangan. Paxta, yeryong‘oq, qahva yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 8338 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Marokash, Fransiya, Portugaliya, AQSH, Xitoy, Gana, Italiya, Gollandiya, Nigeriya, Kot-d‘Ivuar.

Asosiy porti: Kotonu.

***Tarixi.*** XV asrda Beninning qirg‘oq hududlariga yevropaliklar kirib keldi va uni qul savdosining yirik tumanlaridan biriga aylantirdi. Benin hududida vujudga kelgan Dagomeya davlati to‘grisidagi birinchi ma‘lumotlar XVII asrga oiddir. 1890-yillarning boshida Dagomeya fransuz istilochilari tomonidan bosib olindi. XIX asrning oxirlarida Benin hududi ingliz mustamlakachilari tomonidan bosib olinib, keyinchalik Nigeriya mustamlakasi tarkibiga qo‘shib yuborildi. Dagomeya 1904-yilda fransuz mustamlakasi bo‘lib qoldi va hozirgi kungacha Fransiya mamlakatining asosiy savdo hamkori bo‘lib qolmoqda. 1960-yilning 1-avgustidan Benin Dagomeya Respublikasi nomi ostidagi mustaqil davlatdir. 1960—1972-yillarda mamlakatda 10 ta hukumat almashib, 5 ta harbiy to‘ntarish bo‘lib o‘tdi. 1972-yilda hokimiyat tepasiga Harbiy-inqilobiy hukumat keldi. 1990-yil martidan mamlakat Benin respublikasi deb atala boshlandi. 1990-yil dekabrida yangi konstitutsiya qabul qilindi.

## **BERMUD OROLLARI**

*Rasmiy nomi — Bermud orollari (Buyuk Britaniya mulki). Poytaxti — Gamilton. Hududi — 58,8 km<sup>2</sup>. Aholisi — 65 300 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik. Pul birligi — Bermud dollarasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Orollar Atlantika okeanining shimoli g'arbiy qismida joylashgan, 360 ta atrofidagi orollar va qoyalardan iborat, ulardan 20 tasida odam yashamaydi. 10 ta orol o'zaro ko'priklar bilan birlashib asosiy orol — Meyn-Aylendni tashkil etadi. Orollar tekisliklardan iborat.

Iqlimi — tropik, issiq. Tabiiy o'simliklari saqlanib qolmagan. Qayta ekiladigan tropik o'simliklar va daraxtlar bor. Mayda kemiruvchilar ko'p. Qushlarning bir qancha turlari (to'tiqush, dengiz qushlari), hasharotlar bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — Buyuk Britaniya mulki. Davlat boshlig'i — Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadigan, tashqi siyosat, mudofaa, politsiya, ichki xavfsizlik massalalari bilan shug'ullanadigan gubernator. Ma'muriy-hududiy jihatdan 9 okrug va 2 munitsipalitetga bo'linadi. Siyosiy partiyalari: Birlashgan Bermud partiyasi, Leyboristik taraqqiyot partiyasi, Milliy liberal partiya.

**Iqtisodi va transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining asosini chet el turizmi tashkil etadi. Bermud orollari muhim moliyaviy markazdir. Orollarda 6 mingdan ortiq chet el kompaniyalari ro'yxatga olingan. Bermud orollari ro'yxatga olingan chet el kemalarining hajmi jihatidan 5-o'rinni egallaydi. Kemalarni ta'mirlash, qayiqlar yasash, farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarish, qurilish materiallari korxonalari faoliyat yuritadi. Kartoshka, karam, pomidor, banan, gullar yetishtiriladi. Bاليqchilik rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 2498 mln dollarni (aholi jon boshiga — 36000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Venesuela.

**Tarixi.** Orollar 1522-yilda ispan dengiz sayyohi X. Bermudes tomonidan kashf etilgan. 1609-yilda orollarga inglizlar kelib joylasha boshladi. 1684-yilda bu hududlar Angliya mustamlakasiga aylandi. 1968-yilda orollarga ichki o'z-o'zini boshqarish huquqi berildi. 1989-yilda Britaniya hukumati Bermud orollariga mustaqillik berish talabini rad etdi. 1995-yil avgust oyida o'tkazilgan referendumda aholining ko'pchilik

qismi qaram hudud maqomini saqlab qolish uchun ovoz berdi.

## BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKHLARI

*Rasmiy nomi — Birlashgan Arab Amirliklari.*

*Poytaxti — Abu-Dabi. Hududi — 83657 km<sup>2</sup>.*

*Aholisi — 2484800 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — islom. Pul birligi — dirham.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Arabiston yarimorolida joylashgan, yetti arab davlatidan iborat federatsiya. Janub va g'arbda Saudiya Arabistoni (chegara uzunligi — 457 km), shimolda — Ummon (410 km), shimoli g'arbda esa Qatar bilan chegaradosh. Shimolda Fors ko'rfazi, sharqda Ummon ko'rfazi bilan tutashib ketgan. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 1318 km. Mamlakat landshaftida tekisliklar ustunlik qiladi. Unumsiz qirg'oq tekisliklari qumli barxanlarga aylanib boradi. Mamlakat ichkarisidagi yirik maydonlar cho'llar va sho'rxok yerlardan iborat. Sharqda Hojar tog' cho'qqilari joylashgan (balandligi 1127 km). BAA uchun cho'l o'simliklari dunyosi xosdir: yantoq va cho'l iqlimiga chidamli o'tlar. Mamlakatning sug'oriladigan maydonlarida yovvoyi va xo'jalik mevali daraxtlari — xurmo, akatsiya o'stiriladi. Hayvonot dunyosi — kiyik, quyon hamda ilon va kaltakesaklarning har xil turlari uchraydi. Fors va Ummon ko'rfazi suvlari baliqqa boy.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Markaziy hokimiyyati maxsus vakolatlarga ega bo'lgan amirliklar federatsiyasi. Federatsiyaga yetti arab amirliklari: Abu-Dabi, Ajiman, Dubay, Ras-al-Xayma, Umm-al-Kavayn, Sharja hamda Al-Fujayra kiradi. BAA 1971-yil 2-dekabrda mustaqillikga erishdi. Mustaqillikka qadar u Buyuk Britaniya protektorati (qaram davlati) hisoblanib, uning oldingi nomi Shartnomaviy Ummon bo'lgan. Buyuk Britaniya BAAga mustaqillik bergen kun (1971-yil 2-dekabr) milliy bayram — Federatsiyaning tashkil topgan kuni sifatida nishonlanadi. Ijro etuvchi hokimiyat Prezidentga hamda hukmdorlarning Oliy

Kengashiga tegishlidir. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni bir palatali Federal Milliy Kengash amalga oshiradi. Siyosiy partiyalar mavjud emas.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Mamlakat iqtisodi neft va gaz eksportiga asoslangan. 1973-yilda dunyoda neft xarid narxining keskin ko‘tarilishi mamlakatdagi iqtisodiy ahvolning vaqtinchalik o‘zgarishiga olib keldi. Qishloq xo‘jaligida mehnatga layoqatli aholining 5% i band bo‘lib, yetishtiriladigan mahsulotlar quyidagilar — xurmo, sabzavotlar, tarvuz, parranda, sut mahsulotlari va baliq. Mamlakat o‘z ichki oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining chorak qisminigina ta’minlaydi. 2004-yil YIM miqdori 63670 mln dollarni (aholi jon boshiga — 25200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya.

Avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 2000 km (asfalt yotqizilgan yo‘llar — 1800 km). Mamlakatning asosiy portlari: Abu-Dabi, Dubay, Sharja, Al-Fujayra.

***Tarixi.*** XIX asr oxirlarigacha BAA Ummon tarkibida bo‘lgan. 1892-yilda Arabiston yarimorolining sharqiy qismida joylashgan Arab davlatlari federatsiyasi Fors ko‘rfazidagi dengiz qaroqchilariga qarshi kurashish maqsadida Buyuk Britaniya bilan kelishuv imzoladi. 1971-yil, ya’ni BAA davlat mustaqilligi e’lon qilingunga qadar u Buyuk Britaniya protektorati edi.

## **BOLGARIYA**

*Rasmiy nomi — Bulgariya Respublikasi. Poytaxti — Sofiya. Hududi — 110912 km<sup>2</sup>. Aholisi — 7537900 kishi (2003). Davlat tili — bolgar. Dini — pravoslavlар (85%), musulmonlar (13%). Pul birligi — lev.*

***Geografik joylashuvi va tabiati.*** Bolqon yarimorolidagi Janubi Sharqiy Yevropa davlati. Shimolda — Ruminiya, g‘arbda — Yugoslaviya va Makedoniya, janubda — Gretsya va Turkiya bilan chegaradosh. Shimolda Qora dengiz bilan tutashgan.

Hududining katta qismini tog' va tepaliklar egallagan. Mamlakat markazida shimoli g'arbdan Qora dengizgacha cho'zilgan Bolqon tog'lari joylashgan. Janubda — Rodopi tog'lari, janubi g'arbda esa mamlakatning eng yuqori nuqtasi Musala cho'qqisi (2925 m) joylashgan Rila tog'lari mavjud. Bolqon tog'larining janubiy yonbag'irlari va Rodopi tog'lari orasida Meritsa daryosi vodiysi yastanib yotibdi.

Iqlimi — mo'tadil kontinental. Asosiy daryolari: Dunay, Iskar va Maritsa. Foydali qazilmalardan boksitlar, mis, qo'rg'oshin, ko'mir, yog'och mavjud. Mamlakat hududining katta qismini o'rmonlar egallagan. Vodiylarda bargli, tog'larda esa ninabargli o'rmonlar ustunlik qiladi. Hayvonlardan quyon, tulki, qobon, bo'rsiq, yumronqoziq, kiyik, ohu kabilar mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Bolgariya — prezidentlik respublikasi. Davlat boshlig'i — prezident. Ijro etuvchi hokimiyat premyer-ministr boshchiligidagi Ministrlar Kengashiga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Xalq yig'ini tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalari: Demokratik kuchlar ittifoqi, Bolgariya sotsialistik partiyasi, Xalq ittifoqi, Huquq va erkinliklar uchun harakat.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Rivojlangan sanoat sohalari: mashinasozlik, metallurgiya, oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo, yog'ochni qayta ishslash. Mashinasozlik — xalq xo'jaligining muhim tarmog'idir. Mashinasozlik korxonalarini respublikaning ko'pgina shaharlarida qurilgan, ulardan eng yiriklari — Sofiya, Varna, Gusa, Burgos, Plovdiv. Bolgariya mineral resurslar bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan. Qishloq xo'jaligi Bolgariya YMMning 1/8 qismini tashkil etib, iqtisodiy faol aholining 1/5 qismini ish bilan band qilgan. Donli ekinlar uchun haydaladigan yerlarning 3/5 qismi ajratilgan. Makkajo'xori, sholi, arpa, bug'doy ekiladi. Texnikaviy o'simliklardan janubda ekiladigan tamakiga va kungaboqarga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, mamlakat pomidor va uzumning yirik eksportchilaridan biridir. So'nggi yillarda turizm

ham yaxshi rivojlanmoqda. 2004-yil YIM miqdori 61630 mln dollarni (aholi jon boshiga — 8200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Rossiya, Germaniya, Italiya, Turkiya, Gretsiya.

Asosiy portlari: Burgos, Varna.

**Tarixi.** M. a. VIII asrda zamonaviy Bolgariya hududida frakiyaliklar qabilalari istiqomat qilishgan. M. a. VII asrda mamlakat qirg'oqlarida grek shaharlari — Apolloniya (zamonaviy Sozopol), Odessos (zamonaviy Varna), Mesembri (zamonaviy Nesebir)ga asos solindi. I asrda bu yerlarning Rim tomonidan bosib olinishi oqibatida Rim provinsiyalari Meziya va Frakiya tashkil topdi. 395-yili Rim imperiyasi inqirozga yuz tutganidan so'ng bu ikki provinsiya Vizantiya imperiyasi tarkibiga kirdi. VI asrdan boshlab mamlakatga slavyan qabilalari kirib kela boshladi. 680-yilda xon Asparux boshchiligidagi birinchi bolgar qirolligi tashkil etildi. Vizantiya yangi davlatni tan oldi. 894-yilda aka-uka Kirill va Mefodiylar slavyan yozuvini kirtdilar. 1014-yilda Vizantiya imperatori Vasiliy II Bolgaroboysa Belasitsa yonidagi jangda bolgar qo'shinlarini tor-mor qildi. Tez orada mamlakat Vizantiya tarkibiga qo'shildi. 1187-yilda mustaqil ikkinchi Bolgar qirolligi tashkil etildi. XIV asr oxirlarida Bolgariya turklar tomonidan ishg'ol qilindi. 1878-yili rus-turk urushi oqibatida mamlakatning shimoliy qismida mustaqil Bolgar knyazligi tashkil topdi. Janubiy qismi — Sharqiy Rumeliya Turkiyaning avtonom provinsiyasi edi. 1885-yildagi turklarga qarshi ko'tarilgan Plovdiv qo'zg'oloni mamlakatning birlashishiga olib keldi. 1908-yilda Bolgariya Turkiyadan to'la mustaqilligini e'lon qilib, qirollik sifatida qayta tashkil etildi. I jahon urushida Bolgariya Germaniya tarafida turib urush olib bordi va buning oqibatida Janubiy Dobruja hududini boy berdi. 1940-yili fashistik davlatlar bilan hamkorlik shartnomasini imzoladi va Janubiy Dobrujanı Ruminiyadan qaytarib oldi. 1941—1944-yillarda Bolgariya II jahon urushida fashistik blok tarafida ishtirok etdi. 1944-yilda mamlakatga sovet qo'shinlari kirib keldi. Shu vaqtda Sofiyada davlat to'ntarilishi o'tkazilib, yangi tuzilgan hokimiyat Germaniyaga qarshi urush

e'lon qildi. 1946-yilda monarxiya yo‘q qilinib, Bolgariya Xalq Respublikasi tashkil topganligi e’lon qilindi. Bolgariya 1949-yilda O‘IYK (SEV)ga, 1955-yilda Varshava Shartnomasi uyushmasiga a’zo bo‘lib kirdi. 40-yildan ortiq vaqt davomida mamlakatda Todor Jivkov boshchiligidagi kommunistik tuzum hukmronlik qildi. 1990-yilda bu tuzum ag‘darilib, Bolgariya demokratik hukumatini tashkil etish jarayoni boshlandi. 1991-yilda yangi konstitutsiya qabul qilinib, mamlakat nomi Bolgariya Respublikasi deb o‘zgartirildi.

## BOLIVIYA

*Rasmiy nomi — Boliviya Respublikasi. Poytaxti — Sukre (rasmiy hukumat joylashagan shahar La-Pas). Hududi — 1 098 581 km<sup>2</sup>. Aholisi — 8586400 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — katoliklar (95%), protestanlar (5%). Pul birligi — boliviano.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Janubiy Amerikaning markaziy qismida joylashgan davlat. Boliviya shimolda va sharqda Braziliya, janubi sharqda — Paragvay, g‘arbda — Chili va Peru, janubda Argentina davlatlari bilan chegaradosh. Boliviyaning janubi g‘arbi And tog‘larida joylashgan. Ikkiga ajralgan tog‘ tizmasi G‘arbiy va Sharqi tog‘ tizmalariga ajralgan bo‘lib, ularning orasida dengiz sathidan 4000 m balandlikda joylashgan Puna tekis tog‘ligi (ploskogrye) joylashgan. G‘arbdagi yassi tog‘lar, so‘ngan vulqonlar zanjiri. Shu yerda dunyodagi eng sirli tog‘ ko‘li Titikaka joylashgan. Sharqda And tog‘larning eng yuqori cho‘qqilari Illimani (6682 m), Ankouma (6550 m), Illampu (6485 m) joylashgan.

Iqlimi — tropik, subekvatorial. Asosiy daryolari: Benin Mamorye, Desaguadero, Madeyra (Amazonkaning yirik irmog‘i). Boliviya ko‘llar ko‘p bo‘lib, ularning orasida Titikaka va Poopo eng kattalari hisoblanadi. Boliviya foydali qazilmalardan qalayi, rux, kumush, oltin, mis, qo‘rg‘oshin, volfram, surma,

tabiiy gaz, neft zaxiralari mavjud. Sudralib yuruvchi hayvonlar, qushlar va hasharotlar ham keng tarqalgan.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat Vazirlar Mahkamasiga ham tegishlidir. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali, Senatorlar va Deputatlar palatasidan iborat — Milliy Kongress tamonidan amalga oshiriladi. Boliviya 9 departamentdan iborat respublika. Siyosiy partiyalari: Milliy inqilobiy harakat, So'l inqilobiy harakat, Milliy demokratik faoliyat, «Birdamlik» fuqarolik ittifoqi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Boliviya tabiiy resurslarga boy bo'lishiga qaramasdan, Lotin Amerikasidagi iqtisodiy jihatdan eng qoloq mamlakatlardan biri. Asosiy sanoat tarmoqlari — tog'-kon va tabiiy gaz qazib olish. Qalay, volfram, surma, rangli metallarni qazib olish bo'yicha Boliviya dunyoda birinchi o'rnlardan birida turadi. Neftni qayta ishlash, metallga ishlov berish, to'qimachilik sanoati, shuningdek, tamaki va oziq-ovqat ishlab chiqarish rivojlangan. Madaniy o'simliklardan kartoshka, sholi, boshoqlilar, shakarqamish, qahva o'stiriladi. 2004-yil YIM miqdori 22330 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Argentina, Braziliya, Peru, Chili, Yaponiya, YH mamlakatlari.

Avtomobil va temiryo'llardan tashqari ichki suv yo'llari ham mavjud.

***Tarixi.*** Titikaka ko'lining janubida qadimda inklargacha bo'lgan davrda Tiaxuanako davlati mavjud bo'lgan. Bu davlat X asrgacha gullab-yashnagan. XIII asrda davlatni aymora hindulari, keyinchalik zamonaviy Boliviya hududini inklar ishg'ol qildi. XVI asrda ispanlar bosib olib, Boliviya Peru vitse-qirolligi tarkibiga kirdi. 1825-yilda mustaqillik uchun kurash rahbari Simon Bolivar qo'shinlari ispanlar ustidan g'alaba qozondi. 1964-yilda harbiy to'ntarish amalga oshirildi. Harbiy xunta bilan kurashish uchun inqilobiy harakat tashkil etilib, unga Ernesto Che Gevara boshchilik qildi. Mamlakatda bir necha marotaba davlat to'ntarilishlari

bo‘lib o‘tadi va 1982-yildagina hokimiyatni demokratik hukumat egallaydi.

## BOSNIYA VA GERSEGOVINA

*Rasmiy nomi — Bosniya-Gersegovina. Poytaxti — Sarayevo. Hududi — 51129 km<sup>2</sup>. Aholisi — 6989000 (2003). Davlat tili — serb-xorvat. Dini — islom (40%), pravoslav (31%), protestantlik (4%), katolik (2%). Pul birligi — shaxsiy pul birligi yo‘q, muomalada Yugoslaviya dinori, Xorvatiya kuni, yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Yevropaning janubi sharqida, Bolqon yarimorolida joylashgan. Shimolda va g‘arbda Xorvatiya bilan, sharq va janubda Yugoslaviya bilan chegaradosh. Hududining 90% ini tog‘lar egallaydi. Janubroqda pasttug‘liklar va hosildortog‘ daralari balandligi 2000—2400 m bo‘lgan Dinor yassitog‘ligiga aylanadi. Tekisliklar shimolda — Sava daryosi bo‘yida mavjud.

Iqlimi: markazda — mo‘tadil kontinental, sohil bo‘yida — subtropik. Asosiy daryolari: Vrbas, Neretva, Bosna, Uva. Tabiiy boyliklari: ko‘mir, lignit, temir rudasi, boksitlar. Mamlakatning asosiy qismi O‘rta Yer dengizi o‘simpliklari, bargli va ninabargli daraxtlar bilan qoplangan. O‘rmonlarda silovsin, bo‘ri, ayiq, tulki, ohu va mufonlar yashaydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — prezident respublikasi. Davlat va hukumat rahbari — prezident. Ijro etuvchi hokimiyat prezident, shuningdek, yetti a’zodan iborat Bosniya-Gersegovina prezidiumiga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliv organ — ikki palatali Milliy Assambleya. Asosiy ma’muriy-hududiy birligi — obshchina (mamlakat 109 obshchinasiga bo‘lingan). Asosiy siyosiy partiyalari: Musulmon demokratik harakat partiyasi, Serb demokratik partiyasi, Xorvat demokratik hamdo‘stligi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat ulkan qazilma boyliklar zaxiralariga ega.

1991—1992-yillardagi urush natijasida iqtisodiyotda keskin tushkunlik yuz berdi. Hozirda sanoat ishlab chiqarishi juda past darajada. Nisbatan ko'mir, kimyo, elektr energiyasini ishlab chiqarish, asbob-uskuna yasash, yog'ochni qayta ishlash sanoatlari rivojlangan. Temir, ko'mir, boksitlar qazib olinadi. Boshoqli o'simliklar, tamaki, turli mevalar yetishtiriladi. Eksport: qishloq xo'jalik mahsulotlari, kimyo sanoati mahsulotlari, temir rudasi, yog'och. Import: mashina va uskunalar, yoqilg'i. 2004-yil YIM miqdori 26210 mln dollarni (aholi jon boshiga — 6500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: MDH va Sharqiy Yevropa davlatlari.

**Tarixi.** I asrda mamlakatning qadimgi qabilalari — illiriyaliklar rimliklar tomonidan bosib olinadi va Dalmatsiya provinsiyasiga aylantiriladi. V asrda ostgotlar, 535-yilda esa Vizantiya hukmronligi o'rnatilgan. VII asrga kelib bu hududlarda slavyan qabilalari o'mnashadilar. XII asrda Bosniya mustaqil feodal knyazligi vujudga keldi. 1448-yilda mamlakatning janubiy hukmdorlaridan biri o'zini mustaqil Gersegovina gersogi deb e'lon qildi. XV asrning ikkinchi yarmida Bosniya va Gersegovina turklar tomonidan bosib olindi. 1875—1878-yillarda turklarga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. 1878-yili Bosniya-Gersegovina hududlari Avstro-Vengriya tarkibiga kiritildi. 1908-yilda avstriyaliklar mamlakatni anneksiya qildilar. 1914-yili Sarayevoda Avstriya taxt vorisi ers-gersog F. Ferdinand o'ldirilishi bilan I jahon urushi boshlanadi. 1918-yilda Bosniya va Gersegovina serblar, xorvatlar va slovenlar qirolligi tarkibiga kiritildi (1929-yildan — Yugoslaviya). II jahon urushi davrida fashistlar tomonidan okkupatsiya qilingan. 1945-yildan — Yugoslaviya Xalq Federativ Respublikasi tarkibida. 1991-yil 15-oktabrda Bosniya-Gersegovina mustaqillik deklaratsiyasini e'lon qildi. Shu davrdan serblar, xorvatlar va bosniyalik musulmonlar o'rtaida fuqarolar urushi avj oldi. 1992-yilda davlatga BMT qo'shinlari kiritildi. 1995-yili Parijda mojaroni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risida Parij bitimi imzolandi.

## BOTSVANA

*Rasmiy nomi — Botsvana Respublikasi. Poytaxti — Gaborone. Hududi — 582 ming km<sup>2</sup>. Aholisi — 1573300 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — majusiyalar (50%), xristianlar (50%) Pul birligi — pula.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Botsvana Afrikaning janubida joylashgan. Shimol va g'arbda — Namibiya, shimoli sharqda Zambiya va Zimbabwe, janubda va janubi sharqda Janubiy Afrika respublikasi davlati bilan chegaradosh. Botsvana yuzasi tekis mamlakat bo'lib, janubi g'arbiy qismini Kalaxari cho'li egallagan.

Iqlimi — subtropik. Asosiy daryosi — Limpopo. Qazilma boyliklaridan olmos, mis, ko'mir, temir rudasi, kumush, tabiiy gaz mavjud. Cho'l savannalarda o'sadigan o'simliklar florasini tashkil etadi. Hayvonot dunyosida: arslonlar, jirafa, zebra, antilopa, fil, chiyabo'ri, sirtlonlar, timsoh, tuyaqushlarni uchratish mumkin. Ilonlar va kaltakesaklar ham ko'plab uchraydi.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Botsvana 10 ta viloyatga bo'lingan. Aholisining katta qismi Limpopo daryosi oqimi bo'ylab cho'zilgan tor vodiyya yashaydi. 100 mingga yaqin kishi ko'chmanchi hayot kechiradi. Siyosiy partiyalari: Botsvana demokratik partiyasi, Botsvana Miliy fronti.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Botsvana tog'-kon sanoati rivojlanayotgan agrar mamlakat. Olmos, nikel, marganets, mis rudalari qazib olinadi. Chorvachilik yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligida sorgo, makkajo'xori va boshqa madaniy o'simliklar yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 15050 mln dollarni (aholi jon boshiga — 9200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Lesoto, Namibiya, JAR, Svazilend, Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa Yevropa mamlakatlari.

**Tarixi.** Botsvana elati XVII asr o‘rtalarida yashagan qabila boshlig‘i Masilo boshchilik qilgan xalqdan ularning asosiy qabilalari kelib chiqqan deb hisoblaydilar. XIX asr o‘rtalarida Botsvana tub aholisi bushmenlarni bo‘ysundirib, ularga tegishli bo‘lgan hududlarni egallagan. 1820—1870-yillarda Botsvana o‘z hududlarini kengaytirayotgan trekker-afrikanerlar o‘rtasida qabilalararo mojarolar bo‘lib turdi. 1876-yilda qabila boshlig‘i Kxama va boshqa qabila boshliqlari Janubiy Afrikadagi Buyuk Britaniya komissariga o‘z xalqlarini Britan homiyligiga olishni so‘rab murojaat qilishdi. 1895-yilda shu hududning janubiy qismi Kap mustam-lakasiga qo‘shilgan bir vaqtida shimoliy hududlar ingлиз protektorati maqomini saqlab qoldi. 1966-yilgacha mamlakat Bechuanalend nomi bilan ingлиз potektorati edi. 1966-yil 30-sentabrda mamlakat mustaqillikka erishib, nomlanishini ham o‘zgartirdi va Botsvana deb atala boshladи. 1998-yil prezident Masire iste’foga chiqqanidan so‘ng mamlakatni sobiq vitse-prezident va moliya ministri Festus Mogaye boshqarib kelmoqda.

## BRAZILIYA

*Rasmiy nomi — Braziliya Federativ Respubli — kasi. Poytaxti — Brazilia. Hududi — 8511965 km<sup>2</sup>. Aholisi — 182032600 kishi (2003). Davlat tili — portugal. Dini — katolik. Pul birligi — real.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Janubiy Amerikaning sharqiy va markaziy qismida joylashgan davlat. Janubiy Amerika hududining deyarli yarmini egallagan, qit’adagi eng yirik davlatdir. Shimolda — Venesuela, Gayana, Surinam, Fransuz Gvianasi, shimoli g‘arbda — Kolumbiya, g‘arbda — Peru, Boliviya, Paragvay, Argentina, janubda Urugvay davlatlari bilan chegaradosh. Shimoliy va sharqiy qirg‘oqlari Atlantika okeani bilan tutashgan. Mamlakat relyefini Brazil tekis tog‘liklari, janubiy balandlik qismini cho‘kmalar, tepalikli tekisliklar, daryo vodiylari va shimoliy Amazoniya vodiysi egallagan. Amazonka

daryosi havzasi Braziliya maydonining 1/3 qismidan ortiqrog'ini egallagan bo'lib, dunyodagi chuchuk suv zaxiralarining 1/5 qismini tashkil etadi. Mamlakat shimalida Gvian tekistog'liklari joylashgan. Braziliyaning eng yuqori nuqtasi ham aynan shu yerda bo'lib, bu Piko-de Neblina (3014 m) tog'idir.

Iqlimi — Braziliya turli iqlim zonalarda joylashgan. G'arbda — ekvatorial, sharqda va markazda — subekvatorial, sharqda — tropik, janubda — subtropik. Asosiy daryolari: Amazonka, Parana, San-Fransisku, Urugvay, Paragvay. Tabiiy boyliklardan temir rudasi, qo'rg'oshin, alyuminiy, uran, marganets, neft, ko'mir, tabiiy gaz va yog'och zaxiralari mavjud. O'simlik dunyosi ham juda boy bo'lib, 4000 turdan ziyod daraxtlar mavjud. Hayvonlardan — maymunlar, yaguar, puma, tulki, chumolixo'rlarni uchratish mumkin. Ilonlardan — anakonda, boa bo'g'ma iloni, bushmaster (zaharli ilon)lar mavjud. Daryolarida xavfli hisoblangan piranya va kaymanlar mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni ikki palatali Senat va Deputatlar palasidan tashkil topgan — Milliy Kongress amalga oshiradi. Braziliya 26 ta shtat va 1 ta poytaxt federal okrugiga bo'lingan respublikadir. Siyosiy partiyalari: Braziliya sotsial-demokratik partiyasi, Braziliya demokratik harakat partiyasi, Mehnatkashlar partiyasi, Liberal front partiyasi, Milliy qayta tiklanish partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Braziliya bozor iqtisodi munosabatlarning yuqori rivojlanish darajasiga ega bo'lган industrial-agrar mamlakat. Sanoatining rivojlangan sohalari quyidagilardan iborat: mashinasozlik (avtomobilsozlik va samolyotsozlik), elektron hisoblash texnikasi, metallurgiya, kimyo, yog'ochni qayta ishlash, to'qimachilik; qahva, shakar-qamish, sitruslar, soya, kakao, guruch, manioka o'stiladi va ishlov beriladi. Chorvachilik rivojlangan. Qoramol, cho'chqa, qo'y, yilqi boqiladi, parrandachilik yaxshi rivojlangan. Braziliya qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi.

2004-yil YIM miqdori 1492 mln dollarni (aholi jon boshiga — 8100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Lotin Amerikasi mamlakatlari, AQSH, YH mamlakatlari, Osiyo mamlakatlari.

Avtomobil, temiryo'1 transporti va daryo kema qatnovlari mamlakat iqtisodida muhim o'rinn tutadi. Asosiy portlari: Fortaleza, Salvador, Rio-de-Janeyro, Portu-Alegri, Paramaribo.

**Tarixi.** Qadimda Braziliya hududida hindu qabilalaridan tupi-guaranlar, kariblar, aravaklar, pano, gelar istiqomat qilishgan. Portugallar tomonidan Braziliya hududi kashf qilingandan so'ng Portugaliya uni mustamlakaga aylantirdi. Mahalliy aholi shakarqamish plantatsiyalarida ishlatilgan. Afrikadan olib kelingan negrlar ham qullarga aylantirilgan. XIX asr boshlarida Napoleon urushlari davrida Portugaliya qiroli Joao VI Braziliyaga qochib kelib, bu yerda portugal imperiyasiga asos soldi. 1782-yilda qirol vataniga qaytdi, Braziliyada esa uning o'rniga o'g'li Pedro I qolib mamlakat idora qilishni boshladi. Tez orada Braziliya mustaqil davlat deb e'lon qilindi. 1888-yili mamlakatda qullik bekor qilindi, 1891-yilda esa Braziliya Qo'shma Shtatlari nomini olgan federativ respublika tashkil topganligi e'lon qilindi. 1930-yili hokimiyatni harbiy xunta egalladi. Bir qator harbiy to'ntarishlardan so'ng, 1985-yilda hokimiyat tepasiga fuqarolik hukumati keldi va mamlakat demokratik rivojlanish yo'liga o'tdi.

## BRUNNEY

Rasmiy nomi — Bruney Dorussalom. Poytaxti — Bandar-Seri-Begavan. Hududi — 5765 km<sup>2</sup>. Aholisi — 372300 kishi (2005). Davlat tili — malay, ingliz. Dini — islom. Pul birligi — Bruney dollari.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Janubi sharqiy Osiyodagi Kalimantan orolining shimolida joylashgan davlat. Shimoliy sohillari Janubiy Xitoy dengizi bilan tutashgan. Mamlakatni ikkiga bo'lib turadigan

Saravak (Malayziya) shtati bilan chegaradosh. Mamlakat hududi shimol va janubda tepaliklar bilan o'ralgan sohilbo'y'i pastliklaridan iborat.

Iqlimi — musson ekvatorial. Qazilma boyliklardan neft va tabiy gaz konlari mavjud. Mamlakat hududining 75% ini tropik o'rmonlar egallagan. Hayvonot dunyosida maymun, kiyik, to'ng'iz, tropik kapalaklarni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalar.** Davlat tuzilishi — mustaqil sultonlik. Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik a'zosi. Davlat boshlig'i — sulton. Siyosiy partiyalari: Bruney milliy demokratik partiyasi, Bruney xalq partiyasi (barchasi taqiqlangan).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodi rivojlangan bo'lib, uning asosini neft qazib olish, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish va neftni qayta ishslash tashkil etadi. Sholi, saga palmasi kabi madaniy o'simliklar o'stiriladi. Chorvachilik rivojlangan. Daryolarda kema qatnovlari yo'lga qo'yilgan. Savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, AQSH, Malayziya, Tailand.

2004-yil YIM miqdori 6842 mln dollarni (aholi jon boshiga — 23600 dol.) tashkil etgan.

**Tarixi.** Sultonlikka XV asrda asos solingan va o'z tarkibiga butun Borneo orolini hamda uning atrofidagi mayda orollarni egallagan edi. 1888-yilda Bruney ingliz protektarati bo'lib qoldi. 1959-yilning yangi konstitutsiyasi Buyuk Britaniyani Bruney mudofaasi va tashqi aloqalar uchun javobgar bo'lishga majbur qilardi. 1984-yili mustaqillik e'lon qilindi. 1991-yilda Bruney qo'shilmaslik harakati a'zosi bo'ldi.

## BURKINA-FASO

Rasmiy nomi — Burkina-Faso Respublikasi (sobiq Yuqori Volta). Poytaxti — Uagadugu. Aholisi — 13228500 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — islam (50%), majusiyalar (40%), katoliklar (10%). Hududi — 274122 km<sup>2</sup>. Pul birligi — Afrika franki.

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** G'arbiy Afrika davlati. Shimol va g'arbda — Mali, sharqda — Niger, janubda — Benin, Togo, Gana, Kot-d'Ivuar davlatlari bilan chegaradosh. Burkina-Faso hududining katta qismini keng yassitog'lik egallagan. Bobo-Diulasodan g'arbda qum-toshdan yassitog' qad ko'targan. Shu yerda mamlakat Burkino-Fasoning yirik daryolari — Qora, Oq va Qizil Volta. Qora Voltadan tashqari qolgan daryolarning barchasi kema qatnovi uchun yaroqsizdir. Iqlimi uch asosiy davrlar mavjudligi bilan xarakterlanaadi — salqin-quruq (noyabrdan martgacha), issiq-quruq (martdan maygacha), issiq-nam (yilning qolgan qismida). Mamlakat hududining o'simlik dunyosiga baland o'tli savannalar xosdir. Ba'zi joylarda akatsiya va butazorlar ustunlik qiluvchi o'rmonlar uchrab turadi. O'rmonlar mamlakat maydonining 9% ini egallagan. Hayvonot dunyosi boy bo'lib, bu yerda fil, antilopa, maymun va timsohlarni uchratish mumkin. Zararli hasharotlar ham ko'plab uchraydi, bular setse pashshasi, bezgak chivinlari, termit va chigirtkalar.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Davlat boshlig'i — prezident. Burkina-Faso 45 ta viloyat (provinsiya)ga bo'lingan. Burkina-Faso doimiy va sezilarli emigratsiya mamlakati. 700 mingdan oshiq kishi ko'chmanchi hayot kechiradi. Siyosiy partiyalari: Xalq fronti, Progressiv vatanparvarlar milliy konventi — Sotsial-demokratik partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Burkina-Faso agrar mamlakat. Marganets, simob, oltin, fosfatlar, nikel, marmar qazib olinadi, yog'och ishlab chiqariladi. To'qimachilik, teri-poyabzal, go'sht tayyorlash, yog'-moy, paxta tozalash korxonalari mavjud. Daryolarida baliq ovlash keng yo'lga qo'yilgan. Yeryong'oq, shakarqamish, paxta yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 15740 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Kot-d'Ivuar, Italiya, Tailand, Tayvan, Niger, Negeriya.

**Tarixi.** XI asrda gambagilik kelgindi qabilalar Yuqori Volta tekisliklariga bostirib kirishadi. Asta-sekin-

lik bilan ular kuchli siyosiy uyushmaga ega bo‘lgan markaziy va sharqiy tekislikdagi dehqonchilik qabilalari ni bo‘ysundirdilar. Ammo g‘arbiy tumanlardagi zamonaviy bobo, lobe va grusilarning ajdodlari bosqinchilarga qarshilik ko‘rsata oldilar. Vaqt o‘tib kelgindilar mahalliy aholi bilan aralashib ketib, ularning dini va tilini qabul qilishdi. Keyinchalik bosqinchilarining avlodlari Mosi Yatenga, Uagadugu, Tenkodogo va Fadan-Gurma davlatlarining hukmron doirasini tashkil etdi. XIV—XVI asrlarda Yatenga davlatining qurolli kuchlari Mali va Songay davlatlari hududining bir qismini ishg‘ol qildi. XVI asrda mosilar ularni bo‘ysundirish va majburan islomlashtirishga intilgan songayliklar hujumlarini qaytardi. 1895-yilda Yatenga davlati ustidan nazorat o‘rnatilganidan so‘ng, fransuz qo‘sishlari Moronaba qo‘sishlarini tor-mor qilib, uning mulklarini bosib oldi. 1897-yilda Fada-Gurma qirolligi hukmdori fransuz protektoratiga o‘tdi. Shu davrning o‘zida fransuzlar grusi, bobo, lobi xalqlariga tegishli yerlarni ishg‘ol qildi. Shunga qaramay, 1903-yilgacha lobelar mustamlakachi-larga qarshi tinimsiz kurash olib bordi. 1904—1919-yillarda Yuqori Volta fransuz koloniysi bo‘lgan Yuqori Senegal-Niger tarkibida, 1919-yildan esa alohida koloniyaga ajratib yuborildi. 1932-yilda jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida koloniyalar boshqaruviga ajratilayot-gan xarajatlarni qisqartirish maqsadida Fransiya Yuqori Volta hududlarini o‘zining qo‘shti kolonial mulklari o‘rtasida bo‘lib yubordi. 1960-yil 5-avgustda mammakat mustaqilligi e’lon qilinib, uning prezidenti M. Yameogo bo‘ldi. 1966-yilda harbiy to‘ntarish davrida M. Yameogo hokimiyatdan chetlashtirildi. 1970-yilda yangi konstitutsiya qabul qilindi. 1974-yilda president Lamizana hokimiyatni o‘zlashtirib, o‘zini o‘zi premyer-ministr lavozimiga tayinladi. Shu yil oxiridagi Mali bilan kechgan chegara mojarasi qurolli to‘qna-shuvlarga olib keldi va 1975-yilda ikki tarafning tinchlik kelishuvini imzolash bilan barham topdi. 1980-yilda polkovnik Saye Zerbo Lamizanani hokimiyat tepasidan chetlashtirib, Harbiy Kengash boshlig‘i sifatida butun davlat hokimiyatini o‘z zimmasiga oldi. 1982-yilda

Zerbo harbiy to'ntarish natijasida ag'darildi va mayor Uedraogo boshchiligidagi Millatni qutqarish kengashi tashkil etildi. 1987-yil 15-oktabrda Burkina-Fasoning yangi prezidenti bo'lgan B. Kompaore boshchilik qilgan harbiy to'ntarish oqibatida Sankara ag'darildi va o'ldirildi. Yangi konstitutsiya 1991-yilning 11-iyunidan kuchga kirdi. 1997-yilda Kompaorenning ko'rsatmasiga ko'ra konstitutsiyaga o'zgartirish kiritilib, prezidentni qayta saylashga nisbatan qo'yilgan konstitutsiyaviy cheklanish olib tashlandi.

## BURUNDI

*Rasmiy nomi — Burundi Respublikasi. Poytaxti — Bujumbura. Hududi — 27834 km<sup>2</sup>. Aholisi — 6069200 kishi (2003). Davlat tili — fransuz, kirundi. Dini — katoliklar (73%), majusiyalar (22%), protestantlar (5%). Pul birligi — Burundi franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Sharqiy Afrikada joylashgan davlat. Shimolda Ruanda, sharqda va janubda — Tanzaniya, g'arbda Kongo Demokratik Respublikasi bilan chegaradosh. G'arbiy chegarasining bir qismi Tanganika ko'li bo'ylab o'tgan. Mamlakat hududining katta qismi asosan slanets va qum-toshdan iborat bo'lgan yassitog'liklar egallagan. Eng yuqori nuqtasi — Xexa tog'i (2670 m).

Iqlimi — subekvatorial. Tabiat o'ziga xos bo'lib, yassitog'li hududlarida akatsiyalar va palmalar uchraydigan savannalar hukmron. Ba'zi joylarda park o'rmonlari uchraydi. Hayvonot dunyosi boy bo'lib, bu yerda fil, timsoh, qoplon, begemot, yovvoysi cho'chqa kabi hayvonlarni uchratish mumkin. Qushlar ham ko'p. Qazilma boyliklaridan uran, nikel, mis, kobalt, vanadiy, torf mavjud.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Davlat boshlig'i — prezident. Hukumat boshlig'i — premyer-ministr. Burundi 15 ta viloyatga bo'lingan. Siyosiy partiyalari — Burundi

demokratiya tarafдорлари fronti, Milliy birdamlik va taraqqiyot partiyasi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Burundi — agrar mamlakat. Yog'ochni qayta ishlash, to'qimachilik, sement ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Baliqchilik, chorvachilik, qahva, choy, paxta yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 4001 mln dollarni (aholi jon boshiga — 600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Belgiya, Fransiya, Germaniya, Tanzaniya, Yaponiya, AQSH.

***Tarixi.*** Tva pigmeylari Burundining tub aholisi hisoblanadi. Tvalarning katta qismini assimiliatsiya qilgan xutular XIV asrda paydo bo'lgan. XV asrda tutsilar kirib kelganidan so'ng Ruandadagi kabi bu yerda ham qirollik tashkil etildi. XIX asrning 80-yillarida Burundi (bu davrda Urundi) Ruanda bilan birga nemislar tomonidan ishg'ol qilinib, German Sharqiy Afrikasi tarkibiga qo'shildi. Birinchi jahon urushidan so'ng Belgiyaga Ruanda—Urundi hududlari boshqaru mandati topshirildi. 1962-yil 1-iyulda Burundi konstitusyon monarxiya sifatida mustaqillikka erishdi. 1966-yilgi harbiy to'ntarishdan so'ng mamlakat respublika deb e'lon qilindi. 1990-yillarda davlatda xutu va tutsilar o'rtasida harbiy to'qnashuvlar boshlandi.

## **BUTAN**

*Rasmiy nomi — Butan Qirolligi. Poytaxti — Tximpwu. Hududi — 47000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2139500 kishi (2003). Davlat tili — dzong-ke. Dini — maxayan buddaviyligining lamaistik shakli. Pul birligi — ngultrum.*

***Geografik joylashuvi va tabiat.*** Markaziy Osiyo janubida, Malayning sharqida joylashgan davlat. Sharqda, janubda va janubiy g'arbda Hindiston, shimolda va shimoliy g'arbda Tibet bilan chegaradosh. Tog'li mamlakat. Sharqiy Himolayning janubiy qismini egallagan. Eng baland tog'i — Jamolxari (7314 m).

Iqlimi — tropik. Daryolari Braxmaputra havzasiga tegishlidir. Mamlakat kalsiy karbiti, gips zaxiralariga ega. Grafit, mis, qo'rg'oshin, toshko'mir, volfram qazib olinadi. Haydaladigan yerlar mamlakat maydonining 2,8% ini tashkil etadi. Tog' cho'qqlari qor bilan qoplangan. Biraxmaputra irmoqlari vodiyosida bananlar o'sadi. Hayvonot dunyosida maymun, yo'lbars, himolay ayiqlari, kiyik, fil kabi hayvonlarni uchratish mumkin.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat 8 ta viloyatga bo'lingan. Davlat tuzilishi — konstitutsiyaviy monarxiya. Davlat boshlig'i — qiro. Hukumat boshlig'i — Ministrlar Kengashi raisi. Siyosiy partiyalar rasman mavjud emas.

***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*** Iqtisodi natural xo'jalik va feodal munosabatlari ustun bo'lgan agrar mamlakat. Tog'lardagi ekin maydonlarida mango, boshoqlilar, sitrus o'simliklar, ananas yetishtiriladi. Hunarmandchilik rivojlangan bo'lib, ustaxonalarda sovuq quroq, gilam, mato to'quvchiligi, yog'ochga ishlov berish amalga oshiriladi. Tog'-kon va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari faoliyat yuritmoqda. 2004-yil YIM miqdori 2638 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1180 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Hindiston, Yaqin Sharq mamlakatlari, Yevropa mamlakatlari, Singapur.

***Tarixi.*** Zamonaviy Butan hududi m. a. VIII asrda Hindiston hukmronligi ostiga o'tdi. XVI asrda Butan Tibet hukmdorlariga bo'ysundi. 1774-yilda zamonaviy Butan hududida yashagan xalqlar Xitoy hukmronligi ostida qoldi. XIX asrda ingлизлар bostirib kirdi. 1907-yilda Tongsi hukmdori Ugiyen Vangchuk monarch deb e'lon qilindi va o'z sulolasiga asos soldi. 1949-yilda Butan Hindistondan mustaqillik oldi. 1954-yilda o'z parlamentini tashkil etdi. 1998-yilda qirol o'z vakolatlarining bir qismidan Milliy Assambleya foydasiga voz kechdi.

## BUYUK BRITANIYA

*Rasmiy nomi – Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi. Poytaxti – London. Hududi – 244100 km<sup>2</sup> (Shotland orollar bilan birga). Aholisi – 60094600 kishi (2003). Davlat tili – ingliz. Dini – protestantlik (90%). Pul birligi – funt-sterling.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Yevropaning shimoli g‘arbida, Britan orollarida joylashgan davlat. Buyuk Britaniya orolida Angliya, Shotlandiya va Uels joylashgan. Shimoliy Irlandiya Irlandiya orolining shimoliy qismida joylashgan. Shimolda Irlandiya bilan chegaradosh, g‘arbda Atlantika okeani, sharqda Shimoliy dengiz, janubi sharqda Buyuk Britaniyani Yevropadan ajratib turadigan La-Mansh bo‘g‘ozi bilan tutashib ketgan. Angliya hududida Pennin tog‘lari (eng yuqori nuqtasi — Skeyfel-Payk — 978 m) joylashgan. Pennin tog‘laridan janubda va Uelsdan sharqdan Markaziy va Janubiy Angliyaning katta qismini egallagan keng tekislik joylashgan. Mintaqaning chekka janubida Dortmur tepaliklari (dengiz sathidan 610 m baland) bor. Asosiy daryolari: Temza, Severn, Tayn, Mers. Shimoliy Irlandianing katta qismini tekisliklar egallagan bo‘lib, markazida Britan orollaridagi eng yirik ko‘l — Lox-Ni (maydoni — 390 km<sup>2</sup>) joylashgan. Shimoliy Irlandianing eng baland nuqtasi Muri tog‘laridagi Sliv-Donord (852 m) cho‘qqisidir. Shimoliy Irlandianing eng yirik daryolari: Foyl, Yuqori Bon va Quyi Bon. Shotlandiya hududlari asosan tog‘lardan iborat, biroq uni o‘z navbatida uch qismga bo‘lish mumkin: shimolda — Xeylands, markazda — Sentral Loupends va janubda Sazen Aplends. Shotlandianing asosiy daryolari: Kloyd, Tey, Fors, Tvid, Di va Spey. Ko‘p sonli ko‘llar orasida Lox-Ness, Lox-Tea va Lox-Ketrinlar alohida ajralib turadi. Uels ham Shotlandiya kabi tog‘li hudud, biroq tog‘lar bu yerda unchalik baland emas. Asosiy tog‘ tizmasi Uels markazidagi Kembri tog‘laridir. Uelsning yirik daryolari: Di, Usk, Teyfi. Eng yirik ko‘li — Bala.

Iqlimi — yumshoq va nam. Foydali qazilmalardan Shimoliy dengizdan qazib olinadigan neft va gaz konlariga, shuningdek, ko'mir va ohaktosh konlariga egalik qiladi. Buyuk Britaniyaning 77% yerlari dehqonchilik uchun yaroqlidir. Angliyaning o'simlik dunyosi ancha kambag'al, o'rmonlar faqat 4% hududini egallagan. Hayvonot dunyosida kiyik, tulki, quyon va bo'rilar ko'plab uchraydi. Qushlardan kaklik, kabutar, qarg'a va boshqalar ko'p tarqalgan. Ko'llar va daryolarda turli baliqlar ko'p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — parlamentar monarxiya. Davlat boshlig'i — qirol (qiroliche). Monarx qonun loyihamalarini tasdiqlaydi, titul va unvonlar beradi, biroq amalda faqat ramziy hokimiyatga ega. Oliy qonun chiqaruvchi organi — Jamoa palatasi (630 deputat) va Lordlar palatasi (1000 ta zodagonlar va diniy perlar)dan iborat parliament. Oliy ijroiya organi — premyer-ministr boshchiligidagi Ministrlar Kabineti. Buyuk Britaniya ma'muriy jihatdan 4 ta ma'muriy-siyosiy qism (tarixiy provinsiyalar)dan: Angliya (39 graflik, 6 metropoliya grafligi va Katta London), Uels (8 graflik), Shotlandiya (9 rayon va 3 orol hududlar), Shimoliy Irlandiya (26 okrug)lardan tashkil topgan. Men va Normand orollari ustidan alohida nazorat o'rnatilgan. Buyuk Britaniyaga qaram hududlar: Angilya, Bermud orollari, Hind okeanidagi Britan hududlari, Britan Virgin orollari, Kayman orollari, Folklend orollari, Gibraltar, Jersi, Gernsi, Mel oroli, Montserrat, Pitkerka orollari, Muqaddas Yelena oroli, Janubiy Jorjiya va Janubiy Sandvich orollari, Terks va Kaykos orollari. Qaram hududlar hozirgacha Buyuk Britaniyaning dengizorti mulklari deb nomlanib, to'liq mustaqil davlat hisoblanmaydi. Shunga qaramasdan ular o'z-o'zini idora qilish huquqiga ega bo'lib, o'z qonunchilik organlariga egadirlar. Asosiy siyosiy partiyalari: Konservatorlar partiyasi, Leyboristlar partiyasi, Liberal demokratlar partiyasi, Shotland milliy partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Buyuk Britaniya iqtisodi rivojlangan davlat bo'lib,

jahondagi sakkizta rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakat sanoatida qazib olish sohalari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘z hududidagi shaxtalarning yopilishi va ko‘mir qazib olishning qisqarishi bilan bir vaqtda Shimoliy dengizdan neft va gaz qazib olish ko‘paytirilmoqda. Sanoatning boshqa tarmoqlaridan — transport mashinasozligi (avtomobilsozlik, kemasozlik), aerokosmik sanoat (AQSH va Fransiyadan keyin uchinchi o‘rinda)da oddiy va harbiy samolyotlar, vertolyotlar va aviadvigatellar ishlab chiqariladi, oziq-ovqat sanoati (mashhur shotland viskisi, jun va sut ishlab chiqariladi), umumiy mashinasozlik (qishloq xo‘jaligi texnikasi, stanoklar, to‘qimachilik asbob-uskunalar), elektronika va elekrotexnika (kompyuterlar, dasturlashtirish, protsessorlar, superkompyuterlar, telekommunikatsiya vositalari, tibbiyot anjomlari, maishiy texnika), kimyo sanoati (dori ishlab chiqarish — jahonda 4-o‘rinda, agroximiya, parfyumeriya, yangi materiallar va biotexnologiya), metall ishlab chiqarish, selluloza-qog‘oz sanoat sohalari yuksak taraqqiy etgan. Zamonaviy sanoatning taraqqiyoti yuksak texnologiyalarning taraqqiy etganligi bilan belgilanadi. Buyuk Britaniya ilmiy-texnikaviy potensial darajasi bo‘yicha Yevropada eng yuqori o‘rinni egallaydi. Mamlakat olimlari olgan Nobel mukofotlari soni bo‘yicha AQSHdan keyin 2-o‘rinni egallaydi. Buyuk Britaniya mehnat zaxiralarining 12% i moliya sektorida band. London jahon moliya markazi — sayyoramizning moliya poytaxti hisoblanadi. Shuningdek, Manchester, Cardiff, Liverpul, Edinburg shaharlari ham yirik moliyaviy markazlardir. Ahamiyati bo‘yicha 2-o‘rinda turadigan soha — turizm. Bu sohada mehnatga layoqatli aholining 7% i band bo‘lib, yiliga 8 mlrd dollardan oshiq daromad keltiriladi. London dunyoning yirik turistik markazi hisoblanadi. Buyuk Britaniyaning qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘z ehtiyojlarining faqat yarminigina qoplaydi. Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari: bug‘doy, tariq, qandlavlagi, arpa. Mamlakat chorvachilik sohasiga asr boshlarida tarqalgan epidemiya sezilarli darajada zarar yetkazdi. Eksporti:

sanoat mahsulotlari, yoqilg'i, kimyo sanoati mahsulotlari, oziq-ovqat. Importi: sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat. 2004-yil YIM miqdori 1782000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 29600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, AQSH.

Buyuk Britaniya ilq'or mamlakatlar qatori rivojlangan transport infrastrukturasiga ega. Yevrotunnelning ochilishi mamlakatning materik bilan aloqasini yanada yaxshiladi. Asosiy portlari: Aberdin, Belfast, Bristol, Kardiff, Duvr, Glazgo, Liverpul, London, Manchester, Plimut, Sautgempton.

**Tarixi.** M. a. VIII asrdayoq orollarga kelt-brittlar kelib joylashgan edilar. 43-yilda Britaniya Rim imperiyasi tarkibiga kirdi. VI asrda bir nechta mustaqil feodal qirollik va grafliklar tashkil topdi. Brittarning bir qismi Fransiyaning shimoliga kelib joylashdi. VIII asrda normannlar asosan Daniyadan tez-tez mamlakat qirg'oqlariga hujum qilib turdilar. Ular orolning shimoli sharqiy qismini egallab olishga muvaffaq bo'lishdi. IX asrda qirol Egbert katta hududlarni bir davlatga birlashtirdi va bu davlat «Angliya» deb atala boshladidi. 1066-yili Buyuk Britaniyadagi mayda qirolliklar normand sarkardasi Vilgelm tomonidan bosib olinib yagona davlatga birlashtirildi. 1265-yili tarixda dastlabki ingliz parlamenti tuzildi. 1338-yili Angliya Fransiyaga qarshi yuz yillik urushga kirdi. Bu urush 1453-yilga qadar davom etdi. Bu urush tugashi bilan Angliya taxti uchun urushlar («gullar urushi») boshlanib, 1485-yili tyudorlar sulolasining g'alabasi bilan yakunlandi. 1588-yili «Yengilmas Armada»ning (ispan floti) yakson qilinishi Angliyani dengizda asosiy hukmron davlatlar qatoriga olib chiqdi. XVII asrning boshlarida Angliya o'zining Yangi dunyodagi mustamlakalariga ega bo'ldi. 1603-yili shotland qiroli Yakov VI Yakov I nomini olib ingliz taxtiga o'tirishi bilan amalda Shotlandiya va Angliya bitta davlatga birlashdi. Biroq Buyuk Britaniya qirolligi 1707-yili birlashish to'g'risidagi hujjat imzolanganidan keyingina e'lon qilindi. Shu paytdan boshlab London yagona davlat poytaxtiga aylandi. 1642—1649-yillarda Styuartlar bilan parlament o'rtasidagi tortishuv-

lar qonli fuqarolar urushining boshlanishiga olib keldi. Natijada Oliver Kromvel boshchiligidagi respublika e'lon qilindi. Monarxiya tez orada qayta tiklandi, biroq qirolning huquqlari sezilarli darajada kamayib, amalda hokimiyat parlament qo'liga o'tdi. 1651-yili Irlandiya, 1652-yili esa Shotlandiya bosib olindi. Britan kolonial imperiyasi asosan XVIII asrda shakllandı. XVIII asrning oxirlarida Buyuk Britaniya Amerikadagi 13 ta mustamlakasidan ajraldi, biroq Kanada va Hindistonda mustahkamlanib oldi. 1805-yili Trafalgar yaqinida admiral Nelson tomonidan ispan-fransuz flotining yakson qilinishi bilan Buyuk Britaniya «dengizlar xo'jayini»ga aylandi. 1793—1815-yillarda Angliya Fransiyaga qarshi urushlarda ishtirok etdi. 1815-yili ingliz sarkardasi gersog Wellington pruss qo'shinlari bilan birga Waterloo yaqinidagi jangda Napoleon ustidan yirik g'alabaga erishdi. Shundan so'ng mamlakatda butun yuz yil davomida tinchlik hukm surdi. Ayniqsa, qirolicha Viktoriya (1837—1901) davrida Buyuk Britaniya mulklari juda kengaydi. Angliya Antanta tarkibida Birinchi jahon urushida faol ishtirok etdi. Urush natijasida mamlakat Afrika va Osiyodagi nemis koloniyalarining bir qismini qo'lga kiritdi. 1931-yili Britan Millatlar Hamdo'stligi tuzildi. 1939—1945-yillarda Angliya Ikkinci jahon urushida qatnashdi. 1947-yili Hindiston va Pokistonga mustaqillik berdi, 1949-yili esa mamlakat NATOga a'zo bo'ldi. 1982-yili Folkland orollari uchun Angliya Argentina bilan to'qnashuvga bordi. Qisqa davom etgan jangovar harakatlardan so'ng inglizlar bu hududlar ustidan o'z nazoratlarini o'rnatdilar. 1979—1990-yillarda konservatorlar hukumati Margaret Tetcher boshchiligidagi iqtisodiy islohotlar o'tkazdi. 1997-yili umumiy saylovlarda Leyboristlar partiyasi g'alaba qozondi va Toni Bler premyer-ministr lavozimini egalladi.

## VANUATU

Rasmiy nomi — Vanuatu Respublikasi. Poytaxti — Port-Vila. Hududi — 14800 km<sup>2</sup>. Aholisi — 199400 kishi (2003). Davlat tili — bislama, ingliz, fransuz. Dini — protestantlar (58%), katoliklar (15%) va boshqalar. Pul birligi — vatu.

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Tinch okeanning janubi g'arbiy qismidagi Yangi Gibrid orollarida joylashgan Okeaniya davlati. Vanuatu davlati o'z ichiga 80 dan ortiq orolni qamrab olgan bo'lib, ulardan yiriklari — Espiritu-Santo, Malakula, Ambrim, Efate, Eframango. Orollar sathi kelib chiqishi vulqonli bo'lgan tog'lar bilan qoplangan. Jami 60 dan ortiq vulqon mavjud bo'lib, ularning ba'zilari hamon harakatdadir.

Iqlimi — nam, tropik. Asosiy tabiiy zaxiralari: marganets, oltin, kumush, mis, baliq, yog'och, neft. Shamolli sharqiy so'qmoqlari nam tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Orollarda kemiruvchilar, kaltakesaklar, toshbaqalar, qush va hasharotlar mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Vanuatu davlati Buyuk Britaniya rahbarligidagi Hamdo'stlik tarkibiga kiruvchi respublika. Davlat boshlig'i — prezident, hukumat boshlig'i — premyer-ministr. Mamlakat ma'muriy jihatdan 6 ta provinsiyaga bo'lingan. Poytaxti Efate orolida joylashgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali Milliy Assambleyadan iborat. Siyosiy partiyalari: Milliy birlashgan partiya, Vanuatu partiyasi, Yangi xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Madaniy o'simliklardan kakao, qahva, kopra, banan, yams, maniok, mevalar, shokolad daraxti o'stiriladi. Iqtisodning boshqa sohalaridan baliqchilik va turizm ham rivojlangan. Chorvachilik rivojlanmoqda. Sanoat sust rivojlangan bo'lib, korxonalar asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga, yog'och va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixti-

soslashgan. 2004-yil YIM miqdori 5788 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Niderlandiya, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya. Transport kommunikatsiyalarida avtomobil yo'llar mavjud. Asosiy porti — Port-Vila.

**Tarixi.** Orollar aholisi ajdodlari m. a. III ming yilliklarda Osiyodan ko'chib kelishgan. 1774-yilda orollar portugallar tomonidan kashf qilindi. XVIII asrda orollar mashhur ingliz dengizchisi J. Kuk tomonidan o'rghanildi. XIX asrda orollarni fransuz va inglizlar mustamlakaga aylantirishdi. 1887-yilda Yangi Gibrildorollarini boshqarish uchun fransuz va ingliz komissiyasi tashkil etiladi. 1906-yilda ushbu komissiya kondominium deb atala boshladi.

## VATIKAN

*Rasmiy nomi — davlat-shahar Vatikan. Poytaxti — Vatikan. Hududi — 0,44 km<sup>2</sup>. Aholisi — 900 kishi (2005). Davlat tili — italyan va lotin. Dini — katoliklar (100%). Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Italiyaning poytaxti Rim shahrining g'arbiy qismida (Monte Vatikano tepaligida), katolik cherkovi boshlig'i Rim papasining rezidensiyasi hududida joylashgan kichik davlat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — mutlaq teokratik monarxiya. Davlat boshlig'i — hozir Rim papasi Benedikt XVI bo'lib, unga Vatikandagi mutlaq hokimiyat tegishlidir. Rim papasi yo'qligida Vatikanga Avliyo Rim cherkovi kamerlenki rahbarlik qiladi. Shuningdek, Vatikan o'z hukumati — Rim kuriyasiga ega.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Vatikan yirik kapital mablag'lari, bir qator kompaniya va banklarning aksiyalari, Italiya, Ispaniya, Germaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi yirik ko'chmas

mulklarning egasi hisoblanadi. Vatikanning mablag'lariga AQSHda 50 mlrd dollardan ortiqqa baholangan. Daromadining boshqa manbalari — milliy katolik cherkovlarining badallari, pochta markalari, tangalar, suvenirlar ishlab chiqarish va sotishdan tushadigan mablag'lardir. 2004-yil YIM miqdori 810 mln dollarni (aholi jon boshiga — 0,9 mln dol.) tashkil etgan. Vatikan turli mamlakatlarda 50 dan oshiq tilda 1,5 ming xildan ortiq gazeta va jurnallar nashr qiladi. Dunyoning ko'plab mamlakatlariga o'z radioeshittirishlarini tarqatadi.

**Tarixi.** XIV asrda Rimda papaning doimiy qaror-gohi joylashgan qasr qurilgan. XVIII—XIX asrlarda Italiyada mustaqil teokratik davlat sifatida Papa viloyati mavjud edi. Vatikan o'z nomini 1870-yilda Rim papasining qarorgohi bo'lib kelgan saroy nomidan olgan. 1871-yili italyan yerlari birlashtirilib, papa diniy hokimiyatdan mahrum etildi. 1929-yilda tuzilgan Lateran bitimlariga ko'ra Vatikan Rim papasining qarorgohiga aylandi. Vatikanga Rimda va uning tashqarisidagi o'nlab binolar tegishlidir. Vatikan o'z bayrog'i, valyutasi, armiyasi, radiostansiyasi va gazetalariiga ega.

## VENGRİYA

*Rasmiy nomi — Vengriya Respublikasi. Poytaxti — Budapesht. Hududi — 93032 km<sup>2</sup>. Aholisi — 10045400 kishi (2003). Davlat tili — vengr. Dini — katoliklar (68%), protestantlar (25%). Pul birligi — forint.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Markaziy Yevropada joylashgan davlat. Shimolda — Slovakiya, sharqda — Ruminiya, shimoli sharqda — Ukraina, janubda — Serbiya, Xorvatiya va Sloveniya, g'arbda — Avstriya bilan chegaradosh. Vengriya hududi asosan tekisliklardan iborat. Vengr-slovak chegarasining bir qismini tashkil qiladigan Dunay keskin janubga burilib, mamlakatni ikki qismga ajratadi. O'rta Dunay tekisligi Dunay

daryosidan sharqda joylashgan bo'lib, shimolini Ven-griyaning eng yuqori nuqtasi — Kekesh tog'i (1015 m) joylashagan Alp cho'qqilari egallagan. G'arbda baland bo'limgan Meshek va Bakoni tog'lari hamda Markaziy Yevropadagi eng yirik ko'l — Balaton joylashgan.

Iqlimi — mo'tadil, kontinental. Asosiy daryolari: Dunay, Tisa. Foydali qazilmalardan boksit, ko'mir, tabbiy gaz mavjud. Bargli o'rmonlar mamlakat hududining 17% ini egallagan. Emanzorlar asosan o'rta tog'lik rayonlarida saqlanib qolgan. Hayvonot dunyosida tulki, quyon, yovvoyi cho'chqa, kiyiklar mavjud. Qushlardan — laylak; turna, yovvoyi o'rdaklarni ko'plab uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Ven-griya — parlamentar respublika. Ijro etuvchi hokimiyat prezidentga va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishlidir. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Davlat Yig'ini tomonidan amalga oshiriladi. Vengriya 19 ta viloyatga bo'lingan bo'lib, mamlakat poytaxti Budapesht alohida maqomga ega. Mamlakatda 50 dan ortiq siyosiy partiya va uyushmalar ro'yxatga olin-gan bo'lib, ulardan eng yiriklari — Vengriya demokratik forumi, Xristian-demokratik xalq partiyasi, Erkin demokratlar ittifoqi, Vengriya sotsialistik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Vengriya — industrial-agrar davlat. Rivojlangan sanoat sohalari: mashinasozlik (avtomobilsozlik, lokomotiv-kemasozlik), asbob-uskunasozlik (aloqa vositalari, EHM, tibbiyot anjomlari), kimyo, yengil (to'qimachilik, poyabzal) va oziq-ovqat sanoati. Mamlakatda ko'p miqdorda boksitlar qazib olinadi (Yevropa 2-o'rinda). Marganets va temir rudasi konlari ham ko'p. Mamlakatda qora va rangli metallurgiya korxonalar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Kimyo sanoati turli xil o'g'itlar, plastmassa, sintetik materiallar va dordarmonlar ishlab chiqaradi. To'qimachilik, tikuvchilik va poyabzal sanoati ham rivojlangan. Oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar mamlakat hududi bo'ylab keng tarqalgan. Qishloq xo'jaligi ekinlari mamlakat hududining 75% ini egallaydi. Bug'doy, tariq, makkajo'xori,

qandlavlagi, kartoshka, kungaboqar, mevalar yetishtiriladi. Uzumchilik va bog'dorchilik keng tarqalgan. Bu yerda tayyorlanadigan tokay vinolari dunyoga mashhur. Chorvachilik yirik shoxli qoramollar va cho'chqalarni boqishga ixtisoslashgan. Yilqichilik rivojlangan. Parranda boqish muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda turizm yaxshi rivojlanmoqda. 2004-yil YIM miqdori 149300 mln dollarni (aholi jon boshiga – 14900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Avstriya, Italiya, Rossiya, Niderlandiya.

Asosiy daryo portlari: Budapesht, Dunayvarosh.

**Tarixi.** M. a. I asr oxirlarida zamonaviy Vengriya hududi Pannoniya provinsiyasi sifatida Rim imperiyasi tarkibiga kirdi. IV asrda Rim imperiyasining inqirozidan so'ng Pannonyaga V–IX asrlarda xunnlar, vestgotlar, avarlar bostirib kirishgan. 1000-yilda Ishtvan I boshchiligidagi birinchi Vengr qirolligi tashkil topdi. XIII asrda Vengr qirolligi o'zaro urushlar hamda tatarlar bosqinlari (1241) oqibatida zaiflashib qoldi. XVI asrda Vengriya o'z mustaqilligini yo'qotdi. 1526-yili Moxach yonidagi jangda vengr qo'shinlari turklar tomonidan tor-mor qilindi. Turklar Buda shahriga bostirib kirib, uni talon-taroj qilishdi. Mamlakat ikki qismga bo'linib, g'arbiy qismi Gabsburglar, sharqiy qismi esa 1541-yilda Usmoniyalar imperiyasi hukmronligi ostiga tushib qoldi. XVII asr oxirlarida turklar hozirgi Vengriya hududidan siqib chiqariladi va u butunlay Gabsburglar hukmronligi ostiga tushib qoladi. 1867-yilda Avstro-Vengriya qirolli gi tashkil etiladi. 1914-yilda Avstro-Vengriya I jahon urushiga kirdi. Urush tugaganidan so'ng 1918-yilning oktabrida mamlakatda inqilob boshlandi, natijada Vengriya mustaqil respublika deb e'lon qilindi. 1919-yil 21-martda hokimiyat Bela Kun boshchiligidagi Sotsialistik partiya qo'liga o'tdi. 1919-yil avgustda rumin qo'shinlari Peshtni bosib olishdi. 1920-yilda esa admiral Xorti diktatorlik rejimi o'rnatildi. 1941-yilda Vengriya II jahon urushiga Germaniyaning ittifoqchisi sifatida kirdi. 1946-yil 1-fevralda Vengriya respublika deb e'lon qilindi. Vengriyaning hozirgi chegaralari 1947-yilgi Parij tinchlik shartnomasiga ko'ra o'rnatilgan. 1949-yilda

mamlakat yangi konstitutsiya va yangi nomga — Vengriya Xalq Respublikasi — ega bo'ldi. 1956-yilning oktabrida Rakoshining kommunistik rejimiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi, bu qo'zg'olon sovet qo'shirlari tomonidan bostirildi. 1989-yili kommunistlar hokimiyatdan chetlashtirildi va mamlakat Vengriya Respublikasi deb e'lon qilindi. 1999-yili Vengriya NATOning to'la huquqli a'zosi bo'ldi.

## VENESUELA

*Rasmiy nomi — Venesuela Respublikasi. Poytaxti — Karakas. Hududi — 912100 km<sup>2</sup>. Aholisi — 24654700 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — katolik. Pul birligi — bolivar.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Janubiy Amerikadagi davlat. Janubda — Braziliya, g'arbda va janubi g'arbda — Kolumbiya, sharqda Gayana davlatlari bilan chegaradosh. Shimoliy qirg'oqlari Karib dengizi va Atlantika okeani bilan tutashgan. Mamlakatning shimoli va shimoli g'arbida Karib Andlari tog' zanjiringning Siyerra-de-Perixa, Kordilyera-de-Merida tizmalari joylashgan. Venesuelaning eng yuqori nuqtasi — Bolivar cho'qqisi (5007 m). Mamlakat markazida Orinoko pastligi, janubi sharqda Gviana tekis tog'liklari joylashgan. Tog' tizmalari orasida botiqlar va cho'kmalar ko'p bo'lib, u yerlarda ko'llar hosil bo'lgan. Yirik ko'llari — Marakaybo va Valensiya.

Iqlimi — subekvatorial. Asosiy daryosi — Orinoko irmoqlari bilan. Mamlakat neft, tabiiy gaz, temir rudasi, olmos, oltin, kumush, mis, rux, titan, marganets zaxiralariga ega. Venesuelaning doimiy yashil o'rmonlarida qimmatbaho daraxt turlari mavjud. Hayvonot dunyosida maymun, ayiq, yalqov, chumolixo'rlarni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Ijro etuvchi hokimiyat Ministrlar Kengashiga ham tegishlidir. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — ikki palatali, Senat va

Deputatlar palatasidan tashkil topgan — Milliy Kongressdan iborat. Har bir shtatning o‘z qonun chiqaruvchi yig‘ini mavjud. Venesuela — respublika, 22 ta shtatga bo‘lingan. Siyosiy partiyalari: Demokratik faoliyat, Sotsial-xristian partiyasi, Milliy birdamlik.

**Iqtisodi va transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodining asosini neftni qayta ishlash sanoati tashkil etadi. Neft qazib olishdan keladigan foyda davlat byudjetiga tushadigan daromadning asosiy qismini tashkil etadi. Quyidagi sanoat sohalari rivojlangan; temir rudasini qazib olish, neftni qayta ishlash, neft kimyosi, metallurgiya, to‘qimachilik, oziq-ovqat, avtomobilsozlik. Makkajo‘xori, dukkaklilar, shakar-qamish, sholi, sorgo, kartoshka, sabzavotlar, qahva, banan yetishtiriladi. Chorvachilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash ham keng yo‘lga qo‘yilgan. 2004-yil YIM miqdori 145200 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Braziliya, Kolumbiya, Yaponiya, Italiya, Germaniya.

**Tarixi.** 1498-yilda X. Kolumb hozirgi Venesuela yerlarini kashf qildi. XVI asrdan boshlab ispanlar mamlakatni mustamlaka qila boshlaydi. 1567-yilda mamlakat poytaxti Karakasga asos solindi. XVIII asrning birinchi yarmida Venesuela Ispaniya vitse-qirolligining tarkibiy qismiga aylandi. XIX asr boshlaridan mustaqillik uchun kurash boshlandi. Mustaqillik uchun kurashga Simon Bolivar rahbarlik qildi. Bir qator g‘alabalar va mag‘lubiyatlardan so‘ng, Venesuela to‘la mustaqillikni 1830-yilda qo‘lga kiritdi. XX asrning o‘rtalarigacha mamlakatda harbiy to‘ntarishlar va inqiloblar bo‘lib turdi. 1958-yildagina mamlakatda fuqarolik demokratiyasi o‘rnatildi. Mamlakat iqtisodi neft eksporti hisobiga tez sur’atlar bilan rivojlandi. 1974-yilda neft sanoati milliylashtirildi. 1980-yillarning o‘rtalarida mamlakatda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz boshlanib, ommaviy namoyishlarga, ish tashlashlarga olib keldi. 90-yillarda bir qator harbiy to‘ntarishlarni amalga oshirish uchun harakatlar bo‘lib, ularning barchasi hukumat qo‘sishlari tomonidan bostirildi.

## VIRGIN OROLLARI

*Rasmiy nomi — Virgin orollari (AQSH). Poytaxti — Sharlotta-Amaliya. Hududi — 352 km<sup>2</sup>. Aholisi — 108700 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik (katoliklar, baptistlar). Pul birligi — AQSH dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Virgin orollari Shimoliy va Janubiy Amerika oralig'ida Puerto-Riko orolidan sharqda Kichik Antil orollarining shimoliy qismida joylashgan AQSHga qarashli hudud. Virgin orollari tarkibiga 50 dan ortiq orollar kiradi. Ulardan eng yiriklari: Sent-Tomas, Sent-Jon, Santa-Kruz. Orollar ohaktoshli, shuningdek, kristalli va vulqonli dahalar ham bor.

Iqlimi — tropik. Doimiy yashil tropik o'rmonlarning qoldiqlari bor. Qolgan hududlar qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar hisoblanadi. Hayvonat dunyosida maymunlar va kolibri, to'ti kabi qushlar bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — orollar ustidan umumiy nazoratni AQSH Ichki Ishlar vazirligi amalga oshiradi. Ijroiya hokimiyat gubernatorga tegishli, ma'muriy jihatdan 3 ta orolga bo'lingan. Poytaxti Sharlotta-Amaliya Sent-Tomas orolida joylashgan. Siyosiy partiyalari: AQSH Demokratik va Respublikachilar partiyalarining bo'limlari, Fuqarolar mustaqilligi harakati.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining asosini chet el turizmi tashkil qiladi. Dunyodagi eng yirik neftni qayta ishlash zavodlaridan biri Sen-Kroa orolida joylashgan. Chorvachilik va baliqchilikni rivojlantirish uchun chora-tadbirlar ko'rilmogda. Chetdan keltiriladigan detallardan soatlar yig'ish, oziq-ovqat mahsulotlari va rom ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Qishloq xo'jaligida sorgo, shakar-qamish, meva va sabzavotlar yetishtiriladi. Chetdan neft xomashyosi, sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat keltiriladi. Chetga neft mahsulotlari, shakar, rom, sitrus mevalari, qahva eksport qilinadi. 2004-yil YIM miqdori 2799 mln

dollarni (aholi jon boshiga — 17200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH, Puerto-Riko.

**Tarixi.** Kolumb ekspeditsiyasi 1493-yili orollarga kelgan. Dastlabki aholi punktlari 1625-yil Santa-Kruz orolida ingliz va fransuz mustamlakachilari tomonidan barpo qilingan. Turli vaqtarda orollar ustidan inglizlar, fransuzlar, ispanlar o‘z nazoratini o‘rnatgan. 1733-yili orollarni daniyaliklar sotib olishdi (1754-yil rasmiy ravishda Daniya mustamlakasi deb e’lon qilindi). 1672- va 1683-yillarda daniyaliklar Sent-Tomas va Sent-Jon orollarini ham mustamlakaga aylantirgan edi. Daniyaliklar hukmronligi davrida Sent-Tomas oroli savdo markaziga (shuningdek, qul savdosining ham), Sent-Jon oroli esa shakarqamish plantatsiyalariga aylantirilib, ularda qullar ishlatilgan. Qullik mavjud bo‘lgan davrda (1848-yilgacha) orolga 28 ming negr qullar keltirilgan. Daniya orollar ustidan 1917-yilga qadar (Napoleon urushlari davridagi qisqa davrni hisobga olmaganda) egalik qilib keldi. Shundan so‘ng, Daniya bu orollarni AQSHga 25 million dollarga sotdi. 1932-yili orolda yashovchilarga AQSH fuqaroligi berildi. Bu yerda AQSH harbiy bazasi qurilgan. 1973-yili Virgin orollari AQSH kongressining deputatlar palatasiga 1 ta deputat o‘tkazishga muvaffaq bo‘lgan. (Lekin ovoz berish huquqigi ega emas.)

## VIRGIN OROLLARI (Buyuk Britaniya)

*Rasmiy nomi — Virgin orollari (Buyuk Britaniya mulki). Poytaxti — Rod-Taun. Hududi — 153,4 km<sup>2</sup>. Aholisi — 22600 kishi (2005). Tili — ingliz. Dini — protestantlik. Pul birligi — Sharqiy Karib dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Virgin orollari 400 dan ortiq orollardan iborat (ulardan 16 tasida odam yashaydi). Ulardan eng kattalari Tortola, Virgin-Gorda, Anegada. Virgin orollari Kichik Antil orollarining shimoliy qismida, Puerto-Rikodan sharqda joylashgan. Orollar ohaktoshlar bilan qoplangan.

Iqlimi — tropik. Doimiy yashil tropik o'rmonlarning qoldiqlari bor, qolgan yerkari qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar. Maymun, kolibri, to'ti, dengiz qushlari yashaydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — Buyuk Britaniya mulki, alohida hudud. Davlat boshlig'i — moliya, ichki xavfsizlik, mudofaa boshqaruvi, tashqi siyosat, davlat xizmati, huquq-tartibot tizimini boshqaradigan, Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadigan gubernator. Siyosiy partiyalari: Virgin orollari partiyasi, Birlashgan partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining asosini chet el turizmi tashkil etadi. Sement, rom, yengil sanoat, qurilish mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar faoliyat ko'rsatadi. Kokos yong'og'i, banan, shakarqamish, sabzavotlar yetishtiriladi. Importi: mashina va jihozlar. Eksporti: rom, baliq, qum, shag'al, mevalar, chorvachilik mahsulotlari. 2004-yil YIM miqdori 2590 mln dollarni (aholi jon boshiga — 38500 dol) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Puerto-Riko, Virgin orollari (AQSH).

**Tarixi.** 1493-yilda X. Kolumb ekspeditsiyasi orolga kelib tushgan. Yevropaliklardan birinchilardan bo'lib gollandlar (1648) yashay boshlaganlar. Angliyaliklar dastlab 1666-yilda orolga kelgan. Ular kelishi bilan qullar mehnatiga asoslangan plantatsiyalar xo'jaligi rivojlanishi boshlagan. Qulchilik tugatilguniga qadar (XIX asr o'rtalarida) orolga yetti ming negr qullar keltirilgan. 1762-yildan Buyuk Britaniyaning rasmiy mustamlakasi. 1960-yilda rasman alohida hudud deb e'lon qilindi. 1967-yilda orolga chegaralangan o'z-o'zini boshqarish huquqi berildi.

## VYETNAM

*Rasmiy nomi — Vyvetnam Sotsialistik Respublikasi. Poytaxti — Xanoy. Hududi — 329600 km<sup>2</sup>. Aholisi — 81624700 kishi (2003). Davlat tili — vyetnam. Dini — buddaviylar (55%), majusiyilar*

|| (23%), daosiylar (12%), katoliklar (10%). Pul birligi — dong.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Janubi Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. G'arbda — Kombodja va Laos, shimolda Xitoy bilan chegaradosh. Sharqiy va Janubiy sohillari Janubiy Xitoy dengizi bilan tutashgan. Vyetnam Hindixitoy yarimorolining sharqiy qismida joylashgan. Mamlakat 4 ta fizik-geografik hududga bo'lingan. Shimolda joylashgan Yunnan tog'ligida mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Fon-Si-Pan (3143 m) tog'i joylashgn.

Iqlimi — shimolda subtropik, janubi sharqda va markazida tropik mussonli. Mamlakatning asosiy dar-yolari — Mekong va Xongxa bo'lib, ular Janubiy Xitoy dengiziga quyiladi. Mamlakat hududida temir rudasi, marganets, boksitlar, ko'mir zaxiralari mavjud. Dengiz shelflarida neft va gaz konlari topilgan. Tog'li hududlar-da tropik o'rmonlarining katta bo'lмаган maydonlari saqlanib qolgan. Bu yerda keng bargli bambuk, liana, banyan kabi daraxtlar o'sadi. Vyetnam hududida fil, ayiq, yo'lbars, kiyik, maymun, quyon, olmaxon kabi hayvonlarni uchratish mumkin. Timsoh, ilon, kaltakes-saklar keng tarqalgan.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Mamlakat hududiy jihatdan 61 ta provinsiyaga bo'lin-gan. Mamlakat aholisining 90% i Xonika va Mekong daryolari havzasida yashaydi. Davlat tuzilishi — respublika. Davlat boshlig'i — prezident. Hukumat boshlig'i — premyer-ministr. Siyosiy partiyalari: Vyet-nam kommunistik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodi davlat, kooperativ va xususiy sektorlaridan tarkib topgan. Vyetnam Janubi Sharqiy Osiyoning «Yangi industrial mamlakat»lari qatoriga kiradi. Sanoatning tog'-kon, metallurgiya, energetika, asbobsozlik tarmoqlari rivojlanmoqda. Neft, apatitlar, xromitlar, qalay, volfram qazib olinadi. Mamlakat o'z-o'zini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'la ta'minlashga erishdi. Sholi, shakarqamish, choy, qahva, paxta,

batat, tropik meva va sabzavotlar yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 227200 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Xitoy, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Tailand, Rossiya.

**Tarixi.** Mamlakat hududida m. a. 300-yilda Dongson davlati gullab-yashnadi. M. a. 111-yilda Vyetnam Xitoy tomonidan bosib olindi. 939-yilda xitoyliklar mag'lubiyatga uchrab, dastlabki vyetnam sulolasiga asos solinadi. 1471-yilda Shimoliy va Janubiy Vyetnamning birlashish jarayoni boshlandi. 1858-yilda Fransiya tomonidan Vyetnam bosib olindi. 1930-yilda Xo Shi Min kommunistik partiyani tashkil etdi va mustaqillik uchun kurash boshladi. 1946-yilda Vyetnam fransuzlar va ularning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash boshladi. 1954-yilda Jeneva kelishuviga asosan Vyetnam 17-parallel bo'ylab ikkiga bo'lindi. Shimolni kommunistlar, janubni AQSH qo'llab-quvvatladi. 1964-yili Shimol qo'shnlari AQSHning kichik kemalariga hujum qilganidan so'ng harbiy harakatlar boshlanib ketdi. 1973-yilda AQSH qo'shnlari Vyetnamdan olib chiqildi.

1992-yilda yangi konstitutsiya qabul qilindi. 1995-yilda Vyetnam AQSH bilan diplomatik munosabatlarni qayta tikladi.

## GABON

*Rasmiy nomi — Gabon Respublikasi. Poytaxti — Librevil. Hududi — 267667 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1321600 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — xristianlik (60%), majusiylik (39%), islom (1%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Markaziy Afrikaning g'arbida joylashgan davlat. Sharqda va janubda Kongo (chegara uzunligi — 1903 km), shimolda va g'arbda Kamerun va Ekvatorial Gvineya bilan chegaradosh (648 km). G'arbda Gabon Atlantika okeaniga tutashib ketgan. Asosiy yirik daryosi — Ogove. Asosiy tabiiy boyliklari — neft, uran, oltin, temir rudasi,

marganets. Hududining 78% i namlik darajasi yuqori bo‘lgan tropik o‘rmonlar bilan qoplangan. Gabon hududining deyarli o‘rtasidan ekvator kesib o‘tadi.

Iqlimi — nam va issiq. Hayvonot dunyosi o‘ta boy va xilma-xil. Fil, qo‘tos, antilopa, qoplon va boshqalar shular jumlasidandir.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat 9 ta viloyatdan iborat. Gabon 1960-yilning 17-avgustida o‘z mustaqilligiga erishgan. 17-avgust Milliy mustaqillik kuni sifatida bayram qilinadi. Davlat boshlig‘i — prezident. Hukumat va Bosh vazir prezident tomonidan tayinlanadi. Qonun chiqaruvchi oliy organ bir palatali parlament — Milliy Majlis. Mamlakatda 70 dan oshiq siyosiy partiyalar mavjud. Ularning eng yiriklari — Gabon Demokratik Partiyasi, Gabon Taraqqiyoti Partiyasi va Milliy Uyg‘onish harakati.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Yirik miqdordagi tabiiy boyliklarga ega bo‘lganligi sababli Gabon Afrikaning rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning yetakchi sohasi neft eksportidir. Bundan tashqari sanoatning boshqa sohalari — yog‘ochni qayta ishslash, to‘qimachilik, kon ishlari yaxshi rivojlangan. Qishloq xo‘jaligida asosan shakar-qamish, kakao, banan, makkajo‘xori va sholi yetishtiriladi. Eksportga neft, marganets, toshko‘mir, uran xomashyosi chiqariladi. 2004-yil YIM miqdori 7966 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari Fransiya, AQSH va Yaponiya. Yirik portlari: Libervil, Port-Jantil.

**Tarixi.** Bugungi Gabon hududi XV asrda portugallar tomonidan ochilgan. Gabonni mustamlakalashtirish jarayoni uning 1889-yilda Fransuz Kongosiga qo‘silishi bilan yakunlandi. Gabon 1910-yilda Fransuz Ekvatorial Afrikasining tarkibiy qismiga aylandi. 1960-yildan Gabon o‘z mustaqilligiga erishdi.

## GAITI

Rasmiy nomi — Gaiti Respublikasi. Poytaxti — Port-o-Prens. Hududi — 27750 km<sup>2</sup>. Aholisi — 7527800 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — xristianlik (95%). Pul birligi — gurd.

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Gaiti — Karib dengizi havzasidagi Gaiti orolining g‘arbiy qismida joylashgan davlat. Sharqda quruqlik orqali orolning sharqiy qismida joylashgan Dominikan Respublikasi bilan chegaradosh. Janubda Karib dengizi, shimolda Atlantika okeani bilan tutashgan. G‘arbdan tor bo‘g‘oz Gaitini Kubadan ajratib turadi. Gaiti hududi asosan tog‘ tizmalaridan iborat bo‘lib, eng baland cho‘qqisi — La-Sel (2680 m). Daryolari uncha katta bo‘limgan tog‘ daryolari bo‘lib, ular asosan 2 ta — Guayamuk va Artibonite. Hududida ikkita yirik ko‘l — Somatr va Pligr mavjud bo‘lib, ular sho‘r suvli. Asosiy tabiiy boyliklari: mis, molibden, boksit, oltin va kumush.

Iqlimi — tropik. O‘simlik dunyosi o‘ta boy va xilmoxil. G‘arbiy hududlari o‘rmon va butazorlar, tog‘li hududlar esa tog‘ o‘rmonlari bilan qoplangan. Gaitida palmaning bir necha turi uchraydi. Mapu daraxti va antil emanining balandligi 30 m gacha yetadi. Bundan tashqari, qizil daraxtning qimmatbaho navlari ham saqlanib qolgan. Gaiti hayvonot dunyosining asosiy qismi inson tomonidan qirib tashlangan. Shu sababli uning hududida yirik jonzotlar deyarli saqlanib qolmagani. Sohil hududlarida yirik dengiz toshbaqalarini uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 9 ta departamentga bo‘lingan. Gaiti 1804-yil 1-yanvarda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan. Davlat boshlig‘i — prezident. Eng yirik siyosiy partiyalari: O‘zgarishlar va Demokratiya milliy fronti, Demokratiyani tiklash harakati, Gaiti komunistlari birlashgan partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Gaiti

g‘arbiy yarim sharning eng qoloq va qashshoq agrar davlatlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat tabiiy boyliklarning yirik zaxirasiga ega bo‘lishiga qaramay sanoat o‘ta sust rivojlangan. Sanoat butunlay xorijiy sarmoya nazoratida. Qishloq xo‘jaligi umumiy milliy mahsulotning 40% ini yetkazib beradi. Uning asosini qahva, paxta, shakarqamish, kakao, tamaki yetishtirish tashkil etadi. Qishloq aholisining deyarli yarmini yersiz dehqonlar tashkil etadi. 2004-yil YIM miqdori — 12050 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH va Fransiya.

**Tarixi.** Gaiti 1492-yilda Xristofor Kolumb tomonidan kashf qilingan va Espanola nomi bilan Ispaniyaning birinchi mustamlakasi hamda Lotin Amerikasidagi ispan ekspansiyasining asosiy markaziga aylangan. Mahalliy hindular butunlay qirib tashlangan va oroldagi plantasiyalarda ishlatish uchun Afrikadan qullar olib kelingan. XVII asr o‘rtalarida orol ikkiga bo‘lindi va sharqiy qismi (hozirgi Dominikan respublikasi) Ispaniya mustamlakasi, g‘arbiy qismi esa (hozirgi Gaiti) Fransiya mustamlakasiga aylandi. 1791-yilda Tussen Luvertyur boshchiligidagi qullar qo‘zg‘oloni ko‘tarildi. Tussen Luvertyur 1802-yilda o‘zining asir qilinishigacha butun Gaitini boshqardi. 1804-yili Gaiti Yevropa davlatlari mustamlakalari ichida o‘z mustaqillagini qo‘lga kiritgan birinchi davlat bo‘ldi. 1811-yil mamlakatda monarxiya o‘rnatildi. 1820-yil — Respublika, 1849-yili Imperiya deb e’lon qilindi. 1859-yilda Gaitida yana Respublika boshqaruvi o‘rnatildi. 1915-yil mamlakatga AQSH qo‘sishlari bostirib kirdi va 1934-yilgacha boshqaruvni o‘z qo‘llariga olishdi. Shundan so‘ng 1986-yilgacha Gaitida boshqaruv diktatorlik yo‘li bilan amalga oshirildi. 1986-yili harbiylar hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishdi. 1994-yildan hokimiyat fuqarolik hukumati qo‘liga o‘tdi.

## GAYANA

*Rasmiy nomi — Gayana Kooperativ Respublikasi. Poytaxti — Jorjtaun. Hududi — 214969 km<sup>2</sup>.*

*Aholisi — 702100 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — induizm (54%), xristianlik (27%). Pul birligi — Gayana dollari.*

***Geografik joylashuvi va tabiati.*** Janubiy Amerikaning shimoliy qismida joylashgan davlat bo‘lib, janubda va g‘arbda Braziliya, shimoliy g‘arbda Venesuela va sharqda Surinam davlatlari bilan chegaradosh. Shimolda Gayana Atlantika okeani bilan tutashgan. Markaziy va janubiy hududlarini Gvian yassitog‘liklari egallagan. Eng baland cho‘qqisi Rorayma (2772 m). Mamlakat zaminini boksit, oltin, olmos kabi tabiiy boyliklarga boy.

Iqlimi — subekvatorial. O‘simlik dunyosi o‘ta xilmoxil. Gayana hududida dunyoning boshqa joylarida kam uchraydigan qizil daraxt va temir daraxti o‘sadi. Hayvonot dunyosi bo‘yicha Gayana dunyoning eng boy davlatidan biri desa bo‘ladi. Uning hududida dunyoning boshqa hududlarida o‘ta noyob hisoblangan 100 dan oshiq tur mavjud. Timsoh va maymunlarning eng noyob turlarini Gayanada uchratish mumkin.

***Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.*** Davlat tuzilishi — respublika. Britan Hamdo‘stligi a’zosi. Mamlakat 10 ta okrugga bo‘lingan. Gayana 1966-yil 26-mayda Britaniya istibdodidan chiqib o‘z mustaqilligini e’lon qilgan. 1970-yilning 23-fevralida Gayana respublika deb e’lon qilingan. Ijroiya hokimiyat prezident va Bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organi bir palatali parlament — Milliy Majlis. Asosiy siyosiy partiyalari: Xalq taraqqiyoti partiyasi (XTP), Xalq Milliy Kongressi (XMK).

***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*** Gayana aholi jon boshiga tushadigan daromadi bo‘yicha dunyoning eng qashshoq davlatlaridan biri. Elektroenergetika sohasining sust rivojlanganligi va elektr quvvatining yetishmasligi xalq xo‘jaligining rivojlanishiga juda katta to‘siq bo‘lmoqda. Sanoatning asosiy sohasi — tog‘-kon sanoati hisoblanadi. Gayana agrar davlat bo‘lganligi sababli, mamlakat xalq xo‘jaligi hayotida qishloq xo‘jaligi asosiy o‘rinni egallaydi. Qishloq

xo‘jaligida asosan shakarqamish va sholi yetishtiriladi, bundan tashqari banan, qahva va sitrus mevalari yetishtirish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

2004-yil YIM miqdori 2899 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya.

**Tarixi.** Tub aholisi hindular hisoblangan Gayana XVII asrga kelib Gollandiya istibdodiga tushib qoldi. 1914-yilda Buyuk Britaniya mulkiga aylandi. 1931-yildan butunlay Britaniya mustamlakasiga aylantirildi. II jahon urushidan keyin mustamlakalarda yuzaga kelgan o‘zgarishlar tufayli, 1953-yilda Buyuk Britaniya Gayanaga o‘z-o‘zini boshqarish huquqini berdi. 1966-yilda esa uning mustaqilligini tan oldi.

## GAMBIYA

*Rasmiy nomi — Gambiya Respublikasi. Poytaxti — Banjul. Hududi — 10402 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1400000 kishi (2001). Davlat tili — ingliz. Dini — islom. Pul birligi — dalasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Gambiya G‘arbiy Afrikada joylashgan davlat. Janubda, shimolda va sharqda yagona Senegal bilan chegaradosh. G‘arbda Atlantika okeani bilan tutashgan. Mamlakat maydoni asosan tekisliklardan iborat. Eng yirik daryosi — Gambiya.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 6 ta ma’muriy viloyatga bo‘lingan. Ijroiya hokimiyat prezidentga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organi bir palatali parlament. Gambiya 1965-yilning 18-fevralida o‘z mustaqilligini e’lon qilgan. Asosiy siyosiy partiyalari: Milliy Taraqqiyot partiyasi, Gambiya Xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Tabiiy resurslarning yetishmasligi va dehqonchilikning rivojlanishi uchun tabiiy sharoitning o‘ta noqulayligi Gambiyani dunyodagi eng qashshoq mamlakatlardan biriga aylantirgan. Mamlakat sanoati o‘ta zaif rivojlan-

gan. Qishloq xo‘jaligi YMMning 30% ini yetishtirib beradi. 2004-yil YIM miqdori 2799 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1800 dol.) tashkil etgan. Eksportga chiqaradigan mahsulotlarining 75% ini turli yong‘oqlar va yong‘oq mahsulotlari tashkil etadi.

**Tarixi.** Bugungi Gambiya hududlari XIII—XV asrlarda Mali imperiyasi tarkibiga kirgan. XV asr oxiri va XVI asrda Songay imperiyasi bu yerlarni o‘z tarkibiga qo‘shib olgan. XV asrda ilk bor portugallar Gambiya sohillariga kelib joylashgan. XVIII asrga kelib portugallarni inglizlar. Gambiyadan siqib chiqarishdi. Versal shartnomasiga ko‘ra Gambiya 1888-yilda Buyuk Britaniya mulki deb e’lon qilindi. Gambiya 1965-yil 18-fevralda mustaqillikka erishdi. 1981-yil 12-dekabrdan Gambiya va Senegal o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvga ko‘ra bu ikki davlat Senegambiya erkin konfederatsiyasiga birlashdi. Lekin 1989-yil bu kelishuv bekor qilindi.

## GANA

*Rasmiy nomi — Gana Respublikasi. Poytaxti — Akkra shahri. Hududi — 238305 km<sup>2</sup>. Aholisi — 20467700 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — aholining asosiy qismi mahalliy turli dinlarga e’tiqod qiladi, qolgan qismi xristianlik va islom dinlariga e’tiqod qilishadi. Pul birligi — sedi.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Gana G‘arbiy Afrikada joylashgan davlat. Sharqda Togo, shimolda va shimoli g‘arbda Burkina-Faso, g‘arbda Kot-d’Ivuar davlatlari bilan chegaradosh. Janubda Gana Atlantika okeani bilan tutashgan. Gana hududining asosiy qismi tekisliklardan iborat. Mamlakatning sharqida dunyoning eng katta sun’iy ko‘llaridan biri hisoblangan Volta ko‘li joylashgan. Gana hududidagi yirik daryolar: Qora Volta, Oq Volta va Volta daryolari. Oltin, sanoat olmosi, boksit, marganets, yog‘och, baliq va kauchuk bu mamlakatning asosiy boyliklaridan hisoblanadi. Sohilbo‘yi o‘simlik dunyosi unchalik boy

emas. Asosan past bo'yli butazorlar va baobab daraxtlaridan iborat. Markaziy hududlardagi o'rmonzorlarda qizil va qora daraxtning turli navlari va paxta daraxti o'sadi. Gananing hayvonot dunyosi o'ta xilma-xil. Savanna o'rmonzorlarida iser, qoplon, antilopa, fil, turli maymunlarni va suvli hududlarda timsoh va begemotlarni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat 10 ta viloyatga bo'lingan. Gana 1957-yilning 6-martida o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Davlat boshlig'i — prezident. Yirik siyosiy partiyalari: Milliy Demokratik Kongress (MDK), Xalq Vatanparvar partiyasi (XVP).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Xo'jalikning asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligi Gana umumiy milliy mahsulotining 50% ini yetishtiradi. Gana kakao eksporti bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Bundan tashqari, eksportga oltin, boksit, alyuminiy, yog'och va baliq mahsulotlarini chiqaradi. 2004-yil YIM miqdori 48270 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya va Yaponiya.

**Tarixi.** Hozirgi Gana hududlarida yevropaliklar tomonidan kashf qilingungacha, Dogomba va Mamprusi qirolliklari mavjud bo'lgan. 1471-yil portugallar Gana qirg'oqlaridagi o'zlarining birinchi qo'nalg'alariga asos solishgan. Ko'p yillar davomida Gana Afrika qit'asidagi qul savdosining markazi bo'lib kelgan. 1642-yilga kelib portugallar gollandlar tomonidan Ganadan butunlay siqib chiqarildi. 1871-yilgacha Gana Gollandiya mustamlakasi bo'lib qoldi. 1871-yilda Angliya Ganani Gollandiyadan sotib olib, Oltin qirg'oq deb nomladi. 1957-yilda Gana mustaqillikka erishdi. 1960-yili respublika deb e'lon qilindi.

## GADELUPA

*Rasmiy nomi — Gvadelupa (Fransyaning «dengizorti departamenti» va regioni). Poytaxti —*

*Bas-Ter. Hududi – 1780 km<sup>2</sup>. Aholisi 448700 kishi (2005). Davlat tili – fransuz. Dini – xristianlik. Pul birligi – fransuz franki.*

**Geografik joylashkuvi va tabiat.** Karib dengizidagi Kichik Antil orollari arxipelagida joylashgan davlat. Gvadelupa oroli va unga yaqin bo‘lgan bir qator orollar (Mari-Galant, Dezirad, Le-Sent, Sen-Bartelmi, Ptit-Ter va Sen-Marten orolining shimoliy qismi)dan tashkil topgan. Gvadelupa oroli vulqonli kelib chiqishga ega. Tor bo‘yin orolning ikki qismini — Bas-Ter va Grand-Terni birlashtirib turadi.

Iqlimi — tropik, passat. Tog‘lar nam tropik o‘rmonlar bilan qoplangan. Hasharotlarning noyob turlari, dengiz hayvonlari, qushlar mavjud.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalar.** Davlat tuzilishi — Fransyaning «dengizorti departamenti» va regioni. Departamentni keng vakolatlarga ega bo‘lgan Fransuz hukumati vakili — prefekt boshqaradi. Gvadelupa hududi uch okrugga bo‘lingan. Xalqaro aeroporti Reze Puent-a-Pitradan 3 km uzoqlikda joylashgan. Siyosiy partiyalari: Fransuz sotsialistik partiyasi, Gvadelupa Kommunistik partiyasi, Gvadelupa progressiv demokratik partiyasi va boshqalar.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Hudud iqtisodiyotining asosini yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va turistlarga xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi tashkil etadi. Rom, alkagolsiz ichimliklar, qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Kokos yong‘oqlari, shakarqamish, banan, ananas, baqlajon yetishtiriladi. Dengiz baliqlari va hayvonlari ovlanadi. 2004-yil YIM miqdori 3513 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Germaniya, Yaponiya, AQSH, Italiya, Martinika.

**Tarixi.** Gvadelupa 1493-yilda X. Kolumb tomonidan kashf qilingan. 1635-yilda orol Fransiya mustam-lakasiga aylandi. XVII—XVIII asrlar davomida Afrika-dan banan va shakarqamish plantatsiyalarida ishlatish uchun olib kelingan, qullar bu yerga istiqomat uchun

joylashtirilgan. 1816-yilgacha Fransiya Angliyaga qarshi bu hudud egaligi uchun kurash olib bordi. 1848-yilda qullik bekor qilindi 1946-yilda orollar hududi «dengizorti departamenti» statusini oldi. 1973-yilda esa Fransiya regioni deb e'lon qilindi.

## GVATEMALA

*Rasmiy nomi — Gvatemala Respublikasi. Poytaxti — Gvatemala. Hududi — 108889 km<sup>2</sup>. Aholisi — 13909400 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — xristianlik (70%). Pul birligi — ketsal.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Gvatemala Markaziy Amerika davlati. Shimol va g'arbda Meksika, sharqda Beliz, janubi sharqda Salvador va Gonduras davlatlari bilan chegaradosh. Janubda Gvatemala Tinch okean bilan tutashgan. Mamlakat shimoli yassi tog'lardan, markaziy viloyatlari esa tog'li hududlardan iborat. Eng yirik tog' tizmasi — Serra-Madreda bir qancha harakatdagi vulqonlar mavjud. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi Taxumulko vulqoni (4220 m). Eng yirik daryosi — Motagua. Gvatemalada qo'rg'oshin, nikel, volfram, kumush va nefstning unchalik katta bo'limgan zaxiralari mavjud.

Iqlimi — tropik. Mamlakat hududining yarmi doimo yashil o'rmonlar bilan qoplangan. O'simlik dunyosi o'ta xilma-xil bo'lib, dunyoning boshqa joylarida uchramaydigan o'simliklar Gvatemala o'rmonlarida mavjud. Hayvonot dunyosi bo'yicha Gvatemala Markaziy Amerikaning eng boy davlatlaridan biridir. Uning o'rmonlarida tropik hayvonot dunyosining barcha turlarini uchratish mumkin. Qushlarning 2000 dan oshiq turi mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik Respublikasi. Mamlakat 22 ta departamentdan iborat. 1821-yil 15-sentabrda Gvatemala o'z mustaqilligiga erishdi. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organi bir palatali parla-

ment — Milliy Kongress. Eng yirik siyosiy partiyalari: Milliy Markaz Ittifoqi (MMI), Xristian Demokratik Partiya (XDP), Gvatemala Mehnat Partiyasi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Gvatemala qoloq agrar mamlakat hisoblanadi. Umumiy milliy mahsulotning 30% ini qishloq xo'jaligi yetishtirib beradi. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari: qahva, paxta, shakarqamish va banan. Importga asosan shakar chiqaradi. 2004-yil YIM miqdori 59470 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Meksika, Yaponiya.

***Tarixi.*** Bugungi Gvatemala hududida eramizning III asrida mayyalar imperiyasi tashkil topgan. Imperianing gullab-yashnash davri VII—IX asrlarga to'g'ri keladi. 1513-yil ispanlar Gvatemala hududlarini kashf qilishdi va bu yerdarda o'zlarining talonchilik urushlarini olib borishdi. 1821-yil Gvatemala o'z mustaqilligini e'lon qilgan bo'lsa-da, 1847-yilgacha Meksika homiyligi ostida bo'ldi. 1985-yilda birinchi marta erkin demokratik saylovlар o'tkazildi va hokimiyat fuqaro hukumati qo'liga o'tdi.

## **GVIANA**

*Rasmiy nomi — Gviana (Fransiya «dengizorti departamenti» va regioni). Poytaxti — Kayenna. Hududi — 91000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 200000 kishi (2001). Davlat tili — fransuz. Dini — katolik. Pul birligi — Fransiya franki.*

***Geografik joylashuvi va tabiat.*** Janubiy Amerikaning shimoli sharqida, Atlantika sohilida joylashgan davlat. Surinam bilan g'arbda, Braziliya bilan janubda va sharqda chegaradosh. Gviana markaziда yassitog'liklar mavjud, shimolda tekislik, janubda esa tog'lar bilan o'ralgan.

Iqlimi — issiq, ekvatorial. Atlantikaga qarab ko'plab daryolar oqadi. Hudud oltin, boksit zaxiralari boy. Gviana hududining 96,7% i noyob turdag'i o'rmonzorlar bilan qoplangan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Siyosiy tuzumi — region, Fransyaning «dengizorti departamenti». Region boshlig'i — Fransiya Respublikasi Prefekti, Bosh Kengash Raisi. Gviana 20 okrugga (kanton), okruglar esa kommunalarga bo'lingan. Siyosiy partiyalari: Fransiya siyosiy partiyalarining mahalliy bo'limlari, Gviana demokratiyasi ittifoqi, Gviana xalq milliy partiyasi, Gviana sotsialistik partiyasi, Valvari komiteti, Taraqqiyot kuchlari.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Gviana — iqtisodiy qoloq mamlakat. Oltin qazish, elektr quvvati ishlab chiqish, yog'ochni qayta ishlash sanoat korxonalari mavjud. Baliq ovlash — iqtisodning ilg'or tarmog'idir. Chorvachilik, boshoqli o'simliklar, sabzavot, guruch, maniok, banan, ananas, shakarqamish yetishtiriladi. Gviana o'zining Kuru (Kourou) kosmodromidan Ariane raketalarini Yevropa Kosmik Agentligi dasturlari asosida uchiradi. Yirik shaharlari: Kuru, Sen-Loran-dyu-Maroni. Portlari: Kayenna, Degra-de-Kann. Romambo xalqaro aeroporti mavjud.

Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Trinidad va Tobago, AQSH, Yaponiya.

**Tarixi.** 1499-yil ispanlar tomonidan kashf qilin-gan. 1604-yildan Fransiya mustamlakachiligiga asos solindi. Bu hududlar uchun Ispaniya bilan Niderlan-diya, Birlashgan Britaniya, Portugaliya urushlar olib borgan. 1817-yildan Fransiya mulkiga aylandi. XVIII asr oxiri — XX asr o'talarigacha Gvianaga fransuz siyosiy mahbuslari qatag'on qilinganlar. Gvianaga 1946-yil Fransyaning dengizorti departamenti, 1975-yil — region maqomi berildi. Gvianada hanuzgacha mustaqillik uchun kurash davom etmoqda.

## GVINEYA

**Rasmiy nomi** — Gvineya Respublikasi. **Poy-taxti** — Konakri. **Hududi** — 245857 km<sup>2</sup>. **Aholisi** — 9030200 kishi (2003). **Davlat tili** —

|| fransuz. Dini – islom (70%). Pul birligi – Gvineya franki.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** G‘arbiy Afrikada joylashgan davlat. Janubda Serra-Leone va Liberiya, sharqda Kot d’Ivuar, shimolda Bisau, Senegal va Mali bilan chegaradosh. G‘arbda Atlantika okeaniga tutashgan. Sohilbo‘yi tekisliklarini hisobga olmaganda mamlakat hududi asosan pasttog‘lar va tepaliklardan iborat. Eng yirik daryolari: Gambiya va Bafing. Gvineyaning eng baland nuqtasi Nimba tog‘i hisoblana-di (1752 m). Mamlakat zaminida boksit, temir rудаси, олтин, олмос ва уран каби табиий boyliklarning zaxiralari mavjud. Gvineya hududi G‘arbiy Afrikada eng ko‘p yog‘in yog‘adigan hududdir. O‘simlik dunyosi juda xilma-xil. Bu yerda palmaning noyob navlari o‘sadi. Hayvonot dunyosi ham juda boy. Gvineya hududida Afrika tabiatiga xos bo‘lgan barcha hayvonlarni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Gvineya 1958-yilning 2-oktabrida Fransiyadan mustaqillikka erishgan. Davlat boshlig‘i — prezident. 1984-yilning 3-aprelida II respublika e’lon qilingan. Yirik siyosiy partiyalari: Gvineya Xalq Birlashuvi, Yangilanish va Taraqqiyot Partiyasi, Gvineya Xalqi Ittifoqi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Yirik miqdordagi qazilma boyliklar zaxirasiga ega bo‘lishiga qaramasdan Gvineya dunyodagi qashshoq davlatlardan biri bo‘lib kelmoqda. Jahon boksit zaxiralarining 27% i Gvineya hududida joylashgan bo‘lib, uni ishlab chiqarish bo‘yicha Gvineya jahonda 2-o‘rinda turadi. Qishloq xo‘jaligi baliqchilik va o‘rmonchilikni ham qo‘sib hisoblaganda umumiy milliy mahsulotning 40% ini yetkazib beradi. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari: sholi, qahva va sitrus mevalar. Sanoat umumiy milliy mahsulotning 27% ini yetkazib beradi. 2004-yil YIM miqdori — 19500 mln dollarni (aholi jon boshiga 2100 dol.) tashkil etgan. Gvineyada tog‘-kon ishlari yaxshi rivojlangan. Umumiy eksport mahsulotlarining

yarmidan ko‘pini boksit va alyuminiy eksporti tashkil etadi.

**Tarixi.** Gvineya hududining bir qismi XV asrgacha Gana va Mali davlat birlashmalarining tarkibiga kirgan. XVIII asr oxirlarida ko‘chmanchi fulbelarning harbiy davlati tashkil topdi. 1893-yildan Gvineya Fransiyaning mustamlakasiga aylandi. 1958-yil Gvineya o‘z mustaqilligini e’lon qildi. 1966-yilda Fransiya uning mustaqilligini tan oldi.

## GVINEYA-BISAU

*Rasmiy nomi — Gvineya-Bisau Respublikasi. Poytaxti — Bisau. Hududi — 36125 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1360800 kishi (2003). Davlat tili — portugal. Dini — aholining 65% i turli xil mahalliy dinlarga e’tiqod qiladi. Musulmonlar 30%, xristianlar 5% ni tashkil etadi. Pul birligi — Gvineya-Bisau pyesosi.*

**Geografik joylashkuvi va tabiat.** Afrika qit’asining shimoliy g’arbida joylashgan davlat. Sharqda va janubda Gvineya va shimalda Senegal bilan chegaradosh. G’arbda Atlantika okeani bilan tutashgan.

Iqlimi — subekvatorial. Mamlakatning sharqiy qismi savanna o‘rmonzorlari bilan qoplangan. O‘rmonzorlarda to‘ng‘iz, qoplon, qo‘tos va maymunlarning har turlisini uchratish mumkin. Botqoqlik va suvli hududlarda begemot va timsohlar mavjud. Inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan setse pashshasi va shunga o‘xhash hasharotlar tufayli ba’zi hududlar yashashga yaroqsiz.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 8 ta okrugdan tashkil topgan. Gvineya-Bisau 1973-yil 24-sentabrda Portugaliya istibdodidan chiqib, o‘z mustaqilligini e’lon qilgan. Ijroiya hokimiyat Davlat Kengashi Raisi va Vazirlar Kengashi Raisiga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Milliy Xalq Yig‘ini va Davlat Kengashiga tegishli. Siyosiy partiyalari: Ijtimoiy yangilanish partiyasi, Gvineya va Kabo-Verde mustaqilligi Afrika partiyasi.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Gvineya-Bisau dunyoning qashshoq davlatlaridan biridir. Xalq xo‘jaligining asosiy sohasi qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. Umumiy milliy mahsulotning 50% ini qishloq xo‘jaligi yetishtirib beradi. Asosiy ekinlari: sholi, yong‘oq, makkajo‘xori va paxta. Mamlakat o‘z-o‘zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘la ta‘minlay olmaydi. Sanoati esa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan chegaralangan. 2004-yil YIM miqdori 1250 mln dollarni (aholi jon boshiga — 700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Portugaliya, Ispaniya, Senegal.

**Tarixi.** IX—XIII asrlarda bugungi Gvineya-Bisau hududlari Gana qirolligi tarkibiga kirgan. XIII—XV asrlarda Mali qirolligi uni o‘z tarkibiga kiritgan. XV asrga kelib bu yerlar Songay qirolligiga qaragan. Gvineya-Bisau 1146-yilda portugallar tomonidan kashf qilingan. XVIII asrga kelib Yevropa davlatlari bu hududlarni mustamlaka qilish uchun kurashib kelishdi. 1879-yilda mamlakat Portugaliya mustamlakasi deb e’lon qilindi. 1966-yilda boshlanib ketgan ozodlik kurashi 1974-yil Gvineya-Bisau respublikasining tashkil topishi bilan yakunlandi.

## GERMANIYA

*Rasmiy nomi — Germaniya Federativ Respublikasi. Poytaxti — Berlin. Hududi — 357041 km<sup>2</sup>. Aholisi — 82398300 kishi (2003). Davlat tili — nemis. Dini — xristianlik. Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Markaziy Yevropada joylashgan davlat. Janubda Avstriya va Shveysariya, g‘arbda Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg va Fransiya, sharqda Polsha va Chexiya, shimolda Daniya bilan chegaradosh. Bundan tashqari shimolda Germaniya sohillari Shimoliy dengiz va Boltiq dengizi bilan tutashgan. Germaniyaning shimoliy hududlari asosan tekisliklardan iborat. Markaziy Germaniya adirlar va daryo vohalaridan tashkil topgan bo‘lib,

mamlakat janubida Alp tog'lari bo'y cho'zgan. Mamlakat shimolida Boltiq dengizida Germaniyaga qarashli bo'lgan shimoliy va sharqiy Frizsk orollari va Shimoliy dengizda Femarn va Ryugen orollari joylashgan. Germaniyaning eng baland nuqtasi Zyugshpitse tog'laridir (2963 m). Eng yirik daryolari: Reyn, Rur, Mozel, Dunay, Elba. Eng yirik ko'li Boden ko'lidir. Mamlakat tabiiy qazilma boyliklarga o'ta boy.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — Federativ Respublika. Germaniya 16 ta federal yerkarning birlashuvidan tashkil topgan. Bular: Baden-Vyurtemberg, Bavariya, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessen, Meklenburg-old Pomerniya, shimoliy Reyn-Vestfaliya, Reynland-Pfal, Saar, Saksoniya, Saksoniya-Anxalt, Quyi Saksoniya, Shlezvig-Golshteyn, Tyuringiya. Markazlashgan mustaqil Germaniya davlati 1871-yil 18-yanvarda tashkil topgan. Davlat boshlig'i — prezident. Lekin ijroiya hokimiyat federal kansler rahbarligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Bundestag deb nomlana-di. Eng yirik siyosiy partiyalari: Xristian-Demokratik ittifoq (XDI), Ozod Demokratik partiya (ODP), Germaniya Sotsial-Demokratik partiyasi (GSDP), Milliy Demokratik partiya (MDP).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Germaniya dunyoning rivojlangan va moliyaviy jihatdan boy davlatlaridan biridir. Lekin Sharqiy va G'arbiy Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishida ma'lum bir ziddiyatlar mavjud. Bunga sabab GDR va GFR xo'jaligining 1990-yilgacha turli siyosiy tuzumlarda rivojlanganligidir. 1990-yilning 3-oktabrida yagona Germaniya tashkil topganidan so'ng, bu ziddiyatlarga barham berish maqsadida GFR GDR xo'jaligiga 390 mlrd marka sarfladi. Sanoatning rivojlangan sohalari: metallurgiya, kimyo, avtomobilsozlik, kemasozlik va elektrotexnika. Germaniya avtomobilsozlik va kemasozlik bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Qishloq xo'jaligi umumiy milliy mahsulotning 15% ini yetkazib beradi. Chorvachilik ayniqsa yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligidagi asosiy ekinlar: qandlavlagi,

kartoshka va boshoqli ekinlar. Germaniya o‘z xalqining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining 90% ini ichki imkoniyatlar hisobida qoplaydi. 2004-yil YIM miqdori 2362000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 28700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, AQSH va YH davlatlari.

**Tarixi.** Qadimda bugungi Germaniya hududlarida turli german qabilalari yashashgan. Bu qabilalar V asrda Rimni mag‘lubiyatga uchratib, Rim imperiyasi inqiroziga sabab bo‘lishgan. Rimning inqirozidan so‘ng frank qabilalari sardori Xlodvig hozirgi Fransiya va janubiyg‘arbiy Germaniya hududlarida franklar davlatiga asos soldi. Bu davlat Buyuk Karl hukmronligi yillarida butun german yerlarini o‘z tarkibiga qo‘shib oldi. 843-yil franklar imperiyasi parchalandi va uning sharqiy hududlarida german qirolligi tashkil topdi. Lekin ko‘p o’tmay nemis knyazlarining o‘zaro nizolari natijasida zaiflashib inqirozga uchradi. X asrda Sakson sulolasi Muqaddas Rim imperiyasiga asos soldi. Fridrix I Barbarossa hukmronligi yillarida imperiya hududlari kengaydi. Ko‘p yillik o‘zaro kurashlardan so‘ng 1438-yil Gabsburglar xonadoni hokimiyatga keldi. XVI asrda Martin Lyuter tomonidan amalga oshirilgan reformatsiya diniy qarashlarga ko‘ra mamlakatni parchaladi. Diniy nizolar Yevangeliya ittifoqi va Muqaddas Liga o‘rtasida «30 yillik urush»ning boshlanishiga sabab bo‘ldi (1618—1648). Urush natijasida mamlakat 350 ta mayda davlatchalarga bo‘linib ketdi. 1815-yil 39 ta nemis davlatchalarini o‘z ichiga olgan German konfederatsiyasi tashkil topdi. Markazlashgan nemis davlatining tashkil topishida Prussiya kansleri Otto fon Bismark juda katta hissa qo‘shti. U 1871-yilda Prussiya qiroli Vilgelm I ni Germaniya imperatori deb e’lon qildi. Germaniya 1914-yil I jahon urushining boshlanishiga sababchilaridan biri bo‘ldi. Urushdan mag‘lub davlat sifatida chiqdi. 1918-yil 9-noyabrda imperator Vilgelm II taxtdan ag‘darildi. Germaniyada Veymar respublikasi e’lon qilindi. 1933-yil Gitler boshchiligidagi fashistlar hokimiyatni qo‘lga olishdi. 1939-yil 1-sentabrda Germaniyaning Polshaga hujumi bilan II jahon-

urushi boshlanib ketdi. Germaniya II jahon urushini ham mag'lubiyat bilan yakunladi. 1945-yilda AQSH, Angliya, Fransiya va SSSR nazorati ostidagi to'rt qismga bo'lindi. 1949-yili uning hududida GDR va GFR davlatlari tashkil topdi. 1990-yil 3-oktabrda bu ikki davlat yagona Germaniyaga birlashdi. 1991-yil 20-iyunda Berlin Germanianing poytaxti deb e'lon qilindi.

## GIBRALTAR

*Rasmiy nomi — Gibraltar (Buyuk Britaniya mulki). Poytaxti — Gibraltar. Hududi — 6,5 km<sup>2</sup>. Aholisi — 27800 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — katoliklar (75%), qolgan qismi protestantlar, musulmonlar va yahudiylar. Pul birligi — Gibraltar funt-sterlingi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Gibraltar Pireney yarimorolining janubiy qismida joylashgan Buyuk Britaniyaga qarashli yerlar hisoblanadi. Quruqlik orqali shimolda faqat Ispaniya bilan chegaradosh. Sharqda O'rta Yer dengizi, janub va g'arbda Gibraltar bo'g'ozi va Atlantika okeani bilan tutash. Gibraltar hududlari hali ham Ispaniya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi nizoli yerlar hisoblanadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — konstitutsion monarxiya. Davlat boshlig'i Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadigan gubernator. Siyosiy partiyalari: Gibraltar Leyboristlar partiyasi, Britaniya Gibraltari Demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Gibraltar asosan dengiz portlaridan iborat bo'lib, uning iqtisodi Britaniya tomonidan beriladigan harbiy-iqtisodiy yordami bilan belgilanadi.

2004-yil YIM miqdori 825 mln dollarni (aholi jon boshiga — 29600 dol.) tashkil etgan.

**Tarixi.** Bugungi Gibraltar hududlari 711-yilda arablar tomonidan bosib olingen. 1462-yilda Gibraltarni ulardan ispanlar tortib olishadi. 1704-yilda Gibraltar Buyuk Britaniya tomonidan istilo qilinadi. 1713-yil

Utrecht shartnomasiga ko‘ra Gibraltar Buyuk Britaniya nazoratidagi yerlar deb e’lon qilinadi. I va II jahon urushi yillarda bu hududlar Britaniyaning harbiy dengiz bazasi sifatida xizmat qildi.

1967-yil BMTning talabi bilan o’tkazilgan referendumlarda Gibraltar xalqi Ispaniya bilan qo’shilishdan bosh tortdi.

## GONDURAS

*Rasmiy nomi — Gonduras Respublikasi. Poytaxti — Tegusigalpa. Hududi — 112100 km<sup>2</sup>. Aholisi — 6669800 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — katolik. Pul birligi — lempira.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Markaziy Amerikada joylashgan davlat. Janubda Nikaragua, g‘arbda Gvatemala va Salvador bilan chegaradosh. Shimolda va sharqda Karib dengizi, janubi g‘arbda Tinch okean bilan tutashgan. Mamlakat hududi asosan Komayagua, Montesilos, Opalaka kabi yassitog‘liklardan iborat. Eng baland nuqtasi Selake cho‘qqisi (2865 m). Karib dengizi sohillari tekisliklardan iborat. Asosiy daryolari: Ulda, Aguan, Patuka. Asosiy tabiiy boyliklari: oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin, temir rudasi, sink, yog‘och va baliq.

Iqlimi — tropik. O‘simlik dunyosi o‘ta xilma-xil. Bu yerda palma, qizil daraxt, kauchuk daraxti kabi turli daraxtlar o‘sadi. Hayvonot dunyosida tropik iqlimga xos bo‘lgan deyarli barcha hayvonlar uchraydi. Yaguar, qoplon, maymunlarning turli xillari shular jumlasidandir.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat 18 ta departamentdan iborat. 1921-yil 15-sentabrda Ispaniya istibdodidan ozod bo‘lib, o‘z mustaqilligini e’lon qilgan. Davlat boshlig‘i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Milliy Kongressga tegishli. Asosiy siyosiy partiyalari: Gonduras Liberal partiyasi (GAP), Gonduras sotsialistik partiyasi (GSP), Xristian-Demokratik partiya (XDP).

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Gonduras g'arbiy yarim sharning qashshoq davlatlaridan biridir. Eksportga chiqaradigan mahsulotlari asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari hisoblanadi. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari: banan, qahva, shakarqamish, tamaki, sholi. Dehqonchilik qilinadigan yerlarning asosiy qismi yirik yer egalari — latifundistlarga tegishli. Aholining 9% i tog'-kon ishlarida mehnat qiladi. 2004-yil YIM miqdori 18790 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Germaniya, Yaponiya. Yirik portlari: Puerto-Kortes, Tela, Truxilo, La-Seyba.

**Tarixi.** Gondurasning janubiy sohillari 1502-yilda Xristofor Kolumb tomonidan kashf qilingan. 1523-yilda Alvarado boshchiligidagi ispan konkistadorlari tomonidan istilo qilingan. 1790-yilda Gonduras Gvatemala bilan birlashtirilgan. 1821-yil mustaqillikka erishgach, Markaziy Amerika birlashgan provinsiyalari tarkibiga kirgan. Faqatgina 1839-yil mustaqil davlat shakllantirildi. XX asrda Gonduras bir nechta harbiy diktatura va qonli urushlarni boshidan kechirdi. 1969-yilda Salvadorga qarshi urush harakatlari olib bordi. 1981-yildan fuqaro hukumati hokimiyatni o'z qo'lliga oldi.

## **GONKONG**

*Rasmiy nomi — Syangan alohida ma'muriy hududi. Poytaxti — Gonkong (Syangan). Hududi — 1075 km<sup>2</sup>. Aholisi — 7300000 kishi (2001). Davlat tillari — xitoy va ingliz. Dini — bu yerda dunyodagi deyarli barcha dinlar bor. Pul birligi — Gonkong dollari, Xitoy yuaniga o'tilmoqda.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Gonkong Xitoyning maxsus hududi hisoblanadi. Uning hududi asosan Szyulun yarimoroli va atrofidagi orollardan tashkil topgan. Sohillari Janubiy Xitoy dengiziga tutashgan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** 1997-yildan Buyuk Britaniya nazoratidan Xitoy hududiga

o'tdi. 1984-yil Xitoy va Buyuk Britaniya o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Xitoy tarkibidagi maxsus hudud statusini olgan. Bunga ko'ra Xitoy Gonkongda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy tuzumni 50 yilgacha o'zgartirmaslik majburiyatini olgan. Ijroiya hokimiyat gubernator va uning hukumatiga tegishli. Asosiy siyosiy partiyalari: Syangan Leyboristlar partiyasi, O'z-o'zini Boshqarish Demokratik partiyasi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Qazilma boyliklarning deyarli yo'qligiga qaramay, Gonkong iqtisodi yaxshi rivojlangan. Ayniqsa to'qimachilik sanoati va kemasozlik yaxshi rivojlangan. Hududning 8% i dehqonchilik uchun yaroqli yerlar hisoblanadi, shunga qaramasdan ichki bozorda oziqovqat mahsulotlari tanqisligi yo'q. Eksportga asosan tayyor kiyimlar, mato, elektr asboblari va soat chiqaradi. 2004-yil YIM miqdori 234500 mln dollarni (aholi jon boshiga — 34200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Xitoy, AQSH, Yaponiya, Tayvan.

***Tarixi.*** Gonkong 1842-yilgi Nankin shartnomasiga ko'ra Xitoy tomonidan Buyuk Britaniyaga berilgan. Ingizlar Gonkongni yirik savdo portiga aylantirishdi. Natijada bu yerdagi iqtisodiy ahvol keskin yaxshilandi. 1898—1899-yillarda Britaniya Xitoydan 99 yil muddatga ijaraga olgan hududlarini ham Gonkongga qo'shdi. 1941-yil Gonkong yaponlar tomonidan bosib olindi. Lekin II jahon urushida Yaponianing mag'lubiyatidan so'ng u yana Buyuk Britaniya nazoratiga o'tdi. 1997-yil Xitoyning maxsus hududi sifatida Xitoy davlati tarkibiga qo'shildi.

## **GRENADA**

*Rasmiy nomi — Grenada. Poytaxti — Sent-Jorjes. Hududi — 344 km<sup>2</sup>. Aholisi — 89500 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — katolik va protestantlik. Pul birligi — Sharqiy Karib dollari.*

***Geografik joylashuvi va tabiat.*** Karib dengizi havzasida joylashgan davlat. Mamlakat hududi Grenada

oroli, Janubiy Grenadin arxipelagi bir nechta orollari va Kichik Antil orollaridan tashkil topgan. Bu orollarning barchasi vulkanik orollar bo‘lganligi uchun kichik-kichik tog‘liklardan iborat. Eng baland nuqtasi Sent-Katerin tog‘i (840 m).

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — konstitutsiyon monarxiya. Britan Hamdo‘stligi a’zosi. Grenada 1974-yil 7-fevralda Buyuk Britaniyadan mustaqillikka erishgan. Davlat boshlig‘i Britaniya tomonidan tayinlanadigan general-gubernator. Ijroiya hokimiyat Bosh ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni ikki palatali parlament — Senat va Vakillar palatasi amalga oshiradi. Asosiy siyosiy partiyalari: Milliy Demokratik Kongress, Grenada Birlashgan Leyboristlar partiyasi, Milliy partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Grenada agrar qishloq xo‘jalik davlati. U muskat yong‘og‘i yetishtirish va uni eksport qilish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Sanoat yaxshi rivojlanmagan. Turizm asosiy daromad manbayi hisoblanadi. 2004-yil YIM miqdori 44750 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Trinidad, Tobago.

**Tarixi.** Grenada oroli ispanlar tomonidan 1498-yil kashf qilingan. 1650-yil Fransiya mustamlakasiga aylantirilgan. 1762-yil Buyuk Britaniya Grenadani o‘z mulkiga aylantirdi. 1967-yildan Britan Hamdo‘stligi a’zosi. 1974-yil 7-fevralda mustaqilligini e’lon qilgan.

## GRENLANDIYA

*Rasmiy nomi — Grenlandiya. Poytaxti — Nuuk (Gotxob). Hududi — 2175600 km<sup>2</sup>. Aholisi — 59300 kishi (1998). Davlat tili — grenland, dat. Dini — katolik. Pul birligi — Daniya kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Grenlandiya — dunyodagi eng yirik orol — Kanada orollarining shimoli g‘arbida, Shimoliy Muz va Atlantika okeanlari

oralig‘ida joylashgan. Mamlakatning asosiy qismini muzlik qoplagan. Muzlik hajmi 2,6 mln km<sup>2</sup>.

Iqlimi — qirg‘oq bo‘ylab subarktik, arktik; orol markazida — kontinental arktik. Mamlakatning asosiy qismini egallagan tundrada mox, lishaynik hamda boshqa arktik o‘simpliklar o‘sadi. Buqa, bo‘ri, tulki, oq ayiq, quyon, lemming, gaga, chag‘alay, bug‘ular uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — o‘z-o‘zini boshqaradigan Daniya hududi. Davlat rahbari — Daniya qirolichasi nomidan Oliy komissar (rigsombudsman). Grenlandiya 18 ta kommunaga ajralgan 3 inspektoratga bo‘linadi. Yirik shahri — Sisimyut (Xolstenberg). Siyosiy partiyalari: Siumut (Olg‘a), Inuit atakvatigiit (Inuit jamoasi), Atassut (Birlik).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Grenlandiya iqtisodi asosini baliqchilik va baliqni qayta ishslash korxonalari tashkil etadi. Dengiz hayvonlarini ovlash yo‘lga qo‘yilgan. Baliq ovlash flotiga ega. Orol qo‘rg‘oshin, sink, uran, neft, gaz, toriy, xrom, molibden, oltin, kumush, toshko‘mir, mis, nikel, temir rudalariga boy. 2004-yil YIM miqdori 1270 mln dollarni (aholi jon boshiga — 20000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Daniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya.

**Tarixi.** 875-yillarda orol islandiyalik dengizchi Gunborn tomonidan kashf qilingan. 982-yili norvegiyalik Erik Rauda («Malla») orolni o‘rganib, Grenlandiya — «yashil yer» deb nom berdi. 983-yilda orolning janubida 1-normann koloniyaliga asos solindi. XI asrda mahalliy aholi — eskimoslar xristianlikni qabul qildilar. 1262-yildan XVIII asr boshlarigacha Grenlandiya Norvegiya mulki bo‘lgan. 1721-yildan Daniya orolda istilochilik harakatlarini boshladi. 1814-yildan 1953-yilgacha Daniyaning rasmiy mustam-lakasi edi. 1978-yili Daniya folketingi (parlamen-ti)<sup>\*</sup> orolning ichki muxtoriyatini tan oldi va bu holat 1979-yil 1-maydan kuchga kirdi.

## **GRETSIYA**

*Rasmiy nomi — Gretsiya Respublikasi.  
Poytaxti — Afina. Hududi — 131957 km<sup>2</sup>.  
Aholisi — 10666000 kishi (2003). Davlat tili —  
grek. Dini — pravoslav. Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Gretsiya (Yunoniston) Yevropaning janubi sharqida, Bolqon yarimorolining janubiy qismi va Egey, Ioniya hamda O'rta Yer dengizi orollarida joylashgan davlat. U shimolda Bolgariya va Makedoniya, shimoli g'arbda Albaniya, shimoli sharqda Turkiya bilan chegaradosh. Janubda O'rta Yer dengizi, Sharqda Egey dengizi, g'arbda Ioniya dengizi suvlari Gretsiya sohillarini yuvib turadi. Krit, Evbeya, Rodos, Lesbos va bir nechta orollar Gretsiya hududining 1/5 qismini tashkil etadi. Hududining 2/3 qismi tog'li hududlar hisoblanadi. Eng baland nuqtasi Olimp tog'i, balandligi 2917 m. Asosiy daryolari: Alyakmon, Axelos, Strimon, Nestos. Asosiy qazilma boyliklari: neft, boksit, nikel. O'rmonlar mamlakat hududining 10—11% ini tashkil etadi. Tog'lar igna bargli daraxtlar bilan qoplangan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 13 ta yeparxiyadan tashkil topgan. Yeparxiyalar o'z navbatida 52 ta nomlarga bo'lingan. Gretsiya 1830-yil Usmonli turklar istibdodidan ozod bo'lib o'z mustaqilligini e'lon qilgan. Davlat boshlig'i — prezident. Ijroiya hokimiyat prezident va Bosh ministrga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliv organ — bir palatali parlament. Asosiy siyosiy partiyalari: Yangi Demokratiya, Umumgrek sotsialistik harakati, Gretsiya Kommunistik Partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Turizm Gretsiya iqtisodining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Gretsiya xalq xo'jaligidagi sanoatning oziq-ovqat, kimyo, to'qimachilik va metallurgiya tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligidagi asosan qandlavlagi, tamaki, uzum va kartoshka yetishtiriladi. Mamlakat go'sht va sut mahsulotlaridan tashqari

barcha oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘z-o‘zini ta’minlaydi. 2004-yil YIM miqdori 226400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Italiya, Fransiya va Buyuk Britaniya.

**Tarixi.** Bugungi Gretsya yerlarida m. a. 3 ming yillikdayoq yuksak rivojlangan madaniyat va sivilizatsiya vujudga kelgan. M. a. XII asrda Gretsiyaga doriylar bostirib kirgan. Peloponess urushlaridan so‘ng (m. a. 431—404-yy.) Bolqon yarimorolida Makedoniyaning roli keskin oshdi. Makedoniya hukmdori Filipp II butun Gretsya yerlarini o‘ziga bo‘ysundirdi. Uning o‘g‘li Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) Misr va Hindistongacha bo‘lgan yerlarni bosib olib, ulkan imperiyani vujudga keltirdi. M. a. II asrda Gretsya Rim imperiyasi istibdodiga tushib qoldi. Qadimgi Rim imperiyasi inqirozidan so‘ng Vizantiya butun Bolqon yarimorolini o‘z nazoratida saqlab qoldi. IX asrda Gretsiyani arablar istilo qilishdi, oradan ko‘p o‘tmay X asrda bolgarlar bosib olishdi. XV asrga kelib Vizantiya inqirozidan so‘ng 1460-yilda Gretsya Usmonli turklar imperiyasining tarkibiy qismiga aylanadi. 1830-yili turklar Gretsya mustaqilligini tan oldi. 1924-yil Gretsya Respublika deb e’lon qilindi, 1935-yili esa monarxiya qayta tiklandi. 1941-yil Germaniya Gretsiyani bosib oldi. 1945-yil urush tugaganidan so‘ng Gretsiyada hukumat qo‘sishlari va kommunistlar o‘rtasida fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Urush 1949-yilgacha davom etdi. 1967-yil 21-aprelda mam-lakatda harbiylar davlat to‘ntarishini amalga oshirdi. 1973-yil harbiylar monarxiyani bekor qilishdi. 1974-yil harbiylar hokimiyatdan chetlashtirildi. Shu yili o’tkazilgan referendumda Gretsya xalqi respublika uchun ovoz berdi. 1975-yil yangi respublika konstitutsiyasi qabul qilindi.

## GRUZIYA

*Rasmiy nomi — Gruziya Respublikasi. Poy-taxti — Tbilisi. Hududi — 69700 km<sup>2</sup>. Aholisi —*

|| 4934400 kishi (2003). Davlat tili — gruzin. Dini — pravoslav. Pul birligi — lari.

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Gruziya G'arbiy Osiyoda joylashgan davlat. U shimolda Rossiya, janubda Turkiya, Armaniston va Ozarbayjon bilan chegaradosh. G'arbda Qora dengiz bilan tutashgan. Mamlakat maydonining 80% i tog'liklardan iborat. Eng baland nuqtasi Shxara tog'i (5068 m). Qora dengiz sohillarida Kolxida pasttekisligi yastanib yotadi. Asosiy daryolari: Kura va Rioni. Qazilma boyliklari: marganets, mis, ko'mir va neft.

Iqlimi — subtropik.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organi — bir palatali parlament. Mamlakat 66 ta ma'muriy hududlarga bo'lingan. Bundan tashqari 2 ta muxtor respublika — Abxaziya va Ajariya ham Gruziya tarkibiga kiradi. Mamlakat 1991-yil 9-aprelda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Asosiy siyosiy partiyalari: Gruziya Demokratik Ittifoqi, Gruziya Xalq Fronti, Respublika partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Gruziya agrar-industrial davlat. Sobiq Ittifoqning tarqalishi va uning sobiq a'zolari bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalarning yomonlashuvi hamda mamlakatdagi fuqarolar urushi Gruziya iqtisodiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazdi. Sanoatning ko'pgina sohalarida haligacha ham inqiroz holati kuzatilmoqda. Mamlakat qishloq xo'jaligida ekiladigan ekinlarning 50% ini boshoqli ekinlar tashkil etadi. Lekin qishloq xo'jaligining eng asosiy ekini choydir. Gruziya eksportining asosiy qismini ham choy tashkil etadi. Bundan tashqari, tog' yonbag'irlarida uzumchilik yaxshi rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 14450 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Armaniston, Turkiya va Ozarbayjon.

**Tarixi.** M. a. VI—IV asrlarda bugungi Gruziya hududlarida ikki davlat — Kolxida va Iberiya davlatlari tashkil topgan. Oradan ko'p vaqt o'tmay bu davlatlar

forslar tomonidan istilo qilindi. Ulardan keyin m. a. IV asr oxirlarida Aleksandr Makedonskiy bu yerlarni bosib oldi. M. a. I asrga kelib G'arbiy Gruziya Rim imperiyasi, Sharqiy Gruziya esa forslar tomonidan istilo qilindi. IV asrda Gruziya xristian dinini qabul qildi. VII asr oxirlarida bu yerlarga arablar bostirib kirdi. Bagrat III (974—1014) hukmronligi yillarida sharqiy va g'arbiy hududlar birlashtirildi. Dovud IV (1073—1125) davrida Tiflis arablardan ozod qilindi. Qirolicha Tamara (1184—1213) davrida Gruziya Kaspiygacha bo'lgan yerlarni egalladi. XIV asrning 2-yarmida bu yerlarni sohibqiron Amir Temur ishg'ol qildi. Temur davlatining inqirozidan so'ng Gruziya forslar va turklar o'rtaida uch asr davomida tortishuvli hudud bo'lib qoldi. 1786-yil Gruziya Rossiyaga yordam so'rab murojaat qiladi. 1801-yil Rossiya Gruziyani o'z tarkibiga qo'shib oldi. 1921-yil Gruziya Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi. Sobiq Ittifoq inqirozidan so'ng 1991-yil 9-aprelda Gruziya o'z mustaqilligini e'lon qildi.

## GUAM

*Rasmiy nomi — Guam. Ma'muriy markazi — Aganya. Hududi — 541 km<sup>2</sup>. Aholisi — 160000 kishi (2001). Davlat tili — ingliz. Dini — katolik. Pul birligi — AQSH dollari.*

**Geografik joylashkuvi va tabiat.** Guam xuddi shu nom bilan ataladigan Tinch okeanning g'arbiy qismidagi Marian orollarining eng yirik orolida joylashgan. Orol balandligi 405 metrgacha yetadigan va okeanga yaqinlashgan sari pasayib boradigan marjon qatlamlaridan tashkil topgan yassitog'likdan iborat. Yassitog'liklarning relyefi hamma joyda ham tekislikdan iborat bo'lmay, ba'zi joylarida botiqlar ham bor.

Iqlimi — tropik. Orolning florasini asosan pandanus, non daraxtlari hamda mangr daraxtlari tashkil etadi. Sohil bo'ylarida 20—50 km masofagacha kokos palmalari va turli butalar o'sadi. Guamning hayvonot dunyosi boy emas. Orolning faunasini sayroqi qushlar

tashkil etadi. Sut emizuvchilar yo‘q. Sohilbo‘yidagi suvlarda turli baliqlar ko‘p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Guam AQSHning «qo‘silmagan hudud»i hisoblanadi. Orolga o‘z-o‘zini boshqarish huquqi berilgan. Aholisi AQSH fuqarosi hisoblanadi, biroq ularning saylovlarda qatnashish huquqi yo‘q. Guam AQSH Kongressi Vakillari palatasida ikki yilga saylanadigan bir delegatga (ovozi berish huquqisiz) ega. Boshqaruv boshlig‘i — gubernator. U mahalliy aholi tomonidan 4 yilga saylanadi. Qonun chiqaruvchi organ bir palatali — Qonun chiqaruvchi majlis bo‘lib, uning yigirma bir a’zosi mahalliy aholi tomonidan har ikki yilda saylanadi. Siyosiy partiyalari — orolda AQSHning Respublikachilar va Demokratlar partiyalarining mahalliy bo‘limlari faoliyat yuritadi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining asosini turizm tashkil etadi. Orol iqtisodidagi muhim o‘rinni AQSHning harbiy obyektlaridan keladigan daromadlar egallaydi. Orol aholisi mashg‘ul bo‘lgan qishloq xo‘jaligi aholining ehtiyojlarini qoplamaydi. Sabzavot va mevalar yetishtiriladi. Chorvachilik rivojlanmoqda. Aholi olib kelinadigan xomashyoda ishlaydigan oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalari hamda turmush elektronikasini yig‘ish korxonalarida band. Elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Ekspert: kiyim-kechak, ichimliklar va tamaki mahsulotlari, elektronika. Import: oziq-ovqat, yoqilg‘i (importning 50% atrofida). 2004-yil YIM miqdori 3200 mln dollarni (aholi jon boshiga — 21000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya, Tayvan.

**Tarixi.** Yevropaliklardan birinchi bo‘lib Guamni F. Magellan 1521-yilda o‘zining birinchi yer atrofidagi sayyohati davrida kashf etadi. 1563-yildan orol Ispaniya mustamlakasi. 1568-yilda Guamda dastlabki missioner iezuitlar o‘rnashadi. Yevropaliklar tomonidan olib kelingan kasalliklar hamda qattiq ekspluatatsiya natijasida mahalliy aholi yuz mingdan (1521-yil) 5 minggacha (1741-yil) qisqaradi. 1898 yilgi Ispan—Amerika urushi-da orolni AQSH egallab oladi. II jahon urushi davrida

Guam Yaponiya tomonidan bosib olinadi (1941). 1944-yilning iyul, avgustida o'tkazilgan harbiy operatsiya natijasida orol yana AQSH tasarrufiga o'tadi. AQSH Kongressi tomonidan 1950-yilda qabul qilingan Guam orolining asosiy qonuniga asosan orolga o'zini-o'zi boshqarish huquqi berilib. Uning aholisiga AQSH fuqaroligi berilib, ular milliy saylovlarda qatnasha olishmaydi. Hozirgi kunda Guam AQSHning Tinch okeandagi strategik harbiy bazasidir. Orolda Apra-Xarbor harbiy dengiz va Andersen aviatsiya bazalari joylashgan.

## DANIYA

*Rasmiy nomi – Daniya Qirolligi. Poytaxti – Kopengagen. Hududi – 43075 km<sup>2</sup>. Aholisi – 5384400 kishi (2003). Davlat tili – dat. Dini – lyuteranlar (91%), katoliklar (2%). Pul birligi – Daniya kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Daniya Yevropa qit'asining shimoli g'arbida, Yutlandiya yarimoroli va uning atrofidagi orollarda joylashgan davlat. Janubda Germaniya bilan chegaradosh. Janubi sharqda Boltiq dengizi, g'arbda Shimoliy dengiz bilan tutashgan. Mamlakat shimolida Skagerrak bo'g'ozi joylashgan, sharqida Kattegat va Erusunn bo'g'ozlari Daniyani Shvetsiyadan ajratib turadi. Bundan tashqari, Grenlandiya va Faryer orollari ham o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'lgan Daniya Qirolligi yerlari hisoblanadi. Daniya maydoni asosan tekisliklardan iborat. Asosiy tabiiy boyliklari: neft, tabiiy gaz, tuz va baliq.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – konstitutsion monarxiya. Mamlakat 14 ta amtomlarga bo'lingan. Davlat boshlig'i – Daniya Qirolchasi. Ijroiya hokimiyat Bosh ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Qirolicha va bir palatali parlament – folketingga tegishli. Asosiy siyosiy partiyalari: Daniya Sotsial-

Demokratik partiyasi, Konservativ Xalq partiyasi, Radikal So'l partiya, Xristian Xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Daniya dunyoning sanoati yaxshi rivojlangan davlatlari dan biridir. Qishloq xo'jaligi ham yuksak rivojlangan texnologiyalar bilan ta'minlangan. Qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi Daniya umumiy aholisining 6% ini tashkil etadi. 2004-yil YIM miqdori 174400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 32200 dol.) tashkil etgan. Daniya qishloq xo'jaligi o'zini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligining asosiy mahsulotlari: kartoshka, don, qand-lavlagi, go'sht va sut mahsulotlari. Daniyada baliqchilik ham juda yaxshi rivojlangan. Asosiy savdo hamkorlari: Shvetsiya, Norvegiya, AQSH va YH davlatlari.

**Tarixi.** Bugungi Daniya hududidagi ilk davlatlar VI asrda tashkil topgan. XI asrda Angliya va Norvegiya ham Daniya nazorati ostiga tushib qoldi. Daniya qiroli Sven II XI asrda xristian dinini qabul qildi. XIV—XV asrlarga kelib Daniyaga Germaniyaning ta'siri kuchaydi. XVII asrda Boltiq dengizida hukmronlik uchun Daniya va Shvetsiya o'rtasida davom etgan kurash Daniyaning mag'lubiyati bilan yakunlandi. 1849-yil Daniya konstitutsiyasi qabul qilindi va konstitutsion monarxiya davlati deb e'lon qilindi. Konstitutsiya qirol hokimiyatini ancha chekladi. 1915-yil Daniya ayollarini saylash huquqiga ega bo'lishdi. Daniya o'z betarafligini saqlashga harakat qilsa-da, 1940-yilning 9-aprelida nemis fashistlari uni bosib olishdi. 1945-yil 5-mayda Daniya ozod qilindi.

## DOMINIKA

*Rasmiy nomi — Dominika Hamdo'stligi. Poytaxti — Rozo. Hududi — 754 km<sup>2</sup>. Aholisi — 69000 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — katoliklar (80%), protestantlar (15%). Pul birligi — Sharqiy Karib dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Karib havzasida, Kichik Antil orollarining Dominika orolida

joylashgan orol davlat. Maydoni tog'liklardan iborat. Eng baland nuqtasi D'yabloten vulqoni (1447 m).

Iqlimi — tropik. Tog' yonbag'irlari tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Hayvonot dunyosi asosan qushlardan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — parlament respublikasi. Mamlakat 10 ta prixoddan iborat. Bular: Sent-Ann, Sent-David, Sent-Jorj, Sent-Jon, Sent-Jozef, Sent-Lyuk, Sent-Mark, Sent-Patrik, Sent-Piter, Sent-Pol. Dominika 1978-yil 3-noyabrda Buyuk Britaniyadan mustaqilligini e'lon qilgan. Ijroiya hokimiyat — prezident va Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organi bir palatali parlament — Vakillar Palatasi.

Asosiy siyosiy partiyalari: Dominika Ozodligi partiyasi, Dominika Birlashgan Mehnatkashlari partiyasi, Dominika Leyboristlar partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat xalq xo'jaligining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Sanoat asosan mayda korxonalardan iborat. Qishloq xo'jaligi banan, mango, kokos yong'og'i va sitrus mevalarni yetishtirib beradi. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, AQSH va Karib havzasi davlatlari.

**Tarixi.** Dominika 1493-yil Xristofor Kolumb tomonidan kashf qilingan. Shu vaqtdan u Ispaniya multiga aylandi, so'ngra Fransiya mustamlakasi bo'ldi. 1763-yili Buyuk Britaniya nazoratiga o'tdi. 1967-yilda Britan Hamdo'stligi a'zosi bo'ldi. 1978-yili Dominika o'z mustaqilligini e'lon qildi.

## DOMINIKAN RESPUBLIKASI

*Rasmiy nomi — Dominikan Respublikasi. Poytaxti — Santo-Domingo. Hududi — 48442 km<sup>2</sup>. Aholisi — 8715600 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — katoliklar (95%). Pul birligi — Dominikan pyesosi.*

**Geografik joylashkuvi va tabiatni.** Karib havzasi Gaiti orolining sharqiy qismida joylashgan davlat.

G'arbda yagona Gaiti bilan chegaradosh. Janubda Karib dengizi, shimolda Atlantika okeani bilan tutashib ketgan. Sharqda Mona bo'g'ozı Gaiti orolini Puerto-Riko orolidan ajratib turadi. Mamlakat hududida bir nechta tog' tizmalari mavjud. Ularning eng yirigi Kordilera Sentral tog' tizmasi bo'lib, eng baland nuqtasi Duarte cho'qqisi (3175 m). Mamlakat janubi g'arbida Enrikilo ko'li joylashgan bo'lib, u dengiz sathidan 46 m pastdir. Asosiy daryolari: Shimoliy Yake, Janubiy Yake, Artibonite.

Iqlimi — dengiz tropik iqlimi. Hayvonot dunyosi unchalik boy emas. Asosan dengiz toshbaqalari, kemiruvchilar va boshqa hasharotlardan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — republika. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi Oliy Organi — ikki palatali Senat va Deputatlar palatasidan iborat bo'lgan Milliy Kongress. Mamlakat 26 ta provinsiya va 1 ta milliy okrugdan iborat. Asosiy siyosiy partiyalari: Ozodlik Demokratik partiyasi (ODP), Dominikan Inqilobiy partiyasi (DIP).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodining asosini tashkil etadi. Eksportga chiqaradigan asosiy mahsulotlari: tamaki, qahva, kakao va shakarqamish. Sanoat faqatgina qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalardan iborat. Oxirgi yillarda turizm o'ta yaxshi rivojlanmoqda. 2004-yil YIM miqdori 55680 mln dollarni (aholi jon boshiga — 6300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Puerto-Riko.

**Tarixi.** Gaiti oroli 1492-yilda Xristofor Kolumb tomonidan kashf qilingach, Kolumb bu yerlarni Espanola deb atadi. Lotin Amerikasining ispanlar tomonidan bosib olinishi aynan Dominikan Respublikasi hududlarida boshlanadi. 1697-yil Gaiti oroli Fransiya va Ispaniya o'rtasida taqsimlandi. Orolning sharqiy qismi Ispaniya qiroli hokimiyati ostida qoldi. Mamlakat 1822-yil o'z mustaqilligini e'lon qilgan bo'lsa-da, faqatgina 1844-yilga kelib haqiqiy mustaqillikka erishdi. 1978-yil saylovlari natijasida demokratik fuqaro hukumat shakllantirildi.

# JANUBIY AFRIKA RESPUBLIKASI

*Rasmiy nomi — Janubiy Afrika Respublikasi. Poytaxti — Pretoriya. Hududi — 1223410 km<sup>2</sup>. Aholisi — 42768700 kishi (2003). Davlat tili — ingliz, afrikaans, kosa, zulu va sesoto. Dini — xristianlik. Pul birligi — Janubiy Afrika randi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrikaning janubidagi davlat. Shimolda Botsvana (chegara uzunligi 1840 km), Namibiya (855 km), Mozambik (491 km), Svazilend (130 km) va Zimbabve bilan chegaradosh. Mamlakat sharqida Lesoto qirolligi (909 km) joylashgan. G'arbda Atlantika okeani, janub va sharqda Hind okeani bilan tutashgan. Chegarasining umumiyligi uzunligi — 4750 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 2798 km. Mamlakat yassitog'likda joylashgan. Sharqida mamlakatning eng baland nuqtasi — Katkin cho'qqisi (3660 m) joylashgan Ajdar tog'lari yotadi. Janubda Kap tog'lari joylashgan. G'arbda Namib sahrosi, shimoli g'arbda Kalaxari sahrosining janubiy qismi joylashgan. Asosiy daryolari: Oranjevaya va Limpopo. Qazilma boyliklari: oltin, uran, olmos, platina, xrom, ko'mir, temir rudasi, tabiiy gaz, marganets, nikel, qalay, fosfatlar. Haydaladigan yerlar hududning 10% ini, yaylov va o'tloqlar 65% ini egallaydi.

Iqlimi — tropik. Palma, baobob, aloe, temir daraxti, qizil daraxt, kap samshiti, xushbo'y daraxt o'sadi. Arslon, qoplon, jirafa, begemot, endemik turdag'i qushlar, oq karkidon, muqaddas hayvon zuluxamemon, pitonlar hayvonot olamini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 9 ta provinsiyaga bo'lingan. JAR mustaqillikka 1910-yilning 31-mayida erishgan (avval Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan). 31 may — Milliy bayram (Respublika e'lon qilingan kun). Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — parlament. Parlament oqlar uchun yig'ilish palatasidan, ranglilar uchun Vakillar palatasidan, hindlar uchun Delegatlar palatasidan

iborat. Yirik siyosiy partiyalari: Millatchilik partiyasi, Afrika milliy kongressi, Demokratik partiya, Konservativ partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** JAR Afrika qit'asidagi iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan davlatlardan biridir. 2004-yil YIM miqdori — 491400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 11100 dol.) tashkil etgan. Iqtisodning asosi — tog'-kon sanoati (platina, oltin, xrom ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi). Mashinasozlik, metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari ham rivojlangan. Ummiy sanoat ishlab chiqarishi YMMning 40% ini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida (YMMning 5% i) chorvachilik rivojlangan. Makkajo'xori, bug'doy, shakarqamish yetishtiriladi. Mamlakat oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'zi qoplaydi. Asosiy savdo sheriklari: Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya, AQSH, Germaniya.

Temiryo'llarning umumiy uzunligi — 20638 km, avtomobil yo'llari — 188309 km (54013 km ga tosh yotqizilgan). Asosiy portlari: Durban, Keyptaun, Port-Elizabet.

**Tarixi.** Hozirgi JAR hududiga dastlab bushmenlar, keyinchalik gottentotlar o'rnatishgan. 1488-yilda portugal dengizchisi Dias Yaxshi Niyat burnini kashf etadi. 1652-yilda gollandlar Janubiy Afrika sohillarida o'z mustamlakalariga asos solishadi. Bular 1834—1839-yillarda Transvaal hamda Oranjevaya respublikalariga asos solishadi. Inglizlarning Transvaalga 1877-yilda hujum qilishi birinchi ingliz — bur urushini keltirib chiqaradi va bu urushda Buyuk Britaniya mag'lubiyatga uchraydi. Lekin ikkinchi ingliz — bur urushidan so'ng, 1902-yilda inglizlar burlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatadi. 1910-yilda Kap, Natal, Transvaal va Oranjevayadan iborat federatsiya tuziladi va Britaniya dominioni deb e'lon qilinadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Janubiy Afrika Ittifoqi (1961-yildan JARning hukumati aparteid siyosatini e'lon qiladi. Mamlakatning afrikalik aholisining noroziliklari, jahon hamjamiyating mamlakat hukumatini iqtisodiy sanksiyalar bilan

siquvga olishi 1989-yilda aparteid siyosatining tugatilishiga olib keldi. 1992-yilda dastlabki demokratik saylovlarda Nelson Mandela g'olib chiqadi.

## JANUBIY KOREYA

*Rasmiy nomi – Koreya Respublikasi. Poytaxti – Seul. Hududi – 98480 km<sup>2</sup>. Aholisi – 48289000 kishi (2003). Davlat tili – koreys. Dini – xristianlik (48%), buddaviylik (47%). Pul birligi – wona.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Sharqiy Osiyoda, Koreya yarimorolining janubidagi davlat. Shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan chegaradosh (chegaranining uzunligi – 238 km). Janubiy Koreya g'arbda Sariq dengiz, Sharqda Yapon dengizi bilan tutashib ketgan. Janubi sharqda mamlakatni Yaponiyadan Koreys bo'g'ozi ajratib turadi. Sohilining uzunligi – 2413 km. Mamlakat relyefi asosan qir va tog'lardan iborat. Asosiy tog' tizmasi sharqiy sohilga parallel joylashgan Sharqiy Koreya tog'laridir. Mamlakatning eng baland nuqtasi Chejuda orolida joylashgan Xalasan tog'i hisoblanadi. Janubiy va g'arbiy sohillar tekisliklardan iborat. Asosiy daryolari – Nextongan va Xangan. Asosiy qazilma boyliklari: volfram, temir, marganets, mis, oltin, kumush. Haydaladigan yerlar hududning 21% ini egallaydi.

Iqlimi – mo'tadil musson. Eman, bambuk, archa, qarag'ay, terak, qayrag'och, oqqarag'ay o'sadi. Hayvonot olamida yo'lbars, qoplon, silovsin, ayiqni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – respublika. Mamlakat 9 provinsiyaga bo'lingan. Seul va Pusan shaharlari alohida ma'muriy maqomga ega. Koreya Respublikasi 1948-yilning 15-avgustida mustaqil deb e'lon qilingan. Milliy bayrami – Mustaqillik kuni. Ijro etuvchi hokimiyat – prezident (davlat boshlig'i) va Bosh vazir rahbarligidagi Davlat Kengashiga tegishli.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Milliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Demokratik liberal partiya, Demokratik partiya, Birlashgan xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Janubiy Koreyaning so'nggi o'n yillikdagi iqtisodiy o'sishi jahondagi yuqori o'rnlardan birini egallaydi. 2004-yil YIM miqdori 92500 mln dollarni (aholi jon boshiga — 19200 dol.) tashkil etgan. Sanoati elektro-texnika, to'qimachilik, oziq-ovqat ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Asosiy qishloq xo'jaligi (YMMning 11% ini) mahsulotlari — sholi, arpa, batat, soya. O'rmon xo'jaligi va baliqchilik ham rivojlangan. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya.

Temiryo'llarining umumiyligi — 6763 km, avtomobil yo'llari — 63200 km, ichki suv yo'llari — 1609 km. Asosiy portlari: Pusan, Mokpxo.

**Tarixi.** M. a. II—I asrlarda hozirgi Koreya hududi Xitoy mustamlakasi bo'lgan. M. a. 37-yilda Koreya yarimorolining shimoliy qismida Kogur davlati vujudga keladi. Janubiy qismi esa Pekchi va Silla qirolliklariga bo'linadi. X asrning oxirida koreys davlati Koryo sulo-lasi hokimiyati ostida birlashtiriladi. 1321-yilda Koreyani mo'g'ullar bosib olishadi. Li sulolasi hukmronligi davrida (1392—1910) mamlakatga yaponlar (XVI asr) va manchjurlar (XVIII asr) bostirib kirishadi, XIX asrda esa Koreya Xitoy, Yaponiya, Rossiya o'rtasidagi mojaroli hududga aylanadi. 1910-yilda Yaponiya tomonidan bosib olingan Koreya, yaponlarga qarshi kurashni 1938-yilda boshlaydi va 1943-yilda mustaqillikka erishadi. Lekin 38-parallel bo'yab mamlakat ikki qismga — sovet va Amerika qo'shnining okkupatsion hududlariga aylanadi. 1948-yilda Koreya ikki davlatga — shimolda KXDR, janubda Koreya Respublikasiga bo'linadi. 1950—1953-yillarda ikki koreys davlati o'rtasida urush harakatlari sodir bo'ldi. Janubiy Koreya 1965—1972-yillarda Vyetnam bilan bo'lgan harbiy voqealarga aralashadi. 1980-yilda general Chon Du Xvan mamlakatda o'z dikturasini o'rnatadi. 1978-yilda diktatura tugatilib, birinchi de-

mokratik saylovlarda Ro De U prezidentlikka saylanadi. Prezidentlikdan ketgandan so'ng Ro De U va uning maslakdoshlari korrupsiya va moliyaviy tovlamachilikda ayblanadilar. XXI asr boshlarida Koreya Respublikasida iqtisodiy inqiroz vujudga keldi.

## JIBUTI

*Rasmiy nomi — Jibuti Respublikasi. Poytaxti — Jibuti. Hududi — 23200 km<sup>2</sup>. Aholisi — 457100 kishi (2003). Davlat tili — fransuz va arab tillari. Dini — islom. Pul birligi — Jibuti franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Jibuti shimoli sharqiy Afrikadagi davlat. Janubda va g'arbda Efiopiya, shimolda Eritreya, janubi sharqda Somali bilan chegaradosh. Sharqda Aden ko'rfazi bilan tutashgan. Jibuti hududi yassitog'lar, cho'l va yarimcho'llardan iborat.

Iqlimi — quruq va issiq tropik.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi Oliy organ bir palatali parlament — Milliy Majlis. Qonunchiligi fransuz va islom dini qonunlari asosida amalga oshiriladi. Asosiy siyosiy partiyalari: Taraqqiyot uchun Xalq Birlashmasi, Demokratik Yangilanish partiyasi, Milliy Demokratik partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat xo'jaligining asosiy tayanchi uning strategik joylashuv o'rnidir. Jibuti Afrikaning erkin savdo hududi deb e'lon qilinganligi uning portlari orqali xalqaro savdoning rivojlanishiga qulay sharoit yaratib bermoqda. 2004-yil YIM miqdori 1570 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1878 dol.) tashkil etgan.

**Tarixi.** XIX asrning 2-yarmidan Obok portini egal-lagan fransuzlar Jibutini o'z mustamlakalariga aylantirish harakatini boshlab yubordilar. 1886-yil mamlakat Somalining Fransuz qirg'og'i nomi bilan Fransiya mustamlakasiga aylantirildi. 1946-yildan Fransiyaning

«dengiz ortidagi yerlari» nomini oldi. 1958-yil o'tkazilgan referendumda Jibuti xalqi mustaqillik uchun ovoz berdi. 1967-yil Fransiya bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida o'zini «Afar va Issalar fransuz hududi» deb e'lon qildi. 1977-yil Jibuti o'z mustaqilligini e'lon qildi. Shu yili Arab davlatlari ligasiga a'zo bo'lib kirdi.

## JAZOIR

*Rasmiy nomi — Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi (JXDR). Poytaxti — Al-Jazoir. Hududi — 2381741 km<sup>2</sup>. Aholisi — 32820000 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — islom (99%). Pul birligi — Jazoir dinori.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Shimoliy Afrikadagi davlat. G'arbda Marokko (chegara uzunligi — 1559 km) va G'arbiy Saxara (42 km), janubda — Niger (956 km), Mali (1376 km), Mavritaniya (463 km), sharqda Liviya (1982 km) va Tunis (965 km) bilan chegaradosh. Shimolda O'rta Yer dengizi joylashgan. Eng yuqori nuqtasi — Taxat tog'i (2918 m). Daryolari juda kam. Foydali qazilmalari: neft, tabiiy gaz, fosfatlar, temir rudasi, uran, qo'rg'oshin, sink. Haydaladigan yerlari hududning 3%, o'tloq va yaylovlari — 13%, o'rmon va butazorlar — 2% ini tashkil qiladi.

Iqlimi — subtropik, tropik. Mamlakat hududi asosan cho'llardan iborat bo'lganligi sababli, o'simlik turlari unchalik ko'p emas. Atlas va Axaggar tog'larida po'kak dub o'sadi. Hayvonlardan shoqol, giyena, antilopa, quyonlar uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Mamlakat 48 ta viloyatlarga bo'lingan. 1830—1962-yillarda Jazoir Fransiya mustamlakasi bo'lgan. 1962-yil 5-iyul kuni o't ochishni to'xtatish to'g'risidagi Evian shartnomasiga asosan qurolli kurash to'xtatildi va Jazoir o'z mustaqilligini e'lon qildi. Qonunchiligi fransuz va islom qonun-

lariga asoslangan. Milliy bayrami — 1 noyabr — Inqilob kuni (1954). Davlat boshlig'i — prezident, qonun chiqaruvchi hokimiyat — bir palatali parlament — Milliy xalq majlisi. Asosiy siyosiy partiyalari: Xaloskorlik Milliy Fronti (XMF), Sotsialistik kuchlar fronti (SKF).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Iqtisodning asosiy tarmoqlari — neft va gaz qazib olish (tabiiy gaz qazib olish bo'yicha jahonda 5-o'rinda). 1973—1974-yillarda neft narxining keskin oshishi iqtisodining yuksalishiga va sanoatlashtirish dasturini moliyalashga imkon yaratdi. Neft va gaz narxining tushishi iqtisodni markazlashtirilgan boshqaruvi tizimining kamchiliklari mamlakatni 1988-yilda ijtimoiy va iqtisodiy inqirozga uchratdi. 1993-yil sentabrida hokimiyat tepasiga kelgan yangi hukumat islohotlarini jadallashtirish va iqtisodini qayta qurishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi. 2005-yil YIM miqdori 173,8 mln dollarni (aholi jon boshiga 5400 dollarni) tashkil etgan. Neft va tabiiy gazni qazib olishdan tashqari sanoatning yengil, tog'-kon, neft kimyosi, oziq-ovqat sohalari keng rivojlangan. Mehnatga layoqatli aholining 22% i qishloq xo'jaligida band. Arpa, bug'doy, uzum, sitrus mevalari, sabzavotlar va zaytun yetishtiriladi. Eksportga chiqariladigan asosiy mahsuloti — neft va tabiiy gaz (jami eksport mahsulotlarining 97% ini tashkil qiladi). Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Italiya, Germaniya va AQSH.

Temiryo'llarining uzunligi — 4733 km; avtomobil yo'llari — 80000 km. Asosiy dengiz portlari: Jazoir, Annaba, Arzev, Bijaya, Mostaganem, Oran, Skikda.

***Tarixi.*** M. a. XII asrda Jazoirning hozirgi hududining O'rta Yer dengizi qirg'oqlarida istiqomat qilgan finikiyaliklar keyinchalik Karfagen ta'siri ostiga tushib qoladi. M. a. III asrda barbar qabilasining sardori Masinissa Karfagen va Rim o'rtasidagi urushdan foydalanib dastlabki Jazoir davlati — Numidiya qirolligini tuzadi. M. a. I asrdan milodiy V asrgacha Jazoir Rim imperiyasi tarkibiga kirgan. 429-yilda bu yerni vandallar bosib olgandan so'ng barbarlar bir qator

mustaqil mayda davlatlarga asos solishadi. VII asrda Jazoirni arablar bosib olib, barbarlar islomni qabul qilishadi va Shimoliy Afrika xalifalik tarkibiga kiradi. XIII asrda xristian va musulmon barbar qabilalari o'rtasidagi kurash natijasida mamlakat uchga bo'linadi. XVI asrda bir qator Jazoir portlarini ispanlar egallahadi. Jazoirlik xristianlar Ispaniya protektoratiga o'tishgan bo'lsa, musulmonlar Usmoniyalar imperiyasiga murojaat etishadi va ispanlarni mamlakatdan quvib chiqarishadi. XVII asr davomida jazoirliklar O'rta Yer dengizida qaroqchilik qilishadi. 1816-yili ingлиз-golland, 1824-yil ingлиз floti jazoirlik dengiz qaroqchilari bilan jang qilishadi. 1830-yil 5-iyulda Jazoirni fransuzlar bosib olishadi va 1834-yilda turklar ta'siriga butunlay barham berishadi.

1954—1962-yillardagi ozodlik urushlari natijasida 1962-yil 1-iyul kuni Jazoir mustaqil davlatga aylanadi. 1992-yildagi saylovlarda islom fundamentalistlari g'ala-ba qozonishganda saylov natijalari hukumat tomonidan bekor qilinadi. Bunga javoban Islom qutqarish fronti Jazoir hududida yashovchi chet el fuqarolariga qarshi terrorchilik harakatlarini uyushtirishadi.

## ZAMBIYA

*Rasmiy nomi — Zambiya Respublikasi. Poytaxti — Lusaka. Hududi — 752614 km<sup>2</sup>. Aholisi — 10307300 kishi (2003). Tili — ingliz. Dini — aholisining yarmidan ko'prog'i xristian, qolganlari islom, induizm dinlariga e'tiqod qiladi. Pul birligi — Zambiya kvachasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Afrikaning janubiy qismida joylashgan. Shimolda Tanzaniya (chegara uzunligi — 338 km) va Zoir (1930 km), G'arbdan Angola (1110 km), janubda Namibiya (233 km), Zimbabve (797 km), sharqda Malavi (837 km), janubi sharqda Mozambik (419 km) bilan chegradosh. Umumiy chegara uzunligi — 5664 km. Ko'llari — Bangveulu, Mveru, qisman Tanganika va Karib. Asosiy daryolari: Luanva, Zambezi, Kafue. Foydali qazilmalari: mis,

kobalt, zumrad, oltin, kumush, uran, rux, ko'mir, manganets, qo'rg'oshin rudalariga boy.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Ma'muriy jihatidan 9 ta provinsiya (viloyat)ga bo'linadi. 1964-yil 24-oktabrda mustaqillikka erishgan. 24-oktabr Mustaqillik kuni — Milliy bayrami hisoblanadi. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — ikki palatali parlament Milliy Assambleya (yuqori palata) va Vakillar palatasi (quyi palata).

Asosiy siyosiy partiyalari: Ko'ppartiyali demokratiya uchun harakat (KDUH) partiyasi, Milliy mustaqillik birlashgan partiyasi (MMBP).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi past. 2004-yil YIM miqdori 9409 mln dollarni (aholi jon boshiga — 900 dol.) tashkil etgan. Mis qazib olish va qayta ishlash ishlab chiqarishda asosiy o'rinni tutadi. Iqtisodning asosiy muammolaridan biri davlat tashqi qarzlarining ko'pligi. Asosiy savdo hamkorlari — YH, Yaponiya, Janubiy Afrika, AQSH.

Temiryo'llarinig umumiyligi — 1273 km. Avtomobil yo'llari — 36370 km. Ichki suv yo'llari — 2250 km. Asosiy porti — Mpulungu.

**Tarixi.** Hozirgi Zambiya hududi ilk davlatlar (Barotse, Lunda) XVII—XIX asrlar paydo bo'ldi. XIX asr oxirlarida Zambiya hududida Britaniya hukmronligi o'rnatildi va Shimoliy Rodeziya deb atala boshlandi. Shimoliy Rodeziya 1953-yil Rodeziya va Nyasalend Federatsiyasiga kiritildi. 1963-yilda Federatsiya bo'linib ketganidan keyin Shimoliy Rodeziya 1964-yil 24-oktabrda mustaqil Zambiya Respublikasiga aylandi.

## **ZIMBABVE**

*Rasmiy nomi — Zimbabve Respublikasi. Poytaxti — Xarare. Hududi — 390300 km<sup>2</sup>. Aholisi — 12576700 kishi (2003). Tili — ingliz. Dini — sinkretizm, xristianlik (25%). Pul birligi — Zimbabve dollarasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrika qit'asining janubiy qismida joylashgan davlat. Mozambik bilan shimolda va sharqda (chegara uzunligi — 1231 km), shimolda Zambiya (794 km), janubda JAR (225 km), janubi g'arbda va g'arbda Botswana bilan chegaradosh. Umumiy chegara uzunligi — 3066 km. Deyarli butun mamlakat hududini Matabele va Moshona yassitog'liliklari egallagan. Mamlakatning eng baland nuqtasi — Inyangani tog'i (2595 m). Asosiy daryolari — Limpopo va Zambezi. Foydali qazilmalari: xrom, oltin, nikel, mis, temir rudasi, ko'mir, vanadiy, litiy, qalay, asbest.

### **Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.**

Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. 1980-yil 18-aprelda mustaqilikka erishgan. 18-aprel — Milliy bayram — Mustaqillikning e'lon qilinishi. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — bir palatali parlament. Asosiy siyosiy partiyalari: Zimbabwe milliy Afrika ittifoqi-Siyosiy front (ZMAI-SF), Zimbabwe konservativ alyansi (ZKA), Zimbabwe birlik harakati (ZBH).

### **Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.**

Zimbabwe Afrika qit'asining iqtisodiy jihatdan birmuncha rivojlangan mamlakatlaridan biridir. 2004-yil YIM miqdori 24370 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1900 dol.) tashkil etgan. Iqtisodning asosini tog'-kon va qayta ishslash sanoati tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi ham iqtisodning muhim tarmog'idir. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, JAR, Germaniya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 2745 km, avtomobil yo'llari — 85237 km. Asosiy porti (daryo porti) — Kariba.

**Tarixi.** XII—XVII asrlarda hozirgi Zimbabwe hududida Monotapa davlati bo'lgan. XIX asr oxirlarida mamlakatni Rodeziya deb atagan inglizlar paydo bo'ladi. 1923-yilda Janubiy Rodeziya Britaniya mustamlakasiga aylantiriladi. 1953-yildan 1963-yilgacha Rodeziya va Nyasalend Federatsiyasi tarkibiga kiritiladi. 1979-yil Zimbabwe (mamlakatning yangi nomi)da parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi va afrikaliklar parla-

mentda ko‘p o‘ringa ega bo‘ldilar. Lekin mamlakatning to‘liq mustaqillikka erishishi uchun partizan urushi 1980-yil 17 aprelgacha davom etdi.

## INDONEZIYA

*Rasmiy nomi — Indoneziya Respublikasi. Poytaxti — Jakarta. Hududi — 1919400 km<sup>2</sup>. Aholisi — 234893500 kishi (2003). Tili — indonez. Dini — musulmonlar (87%), protestantlar (6%), katoliklar (3%), buddistlar (3%). Pul birligi — Indoneziya rupiyasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Indoneziya Respublikasi Janubi Sharqiy Osiyodagi davlat. Dunyodagi eng katta Malay arxipelagining 17,5 ming oroli va Yangi Gvineya (G‘arbiy Irian) orolining g‘arbiy qismida joylashgan. Indoneziya hududining yarmidan ko‘prog‘i o‘rtacha baland va pastqam tog‘lardan, Yangi Gvineyada qisman baland tog‘lardan (eng baland joyi — 5029 m), qolgan qismi allyuvial tekisliklardan iborat. Orolda 400 dan ortiq vulqon bor, shundan 100 tasi harakatdagi vulqonlardir. Tektonik harakatlar tinmagan. Tez-tez kuchli zilzila bo‘lib turadi. Neft, ko‘mir, temir, marganets, qalay rudalari, boksit, mis, qo‘rg‘oshin, rux, alyuminiy, nikel va fosfat konlari bor.

Iqlimi — Indoneziyaning katta qismida ekvatorial, Yava orolining sharqiy va Kichik Zond orollarida subekvatorial iqlim. Eng yirik daryolari — Kapuas, Barito, Xarri, Kompar, Musi, Mamberamo, Digul.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Indoneziya — unitar respublika. Davlat va hukumat boshlig‘i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Xalq Maslahat Kongressi. Amaldagi konstitutsiyasi 1945-yil 18-avgustda qabul qilingan. Ijroiya hokimiyatni prezident o‘zi tayinlagan hukumat bilan birga boshqaradi. Asosiy siyosiy partiyalari: Birlik va taraqqiyot partiyasi, IDP Milliy mandat partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Indoneziya — agrar-industrial mamlakat. Qishloq

xo'jaligi Indoneziya iqtisodining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Mehnatga yaroqli aholining yarmidan ko'prog'i qishloq xo'jaligida band. Tabiiy kauchuk va palma yog'i ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Tropik daraxt yog'ochidan yasalgan buyumlar, tamaki, choy, qahva, ziravor dorivorlar, shuningdek, baliq va dengiz mahsulotlari yetkazib beruvchi eng katta davlatdir. Asosiy donli ekin — sholi, makkajo'xori. Chorvachiligidagi qoramol, cho'chqa, echki, qo'y, yilqi, parranda boqiladi. Indoneziya hududining 65% i o'rmon bilan qoplangan bo'lib, qimmat-baho yog'och tayyorlanadi. Konchilik sanoati byudjet tushumlarining ancha qismini ta'minlaydi. Yiliga o'rtacha 576 mln barrel neft qazib olinadi. Indoneziya suyultirilgan tabiiy gazni chetga chiqarishda dunyoda birinchi o'rinda, qalay qazib olishda ikkinchi o'rinda, nikel qazib olishda to'rtinchi o'rinda turadi. Mahsulot ishlab chiqarish sanoatining asosini iste'mol mollari: gazlama, charm buyumlar, ro'zg'orbop kimyoviy mahsulotlar, oziq-ovqat tashkil etadi. Sholi oqlash, tamaki, qand-shakar, choy, yog', ip-gazlama, jun, qurilish materiallari, farmatsevtika va poligrafiya, konditer korxonalar, mineral o'g'it va shina zavodlari bor. Yuksak texnologiyaga asoslangan tarmoqlar: kemasozlik, samolyotsozlik, neft kimyosi, avtomobil yig'ish, radioelektronika rivojlanmoqda. Indoneziyada dengiz transporti yetakchi o'rinda. 2004-yil YIM miqdori 827400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Yaponiya, AQSH, Singapur, Germaniya.

Temiryo'llarinining umumiy uzunligi — 6964 km. Avtomobil yo'llari — 119500 km. Ichki suv yo'llari — 21579 km. Portlari: Tanjungprion (Jakarta porti), Surabaya, Palembang, Balikpapan, Ujungpan.

**Tarixi.** Indoneziya qadimiy madaniyat markazalaridan biridir. M. a. II asrga oid yodgorliklar saqlangan. Yava, Malayya orollarida Taruma va Kalinga, Sumatrada Malayyu va Shrivijayya davlatlari tashkil topgan. Ularda hinduilik va buddaviylik tarqala boshladi. VII asrda bir necha mayda davlatlar birlashib, Shrivijayya

imperiyasiga aylandi. VIII asrning birinchi yarmida Yavada Mataram davlati paydo bo'ldi. 1025-yil Shrivijayya inqirozga uchradi. XI asrning 40-yillarida Mataram Kediri (XIII asrdan Singasari) va Jangola davlatlariga bo'linib ketdi. XIII asr oxirida Singasari yemirilib, uning o'mnida Majapaxit imperiyasi tashkil topdi (1293 — taxm. 1520). XIV asrda Hindiston va Malakkadan Indoneziyaga islom dini kirib keldi. XVI asrdan Majapaxit imperiyasi musulmon sultonliklariga bo'linib ketgach, Indoneziya hududiga yevropaliklar (portugallar, gollandlar) kirib kela boshladi. 1602-yil gollandlar Indoneziyada Ost-Indiya kompaniyasiga asos soldi. 1811-yil Indoneziyani inglizlar bosib oldi. 1814-yilgi Angliya-Niderlandiya bitimiga ko'ra Indoneziya Niderlandiya qo'liga o'tdi. 1942—1945-yillarda Indoneziyani Yaponiya bosib oldi. Yaponiya II Jahon urushida mag'lubiyatga uchragach, mamlakat mustaqil Indoneziya Respublikasi deb e'lon qilindi (1945-yil 17-avgust). 1945-yil 6-sentabrda Indoneziyaga ingliz, keyinroq golland qo'shinlari bostirib kirdi. 1949-yil noyabrda Gollandiya Indoneziya mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Biroq Indoneziya 16 hududga bo'linib tashlandi: Mamlakat «Indoneziya Qo'shma Shtatlari» nomi bilan yuritala boshlandi. Gollandiya G'arbiy Irianni o'z qo'l ostida saqlab qoldi. 1950-yil 6-avgustda Indoneziya unitar davlat deb e'lon qilindi. 1953-yil 1-mayda G'arbiy Irian Indoneziya Respublikasi tarkibiga qo'shib olindi.

## IORDANIYA

*Rasmiy nomi — Iordaniya Hoshimiylar podshohligi. Poytaxti — Ommon. Hududi — 89206 km<sup>2</sup>. Aholisi — 5460300 kishi (2003). Tili — arab. Dini — islom davlat dini hisoblanadi. Pul birligi — Iordan dinori.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Iordaniya Yaqin sharqda Osiyoning g'arbiy qismida joylashgan. Iordaniya sharqda va janubda Saudiya Arabistoniga

(chegara uzunligi — 728 km), sharqda Iroq (181 km), g'arbda Isroiil (238 km) va Falastin (97 km), shimolda Suriya (375 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 1619 km. Iordaniya ma'muriy jihatdan 12 muhofazat (viloyat)ga bo'linadi. Iordaniyaning aksar qismi sharqdan g'arbgaga tomon balandlashib boradigan yassitog'liklardan iborat. Janubdagagi Ram tog'i Iordaniyaning eng baland nuqtasi (1764 m). Mamlakatning g'arbiy qismida meridian chizig'iga parallel holda yo'nalgan chuqur botiq voha — Hor (Al-Hor) va uning davomi Vodiy al-Arab joylashgan. Hor mintaqasida Iordan daryosi vodiysi va O'lik dengiz o'rinni olgan. Bu mintaqaning har ikki tomonida Suriya—Falastin tog'lari qad rostlab turadi. Yirik shaharlari: Ommon, Az-Zarqa, Irbid, Al-Xalil.

### *Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.*

Iordaniya — Konstitutsion monarxiya. 1952-yil 8-yanvarda qabul qilingan konstitutsiyaga amal qiladi. Davlat boshlig'i — Malik (podshoh) bo'lib, u qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyat sohasida katta huquqqa ega. Qonun chiqaruvchi hokimiyat podshoh va Millat majlisi (parlament): u Senat va Deputatlar palatasidan iborat. Senatni podshoh 4 yilga tayinlaydi. Deputatlar palatasi to'g'ridan to'g'ri va ovoz berish yo'li bilan 4 yilga saylanadi. Ijroiya hokimiyatni podshoh o'zi ta'minlaydigan hukumat — Vazirlar Kengashi orqali amalga oshiradi.

### *Iqtisodi va transport kommunikatsiyalari.*

Iordaniya iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish, sanoat, qishloq xo'jaligi va sayyoqlik sohalari rivojlanmoqda. Iordaniya fosfat va ishqor (potash), mis va marganets zaxiralariga va unchalik yirik bo'limgan neft konlariga ega. Konchilik, energetika, to'qimachilik sanoatlari rivojlangan. Iqtisodiyotida konchilik sanoati muhim ahamiyatga ega. Fosforit eksporti bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Mamlakat mineral tuzlarga ham boy. Shuningdek, brom, magniy oksidi ham qazib olinadi. Mis rudasi, marganets, uran, temir rudasi ham bor. Bulardan tashqari, Iordaniya yerlari kaolin, gips, ohaktosh, kvarsli qumlar, dolomit, bentonit, dala shpati

konlariga ham boydir. Iordaniyada sovutgich, gaz plitalar, akkumulyatorlar ishlab chiqaradigan zavodlar, qurilish mollari, mebel korxonalari bor. Dori-darmon, sigareta, kulolchilik buyumlari, poyabzal, to'qimachilik mollari ham ishlab chiqariladi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotda yuqori mavqega ega emas. Mamlakat hududining atigi 5—6% i haydaladigan yerlardir. Chorvachilik oqsoq tarmoq hisoblanadi. Asosan qoramol, qo'y va echki boqiladi. (Yem-xashak yetishmaydi, yaylovlari kam.)

Iordaniya chetga asosan fosfat, fosfatli va kaliyli o'g'itlar, ishqor, sement, marmar, akkumulyatorlar, to'qimachilik buyumlari, parafin, lok bo'yoqlar, tozalash moddalari, qandolatchilik mahsulotlari, kimyoviy mollar chiqaradi. Chetdan mashina, asbob-uskuna, neft va neft mahsulotlari, go'sht, sut mahsulotlari olinadi. 2004-yil YIM miqdori 25500 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — arab davlatlari, AQSH, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston.

Temiryo'llarining umumiyligi — 619 km. Avtomobil yo'llarining uzunligi — 7500 km. Asosiy porti — Akaba.

**Tarixi.** Hozirgi Iordaniya hududida dastlab kananeylarning somiy qabilalari yashagan. M. a. bir ming yillikda bu hududning bir qismi Isroil va Yahudiya podsholiklari tarkibida bo'lgan. M. a. bir ming yillik oxirida qadimgi arab davlati — Nabateya podsholigi vujudga keldi. Iordaniya milodiy II asrning 30-yillaridan Rim, IV asrdan Vizantiya imperiyasi, VII asrdan Arab xalifaligi qo'l ostida bo'ldi. XI—XV asrlarda salibchilar, saljuqiylar, Misr mamluklari bostirib kirdi. X asrning boshidan 1918-yilgacha Usmonli turk imperiyasi tarkibida bo'ldi. Mamlakat birinchi jahon urushi davrida arab qo'zg'olonchi va vatanparvarlari tomonidan ozod qilindi. So'ng Suriya hududi bilan birga amir Faysal qo'l ostiga o'tdi. 1920-yilda Britaniya mandatidagi Falastinga qo'shildi. 1921-yilda Iordan daryosining sharqiy qismida Hoshimiylar sulolasidan bo'lgan amir Abdulloh rahbarligida Transiordaniya amirligi tashkil

topdi. Amirlik ustidan Angliya nazorati o'rnatildi. 1946-yil 25-mayda Transiordaniya Iordaniya nomi bilan mustaqil davlat, amir Abdulloh (2004-yil vafot etdi) esa uning podshohi deb e'lon qilindi.

## IRLANDIYA

*Rasmiy nomi — Irlandiya Respublikasi. Poytaxti — Dublin. Hududi — 70,3 ming km<sup>2</sup>. Aholisi — 3924100 kishi (2003). Tili — irland va ingliz. Dini — aholisining aksariyati katoliklar, bir qismi protestantlar. Pul birligi — Irland funti.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Irlandiya Yevropaning g'arbida, Irland orollarida joylashgan. Ma'muriy jihatdan 26 ta graflikka bo'linadi, ular 4 tarixiy viloyatga birlashadi. Shimolda Buyuk Britaniya (Shimoliy Irlandiya) (chegara uzunligi — 360 km) bilan chegaradosh. Sharqda Irland dengizi, boshqa tomondan Atlantika okeani bilan tutash. Irlandiya hududining yarmidan ko'pini markaziy tekislik egallagan. Chekka qismlarida past va o'rtacha balandlikdagi tog'lar bor. Janubi g'arbida Kerri tog'i (1041 m) Irlandiyadagi eng baland tog'dir. Irlandiyada torfning katta zaxiralari, toshko'mir, qo'rg'oshin, rux, mis, fosforit bor.

Iqlimi — mo'tadil okean. Yirik daryosi — Shannon. Yirik shaharlari: Dublin, Kork, Limerik.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Irlandiya — respublika. 1937-yil 29-dekabrda qabul qilingan hamda 1972- va 1999-yillarda tuzatishlar kiritilgan Konstitutsiyaga amal qiladi. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Milliy parlament. (Ikki palatali: Vakillar palatasи va Senat). Ijroiya hokimiyatni Vakillar palatasining taklifiga binoan prezident tomonidan tayinlanadigan hukumat amalga oshiradi. Asosiy siyosiy partiyalari: Fianna foyl («Omad askarlari»), Fine gal (Birlashgan Irlandiya), Irlandiya leyboristlar partiyasi, Irlandiya kommunistik partiyasi,

Demokratik so'l partiya, Taraqqiyat parvar demokratik partiya, Irlandiya ishchilari partiyasi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Irlandiya — industrial mamlakat. Konchilik sanoati va qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash tarmoqlari yetakchi o'rinda. Metallurgiya, mashinasozlik, elektro-texnika, neft, kimyo qurilishi ashyolari konlari bor. Torf qazib olish va undan foydalanish sohasida dunyoda oldingi o'rinda turadi. Chorvachilik mamlakat qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblanadi: bu tarmoq yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 88% ini beradi. Uning 80% i eksport qilinadi. Dengiz floti rivojlangan. Asosiy portlari — Dublin, Kerk. Irlandiya chetga mashina va asbob-uskunalar, qoramol, oziq-ovqat, kimyo, to'qimachilik mahsulotlari chiqaradi. Chetdan transport vositalari neft va boshqalar keltiriladi. 2004-yil YIM miqdori 126400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 31900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSH va Rossiya.

Temiryo'llarinig umumiy uzunligi — 1947 km, avtomobil yo'llari — 92294 km. Dengiz portlari — Dublin, Kork, Uoterford.

**Tarixi.** Irlandiya hududida inson m. a. 6 ming yillikdan buyon yashaydi. M. a. I asrda kelt qabilalari ko'chib kelib mahalliy aholi bilan qo'shib ketgan. V asrda xristian dini tarqalgan. 1921-yilda Angliya—Irlandiya bitimiga muvofiq Irlandiyaning janubiy qismi mustaqil deb e'lon qilindi va Angliya nazoratidagi dominion huquqini oldi. 1937-yilgi yangi konstitutsiya «Eyre mustaqil davlati» deb e'lon qilindi. 1949-yil Irlandiya mustaqil Respublika deb e'lon qilingan bo'lsa ham, mamlakatning shimoliy qismi (Olster)da mustam-lakachilar hukmronligi saqlanib qoldi.

## **IROQ**

*Rasmiy nomi — Iroq Respublikasi (Al-Jumxuriya al-Iroqiya). Poytaxti — Bag'dod. Hududi — 434924 km<sup>2</sup>. Aholisi — 24683300 kishi*

*(2003). Rasmiy tili – arab tili. Dini – islom (95%), xristianlar (3%). Pul birligi – Iroq dinori.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Iroq Osiyoning janubi g‘arbiy qismida joylashgan davlat. Shimolda Turkiya, sharqda Saudiya Arabiston va Quvayt, g‘arbda – Iordaniya va Suriya bilan chegaradosh. Mamlakatning janubiy sohillari Fors qo‘ltig‘i bilan tutashgan. Mamlakatning shimoliy qismi – Al-Jazra Arman tog‘liklari va Turkiya bilan chegaradosh hududlarda joylashgan. Bu hududning eng baland nuqtasi – 2135 m. Dajla va Frot daryolari oralig‘ida keng vodiy yastanib yotadi. Frotning g‘arbiy tarafidan vodiy Suriya cho‘llariga tutashib ketgan.

Iqlimi – kotinental. Mamlakatning markaziy qismida xurmo va terak daraxtlari o‘sadi. Iroqning katta qismini chalacho‘l va cho‘llarga o‘tib boruvchi tekisliklar egallagan. Tog‘li hududlarda ninabargli butalar bor. Iroq hayvonot dunyosi rang-barangdir: mamlakatning o‘rmon va cho‘llarida ohu, antilopa, gepard, sher, bo‘ri, chiyabo‘ri, quyon va boshqa hayvonlarni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishiga ko‘ra prezidentlik respublikasi. Iroq 18 ta viloyatdan iborat. Davlat va hukumat boshlig‘i – prezident. Siyosiy partiyalari: Kurdiston demokratik partiyasi, Iroq kommunistik partiyasi, Arab sotsialistik uyg‘onish partiyasi, Kurdiston partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iroq – agrar-industrial davlat. Iqtisodining asosini neft qazib olish tashkil etadi. Neftni qayta ishslash, sement, to‘qimachilik, teri-poyabzal, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Kimyo-farmatsevtika, shisha, elektrotexnika, aftomobil yig‘uvchi korxonalar, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi zavodlari ishlab turibdi. Neft xomashyosi, funduq, quruq mevalar asosiy eksport mahsulotlari hisoblanadi. Og‘ir mashinasozlik va mudofaa sanoati mahsulotlari, transport jihozlari, temir, po‘lat, asosiy sanoat mahsulotlari, g‘alla, oziq-ovqat mahsulotlari

importda muhim o‘rin tutadi. 2004-yil YIM miqdori 54400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Iordaniya, Turkiya, Braziliya, Yaponiya, Niderlandiya, Ispaniya, Fransiya.

Asosiy porti: Basra.

**Tarixi.** Qadimgi Iroq hududida m. a. IV ming yillikda Shumer davlati tashkil topgan. M. a. III ming yillikdan I ming yillikgacha bu hududda Akkad, Babil va Ossuriya davlatlari mavjud bo‘lgan. M. a. 539—331 yilgacha bu hududlar Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga, keyin 200 yil davomida Aleksandr Makedonskiy imperiyasi tarkibida bo‘lgan. Undan so‘ng yana forslar hukmronligi ostiga qaytgan. VII asrda bu hududlarni arablar bosib olgan. XIII asrda esa mo‘g‘ul bosqinchilari bu yerkunda bostirib kirdi. XVI asrdan XX asrgacha Iroq Usmoniylar imperiyasining tarkibiy qismi bo‘lib keldi. 1916-yili Buyuk Britaniya bu hududlarni istilo qildi. 1932-yili Iroq o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi, lekin oradan ko‘p o‘tmay 1941—1945-yillarda Buyuk Britaniya, Eron, Pokiston va Turkiya jamoaviy xavfsizlik to‘g‘risidagi «Bog‘dod pakti»ni imzolashdi. 1958-yil monarxiya ag‘darilib, Iroq «Bog‘dod pakti»dan chiqdi. 1963-yil AQSHning qo‘llab-quvvatlashi bilan Iroqda harbiy davlat to‘ntarishi amalga oshirildi. 1980-yil Iroq va Eron o‘rtasida urush boshlanib ketdi. 1988-yil urush to‘xtatilib, 1990-yil Eron bilan tinchlik shartnomasi imzolandi. Shu yili Iroq Quvayt hududiga bostirib kirdi. BMT Iroq bilan savdo aloqalariga embargo e’lon qildi. 1991-yil AQSH boshchiligidagi NATO harbiy kuchlari «Sahrodagi bo‘ron» deb nomlangan Iroqqa qarshi harbiy operatsiyani boshladidi. 1994-yil Iroq Quvaytga nisbatan o‘z da‘vosidan voz kechdi. 1998-yil qurollanishni nazorat qilish bo‘yicha BMT maxsus komissiyasi mamlakat hududidan chiqarib yuborildi. Bu Fors ko‘rfazida AQSH harbiy kuchlarining to‘planishiga asos bo‘ldi. 2003-yilning mart oyida AQSH va Buyuk Britaniya Saddam Husaynni hokimiyatdan ag‘darish maqsadida Iroqqa qarshi harbiy operatsiyalarini boshladi, natijada S. Husayn hokimiyatdan ag‘darilib, deyarli butun Iroq hududi AQSH nazorati ostiga o‘tdi.

## ISLANDIYA

*Rasmiy nomi — Islandiya Respublikasi. Poytaxti — Reykyavik. Hududi — 103000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 280800 kishi (2003). Davlat tili — island. Dini — lyuteranlar (95%), protestantlar (2%), katoliklar (1%). Pul birligi — island kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Islandiya Atlantika okeanining shimoliy qismidagi Islandiya orolida joylashgan. Orol yuzasini vulqonli tog‘liklar, ko‘p sonli muz bilan qoplangan tog‘li massivlar egallagan. Orolda 200 dan ortiq vulqonlar qayd etilgan, ularning ko‘plari — Gekla, Lake, Askya va boshqalar harakatdagi vulqonlardir. Gidroenergiya resurslari va baliq mamlakatning asosiy tabiiy resurslari hisoblanadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishiga ko‘ra parlamentar respublika. Ma’muriy jihatdan 23 okrugga bo‘linadi. 1944-yil 17-iyunda Daniyadan ajralib, mustaqillika erishgan. (Milliy bayrami — Respublika e’lon qilingan kun.) Ijro etuvchi hokimiyatni prezident (davlat boshlig‘i) va hukumatni boshqaradigan premyer-ministr boshqaradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — ikki palatali (yuqori va quyi) parlament (Alting)dan iborat. Asosiy siyosiy partiyalari: Mustaqillik partiyasi (MP), Progressiv partiya (PP), Islandiya sotsial-demokratik partiyasi (ISDP), Xalq ittifoqi (XI).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodi amaliy jihatdan baliqchilik va baliqni qayta ishlash bilan cheklangan. Asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari kartoshka va sholg‘om. Qo‘ychilik va sut yetishtiradigan chorvachilik ham rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 9373 mln dollarni (aholi jon boshiga — 31900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, Norvegiya, AQSH, Yaponiya.

Avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi — 12343 km. Dengiz portlari: Keblavik, Reykyavik, Seydisfordyur.

**Tarixi.** Islandiya yerlari VIII asrda irland monaxlari tomonidan ochilgan, 865-yilda esa bu hududlarga norveglar ko'chib kelgan. 930-yilda mustamlakachilar orolda respublika barpo etdilar. Taxminan 1000-yilda mamlakatda dastlabki xristian missionerlari paydo bo'ldi. 1262-yilda Islandiyada Norvegiya qirolligi hukmronligi o'rnatildi.

## ISPANIYA

*Rasmiy nomi – Ispaniya Qirolligi. Poytaxti – Madrid. Hududi – 504,70 ming km<sup>2</sup>. Aholisi – 40217400 kishi (2003). Tili – ispan. Dini – ko'pchiligi katoliklar. Pul birligi – yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Yevropaning janubi g'arbida Pireney yarimorolida joylashgan O'rta Yer dengizidagi Balear, Atlantika okeanidagi Kanar orollari, Afrikaning shimoliy qirg'og'idagi Seuta va Melilya shaharlari va unga yondosh Velesde-le Gomera, Alu-Semas, Chafarinos orollari ham Ispaniyaga qarashli. G'arbda Portugaliya (chevara uzunligi – 1214 km), shimolda Fransiya (623 km) va Andorra (65 km), janubda Gibraltar (1,2 km) bilan chegaradosh.

Ispaniya subtropik mintaqada joylashgan. Hududining aksar qismi yassitog'lik, o'rtacha balandlikdagi tizmalar, yassitog'liklar va pasttekisliklardan iborat. Serra-Nevado tizmasidagi Mulasen tog'i (3478 m) Ispaniyadagi eng baland tog'dir. Mamlakatning asosiy daryolari: Tixo, Ebro, Gvadalkvivir, Deero, Gvadiana va boshqalar. Ispaniyada uran, mis, simob, qo'rg'oshin, temir, volfram, qalay, oltin, kumush, margimush, marganets konlari bor. Hududning 31% i ekin ekiladigan yerlar. 31% o'rmonlar va butazorlar, 21% o'tloq va yaylovlardan iborat.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – konstitutsion monarxiya. Ma'muriy jihatdan 17 ta muxtor hududga, ular o'z navbatida ellikta viloyat (provinsiya)ga bo'linadi. Milliy bayrami – 12-oktabr – Ispan millati kuni. 1492-yildan boshlab

mustaqil davlat. Davlat boshlig'i — qiroq (1975-yil 22-noyabrdan Xuan Karlos I), uning huquqi konstitutsiya bilan chegaralangan. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni General Korteslar (parlament) amalga oshiradi. Korteslar ikki palata — Deputatlar Kongressi va Senatdan iborat. Ijroiya hokimiyatni hukumat amalga oshiradi. Hukumat raisini qiroq parlamentning ikkala palatasi raislari bilan maslahatlashib tayinlaydi. Asosiy partiyalari: Ispaniya sotsialistik ishchi partiyasi (ISIP), Xalq partiyasi (XP), Ispaniya kommunistik partiyasi (IKP), Basklarnig millatparvar partiyasi (BMP), Kataloniya demokratik konvergensiysi (DK), Valensiya Ittifoqi (VI).

### *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Ispaniya industrial-agrar mamlakat. YMMda sanoatning ulushi 23%, qishloq xo'jaligining ulushi 35%, xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 60% dan ortadi. 2004-yil YIM miqdori 937600 mln dollarni (aholi jon boshiga — 23300 dol.) tashkil etgan. Sanoatida og'ir sanoat yetakchi o'rinda turadi. Mashinasozlik, avtomobilsozlik, kemasozlik, elektrotexnika, stanoksoziklik, kimyo sanoati rivojlangan. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i dehqonchilik.

Temiryo'llarinining umumiy uzunligi — 14378 km. Avtomobil yo'llari uzunligi — 324 ming km. Portlari: Kartaxena, Alxesiras, Barselona, Bilbao, Santa-Krus-de-Tenerife, Vigo, Kadis, La-Korunya, Malaga, Santaner, Tarragona, Valensiya, Xixon, Alekante, Almeriya.

Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, AQSH.

**Tarixi.** M. a. VII asrdan Ispaniyaning janubiy va sharqiy sohilbo'yłari finikiyaliklar va yunonlar tomonidan o'zlashtirila boshlangan. M. a. 7000—5000-yillarda O'rta Yer dengizi sohilida iberlar madaniyati paydo bo'ldi. M. a. III asr oxirlarida Ispaniya hududining ko'p qismi Karfagen qo'l ostiga o'tdi. M. a. II asr boshlariga kelib rimliklar karfagenliklarni siqib chiqardilar. Mavrlar 711—718-yillarda Pireney yarimorollarining ko'p qismini bosib oldilar va bu qismlar Damashq xalifaligi qo'l ostiga o'tdi. 756-yil mustaqil davlat — Qurdoba amirligi, 929-yilda esa Qurdoba xalifaligi tuzil-

di. X—XI asrlarda musulmonlar Ispaniyasi bir necha mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi. 1212-yilda mavrlarga qarshi hujum (Rekonkista) natijasida Aragoniya, Kastilya va boshqa ispan qirolliklari vujudga keldi. Kastilya va Aragoniya bitta qirollikka birlashib (1469-yil), mamlakatni 1492-yilda mavrlardan ozod qildi. Ispaniya qirolligi XVI asrda gullab-yashnadi, Janubiy va Markaziy Amerikada mustamlakalarini kengaytirdi, 1580-yilda Portugaliyani zabit etdi, lekin XVII asrda ko'p hududlaridan ajraldi. 1640-yil Portugaliya, 1648-yil Niderlandiya, 1649-yilda esa Artua va Rusilon provinsiyalarini Fransiyaga boy berdi. XIX asr boshlari da mamlakat Napoleon qo'shinlaridan ozod qilindi. O'sha paytda ispanlar Janubiy va Markaziy Amerikadagi deyarli barcha mustamlakalaridan ajraldi. XIX asrda Ispaniyada absolyut hokimiyat tarafdorlari va liberallar o'rtasida kurash bo'lib o'tdi. 1923-yilda davlat to'ntarishi natijasida mamlakatda diktatura o'rnatildi. 1931-yilda Ispaniya Respublika deb e'lon qilindi. Qirol Alfons XIII taxtdan voz kechmay mamlakatni tark etdi. 1936-yilda Xalq fronti hokimiyat tepasiga kelgach, fuqarolar urushi avj oldi va 1939-yil mamlakatda Franko fashistik rejimining o'rnatilishi bilan tugallandi. 1975-yilda Franko vafotidan keyin Ispaniyada Konstitutsion monarxiya o'rnatildi. 1976-yilda mamlakatda parlament tizimi joriy etildi, 1978-yilda yangi Konstitutsiya qabul qilindi.

## ISROIL

*Rasmiy nomi — Isroil davlati. Poytaxti — Tel-Aviv. Hududi — 20770 km<sup>2</sup>. Aholisi — 6116500 kishi (2003). Tili — ivrit, shuningdek, arablar yashaydigan yerlarda arab tili. Dini — iudaizm (82%), islom (14%), xristian (2%). Pul birligi — shekel.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Isroil davlati Janubi G'arbiy Osiyoda joylashgan. Sharqda Iordaniya, shimolda Livan, shimoli sharqda Suriya, janubi g'arbda

Misr, sharqda va janubi g‘arbda Falastin bilan chegaradosh. Bu davlatni bir necha qismga shartli ravishda ajratish mumkin. Galiley yassitog‘ligi, Meron tog‘i (1208 m), Esdrayelon vodiysi, Samariy va Yahudiy tepaliklari (yassitog‘), Negev cho‘li va qirg‘oq tekisliklari. Mamlakatning asosiy daryosi — Iordan. Foydali qazilmalaridan mis, fosfor, oltingugurt, marganets, kam miqdordagi neft va gaz zaxirasi ham bor. Ekin ekiladigan yer mamlakat maydonining 17%, yaylov maydoni esa 40% ni tashkil etadi.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — parlamentar respublika. Mamlakat 6 ta okrugdan iborat: Markaziy Xayfa, Quddus, Shimoliy, Janubiy, Tel-Aviv. Ijroiya hokimiyat prezident (davlat boshlig‘i) va premyer-ministr rahbarligidagi hukumatga qarashlidir. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Knesset (bir palatali). Asosiy siyosiy partiyalari — Likud, Avoda (mehnat).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Iqtisodni boshqarishda davlat asosiy rol o‘ynaydi. Tabiiy resurslarining chegaralanganligiga qaramasdan, keyingi o‘n yilliklarda Isroilda qishloq xo‘jaligi va sanoat jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. 2004-yil YIM miqdori 129000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 20800 dol.) tashkil etgan. Sanoat tarmoqlaridan olmoslarni qirralash, to‘qimachilik, oziq-ovqat, kimyo, harbiy va transport jihozlarini ishlab chiqarish, yuqori texnologiyali elektronika kabilar mavjud. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish yalpi ichki mahsulotning 3% ini tashkil etadi. Sitrus mevalar, sabzavotlar, paxta, chorva mahsulotlari yetishtiriladi. Eksportning asosiy qismini olmos tashkil etadi. Shuningdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, yuqori texnologiyali jihozlar eksport qilinadi.

Temiryo‘llarining umumiyligi — 600 km. Avtomobil yo‘llari — 4750 km. Asosiy portlari — Ashdot, Xayfa. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, YH mamlakatlari, Yaponiya.

***Tarixi.*** 1948-yil 18-mayda yahudiylar tomonidan hozirgi Isroil davlati tashkil etildi. Ushbu davlat jahoning ko‘pgina davlatlari tomonidan darhol tan olindi,

lekin bu davlatning tashkil topishi qo'shni davlatlarda norozilikni keltirib chiqardi. Oqibatda 1947—1948-yillardagi birinchi arab—isroil ziddiyati yuzaga keldi. Urushda Isroil yangi hududlarni qo'lga kiritib, g'olib chiqdi. 1956-yilda Suvaysh kanalining natsionalizatsiya qilinishi va Misrning arab davlatlari bilan shartnoma tuzishi natijasida Isroil Misrga qarshi urush boshladi va bu urush Isroil qo'shinlarining Sinay yarimorolidan chiqib ketishi bilan yakunlandi. 1967-yilning iyunida Isroil Misr, Suriya va Iordaniyaga qarshi urush boshlab, Sinay yarimoroli, G'azo sektori, Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'idagi yerlar, Quddusning arablar yashaydigan qismi, Jo'lan tepaliklarini qo'lga kiritdi. 1973-yil oktabrda Misr va Suriya Isroilga qarshi harbiy harakatlari olib bordi. Isroil Sinay yarimorolidan ajraldi. 1979-yil martda Kemp-Devid bitimi (1978-yil sentabr, AQSH) asosida Misr va Isroil o'rtaida tinchlik shartnomasi tuzildi. 1982-yilning iyunida Isroil Livanga bostirib kirdi va Bayrutni bombardimon qildi. 1982-yil Rabin boshchiligidagi leyboristlar hukumat tepasiga kelgach tinchlikni yo'lga qo'yish jarayoni boshlandi. 1993-yilda Isroil hukumati va Falastin Ozodlik tashkiloti o'rtaida Falastin avtonomiyasini nazarda tutgan tinchlik shartnomasi imzolandi.

## ITALIYA

*Rasmiy nomi — Italiya Respublikasi. Poytaxti — Rim. Hududi — 311230 km<sup>2</sup>. Aholisi — 57998400 kishi (2003). Tili — italyan. Dini — aholisining asosiy qismi protestantlar, musulmonlar, yahudiylar. Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Janubiy Yevropada, Apennin yarimorolida joylashgan. Shimolda — Avstriya (chegara uzunligi — 430 km) va Shveysariya (740 km), shimoli g'arbda — Fransiya (488 km), sharqda — Sloveniya (199 km) bilan chegaradosh. Sardiniya, Sitsiliya, Elba orollari va bir qancha kichik orollar ham Italiyaga qarashli. Italiya

hududi janubda va g'arbda O'rta Yer dengizi, sharqda Adriatika dengizi bilan tutash. Chegarasining umumiy uzunligi 1899,2 km. Hududining 80% i tog' va qirlardan iborat. Italiyaning shimolida Alp tog'lari joylashgan. Alp va Apennin tog'lari oralig'ida Po daryosi vodiysi bilan Lombard tekisligi joylashgan. Harakatdagi vulqonlar ko'p. Ular orasida Vezuviy (1277 m) va Etna (3323 m) Sitsiliya orolida joylashgan. Italiyaning asosiy dar-yolari — Po va Tibr. Mamlakatda ko'llar ko'p, asosiy-lari Garda, Lago-Madjore, Komo. Asosiy foydali qazil-malari: simob, marmar, ishqor, ko'mir, oltingugurt, kam miqdorda tabiiy gaz va neft. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 32%, o'rmon va butazorlar — 22%, yaylov va o'tloqlar 17% ni tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — parlamentar respublika. Ma'muriy jihatdan 20 ta viloyatga bo'linadi. Italiya 1961-yil 17-martda mustaqil davlatga aylangan. Milliy bayram — iyunning birinchi yakshanbasi — Respublikaning e'lon qilinishi. Ijroiya hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va premier-ministr rahbarligida hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — ikki palatali parlament — Senat va Deputatlar palatasidan iborat. Asosiy siyosiy partiyalari: Italiya xalq partiyasi (IXP), Italiya sotsialistik partiyasi (ISP), So'l kuchlar demokratik partiyasi (SKDP).

**Iqtisodi va transport kommunikatsiyalari.** Hozirgi kunda Italiya Yevropaning yetakchi mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: avtomobilsozlik (dunyoda 5-o'rinda), kimyo sanoati, metallurgiya, po'lat eritish, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik, kiyim-kechak va poyabzal ishlab chiqarish. Qishloq xo'jaligi go'sht va sut mahsulotlaridan tashqari, mamlakatning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondiradi. Italiyada xizmat ko'rsatish va turizm rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 1609000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 27700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, AQSH, OPEK mamlakatlari.

Temiryo'llarning umumiy uzunligi — 20011 km,

avtomobil yo'llari — 294410 km, ichki yo'llari — 2400 km. Dengiz portlari: Ankona, Venetsiya, Genuya, Sardiniya, Spetsiya, Livorno, Neapol, Palermo (Sitsiliya), Taranto, Triyest.

**Tarixi.** Italiya tarixi m. a. X asrda bu yerda yashagan turli qabilalar (ligurlar, etrusklar, lotinlar va boshqalar) greklar va finikiyaliklar madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan etrusklar madaniyati bilan boshlanadi. Lotinlar tomonidan miloddan avvalgi VIII asrda asos solingan Rimni m. a. VI asrda etrusklar zabit etdilar va ko'plab buyuk me'moriy yodgorliklarini barpo etdilar. Etrusklar Rimdañ quvib chiqarilgandan keyin respublika o'rnatildi, asosiy siyosiy kurash esa Rim aristokratiyasi (patritsiylar) va plebeylar o'rtasida kechdi. O'sha paytda Rim o'zining tashqi dushmanlari bilan ham kurash olib borib, m. a. III asrda butun Apennin yarimorolini zabit etdi. M. a. 264—118-yillarda Rim Sitsiliya, Gretsya, Makedoniyani, Osiyo va Afrikadagi bir qancha hududlarni o'z provinsiyalariga aylantirib, o'z mustamlakalarini kengaytirdi. Fuqarolar urushi davridan keyin Okta-vian Avgust Respublikani imperiyaga aylantirdi. II asr dan keyin buyuk imperiya inqirozga yuz tuta boshladidi. IV asrda xristianlik dini tarqaldi. IV asr oxirlarida qadimgi Rim vestgotlar hujumlariga qarshi turolmadi, 410-yilda shahar talon-taroj qilindi. 476-yilda esa oxirgi Rim imperatori Romul taxtdan ag'darildi. VI—VIII asrlarda mamlakat shimoli langobardlar tomonidan ishg'ol etilgan bo'lsa, janub qismi Vizantiya imperiyasi tarkibiga kiritildi. IX—X asrlarda Italiyaning shimoliy qismi german imperatorlari hukmronligiga o'tdi. Lekin XV asrda Italiya shaharlari rivojlanib, Yevropaning yetakchi moliyaviy va savdo markazlariga aylandi. XVI—XVIII asrlarda qudratli Yevropa davlatlari Italiyadagi tarqoqlikdan foydalanib, mamlakat ichki ishlariga faol ravishda aralashar edilar. Napoleon urushlari davrida Italiya Fransiya tomonidan okkupatsiya qilindi. Italiya ozodlikka erishgandan keyin mamlakatda tarqoqlik davom etdi va Avstriya ta'siriga tushib qoldi.

1851-yilda Sardiniya qiroli Viktor Emmanuil II tomonidan Italiyani bitta davlatga birlashtirish uchun

boshlangan harakat 1870-yilda yagona Italiya davlatining tashkil topishi bilan yakunlandi. (Rim — 1870-yil 2-oktabr mamlakat poytaxti deb e'lon qilindi.) I jahon urushi davrida Italiya Antanta tomonida bo'ldi, lekin Avstro—Vengriya imperiyasi tarkibidagi yerlarni qaytarib olishga muvaffaq bo'la olmadi. Millatchilik kayfiyatining o'sishi, iqtisodiy inqiroz va ishsizlik natijasida hokimiyat tepasiga qirol Viktor Emmanuil III qo'llab-quvvatlagan Mussolini boshchiligidagi fashistik partiya keldi. 1840-yil 10-iyunda Italiya Germaniya tomonida II jahon urushiga kirdi. Italiyada fashistik rejim 1945-yilgacha, diktator Mussolinining partizanlar tomonidan qatl etilishigacha (28-aprel) davom etdi. 1946-yil 2-iyunda Italiya respublika deb e'lon qilindi.

## KABO-VERDE

*Rasmiy nomi — Kabo-Verde Respublikasi. Poytaxti — Praya. Hududi — 4033 km<sup>2</sup>. Aholisi — 418200 kishi (2005). Tili — portugal. Dini — katoliklar (98%). Pul birligi — Kabo-Verde esku-dosi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Orollar asosan vulqonlardan hosil bo'lgan. Qirg'oqlari tik va qoyali, qulay tabiiy gavanlari kam. Relyefi asosan tog'li. Eng baland cho'qqisi — 2829 m.

Iqlimi — tropik, passat. Daryolari kam, bot-bot qurg'oqchilik bo'lib turadi. O'simliklar cho'l va chala-cho'lga xos. Hayvonot turlari oz. Dengiz qushlari ko'p.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Kabo-Verdening amaldagi konstitutsiyasi 1992-yilda qabul qilingan. Davlat boshlig'i — prezident. Ijroiya hokimiyatni prezident va Bosh vazir boshchiligidagi hukumat boshqaradi. Siyosiy partiyalari: Demokratiya uchun harakat, Kabo-Verde mustaqilligi Afrika partiyasi, Sotsial-demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodning rivojlanmaganligi mamlakatda tabiiy resurslarning kamligi bilan bog'liq. Savdo dengiz va havo

transporti xizmat ko'rsatish YMMning 67% ini tashkil etadi. Iqtisodning asosiy tarmog'i baliqchilik. 2004-yil YIM miqdori 585480 mln dollarni (aholi jon boshiba — 1400 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Portugaliya, Ispaniya, AQSH, Fransiya.

Temiryo'llari yo'q, avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 2250 km. Asosiy porti — Mindelu.

**Tarixi.** 1456-yilda portugallar tomonidan kashf etilgan Yashil burun orollari 1494-yili Portugaliya mustamlakasiga aylangan. 1585-yilda uni Ispaniya egal-lab oldi, 1640-yilda esa yana Portugaliya qo'l ostiga o'tdi. 1951-yilda Portugaliyaning dengiz ortidagi viloyati maqomini olgan. Kabo-Verde 1975-yili mustaqillikka erishgan. Milliy bayrami — 5-iyul — Mustaqillik kuni.

## KAYMAN OROLLARI

*Rasmiy nomi — Kayman Orollari. Poytaxti — Jorjtaun. Hududi — 262 km<sup>2</sup>. Aholisi — 44200 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — protestantlik. Pul birligi — Kayman orollari dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Katta Kayman, Kichik Kayman, Kayman-Brok orollari Yamayka orolining shimoli g'arbida Karib dengizida, Markaziy va Janubiy Amerika o'rtasida joylashgan.

Iqlimi — tropik passatl. Qimmatbaho daraxtlardan iborat o'rmonzorlar mavjud. Faunasi asosan dengiz hayvonlaridan iborat (akula, toshbaqa, omar va h k).

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Kayman orollari Buyuk Britaniya mulkidir. Mamlakat boshqaruvini qirolicha nomidan gubernator amalga oshiradi. Hudud 8 ta tumanga bo'linadi. Saylovlar davomida 2 norasmiy tashkilot — «G'urur» va «Birlik» harakat qiladi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyot asosini turizm tashkil etadi. Moliya va bank sektorlaridan orollar ma'muriyati 40% daromad oladi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash kabi korxonalar ham

mavjud. Baliqchilik rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 1778 mln dollarni (aholi jon boshiga — 32300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Kosta-Rika. Yirik porti — Jorjtaun. Ikkita xalqaro aeroport — Ouen-Roberte va Jerard-Smit mavjud.

**Tarixi.** 1503-yili X. Kolumb tomonidan kashf qilingan. 1670-yilda Ispaniya orollarni Angliyaga topshirdi. Kayman orollariga Yamaykadan aholi ko‘chib kela boshlagan. 1863—1962-yillarda orollar rasman Yamayka tarkibida bo‘lgan. Amaldagi konstitutsiya 1972-yilda qabul qilingan.

## KAMBODJA

*Rasmiy nomi — Kambodja Qirolligi. Poytaxti — Pnompen. Hududi — 181035 km<sup>2</sup>. Aholisi — 13124800 kishi (2003). Davlat tili — kxmer. Dini — txerevada (buddaviylik). Pul birligi — riyel.*

**Geografik joylashkuvi va tabiatи.** Janubiy-Sharqiy Osiyodagi davlat. Sharqda va janubi sharqda Vyetnam (chegara uzunligi — 1228 km), g‘arbda va shimoli g‘arbda Tailand (803 km), shimoli sharqda Laos (541 km) bilan chegaradosh. Janubi g‘arbda Tailand (Siam) qo‘ltig‘iga tutash. Chegarasining umumiy uzunligi — 2572 km. Mamlakat hududining katta qismi tekislikdan iborat. Mekong daryosining quyi qismida pasttekisliklar bor. Janubi g‘arbda Kravan (eng yuqori nuqtasi — 1813 m) tog‘lari joylashgan. Asosiy daryosi — Mekong. Eng katta ko‘li — Tonlesap. Foydali qazilmalari: qimmatbaho toshlar, marganets, fosforit, temir rudasi (kam miqdorda). Ekin ekiladigan yerlar mamlakat hududining 16% i, o‘rmon va butazorlar 76% ini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat ma’muriy jihatdan 19 ta provinsiya (viloyat) va 2 ta avtonom shaharga bo‘lingan. 1949-yil 9-noyabrda mustaqillikka

erishgan. Milliy bayram — Mustaqillik kuni, yana bir milliy bayram — 7-yanvar Ozodlik kuni (1979-yil). Davlat boshlig'i — qirol, ijroiya hokimiyatni premyer-ministr amalga oshiradi. Qonun chiqaruvchi oliv organ — bir parlatali parlament — Milliy Kengash. Asosiy siyosiy partiyalari: Kambodja suvereniteti, mustaqilligi, betarafligi, tinchligi va hamkorligi uchun yagona milliy front (KSMBTHUYMF), Kambodja xalq partiyasi (KXP), Buddistlar liberal-demokratik partiyasi (BLDP).

***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*** Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar, harbiy va siyosiy to'ntarishlar natijasida deyarli izdan chiqqan iqtisodiyot sekin-asta tiklanib bormoqda. 2004-yil YIM miqdori 26990 mln dollarni (aholi jon boshiba — 2000 dol.) tashkil etgan. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog'i — qishloq xo'jaligi. Ishlab chiqarish qishloq xo'jalik mahsulotlarini hamda baliq va yog'ochni qayta ishlash bilan cheklangan. Asosan kauchuk, guruch, yog'och eksport qilinadi. Asosiy savdo hamkorlari: Vyetnam, MDH mamlakatlari, Sharqiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Hindiston.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 655 km, avtomobil yo'llari — 34100 km. Dengiz portlari: Kampot, Pnompen.

***Tarixi.*** Hozirgi Kambodja hududida ilk davlatlar milodning I asrida paydo bo'lган. Ulardan eng kattasi Funan qirolligi bo'lib, u VI asrda Tonlesap qirolligiga qaram bo'lib qoldi. 802-yil Tonlesapning shimalida butun mamlakat va qo'shni mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirgan Kobbujadesh qirolligi tashkil topdi. XV asr boshlarida mamlakat Siam va Vyetnam qo'shinlarining bosqiniga duchor bo'ldi. Fransiya kambodjaliklarning Siam va Vyetnamga qarshi kurashida yordam berdi va 1863-yil Kambodjani o'z protektorati deb e'lon qildi. 1940—1945-yillarda yaponlar bosqini ostida bo'lган Kamboja 1949-yilda o'z-o'zini boshqarish huquqiga, 1953-yilda esa to'liq mustaqil davlatga aylandi.

## KAMERUN

*Rasmiy nomi — Kamerun Respublikasi. Poytaxti — Yaunde. Hududi — 475440 km<sup>2</sup>. Aholisi — 15746200 kishi (2003). Tili — ingliz va fransuz. Dini — xristianlik (53%), majusiylik (25%), islom (22%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** G'arbiy Afrikaning janubida joylashgan davlat. G'arbda Nigeriya (chegara uzunligi — 1690 km), sharqda Markaziy Afrika Respublikasi (797 km) va Chad (1094 km), janubda Kongo (523 km), Ekvatorial Gvineya (189 km), Gabon (298 km) bilan chegaradosh. G'arbida Biafra ko'rfazi joylashgan, shimolda Chad ko'liga tor chiqish yo'liga ega. Qirg'oq bo'ylab Kamerun vulqoni qad ko'targan tekislik joylashgan. Mamlakat markazida shimolga qarab pasayib borgan Adamova tog'ligi joylashgan. Kamerunning asosiy daryolari — Sanaga, Benue. Asosiy tabiiy resurslari: neft, temir rudasi, boksit, yog'och, gidroresurslar.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Ma'muriy jihatdan 10 ta provinsiyaga bo'linadi. 1960-yil 1-yanvarda mustaqillikka erishgan. Qonunchilik fransuz umumiy fuqarolik huquqiga asoslangan. Milliy bayrami — 20-may Mustaqillik bayrami (1972-yil 20-mayda Kamerun Respublikasi va Sharqi Kamerun bir davlatga birlashdi). Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliv organ — bir palatali parlament — Milliy Majlis. 70 dan ortiq siyosiy partiyalaridan asosiyllari — Kamerun xalqi demokratik birligi (KXDB), Demokratiya va rivojlanish uchun milliy ittifoq (DRUMI), Kamerun xalqlari ittifoqi (KXI), Sotsial demokratik front (SDF), Kamerun demokratik ittifoqi (KDI).

**Iqtisodi va transport kommunikatsiyalari.** Kamerun neft zaxiralariga boyligi sababli ekvatorial Afrikada aholi jon boshiga tushadigan daromadning yuqoriligi bilan ajralib turadi. 2004-yil YIM miqdori 30170 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1900 dol.)

tashkil etgan. Neftni qayta ishlash sanoatidan tashqari yog‘ochga ishlov berish, oziq-ovqat, yengil va to‘qi-machilik sanoatlari ham rivojlangan. Qishloq xo‘jaligida mehnatga yaroqli aholining ko‘p qismi band bo‘lib, mamlakatning qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini deyarli to‘liq ta’minlaydi. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya va AQSH.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 1003 km, avtomobil yo‘llari — 65000 km. Asosiy porti — Duala.

**Tarixi.** Kamerun portugallar tomonidan XV asr oxirlarida ochilgan. XIX asr oxirlarida Germaniya Kamerunni o‘zining protektorati deb e’lon qildi. 1916-yilda mamlakat ittifoqchilar tomonidan egallab olingandan keyin mamlakat hududi Fransiya va Buyuk Britaniya tomonidan bo‘lib olindi, 1945-yildan boshlab BMT vasiyligida Fransiya va Buyuk Britaniya tomonidan boshqarila boshlandi. Fransiya Kameruni 1958-yil o‘z-o‘zini boshqarish huquqini, 1960-yilda Sharqiy Kamerun Fransiyadan mustaqillikni qo‘lga kiritdi. Britaniya Kameruni 1961-yilda referendum natijalariga ko‘ra ikki qismga: shimoliy qismi Nigeriyaga, janubiy qismi Sharqiy Kamerunga qo‘sildi, natijada Kamerun Federativ Respublikasi tashkil topdi. 1972-yildan boshlab — Birlashgan Kamerun Respublikasi, 1984-yildan boshlab — Kamerun Respublikasi deb yuritila boshlandi.

## KANADA

*Rasmiy nomi — Kanada. Poytaxti — Ottawa. Hududi — 9970610 km<sup>2</sup>. Tili — ingliz va fransuz. Aholisi — 32207100 kishi (2003). Dini — kataliklar (46%), protestantlar (25%), shuningdek, provoslavlар, musulmonlar, induistlar, buddistlar. Pul birligi — Kanada dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Shimoliy Amerikadagi davlat. Janubda va shimoli-g‘arbda AQSH bilan chegaradosh. Sharqda Atlantika okeani, g‘arbda Tinch okean, shimalda va sharqi shimalda Shimoliy

Muz okeani bilan tutash. Chegarasining umumiy uzunligi — 8893 km. Hududning kattaligi bo'yicha dunyoda ikkinchi (Rossiyadan keyingi) o'rinda turadi. Mamlakat hududini shartli ravishda to'rt qismga ajratish mumkin: mamlakat hududining deyarli yarmini egallagan, mamlakatning sharqiy qismida joylashgan, yassitog'liklar va tekisliklardan iborat Kanada qalqoni; g'arbda joylashgan Kanada Kordilyerlari; mamlakatni janubi bo'ylab Muqaddas Lavrentiya daryosigacha cho'zilgan tekisliklar; shu daryo vodiysi ortida va mamlakatning sharqida qad ko'targan Appalachi tog' tizmasi. Kanada — ko'llar o'lkasi. Ulardan eng kattalari: Yuqori — dunyodagi eng katta suvi chuchuk ko'l, Katta Ayiq ko'li — dunyoda eng katta 10 ta ko'lning biri, Katta Asir (Bolshoye Nevolniche) ko'li, Vinnipeg, Guron, Eri, Ontario. Asosiy daryolari: Muqaddas Lavrentiy, Saskachevan, Yukon, Freyzer. Mamlakat yerosti boyliklari quyidagi foydali qazilmalar: nikel, qalay, mis, oltin, kumush, qo'rg'oshin, molibden, ko'mir, neft va tabiiy gazga boy. Haydalagidan yerlar mamlakat hududining 5% i, o'rmon va butazorlar 35% ni tashkil etadi, shimolda doimiy muzliklar katta qismni egallagan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — parlamentar federatsiya, uning tarkibiga 10 ta provinsiya (Alberta, Britan Kolumbiyasi, Kvebek, Manitoba, Yangi Shotlandiya, Nyu-Bransuik, Nyufundlend, Ontario, Saskachevan, Yukon) va 2 ta hudud (Shimoli-G'arbiy hududlar, Labrador) kiradi. 1867-yil 10-iyulda mustaqillikni qo'lga kiritgan (Buyuk Britaniyadan). 1982-yilgacha Buyuk Britaniya konstitutsiyasi amalda bo'lgan. Hozirgi kunda parlamenti asosiy qonunga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Qonunchilik umumiy ingliz huquqiga asoslangan. Kvebek provinsiyasida qonunchilik fransuz qonunchiligidagi asoslangan. Milliy bayram 1-iyul — Kanada kuni. Ijro etuvchi hokimiyat premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat 2 palatali parlament — Senat va Jamoa palatasidan iborat. Asosiy siyosiy partiyalari: Taraqqiyparvar konser-

vativ partiya (TKP), Liberal partiya (LP), Yangi demokratik partiya (YDP).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Kanadaning iqtisodi yuqori rivojlangan. Tabiiy va ishchi resurslariga boy, zamonaviy ishlab chiqarish sanoatiga egaligi jihatdan dunyoda birinchi o'nikda turadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: neft, gaz, selluloza-qog'oz, yog'ochni qayta ishlash, rangli metallurgiya, avtomobilsozlik. Kanada g'alla yetishtirish va eksport qilish bo'yicha yetakchi o'rinda. Baliq va baliq mahsulotlari eksport qilish uning tashqi savdosida muhim o'rin tutadi. 2004-yil YIM miqdori 1023000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 31500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 97389 km, avtomobil yo'llari — 884272 km, ichki suv yo'llari — 3000 km. Asosiy portlari: Galifaks, Kvebek, Sent-Djons, Vankuver dengizi portlari, Tander-Bey va Toronto — ko'l portlari.

**Tarixi.** Kanada qirg'oqlariga yevropaliklardan birinchilardan bo'lib IX—X asrlarda vikinglar borgan. Lekin Kanadaning ochilishi venetsiyalik dengizchi Jovanni Kabotta nomi bilan bog'liq. Kabotto ingлиз xizmatida bo'lib, 1497-yilda Nyufaundlend oroliga kelib tushadi. Lekin yangi yerlarni faol o'zlashtirishni fransuzlar boshlab beradi. Jak Karte 1534—1536-yillarda Muqaddas Lavrentiya daryosi vodiyini tadqiq etadi. 1608-yildan esa Kanadani mustamlakaga aylantirish boshlanadi, bu hudud o'sha paytda yangi Fransiya deb atalgan. 1663-yilda mahalliy hindu qabilalari bilan yaxshi munosabatda idora qilish maqsadida yangi mustamlakada qirollik boshqaruvi o'rnatildi. XVII asr oxirlarida Buyuk Britaniya Kanada hududlari uchun raqobatlasha boshladи. Bu raqobat XVIII asrning ikkinchi yarmida avj oldi va Fransuz armiyasi mag'lubiyatga uchrab, Yangi Fransiya hududlarida Angliya huquqini tan oldi. 1867-yilda Kanada Britaniya dominioniga aylandi. 1931-yildan Kanada Britaniya Hamdo'stligi tarkibidagi to'liq mustaqil davlatga aylandi.

## K E N I Y A

*Rasmiy nomi — Keniya Respublikasi. Poytaxti — Nayrobi. Tili — ingliz va suaxili. Aholisi — 31639100 kishi (2003). Hududi — 582600 km<sup>2</sup>. Dini — aholisinig deyarli yarmi mahalliy majusiylik, xristian (35%), musulmonlar, hinduizm. Pul birligi — Keniya funti.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Keniya Afrika qit'asining sharqiy qismidagi davlat. G'arbda Uganda (chegara uzunligi — 933 km), shimolda Efiopiya (830 km) va Sudan (232 km), sharqda Somali (682 km), janubda Tanzaniya (769 km) bilan chegaradosh. Sharqda Hind okeani bilan tutash. Chegarasining umumiyligi uzunligi — 3446 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 536 km. Keniya Sharqiy Afrika yassi-tog'linining shimoli sharqiy qismini egallaydi. Markazda eng baland nuqtasi 5199 m bo'lgan Keniya tog'i va tog'tizmalari joylashgan. Asosiy daryolari: Gana (Ozi) va Galana. Mamlakat hududida Rudolf ko'li va qisman Viktoriya ko'li joylashgan. Asosiy foydali qazilmalari: oltin, baritlar, yoqut, ohaktosh.

Iqlimi — ekvatorning yuqori qismida issiq va quruq; janubiy qismi uch iqlimli zonaga bo'linadi. Sohil bo'ylarida sernam iqlim, tog'li yerlarda mo'tadil iqlim, Viktoriya ko'li havzasida esa issiq, sernam iqlim. Keniyada akatsiya, sutlama, boshoqli o'simliklar o'sadi. Tropik o'rmonli hududlarda rausoniya, dripetis, kap kashtani, qora archa o'sadi. Kenyaning milliy parklari da antilopalar, ohular, zebralalar podasi saqlangan, shuningdek, fillar, jirafalar, sherlar, qoplonlar, qo'toslar, karkidonlar ham bor. Qushlarning turi ko'p: tuyaqushlar, kotib qush, tuvaloqlar, marabular, kalxatlar, qizil g'ozlar va h.k.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Ma'muriy jihatdan 7 ta provinsiya va poytaxt okrugiga bo'linadi. Keniya mustaqillikni 1963-yil 12-dekabrda qo'lga kirtgan (12-dekabr — Milliy bayram — Mustaqillik kuni).

Ijro etuvchi hokimiyat prezident — davlat va hukumat boshlig'i qo'lida. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — bir palatali parlament — Milliy Assambleya. Asosiy siyosiy partiyalari: Keniya Milliy Afrika Ittifoqi (KMAI), Demokratiyani tiklash uchun forum (DTUF), Demokratik partiya (DP).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Ke niya iqtisodi barqaror rivojlanib borayotgan kam sonli Afrika davlatlaridan biridir. YMM 1994-yil 33,1 mlrd dol. (aholi jon boshiga — 1170 dol.) tashkil etdi. Iqtisodining yetakchi tarmog'i qishloq xo'jaligi. Asosiy mahsulotlari: qahva, choy, sholi, g'alla, paxta, shakar-qamish. 2004-yil YIM miqdori 34680 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — YH, Afrika davlatlari, AQSH.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 2650 km, avtomobil yo'llari — 64590 km. Asosiy portlari — Mombasa, Lamu.

**Tarixi.** Keniya hududlarini VIII asrda arablar o'z mustamlakalariga aylantirdilar. XI—XV asrlarda bu yerda shahar davlatlari tashkil topdi. XV asr oxirlaridan hozirgi Keniya hududi arablar va portugallar o'rtasidagi kurash maydoniga aylandi. XVII asr boshlarida Keniya hududlaridagi barcha shahar davatlarni o'ziga bo'y sun dirgan Ummon sultanati 1894-yilda Britaniya protektoratiga aylandi. Mamlakat hududi 1920-yilda Keniya nomi bilan Britaniya mustamlakasi bo'lib qoldi. 1952-yilda mahalliy qabilalarning qo'zg'olonlari avj olishi oqibatida inglizlar 1961-yilda Kenyaning o'z-o'zini idora qilish huquqini tan olishga majbur bo'ldilar. 1963-yildan boshlab Keniya Britaniya Hamdo'stligi tarkibida gi mustaqil davlat hisoblanadi.

## K I P R

*Rasmiy nomi — Kipr Respublikasi. Poytaxti — Nikosiya. Hududi — 9251 km<sup>2</sup>. Aholisi — 771700 kishi (2003). Davlat tili — grek va turk tillari. Dini — pravoslavlar (78%), musulmonlar (18%). Pul birligi — Kipr funti va turk lirasи.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Kipr — O'rta Yer dengizining sharqiy qismidagi Kipr orolida joylashgan davlat. Sohil bo'y lab chegara uzunligi — 648 km. 1974-yil Turkiya okkupatsiyasi natijasida orolning shimoliy qismi 2 qismga: greklar zonasiga turklar zonasiga bo'lindi, shuningdek, 2 ta harbiy baza joylashgan Buyuk Britaniyaga tegishli katta bo'lmagan zona ham bor. Orol bo'y lab sharqdan g'arbga tomon ikkita tog' tizmasi cho'zilgan. Ular orasida tepaliklar bilan qoplangan tekislik yotadi. Mamlakatning eng baland tog'i — Olimp (1952 m). Asosiy tabiiy resurslari mis, xrom, tuz, gips, marmar, asbest, yog'och, oxra. Hududining 40% i haydaladigan yerlar, 18% o'rmonlar va butazorlar, 10% i o'tloq va maysazorlardan iborat.

Iqlimi — subtropik. O'rmonlarning vahshiylarcha yo'qotilishi natijasida, o'rmonlar faqatgina Troodos tog'laridagina qolgan. Bu yerda kiparis, alepp qarag'ayi, eman, kedr, kashtan, doimiy yashil buta, makves o'sadi. Orol faunasining boy emasligi o'rmonli massivlarning kamligi bilan bog'liq. Hamma yerda tulki va quyonlarni uchratish mumkin. Kaltakesak va ilonlar, qushlardan moyqurt, to'rg'ay, qaldirg'ochlar ko'p. Kipr suv bilan o'ralgani tufayli baliqqa boy.

**Davlat tuzilish va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishiga ko'ra — prezidentlik respublikasi. Kiprlik turklar tomonidan e'lon qilingan Shimoliy Turk Respublikasi jahon hamjamiyati tomonidan tan olinmagan. Ma'muriy-hududiy jihatdan 6 ta shaharga bo'linadi. Limasol, Larnaka, Pafos greklar qismida, Kireniya, Morfu, Famogusta turklar qismida. Kipr 1960-yil 16-avgustda mustaqil respublikaga aylangan. Greklar qismida 1-oktabr — Mustaqillik kuni. Kiprning turklar qismida Milliy bayram — 15-noabr. Prezident — davlat va hukumat boshlig'i. Kiprning turklar qismida o'z prezidenti, premyer-ministri va Vazirlar Kengashi bor. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — bir palatali parlament — Vakillar palatasi. Kiprning turklar qismida o'z parlamenti — Respublika Majlisi faoliyat ko'rsatadi. Asosiy siyosiy partiyalari: Demokratik yig'ilish, Liberallar partiyasi, Kipr mehnatkash xalqining progres-

siv partiyasi, Demokratik partiya, Markazning yagona demokratik ittifoqi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sanoatning birmuncha rivojlangan tarmoqlari: (YMMning 14% i) tog'-konchilik, yengil mashinasozlik, oziq-ovqat, neftni qayta ishlash sanoati, kimyoiy o'g'itlar, qurilish materiallari ishlab chiqarish. Kiprda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlangan (YMMning 53% i), turizm jadal suratda rivojlanmoqda.

Qishloq xo'jaligidagi asosiy tarmoqlar: uzum va sitrus mevalarga ishlov berish. 2004-yil YIM miqdori 15710 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7135 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, Gretsiya, Germaniya.

Avtomobil yo'llarining umumiyligi — 10780 km. Portlari: Kireniya, Larnoka, Limasol, Pafos, Famagusta.

**Tarixi.** Kipr m. a. III ming yillik boshlaridayoq suriyaliklar va anatoliyaliklarga ma'lum edi. M. a. XVI asrda orol misrliklar tomonidan bosib olinganidan keyin m. a. 1450-yildan mamlakat tarixida ellinlar davri boshlandi. M. a. IX—VIII asrlarda Kipr mustaqil davlatga aylangan. Lekin m. a. 707-yildan boshlab ossuriyaliklar, misrliklar va forslar tomonidan navbatma-navbat zabit etilgan. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi inqirozga uchragandan keyin Kiprda Ptolemylar hukmronlik qildi. 58-yildan Kipr Rim provinsiyasiga, 395-yilda Vizantiya imperiyasi qismiga aylandi. Orol arablar tomonidan okkupatsiya qilingandan keyin 632—864-yillar davomida ular hukmronligi ostida bo'ldi. Song 1191-yilgacha yana Vizantiya imperiyasi hukmronligiga o'tdi. 1192—1489-yillarda Kipr va Quddus qirolligi, bundan keyin 1571-yilgacha Venetsiya mustamlakasi, 1898-yildan — Britaniya mustamlakasi. 1960-yili Kipr mustaqillikka erishdi, lekin hududiy yaxlitligini saqlab qola olmadi. 1974-yilda turk qo'shinlarining okkupatsiyasi natijasida ikkiga bo'linib ketdi.

## KIRIBATI

Rasmiy nomi — Kiribati Respublikasi. Poytaxti — Bayriki. Hududi — 811 km<sup>2</sup>. Aholisi — 103000 kishi (2005). Tili — ingliz. Dini — kataliklar (50%), protestantlar (46%). Pul birligi — Avstraliya dollari.

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Tinch okeanning g'arbiy qismidagi Gilbert, Feniks Layn va Oshen orollarida joylashgan. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 11,43 km. Orol asosan qoyalar bilan o'ralgan, halqa shakldagi marjonlar oroli ko'rinishiga ega. Asosiy tabiiy boyliklari: fosforitlar, kopra.

Iqlimi — ekvatorial. Janubiy orollarida asosan past bo'yli butazorlar, shimolda baland bo'limgan daraxtlar o'sadi. Hayvonot dunyosi kambag'al. Kaltakesak ko'proq uchraydi, asosan dengiz qushlari, fregatlar, baklan (qora buzov)lar va boshqalar bor.

**Davlat tuzilish va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishiga ko'ra — respublika o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Britaniya Hamdo'stligi a'zosi. Mamlakat 6 ta okrugga bo'linadi. Mustaqillikka 1979-yil 12-iyulda (Buyuk Britaniyadan) erishgan. 12-iyul — Milliy bayram — Mustaqillik kuni. Rasmiy jihatdan davlat boshlig'i — Buyuk Britaniya qirolichasi. Lekin ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat va hukumat boshlig'i)ga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — bir palatali parlament — Assambleya palatasi. Asosiy siyosiy partiyalari: Milliy-progressiv partiya, Xristian-demokratik partiyasi, Liberal partiya, Yangi harakat partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Ishlab chiqarish va eksportdagi asosiy mahsulotlar: kopra va baliq mahsulotlari. Asosiy savdo hamkorlari: Avstraliya, Yaponiya, Yangi Zelandiya.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 640 km, portlari Banaba, Tarava.

**Tarixi.** Nukunau oroli 1765-yili ingliz dengizchisi J. Bayron, Gilbert va Ellis orollari — Gilbert va Marshallar tomonidan 1988-yilda kashf etilgan. 1892-

yilda orollar Britaniya protektoratiga, 1915-yilda Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanadi. Ellis orollari 1975-yilda ajralib chiqib, 1978-yilda mustaqil Tuvalu davlati deb e'lon qilinadi. Gilbert orollari Britaniya Hamdo'stligi tarkibida 1979-yilda mustaqillikni qo'lga kirtadi.

## KOLUMBIYA

*Rasmiy nomi — Kolumbiya Respublika. Poytaxti — Bogota. Hududi — 1141748 km<sup>2</sup>. Tili — ispan. Aholisi — 41662100 kishi (2003). Dini — katolik (95%). Pul birligi — Kolumbiya pyesosi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Janubiy Amerikaning shimoli g'arbiy qismida joylashgan. Janubda Peru (chegara uzunligi — 2900 km) va Ekvador (590 km), sharqda Venesuela (250 km) va Braziliya (1643 km), shimolda Panama (225 km) bilan chegaradosh. Kolumbiya g'arbda Tinch okean (sohil chizig'i uzunligi — 1448 km), shimolda Karib dengizi (1960 km) bilan tutash. Chegarasining umumiy uzunligi — 7418 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 3208 km. Mamlakat hududini ikki qismga: g'arbiy qism — tog'li va sharqiy qism — tekisliklarga bo'lish mumkin. G'arbiy qismda uchta tog' tizmasi: G'arbiy Kordilyera, Markaziy Kordilyera va Sharqiy Kordilyera joylashgan. Shimolda Serra-Nevada-de-Santa Marta (eng baland nuqtasi — 5800 m) joylashgan. Asosiy daryolari — Magdana, Kauga, Meta, Guavyare. Kolumbiya foydali qazilma zaxiralariga boy: neft, tabiiy gaz, temir rudasi, ko'mir, nikel, mis, oltin, zumrad.

Iqlimi — sohil bo'ylarida va sohilga yaqin hududlarda yillik o'rtacha harorat 24—27°C. Birmuncha baland rayonlarda iqlim sovuqroq. Yil davomida ikkita yomg'irli mavsum almashinadi. Sohil bo'ylarida asosiy o'simlik mongola. Kolumbiyaning hayvonot dunyosi boy. Bu yerda maymun, otselot, jayron, chumolixo'r, sudralib yuruvchilar, baliqlar, qushlar va hasharotlarning ko'plab turlari uchraydi.

**Davlat tuzilish va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat 32 depar-tamentga bo‘lingan. Kolumbiya 1910-yil 20-iyulda (Milliy bayram — Mustaqillik kuni) Ispaniyadan musta-qillikni qo‘lga kiritgan. Davlat va hukumat boshlig‘i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament — Senat va Vakillar palatasidan iborat Kongress. Asosiy siyosiy partiyalar — Liberal partiya (LP), Konservativ partiya (KP), Yangi demokratik kuch (YDK).

**Iqtisodi va transport kommunikatsiyalari.** Keyingi o‘n yilliklarda iqtisodning rivoji oqsagan, lekin o‘sish sur’ati boshqa Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan yuqori. Kolumbiyaning asosiy eksport mahsuloti — qahva. Birmuncha rivojlangan sanoat tarmoqlari: to‘qimachilik, oziq-ovqat, metallurgiya, kimyo sanoati. 2004-yil YIM miqdori 281100 mln dollarni (aholi jon boshiga — 6600 dol.) tashkil etgan. Qishloq xo‘jaligida (YMMning 15% i) g‘alla mahsulotlari yetishtirish va chorvachilik rivojlangan.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 33,86 km. Avtomobil yo‘llari — 107300 km. Ichki suv yo‘llari — 14300 km. Asosiy portlari: Barankilya, Buenaventura, Kartaxena, San-Adres, Santa-Marta, Tumako.

Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, YH mamlakatlari, Yaponiya, Braziliya, Venesuela.

**Tarixi.** Hozirgi Kolumbiya hududlari 1502-yil Kolumb tomonidan ochilgan. 1510-yilga kelib ispanlar mamlakatni mustamlakaga aylantirdilar. Yangi Grenada deb atalgan Ispaniya mustamlakasi Venesuela va Ekvador hududlarini ham qo‘sib, 1717-yilda vitse-qirollikka aylantirildi. 1810-yildan mustaqillik uchun kurash boshlandi va 1819-yilda mustaqillikka erishdi. 1830-yilda Venesuela va Ekvador, 1903-Panama Buyuk Kolumbiyadan ajralib chiqdi. 1948-yilda konservatorlar va liberallar o‘rtasidagi turlicha siyosiy qarashlar ikki partiya tarafдорлари o‘rtasida qonli to‘qnashuvlarga olib keldi. 1953-yilda davlat to‘ntarishi natijasida mamlakatda harbiy diktatura o‘rnatildi. 1957-yilda hokimiyatni o‘z qo‘liga olgan fuqarolik hukumati bir qator ichki siyosiy va iqtisodiy muammolarga duch keldi.

## KOMOR OROLLARI

*Rasmiy nomi — Komor Orollari Federal Islom Respublikasi. Poytaxti — Moroni. Hududi — 2170 km<sup>2</sup>. Tili — arab va fransuz. Aholisi — 671200 kishi (2005). Dini — musulmonlar (86%), katoliklar (14%). Pul birligi — Komor franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Davlat Madagaskar orollari va Afrika qit'asi oralig'idagi orollar (uch asosiy — Grand-Komor, Anjuan, Moxsli va bir qator boshqa orollar)da joylashgan. Qirg'oq bo'y lab chegara uzunligi — 340 km. Mayott oroli Fransiyaga tegishli. Mamlakatning eng baland nuqtasi — Kartala faol vulqoni (1261 m). Haydaladigan yerlari hududining 35%, o'rmon va butazorlar 16%, o'tloq va maysazorlar 7% ni egallaydi.

Iqlimi — tropik.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Komor Orollari 1975-yil 6-iyulda Fransiyadan mustaqillikka erishgan (Milliy bayrami — Mustaqillik kuni). Ijro etuvchi hokimiyat davlat va hukumat boshlig'i — prezidentga tegishli. Asosiy siyosiy partiyalari: Progress uchun Komot ittifoqi, Yangilanish va demokratiya uchun harakat.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodi sust rivojlangan. Qishloq xo'jaligi iqtisodning yetakchi tarmog'i hisoblandi. 2004-yil YIM miqdori 469,7 mln dollarni (aholi jon boshiga — 700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Fransiya.

Temiryo'llari yo'q. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 750 km. Asosiy portlari: Dzaudzi, Moroni.

**Tarixi.** XI asrda arablar Komor orollarida o'z sultanatiga asos soldilar. XVI asrda orollarda yevropaliklardan birinchi bo'lib portugallar paydo bo'ldilar. 1841-yildan Mayotta oroli, 1886-yildan esa qolgan orollar Fransiya qo'l ostiga o'tdi. Komor orollari 1961-yilda o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'ldi va 1974-yilda mustaqillikni qo'lga kiritdi. 1978-yildan Komor Orollari Federal Islom Respublikasi.

## KONGO

*Rasmiy nomi – Kongo Respublikasi. Poytaxti – Brazzavil. Hududi – 342000 km<sup>2</sup>. Aholisi – 2954300 kishi (2003). Tili – fransuz. Dini – xristianlar (50%), ma’jusiyalar (48%), musulmonlar (2%). Pul birligi – Afrika franki.*

**Geografik joylashkuvi va tabiat.** Markaziy Afikaning g‘arbida joylashgan. Sharqda va janubda Kongo Demokratik Respublikasi (chegara uzunligi – 2410 km), janubi g‘arbida Angola (201 km), shimolda Kamerun (523 km) va Markaziy Afrika Respublikasi (467 km), g‘arbida Gabon (1903 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi – 5504 km, sohil bo‘ylab chegara uzunligi – 169 km. Asosiy daryosi – Kongo. Asosiy foydali qazilmalari: neft, tabiiy gaz, qo‘rg‘oshin, rux, uran, mis.

Iqlimi – issiq va sernam. Qizil daraxtning har xil turlari, palma, ayus, chitola va boshqalar o‘sadi. Fillar, begemotlar, gepardlar, ko‘p turdag'i maymunlar, o‘rmon qushlari yashaydi. Turli sudralib yuruvchilar, ilonlar ko‘p.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – respublika. Mamlakat tarkibida 9 ta provinsiya bor. Kongo 1960-yil 15-avgust (Milliy bayram – Mustaqillik kuni)da Fransiyadan mustaqillikni qo‘lga kiritgan. Qonunchilik fransuz fuqaro huquqiga asoslangan. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig‘i) va premyer-ministriga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni prezident va ikki palatali (Senat va Milliy Majlis) parlament amalga oshiradi. Siyosiy partiyalari: Sotsial demokratiya uchun Panafrika ittifoqi, Kongo mehnat partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Kongo asosan agrar davlatligicha qolmoqda. Sanoatda industrial sektor rivojlangan. Sanoatning rivojlanayotgan boshqa tarmoqlari: yog‘ochni qayta ishslash, palma yog‘i ishlab chiqarish. 2004-yil YIM miqdori 2450 mln dollarni (aholi jon boshiga – 800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Fransiya, Italiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 797 km; avtomobil yo'llari — 11960 km, ichki suv yo'llari — 1120 km. Asosiy portlari: Puent-Nuar (okean porti), Brazzavil (daryo porti).

**Tarixi.** XV—XVI asrlarda hozirgi Kongo hududlarida Teke, Laongo davlatlari bo'lgan. 1875-yilda fransuzlar mustamlakaga aylantira boshladи. 1891-yilda Fransuz Kongosi tashkil topdi. 1910-yilda Fransuz Ekvatorial Afrikasi tuzilgan vaqtда mustamlaka hududi ikkiga bo'lindi. Gabon (g'arbiy qism) va Kongo (sharqiy qism). Kongo 1960-yilda mustaqilikka erishdi. 1970-yildan Kongo Xalq Respublikasi, 1990-yilda yangi Konstitutsiya qabul qilindi va mamlakat Kongo Respublikasi deb nomlandi.

## KONGO DEMOKRATIK RESPUBLIKASI

*Rasmiy nomi — Kongo Demokratik Respublikasi. Poytaxti — Kinshasa. Hududi — 2345410 km<sup>2</sup>. Aholisi — 53600000 kishi (2001). Tili — fransuz. Dini — katoliklar (50%), protestantlar (20%), kibangistlar (12%), musulmonlar (10%). Pul birligi — zoir.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Kongo Markaziy Afrikadagi davlat. Janubda Zambiya (chegara uzunligi — 1930 km), janubi g'arbda Angola (2511 km), g'arbda Kongo (2410 km), sharqda Uganda (765 km), Burundi (233 km) va Ruanda (217 km), shimolda Markaziy Afrika Respublikasi (1577 km) va Sudan bilan chegaradosh. Mamlakat chegarasining umumiy uzunligi — 10271 km. Mamlakat hududining markaziy va g'arbiy qismlarini yassitog'liklar va tog' tizmalari bilan o'ralgan Kongo daryo vodiysi egallaydi. Kivu ko'lidan shimolda vulqonli tog'lar joylashgan. Janubi sharqda Katanga, janubi g'arbda Angola yassitog'liklari joylashgan. KDRda ko'llar ko'p: Tanganika, Kivu, Mobute-Sese-Seko, Mveru. Foydali qazilmalari: mis, boksit, temir rudasi, ko'mir, olmos, oltin, kumush, neft, rux, marganets, uran, qalay, kobalt, kadmiy.

## **Davlat tuzilishi va siyosiy patriyalari.**

Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Ma'muriy jihatdan 10 ta viloyatga bo'linadi. Mustaqillikka 1960-yil 30-iyunda erishgan. Davlat boshlig'i — prezident, qonun chiqaruvchi oliy organ — bir palatali parlament. Asosiy partiyalari: Inqilobiy xalq harakati (IXH), Federalistlar va respublikachilar ittifoqi (FRI), KDR Demokratik sotsial-xristian partiyasi (ZDSXP)

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Boy foydali qazilmalarga ega bo'lishiga qaramasdan KDR Afrikaning qoloq davlatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Qishloq xo'jaligi iqtisodning asosini tashkil etadi. Sanoatning ko'zga ko'ringan tarmoqlari tog'-konchilik, olmos qazib olish va uni qayta ishlash. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Belgiya, Fransiya, JAR.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 5138 km, avtomobil yo'llari — 146500 km, ichki suv yo'llari — 15000 km. Portlari: Boma, Banana, Matadi.

**Tarixi.** Hozirgi KDR hududi XV asr oxirlarida Bokongo qirolligi hukmronligi davrida yevropaliklardan birinchi bo'lib portugallar tomonidan ochilgan. Lekin 1875-yil Belgiya qiroli Leopold G. M. Stenli boshchiligidagi Kongo ekspeditsiyasini jo'natadi va 1882-yil Xalqaro Kongo assotsiatsiyasini tashkil etib, mamlakatni mustamlakaga aylantiradi. 1908-yil hozirgi KDR hududida Belgiya Kongosi nomi bilan Belgiya mustamlakasi tashkil etildi. 1960-yil Belgiya Kongosi mustaqil davlat deb e'lon qilinadi. 1965-yil hokimiyatni qo'lga kiritgan general Mobutu 1971-yil mamlakat nomini Zoir Respublikasi deb e'lon qiladi. 1997-yildan boshlab Kongo Demokratik Respublikasi nomini oldi.

## **KOSTA-RIKA**

**Rasmiy nomi — Kosta-Rika Respublikasi. Poytaxti — San-Xose. Hududi — 51100 km<sup>2</sup>. Aholisi — 3896100 kishi (2003). Tili — ispan. Dini — katolik (95%). Pul birligi — Kosta-Rika koloni.**

**Geografik joylashuvi va tabiat. Markaziy Amerikadagi davlat. Janubi sharqda Panama (chegara**

uzunligi — 330 km), shimolda Nikaragua (309 km) bilan chegaradosh. G'arbda va janubi g'arbda Tinch okean, sharqda Karib dengizi bilan tutash. Chegara-sining umumiy uzunligi — 639 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 1290 km. Hududining katta qismi tog'li. Shimoli g'arbdan janubi sharqqa tomon Kosta-Rikani uchta tog' tizmasi kesib o'tgan: Guanakaste, Markaziy va Galamanka. Eng baland tog'i — Chirippo (3820 m). Kosta-Rikada vulqonlar ko'p. Haydaladigan yerlari — 6%, o'rmon va changalzorlar — 34%, o'tloq va maysazorlar — 45% hududini egallaydi.

Iqlimi — Karib dengizi sohillarida issiq, yomg'irli havo.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat 7 ta provinsiyaga bo'lingan. Kosta-Rika 1821-yil 12-sentabrdan mustaqillikka (avval Ispaniya mustamlakasi bo'lган) erishgan. 15-sentabr — Milliy bayram — Mustaqillik kuni. Qonunchilik ispan fuqarolik huquqiga asoslangan. Prezident — davlat va hukumat boshlig'i. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — bir palatali parlament — Qonunchilik Assambleyasi. Birmuncha ko'zga ko'ringan siyosiy partiyasi Milliy Liberal partiya (MLP).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Qishloq xo'jaligi iqtisodining asosiy sektori hisoblanadi. Eksport qilinadigan mahsulotlarning 70% i qishloq xo'jaligi mahsulotlariga to'g'ri keladi. Eksporti qahva, shakarqamish, oziq-ovqat, to'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari bilan cheklangan. 2004-yil YIM miqdori 37970 mln dollarni (aholi jon boshiga — 9600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH Germaniya, Gvatemala, Yaponiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 950 km, avtomobil yo'llari — 15400 km, ichki suv yo'llari — 730 km. Portlari: Golfito, Koldero, Moin, Puerto-Limon, Puntarenas.

***Tarixi.*** 1502-yil Kolumb tomonidan ochilgan. Hozirgi Kosta-Rika 1520-yilda Gvatemala tarkibidagi ispan mustamlakasiga aylandi. Mustamlakachilardan ozod qilingan Kosta-Rika 1823-yilda Markaziy Amerika

qo'shma provinsiyalari tarkibiga kirdi. 1839-yilda mustaqillikni qo'lga kiritdi.

## KOT-d' IVUAR

*Rasmiy nomi — Kot-d'Ivuar Respublikasi. Poytaxti — Yamusukro — rasmiy, amalda — Abidjan. Hududi — 322 463 km<sup>2</sup>. Aholisi — 16962500 kishi (2003). Tili — fransuz. Dini — aholisining ko'pchiligi mahalliy majusiylar, musulmonlar (24%), xristianlar (12%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** G'arbiy Afrikadagi davlat. G'arbda Liberiya (chegara uzunligi — 716 km) va Gvineya (610 km), sharqda Gana (668 km), shimolda Burkina-Faso (584 km) va Mali (532 km) bilan chegaradosh. Janubda Gvineya qo'ltig'i bilan tutash. Chegarasining umumiy uzunligi — 3110 km, sohil chizig'i uzunligi — 515 km. Asosiy daryolari: Sosandra, Bandama, Komae. Yerosti boyliklari: olmos, temir rudasi, marganets, kobalt, mis, boksitlar.

Iqlimi — mamlakat janubida issiq va sernam, shimolda ko'proq quruq iqlim. O'simlik dunyosi — janubiy rayonlar tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Bu yerda daraxtlarning taxminan 600 turi mavjud. Hayvonot dunyosi boy: fil, begemot, o'rmon antilopalari, leopard, gepardlar yashaydi. Ilonlar, qushlar ko'p.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat 26 departamentga bo'lingan. 1960-yil 7-avgustda mustaqillikka erishgan (avval — fransuz mustamlakasi). Qonunchilik fransuz fuqarolik huquqiga asoslangan. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Milliy Majlis. Asosiy siyosiy partiyalari: Kot-d' Ivuar demokratik partiyasi (KIDP), Ivuar xalq fronti, Sotsial demokratlar ittifoqi.

**Iqtisodi, transport kommunatsiyalari.** Kot-d' Ivuar — agrar mamlakat. YMMning 35%, eksportning 70% dan ortiqrog'i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Kakao yetishtirish bo'yicha dunyoda biringchi o'rinda turadi. Palma yog'i, kauchuk eksporti bo'yicha Afrikada biringchi o'rinda turadi. Sanoatning birmuncha rivojlangan tarmoqlari: to'qimachilik, kimyo, qurilish sanoati. 2004-yil YIM miqdori — 24780 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Nigeriya, Yaponiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 660 km, avtomobil yo'llari — 46600 km, ichki suv yo'llari — 980 km, asosiy portlari — Abidjan, Gran-Basam.

**Tarixi.** XVI asrda Kot-d' Ivuar hududlari yevropa liklardan biringchi bo'lib portugallar tomonidan ochilgan. 1893-yilda fransuzlar Fil Suyagi Qirg'og'i (mamlakatnnig avvalgi nomi)ni o'zlarining mustam-lakasi deb e'lon qildi. 1899-yil Fransuz G'arbiy Afrikasi tarkibiga kirdi. Ufue-Buani rahbarligidagi xalq ozodlik harakati natijasida 1958-yilda Fransuz Hamdo'stligi tarkibidagi avtonomiyaga, 1960-yilda to'liq mustaqillikka erishdi. 1990-yil mamlakatdagi bir partiyalikdan ko'p partiyali tizimga o'tildi.

## KUBA

*Rasmiy nomi — Kuba Respublikasi. Poytaxti — Gavana. Hududi — 110860 km<sup>2</sup>. Aholisi — 11263400 kishi (2003). Tili — ispan. Dini — katolik. Pul birligi — Kuba pyesosi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Kuba Karib havzasi, Kuba oroli va unga yaqin orollarda joylashgan davlat. AQSH tomonidan ijaraga olingan Guantanamo harbiy bazasi (Kuba hududi hisoblanadi) bilan chegara uzunligi — 29,1 km. Kuba janubda Karib dengizi, shimolda Kubani Florida shtatidan (AQSH) ajratib turgan Florida qo'ltig'i, janubi g'arbda Yukatan qo'ltig'i, sharqda suv orqali Gaiti bilan tutash. Sohil

bo‘ylab chegara uzunligi — 3735 km<sup>2</sup>. Mamlakat hududi asosan tekisliklar va tepaliklardan iborat. Tog‘lar hududning to‘rtdan bir qismini egallaydi. Asosiy daryosi — Kauto. Asosiy tabiiy resurslari: nikel, kobalt, mis, marganets, xrom, yog‘och. Haydaladigan yerlari huding 23%, o‘tloq va maysazorlar 23% ini egallaydi.

Iqlimi — tropik. Palmaning har xil turlari, sitrus o‘simpliklari keng tarqalgan. Hayvonot dunyosi kambag‘al. Yirtqich hayvonlar va zaharli ilonlar yo‘q. Qushlar, mollyuskalar ko‘p.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi respublika, amalda mamlakatda kommunistik avtoritar rejim o‘rnatilgan. Mamlakat tarkibi 14 ta provinsiya va Xuventud munitsipiyasidan iborat. Kuba 1898-yili Ispaniyadan mustaqillikni qo‘lga kiritdi, lekin 1902-yil 20-maygacha AQSH boshqaruvida bo‘ldi. Milliy bayramlari: 26-iyul — Xalq qo‘zg‘oloni kuni (1953-yil) va 1-yanvar — Ozodlik kuni (1959-yil). Ijro etuvchi hokimiyat Davlat Kengashi raisi (davlat boshlig‘i) va Vazirlar Kengashi raisi (hukumat boshlig‘i)ga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — bir palatali parlament — Milliy Assambleya. Yagona siyosiy partiyasi: Kuba Kommunistik partiyasi.

**Iqtisodi va transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodi inqirozni boshdan kechirmoqda. Keyingi yillarda hukumat tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga, turizm va sanoat korxonalari uchun chet el investitsiyalarini jalb etishga faol harakat qilmoqda. 2004-yil YIM miqdori 33920 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: MDH mamlakatlari, Ispaniya, Xitoy, Argentina.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 12947 km, avtomobil yo‘llari — 26477 km, ichki suv yo‘llari — 240 km. Portlari — Gavana, Kartinas, Mansanilo, Mantansas, Santyago de-Kuba.

**Tarixi.** Kuba 1492-yil Kolumb tomonidan ochilgan. Ispan mustamlakachilari oroldagi mahalliy aholini deyarli yo‘qotib, Kubaga plantatsiyalarda ishlatish uchun Afrikadan qullarni olib keldilar. AQSH

tomonidan qo'llab-quvvatlangan mustaqillik uchun urush 1868-yilda boshlanib, muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. 1898-yil AQSH Ispaniyaga urush e'lon qilib, o'z qo'shinlarini Kubaga yubordi va Kuba 1902-yilda mustaqil Respublika deb e'lon qilindi. Kuba AQSHga iqtisodiy qaram bo'lgan holda, bir nechta diktatorlik rejimlarni boshidan o'tkazdi. 1959-yilda Fidel Castro boshchiligidagi kubaliklar Batista diktaturasini ag'darib tashlab, mamlakatni sotsialistik yo'lidan rivojlanuvchi davlat deb e'lon qildi.

## LAOS

*Rasmiy nomi — Laos Xalq Demokratik Respublikasi (LXDR). Poytaxti — Ventyan. Hududi — 236800 km<sup>2</sup>. Aholisi — 4837237 kishi (1995). Davlat tili — laos. Dini — buddizm. Pul birligi — kip.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Janubi sharqiy Osiyoda joylashgan. Janubda Kambodja (chegara uzunligi — 541 km), g'arbda Tailand (1754 km), sharqda va shimolda Vyetnam (2130 km), shimolda Xitoy (423 km), shimoli g'arbda Myanma (235 km) davlatlari bilan chegaradosh. Umumiy chegara uzunligi — 5083 km.

Hududining katta qismi tog'li; shimolida va sharqida Annamita va Chiongshon tog'lari, janubi va g'arbida Mekong daryosi vodiysi bilan pasttekisliklar joylashgan. Tabiiy foydali qazilma boyliklardan — mis, temir, qo'rg'oshin, qimmatbaho toshlar, oltin ko'proq uchraydi. Iqlimi — mussonli subekvatorial.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — respublika. Mamlakat 16 ta kxveng (provinsiya)dan tashkil topgan. Laos 1953-yil oktabrda mustaqillikka erishgan (ilgari Fransiya mustamlakasi bo'lgan). LXDR e'lon qilingan kun — 2-dekabr milliy bayram qilinadi. Ijroiya hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Yagona siyosiy partiyasi: Laos xalq inqilobiy partiyasi.

*Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.* Laos hukumati markazlashgan rejali iqtisodiyot davridan so'ng oxirgi yillarda xususiy sektorni rivojlantirish siyosatini rag'batlantirmoqda. Biroq Laos hali ham dunyoning qoloq davlatlaridan biri bo'lib qolmoqda. 2004-yil YIM miqdori 11280 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1900 dol.) tashkil etgan. Ishlab chiqarish asosan sanoatning yengil, oziq-ovqat, yog'ochni qayta ishslash sohalari bilan cheklangan. Qo'rg'oshin qazib olish yo'lga qo'yilmoqda. Agrar sohada (YMM 60%) mehnatga layoqatli aholining katta qismi band. Qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan asosiy ekin — sholi (egin maydonlarining 90% i), shuningdek, makkajo'xori, paxta, tamaki, qahva va soya yetishtiriladi.

Asosiy savdo hamkorlari: Tailand, Malayziya, Vyetnam, Yaponiya, Fransiya, AQSH.

Temiryo'llari mavjud emas, avtomobil yo'llarining umumiyligi 14130 km ni (60 km qattiq qoplamali), ichki suv yo'llari 4500 km ni tashkil etadi.

*Tarixi.* 1353-yili hozirgi Laos hududida Lansang qirolligiga asos solingan bo'lib, u XVI asrga kelib o'z hududini sezilarli darajada kengaytirgan edi. XVI asr oxirlariga kelib Birmaning vassaliga aylangan Lansang tez orada ikki qirollik — Ventnyan va Luangprabangga bo'linib ketdi. 1893-yili Fransiya Laosning ichki ishlariга aralashib, uni o'zining protektorati deb e'lon qildi. Laos yapon bosqinchilaridan ozod qilinganidan so'ng (1942—1945) mamlakatda fransuzlarga qarshi Lao Issor (Ozod Laos) harakati boshlanib ketdi. Bu qo'zg'olon 1946-yili mamlakatga jo'natilgan ekspeditsion korpus tomonidan bostirildi. 1949-yili o'z-o'zini boshqarish huquqini qo'lga kiritgan Laos 1955-yili mustaqil davlat bo'ldi. 1959-yildan boshlab mamlakatda turli siyosiy guruhlar o'rtasida jiddiy mojarolar boshlandi. Bu mojarolar 1973-yili Laosda monarxiyaning ag'darilishi va Laos Xalq Demokratik Respublikasining e'lon qilinishi bilan yakunlandi. 80-yillar oxiridan boshlab mamlakat iqtisodiyotini va siyosiy hayotini liberal-lashtirish boshlandi. 1991-yilda esa Laosning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi.

## LATVIYA

*Rasmiy nomi — Latviya Respublikasi. Poytaxti — Riga. Hududi — 63700 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2348800 kishi (2003). Davlat tili — latish. Dini — lyuteranlik, katolik, pravoslav. Pul birligi — lat.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Boltiq dengizi qirg‘og‘ida joylashgan. Janubda Litva (chegara uzunligi — 453 km) va Belarus (141 km), sharqda Rossiya (217 km), shimalda Estoniya (267 km) bilan chegaradosh. G‘arbiy chegaralari Baltika dengizi bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 1078 km. Hududining katta qismi pasttekisliklardan iborat. G‘arbida va sharqida tepaliklar mavjud. Asosiy daryosi — Daugava (G‘arbiy Dvina), ko‘p sonli ko‘llar mavjud. Tabiiy resurslardan kam miqdorda torf, ohak, yog‘och zaxiralari mavjud. Hududi 27% ekin ekiladigan maydonlardan, 39% o‘rmon va changalzorlardan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Mamlakat tarixiy 4 ta tumanga: Kurzele, Zemgale, Vidzeme va Lotgalega bo‘lingan. 1991-yil 21-avgustda mustaqillikka erishgan. Latviya respublikasi e’lon qilin-gan kun — 18-noyabr — Milliy bayram hisoblanadi. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig‘iga) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Seymga tegishli. Asosiy partiyalari: Latviya ittifoqi, «Latviya yo‘li», «Latviya mustaqilligi uchun harakat», Latviya fermerlari ittifoqi, Latviya xristian-demokratlar ittifoqi, Latviya xalq fronti, Latviya sotsial-demokratik ishchi partiyasi, Latviya mehnat demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Oxirgi yillarda Latviya rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariiga asta-sekin o‘tmoqda. Iqtisodiyotni shakllantirishdan tashqari, hukumat kam miqdordagi tabiiy resurslarni va ishchi kuchlarini maksimal darajada safarbar qilgan holda chet el kapitalini ko‘plab jalb qilish chora-tadbirlarini ko‘rmoqda. Sanoatning

mashinasozlik, kimyo, baliq mahsulotlari, yengil, farmatsevtika, qog'oz-sellyuloza ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi taraqqiy etgan. Qishloq xo'jaligi ham mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi (YMM — 21,5%). 2004-yil YIM miqdori 26530 mln dollarni (aholi jon boshiga — 11500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Rossiya, Germaniya, Shvetsiya, Belarus.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 2400 km, avtomobil yo'llarining uzunligi — 59500 km (33000 km — qattiq qoplamlari), ichki suv yo'llari — 300 km. Mamlakatning asosiy portlari: Riga, Liyepaya, Ventspils.

**Tarixi.** X asrda mev qabilalari (latishlarning ajdodlari) Kiyev Rusidan o'rnak olib pravoslav dinini qabul qilishdi, biroq XII asrdan boshlab katolik diniga o'tish boshlandi. Tevton ordeni 1242-yili Chud ko'lida mag'lubiyatga uchraganligiga qaramasdan, XIII asrning oxirlariga kelib hozirgi Latviya hududlarini egallashga muvaffaq bo'ldi. XIII asr o'rtalarida Latviyada protestantlik tarqaldi. Tevton ordeni tarqalganidan so'ng Livaniya hududi Polsha va Shvetsiya tomonidan bo'lib olindi. XVIII asrda Latviya Rossiya tomonidan anneksiya qilindi.

Birinchi jahon urushi davrida mamlakatning anchagina qismi Germaniya tomonidan okkupatsiya qilindi. 1917-yili Latviyada sovet hokimiyati e'lon qilindi, biroq Brest-Litovsk shartnomasiga ko'ra Sovet Rossiyasi Latviya hududlarini Germaniyaga berdi. 1918-yil 19-noyabrda Milliy Kengash Latviyani mustaqil Respublika deb e'lon qildi. 1934-yili Ulmanis tomonidan sodir etilgan davlat to'ntarishi natijasida mamlakatdagi parlament tartibi diktatura bilan almashtirildi. 1940-yilning avgustida Latviya Sovet Ittifoqi tomonidan, 1941-yilda esa Germaniya tomonidan okkupatsiya qilindi. 1944-yili mamlakat yana SSSR tarkibiga kirdi. 1991-yilning avgustida Latviya Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi.

## LESOTO

*Rasmiy nomi — Lesoto Qirolligi. Poytaxti — Maseru. Hududi — 30355 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2200000 kishi (2003). Davlat tili — ingliz va sesuto. Dini — xristianlik (katoliklar va protestantlar). Pul birligi — lotin.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Lesoto Afrika qit'asining janubida joylashgan bo'lib, har tomonidan Janubiy Afrika Respublikasining chegaralari bilan o'ralgan. Davlat chegarasining uzunligi 909 km. Mamlakat hududining katta qismi Basuto yassitogligining chegaralarida joylashgan. Ushbu hududlar sharq va janubdan Ajdar tog'lari bilan o'ralgan. Uning eng yuqori nuqtasi — Tabana Ntlenyan (3842 m).

Asosiy daryosi — To'qsariq. Lesoto hududida olmos, kvars, ko'mir, uran konlari mavjud. Ishlov beriladigan yerlar umumiy yerining 10% ini, o'tloq va yaylovlardan 66% ni egallaydi. Iqlimi — okean yaqin bo'lishiga qaramasdan kontinental.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. 1966-yil 4-oktabrda Lesoto qirolligi e'lon qilingan kun (oldin Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan) Milliy bayram hisoblanadi. Davlat boshlig'i — qiroq (qiroq Moshin II 1995-yil fevraldan buyon davlatni boshqarib kelmoqda). Ijroiya hokimiyati Harbiy Kengashga va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Harbiy Kengash va bir palatali parlament — Milliy Konstitutsion Assambleya tomonidan amalga oshiriladi. Asosiy partiyalari — Basuto milliy partiyasi, Birlashgan demokratik partiyasi, Basuto kongressi partiyasi, Marematlu ozodlik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga, yengil sanoatga va shartnoma asosida JARga borib shartnoma asosida ishlab kelayotgan ishchilardan olinadigan pul o'tkazmalaridan tushadigan mablag'larga asoslangan. Uncha katta bo'limgan fermer xo'jaliklari (qishloq

xo‘jaligi YMMning 20% ini tashkil etgan) makkajo‘xori, bug‘doy, arpa va sorgo yetishtiradi. Ishlab chiqarish asosan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishslash va olmos qazib olish bilan bog‘liq. Turizm rivojlanmoqda. 2004-yil YIM miqdori 5892 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: JAR, YH.

Temiryo‘llar (umumiyligi uzunligi 2,6 km) JARGA tegishli. Avtomobil yo‘llarining umumiyligi — 7215 km.

**Tarixi.** Hozirgi Lesoto hududiga kelib joylashgan qabilalar XIX asrning birinchi yarmida Moshin I hukmronligi ostiga birlashtirilgan. Baustolend (mamlakatning sobiq nomi) 1871-yili Keyptaun protektoratiga, 1884-yili esa Buyuk Britaniya protektoratiga aylandi. 1966-yili mamlakat mustaqillikka erishdi va Lesoto qirolli deb atala boshladi. 1970-yilgi davlat to‘ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga harbiylar kelishdi va ular davlatni 1993-yilga qadar idora qilishdi.

## LIBERIYA

*Rasmiy nomi — Liberiya Respublikasi. Poytaxti — Monroviya. Hududi — 111370 km<sup>2</sup>. Aholisi — 3317200 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — majusiylik (70%), islam (16%). Pul birligi — Liberiya dollarasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** G‘arbiy Afrikada joylashgan davlat. Sharqda Kot-d’ Ivuar bilan (chegara uzunligi — 716 km), shimolda Gvineya (chegara uzunligi — 563 km) va Serra-Leone (306 km) bilan chegaradosh. Mamlakatning janubi va g‘arbiy qismlari Atlantika okeani bilan tutashib ketgan. Chegaralarining umumiyligi 1585 km, sohil bo‘ylab chegara uzunligi esa 579 km. Mamlakat huddining katta qismini pasttekisliklar tashkil etadi. Shimolida mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Nimba tog‘i (1752 m) joylashgan Leono-Liber tepaliklari mavjud. Asosiy daryolari — Mono, Loffa, Sent-Pol,

Sent-Jon. Tabiiy boyliklardan — temir rudasi, olmos, oltin, yog'och ko'plab uchraydi. Mamlakat hududining 1/3 qismini daraxtlarning qimmatbaho turlari ko'p bo'lgan doimiy yashil tropik o'rmonlar tashkil qiladi.

Iqlimi — subekvatorial, issiq va nam.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibida 13 ta graflik bor. Liberiya o'z mustaqilligiga 1847-yil 26-iyulda erishgan (milliy bayrami — Mustaqillik kuni). Mamlakatda qonunchilikning ikkilik tizimi amal qiladi: Amerika umumiyluq huquqiga asoslangan va qabilalar qonunlariga asoslangan umum qabul qilingan huquqiy tizim. Butun ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyat rais boshchiliqidagi Davlat Kengashiga tegishli. Asosiy partiyalari — Liberiya milliy vatanparvarlar fronti, Liberiya demokratiya uchun birlashgan ozodlik harakati.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** 1990-yilda fuqarolar urushi boshlangunga qadar mamlakat iqtisodiyoti asosan kauchuk ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash (asosan eksport uchun) bilan bog'liq bo'lib, qishloq xo'jaligi esa qulay iqlim sharoiti tufayli muvaffaqiyatli rivojlanib kelgan. Etnik qaramaqarshiliklar natijasida ko'pchilik aholi mamlakatni tark etishdi, ular bilan birga kapital mablag'larning chiqib ketishi kuzatildi. 2004-yil YIM miqdori 2903 mln dollarni (aholi jon boshiga — 900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Niderlandiya, YH.

Temiryo'llarining umumiyluq uzunligi — 490 km, avtomobil yo'llarning uzunligi — 10087 km. Mamlakatning asosiy portlari: Byukenen, Krinvill, Monroviya, Xarper.

**Tarixi.** Portugallar tomonidan XV asrda ochilgan Liberiya tez orada qul savdosi markazlaridan biriga aylandi. XIX asrning 20-yillarda Afrikaga qaytib kelgan qullar 1847-yili mustaqil Liberiya respublikasini tuzdilar. Bu respublika konstitutsiyasi amalda AQSH konstitutsiyasidan ko'chirib olingan edi. 1985-yilgi harbiy davlat to'ntarishi mamlakatni hukmron tartib tarafdarlari va Liberiya vatanparvarlar milliy frontiga bo'lib yubordi. Bu holat 1990-yili mamlakatda fuqarolar urushining boshlanishiga olib keldi.

## LIVAN

*Rasmiy nomi — Livan Respublikasi. Poy-taxti — Bayrut. Hududi — 10400 km<sup>2</sup>. Aholisi — 4300000 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — islom (75%), boshqa dinlar (25%). Pul birligi — Livan funti.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Janubi g'arbiy Osiyoda joylashgan. Sharq va shimolda Suriya bilan (chegara uzunligi — 375 km), janub va janubiy-sharqda Isroil bilan (79 km) chegaradosh. Livanning g'arbiy chegaralari O'rta Yer dengizi bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 454 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 225 km. Isroil bilan janubiy rayonlar masalasida hududiy qarama-qarshiliklar mavjud. Landshafti asosan tog'li: g'arbida dengiz-oldi pasttekisliklari mamlakatning Livan cho'qqisi (3088 m) mavjud bo'lgan baland tog'i Es-Sauda bilan tutashgan. Sharqida Antilivan tog' tizmasi joylashgan. Ushbu tog' tizmalari o'rtasida Bekaa chuqurligi joylashgan. Asosiy daryosi — El-Litoni. Asosiy foydali qazilmalari: temir rudasi va ohaktosh. Ishlov beriladigan yerlar mamlakat hududining 21% ini tashkil etadi.

Iqlimi — subtropik, issiq.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 6 ta gubernatorlik (muhibafazot)dan tashkil topgan. Livan mustaqil davlat sifatida 1943-yil 22-noyabrda e'lon qilingan, biroq fransuz qo'shmlari 1946-yil oxiriga qadar Livan hududida ushlab turildi (milliy bayram — Mustaqillik kuni). Ijroiya hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va Vazirlar Kabineti boshlig'i hisoblangan premyer-ministr qo'lida. Mamlakat konstitutsiyasiga ko'ra faqat xristian-maronit — prezident, musulmon-sunnyi — Bosh ministr bo'lishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Deputatlar palatasi tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakat siyosiy hayotida an'anaviy ravishda ikki siyosiy blok — xristianlar va musulmonlar bloki shakllangan. Asosiy siyosiy partiyalari: Sotsialis-

tik taraqqiyot partiyasi, Livan kommunistik partiyasi, Xalq nosiriyalar tashkiloti, Kataib partiyasi, Amal shialar harakati.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Beqaror ichki siyosiy holat, Isroil tomonidan Livan janubining bir necha marotaba okkupatsiya qilinishi mamlakat ichkarisida iqtisodiy ahvolning og'irlashuviga, tadbirkorlikning keskin pasayishiga, tashqi savdoning kamayishiga olib keldi. Sanoatning nisbatan yaxshiroq taraqqiy etgan sohalari: neftni qayta ishlash, oziq-ovqat, to'qimachilik. Bayrut hozirgi kunda Yaqin Sharqning moliya markazlaridan biri hisoblanadi (mamlakatning oltin-valyuta zaxirasi 4300 mln dollar). Qishloq xo'jaligida (YMMning 30%) sitrus mevalar, zaytun, kartoshka, olma, tamaki, uzum yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 18830 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Saudiya Arabiston, Shveysariya, Italiya, Iordaniya, Fransiya.

Temiryo'llarining umumiyligi — 222 km, avtomobil yo'llari — 7300 km (shundan 6200 km — qattiq qoplamali). Mamlakat portlari: Bayrut, Tripoli, Sayda.

**Tarixi.** M. a. 4 ming yillikda hozirgi Livan hududida finikiyaliklarning shahar-davlatlari shakllana boshlandi. M. a. VIII asrdan I asrga qadar Livan Sharqning turli davlatlari tarkibida bo'lib keldi. M. a. I asrda Livan Rim imperiyasi tarkibiga kirdi. 637-yili arablar tomonidan bosib olingan bo'lsa, 1098-yildan 1289-yilga qadar Yaqin Sharqda salibchi-ritsarlar tomonidan tashkil etilgan xristianlar davlati tarkibida bo'ldi. Keyin mamlakat Misr mamluklari qo'liga, XVI asrdan esa Usmoniyalar imperiyasi tarkibiga kirdi. Biroq mamlakatdagi hokimiyat amalda XVI—XVII asrlarda maonlar sulolasi amirlariga, XVII asr oxirlaridan esa shaxobiylar sulolasi amirlari qo'lida bo'lib keldi. 1840-yili Bashir Shaxob taxtdan ag'darib tashlandi va Livan yana turklar qo'l ostiga o'tdi. 1860-yili Fransiya imperatori Napoleon III Livanga ekspeditsion korpus jo'natdi, natijada xalqaro komissiya turk hukumatini Livan muxtoriyatini tan olishga majbur qildi. Birinchi

jahon urushi boshlarida Turkiya bu kelishuvni bekor qildi. Lekin Turkiyaning urushdagi mag'lubiyatidan so'ng bu hudud Fransiya mandati ostiga o'tdi (1920). 1926-yili Livan respublika deb e'lon qildi. 1943-yilda Livan mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng mamlakat ichki ziddiyatlarni bartaraf qilishga muvaffaq bo'ldi, faqat 1975-yili mamlakatda arablar va xristianlar o'rta-sida fuqarolar urushi boshlandi. Unga Suriya va Isroil aralashdi. 1992-yili 1972-yildan beri birinchi marta parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi.

## LIVIYA

*Rasmiy nomi — Liviya Sotsialistik Xalq Arab Jumhuriyati. Poytaxti — Tripoli. Hududi — 1759540 km<sup>2</sup>. Aholisi — 5499100 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — islom. Pul birligi — Liviya dinori.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Shimoliy Afrikada joylashgan. Sharqda Misr bilan (chegara uzunligi — 1150 km), janubda Chad respublikasi (1055 km) va Niger bilan (354 km), janubiy-sharqda Sudan bilan (383 km), g'arbda Jazoir bilan (982 km), shimoli g'arbda Tunis bilan (459 km) chegaradosh. Shimoli O'rta Yer dengizi bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiyligi uzunligi 4383 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 1770 km. Mamlakat hududining katta qismini yassitog'lik, shimolini esa O'rta Yer dengizi bilan tutashgan qirg'oqoldi tekisliklari egallaydi. Sharqida esa Siva, Fayyum, Jalo, Kufra vohalari bilan bo'linib turadigan Liviya cho'llari joylashgan. Asosiy tabiiy boyliklari neft va tabiiy gaz.

Iqlimi — subtropik.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — jumhuriyat (xalq davlatchiligi). Liviya 1951-yil 24-oktabrda Italiyadan mustaqillik oldi. Qonunchilik italyan fuqarolik huquqiga va islom qonunchiligiga asoslangan. Milliy bayrami — 1-sentabr — inqilob kuni (1969). Davlat va hukumat boshlig'i — Liviya

Inqilobi yo‘lboshchisi Muammar Kaddafi (1969-yil sentabrdan beri hokimiyat tepasida). Qonun chiqaruvchi hokimiyat Umumiy Xalq Kongressi tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalar 1977-yili tarqatib yuborilgan.

*Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.* Iqtisodiyotining asosini neft qazib olish sanoati tashkil qiladi. 2004-yil YIM miqdori 37480 mln dollarni (aholi jon boshiga — 6700 dol.) tashkil etgan. Mamlakatning asosiy portlari: Tobruk, Tripoli, Beng‘oz, Morea-el-Breyka va boshqalar.

*Tarixi.* M. a. VIII asrda hozirgi Liviya hududida Finikiya shahar-davlatlari shakllana boshladi, m. a. VII asrdan esa bu hudud grek koloniyalariga aylantirildi. M. a. I asrdan boshlab Rim provinsiyasi, V asrda esa vandallar tomonidan bosib olindi. 533-yili Vizantiya imperiyasining bir qismiga aylandi. 643-yili mamlakatni arablar egallahdi, ular bu yerda o‘z tillarini va islom dinini joriy qilishdi. XVI asrda Liviya turk korsarlari ta’siriga tushib, Usmoniyalar imperiyasining tarkibiy qismiga aylandi. Italiyaliklar bu yerga XIX asrning oxirlarida kirib kelishdi, 1911-yili esa Turkiyaga qarshi urush e’lon qilib, Livyaning ayrim hududlarini egalladilar. 1916-yili mamlakat yana turklar tomonidan bosib olindi, lekin birinchi jahon urushidan so‘ng Italiya bu yerda o‘z hukmronligini qayta tikladi.

1934-yili hozirgi Liviya hududlari Italiya mustamlakasi deb e’lon qilindi, lekin 1943-yili nemis va italyan qo‘sishlarining mag‘lubiyatidan so‘ng Fransiya va Buyuk Britaniya boshqaruvi ostiga o‘tdi. 1951-yili BMT rezolyutsiyasiga ko‘ra Liviya mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Liviya qiroli Idris I mamlakatni 1969-yilga qadar idora qildi. 1969-yili qirol Idris I rasmiy tashrif bilan Turkiyaga jo‘nab ketganida bir guruh ofitserlar hokimiyatni egallab olishdi va mamlakatni Liviya Arab Respublikasi deb e’lon qilishdi. 1977-yil 3-martdan boshlab mamlakat Liviya Sotsialistik Xalq Arab Jumhuriyati deb atalib kelmoqda.

## LITVA

*Rasmiy nomi — Litva Respublikasi. Poytaxti — Vilnyus. Hududi — 65200 km<sup>2</sup>. Aholisi — 456396 kishi (2003). Davlat tili — litva. Dini — katolik. Pul birligi — lit.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Yevropaning Boltiq dengizi qirg'og'ida joylashgan davlatlaridan biri. Janubi va sharqi Belarus bilan (chegara uzunligi — 502 km), janubi g'arbi Rossiya (chegara uzunligi — 227 km) va Polsha (91 km) bilan, shimoli Latviya (453 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi 1273 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 108 km. Mamlakatning katta qismi tekisliklardan iborat. G'arbi va sharqida tepaliklar bor. Asosiy daryosi — Nyamunas (Neman), juda ko'p ko'llar bor. Yoqut mamlakatning muhim tabiiy resurslaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, torf va qurilish materiallarining zaxiralari bor. Umumiy yerlarining deyarli teng yarmi ishlov beriladigan yerlar hisoblanadi. 22% yerlar o'tloq va yaylovlardan iborat.

Iqlimi — o'zgaruvchan, kontinental.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — respublika. Mamlakat 44 ta rayon va markazga bo'ysunuvchi 11 ta shaharga bo'lingan. Litva 1991-yil 6-sentabrda o'z mustaqilligini e'lton qilgan (oldingi nomi Litva SSR). Milliy bayrami — 16-fevral — Litva davlati tiklangan kun (1918). Ijroiya hokimiyati prezidentga (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Seym tomonidan amalga oshiriladi. Yirik partiyalari: Litva demokratik ishchilar partiyasi, Litva demokratik partiyasi, Litva sotsial-demokratlar partiyasi, Litva mustaqilligi partiyasi, Litva xristian-demokratlar partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Litvaning industrial-agrar iqtisodiyoti hozirgi vaqtida markazlashtirilgan boshqaruv tizimidan bozor munosabatlariga o'tish davrini o'z boshidan kechirmoqda.

Sanoatning nisbatan taraqqiy etgan sohalari: mashinasozlik, metallga ishlov berish, kimyo, yog‘ochni qayta ishlash, to‘qimachilik, oziq-ovqat, qurilish materiallarini ishlab chiqarish. Qishloq xo‘jaligida (YMM — 23%) aholining uchdan bir qismi band. Qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri go‘sht-sut ishlab chiqarish sohasidir. Kartoshka, qand lavlagi, sabzavotlar yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 45230 mln dollarni (aholi jon boshiga — 12500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Germaniya, Polsha, Belarus va Shimoliy Yevropa mamlakatlari.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 2010 km, avtomobil yo‘llari 44200 km (35500 km — qattiq qoplamali). Ichki suv yo‘llari — 600 km. Asosiy dengiz porti Klaypeda.

**Tarixi.** Hozirgi Litva hududida shakllangan dastlabki davlati — Buyuk Litva knyazligi edi. XIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan bu knyazlik knyaz Gediminas davrida Litva va Belarus yerlarini, shuningdek, hozirgi Ukrainianing bir qismini qo‘shib olgan edi. Litva knyazlarining Tevton ordeniga qarshi olib borgan kurashi 1410-yil Gryunvald jangida mag‘lubiyat bilan yakunlandi. 1569-yili Litva Buyuk knyazligi Lyublin shartnomasiga ko‘ra Rech Pospolita tarkibiga kirdi. 1795-yili Litva Rossiya tomonidan anneksiya qilindi va 1918-yilga qadar Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lib keldi. 1918-yil dekabrda mamlakatda sovet tartibi o‘rnatildi, biroq 1919-yil kuzida u bekor qilindi. 1926-yilgi davlat to‘ntarishi natijasida hokimiyatga diktator Voldemoras keldi. 1940-yil iyul oyida mamlakatga sovet qo‘sishlari kiritildi, Litva SSSR tarkibidagi respublikaga aylandi. 1941-yili Litva nemis qo‘sishlari tomonidan bosib olindi. 1944-yili mamlakat ozod qilingandan so‘ng sovet hokimiyati qayta tiklandi. 1990-yili Sovet ittifoqi respublikalari ichida birinchi bo‘lib Litva o‘z mustaqilligini e’lon qildi. Sovet hukumati tomonidan u 1991-yili tan olingan.

## LIXTENSHTEYN

*Rasmiy nomi – Lixtenshteyn Knyazligi. Poytaxti – Vaduts. Hududi – 157 km<sup>2</sup>. Aholisi – 33700 kishi (2005). Davlat tili – nemis. Dini – katoliklar (87%), protestantlar (7%). Pul birligi – Shveysariya franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Markaziy Yevropada joylashgan. Shimolda, g'arbda va janubda Shveysariya bilan (chegara uzunligi – 41 km), sharqda Avstriya bilan (37 km) chegaradosh. Umumi chegara uzunligi – 78 km. Mamlakat Alp tog'larida joylashgan bo'lib, uning eng baland nuqtasi – 2599 m (Forder-Grausshpits tog'i). G'arbda Reyn daryosi havzasida tog'lar pasaya boradi. Shveysariya bilan chegara Reyn daryosi orqali o'tgan. Lixtenshteynnning asosiy tabiiy resursi uning gidroenergetik potensialidir.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – konstitusion monarxiya. Lixtenshteyn tarixiy ikki qismidan (Oberland (yuqori Lixtenshteyn markazi Vaduts shahri) va Unterland (quyi Lixtenshteyn markazi Shellenberg shahri) iborat. Lixtenshteyn 1866-yildan buyon mustaqil davlat. Milliy bayrami – 14-fevral – hokimiyatdagi knyaz Gans-Adam II fon Lixtenshteynning tug'ilgan kuni. Davlat boshlig'i – knyaz (knyaz Gans-Adam II fon Lixtenshteyn 1990-yili taxtga o'tirgan, amalda 1984-yildan buyon davlatni boshqarib kelmoqda), ijroiya hokimiyat premyer-ministr bosh-chiligidagi hukumat boshlig'iga tegishli qonun chiqaruvchi hokimiyat knyaz va parlament – Landtag tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda quyidagi siyosiy partiyalar faoliyat yuritmoqda: Vatan ittifoqi, Byurgerlar taraqqiyot partiyasi, Xristian ijtimoiy partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodiyoti asosan yengil sanoatning kichik korxonalari va fermer xo'jaliklariga tayanib taraqqiy etadi. Sanoat tarmoqlari orasida uskunasozlik, metallga ishlov berish, vakuum texnikasi ishlab chiqarish, elektron sistemalar va makroprotsessorlar ishlab chiqarish

sohalari yaxshi rivojlangan. Shuningdek, an'anaviy san'at tarmoqlari, to'qimachilik, farmatsevtika, keramik buyumlar ishlab chiqarish taraqqiy etgan. Turizmdan tashqari kolleksionerlar uchun pochta markalari ishlab chiqarish ham davlat xazinasiga sezilarli mablag'lar keltiradi. Tadbirkorlik faoliyatiga past soliqlarning joriy qilinishi va kompaniyalarini ro'yxatdan o'tkazishning osonligi sababli Lixtenshteynda juda ko'plab kompaniyalarining idoralari paydo bo'ldi (bunday kompaniyalar umumiy davlat daromadining 30% ini beradi). Mamlakat iqtisodiyoti Shveysariya iqtisodiyoti bilan uzviy bog'liq, shuning uchun yashovchilarning yashash darajasi Shveysariyanikidan deyarli farq qilmaydi. 2004-yil YIM miqdori 870 mln dollarni (aholi jon boshiga — 25000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, Shveysariya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 18,5 km (Avstriyaning federal mulki), avtomobil yo'llari — 32293 km (hammasi qattiq qoplamlali).

**Tarixi.** XVII asrda Shellenberg va Vadutsni sotib olgan avstriyalik Lixtenshteynlar oilasi 1719-yil 15-avgustda knyazlik maqomini olishgan. Lixtenshteyn knyazligi 1808—1815-yillarda Reyn Ittifoqiga, 1815—1866-yillarda Germaniya ittifoqiga kirdi. 1866-yildan buyon mustaqil davlat hisoblanadi. 1919-yilga qadar Avstriya bilan bojxona ittifoqida bo'lgan bo'lsa, 1924-yildan Shveysariya bilan umumiy valyuta va bojxona ittifoqida bo'lib kelmoqda.

## LYUKSEMBURG

*Rasmiy nomi — Lyuksemburg Buyuk Gersogligi. Poytaxti — Lyuksemburg. Hududi — 2,6 ming km<sup>2</sup>. Aholisi — 468600 kishi (2005). Davlat tili — nemis va fransuz. Dini — katolik dini (97%), boshqa dinlar (3%). Pul birligi — yeuro.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** G'arbiy Yevropada joylashgan (Gollandiya va Belgiya bilan birga Benilyuks guruhiga kiradi). G'arbi va shimoli

Belgiya bilan (chevara uzunligi — 148 km). Janubi Fransiya bilan (73 km), sharqi Germaniya bilan (138 km) chegaradosh. Chegarasining umumiyligi 359 km. Shimolida Ardenn tog‘ tizmasi joylashgan bo‘lib, uning yuqori nuqtasi Burgplats tog‘idagi Lyuksemburg cho‘qqisi (balandligi 559 m)dir. Qolgan hududlar tepalikli tekisliklardan (Gutland) iborat. Asosiy daryosi —Mozel va uning irmog‘i — Zauer. Mamlakat boy temir rudasi konlariga ega.

Iqlimi — mo‘tadil, kontinental.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitusion monarxiya. Gersoglikning hozirgi chegaralari o‘rnatilgan 1839-yili Lyuksemburg mustaqil davlat bo‘ldi. 1867-yilgi London konferensiyasi Lyuksemburgni suveren, betaraf davlat deb e’lon qildi. Milliy bayrami — 23-iyun — Lyuksemburg buyuk knyazi Jonning tug‘ilgan kuni rasmiy bayram qilinadi. Davlat boshlig‘i — Buyuk Lyuksemburg gersogi (Buyuk Lyuksemburg gersogi Jon 1964-yil 12-noyabrdan beri hokimiyat tepasida). Qonun chiqaruvchi hokimiyat Buyuk gersog Lyuksemburgskiy va parlament — Deputatlar palatasi tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalari: Xristianijtimoiy xalq partiyasi, Lyuksemburg sotsialistik ishchi partiyasi, Demokratik partiya, Yashillar partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodiyoti infliyatsiyaning pastligi va ishsizlikning amalda yo‘qligi bilan xarakterlanadi. Sanoatning nisbatan taraqqiy etgan sohalari: metallurgiya, kimyo, oziq-ovqat, oyna va alyuminiy ishlab chiqarish. Oxirgi o‘n yillikda bank sektori faol rivojlanmoqda. Qishloq xo‘jaligi oilaviy fermerlarga əsoslangan bo‘lib, ular yuqori darajada mexanizatsiyalashgan. Lyuksemburg savdo va moliya masalalarida iqtisodiy ittifoq tuzgan, shuningdek, Niderlandiya bilan iqtisodiy aloqalarda uzviy bog‘langan. 2004-yil YIM miqdori 27270 mln dollarni (aholi jon boshiga — 58900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, AQSH.

Temiryo‘llarining umumiyligi — 271 km (243 km elektrlashtirilgan, avtomobil yo‘llari — 5108 km (5000 km — qattiq qoplamlari). Daryo porti — Mertert.

**Tarixi.** M. a. I asrda hozirgi Lyuksemburg hududi ga keltlarning trever qabilasi kelib joylashgan bo'lib, Lotaringiyadagi Buyuk Karl 'imperiyasining Belgiya provinsiyasi tarkibiga kirgan edi. Lyuksemburg gersogligiga 1354-yili asos solingan. Gersoglik dastlab Burgundlar, keyin Gabsburglar mulki bo'ldi, keyinroq Niderlandiya, Fransianing tarkibiga kirdi. 1815-yil Vena kongressining qaroriga ko'ra Germaniyaga berilgan Lyuksemburg Buyuk gersoglikka aylandi va Gollandiya qiroli Giyon I ga sovg'a qilindi. 1839-yili gersoglikning hozirgi chegaralari o'rnatildi, 1867-yilda esa London konferensiyasi Lyuksemburgning suverenitetini belgiladi va betaraf davlat deb e'lon qilindi. Shunga qaramasdan Lyuksemburg hududi nemis qo'shinlari tomonidan Birinchi va Ikkinchchi jahon urushlarida okkupatsiya qilindi. 1946-yili Lyuksemburg Buyuk gersogligi Gollandiya va Belgiya bilan bojxona ittifoqiga kirdi (Benilyuks).

## MAVRIKIY

*Rasmiy nomi – Mavrikiy Respublikasi. Poytaxti – Port-Lui. Hududi – 2040 km<sup>2</sup>. Aholisi – 1230600 kishi (2005). Davlat tili – ingliz. Dini – induizm (50%), xristianlik (32,2%), islom (16,1%). Pul birligi – Mavrikiy rupiyasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Mavrikiy Hind okeanining g'arbiy qismidagi orollarda joylashgan. Sohil bo'y lab chegara uzunligi – 177 km. Vulqonlar otilishi natijasida vujudga kelgan tepaliklar bu orollarda ko'p bo'lib, dengiz sathidan 826 m balandlikda joylashgan. Yuqori nuqtasi – Pitondela-Ptit-Rivere-Nuar. Qirg'oqlari korall riflari bilan qoplangan. Tabiiy resurslari deyarli yo'q. Ishlov beriladigan yerlar – 54%, o'rmon va changalzorlar 31% ni tashkil qiladi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – respublika. Mamlakat 10 ta rayonga bo'lingan. Mavrikiy 1968-yili 12-martda Buyuk

Britaniya Hamdo'stligidan mustaqillik oldi. 1992-yil 12-martgacha davlat boshlig'i Buyuk Britaniya qirolichasi bo'lib keldi. Uning hokimiyatini general-gubernator amalga oshirar edi. 1992-yil 12-martda Mavrikiyda rasmiy ravishda respublika boshqaruvi shakli joriy qilindi. 12-martda ikkita milliy bayram — Mustaqillik kuni va Respublika kuni nishonlanadi. Ijroiya hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va premyer-ministr (hukumat boshlig'i) tomonidan, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa bir palatali parlament — Xalq yig'ini tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Jangovar sotsialistik harakat, Mavrikiy jangovar harakati, Leyboristlar partiyasi, Mavrikiy ijtimoiy-demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining nisbatan muhim tarmoqlari — shakar ishlab chiqarish, to'qimachilik va turizm hisoblanadi. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligining boshqa sohalari (tamaki, makkajo'xori, kartoshka, guruch, maniok, banan yetishtirish) rivojlanganligiga qaramasdan shakar-qamish asosiy ekin hisoblanadi va eksportdan keladigan foydaning 40% ini tashkil qiladi. 2004-yil YIM miqdor 15680 mln dollarni (aholi jon boshiga — 12800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — YH mamlakatlari, AQSH va JAR.

Temiryo'llari yo'q, avtomobil yo'llari — 1800 km. Asosiy porti — Port-Lui.

**Tarixi.** Mavrikiy 1505-yili portugallar tomonidan ochilgan edi, biroq XVII asrdan gollandlar boshqaruvi ostiga o'tdi. 1715-yili bu orol fransuz mustamlakasiga aylandi va Il-de-Frans deb ataldi. 1810-yilda esa Buyuk Britaniya tomonidan bosib olindi. 1868-yilda mustaqillik olgan Mavrikiy 1992-yili Respublika deb e'lon qilindi.

## MAVRITANIYA

*Rasmiy nomi — Mavritaniya islom respublikasi. Poytaxti — Nuakshot. Hududi — 1030700 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2912600 kishi (2003).*

|| *Davlat tili – arab. Dini – islom (davlat dini).  
Pul birligi – ugiya.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Afrika qit'asining shimoli g'arbida joylashgan. Sharqda Mali bilan (chegara uzunligi — 2237 km), janubda Mali va Senegal bilan (chegara uzunligi — 813 km), shimalda Jazoir (chegara uzunligi — 463 km) va G'arbiy Saxara bilan (chegara uzunligi — 1561 km) chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 5074 km, sohil bo'ylab ch'egara uzunligi — 754 km. Mamlakat hududi asosan pasttekisliklar va uncha baland bo'limgan yassi-tog'likdan iborat, shuningdek, G'arbiy Saxaraning qumli va toshli cho'llari bilan tutashib ketgan. Asosiy tabiiy resurslari: temir rudasi, mis, fosforitlar, gips.

Iqlimi — tropik, cho'lli.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — islom respublikasi. Mamlakat gubernatorlar boshchiligidagi 12 ta ma'muriy hudud va alohida poytaxt hududidan iborat. Mavritaniya 1960-yil 28-noyabrda to'liq mustaqillik olgan (oldin — fransuz protektorati). Ushbu sana — Mustaqillik kuni — milliy bayram hisoblanadi. Qonunchilik islom qonunchiligi — shariatga asoslangan. Davlat boshlig'i va hukumat boshlig'i — prezident. Parlament ikki palatadan — Senat (yuqori palata) va Milliy yig'in (quyi palata)dan iborat. Yirik siyosiy partiyalari: Respublika ijtimoiy-demokratik partiyasi va Demokratik kuchlar ittifoqi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mavritaniya temir rudasining katta zaxiralariga ega. Bu mamlakat eksportining yarmini tashkil qiladi. Tog'-kon sanoatidan tashqari neftni qayta ishlash va to'qimachilik tarmoqlari ham yaxshi rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 5534 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1800 dol.) tashkil etgan. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari — xurmo, sorgo, araxis, makkajo'xori, tamaki, shuningdek, chorvachilik yaxshi taraqqiy etgan. Baliq mamlakatning muhim eksport mahsulotlaridan biri hisoblanadi, biroq boshqa davlatlar tomonidan Mavritaniya qirg'oqlarida baliq zaxiralarining doimiy

o'zlashtirilishi mamlakatning bu daromad manbayiga putur yetkazmoqda. Muhim savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, Yaponiya, Jazoir, Xitoy, AQSH.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 670 km, avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 7525 km (1685 km — asfaltlangan).

Portlari: Nuakshot, Nuadibu.

**Tarixi.** VIII—XI asrlarda Mavritaniyaning janubiy qismi G'arbiy Afrikadagi Gana, Tekrur va boshqa davlatlari tarkibida bo'lgan, mamlakat shimoli esa barbar qabilalari nazoratida edi. XI—XII asrlarda Mavritaniya Almoravidlar davlati tarkibiga kirdi, XIV—XV asrlarda esa arablar hukmronligi ostiga o'tdi. 1855-yili mamlakat Fransiya tomonidan okkupatsiya qilindi. 1904-yili Fransiya Mavritaniyani o'z protektorati deb, 1920-yili esa o'z mustamlakasi deb e'lon qildi. 1960-yili mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakat bir qator davlat to'ntarishlarini (1917, 1980, 1984) va 1989-yil Mavritaniya va Senegal jamoalari o'rtasidagi etnik qarama-qarshiliklarni o'z boshidan kechirdi.

## MADAGASKAR

*Rasmiy nomi — Madagaskar Respublikasi. Poytaxti — Antananarivu. Hududi — 587041 km<sup>2</sup>. Aholisi — 16979700 kishi (2003). Davlat tili — malagasi va fransuz. Dini — majusiylik (50%), xristianlik (37%), islom (5%), Pul birligi — Malagasi franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Hind okeanining janubi g'arbiy qismidagi Madagaskar orolida joylashgan davlat. Madagaskar oroli Afrikaning sharqiy qirg'oqlaridan Mozambik bo'g'ozi bilan ajralgan bo'lib, kattaligi jihatidan dunyoda 4-o'rinda turadigan oroldir. Sohil bo'ylab chegara uzunligi 4828 km. Orolning butun sharqiy qismida shimoldan janubga qarab vulqon yassi-tog'ligi cho'zilib ketgan bo'lib, uning eng yuqori qismi shimolda joylashgan Saratona massividir. Unda mamlakatning yuqori nuqtasi Moromonotro tog'i (2876 m)

bor. Sharqiy sohil bo‘ylab ingichka qirg‘oqbo‘yi tekislik o‘tgan. Orolning g‘arbida katta quyi pasttekisliklar mavjud. Mamlakatning asosiy daryolari — Manguki, Bemorivu, Betsibuka. Eng katta ko‘li — Alaotra. Orolda nikel, kobalt, grafit konlari bor. Boshqa tabiiy resurslарdan baliq va dengiz mahsulotlari ko‘p olinadi. Ishlov beriladigan yerlar umumiy yerlarning 4% ini, o‘tloq va yaylovlari — 58% ini, o‘rmon va changalzorlar 26% ini tashkil qiladi.

Iqlimi — tropik.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibida 6 ta faritani (provinsiya) bor. Madagaskarning mustaqilligi 1960-yil 26-iyunda e’lon qilingan (ilgari Fransiya mustamlakasi bo‘lgan). Bu sana milliy bayram sifatida nishonlanadi. Qonunchilik Fransiya fuqarolik huquqiga asoslangan. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig‘i) va premyer-ministriga (Ministrlar Kengashi raisi) tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament — Senat (yuqori palata) va Milliy yig‘in (quyi palata) tomonidan amalga oshiriladi. Asosiy siyosiy partiyalari: Taraqqiyot va demokratiya uchun milliy ittifoq, Madagaskar mustaqilligi kongressi partiyasi, Madagaskar yangilanish Avangardi partiyasi, Fixaonan partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Madagaskar — dunyoning kambag‘al davlatlaridan biri bo‘lib, iqtisodiyotida asosiy sektor — agrar (baliqchilik va o‘rmonchilik qo‘shilganda) sektor hisoblanadi. Bu tarmoq YMMning 40% ini va eksportdan tushadigan valyuta tushumining 70% ini beradi. Asosiy eksport qilinadigan mahsulotlari qahva va shirinliklar. Sanoat (YMMning 20% i) qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash va to‘qimachilik bilan cheklangan. Sanoatni rivojlantirish davlat tomonidan ta’minlanadi. Chet el investitsiyasi bilan ishlayotgan korxonalar, chetdan keltiriladigan asbob-uskunalar, ularning ehtiyyot qismlariga qattiq nazorat o‘rnatilgan. 2004-yil YIM miqdori 14560 mln dollarni (aholi jon boshiga — 800 dol.) tashkil etgan

Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Germaniya, AQSH.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 1020 km, avtomobil yo'llarning uzunligi — 40000 km (4694 km — qattiq qoplamlari yo'llar).

Asosiy portlari: Anseranana, Maxadzonga, Tuamasina, Tuliara.

**Tarixi.** XII asrda kelib chiqishi indoneziyalik va afrikalik bo'lgan xalqlar kelib joylashishdi va arablarning dastlabki shahar koloniyalari paydo bo'ldi. XIV—XV asrlarda esa orolning markaziy qismida Imerin davlati vujudga keldi. Orolni yevropaliklardan birinchi bo'lib 1500-yili portugal sayyohi Diyego Dias ochdi. XVII asrda orol hududi ko'plab mayda knyazliklarga bo'linib ketgan edi. XVIII asrda ular yagona Merina qirolligiga birlashishdi. Madagaskar 1885-yili Fransiya protektorati, 1896-yili esa mustamlakasiga aylandi. 1958-yili o'z-o'zini boshqarish huquqini qo'lga kiritgan Madagaskar 1960-yili mustaqil davlat bo'ldi. 1972-yili mamlakatda harbiy to'ntarish o'tkazildi, 1975-yili esa prezident Ritsiroka mamlakatni Madagaskar Demokratik Respublikasi deb e'lon qildi. 1991-yili mamlakatda hukmron avtoritar tartiblarga qarshi chiqishlar bo'ldi, biroq ular shafqatsiz bostirildi. 1993-yili prezident saylovlarida muxolifatchi kuchlar lideri Zofi g'alaba qozondi.

## MAYOTTA

Rasmiy nomi — Mayotta dengizorti hududi. Poytaxti — Mamotsu. Hududi — 374 km<sup>2</sup>. Aholisi — 193600 kishi (2005). Tili — fransuz. Dini — islam (97%). Pul birligi — fransuz franci.

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Janubiy Afrikadagi Madagaskar va Mozambik o'rtasidagi Mozambik bo'g'ozida joylashgan. Mayotta — Komar arxipelagidagi to'rt oroldan eng janubda joylashgan orol. Mayotta 2 ta asosiy orol va taxminan 30 ta asosiy qism orollardan iborat. Orollar yuzasining asosiy qismi

chuqur daralar va vulqonli tog' cho'qqilaridan iborat. Eng yuqori nuqtasi — Bexari (660 m).

Iqlimi — tropik dengiz iqlimi.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Mayotta Fransiyaning dengizorti hududi hisoblanadi. Davlat boshlig'i — Fransiya prezidenti. Hukumat boshlig'i — Yuqori Kengash prezidenti (kengash a'zolari 6 yil muddatga saylanadi).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Mayotta iqtisodida asosan qishloq xo'jaligi muhim o'rinni tutadi. Davlat o'z-o'zini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'la ta'minlay olmaydi. Mayotta Fransiyaning moliyaviy yordamiga tayanadi. Chetga vanil, ilang-ilang, dolchin, kokos yong'og'ining mag'zini eksport qiladi. Chetdan kimyo sanoati mahsulotlari, mashina va jihozlar keltiriladi. 2004-yil YIM miqdori 501800 ming dollarni (aholi jon boshiga — 2600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Fransiya, Komor orollari, Afrika va Janubiy Osiyo mamlakatlari.

***Tarixi.*** 1841-yilda Mayotta sultonni orolni Fransiyaga boy berdi va shu paytdan boshlab Mayotta Fransuz imperiyasi tarkibiga kiritildi. 1946-yilda Komor orollari dengizorti hududi maqomini oldi. 1974-yilda o'tkazilgan referendumda arxipelagning 3 ta oroli mustaqillik uchun ovoz berdilar, ammo Mayotta Fransiya tarkibida qolishga qaror qildi. 1998-yildan boshlab Mayottada uning maqomini o'zgartirish harakati (departament maqomini olish) davom etmoqda.

## **MAKEDONIYA**

***Rasmiy nomi — Makedoniya Respublikasi.***

***Poytaxti — Skope. Hududi — 25713 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2063100 kishi (2003). Davlat tili — makedon. Dini — pravoslav (59%), islam (26%), katolik (4%), protestant (1%). Pul birligi — Makedoniya dinori.***

***Geografik joylashuvi va tabiatи.*** Bolqon yarimorolida joylashgan davlat (Yevropaning janubi

sharqi), janubda Gretsya (chegara uzunligi — 228 km), sharqda Bolgariya (148 km), shimolda Yugoslaviya (221 km), g'arbda Albaniya bilan (151 km) chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi 748 km. Hududi tog'li, tog' massivlari chuqurliklar bilan almashadi. Suvi ko'p, shuningdek, kichik, lekin tezoqar daryolari ko'p. Asosiy daryosi — Vardar. Eng katta ko'llari bir qismi mamlakat hududiga kiradigan — Oxrida va Prespa ko'llaridir. Asosiy tabiiy resurslari — qo'rg'oshin, rux, mis, temir rudasi.

Iqlimi — mo'tadil-kontinental. O'simlik dunyosi juda boy. Makedoniya tog'lari buk, dub, qarag'ay o'rmonlari bilan qoplangan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. 1991-yil 20-noyabrda Makedoniya Yugoslaviyadan mustaqillik oldi. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi Ministrler Kengashiga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Assambleya tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalari: Umummakedoniya inqilobiy tashkiloti, Makedoniya milliy birligi demokratik partiyasi, ijtimoiy-demokratik ittifoq, Demokratik taraqqiyot partiyasi, Milliy demokratik partiya, Islohotchi kuchlar ittifoqi, Sotsialistik partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Respublika iqtisodiyoti chetdan keltiriladigan neft va gazga, shuningdek, zamonaviy mashina uskunalarini va ehtiyyot qismlarga to'liq bog'liq. Sanoatda ko'proq qazib olish va qayta ishslash (ko'mir, svinets, sink, temir va nikel rudalarini qazib olish va qayta ishslash) sohalari rivojlangan. Qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi (YMM — 12%) mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish imkonini beradi. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari — bug'doy, makkajo'xori, mevalar, sabzavotlar va tamaki. 2004-yil YIM miqdori 14400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: sobiq Yugoslaviya mamlakatlari, Germaniya, Gretsya, Albaniya.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 10591 km.

**Tarixi.** M. a. VIII asrda Perdikka I hozirgi Makedoniya hududida birinchi makedon qirolligini tashkil etdi. Bu davlat m. a. 513-yili fors podshosi Doro I tomonidan bosib olingan. M. a. 479-yili Aleksandr I forslarni jangda yanchib mamlakat mustaqilligini qaytarib oldi. Mamlakatda m. a. 359-yili absolyut monarxiya o'rnatilgan Filipp II davrida esa butun Gretsiya bosib olindi. Buyuk Aleksandr m. a. 334—323-yillarda Makedoniya hududlarini forslar davlati va boshqa davlatlar hisobiga kengaytirib katta imperiya tuzdi. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi qulaganidan so'ng mamlakatni m. a. 148-yilga qadar antigenidlar sulolasi boshqardi. M. a. 148-yili esa Makedoniya Rim provinsiyalaridan biriga aylandi. 345-yili Vizantiya imperiyasining bir qismiga aylangan Makedoniyaga varvarlar tez-tez bostirib kirishardi. VI asrdan boshlab hozirgi Makedoniya hududiga slavyan qabilalarining kirib kelishi, shuningdek, IX—X asrlarda Bolgariyaga qaramlik Makedoniya etnik tarkibini sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. 1371-yili Makedoniya Serbiya va Gretsiya ta'sir doiralariga bo'lindi, turklar tomonidan bosib olindi va 1913-yilga qadar turklar hukmronligi ostida qolib ketdi. Ikkinci Bolqon urushidan so'ng Buxarest shartnomasiga ko'ra Makedoniya Bolgariya, Gretsiya va Serbiya o'rtasida bo'lib olindi. Serbiya qirolliği tarkibiga kirgan Vardar Makedoniysi (1929-yildan boshlab Yugoslaviya) ikkinchi jahon urushi paytida Bolgariya tomonidan anneksiya qilindi, lekin ozod qilinganidan so'ng xalq respublikasi sifatida Yugoslaviya tarkibiga kirdi. 1963-yildan YSFR tarkibidagi sotsialistik respublika bo'lgan Makedoniya 1991-yili o'z mustaqilligini e'lon qildi. Shundan so'ng Gretsiya bilan mamlakat nomi masalasi-da bahs kelib chiqdi.

## MALAVI

*Rasmiy nomi — Malavi Respublikasi. Poytaxti — Lilongve. Hududi — 118484 km<sup>2</sup>. Aholisi — 11651200 kishi (2003). Davlat tili — ingliz va chicheva. Dini — xristianlik (40%), islom (15%), qolganlari majusiylar. Pul birligi — Malavi kvachasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Afrika qit'asining janubi sharqida joylashgan davlat. Janubda va janubi sharqda Mozambik (chegara uzunligi — 1569 km), g'arbda Zambiya (837 km), shimolda Tanzaniya bilan (475 km) chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi 2881 km. Sharqda Tanzaniya va Mozambik bilan chegara Nyasa ko'li orqali o'tgan. Mamlakatning katta qismi o'rtacha balandligi 1000—1500 m bo'lgan yassitog'lar bilan band. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi Mulone (3002 m) tog'i Malavining janubiy qismidagi baland tog'liklarda joylashgan. Mamlakatning bosh daryosi — Shire. Eng yirik ko'li — Nyasa (Malavi)ning bir qismi mamlakat hududiga kirgan va sharqiy chegaralarning katta qismini shakllantirgan. Foydali qazilmalardan temir rudasi, marmar, ko'mir, boksitlar ko'proq uchraydi.

Iqlimi — ekvatorial mussonli.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Mamlakat o'z navbatida okruglarga bo'linadigan uchta provinsiyalarga (shimoliy, markaziy va janubiy) bo'lingan. 1964-yili Malavi (oldingi nomi — Nyasalend, Buyuk Britaniya mustamlakasi) o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1966-yili esa Malavi Respublikasi e'lon qilindi. 6 iyul — mamlakatning milliy bayrami (Mustaqillik kuni) hisoblanadi. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Milliy Assambleya tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Birlashgan demokratik front, Malavi kongressi partiyasi, Malavi Sotsialistik Ligasi, Ikkinchı respublika uchun kongress, Malavi ozodligi uchun harakat, Malavi xalq partiyasi.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Malavi dunyoning iqtisodiyoti nisbatan kam rivojlangan davlatlaridan biri bo'lib, asosan agrar sektorga (qishloq xo'jaligi YMMning 40% ini va eksport daromadining 90% ini ta'minlaydi) asoslangan. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari — tamaki, shakarqamish, paxta, choy, mayiz, yong'oq, guruch (tamaki, choy va shakar qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 82% ini tashkil etadi) hisoblanadi. 2004-yil YIM miqdori 8581 mln dollarni (aholi jon boshiga — 600 dol.) tashkil etgan. Chorvachilikning asosiy sohasi — qo'ychilik. Hamkorlari: JAR, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya.

Temiryo'llarinining umumiy uzunligi — 789 km, avtomobil yo'llari — 13135 km (2364 km — asfaltlangan), ichki suv yo'llari — 150 km.

**Tarixi.** XV asr oxirlarida hozirgi Malavi hududida Nyasa ko'li atrofida Malavi qirolligi tashkil topdi. XVII asrda mamlakatga dastlab yevropaliklar (portugallar) kirib kela boshladi, lekin mamlakatni mustamlakaga aylantirish faqat XIX asrda bu yerga 1859-yili ingлиз sayohatchisi Lingvingston kelganidan keyin boshlandi. 1891-yili mamlakat Nyasalend nomi bilan Buyuk Britaniya protektorati deb e'lon qilindi. 1953-yili Nyasalend Rodeziya va Nyasalend Federatsiyasi tarkibiga kirdi, biroq mamlakatda mustaqillik uchun 1959-yilda boshlangan harakat 1963-yili mamlakatni federatsiya tarkibidan chiqishga olib keldi. Shu yilning o'zida Nyasalend o'z-o'zini boshqarish huquqini oldi, 1964-yil 6-iyulda esa Malavi nomi bilan Buyuk Britaniya Hamdo'stligi tarkibidagi mustaqil davlat deb e'lon qilindi. 1966-yildan — Malavi Respublikasi. Mamlakatni umrbod prezident qilib saylangan Kamuzu Bonda boshqarmoqda. Uni hukmron Malavi kongressi partiyasi (yagona) qo'llab-quvvatlaydi.

## **MALAYZIYA**

*Rasmiy nomi — Malayziya. Poytaxti — Kuala-Lumpur. Hududi — 332,8 ming km<sup>2</sup>. Aholisi — 23092900 kishi (2003). Davlat tili —*

*malayya. Dini – islom (50%) buddizm, konfutsiylik, hinduizm, taoizm, xristianlik. Pul birligi – ringit.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Janubi sharqiy Osiyo davlati bo'lib, Malakka yarimorolining janubida (G'arbiy Malayziya) va Kalimantan orolining shimoliy qismida (Sharqiy Malayziya) joylashgan. Sharqiy Malayziya g'arbda va janubda Indoneziya bilan (chegara uzunligi 1782 km), shimolda Bruney bilan (381 km) chegaradosh, G'arbiy Malayziya esa shimolda Tailand (506 km) bilan chegaradosh. Shimoliy hududlari janubi Xitoy dengizi, shimoli sharqi Sulu dengizi, sharqi Sulavesi dengizi bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 2669 km. Mamlakatning Malakka yarimorolida joylashgan qismida bir necha parallel ravishda joylashgan tog' tizmalari va ko'p sonli vodiylari bor. Klimantan orolida ham uncha baland bo'lмаган tepaliklar va tog'lar ko'p. Bu yerda mamlakatning eng baland nuqtasi Kikabalu (4101 m) tog'i joylashgan. Qirg'oq bo'ylab tekisliklar joylashgan. Mamlakatga ko'p sonli uncha uzun bo'lмаган, lekin suvi ko'p daryolari bor. Yirik daryolari — Paxang, Radjang, Kinabantang. Malayziyada qo'rg'oshin va volframning yirik konlari bor. Boshqa tabiiy resurslardan mamlakatda neft, mis va temir rudasi, tabiiy gaz, yog'och, kauchuk, yog' daraxtlari ko'p.

Iqlimi — ekvatorial.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat tarkibiga 13 ta shtat va 2 ta federal hudud (Kuala-Lumpur va Lubuan oroli). Malayziya mustaqilligi 1957-yil 31-avgustda e'lon qilingan (milliy bayram — Malayziyaning mustaqillik kuni). Qonunchilik ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Ijroiya hokimiyat premyer-ministr boshchiligidagi Ministrlar Kabinetiga tegishli. Qirol asosan davlatning vakillik funksiyalarini bajaradi. Jafar ibn Abdul Rahmon (qirol) 1994-yil 26-apreldan buyon taxtni egallab turibdi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat

ikki palatali parlament — Senat va quyi palata — Vakillar palatasи tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Milliy front, Birlashgan Malayya milliy tashkiloti, Malayziya—Xitoy assotsiatsiyasi, Malayziya hindular Kongressi, Umummalay Islom partiyasi, Demokratik harakat partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Chet el investitsiyalarining ko'plab kiritilishi, ayniqsa yapon va Tayvan firmalarining sa'y-harakatlari bilan Malayziya iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan (mamlakat yarim o'tkazgichli uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha jahonda uchinchi o'ringa chiqib oldi) rivojlanmoqda. Neftni qayta ishlash, kimyo, to'qimachilik, yog'ochni qayta ishslash, metallurgiya kabi sanoat sohalari (mamlakat dunyodagi yirik qo'rg'oshin ishlab chiqaruvchi hisoblanadi), shuningdek, mashinasozlik, eksportning katta qismini neft va neft mahsulotlari tashkil qiladi. Siqilgan gaz, temir rudasi, mis konsentrati, qo'rg'oshin qazib olinadi. Qishloq xo'jaligida kauchuk va palma yog'i (muhim eksport mahsulotlaridan biri), kakao, kokos yong'og'i, shakarqamish, ananas, qalampir yetishtiriladi, biroq mamlakat o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi va qishloq aholisining ko'pchiligi qashshoq hisoblanadi. 2004-yil YIM miqdori 229300 mln dollarni (aholi jon boshiga — 9700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Singapur, Yaponiya, AQSH.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 1800 km, avtomobil yo'llari — 39100 km. Mamlakat portlari: Jorjtaun, Kelang, Kuanton, Kota-Kikabalu, Kuching, Miri, Sondakon, Sibu.

**Tarixi.** M. a. 3 ming yillikda Malayziya hududiga mongol qabilalari bostirib kirishdi. VII asrda mamlakat hududida hindular davlati tuzilgan bo'lib, bu davlat XIV asrgacha Shrividja imperiyasi tarkibida bo'lib keldi. 1403-yili butun Malayziya yerlarini birlashtirgan Malokka qirolligi vujudga keldi. 1511-yili Malayziya yo'lboshchi Alfonso de Albukerk boshchiligidagi portugallar tomonidan ishg'ol qilindi. XVI—XVIII asrlar davomida yevropalik mustamlakachilar (1641-yili portugallar o'mini gollandlar egallahdi, 1824-yil esa bu yerni

inglizlar egallab olishdi) qo'shni Joxar va Aga davlatlari-  
ga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borishdi. 1914-yili  
barcha Malayya davlatlari Buyuk Britaniya homiyligi  
ostiga tushdi. 1941—1945-yillarda Malayziya yapon  
qo'shnlari tomonidan okkupatsiya qilindi, lekin urush-  
dan so'ng yana Britaniya protektoratiga aylandi. 1948-  
yili tuzilgan Malayziya federatsiyasi 1956-yili mux-  
toriyatga erishdi, 1957-yil 31-avgustda esa Britaniya  
Hamdo'stligi tarkibida mustaqillik oldi. 1963-yili  
Malayziya federatsiyasi tuzilgan bo'lib, unga Malayya,  
Singapur, Sarvak, Sabax va Shimoliy Borneo kirgan edi.  
1965-yili iqtisodiy va siyosiy qarama-qarshiliklar kelib  
chiqishi munosabati bilan Singapur federatsiya tarki-  
bidan chiqib ketdi.

## MALI

*Rasmiy nomi — Mali Respublikasi. Poy-  
taxti — Bomako. Hududi — 1240142 km<sup>2</sup>.  
Aholisi — 11626200 kishi (2003). Davlat tili —  
fransuz. Dini — islom (70%), xristianlik (5%)  
va majusiylik. Pul birligi — Mali franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** G'arbiy Afrikada joylashgan davlat. G'arbda Mavritaniya (chegara uzunligi — 2237 km) va Senegal bilan (419 km), shimoli sharqda Jazoir bilan (1376 km), sharqda Niger bilan (821 km), janubda Burkina-Faso (1000 km), Gvineya (858 km) va Kot-d' Ivuar bilan (532 km) chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 7243 km. Mamlakatning katta qismini dengiz sathidan o'rtacha 500—600 m balandlikda bo'lgan tekisliklar egallagan. Shimoliy qismida toshli cho'l Saxara joylashgan. Janubi g'arbida, janubi va sharqida Bambua, Monding, shuningdek, eng yuqori balandligi 1155 m bo'lgan Xambori tog'liklari joylashgan. Asosiy daryosi — Niger. Mamlakat foydali qazilmalardan oltin, fosfatlar, uran, temir rudasi, boksitlar, marganets, litiy va qo'rg'ooshinga juda boy.

Iqlimi — tropik kontinental, issiq va quruq, chekka janubi esa subekvatorial.

*Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.* Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 1960-yil 22-sentabrda Fransiyadan mustaqillik olgan (oldingi nomi — Fransuz Sudani). Mustaqillik kuni — Milliy bayram sifatida nishonlanadi. Qonunchilik fransuz fuqarolik huquqiga asoslangan. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat esa bir palatali parlament — Milliy Yig'in tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyasi — Birdamlik va Adolat Afrika partiyasi, Afrika demokratik birlashuvi — Sudan ittifoqi.

*Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.* Mali dunyoning qashshoq davlatlaridan biri. Ishlab chiqarish qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash va qazib olish korxonalari bilan (oltin, fosforitlar) chegaralangan. Qishloq xo'jaligi YMMning 50% ini beradi. 2004-yil YIM miqdori 11000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 900 dol.) tashkil etgan. Asosiy ekinlari — proso, sorgo, makkajo'xori, guruch, maniok, ananaslar, mango, papaya, sitrus ekinlari, shakarqamish, tamaki, yong'oq, paxta. Fermer xo'jaliklari asosan Niger daryosi bo'yliarda joylashgan. Mali — G'arbiy Afrikaning eng yirik chorvador mamlakatlaridan biri hisoblanadi.

*Tarixi.* XI asrda vujudga kelgan Mali qirolligini XIII asrda 1 ming yillik boshlarida paydo bo'lган va imperator Muso (1312—1337) davrida o'zining gullab-yashnagan davrini boshidan kechirgan Gana qirolligi tushkunlikka uchratdi va Songai imperiyasi ta'siriga tushib qoldi. 1591-yili mamlakat Marokash bosqini natijasida bir necha mayda bo'laklarga bo'linib ketdi. XIX asr oxirida hozirgi Mali hududlari Fransiya mustamlakasiga aylantirildi va 1920-yili fransuz Sudani tarkibiga kirdi. 1958-yili Sudan Respublikasi tuzildi va unga 1959-yili Senegal bilan Mali Federatsiyasi birlashdi. 1960-yili ularning mustaqilligi e'lon qilindi. Federatsiya tarqalganidan so'ng 1960-yil sentabrida sobiq Fransuz Sudani mustaqil Mali davlati bo'ldi. 1968-yili davlat to'ntarishi oqibatida hokimiyat tepasiga harbiylar kelishdi, 1969-yili Traore prezidentlikni egal-

ladi, u 1991-yil o‘z vazifasidan olib tashlandi. 1992-yil mamlakatda erkin prezident saylovları bo‘lib o‘tdi va unda Konari davlat boshlig‘i etib saylandi.

## MALDIV

*Rasmiy nomi — Maldiv Respublikasi. Poytaxti — Male. Hududi — 300 km<sup>2</sup>. Aholisi — 349 100 kishi (2005). Davlat tili — maldiv (diveli). Dini — islom (davlat dini). Pul birligi — Maldiv rupiyasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Osiyoning janubida Hind okeanining shimoliy qismidagi 2000 ta marjon orollarda joylashgan davlat (bu orollardan 112 tasi o‘zlashtirilgan). Sohil bo‘ylab chegara uzunligi — 644 km. Asosiy tabiiy resursi — baliq.

Iqlimi — janubi ekvatorial mussonli, shimoli esa subekvatorial mussonli. O‘simlik dunyosida kokos palmalari va bananlar bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. 1965-yil 26-iyulda Maldiv mustaqilligi e’lon qilingan (ilgari — Buyuk Britaniya protektorati bo‘lgan), 1968-yili esa referendum o‘tkazish yo‘li bilan Maldiv respublika deb e’lon qilingan. 26-iyul — Milliy bayram (mustaqillik kuni) hisoblanadi. Davlat va hukumat boshlig‘i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining asosi baliqchilik (bu sohada ishga yaroqli aholining 80% i band, baliqchilik umumiy eksportning 60% ini tashkil qiladi) va turizm. Keyingi paytlarda turizm sohasi iqtisodiyotning muhim va tez rivojlanayotgan sektori bo‘lib qoldi. Qishloq xo‘jaligi mamlakatning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojining 10% ini ta’minlaydi. 2004-yil YIM miqdori 1391 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Tailand, Shri-Lanka, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya.

Temiryo'llari yo'q, mamlakat poytaxti Male shahrida 9,6 km asfaltlangan avtomobil yo'llari bor. Mamlakatning asosiy porti: Male.

**Tarixi.** 1834-yili ochilgan Maldiv orollarida muslimmon sultonligi tashkil topdi, uning ustidan esa 1887-yili Buyuk Britaniya protektorati o'rnatildi. 1965-yili mustaqillik olgan Maldiv orollari 1968-yili respublika deb e'lon qilindi.

## MALTA

*Rasmiy nomi – Malta Respublikasi. Poytaxti – Valletta. Hududi – 316 km<sup>2</sup>. Aholisi – 398500 kishi (2005). Davlat tili – malta. Dini – katolik dini (davlat dini). Pul birligi – Malta lirası.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Yevropaning janubida O'rta Yer dengizidagi Sitsiliya orolining janubidagi orollar (Malta, Gotso, Kominotto, Komino, Filfla)da joylashgan davlat. Sohil bo'ylab chegara uzunligi – 140 km. Mamlakatning katta qismida ohaktosh yassitog'ligi joylashgan. Qирг'оqlarida past qoyalari, ko'p sonli sohilbo'yi qiyaliklari mavjud. Mamlakat ko'p sonli ko'rfazlar va juda qulay bo'g'ozlarga ega. Tabiiy resurslarga boy emas (ohaktosh, osh tuzi). Ishlov beriladigan yerlar mamlakatning 38% hududini egallaydi.

Iqlimi – O'rta Yer dengizi iqlimi – qishda namgarchilik, yozda issiq va quruq.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – respublika. 1964-yil 21-sentabrda Malta Angliyadan mustaqil bo'ldi, biroq 1979-yilga qadar ingliz qo'shinlari mamlakatda saqlab turildi. Qonunchilik umumiy ingliz huquqiga asoslangan. Milliy bayramlari: 21-sentabr – Mustaqillik kuni, 13-dekabr – Respublika kuni, 8-sentabr – G'alaba kuni, 31-mart – Ozodlik kuni, 7-iyun – Mucheniklar kuni. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli.

Asosiy siyosiy partiyalari: Milliy partiya, Leyboristlar partiyasi, Sotsial-demokratik partiya.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Tabiiy resurslarning yetishmasligi Maltaning qulay geografik joylashuvi va oliy kvalifikatsiyali ishchi kuchlarining mavjudligi bilan kompensatsiya qilinadi. Xo'jalikning asosiy tarmoqlari — tranzit-transport ope-ratsiyalari, chet el turizmi. Sanoatning yaxshi rivojlangan tarmoqlari (ishlab chiqarish YMMning 20% ini tashkil etadi) kemasozlik, kema ta'mirlash, to'qimachilik, tikuvchilik, poyabzal ishlab chiqarish, elektrotexnika, oziq-ovqat ishlab chiqarish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida ohaktosh qazib olish muhim o'rinn tutadi. Qishloq xo'jaligida (YMM — 4,1%) mayda dehqon xo'jaliklari ko'p, ularning asosiy yo'nalishlari — yerga ishlov berish (donli ekinlar va sabzavotlar yetishtiriladi), uzumchilik, mevachilik, gulchilik. Chorvachilikda asosan sut ishlab chiqarishga katta e'tibor beriladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchiligi chetdan keltiriladi. Maltaning o'zida ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari ehtiyojining 20% ini tashkil qiladi. Malta daromadining muhim manbalaridan biri chet el turizmi hisoblanadi. 2004-yil YIM miqdori 7223 mln dollarni (aholi jon boshiga — 18200 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya.

Temiryo'llari yo'q, avtomobil yo'llarining umumiyligi — 1291 km (1180 km — asfaltlangan). Mamlakatning asosiy porti — Valetta.

***Tarixi.*** Malta antik davrdayoq muhim strategik hududda joylashganligi uchun m. a. IX asrda finikiyaliklarga, m. a. VIII asrda esa greklarga tegishli bo'lgan. Malta Karfagenga m. a. VI asrdan qaram bo'lgan bo'lsa, m. a. 218-yili Puni urushlari vaqtida rimliklar tomonidan bosib olindi. Rim imperiyasi qulaganidan so'ng Malta vandallar tomonidan, keyin ostgotlar tomonidan bosib olindi, 533-yili esa Vizantiya imperiyasi tarkibiga kirdi. 869-yili orol arablar tomonidan okkupatsiya qilindi, XI asrda esa Maltani Sitsiliyaga qo'shib yuborgan normannlar qo'liga o'tdi.

XVI asrda Maltani Ionitlar ordeni ritsarlariga berishdi. 1680-yildan boshlab orolda fransuzlar ta'siri oshdi, XVIII asrda esa Malta Fransiyaning O'rta Yer dengizidagi muhim moliyaviy markaziga aylandi. 1798-yil Napoleon Bonapart orolni bosib oldi, biroq 1800-yili Malta inglizlar qo'liga o'tdi. Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan Maltani Ikkinchchi Jahon urushida nemis va italyan harbiy havo kuchlari tomonidan qattiq bombardimon qilindi, biroq taslim bo'lmasdi va 1943-yili ittifoqchilarining qo'shinlarini Sitsiliyaga tushirishda platsdarm vazifasini o'tadi. 1964-yili mustaqillikka erishgan Malta 1974-yili respublika deb e'lon qilindi, lekin ingliz qo'shinlari bu yerda 1979-yilga qadar ushlab turildi.

## MARKAZIY AFRIKA RESPUBLIKASI

*Rasmiy nomi — Markaziy Afrika Respublikasi. Poytaxti — Bangi. Hududi — 199436 km<sup>2</sup>. Aholisi — 3683500 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — katoliklar (25%), protestantlar (25%), majusiyalar (24%), musulmonlar (15%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Afikaning markaziy qismida joylashgan davlat. Janubda Zoir (chegara uzunligi — 1577 km) va Kongo (467 km), shimalda — Chad (1197 km), sharqda — Sudan (1165 km), g'arbda — Kamerun (797 km) davlatlari bilan chegaradosh. Chegarasining umumiyligi 5203 km. Mamlakat hududining katta qismini Abu-raseyn yassitog'ligi va keng vodiylar egallagan. Eng baland nuqtasi — Ngaya tog'i (1388 m). Shimolida botqoqli tekisliklar mavjud. Asosiy daryolari — Ubangi, Sanga. MARda olmos, oltin, uran, neft konlari bor. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 3%, o'rmon va butazorlar 64% ini tashkil etadi.

Iqlimi — subekvatorial, mussonli. Savannalarida pishloq daraxti, tamarint, karite, barassa palmasi kabi daraxtlar va turli o'simliklar o'sadi. O'rmonlarida

qimmatbaho qora va qizil daraxtlar o'sadi. Fil, yovvoyi ho'kiz, antilopa, gepard, qoplon, arslon, jirafa, oq va qora karkidon, tuyaqush, flamingo, maymunlar, shoqlar, timsoh, qarqaralar hayvonot olamini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Mamlakat 16 prefekturaga bo'lingan. MAR mustaqillikka Fransiyadan 1960-yil 13-avgustda erishdi (avvalgi nomi Markaziy Afrika Imperiyasi), qonunlari fransuz huquqiga asoslangan. Davlat boshlig'i — prezident. Prezident Bosh vazir rahbarligidagi hukumatni tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi oliy organi — Milliy Majlis (bir palatali parlament). Yirik siyosiy partiyalari: Markaziy Afrika xalqi ozodligi uchun harakat, Markaziy Afrika demokratik birlashmasi, Qora Afrikaning ijtimoiy evolyutsiyasi uchun harakat, Taraqqiyot uchun vatanparvarlar harakati.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Markaziy Afrika Respublikasi Afrikaning eng kambag'al davlatlaridan biri. Sanoatining eng muhim tarmoqlari tog'-kon sanoati (olmos umumiyligi eksport miqdorining yarmidan ko'pini tashkil etadi) va yog'ochni qayta ishlash (eksportining chorak qismi) sanoatidir. 66% mehnatga layoqatli bo'lgan aholi mashg'ul bo'lgan qishloq xo'jaligi YMMning 40% ini ta'minlaydi. Eksport qilinadigan muhim qishloq xo'jalik mahsulotlari — paxta, qahva, tamaki. MARning iqtisodiy taraqqiyotini yomon infrastruktura, malakali ishchilarning yetishmasligi va hukumatning yaxshi o'ylanmagan iqtisodiy siyosati to'xtatib turadi. 2004-yil YIM miqdori 4248 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Belgiya, Italiya, Yaponiya, AQSH, Jazoir.

Temiryo'llari yo'q, avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 2200 km, ichki suv yo'llari — 800 km.

**Tarixi.** Hozirgi MAR hududi 1895-yilda Ubangi-Shari nomli Fransiya mustamlakasi deb e'lon qilinadi. 1958-yilda Fransuz Hamdo'stligi doirasida muxtoriyatga ega bo'lgan MAR 1960-yilda mustaqillikka erishadi. 1966-yilda davlat to'ntarishi natijasida hokimiyatga general Bokassa keladi. U 1976-yilda MARni imperiya

deb e'lon qiladi. Hukmron rejimga qarshi muxolifatning kuchayishi 1979-yilda Bokassa diktaturasining qulashiga va respublika o'rnatilishiga olib keladi. 1981-yilda yana davlat to'ntarishi bo'lib, hokimiyatga general Kolingba boshliq harbiy qo'mita keladi. 1992-yilda harbiylar partiyalar faoliyatini cheklash to'g'risidagi qarorni bekor qilishdi. 1998-yilning fevral — mart oylarida Bangi shahrida o'tkazilgan millatlararo kelishuvga bag'ishlangan konferensiyada o'zaro totuvlik hujatalari imzolandi.

## MAROKASH

*Rasmiy nomi — Marokash Qirolligi. Poytaxti — Rabot. Hududi — 446550 km<sup>2</sup>. Aholisi — 31689300 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — islom (98,7%). Pul birligi — Marokash dirhami.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Shimoli g'arbiy Afrikada joylashgan davlat. Janubi sharqda va sharqda Jazoir bilan (chegara uzunligi — 1559 km), janubda G'arbiy Saxara bilan (443 km) chegaradosh. Mamlakat g'arbda Atlantika okeani bilan, shimolda O'rta Yer dengizi bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiyligini uzunligi — 2002 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 1835 km. Qирг'оqbo'yi tekisliklarining eni 1600 km gacha boradi. Janubi g'arbdan janubi sharqqa qarab butun mamlakat orqali tog' tizmasi cho'zilib ketgan bo'lib, ularga Er-Rif, O'rta Atlas, mamlakatning eng yuqori tog'i Tubkal (4165 m) joylashgan Yuqori Atlas va Antiatlas kiradi. Janubida va janubi sharqida qumli va toshli cho'l — Sahroi Kabir joylashgan. Daryolari — Muluya va Sebu davriy ravishda kuchli yomg'irlar natijasida to'lib oqadi. Asosiy tabiiy resurslari: fosforitlar, temir rudasi, qalay, sink, kobalt, mis, ko'mir, neft, marganets, baliq, tuz. Shudgor qilinadigan yerlar umumiyligini 18% ini, o'tloq va yaylovlardan esa 28% ini tashkil qiladi.

Iqlimi — subtropik.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat

tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat uchta provinsiya (viloyat)ga bo'lingan. Ular o'z navbatida perfektura, okrug va kommunalarga bo'linadi. Marokash 1956-yili 2-martda (ilgari Fransiya mustamlakasi bo'lgan) mustaqillikka erishgan. Qonunchilik islam huquqiga, fransuz va ispan fuqarolik qonunlariga asoslangan. Davlat boshlig'i — qiro — Hasan II 1961-yil 3-martdan buyon hokimiyatni egallab turibdi (bu kun Marokashning milliy bayram kuni hisoblanadi). Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Vakillar palatasi tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Mustaqillar milliy birlashmasi, Milliy-demokratik partiya, Konstitutsion ittifoq, Xalq harakati, Milliy Xalq harakati, Istiqlol, Xalq kuchlari ning sotsialistik harakati, Xalq kuchlarining milliy ittifoqi, Xalq-demokratik harakati tashkiloti.

*Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.* Mamlakat iqtisodiyoti 90-yillarning boshida YH mamlakatlariiga to'qimachilik mahsulotlarini sotishning yangilanishi, chetdan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga narxlarning tushirilishi natijasida barqarorlasha boshladи. Sanoatning nisbatan taraqqiy etgan sohalari: fosforitlarni qazib olish va qayta ishlash (fosforitlarni ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi), oziq-ovqat, to'qimachilik, teriga ishlov berish. Turizm ham faol rivojlanmoqda. Marokash oldida chet mamlakatlardan olingen katta miqdordagi tashqi qarzlaridan tashqari, yuqori darajada ishsizlik, mamlakatning tashqi iqtisodiy faktorlarga qaramligi kabi muhim muammolar turibdi. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, Hindiston, Saudiya Arabistoni.

Asosiy portlari: Kasablanka, Tanjer.

*Tarixi.* M. a. XII asrdayoq hozirgi Marokash hududida dastlabki Finikiya koloniyalari paydo bo'lgan edi. M. a. V asrda mamlakatning sohilbo'yi qismlari Karfagen ta'siriga tushib qoldi. M. a. I asrdan V asrgacha Marokash hududi Qadimgi Rim hukmronligi ostida bo'ldi. 429-yili mamlakat vandallar tomonidan bosib olindi, VI asr dan esa Vizantiya imperiyasining bir qismiga aylandi. Arablar Marokash hududiga VII asrda

kirib kelishdi, 868-yili esa arablarning idrisiyalar sulolasi mahalliy barbar qabilalarini o‘z hukmronligi ostiga birlashtirishdi. XI—XV asrlarda hokimiyatni barbarlarning almoraviylar sulolalari egallab turishdi. XV—XVI asrlarda Marokashning bir qismi Portugaliya va Ispaniya tomonidan bosib olindi. Saodatiylar sulolasi yevropalik-larga qarshi sulolaning yorqin vakillaridan biri Ahmad al-Mansur podsholigi davri (1578—1603)da ayniqsa, muvaffaqiyatli kurash olib borishdi. XVII asrda hokimiyatga alaudiyalar sulolasi kelgan bo‘lib, hozirgi kungacha taxtni egallab turishibdi. Alaudiyalar sulolasining tañiqqli vakillaridan biri Ismoil mamlakatni birlashtirishga, mamlakat ichkarisidagi fitnalarga barham berishga va turklar hujumini qaytarishga muvaffaq bo‘ldi. XIX asrda Marokash hududini egallab olish uchun Ispaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya davlatlari raqobat qilishdi, 1912-yili esa mamlakatning katta qismi Fransiya protektoratiga aylandi, ozgina hudud Ispaniya boshqaruvi ostiga o‘tdi. XX asrning 20-yillarida mamlakatda boshlangan Ikkinchiji Jahon urushi yillarda kuchaygan milliy ozodlik harakatlari 1956-yil 3-martda Marokashning mustaqil bo‘lishiga olib keldi. Marokashning Ispaniyaga tegishli qismi 1956-yil 7-aprelda mustaqillik oldi, biroq ispanlar qirg‘oq bo‘yidagi bir nechta shaharlar ustidan o‘z nazoratini saqlab qoldi. Mustaqillikka erishganidan so‘ng Marokashda turli ichki qarama-qarshiliklar va davlat to‘ntarishiga urinishlar bo‘ldi. 1975-yili Marokash G‘arbiy Saxarani bosib oldi. Biroq hozirgi kunga qadar Marokash qo‘sishlari G‘arbiy Saxaradagi Polisarnio Fronti qo‘zg‘olonchilariga qarshi to‘xtovsiz kurash olib bormoqda.

## MARTINIKA

*Rasmiy nomi — Martinika (Fransyaning dengizorti departamenti va regioni). Poytaxti — Fort-de-Frans. Hududi — 1100 km<sup>2</sup>. Aholisi — 432900 kishi (2005). Davlat tili — fransuz. Dini — katolik (95 %). Pul birligi — fransuz franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Martinika Karib dengizidagi Kichik Antil orollari arxipelagida, Shimoliy va Janubiy Amerika oralig'ida joylashgan. Pasttekisliklardan iborat vodiya vulqonlar ko'p. Harakatdagi Montan-Pele vulqoni 1851, 1902, 1930-yillari otilib chiqqan.

Iqlimi — tropik, passatli. Tez-tez dovullar bo'lib turadi. Palma, qizil daraxt, mango, paparotniklar o'sadi. Turli-tuman qushlar (to'tiqush, kolibri), hasharotlar ko'p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Fransiyaning dengizorti departamenti. Davlat boshlig'i — Fransiya prezidenti nomidan — prefekt. Hukumat boshlig'i — Bosh Kengash prezidenti. Martinika 2 ta okrugga bo'linadi. Siyosiy partiyalari: Fransiya partiyalarining mahalliy bo'linmalari — Respublikani qo'llab-quvvatlash birlashmasi, Fransiya sotsialistik partiyasi, Martinika Sotsialistik federatsiyasi, Martinika kommunistik partiyasi, Martinika kuchi, Martinika progressiv partiyasi va boshqalar.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyoti negizini qishloq xo'jaligi va turizm tashkil etadi. Rom, shakar, poligrafiya, to'qimachilik, sement, neftni qayta ishlash korxonalari mavjud. Shakarqamish, ananas, banan yetishtiriladi. Chorvachilik va baliqchilik rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 6117 mln dollarni (aholi jon boshiga — 14400 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gvadelupa, Yaponiya. Martinikada Lamanten xalqaro aeroporti mavjud.

**Tarixi.** 1493-yili X. Kolumb kariblar yashayotgan bu orolni kashf qildi. Karib qabilalari qirib tashlanib, 1635-yildan fransuzlar bosqini boshlandi. 1762- va 1794—1815-yillar — ingliz mustamlakachiligi davri. 1848-yili qullik bekor qilingan. 1946-yili Martinika Fransiyaning dengizorti departamenti maqomini oldi.

## MARSHALL OROLLARI

*Rasmiy nomi — Marshall orollari respublikasi.*

*Poytaxti — Majuro. Hududi — 181,3 km<sup>2</sup>*

(hammasi bo'lib 34 ta orol). Aholisi — 59000 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — protestantlik. Pul birligi — AQSH dollari.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Marokash orollari arxipelagidagi orollarda joylashgan davlat (Tinch okeanning shimoliy qismi). Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 370,4 km. Orollarning relyefi Marjon qoyalardan paydo bo'lgan bo'lib, asosan pasttekisliklardan iborat. Asosiy tabiiy resurslari: fosforitlar, dengiz mahsulotlari.

Iqlimi — tropik, passat-mussonli. Asosiy o'simliklari — kokos palmalari, yong'oqlar. Mamlakatning hayvonot dunyosi butun Mikroneziyadagi kabi juda kambag'al va asosan dengiz faunasidir.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Marshall orollari 1991-yil 21-oktabrda mustaqillikka erishgan (ilgari ular Tinch okean tarkibiga kirgan orollar bo'lib, AQSH boshqaruvidagi BMT tasarrufidagi hududlar bo'lgan). Marshall orollari respublika deb e'lon qilingan kun — 1-may kuni Milliy bayram kuni hisoblanadi. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament (yuqori palata — Nitjela va quyi palata — Irojlar Kengashi) tomonidan amalga oshiriladi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari — qishloq xo'jaligi (kokos, tomat, non daraxti mevalari, qovun yetishtirish) va turizm (chet el valyutasi kirimining asosiy manbayi). Bu sohada ishga yaroqli aholining 10% i band. Sanoat baliq va kopra (kokosdan yog' olish)ni qayta ishslash bilan chegaralangan. 2004-yil YIM miqdori 94400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH va Yaponiya.

Mamlakatning asosiy porti — Majuro.

**Tarixi.** Marshall orollari 1526-yili ispanlar tomonidan ochilgan. 1788-yili kapitan Marshall tadqiq qilgan, 1803- va 1823-yillari esa rus dengizchilari Kruzenshtern va Kotsebular ham tadqiq qilishgan. 1885—1886-yillari orollar Germaniya tomonidan an-

neksiya qilingan. 1914-yildan orollar yapon qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilindi, 1920-yildan esa BMT mandati asosida Yaponiya boshqargan. Ikkinchi Jahon urushi yillarida orollar urush maydoniga aylandi, 1947-yildan esa BMT homiyligida AQSH boshqarib keldi. Atoll Bikini AQSHning yadro qurollarini sinab ko'radigan poligonlaridan biri bo'lgan. 1979-yilda o'z-o'zini boshqarish huquqini olgan Marshall orollari 1991-yili mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

## MEKSIKA

*Rasmiy nomi – Meksika Qo'shma Shtatlari. Poytaxti – Mexiko. Hududi – 1958201 km<sup>2</sup>. Aholisi – 104908000 kishi (2003). Davlat tili – ispan. Dini – katolik. Pul birligi – yangi pyeso.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Shimoliy Amerikada joylashgan davlat. Shimolda va sharqda AQSH (chegara uzunligi – 3326 km), janubda Gvatemala (962 km) va Beliz (250 km) bilan chegaradosh. G'arbda Tinch okean, sharqda Karib dengizi va Meksika ko'rfazi bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiyligi 4538 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 9330 km. Mamlakatning katta qismini vulqonlar otlishi natijasida vujudga kelgan o'rtacha 1000 m dan 2400 m gacha bo'lgan balandlikdagi Sharqiy Serra-Madra, G'arbiy Serra-Madra va Janubiy Serra-Madra tog'liliklari egal-lagan. Bu yerda Sitaltepetl (5699 m), Popokatepetl (5452 m), Orisaba (5747 m) kabi vulqon tepaliklari ham bor. Ushbu region seysmik faol hudud hisoblanadi. Mamlakat sharqida Yukatan yarimorolida ulkan qirg'oq-bo'yi tekisliklari mavjud. Meksikaning g'arbiy hududlari Quyi Kaliforniya yarimorolida joylashgan bo'lib, ular qirg'oqbo'yi tekisliklari va sharqida tog' tizmalari bor. Asosiy daryosi – Rio-Bravo-del-Norte. Meksikada neft, tabiiy gaz, kumush, toshko'mir, oltin, mis, qo'rg'oshin, sink konlari bor. Shudgor qilinadigan yerlar mamlakat hududining 12% ini, o'tloq va yaylovlar 39% ini, o'rmon va changalzorlar 24% ini tashkil etadi.

Iqlimi — shimoliy qismi subtropik kontinental, qolgan hududlari tropik poyasda joylashgan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — federativ respublika. Mamlakat tarkibiga 31 shtat va poytaxt federal okrugi kiradi. Meksika 1810-yil 16-sentabrda Ispaniyadan mustaqillikka erishdi. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament — Milliy Kongress tomonidan amalga oshiriladi. Yirik partiyalari: Institutsiyon-inqilobiy partiya, Demokratik inqilob partiyasi, Milliy harakat partiyasi, Sotsialistik xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Meksika Lotin Amerikasining nisbatan rivojlangan davlati hisoblanadi. Mamlakat keyingi yillarda hukumat tomonidan o'tkazilgan struktura o'zgarishlari, shuningdek, iqtisodiyotni xususiylashtirish va chet el investitsiyalari uchun qulay sharoitlarning yaratilishi natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Sanoatning nisbatan rivojlangan sohalari orasida — neft, neft kimyosi (neft va neft mahsulotlari mamlakat eksportining asosini tashkil qiladi), mashinasozlik (jumladan, avtomobilsozlik), tog'-kon, metallurgiya, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish tarmoqlari bor. Qishloq xo'jaligida (YMMning 9%) bug'doy va guruch, qahva, paxta yetshirish, chorvachilik va baliqchilik yaxshi taraqqiy etgan. 2004-yil YIM miqdori 1006 mln dollarni (aholi jon boshiga — 9600 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkor: AQSH.

Temiryo'llarining umumiyligi — 2680 km, avtomobil yo'llari — 210000 km, ichki suv yo'llari — 2900 km. Eng muhim portlari: Monsonilo, Syudad-Madero, Sameno-Krus, Tuspon.

**Tarixi.** Hozirgi Meksika hududida m. a. 20 ming yillikdayoq arxaik sivilizatsiya mavjud bo'lgan. M. a. 1400-yildan m. a. 200-yilga qadar «o'rta sivilizatsiya» davri davom etdi. Bu davrda (m. a. I asrda) Olmeklarning birinchi davlati shakllandi. IV asrda mamlakat hududida VII—VIII asrlarda o'zining gullab-yashnagan davrini boshidan kechirgan mayyalar

imperiyasi paydo bo'ldi. IX asrda tolteklar sivilizatsiyasi paydo bo'ldi, bu esa X asrda mayalar madaniyatining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada tolteklar va mayyalarning aralash madaniyati vujudga keldi. XIII asrda shimoldan kelgan chichimeka qabilalari toltekлarni siqib chiqara boshladi, biroq XIV asrda ularni o'z navbatida atstek qabilalari siqib chiqarishdi. Atsteklar mahalliy qabilalar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan foydalanib ushbu regionda kuchli siyosiy mavqega erishdilar va ulkan imperiyani vujudga keltirishdi. Bu imperiya XV asrning o'rtalaridan 1521-yilga qadar gullab-yashnadi. 1521-yili atsteklar davlati Kortes boshchiligidagi ispan mustamlakachilari tomonidan bosib olindi. 1535-yili Meksika Yangi Ispaniyaning vitse-qirolligiga aylandi. Shunday bo'lsa-da, mamlakatni mustamlakalashtirish hindularni qirib tashlash, zo'rlik bilan xristianlashtirish yo'li orqali XVII asrning oxiriga qadar davom etdi. XIX asrning boshlarida mamlakatni mustamlakachilardan ozod qilish uchun harakat boshlandi va 1821-yili Meksika mustaqillikka erishdi, 1824-yili esa respublika deb e'lon qilindi. 1836-yili Meksikada Texas va Kaliforniya ajralib chiqib, o'zlarini mustaqil respublika deb e'lon qilishdi, AQSH bilan urush natijasida esa mamlakat Rio-Granda daryosidan shimoldagi yerlarni boy berdi. 1861-yili Xuares hukumatni tomonidan tashqi qarzlarni to'lashning to'xtatilishi natijasida mamlakatda Buyuk Britaniya, Ispaniya va Fransiya qo'shinlari kiritildi. 1862-yil fevralida Angliya va Ispaniya Xuares bilan kelishuv imzolashdi, biroq Fransiya Meksikadagi harbiy operatsiyalarni davom ettirdi, natijada 1867-yili fransuz qo'shinlari mag lubiyatga uchradi. Ijtimoiy adolatsizlik va hindu dehqonlarining shafqatsiz ekspluatatsiya qilinishi xalq ommasining inqilobiy ko'tarilishiga olib keldi. 1877-yili mamlakatda inqilobiy vaziyat vujudga kelgan edi. Meksika inqilobidagi qonli voqealardan so'ng qabul qilingan yangi konstitutsiya 1920—1924-yillarda siyosiy o'zgarishlar va agrar islohotlar o'tkazish imkonini berdi. 1928-yildan boshlab mamlakat hokimiyati tepasida konstitutsion inqilobiy partiya turibdi. 1994-yili

Meksika hukumati Chyapas shtatida siyosiy islohotlar o'tkazish talabi bilan chiqqan Zapatistlar ozodlik armiyasiga qarshi kurash olib borishiga to'g'ri keldi.

## MIKRONEZIYA

*Rasmiy nomi — Mikroneziya Federativ Shtatlari. Poytaxti — Palikir. Hududi — 702 km<sup>2</sup>. Aholisi — 108100 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — protestantlik va katolik dini. Pul birligi — AQSH dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Tinch okeanning g'arbiy qismida Karolin orollarida joylashgan davlat. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 6112 km. Orollar geologik kelib chiqishiga ko'ra bir xil emas: baland tog'li orollardan to marjon atollargacha bor. Orollarning ayrimlarida vulqonlar faoliyati davom etmoqda. Asosiy tabiiy resurslari: dengiz mahsulotlari, yog'och, fosforitlar.

Iqlimi — arxipelagning g'arbiy qismi ekvatorial va subekvatorial, sharqida tropik passat-mussonli.

Vulqonli va marjon orollar faunasi bir-biridan farq qiladi. Vulqonli orollarning qirg'oqlarida mangro butazorlari, kokos palmalari, bambuk o'sadi. Marjon orollarida esa kokos palmalari ko'p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — federativ respublika. Mamlakat tarkibiga 4 ta shtat: Chuuk, Kosraye, Ponpey, Yaplar kiradi. Mikroneziya 1991-yil 17-sentabrda mustaqil bo'lgan (ilgari — BMT tasarrufida, AQSH boshqaruvida bo'lgan Tinch okean orollarining bir qismi bo'lgan). Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Milliy Kongress tomonidan amalga oshiriladi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining asosiy sektorlaridan biri — baliqchilik. Bundan tashqari, Mikroneziya qirg'oqbo'yi ekvatoriyasida baliq ovlash huquqini beruvchi litsenziyalar sotishdan sezilarli daromad oladi. Turizmning rivojlanishi orollarning bir-biridan uzoqda joylashganligi va

zaruriy infrastrukturaning yo‘qligidan orqada qolmoqda. 2004-yil YIM miqdori 216 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2000 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya.

Temir yo‘llari yo‘q, asosiy orollarda 39 km asfaltlangan yo‘llar bor. Mamlakat portlari: Kolonia, Okak, Truk, Teketik.

**Tarixi.** XVII asrda ispanlar tomonidan ochilgan Karolin orollari 1899-yili Germaniyaga sotilgan edi. 1919-yildan 1945-yilga qadar orollar mandat asosida Yaponiya tomonidan idora qilindi. 1947-yildan hozirgi Mikroneziya BMT tasarrufida bo‘lgan AQSH boshqaruvidagi Tinch okean orollari tarkibiga kirdi. 1986-yili AQSHdan ozod assotsiatsiya maqomini olgan Mikroneziya 1991-yili o‘z mustaqilligini e’lon qildi.

## MISR

Rasmiy nomi — Misr Arab Respublikasi (MAR). Poytaxti — Qohira. Hududi — 1001450 km<sup>2</sup>. Aholisi — 74718800 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — islam (94% i sunniylar). Pul birligi — Misr funti.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Misr ikki qit’ada: Afrikaning shimoli sharqi va Osiyoning janubi g‘arbida joylashgan davlat. Janubda Sudan, g‘arbda Liviya, sharqda Isroil va Falastin bilan chegaradosh. Bundan tashqari shimolda O‘rta Yer dengizi, sharqda Qizil dengiz suvlari Misr sohillarini yuvib turadi. Misrning strategik jihatdan qulay joylashuvi butun Sinay yarimorolini nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari dunyoning eng muhim SUV yo‘llaridan biri bo‘lgan Suvaysh kanali ham Misr nazorati ostida. Mamlakat maydonining 96% i cho‘llardan iborat. G‘arbda Liviya cho‘li, sharqda Arabiston cho‘li, janubda Nubiya cho‘li yastanib yotadi. Misrning eng baland nuqtasi Sinay yarimorolidagi Jebel-Katrina tog‘i, balandligi 2637 m.

Mamlakatning eng yirik daryosi Nil daryosi bo'lib, u mamlakat xalq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega. Misr janubida Nil daryosiga Osuan to'g'oni qurilgan bo'lib, u mamlakatning elektr energetika manbayi hisoblanadi.

Misr kontinental tropik iqlim hududida joylashgan. Mamlakat hududining asosiy qismi cho'llardan iborat bo'lganligi sababli hayvonot va o'simlik dunyosi unchaliq boy emas.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — prezidentlik respublikasi. Davlat boshlig'i — prezident. Ijroiya hokimiyat prezident va Bosh ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Mamlakat 26 ta muhofazatlarga bo'lingan. Ular o'z navbatida markazlarga, markazlar esa nohiyalarga bo'lingan. Asosiy siyosiy partiyalari: Milliy Demokratik Partiya, Mehnat Sotsialistik Partiyasi, Milliy Taraqqiyot Partiyasi, Al-Umma.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Misr xalq xo'jaligining asosiy sohalarining barchasi davlat tasarrufida. Sanoatning oziq-ovqat, kimyo, to'qimachilik, neftni qayta ishlash, metallurgiya kabi sohalari yaxshi rivojlangan. Misr jahon turizmi markazlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat byudjetiga tushadigan xorijiy valyutaning asosiy qismi turizm orqali keladi. Qishloq xo'jaligida sholi, arpa, turli mevalar va sabzavotlar yetishtiriladi. Baliqchilik yaxshi rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 316300 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Yaponiya va Sharqiy Yevropa davlatlari.

**Tarixi.** Misr insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan biridir. Misr 6000 yillik tarixga ega. M. a. 4-ming yillik oxirlarida bugungi Misr hududlarida 2 ta davlat — janubda Nekxan va shimolda Buto davlatlari mavjud bo'lgan. M. a. IV asr 2-yarmida, ya'ni 341-yili Misr forslar tomonidan istilo qilingan. M. a. 332-yilda Aleksandr Makedonskiy forslarni bu yerlardan quvib chiqarib, o'z hukmronligini o'rnatdi va m. a. 331-yilda Aleksandriya shahriga asos soldi. Ellin davri Misr tarixida Ptolemy va uning avlodlari hukmronligi

yillarida m. a. 31-yilgacha davom etdi. Shundan so'ng Misr qadimgi Rim imperiyasining istibdodiga tushib qoldi. 395—639-yillarda Misr Vizantiya imperiyasi tarkibida bo'ldi. VII—VIII asrlarda mamlakatni musulmon arablar bosib oldi. Fotimiylar sulolasini hukmronligi yillarida (969—1171) Misrning siyosiy-iqtisodiy mavqeyi oshdi. Shu davrda Qohira shahri mamlakat poytaxtiga aylandi. Ayubiyalar (1171—1250) sulolasidan so'ng Mamluk sultonlari davrida Misr qudratli davlatga aylanadi. 1517-yildan Usmonli Turklar imperiyasi tarkibiga kirdi. 1798—1801-yillarda Napoleon Bonapart bu yerda harbiy harakatlarni amalga oshirdi. Misr 1914-yilgacha Usmonlilar imperiyasining tarkibiy qismi bo'lib qolgan bo'lsa-da, amalda 1805-yildan mustaqil edi. 1882-yilda ingлизлар Misrni bosib olishdi. Shu davrdan boshlab mamlakatni ingliz konsuli boshqaradi. 1914-yili I jahon urushining boshlanishidan foydalangan Angliya Misrda o'z hukmronligini o'rnatdi. 1922-yil Misr o'zini mustaqil davlat deb e'lon qilgan bo'lsa-da, harbiy va siyosiy sohalarda ingliz nazorati saqlanib qoldi. Jamol Abdul Nosir boshchiligidagi «Ozod ofitserlar» maxfiy tashkiloti 1952-yil 22—24-iyul kunlari davlat to'ntarishini amalga oshirdi. Natijada qirol Farrux ag'darildi. 1953-yil Misr respublika deb e'lon qilindi. Shu yili ingliz qo'shinlari Misrdan chiqib ketdi. 1956-yil Suvaysh kanali davlat tasarrufiga o'tkazildi. 1967-yil Misr va Isroil o'tasidagi urush harakatlari Misrning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Ikki davlat o'tasidagi nizoga barham berish maqsadida 1979-yil AQSHning Kemp-Devid shaharchasida Misr prezidenti Anvar Saodat AQSH va Isroil bilan Kemp-Devid shartnomasini imzoladi. Bu shartnomaga arab davlatlarida norozilik harakatlariga sabab bo'ldi. 1981-yil Anvar Saodat suiqasd natijasida otib o'ldirildi. Uning o'rniga prezidentlik lavozimini Husni Muborak egalladi.

## MOZAMBIK

*Rasmiy nomi — Mozambik Respublikasi. Poytaxti — Maputu. Hududi — 802000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 17479300 kishi (2003). Davlat tili — portugal. Dini — majusiylik (60%), xristianlik (30%), islom (10%). Pul birligi — metikal.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Afrika qit'asining janubi sharqida joylashgan davlat. G'arbda Malavi (chegara uzunligi — 1569 km), Zimbabve (1231 km) va Zambiya (419 km), janubda JAR (491 km) va Svazilend (105 km), shimolda Tanzaniya (756 km) bilan chegaradosh. Sharqda mamlakat hududi Mozambik ko'rfaziga tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 4571 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa — 2470 km. Mamlakat shimolida balandligi 2419 m gacha bo'lgan sharqiy Afrika yassitog'ligi joylashgan. G'arbda mamlakatning yuqori nuqtasi (2436 m) bo'lgan Metebele tog'i bor. Sharqda qirg'oq-bo'yi quyi pasttekisliklari joylashgan. Mamlakatning markaziy qismini tepaliklar egallagan. Asosiy daryolari — Zambezi va Limpopo. Mamlakatning eng yirik Nyasa ko'lining bir qismi Malavi hududida joylashgan. 2004-yil YIM miqdori 23380 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1200 dol.) tashkil etgan. Asosiy foydali qazilmalari: ko'mir, titan, temir rudasi, boksitlar, mis.

Iqlimi — shimolda subekvatorial mussonli, janubda tropik passatlari.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 11 ta provinsiyadan iborat, jumladan, poytaxti — Maputu shahri ham provinsiya maqomiga ega. 1975-yil 25-iyunda Mozambik Portugaliyadan mustaqillik oldi. Mustaqillik kuni milliy bayram sifatida nishonlanadi. Qonunchilik portugal fuqarolik huquqiga asoslangan. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Premyer-ministr esa Ministrler Kengashini boshqarishda prezidentga yordam beradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Respublika Assambleyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Yirik siyosiy partiyalari: FRELIMO partiyasi, Mozambik milliy ittifoqi (UNAMO), Mozambik liberal-demokratik partiyasi (PALMO), Mozambik milliy harakati (MONAMO).

### *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Mozambik qishloq xo'jaligida va gidroenergetikada iqtisodiy potensialga ega bo'lishiga qaramasdan Afrikaning eng qashshoq davlatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Sanoatning nisbatan taraqqiy etgan sohalari — neftni qayta ishlash, kimyo, to'qimachilik, tamaki, oziq-ovqat ishlab chiqarish. Qishloq xo'jaligi YMMning 50% ini, eksportning 90% ini ta'minlaydi. Asosiy ekinlari: paxta, shakarqamish, choy, maniok, makkajo'xori, sholidan iborat, keilyu yong'oqlari va krevetkalar eksportining asosini tashkil qiladi. Keyingi yillarda hukumat tomonidan chet el investitsiyalari kirib kelishining qo'llab-quvvatlanishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Asosiy savdo hamkorlari: Ispaniya, JAR, Fransiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Portugaliya.

Temiryo'llarinining umumiyligi — 3288 km, avtomobil yo'llari — 26498 km, ichki suv yo'llari — 3750 km. Mamlakatning asosiy portlari: Beyra, Maputu, Nakala.

**Tarixi.** O'rta asrlarda hozirgi Mozambik qirg'oqlarida arab savdogarlari o'z koloniyaligiga asos solganlar. 1498-yili Mozambik qirg'oqlariga Vasko da Gama boshchiligidagi ekspeditsiya keldi va portugallar mahalliy qabila boshliqlari bilan Portugaliya mamlakatning faqat sohilbo'yи hududlarini nazorat qilishi haqida kelishib olishdi. Mozambikning markaziy qismining portugallar tomonidan tadqiq qilinishi Serpa Pintu yo'boshchiligidida XIX asrning oxirida boshlandi, 1951-yili esa Mozambik Portugaliyaning dengizorti provinsiyasiga aylandi. 1962-yilda tashkil topgan FRELIMO (Mozambikni ozod qilish fronti) qurolli tashkiloti portugallarga qarshi kurash olib bordi. 1975-yil 25-iyunda Portugaliya Mozambik mustaqilligini tan oldi.

Mamlakatda 16 yil davom etgan fuqarolar urushi

1992-yili hukumat va Mozambik Milliy qarshilik harakati o'rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishi bilan yakunlandi.

## MOLDOVA

*Rasmiy nomi — Moldova Respublikasi. Poytaxti — Kishinyov. Hududi — 33700 km<sup>2</sup>. Aholisi — 4439500 kishi (2003). Davlat tili — moldovan. Dini — pravoslav. Pul birligi — ley.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Sharqiy Yevropa tekisligining janubi g'arbida joylashgan davlat. Janubda, sharqda va shimolda Ukraina (chegara uzunligi — 939 km), g'arbda Ruminiya bilan (450 km) chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 1389 km. Mamlakat hududini tepalikli tekisliklar, daryo vodiylari va jarliklar egallaydi. Eng baland qismi (429 m) mamlakat markazida joylashgan Kodri tepalaridir. Asosiy daryolari — Dnestr, Prut. Asosiy foydali qazilmalari — fosforitlar, soz tuproq, ohaktosh. Mamlakat hududining yarmi haydaladigan yerlar hisoblanadi.

Iqlimi — yumshoq, mo'tadil, kontinental.

Hududining 10% qismi o'rmonlar bilan qoplangan. Mamlakat faunasi 400 turdan oshiq umurtqали, 4500 turdan oshiq umurtqasiz hayvonlardan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. 1990-yili Moldova Respublikasi tarkibidagi ikki rayon — Gagauz Respublikasi va Pridnestrovye o'zlarini mustaqil davlat deb e'lon qilishdi, biroq ular jahon jamoatchiligi tomonidan tan olinmadi. Moldova mustaqilligi 1991-yil 27-avgustda e'lon qilingan (oldingi nomi — Moldaviya Sovet Sotsialistik Respublikasi). Mustaqillik kuni milliy bayram sifatida nishonlanadi. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi Ministrler Kabinetiga tegishli. Oliy qonun chiqaruvchi organ — bir palatali parlament (Yuqori Kengash).

Yirik siyosiy partiyalari: Agrar-demokratik partiyasi, Xristian-demokratik xalq fronti, Demokratik partiya.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Sanoatning peshqadam tarmog'i — oziq-ovqat ishlab chiqarish, shuningdek, og'ir va yengil sanoat ham rivojlangan. Ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi YMMning 40% (vino va tamaki eng muhim eksport mahsulotlari hisoblanadi)ini tashkil qiladi. 2004-yil YIM miqdori 8581 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Ruminiya, Germaniya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 1150 km, avtomobil yo'llari — 20000 km (13900 km — qattiq qoplamali yo'llar).

**Tarixi.** XII asrdan XIV asrgacha Moldova — skif, gott, gunn va slavyan davlatlarining tarkibida bo'lib keldi. XIV asrga kelib voloxlar va sharqiy slavyanlar bilan aloqalar natijasida Moldova xalqi shakllandi, 1359-yili esa Bogdan I mustaqil Moldaviya knyazligini tuzdi. Bu knyazlik shu davrda ham madaniy, ham iqtisodiy jihatdan yuksaldi. XV asrda Stefan Buyukning qahramonlarcha ko'rsatgan qarshiligiga qaramasdan Moldova knyazligi turklar tomonidan bo'ysundirildi va Usmoniyalar imperiyasining bir qismiga aylandi. 1774-yili Moldova Avstriya hukmronligi ostiga, 1806-yili esa Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shildi. 1859-yili Moldava Valaxiya bilan birlashdi va Rumin knyazligini tashkil etdi. Bu knyazlikni moldavan knyazi Aleksandru Kuza idora qilgan. 1924-yil tuzilgan Moldova muxtor respublikasi va 1940-yil Ruminianing anneksiya qilingan Bessarabiya hududlarida 1940-yil 2-avgustda Moldaviya Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzildi. Moldaviya 1941-yili rumin va nemis qo'shinlari tomonidan bosib olindi, ozod qilinganidan so'ng 1944-yili Sovet Ittifoqi tarkibiga qaytdi. 1947-yilgi Parij shartnomasiga ko'ra Ruminia Moldaviya hududlariga bo'lgan da'vosidan tamomila voz kechdi. Moldaviya 1991-yil mustaqillikka erishdi, biroq mamlakatning sharqiy qismi, jahon jamoatchiligi tomonidan tan olinmagan Pridnestrovye Respublikasi mamlakatning yangi hukumatini tan olishdan bosh tortib kelmoqda.

## **MONAKO**

*Rasmiy nomi — Monako Knyazligi. Poytaxti — Monako. Hududi — 1,95 km<sup>2</sup>. Aholisi — 32400 kishi (2005). Davlat tili — fransuz. Dini — katolik (95%). Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Yevropaning janubida, O'rta Yer dengizi qirg'oqlarida joylashgan davlat. G'arbda, shimolda va sharqda Fransiya bilan chegaradosh. Chegarasining uzunligi — 4,4 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 4,1 km. Monako hududi bo'yicha dunyoning eng kichik davlatlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat landshafti tepaliklardan iborat.

Iqlimi — qishda yumshoq va zax, yozda issiq va quruq.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat Monako, Monte-Karlo, La-Kandamin, Fontevey ma'muriy hududlariga bo'lingan. Monako 1419-yildan buyon mustaqil davlat hisoblanadi. Qonunchilik fransuz qonunlariga asoslangan. 19-noyabr — Milliy bayram kuni. Davlat boshlig'i — knyaz (knyaz Rene III Grimaldi mamlakatni 1949-yil noyabrdan 2005-yilga qadar idora qilgan). Hozirgi kunda knyaz Albert I (1958-yil 14-martda tug'ilgan) mamlakatni idora qilmoqda. Ijroiya hokimiyat, shuningdek, hukumat kengashining boshlig'i davlat ministriga ham tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Milliy Kengash tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Milliy-demokratik ittifoq, Demokratik ittifoq harakati, Monegas sotsialistik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Davlat xazinasiga daromad asosan chet ellik turistlar (Monako Yevropaning eng yaxshi kurortlaridan biri hisoblanadi) va kazinolarga tashrif buyuruvchilardan keladi. Davlat o'z fuqarolaridan daromad solig'i olmaydi, biroq bu yerda doimiy istiqomat qiladigan tadbirkorlardan, shuningdek, Monako bilan imtiyozli soliqlar asosida hamkorlik qilayotgan chet el kompaniyalaridan

olinadigan soliqlar hisobidan qoplanadi. Monako daromadining qariyb yarmini korxonalar, banklar va mehmonxonalardan olinadigan qo'shimcha qiymat solig'i tashkil qiladi. Monakoda yashovchilararning yashash darajasi G'arbiy Yevropa davlatlaridagi yashash darajasi bilan tenglasha oladi. 2004-yil YIM miqdori 940 mln dollarni (aholi jon boshiga — 29012 dol.) tashkil etgan. Fransiya bilan tuzilgan bojxona ittifoqi orqali Monako YH davlatlari bilan hamkorlik qiladi.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 1,7 km, avtomobil yo'llari yo'q, faqat shahar ko'chalarida bor. Asosiy porti: Monako.

**Tarixi.** Hozirgi Monako hududidagi birinchi davlat tuzilmasi finikiyaliklarning shahar-davlati bo'lib, u keyinchalik greklarning mustamlakasiga aylantirilgan. 1070-yili Monako genuyalik Grimaldilar oilasining mulkiga aylandi. 1524-yildan 1641-yilgacha Monako Ispaniya tomonidan anneksiya qilingan, 1873-yili esa Fransiya boshqaruvi ostiga o'tdi. Monako 1861-yili mustaqil knyazlik bo'ldi, biroq tez orada Fransiya protektoratiga aylandi. 1949-yildan beri Grimaldilarning gerbi va nomini saqlab qolgan Polinyaklar oilasi Mongoga egalik qilib kelmoqda.

## MONGOLIYA

*Rasmiy nomi — Mongoliya Respublikasi. Poytaxti — Ulan-Bator. Hududi — 1566000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2712300 kishi (2003). Davlat tili — mongol. Dini — lamaizm (Tibet buddizmi). Pul birligi — tugrik.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Markaziy Osiyoda joylashgan davlat. G'arbda, janubda va sharqda Xitoy (chegara uzunligi — 4673 km), shimolda Rossiya bilan (3441 km) chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 8114 km. G'arbida va janubi g'arbida Mongoliya Oltoyi (balandligi — 438 m), Gobi Oltoyi va Xongay tog'lari, mamlakatning markaziy qismida Xongay tog'lari joylashgan. Janubida va janubi sharqida

Gobi sahrosi mavjud. Asosiy daryolari — Selenga, Kerulen, Kobdo. Nisbatan yirik ko'llari — Ubsu-nur, Xubsu-gul. Mamlakat hududida neft, ko'mir, mis, temir rudasi, volfram, molibden, fosforitlar, qo'rg'oshin, nikel, oltin konlari bor. Mamlakat hududining katta qismini o'tloq va yaylovlar (79%) egallaydi.

Iqlimi — keskin kontinental.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 18 ta rayon (aymoqlar)ga va 3 ta munitsipalitet (Ulan-Bator, Darxan, Erdenet)ga bo'linadi. Mongoliya 1924-yil noyabr oyida mustaqillikka erishgan (ilgari Xitoy tarkibidagi tashqi Mongoliya provinsiyasi bo'lgan). Milliy bayram — 11-iyul — Xalq inqilobi kuni. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Oliy qonun chiqaruvchi organ — Davlat Buyuk Xurali (bir palatali parlament). Yirik siyosiy partiyalari: Mongoliya Xalq-inqilobiy partiyasi, Mongoliya Milliy-demokratik partiyasi, Mongoliya Sotsial-demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiy faoliyat an'anaviy ravishda qishloq xo'jaligiga asoslangan (Mongoliya dunyoda jon boshiga eng ko'p sigir to'g'ri keladigan mamlakat hisoblanadi). Tog'-kon sanoati (ko'mir, temir rudalari, mis, molibden, volfram, qo'rg'oshin, oltin qazib olish) asosiy tarmoq hisoblanadi. Iqtisodiyotining boshqa muhim tarmoqlari — o'rmon xo'jaligi va baliqchilik. Hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyoti markaziy rejalashtirishdan bozor munosabatlariiga o'tish davrini boshidan kechirmoqda. 2004-yil YIM miqdori 5332 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Qozog'iston.

Temiryo'llarinining umumiy uzunligi — 1750 km. Avtomobil yo'llari — 46700 km (1000 km qattiq qoplamali yo'llar), ichki suv yo'llari — 397 km.

**Tarixi.** VI asrdan XII asrgacha hozirgi Mongoliya hududi turk, uyg'ur, qirg'iz xonliklarining va Lao davlatlarining tarkibida bo'lib keldi. XIII asrda Chingizxon mo'g'ul qabilalarini birlashtirib juda ko'p

mamlakatlarni bosib oldi va Buyuk Mo‘g‘ul imperiyasini vujudga keltirdi. XVI asrga kelib mo‘g‘ullar oldingi qudratini yo‘qotdi va budda dinini qabul qilishdi, 1635—1691-yillarda esa mo‘g‘ul qabilalari Manchjur hukmdorlari ta’siri ostiga tushib qoldilar. 1911-yili tashqi (shimoliy) Mongoliya Xitoy protektoratiga aylan-di. Rossiyada inqilob amalga oshganidan keyin 1918-yili xitoyliklar Mongoliyaning butun hududlarini bosib olishga harakat qilishdi, biroq 1921-yili mamlakatga sovet qo‘sishnlari kiritildi. 1924-yili esa Mongoliya Xalq Respublikasi deb e’lon qilindi. 1939-yili Xalxin-Gol daryosi rayonida Qizil Armiya yapon qo‘sishnlarining hujumlarini qaytardi. 1946-yili Mongoliya mustaqilligi Xitoy tomonidan tan olindi. 1991-yili hokimiyat tepasidagi kommunistik partiya marksizm-leninizm tamoyillarini rad etib, mamlakatda siyosiy va iqtisodiy islohotlar o’tkaza boshladи. Shu davrdan boshlab Mongoliya Respublikasi deb ataladi.

## MONTSERRAT

*Rasmiy nomi — Montserrat (Buyuk Britaniya mulki). Poytaxti — Plimut. Hududi — 102 km<sup>2</sup>. Aholisi — 9341 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik. Pul birligi — Sharqiy Karib dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Montserrat — Karib dengizining sharqiy qismida joylashgan Vest-Indiyadagi orol. Shimoliy va Janubiy Amerika orasidagi Kichik Antil orollari arxipelagidagi Shamolli orollar guruhiga kiradi. Harakatdagi vulqon — Chances Pik. Montserrat — harakatdagi vulqon joylashgan tog‘ tizi-midan iborat tekislikdagi orol.

Iqlimi — tropik, issiq. O’simlik dunyosi doim yashil o’rmonlar va boshqa tropik o’simliklarga juda boy. Hayvonot dunyosi qushlar, sudralib yuruvchilar va hasharotlar, sohilbo‘yi suvlarida dengiz jonivorlarini ko‘plab uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** 1960-

yil konstitutsiyasiga ko'ra Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadigan gubernator boshqaruvidagi orol. Gubernator ijro etuvchi Kengash raisi hisoblanadi. Siyosiy partiyalari: Milliy progressiv partiya, Ozodlik Xalq Harakati, Progressiv demokratik partiya, Milliy rivojlanish partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Elektron asboblar yig'ish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar mavjud. Paxta, meva va sabzavotlar yetishtiriladi. Chorvachilik, yog'och tayyorlash va uni qayta ishslash rivojlangan. Uncha katta bo'lмаган dengiz hayvonlarini ovlash xo'jaligiga ega. 2004-yil YIM miqdori 29 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3400 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Antigua va Barbuda.

**Tarixi.** Orol X. Kolumb tomonidan 1493-yilda kashf qilingan. 1632-yilda surgun qilingan katoliklar tomonidan birinchi ingliz manzilgohiga asos solindi. XVII—XVIII asrlarda Angliya va Fransiya orolga egalik qilish uchun o'zaro kurash olib borgan. 1871-yildan 1958-yilga qadarMontserrat Shamolli orollar, 1958-yildan to 1962-yilgacha esa Vest-Indiya federatsiyasi tarkibida bo'lgan. Montserrat — Sharqiy Karib davlatlari tashkiloti Mintaqaviy xavfsizlik tizimi uyushmasining a'zosidir.

## MUQADDAS YELENA OROLI

*Rasmiy nomi — Muqaddas Yelena Oroli (Buyuk Britaniya mulki). Poytaxti — Jeymstaun. Hududi — 410 km<sup>2</sup>. Aholisi 7400 kishi (2005). Tili — ingliz. Dini — xristianlik (protestantlar). Pul birligi — Muqaddas Yelena orollari funt-sterlingi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Muqaddas Yelena oroli, shuningdek, Vozneseniye, Tristan-da-Kunya orollari va odam yashamaydigan 5 ta orol Atlantika okeanining janubiy qismida joylashgan. Muqaddas Yelena oroli vulqonlar natijasida paydo

bo'lgan. Uning janubiy qismida balandligi 858 metr-gacha bo'lgan so'ngan vulqon og'zi bor.

Iqlimi — passatli va tropik. Muqaddas Yelena orolining katta qismini maysazor va changalzorlar egal-lagan. Oq qarag'ay, evkalipt va sarv daraxtlari o'sadi. Vozneseniye oroli o'tsimon o'simliklar bilan qoplangan.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — respublika. Davlat boshqaruvini Qonunchilik va Ijroiya Kengashi faoliyatini bevosita boshqaradigan ingliz gubernatori amalga oshiradi. Ma'muriy jihatdan mustamlaka bitta ma'muriy hudud (Muqaddas Yelena oroli) va 2 ta tobe hududlar (Vozneseniye va Tristan-da-Kunya orollari)ga bo'linadi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Kartoshka, sabzavotlar, olma, olxo'ri, g'alla mahsulotlari, zig'ir yetishtiriladi. Baliqchilik va dengiz ovchiligi, chor-vachilik rivojlangan. Eksporti: zig'ir, importi: sanoat mahsulotlari, yoqilg'i. 2004-yil YIM miqdori 18500 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, JAR.

Asosiy porti — Jorjtaun.

***Tarixi.*** Orol 1502-yil 21-mayda portugallar tomonidan Muqaddas Yelena kuni kashf etilgan. Tristan-da-Kunya oroli 1506-yil portugaliyalik dengiz-chi Tristan-da-Kunya tomonidan ochilgan. Orrollarga egalik huquqini qo'lga kiritish uchun bo'lgan qizg'in kurashlarda Angliya Gollandiya ustidan g'alaba qozondi va 1659-yilda Muqaddas Yelena oroliga harbiy bazasini joylashtirdi. 1815-yil Muqaddas Yelena oroli Napoleon Bonapartning (1821-yil shu orolda vafot etgan) surgun joyiga aylandi. Suvaysh kanalining ochilishi orollarning strategik ahamiyatini pasaytirdi. 1942-yil Vozneseniye oroliga AQSHning harbiy-havo bazasi joylashtirildi. Bu yerda 1954-yilda AQSHning Florida yarimorolidan uchiriladigan fazoviy raketa texnikalari uchun kuzatuv stansiyasi joylashtirildi. 1966-yilda Vozneseniye orolida ingliz radiostansiyasi faoliyat ko'rsata boshladi. Folkland mojarosi davrida 1982-yil Vozneseniye oroli Argen-tinaga qarshi urushda ingliz qurolli kuchlarining asosiy bazasi bo'ldi.

## MYANMA (BIRMA)

*Rasmiy nomi — Myanma Ittifoqi. Poytaxti — Yangon. Hududi — 676577 km<sup>2</sup>. Aholisi — 47800000 kishi (2003). Davlat tili — birman. Dini — buddaviylik (85%), xristian, induizm, islam. Pul birligi — chja (kyat).*

**Geografik joylashkuvi va tabiat.** Osiyoning janubiy sharqida joylashgan davlat. Myanma — shimol va sharqda Xitoy (chegara uzunligi 2185 km), sharqda Tailand (1800 km) va Laos (235 km), g'arbda esa Hindiston (1463 km) va Bangladesh (193 km) bilan chegaradosh. Mamlakat g'arbda Bengal ko'rfaziga, janubda Andaman dengiziga tutashib ketgan. Chegarning uzunligi 5876 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 1930 km, hududining katta qismida tog'lar va yassi-tog'liklar joylashgan: g'arbida Rakxayn va Pakxayn tog'liklari, sharqida Bialukton tog'ligi joylashgan. Mamlakatning va janubi-sharqiy Osiyoning eng yuqori nuqtasi — Kxakoborazu (5881m) tog'idir. Mamlakatning markaziy va janubiy qismida Myanmaning asosiy daryosi Iravadi havzasida keng vodiy tekisligi joylashgan. Mamlakat foydali qazilmalaridan — neft, qo'r-g'oshin, volfram, sink, mis, ko'mir, tabiiy gaz, qimmat-baho toshlarga juda boy. Haydaladigan yerlar hududining 15%ini, o'rmon va to'qayzorlar 49%ini tashkil etadi.

Iqlimi — asosan tropik mussonli, janubida esa subekvatorial.

Myanmaning o'simlik dunyosi juda qadimiy. Bu yerda rododendronlarning 700 dan oshiqli turi (yer yuzida ularning mingdan oshiqli turi mavjud), orxideyalarning 700 dan oshiqli turi, kaliliyalarning 80 dan oshiqli turi, palmalarning 70 dan oshiqli turi, bambuklarning 70 dan oshiqli turi, paporotniklarning 700 dan oshiqli turi uchraydi.

Myanmada yer yuzida istiqomat qiladigan jonivolarining nisbatan qadimiyllari — malayya tapiri, hind-malay tipratikanlari, langarqanotlilar saqlanib qolgan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibiga 7 ta ma'muriy va 7 ta milliy viloyatlar kiradi. 1948-yil 4-yanvarda Buyuk Britaniyadan mustaqillikka erishgan (Milliy bayrami — Mustaqillik kuni). Davlat boshlig'i — qonunchilik va tartibni qayta tiklash davlat kengashining raisi va premyer-ministr general Tan Shve hisoblanadi. Hukumat tomonidan cheklangan holda faoliyat yuritish uchun bir necha siyosiy partiyalarga ruxsat berilgan. Ulardan eng yiriklari: demokratiya uchun Milliy liga, Demokratik partiya, Xalq demokratik partiyasi va Milliy birlik partiyasi. Mamlakatda maxfiy ravishda partiyalar va tashkilotlar, qo'zg'olonchi guruhlari hukumatga qarshi qurolli kurashni davom ettirishmoqda.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Myanma iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lib, keyingi 10-yillikda inqirozni boshdan kechirmoqda. Hukumat keyingi 40 yil ichida joriy qilin-gan qat'iy davlat boshqaruvidan so'ng tadbirkorlarni qo'llash va chet el investitsiyalarini kiritish yo'li bilan iqtisodiyotni jonlantirishga harakat qilmoqda. Sanoatning asosiy tarmoqlari: tog'-kon, neft qazib olish va o'rmonchilik (YMMning 40%i, baliqchilik va o'rmon-chilikni qo'shib hisoblaganda). Qishloq xo'jaligida asosiy tarmoq — sholichilik, bundan tashqari bug'doy, shakarqamish, makkajo'xori, kauchuk va jut ham yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 105400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari Hindiston, Yaponiya, Xitoy.

Temiryo'llarning umumiy uzunligi 3991 km, avtomobil yo'llari — 27000 km (320 km betonlashtirilgan yo'llar), ichki suv yo'llari 12800 km. Asosiy porti — Yangon.

**Tarixi.** Hozirgi Myanma hududida dastlabki davlat birlashmalari eramizning boshlarida vujudga kelgan (Mon, Piu). XI asr boshlarida Pagan qirolligi o'z atrofiga mamlakat markazidagi mayda qirolliklarni birlashtirdi. XIII asr oxirlarida Birma birlashgan qirolligiga mo'g'ullar bosqini boshlandi. 1824-yili Buyuk Britaniya

Janubi sharqiy Osiyoda Fransiya ekspansiyasini to'xtatib qolish maqsadida Quyi Birmani bosib oldi, 1855-yili esa butun mamlakatni anneksiya qildi. II jahon urushi davrida 1942-yildan 1945-yilga qadar mamlakat yapon bosqinchilari qo'l ostida bo'ldi. Mamlakat ozod qilin-ganidan so'ng Birma hududida istiqomat qilayotgan bir qator mayda millatlar muxtoriyat talab qilishdi. Natijada 1948-yilning 4-yanvarida mustaqil davlat deb e'lon qilin-gan Birma davlatlari federasiyasi tuzildi. 1962-yil davlat to'ntarishi natijasida mamlakatda hokimiyat tepasiga harbiylar kelishdi. Ular ushbu tartibdan norozi bo'lgan birmaliklarning qo'zg'olonlarini shafqatsizlik bilan bos-tirdilar. 1989-yili mamlakat Myanma Ittifoqi degan yangi nom oldi. 1990-yili mamlakatda dastlabki erkin saylovlar o'tkazildi. Bu saylovlarda bosh muxolifatchi partiya g'alaba qozondi, biroq hokimiyatni boshqarayot-gan harbiy tartib tarafдорлари davlat boshqaruvini fuqaro-lik hukumatiga topshirishdan bosh tortdi.

## NAMIBIYA

*Rasmiy nomi — Namibiya Respublikasi. Poytaxti — Vindxuk. Hududi — 824269 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1927400 kishi (2003). Davlat tili — ingliz, nemis, afrikaans, bantu. Dini — xristianlik. Pul birligi — Janubiy Afrika rendi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrikaning janubi g'arbida joylashgan davlat. Namibiya janubda va sharqda Janubiy Afrika Respublikasi (chegara uzunligi 855 km), sharqda Botswana (1360 km), shimolda Angola (1376 km) va Zambiya (233 km) bilan chegaradosh. Mamlakatning g'arbiy chegaralari Atlantik okeani bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiyligi uzunligi 3824 km, sohil bo'y lab chegara uzunligi 1572 km. Mamlakat hududining katta qismini balandligi 2000 m dan oshmaydigan yassitog'lar egallagan bo'lib, g'arbiy qirg'oqlarda joylashgan Namib cho'liga tutashib ketgan. Namib cho'li yer yuzining eng qurg'oq joylaridan biri hisoblanadi. Sharqida boshqa bir cho'l — Kalaxari ham

mavjud. Asosiy daryolari — To‘q-Sariq va Kunena. Namibiyada turli foydali qazilmalar — olmos, mis, uran, oltin, qo‘rg‘oshin va boshqalar bor.

Iqlimi — tropik, quruq.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 13 ta ma’muriy hududga bo‘lingan. Namibiya 1990-yil 21-mart kuni mustaqillikka erishgan (ilgari mamlakat Janubiy Afrika Respublikasi boshqaruvi ostida bo‘lgan). Ushbu sana mustaqillik kuni — Milliy bayram sifatida nishonlanadi. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig‘i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Milliy Assambleya va Milliy Yig‘indan iborat 2 palatali parlament tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Janubi g‘arbiy Afrika xalqlari tashkiloti (SVAPO), Turnxale demokratik alyansi (DAT), Demokratlar Kongressi, Birlashgan demokratik front.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodiyotining asosi tog‘-kon sanoatidir (Namibiya yoqilg‘i bo‘lmagan foydali qazilmalar eksporti bo‘yicha 4-o‘rinda va uran ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 5-o‘rinda turadi). Namibiya boy olmos konlariga ega bo‘lganligi sababli zargarlik buyumlari uchun olmos yetkazib beruvchi asosiy davlatlardan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida asosiy tarmoq chorvachilik hisoblanadi. 2004-yil YIM miqdori 14760 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Shvetsariya, JAR, Germaniya, Yaponiya.

Temiryo‘llarning umumiyligi 2341 km, avtomobil yo‘llari 54500 km. Mamlakatning asosiy porti — Lyuderis.

**Tarixi.** Hozirgi Namibiya hududlari 1883—1884-yillarda Germaniya tomonidan mustamlakalashtirildi. German janubi g‘arbiy Afrikasi nomi bilan protektoratga aylantirildi. Mamlakat 1915-yili JAR tomonidan bosib olindi. 1920-yili esa JAR Millatlar Ligasidan janubi g‘arbiy Afrikani boshqarish mandatini oldi. 1949-yili JAR janubi g‘arbiy Afrikani BMT ruxsatisiz o‘ziga

qo'shib oldi. 1968-yili mamlakat BMT qarori bilan Namibiya deb nomlandi. 1966-yili tuzilgan SVAPO qurolli tashkiloti ozodlik urushlarini olib bordi. Bu kurash 1990-yilda Namibiya Respublikasini e'lon qilish bilan tugadi.

## NAURU

*Rasmiy nomi — Nauru Respublikasi. Poytaxti — Yangor (Yaren). Hududi — 21 km<sup>2</sup>. Aholisi — 13000 kishi (2005). Davlat tili — nauru, ingliz. Dini — xristianlik. Pul birligi — Avstraliya dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Tinch okeanning janubi g'arbiy qismidagi Nauru orolida joylashgan Okeaniya davlati hisoblanadi. Sohil bo'ylab chegara uzunligi 30 km. Marjon orol oval shaklida bo'lib, qumlik qirg'oqlari bor. Orolning yuza qismi balandligi 65 m gacha bo'lган fosforitli ohaktosh yassitog'liklardan iborat.

Asosiy tabiiy resurslarii — fosforitlar.

Iqlimi — ekvatorial mussonli.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Nauru Buyuk Britaniya Hamdo'stligi davlatlari tarkibiga kiradi. Nauru 1968-yil 31-yanvarda mustaqillikka erishgan (oldingi nomi — Yoqimli orol — Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya birgalikda boshqargan). Davlat va hukumat boshlig'i — president. Siyosiy partiyalari: Nauru partiyasi, Nauru demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodiyotining asosini fosfatlar qazib olish va uni eksport qilish tashkil etadi. Bu mahsulotni chetga eksport qilish katta daromad keltirganligi bois aholining yashash darajasi yetarlicha yuqori. Qishloq xo'jaligi taraqqiy etmagan. Mamlakat hamma oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan chuchuk suvni ham chetdan keltiradi. 2004-yil YIM miqdori 75000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5000 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari — Avstraliya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya.

Temiryo'llari yo'q. Avtomobil yo'llari — 27 km. Porti—Nauru.

**Tarixi.** Orol 1798-yili ingлизлар томонидан кашф етілген болып, 1888-yili Германия томонидан босиб олинган. 1914-yili Nauruni Avstraliya босиб oldi. 1920-yili esa Buyuk Britaniya оролни бoshqarish huquqini beruvchi mandatni qo'lga kiritdi. 1947-yili Nauru Avstraliya, Yangi Zelandiya va Buyuk Britaniya davlatlari томонидан boshqariladigan BMT homiyligidagi hududga aylandi. 1968-yili mamlakat Buyuk Britaniya Hamdo'stligi таркебида mustaqillikni qo'lga kiritdi.

## NEPAL

*Rasmiy nomi — Nepal Qirolligi. Poytaxti — Katmandu. Hududi — 147181 km<sup>2</sup>. Aholisi — 26469600 kishi (2003). Davlat tili — nepali. Dini — induizm (rasmiy dini 90%). Pul birligi — Nepal rupiyasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Osiyo qit'asining janubiy qismida joylashgan davlat. G'arbda, janubda va sharqda Hindiston (чегара uzunligi 1690 km), shimolda Xitoy bilan (1236 km) chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi 2926 km. Mamlakat janubida keng Hind-Gang tekisligi joylashgan. Markaziy qismida balandligi 2500 m bo'lgan Mahabxorat va Churiya tepalik va tog'liklari joylashgan. Shimolida Himolay tog'lari joylashgan. Nepalda dunyoning 7 ta eng baland cho'qqilari to'liq yoki qisman joylashgan. Jumladan, yer yuzining eng baland cho'qqisi — Jomolungma (Everest — 8848 m) ham Nepalda joylashgan. Nepalning asosiy daryolari — Karnali, Kali-Gandak, Aruklar Gang havzasiga kiruvchi daryolar hisoblanadi. Mamlakat yuqori gidroenergetik potensialga ega bo'lish bilan birga bir qator tabiiy resurslar — yog'och, mis, kobalt, lignit va temir rudasi konlariga ham egalik qiladi. Ishlov beradigan yerlar mamlakat

hududining 17% ini, o'rmon va to'qayzoylar 33% ini tashkil etadi.

Iqlimi — tropik iqlim zonasidan Arktik iqlim zonasiga gacha davom etadi. Shunga ko'ra o'simlik dunyosi ham xilma-xildir.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat tarkibiga 14 ta zona (viloyat) kiradi. Ular o'z navbatida 75 ta distrintga (tuman) bo'linadi. Nepal 1768-yildan buyon mustaqil davlat hisoblanadi. Qonunchilik hind qonunlariga va ingliz umumiy huquqiga asoslanadi. Davlat boshlig'i monarch (qirol Birendra Bir Bikram Shax Dev 1985-yil 24-fevralda taxtga o'tirgan). Hozirgi qirolning tug'ilgan kuni 28-dekabr — Milliy bayram hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat monarch va 2 palatali parlament tomonidan amalga oshiriladi. Parlament Milliy Kengash (yuqori palata) va Deputatlar palatasi (quyi palatasi)dan iborat. Yirik siyosiy partiyalari — Nepal Kongressi, Milliy Demokratik partiya, Nepal kommunistik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Nepal jahoning kam rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi (YMMning 60% i) tashkil qiladi. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari — sholi, bug'doy va boshqa donli ekinlar — shakarqamish, jut, shuningdek, go'sht va sut yetishtirish yaxshi taraqqiy etgan. Shunday bo'lsa-da mamlakat o'zining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi. Sanoat ishlab chiqarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan chegaralangan. To'qimachilik mahsulotlari va gilam eksport qilishdan ham sezilarli darajada foyda olinadi. Keyingi yillarda mamlakat byudjetiga daromad tushirishning muhim manbalaridan biri — turizm ham yaxshi rivojlanmoqda. 2004-yil YIM miqdori 39530 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1500 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari — AQSH, Hindiston, Germaniya, Buyuk Britaniya, Singapur, Yaponiya.

Temiryo'llarning umumiy uzunligi 101 km, avtomobil yo'llari esa 71400 km.

**Tarixi.** VII asrda Nepal hududida txakur sulolasiga asos solingan bo'lib, ular XVIII asrga qadar hukmronlik qilgan. XIV asrdan boshlab Nepal hududida musulmonlar hukmronligidan saqlanish maqsadida hind shahzodalari o'z knyazliklarini tuzishdi. XVI asrda Nepal hududida Nashput kastasiga mansub bo'lgan roja o'z sulolasiga asos soldi va u 1768-yilga kelib butun Nepal knyazliklarini bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. 1814—1816-yillarda inglizlar bilan olib borilgan urushlarda Nepal o'z hududining bir qismini boy berdi. 1847-yili hokimiyatga Ran sulolasi keldi va ular Nepalni 1947-yilga qadar idora qilishdi. 1960-yili Nepalda siyosiy partiyalarning faoliyat yuritishi taqiqlangan edi, biroq 1990-yili bu taqiq yangi konstitutsiya qabul qilinishi bilan qirol tomonidan bekor qilindi. 1991-yili esa demokratik hukumat shakllantirildi.

## NIGER

*Rasmiy nomi — Niger Respublikasi. Poytaxti — Niamey. Hududi — 1267000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 11058600 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — muslimon sunniylari (80%), majusiylik (14%), xristianlik(1%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrikaning g'arbida joylashgan davlat. Janubda Nigeriya (chegara uzunligi 1497 km) va Benin (266 km), sharqda Chad (1175 km), shimolda Jazoir (956 km) va Liviya (354 km), g'arbda Mali (821 km) va Burkina-Faso (628 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi 5697 km. Nigerning katta qismi dunyodagi eng yirik cho'l — Sahroi Kabir hududida joylashgan. Relyefi 200—500 m gacha bo'lgan yassitog'likdan iborat. Mamlakatning markaziy qismida tog'li massivlari bo'lgan Air yassitog'ligi joylashgan. Bu yerda Nigerning eng yuqori nuqtasi Indukaln-Tages (222 m) joylashgan. Mamlakatning sharqiy qismini qumli cho'l — Tenera egallagan. Asosiy daryosi —

Niger. Mamlakat hududida uran, temir rudasi, qo'rg'oshin va fosfat konlari mavjud.

Iqlimi — tropik. Nigerning o'simlik dunyosi va hayvonot dunyosi juda kambag'al.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 7 ta departamentga bo'lingan. Mamlakat 1960-yil 3-avgustda mustaqillik olgan (ilgari Fransiyaning dengizorti hududi bo'lган). Qonunchilik fransuz umumiy huquqiga asoslangan. Mamlakat respublika deb e'lon qilingan kun — 18-dekabr (1958-yil) Milliy bayram sifatida nishonlanadi. Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig'i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Oliy qonun chiqaruvchi organ — Milliy yig'in. 30 dan ortiq siyosiy partiyalardan eng yiriklari — Raxama ijtimoiy va demokratik konventi, Nasara jamiyat taraqqiyoti milliy harakati, Demokratiya va sotsializm uchun Taraya Niger partiyasi, Vatanparvarlar demokratik va taraqqiyot partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligi bo'lib, u YMMning 40% ini ta'minlaydi. Aholining 90% i qishloq xo'jaligida band. Muhim qishloq xo'jaligi ekinlari paxta, sorgo, mil, nebe, sholi, yong'oq hisoblanadi. Sanoatning asosiy sohasi tog'-kon sanoatidir (uran qazib olish). 2004-yil YIM miqdori 9716 mln dollarni (aholi jon boshiga — 900 dol.) tashkil etgan. Muhim savdo hamkorlari — Fransiya, Nigeriya, Italiya, Germaniya. Avtomobil yo'llarining uzunligi 39970 km (shundan 371 km qattiq qoplamlari yo'llar), ichki suv yo'llari — 300 km.

**Tarixi.** Hozirgi Nigerning sharqiy qismi X asrdan XIX asrgacha Bornu qirolligining markazi bo'lган. Janubida esa X asrdan boshlab Xaus imperiyasi o'z hududlarini kengaytirgan. Yevropaliklardan birinchi bo'lib mamlakatga 1795-yili shotlandlar kelishdi. XIX asr oxirida Niger Fransiya tomonidan bosib olindi va 1922-yili fransuz G'arbiy Afrikasi tarkibiga qo'shildi. 1946-yili unga Fransiyaning dengizorti hududi maqomi berildi. Niger 1963-yili 3-avgustda mustaqil respublika deb e'lon qilindi.

## NIGERIYA

*Rasmiy nomi — Nigeriya Federativ Respublikasi. Poytaxti — Abuja. Hududi — 923768 km<sup>2</sup>. Aholisi — 133881700 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — islom (50%), xristianlik (40%), majusiylik (10%). Pul birligi — nayra.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrika qit'asining markaziy qismida joylashgan. Sharqda Kamerun (chegara uzunligi 1690 km) va Chad (87 km), shimolda Niger (1497 km), g'arbda Benin (773 km) bilan chegaradosh. Janubda Nigeriya Gvineya ko'rfazi bilan tutashib ketgan (chegara uzunligi 4047 km). Sohil bo'y lab chegara uzunligi 853 km, janubda qirg'oqbo'yi tekisligi joylashgan bo'lib, uning kengligi Niger daryosi deltasida 100 km gacha boradi. Mamlakat markazida yuza qism ko'tarilib boradi va balandligi 1735 m bo'lган Jos yassitog'ligiga o'tadi. Yassitog'likdan shimolga qarab yuza pasayib boradi. Shimoli g'arbda Sokota tekisligi, shimoli sharqda esa Bornu tekisligi joylashgan. Sharqda Nigeriyaning eng yuqori nuqtasi Fogel cho'qqisi (2420 m) joylashgan Adamov tog'lari bor. Nigeriya hududida Chad ko'lining bir qismi joylashgan. Mamlakatning asosiy daryosi Niger. Mamlakat foydali qazilmalarga juda boy. Ular orasida neft, tabiiy gaz, temir rudasi, ko'mir, qo'rg'oshin, rux ko'plab uchraydi. Ishlov beriladigan yerlar mamlakat hududining 31%ini, o'tloq va yaylovlar 23%ini tashkil qiladi.

Iqlimi — ekvatorial mussonli.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika, mamlakat tarkibiga 36 ta shtat va Abuja federal poytaxt okrugi kiradi. Nigeriya 1960-yil 1-oktabrda mustaqillikka erishgan (ilgari Buyuk Britaniya protektorati bo'lgan). Mustaqillik kuni milliy bayram hisoblanadi. Butun hokimiyat boshqaruvin kengashining boshlig'i — prezidentga tegishli. Siyosiy partiyalari — Umumxalq partiyasi, Xalq demokratik partiyasi, Demokratiya uchun ittifoq.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Siyosiy barqarorlik tufayli mamlakat iqtisodiyoti turg'unlikni o'z boshidan kechirmoqda. Sanoatining nisbatan taraqqiy etgan sohalari: neftni qayta ishlash (neft muhim eksport tovarlaridan biri hisoblanadi), metallurgiya, kimyo, oziq-ovqat ishlab chiqarish. Neftdan tashqari kakao, palma mahsulotlari va kauchuk ham eksport qilinadi. Boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari: yong'oq, paxta, shakarqamish. 2004-yil, YIM miqdori 125700 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1000 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari — YH davlatlari, AQSH, Yaponiya.

Temiryo'llarning umumiy uzunligi 3567 km, avtomobil yo'llari 107990 km (shundan 30019 km asfaltlangan), ichki suv yo'llari 8575 km. Mamlakatning asosiy portlari Lagos, Port-Xarkort.

**Tarixi.** XVII asrda hozirgi Nigeriya hududiga dastlabki yevropaliklar kelganida mamlakatda 2 ta sivilizatsiya — shimolda Xausa Bornu, Sonoto kabi musulmon davlatlari hamda janubda Ioruba va Benin qirolliklari bor edi. XVIII asrda mamlakatni inglizlar tomonidan mustamlakalashtirish boshlangandan so'ng Nigeriya hududida 2 ta Britan protektorati — Janubiy va Shimoliy Nigeriya paydo bo'ldi. Ular 1919-yil birlashtirildi. 1954-yili protektorat 4 davlat federatsiyasiga aylantirildi, 1960-yili esa Nigeriya mustaqil respublika deb e'lon qilindi. 1967-yili mamlakat sharqida Biafra respublikasi e'lon qilindi. Biroq 1973-yili u hukumat qo'shinlaridan mag'lub bo'ldi. Mamlakatda 1966-yili o'rnatilgan harbiy tartib 1979-yili fuqarolik hukumati bilan almashtirildi. Biroq 1983-yili mamlakatda navbatdagi davlat to'ntarishi o'tkazildi. 1999-yili 29-mayda Nigeriya fuqarolik hukumati boshqaruviga o'tdi.

## **NIDERLANDIYA**

*Rasmiy nomi — Niderlandlar Qirolligi.*

*Poytaxti — Amsterdam. Hududi — 41548 km<sup>2</sup>.*

*Aholisi — 16150500 kishi (2003). Davlat tili —*

*golland. Dini – katoliklar (34%) protestantlar (25%), islom (3%). Pul birligi – yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Yevropaning shimoli g'arbida joylashgan davlat. Janubda Belgiya bilan (chegara uzunligi 450 km), sharqda Germaniya bilan (chegara uzunligi — 577 km) chegaradosh. Shimolda va g'arbda Niderlandiya (boshqa nomi — Gollandiya). Shimoliy dengizga tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 1027 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa — 451 km. Mamlakat asosan qirg'oqbo'yi pasttekisliklarida va quritilgan yer (poldera) uchastkalarida joylashgan. Mamlakat hududining 2/5 qismi dengiz sathidan pastda (ayrim joylari dengiz sathidan 5 m pastda) joylashgan. Janubi sharqqa qarab bu sath yuqorilab boradi. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi Vaalserberg (321 m).

Asosiy daryolari — Reyn irmoqlari bilan, Maas, Shelda. Eng yirik ko'li — Eysselmer (hududi 1210 m<sup>2</sup>). Mamlakat hududida tabiiy gaz va neft konlari bor. Ishlov beriladigan yerlar umumiy hududining 26%ini (serhosil, unumdor yerlar. Mamlakatning eng muhim tabiiy resurslaridan biri hisoblanadi), o'tloq va yaylovlari esa 32% ni tashkil qiladi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat tarkibida 12 ta provinsiya bor. Mamlakat poytaxti Amsterdam bo'lishiga qaramasdan hukumat Gaagada joylashgan. Gollandiya 1579-yili Ispaniyadan mustaqillik olgan. Milliy bayrami — 30-aprel Qirolicha kuni. Davlat boshlig'i — monarch (Qirolicha Beatriks Vilgelmina Arigord 1980-yil 30-apreldan buyon hokimiyat tepasida). Ijroiya hokimiyat Ministrlar Kabinetining boshlig'i bo'lган premyer-ministriga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat monarch va parlament (General Shtatlar) tomonidan amalga oshiriladi. Parlament 2 palatadan — Birinchi va Ikkinci palatadan iborat. Siyosiy partiyalari: Xristian demokratik chaqiriq, Mehnat partiyasi, Ozodlik va demokratiya uchun xalq partiyasi, So'l yashillar.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Mamlakatning yuqori taraqqiy etgan iqtisodiyotida savdo va moliyaviy xizmatlar sektori YMMning yarmidan ko'prog'ini ta'minlaydi. Sanoatda esa (YMM 1/4 qismi) tabiiy gaz, neft qazib olish va neftni qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek, metallga ishlov berish va mashinasozlik (elektrotexnika va radiotexnika sanoati, kemasozlik) sohalari peshqadam hisoblanadi. Yuksak mexanizatsiyalashtirilgan qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli aholining 5% band bo'lsa-da, bu soha nafaqat mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi, balki yetishtirilgan mahsulotning katta qismini (sut mahsulotlari, gullar, gul qalamchalari, sabzavotlar) chetga eksport qilish imkonini beradi. 2004-yil YIM miqdori 481100 mln dollarni (aholi jon boshiga — 29500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — YH mamlakatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 2757 km (shundan 1991 km elektrlashtirilgan). Gollandiya keng tarmoqli avtomobil yo'llariga ega bo'lib, ularning umumiy uzunligi 104 831 km (shundan 9251 km qattiq qoplamali yo'llar). Ichki suv yo'llarining umumiy uzunligi — 6340 km.

Asosiy portlari — Amsterdam, Rotterdam.

**Tarixi.** Kelt qabilalari kelib o'rnatshgan hozirgi Niderlandiya hududlari m. a. I asrda rimliklar tomonidan bosib olingan. IV—V asrlarda varvarlar bosqinidan so'ng etnik guruuhlar quyidagicha joylashdilar: saklar — sharqda, frizlar — qirg'oq bo'yida va franklar — mamlakat janubida. Xristianlik mamlakatga Buyuk Karl boshqaruvi davrida kirib keldi. Imperiya qulaganidan so'ng Gollandiya 1843-yili Latoringiya tarkibiga kirdi. XIV asrda golland yerlari Burgundiya gersogi Filipp Dovyurak Flandriya grafinyasi Margaritaga uylanganidan so'ng Burgundiyaga qo'shildi. XV asr oxirlarida Gollandiya gabsburglar qo'l ostiga, keyinroq fransuzlar qo'l ostiga o'tdi. Fransuz qiroli Filipp Chirolyi ispan taxi vorisiga uylanganligi sababli Gollandiya Ispaniya hukmronligi ostiga o'tib qoldi. Ispaniya qiroli Karl V

1555-yili Filipp II foydasiga taxtdan voz kechdi. 1579-yili protestantlik cherkovi tarafдорлари 7 respublikadan iborat federatsiya — Utrect ittifoqini tuzdilar. 1581-yili bu ittifoq o‘z mustaqilligini e’lon qildi. 1648-yili Ispaniya Shimoliy Brabant va Flandriyani Niderlandiyaga berdi. XVII asrda Niderlandiya kuchli dengiz davlatiga aylandi va tez orada uning manfaatlari Britan imperiyasi manfaatlari bilan to‘qnashdi. 1794-yili Niderlandiyani Fransiya bosib oldi va uning hududida Bataviya respublikasini tuzdi, 1806-yilda esa Gollandiya qirolligini tuzdi va uni Napoleon Bonapartning akasi Lyudovik idora qildi. 1814-yili Vena kongressi qaroriga ko‘ra Niderlandiya qirolligi tuzilib, unga birlashgan provinsiyalardan tashqari Belgiya va Lyuksemburg ham kirdi. 1830-yilgi inqilob natijasida katoliklar Belgiyasi qirollikdan ajralib chiqdi va o‘z mustaqilligini e’lon qildi. 2 ta jahon urushlari oralig‘ida Niderlandiya iqtisodiy ko‘tarilishlar davrini o‘z boshidan kechirdi. 1940-yili Germaniya tomonidan bosib olingan Gollandiya 1945-yilda ozod qilindi. 1949-yili Niderlandiya Belgiya va Lyuksemburg bilan bojxona shartnomasini imzoladi (Benilyuks).

## NIKARAGUA

*Rasmiy nomi — Nikaragua Respublikasi. Poytaxti — Managua. Hududi — 129494 km<sup>2</sup>. Aholisi — 5200000 kishi (2001). Davlat tili — ispan. Dini — katoliklar (95%), protestantlar (5%). Pul birligi — oltin kardoba.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Markaziy Amerikada joylashgan davlat. Shimolda Gonduras (chegara uzunligi 922 km), janubda Kosta-Rika (309 km) bilan chegaradosh. Mamlakat g‘arbda Tinch okeanga, sharqda Karib dengiziga tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 1231 km Sohil bo‘ylab chegara uzunligi esa — 910 km. Nikaragua qirg‘oqlari bo‘ylab tekisliklar joylashgan. Mamlakat ichkarisidagi hududlarning katta qismini balandligi

2438 m. gacha bo'lgan tog'lar va tog'oldi hududlari egallagan. Tog'li hududlardan g'arbdagi tektonik chuqurliklarda yirik ko'llari Nikaragua ( $80029\text{ m}^2$ ) va Managua joylashgan. Mamlakat g'arbida so'ngan va harakatdagi vulqonlar zanjiri cho'zilib ketgan. Asosiy tabiiy resurslari: oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, sink, volfram, yog'och, baliq. Mamlakat hududining deyarli yarmini o'tloq va yaylovlar, 35% ini esa o'rmon va to'qayzorlar egallagan.

Iqlimi — shimoli sharqida tropik passat, janubi g'arbida esa subekvatorial issiq.

Nikaraguuning sharqiy qismi, qirg'oq bo'yłari qalın tropik doimiy yashil o'rmonlar bilan qoplangan. Ular orasida daraxtlarning qimmatbaho turlari — qizil (maxagonlar) daraxtlar, chirimaydigan nispero, sapodil va boshqalar bor. Tog'larning yuqori qismida sosna va dub o'rmonlari bor. Mamlakat g'arbida savannalar va kserofit to'qayzorlari bor. Nikaraguada juda boy hayvonot dunyosi saqlanib qolgan: bu yerda maymun, shuningdek, kiyik, yovvoyi cho'chqa, tapir, qora ayiq, yaguar, katta iguanalar bor. Juda ko'plab to'tilar, tukan va fazanlar bor. Nikaragua daryolarida ko'plab baliqlar, toshbaqa, timsohlar bor, limontin uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 16 ta ma'muriy rayonlarga bo'lingan. Nikaragua 1821-yil 15-sentabrdan mustaqil bo'lgan (ilgari Ispaniya mustamlakasi bo'lgan). Bu kun milliy bayram hisoblanadi. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Oliy qonun chiqaruvchi organi — Milliy Assambleya.

Yirik siyosiy partiyalari: Sandinochilar milliy ozodlik fronti, Sandinochilar yangilanish harakati, Milliy ittifoq, Konservativ-demokratik partiya, Erkin liberal partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining militarlashuvi, Amerika savdo-iqtisodiy embargosi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda sandinistlar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar qishloq xo'jaligida va sanoatda ishlab chiqarishning qisqarishiga olib kelgan. Bu esa aholi turmush darajasining pasayishi-ga, shuningdek, tashqi qarzlarining o'sishiga sabab

bo'ldi. Ishlab chiqarish sanoatning qishloq xo'jaligi xomashyolarini qayta ishlash, kimyo va to'qimachilik kabi tarmoqlari bilan cheklangan. Qishloq xo'jaligi qahva, shakarqamish, paxta (asosan eksport uchun) yetishtirishga ixtisoslashtirilmoqda. Keyingi yillar davomida hukumat gipperinflyatsiyaga qarshi choralar ko'rmoqda, milliy valyuta qadrini ko'tarishga harakat qilyapti, shuningdek, mamlakat strukturasida qayta qurish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash amalga oshirilmoqda, xususiy-moliyaviy sektor shakllantirilmoqda. 2004-yil YIM miqdori 12340 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — YH mamlakatlari va Lotin Amerikasi.

Temiryo'llarining umumiyligi — 376 km. Avtomobil yo'llarining uzunligi — 15286 km (1598 km qattiq qoplamlari yo'llar), ichki suv yo'llari esa 2220 km.

Mamlakatning asosiy portlari — Korinto, Blufilds.

**Tarixi.** Kolumb tomonidan 1502-yili kashf qilingan hozirgi Nikaragua hududlari Ispaniya mustamlakasiga aylantirildi va 1560-yili Gvatemala superintendentligi tarkibiga kiritildi. 1821-yili mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng Nikaragua Markaziy Amerika qo'shma provinsiyalari tarkibiga kirdi. 1838-yili to'liq mustaqil bo'lgunga qadar Nikaragua bir qator ichki mojarolarni, shuningdek, chet mamlakatlarning — Buyuk Britaniya ning 1848-yili va AQSHning 1912—1933-yillarda intervensiyasini boshidan kechirdi. 1936-yildan boshlab mamlakatni Samos oilasi boshqardi. 1979-yili u Sandinistlar milliy ozodlik fronti tomonidan ag'darib tashlandi. Sandinistlar hukumatining iqtisodiy sohadagi muvaffaqiyatsizliklari 1990-yilgi prezident saylovlarida muxolifatchilarning g'alaba qozonishlariga va Violetta Chamorroning hokimiyat tepasiga kelishiga sabab bo'ldi.

## NORVEGIYA

*Rasmiy nomi — Norvegiya Qirolligi. Poytaxti — Oslo. Hududi — 387000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 4546100 kishi (2003). Davlat tili — norveg.*

*Dini – Evangeliya Lyuteranlik cherkovi (87,8%) davlat dini hisoblanadi. Pul birligi – norveg kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Skandinaviya yarimorolining shimoliy va g'arbiy qismida hamda Shpitsbergen arxipelagida joylashgan Shimoliy Yevropa davlati hisoblanadi. Sharqda Shvetsiya (chegara uzunligi — 1619 km), shimoli sharqda Finlandiya (729 km) va Rossiya bilan (167 km) chegaradosh. Norvegiya g'arbda Atlantika okeani, shimolda Barents dengizi, janubda Shimoliy dengiz va Skagerrok bo'g'ozi bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiyligi uzunligi 2515 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 21925 km (yirik va ko'p sonli mayda orollar bilan qo'shib hisoblaga). Norvegiya hududining katta qismini Skandinav tog'lari egallagan. Eng yuqori nuqtasi — Galaxyopiggen tog'i (2469 m). Baland yassitog'lar (feldlar) va tik tog'lardan keyin hosildor daryo vodiylari boshlanadi. Sohil chizig'i fordalar bilan bo'lingan. Mamlakat shimalida arktik tundra zonasida joylashgan. Asosiy daryolari — Logen, Begna, Gloma. Mamlakatda juda ko'plab ko'llar bor. Norvegiya neft, tabiiy gaz, temir rudasi, mis, nikel kabi foydali qazilma konlariga va muhim tabiiy resurslardan baliq, yog'och, gidroenergetik potensialga ega.

Iqlimi — mo'tadil okean iqlimi, chekka shimalida esa subarktik iqlim. Norvegiyaning o'simlik dunyosida asosan tog'li hududlardagi ninabargli o'rmonlar ustunlik qiladi. O'rmonlar Norvegiya hududining 23% ini egallagan bo'lib, asosan archa, qarag'ay, oq qayin daraxtlari ko'proq uchraydi. Chekka janubiy hududlarida esa uncha katta bo'lмаган buk va dub o'rmonlari uchraydi. Skandinaviya tog'larida ninabargli o'rmonlar janubda 1100 m dan, shimolda 300 m gacha balandlikda joylashgan. Norvegiya jonivorlari orasida o'rmon va tundra turlari ko'pchilikni tashkil qiladi. O'rmonlarda bug'u, kiyik, bo'rsiq, suvsar, laska, qunduz, silovsin, olmaxonni uchratish mumkin. Tundrada esa shimal bug'usi, oq va ko'k tundra tulkisi, quyon, shuningdek,

Norvegiya sichqoni deb ataluvchi lemminglar keng tarqalgan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. 19 ta provinsiyadan tashqari Norvegiya tarkibida Buve, Yan-Mayen, Shpitsbergen orollari kabi qaram hududlar ham bor. Norvegiya 1905-yil 26-oktabrda Shvetsiyadan mustaqillik olgan. Milliy bayrami — 17-may Konstitutsiya kuni (1814). Davlat boshlig'i — Monarx (qirol Xorold V mamlakatni 1991-yil 17-yanvardan buyon idora qilib kelmoqda, taxt vorisi — shahzoda Xaakon Magnus 1973-yil 20-iyulda tug'ilgan). Ijroiya hokimiyat Davlat Kengashi (kabinet)ning boshlig'i bo'lgan premyer-ministrga tegishli. Oliy qonun chiqaruvchi organ — ikki palatali parlament (storting). Yirik siyosiy partiyalari: Norveg ishchi partiyasi, Taraqqiyot partiyasi, Markaz partiyasi, Venstre partiyasi, Xristian xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Har xil tabiiy resurslarga boy bo'lgan Norvegiya iqtisodiyoti erkin tadbirkorlik va hukumat nazorati ostida rivojlanadi. Sanoatining muhim tarmoqlari: neft va gaz, bundan tashqari, oziq-ovqat ishlab chiqarish, selluloza-qog'oz, metallurgiya, kimyo, yog'ochni qayta ishlash, kemasozlik ham yaxshi rivojlangan. Norvegiya dunyoning juda ko'plab mamlakatlariga baliq va baliq mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik davlatlar qatoriga kiradi. Qishloq xo'jaligida (YMM 3%) bosh sektor chorvachilik hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining yarmidan ko'prog'i chetdan keltiriladi. 2004-yil YIM miqdori 183000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 40000 dol.) tashkil etgan.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 4026 km, avtomobil yo'llari — 88922 km (61356 km qattiq qoplamali yo'llar), ichki suv yo'llari — 1577 km. Mamlakatning asosiy portlari: Bergen, Kristiansann, Oslo, Tronxeym.

**Tarixi.** Qadimda Norvegiya hududida german qabilalari joylashishgan. V asrda bu hududda gotlarning dastlabki davlati vujudga keldi. VIII asr oxiri — XI asr o'rtaorigacha norveglar vikinglarning harbiy yurishlari-

da qatnashishdi. IX asr oxiri — X asr boshlarida konung Xarald I Xarfager hukmronligi ostida mamlakatning siyosiy birlashuvi jarayoni boshlanib, shu vaqtning o'zida xristianlik qabul qilindi. 1262—1264-yillarda Islandiya Norvegiya mulkiga aylandi. 1397-yildan boshlab Kalmar uniyasiga ko'ra Norvegiya Daniya hukmronligi ostiga tushib qoldi. 1814-yili Kil shartnomasiga muvofiq Norvegiya Shvetsiya boshqaruvi ostiga o'tdi, biroq norveg xalqining milliy o'zligini anglash jarayonining o'sishi Shvetsiya bilan ittifoqning buzilishiga va 1905-yili mustaqil Norvegiya qirolligining tuzilishiga olib keldi. I jahon urushi yillarida Norvegiya o'z neytralitetini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi, biroq 1940-yili mamlakat nemis qo'shnulari tomonidan bosib olindi. Hukumat Londonga qochdi. 1945-yil 8-may kuni Norvegiya fashistlardan ozod qilindi. 1949-yili uning NATO va 1952-yili Shimoliy Kengashga kirishi Norvegiya hayotidagi muhim voqealardan bo'ldi. 1994-yilda mamlakat aholisi umumxalq referendumi natalalariga ko'ra Yevropa Ittifoqiga kirishga qarshi ovoz berdi.

## OZARBAYJON

*Rasmiy nomi — Ozarbayjon Respublikasi. Poytaxti — Boku. Hududi — 86600 km<sup>2</sup>. Aholisi 8100000 kishi (2003). Davlat tili — ozarbayjon. Dini — musulmonlar (88%), pravoslavljar (12%). Pul birligi — Ozarbayjon manati.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Ozarbayjon Janubi G'arbiy Osiyoda, Kavkazortida, Kaspiy dengizi sohillarida joylashgan. Shimolda Rossiya, shimoli g'arbda Gruziya, janub va janubiy g'arbda Armaniston bilan chegaradosh. Sharqda Ozarbayjon Kaspiy dengizi bilan tutashgan. Mamlakat hududining 50% i tog'lardan iborat. Shimolda Katta Kavkaz, janubda — Kichik Kavkaz, ular oralig'ida Kura vodiysi joylashgan. Janubi sharqda Tolish tog'lari, janubda O'rta Araks cho'kmasi va uning shimoliy chekkasi Daralagez va Zangezur

tizmalari yastanib yotadi. Mamlakat hududi joylashgan Tolish tog'larining balandligi 2477 m ga yetadi. Sheki-Shemaxa hududlari hamda Araks vodiysi seysmik faol hududlar hisoblanadi.

Iqlimi — subtropik. Mamlakatda 1250 ga yaqin daryo bor. Ulardan yirigi — Kura. Ozarbayjonda 250 ga yaqin ko'l mavjud bo'lib, ulardan eng yiriklari Berkshor va Xoqiqabul ko'llari. Asosiy qazilma boyliklari — neft, tabiiy gaz, temir, alyuminiy, mis, qimmatbaho metallar. Ozarbayjon o'simlik dunyosi o'ta rang-barang. Tog'li hududlari butazor va o'rmonzorlar bilan qoplangan.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 67 ta ma'muriy hudud va Naxichevan Muxtor Respublikasidan tashkil topgan. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organi bir palatali parlament — Milliy Majlis. Asosiy siyosiy partiyalari: Ozarbayjon Xalq Fronti (OXF), Yangi Ozarbayjon, Ozarbayjon Kommunistik Partiyasi (OKP), Musulmon Demokratik Partiya (MDP), Islom ittifoqi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sanoatining asosiy sohalari: neft qazib olish va uni qayta ishlash. Bundan tashqari, kimyo, mashinasozlik va qora metallurgiya ham yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligining asosiy ekinlari: bug'doy, sholi, paxta va tamaki. Bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan. Anor, xurmo, anjir va sitrus mevalar yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Chorvachilik asosan qoramol va qo'ylarni bo-qishga ixtisoslashgan. Ipakchilik qadimiy sohalardan hisoblanadi. Eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, rangli metall, paxta. Import mahsulotlari: mashina va ehtiyyot qismlar, oziq-ovqat, sanoat xomashyosi. 2004-yil YIM miqdori 30010 mln dollarni (aholi jon bo-shiga — 3800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Rossiya va MDH davlatlari, Eron, Turkiya.

**Tarixi.** M. a. VI—II asrlarda Ozarbayjonning asosiy qismida Kavkaz Albaniyasi davlati mavjud bo'lgan. III—IX asrlarda bu hududlar forslar va Arab xalifaligi hukumronligi ostida bo'lgan. Bugungi Ozarbayjon xalqi XI—XIII asrlarda shakllangan. XIII—XIV asrlarda

mo'g'ullar tomonidan bosib olingan. Keyinchalik Amir Temur davlati tarkibiga kirgan. XVIII asrga kelib Eronga tobe bo'lган 15 ta davlatchaga bo'linib ketgan. 1922-yildan 1991-yilgacha Ozarbayjon Sovet davlati tarkibida bo'ldi. 1991-yil o'z mustaqilligini e'lon qildi.

## PALAU

*Rasmiy nomi — Palau Respublikasi. Poytaxti — Koror. Hududi — 508 km<sup>2</sup>. Aholisi — 20300 kishi (2005). Davlat tili — ingliz, (bundan tashqari mahalliy tillardan — chamorro, belau, karolina). Dini — xristian (katoliklar — 40%, protestantlar — 20%). Pul birligi — AQSH dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Karolin orollari guruhidagi Palau arxipelagida joylashgan Okeaniya davlati. Mamlakat hududi o'z ichiga 200 ga yaqin orolni qamrab oladi, ular orasida marjon va vulqonlar natijasida vujudga kelgan tog'li orollar ham mavjud. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 1519 km. Orollarda fosforitlar, oltin kabi qazılma boyliklar bilan bir qatorda yog'och va dengiz mahsulotlari kabi tabiiy resurslar ham mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat tarkibiga 16 ta shtat kiradi. Mamlakat mustaqillikni 1994-yil 1-oktabrda qo'lga kiritgan (ilgari — BMT homiyligidagi hudud, AQSH boshqaruvi ostida). Milliy bayrami 9-iyul — Konstitutsiya kuni. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Oliy qonun chiqaruvchi organi — ikki palatali parlament: Milliy Kongress (Senat) va Deputatlar palatasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodi asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda baliqchilikka asoslangan. Turizmning rivojlanmaganligining asosiy sababi, mamlakatning yiroqda joylashganligi va uning taraqqiy etishi uchun zarur bo'lган infrastrukturaning yo'qligidadir. 2004-yil YIM miqdori 182700 mln dollarni (aholi jon boshiga — 9000 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Yaponiya. Avtomobil yo'llari uzunligi — 223 km. Port shahri — Koror.

**Tarixi.** Karolin orollari XVII asrda ispanlar tomonidan ochilgan. 1899-yilda ispanlar mustamlakasi Germaniyaga sotib yuborilgan. 1919-yildan to 1945-yilning oxirlarigacha orollar Yaponiya boshqaruvi ostida bo'lgan. 1947-yilda zamонави Palau boshqa Karolin orollari bilan bir qatorda BMT homiyligidagi Tinch okean orollari tarkibiga qo'shilib, umumiy boshqaruv esa AQSH tomonidan amalga oshirilgan. Mustaqil Palau davlati 1994-yilda tashkil topdi.

## PANAMA

*Rasmiy nomi — Panama Respublikasi. Poytaxti — Panama. Hududi — 77100 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2960800 kishi (2003). Davlat tili — ispan (ingiz tili ham keng tarqalgan). Dini — katoliklar 90%, protestantlar — 6% ga yaqin. Pul birligi — balboa.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Markaziy Amerikadagi davlat. G'arbda Kosta-Rika (chegara uzunligi — 330 km), sharqda — Kolumbiya (225 km) davlatlari bilan chegaradosh. Mamlakatning janubiy qirg'oqlari Tinch okean, shimoliy qirg'oqlari esa Karib dengizi bilan tutashgan. Quruqlikdagi chegara chizig'inining umumiy uzunligi — 555 km, qirg'oq bo'ylab chegara uzunligi esa 2490 km. Mamlakat hududining teng yarmini tog'liklar egallagan. Faol Baru vulqoni (3475 m) Panamaning eng yuqori nuqtasi hisoblanadi. Qirg'oq hududlari asosan pasttekislik va tepaliklardan iborat. Mamlakat seysmik beqaror hududda joylashgan, vulqon portlashlari va zilzilalar tez-tez bo'lib turadi. Eng katta ko'li — Bayano. Asosiy boyliklari — mis, qizil daraxt, krivetkalar.

Iqlimi — tropik. O'simlik dunyosida banaut daraxti, tropik o'rmon daraxtlari hamda Panama ko'rki hisoblangan orxideyalar keng tarqalgan. Hayvonot olami

rang-barang kapalaklar (turlari soni 1100 ga yaqin), gigant kapalaklarining besh turi (qanot uzunligi 15 sm ga yetadi), bundan tashqari o'rmonlarida yaguar, puma kabi yirtqich hayvonlar mavjud. Qushlarning 850 turi, ilon, chayon, o'rgimchaklar va turli hasharotlar keng tarqalgan. Tog'li o'rmon hududlarida kiyiklar ham mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — Prezident Respublikasi. Mamlakat 9 ta provinsiyadan iborat. Panama 1903-yil 3-noyabrda o'z mustaqilligini e'lon qilgan (ilgari Kolumbiya tarkibida edi), shu sana uning milliy Mustaqillik kuni bayramiga aylandi. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali — Qonunchilik Assambleyasidan iborat. Yirik siyosiy partiyalari — Demokratik muxolifatchilar Assambleyasi bloki, Arnulfist partiyasi, Leyboristlar partiyasi, Liberal-republikachilar partiyasi, Panama xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sanoatda va qishloq xo'jaligidagi o'sish deyarli sezilmayotgan bir vaqtida mamlakat iqtisodida bank sektorining faol rivojlanishi sezilmoqda. Sanoat asosan qishloq xo'jalik mahsulotlariga ishlov berish va qayta ishlash bilan bog'liq, boshqa sohalardan — neft tozalash va qurilish ancha taraqqiy etgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari YMMning 12% ini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligidagi sholi, banan, donli o'simliklar, qahva, shakarqamish yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 20570 mln dollarni (aholi jon boshiga 6900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — AQSH, Markaziy Amerika davlatlari, Yaponiya, YH mamlakatlari.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 238 km, avtomobil yo'llari — 8530 km, ichki SUV yo'llari uzunligi — 800 km (shundan 82 km Panama kanaliga tegishli, ushbu kanal Tinch okeanni Atlantika okeani bilan bog'lab turadi). Asosiy portlari — Kolon, Kristobal, Panama.

**Tarixi.** 1502-yilda ispanlar tomonidan ochilgan Panama 1510-yilda Ispaniya mustamlakasiga aylandi. 1513-yilda Panama bo'ynini kesib o'tib, Tinch okean

qirg'oqlariga birinchi bo'lib yevropalik Balbao yetib bordi. Hozirgi Panama Peru vitse-qirolligi, Yangi Grenada, 1821-yilda ispan hukmronligidan ozod bo'lganidan so'ng Buyuk Kolumbiya tarkibiga kiradi. 1903-yilda Panama o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1904-yilda Panama va AQSH o'rtasida Panama kanalining katta qismini AQSHga topshirish to'g'risida shartnoma imzolandi. 1965-yilda yangi shartnoma imzolanib, unga ko'ra AQSH Panamaning Panama kanali ustidan suveren nazoratini tan oldi. 1968-yilda general O. Torrixos tomonidan o'rnatilgan harbiy tuzum 16 yildan so'ng, 1984-yilda fuqarolik hukumati qo'liga o'tdi. 1988-yildan buyon AQSH hukumati tomonidan narkotik moddalar savdo-sotig'ida ayblanayotgan general Norega davlat to'ntarishini amalga oshirdi. Biroq Panamaga AQSH qo'shinlari kiritildi va 1990-yilning yanvarida Norega ularga taslim bo'ldi.

## PAPUA — YANGI GVINEYA

*Rasmiy nomi — Papua — Yangi Gvineya mustaqil davlati. Poytaxti — Port-Morsbi. Hududi — 462840 km<sup>2</sup>. Aholisi — 5000000 kishi (2001). Davlat tili — ingliz, papuas va melaneziya tili oilasiga kiradigan 700 dan ortiq mahalliy tillar mavjud. Dini — protestantlik, aholining 22% i katoliklar. Pul birligi — kinaa.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Tinch okeanning janubi g'arbida Yangi Gvineya orolining sharqiy qismini, shu bilan birga Bugenvil va Buka (Solomon) orollari hamda Puiziada va Bismark arxipelagi orollaridagi davlat. Yangi Gvineya orolining g'arbiy qismini egallagan. Indoneziya bilan chegaradosh. Papuya — Yangi Gvineya qirg'oqlarini sharqdan Solomon dengizi, janubdan — Korall dengizi, Torres bo'g'izi va Papuya ko'rfazi, shimolda — Bismark dengizi suvlari yuvib turadi. Chegara chizig'inining umumiyligi 820 km, qirg'oq chizig'i uzunligi 5152 km. Mamlakat hududida asosan qirg'oqoldi tekisliklari va tog'lar bilan birga tog'-

oldi pasttekisliklaridan iborat. Mamlakat yer osti boyliklariga boy bular oltin, kumush, mis, tabiiy gaz, boshqa tabiiy resurslardan — yog'och (hududning 71%i o'rmonlardan iborat) mavjud.

Iqlimi — nam subekvatorial. O'simlik dunyosi juda boy, bu yerda o'simliklarning 6872 turi mavjud. Hayvonot dunyosi xaltali hayvonlardan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya, Britan Hamdo'stligi a'zosi. Mamlakat 19 provinsiya va 1 poytaxt okrugi-dan iborat. Papua — Yangi Gvineya 1975-yil 16-sentabrda davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan bo'lib (ilgari BMT homiyligidagi Avstraliya umumiyligi boshqaruviga ostida bo'lgan), shu kun uning milliy bayrami sifatida nishonlanadi. Qonunchilik ingliz umumiyligi huquqiga asoslangan. Davlat boshlig'i ingliz monarxlari (qirolicha Yelizaveta) tomonidan tayinlanadigan general-gubernator tomonidan hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyat hukumat boshlig'i bo'lgan premyer-ministriga tegishli. Oliy qonun chiqaruvchi organ Milliy parlament. 20 ta siyosiy partiyalari ichida eng yiriklari: Milliy demokratik harakat, Xalq partiyasi, Milliy progressiv partiya, Langu pati, Birlashgan partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat tabiiy resurslarga boy, biroq ulardan foydalananish hududining murakkab relyefga egaligi va zarur infrastrukturaning shakllanmaganligi sababli deyarli taraqqiy etmagan. Sanoat asosan oltin, kumush va mis qazib olish va palma yog'ini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Unumdor yerlar va qulay iqlim qishloq xo'jaligining rivojlanishi uchun yaxshi omil hisoblanadi. Papua — Yangi Gvineya qahva, kakao, palma yog'i, kokos yong'oqlari, kauchuk, choy kabi qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiladi. 2004-yil YIM miqdori 11900 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Yaponiya, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya.

Avtomobil yo'llarining umumiyligi — 19200 km, ichki suv yo'llari — 10940 km. Portlari: Laye, Port-Morsbi.

**Tarixi.** Yangi Gvineya oroli 1526-yilda portugaliyaliklar tomonidan ochilgan bo'lib, o'z nomini mahalliy aholi afrikaliklar bilan o'xhash bo'lganligi uchun olgan. 1828-yilda Gollandiya orolning g'arbiy qismini (1962-yilda Indoneziyaga o'tib ketgan) o'z mulki deb e'lon qildi. Orolning sharqiy qismi Papua (hozirgi Papua — Gvineya hududi), 1885-yilda ikkiga bo'lingan bo'lib, shimoli sharqiy qismi nemis protektorati, janubi — sharqiy qismi esa Avstraliya tomonidan qo'shib olingan hududlardan iborat edi.

Ikkinci Jahon urushi boshlarida Avstraliya nemis protektoratini bosib oldi va 1921-yili Millatlar Ligasi tomonidan unga sharqiy Yangi Gvineyani boshqarish uchun mandat berildi. 1973-yilda o'z-o'zini boshqarish huquqini qo'lga kiritgan mamlakat Britaniya Hamdo'stligida a'zoligini saqlagan holda 16-sentabr 1975-yilda mustaqil Papua — Yangi Gvineya davlatiga aylandi.

## PARGVAY

*Rasmiy nomi — Paragvay Respublikasi.  
Poytaxti — Asunson. Hududi — 406752 km.  
Aholisi — 6036900 kishi (2003). Davlat tili —  
ispans. Dini — katoliklar (90%), protestantlar  
(5%). Pul birligi — guarani.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Janubiy Amerikaning markaziy qismidagi davlat. Janubda va janubi g'arbda Argentina (chegara uzunligi 1880 km), shimolda va shimoli g'arbda Boliviya (1290 km) davlatlari bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiy uzunligi — 3920 km. Mamlakat hududi asosan tekisliklardan iborat. Asosiy daryosi Paragvay mamlakatni ikki qismga ajratib turadi. Sharqiy hududlari o'rmonzor tepaliklardan iborat. Brazil tekis tog'liklari turkumiga kiradi. Gran-Chano viloyati asosan past botqoq daryo tekisliklaridan iborat. Asosiy tabiiy boyliklari: temir rudasi, marganets, ohaktosh, yog'och. Ishlov beriladigan yerlar mamlakat huding 20% ini, yaylov va o'tloqlar — 39% ini, o'rmonlar va dashtzorlar — 35% ini tashkil etadi.

Iqlimi — tropik. Paragvayning doimiy yashil o'rmonlari va dashtzorlarida daraukariya, yerbya kabi daraxtlar o'sadi. G'arbda palma o'rmonzorlari keng tarqalgan. Yovvoyi apelsin daraxtlari ham ko'plab uchraydi, hayvonot dunyosi juda boy, bu yerda puma, yaguar, bo'ri, botqoq bug'usi, chumolixo'r, sub svinnasi va hokazolar bor.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. 19 departamentdan tashkil topgan. Paragvay 1811-yil 14-mayda mustaqillikka erishgan (ilgari Ispaniyaga qarashli hududlar bo'lган). Davlat va hukumat boshlig'i prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni ikki palatali (Senat va Deputatlar palatasi) Bosh Assambleya amalga oshiradi. Eng yirik siyosiy partiyalari: Milliy respublika Assambleyasi, Kolorado partiyasi, Haqiqiy liberal-radikal partiya, Inqilobiy leyboristik partiya.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Ishga yaroqli aholining yarmi band bo'lган qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik mamlakat eksportining katta qismini ta'minlaydi. Asosiy eksport mahsulotlari — paxta, qahva, shakarqamish, chorvachilik ham rivojlangan. Sanoat asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini va yog'ochni qayta ishlashga asoslangan. Paragvay yirik gidroenergetik salohiyatga ega. XX asrning 90-yillari boshlarida Paragvayning Argentina, Braziliya va Uruguaylarni o'z ichiga olgan Umumiy bozorming janubiy bo'limiga qo'shilishi regiondagi iqtisodiy faoliyating oshishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. 2004-yil YIM miqdori 29930 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Braziliya, YH, AQSH, Argentina.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 1,3 km, avtomobil yo'llari 11,3 km, ichki SUV yo'llari — 3100 km. Asosiy port — Asunson.

***Tarixi.*** Guarani hindu qabilalari yashovchi Paragvay hududi 1515-yilda Dias de Soli tomonidan kashf qilingan edi. 1525-yili Diego Garsia tomonidan mamlakat o'r ganilgandan so'ng Paragvay, Peru vitse-qirolligi tarkibiga kirgan ispan mustamlakasiga aylandi.

1610-yilda Ispaniyadan kelgan iyezuitlar 1767-yilga qadar mavjud bo'lgan o'ziga xos davlat ichidagi davlatni tashkil qilishdi. 1811-yilda Paragvay ispan mustamlakachilariga qarshi kurashda g'alaba qozonib, mustaqillikka erishdi. Mamlakat prezidenti Salono Lopes 1865-yilda Paragvayni Argentina, Braziliya va Urugvayga qarshi qonli urushga tortdi. Buning oqibatida Urugvay o'z hududlarining katta qismidan mahrum bo'ldi. 1928-yilda Chano provinsiyasida neft konlarining ochilishi Boliviya davlati bilan 1950-yilgacha davom etgan harbiy to'qnashuvga sabab bo'ldi. 1954-yilda Paragvayda general Stressnerning harbiy diktaturasi o'rnatildi. 1989-yildagi davlat to'ntarishi oqibatida general Stressner general Bodrij tomonidan ag'darilib, hokimiyat fuqarolik hukumati qo'liga topshirildi.

## PERU

*Rasmiy nomi – Peru Respublikasi. Poytaxti – Lima. Hududi – 1285215 km<sup>2</sup>. Aholisi – 28409900 kishi (2003). Davlat tili – ispan, kechua va aymara. Dini – katolik. Pul birligi – nuevo sol.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Janubiy Amerika kontinentining g'arbiy qismida joylashgan davlat. Shimolda Kolumbiya (chevara uzunligi – 2900 km) va Ekvador (1420 km), sharqda Braziliya (1506 km) va Boliviya (900 km), Janubda Chili (160 km) davlatlari bilan chegaradosh. G'arbda mamlakat qirg'oqlari Tinch okean bilan tutashgan. Chegaralarining umumiyligi 6940 km, qirg'oq bo'ylab chevara uzunligi – 2414 km. Mamlakat hududi ravshan aks ettirilgan uch topografik hududdan tashkil topgan. Sharqiy qismi yaxshi o'rganilmagan. Amazonka havzasida pastlik o'rmonzorlari yastanib yotibdi. Peru markazida baland tog' tizmalaridan iborat And tog'lari joylashgan bo'lib, uning asosiy tog' zanjirlari: G'arbiy Kordilyera, Markaziy Kordilyera va Sharqi Kordilyera-dir. Mamlakatning va And tog'larining eng yuqori nuq-

tasi — Oq Kordilyerada joylashgan Uaskaran (6768 km) tog'i. Peru Andlarining janubida vulqonlar ham mavjud. Ularning eng balandi — Misti (5822 km) vulqonidir. Eng yirik ko'li qisman Peruga qarashli bo'lgan Titikakadir. Mamlakatning asosiy daryosi Amazonka va uning Maranon, Putumaylo, Upayali irmoqlari. Peru boy yer osti qazilmalariga ega, ulardan: mis, tilla, kumush, neft, temir rudasi qazib olinadi; boshqa tabiiy resurslardan yog'och, baliq ishlab chiqariladi va ovlanadi.

Iqlimi — o'ziga xos uch topografik hududga bo'linadi (Kosta, Serra, Selva). Kosta hududlari iqlimi nisbatan issiq va quruq. Serra, And tog' tizmalaridan tashkil topganligi sababli bu yerda doimiy past harorat hukm suradi. Selva nam va yil davomida issiqlikning teng taqsimlanganligi bilan tavsiflanadi. Hayvonot dunyosi: Serrada lamalar, Selva o'rmonlarida maymunlar, yirtqichlardan yaguar va atselotlar mavjud. Bundan tashqari, ko'pgina zaharli va bo'g'ma ilonlar mavjud bo'lib, ular ichida dunyodagi eng yirik ilon — anakonda ham bor.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 24 ta departamentga bo'lingan bo'lib, bundan tashqari uning tarkibiga bitta konstitutsiyaviy provinsiya kiradi. Peru 1821-yil 28-iyulda mustaqillikka erishdi. Ilgari Ispaniya mustam-lakasi. Milliy bayrami mustaqillik kuni. Konstitutsiyaning amal qilishi 1992-yil 5-aprelda to'xtatildi. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va Ministrler Kengashi boshlig'i premyer-ministr qo'lida jamlangan. Oliy Qonunchilik organi — Kongress (ikki palatali parlament) 1992-yil 5-aprelda targatib yuborilgan. Yirik siyosiy partiyalari: «Yangi ko'pchilik» — O'zgarish 90, Xristian demokratik partiya; Xalq harakati.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Bank ishi, energetika va tog'-kon sanoatida davlat ulushi yirik, biroq mamlakat iqtisodi ko'proq bozor munosabatlariiga moslashtirilib bormoqda. 2004-yil YIM miqdori 155300 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5600 dol.) tashkil etgan. Asosiy sanoat tarmoqlari qazib

olvchi neft va neft mahsulotlari, qo'rg'oshin, rux, tozalangan kumush (Peru kumush qazib olish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi), mis — asosiy eksport mahsulotlari, bundan tashqari avtomobilsozlik va kemasozlik sanoatlari rivojlangan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Yaponiya, Kolumbiya, Argentina.

Temiryo'llarining umumiyligi — 1801 km, avtomobil yo'llari uzunligi — 69,942 km, ichki suv yo'llari 8800 km ga yaqin. Mamlakatning asosiy portlari — Kalyao, Talara, San-Nikolas, Chimbote.

**Tarixi.** Zamona viy Peru hududi 1531—1536-yillarda Pisarro boshchiligidagi ispan konkistadorlari tomonidan bosib olingan inklar imperiyasi markazi edi. 1543-yilda Janubiy Amerikadagi barcha ispan mustamlakalarini o'z ichiga olgan Peru vitse-qirolligi tashkil etildi. 1821-yilgi milliy-ozodlik harakatlari mustaqillik e'lon qilinishiga olib kelgan, biroq 1825-yilda mustaqil Boliviya davlati nomini olgan mamlakatning yuqori qismi ajralib chiqdi. Tinch okean urushlari (1879—1883) oqibatida Boliviya va Chiliga qarshi urushgan Peru o'z hududining selitra konlari joylashgan qismini boy berdi. 1990-yilda Peru prezidenti etib saylangan, yapon oilasidan chiqqan A. Fukimori mamlakatga qat'iy iqtisod tizimini kiritib, 1992-yilda parlamentni tarqatib yubordi va Konstitutsianing amal qilishini to'xtatdi. 1998-yilda Ekvador bilan chegara muammo-lari hal etildi.

## POKISTON

*Rasmiy nomi — Pokiston Islom Respublikasi. Poytaxti — Islomobod. Hududi — 796095 km<sup>2</sup>. Aholisi — 150694700 kishi (2003). Davlat tili — urdu va ingliz. Dini — islom. Pul birligi — Pokiston rupiyasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Janubiy Osiyodagi davlat. Sharqda, shimoli sharqda va janubi sharqda Hindiston (chevara uzunligi 2,912 km), shimalda Afg'oniston (2430 km), g'arbda Eron (909 km)

davlatlari bilan chegaradosh. Mamlakatning janubiy qismi Arabiston dengizi bilan tutashib ketgan. Quruqlikdagi chegaralarining umumiyligi — 6251 km, qirg‘oq chizig‘i uzunligi — 1046 km. Pokiston Hindistonning Jammu va Kashmir viloyatlari xususida qo‘shni davlat Hindiston bilan kurash olib bormoqda. Sharqda va janubi sharqda Hind daryosi havzasining tekisliklari joylashgan. Shimolda va shimoli g‘arbda Himolay tog‘i tik qoyalari hamda balandligi 7690 m bo‘lgan Hindiquush tog‘ tizmasi yastanib yotibdi. Mamlakatning g‘arbiy qismini Sulaymon, Tabakakar, Makron, Kirtxor tog‘ tizmalari bilan Belujiston yassi-tog‘ligi egallagan. Asosiy daryosi Hind va uning irmoqlari. Pokiston tabiiy gazning salmoqli zaxiralariga ega bo‘lib, foydali qazilmalardan mis, neft, ko‘mir, temir rudasi ham qazib olinadi.

Iqlimi — musson, mamlakat hududining katta qismida tropik-kontinental. O‘simpliklar dunyosi bir-muncha boy hisoblanadi. Hayvonot dunyosida yirik sut emizuvchi hayvonlar ko‘p emas. Tabiat uchun yovvoyi tog‘ echkilari, to‘ng‘izlar va yovvoyi qo‘ylar hamda tekisliklarda yovvoyi eshaklar (xachirlar) xos. Maymunlar ko‘p, sirtlonlar ham uchrab turadi, bundan tashqari belujiston tulkisi, qashqirlar va shoqollar keng tarqalgan. Qushlardan — burgut, tustovuq, to‘tilar ham ko‘p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat tarkibiga 4 ta provinsiya (Belujiston, Shimoli g‘arbiy Chegara, Panjob, Sindx), qabilalar hududi va poytaxt Federal hududi kiradi. Pokiston boshqaruvidagi Jammu va Kashmir nizoli hududlari o‘z ichiga Ozod Kashmir hamda Shimoliy maydonlarini qamrab oladi. 1947-yil 14-avgustda Pokiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritdi (ilgari ingliz mustamlakasi — G‘arbiy Pokiston). Milliy bayramlari: 14-avgust — Mustaqillik kuni va 23-mart — Pokiston kuni. Ijro etuvchi hokimiyat prezidentga (davlat boshlig‘i) va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishlidir. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — prezident, ikki palatali parlament (Senat va Milliy Assambleya) tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy par-

tiyalari: Pokiston musulmon ligasi, Jamoat-ul-Islomiya, Pokiston xalq partiyasi, Milliy xalq partiyaları, Pokiston sotsialistik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Pokiston so'nggi yillarda iqtisodni liberallashtirish, bir qator davlat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarishni o'z ichiga kiritgan dasturni amalga oshirib kelmoqda. Hukumatning sa'y-harakatlari chet el hamda ichki investitsiyalar salmog'ini oshirishga qaratilgan. Ishlab chiqarish tarmog'ida asosan to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoatlari yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligining asosiy mahsulotlari paxta, sholi (asosiy eksport mahsulotlari), bug'doy, qandlavlagi, meva va poliz ekinlari mahsulotlari. Chorvachilik ham rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 347300 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Yaponiya, Gonkong, Germaniya, Buyuk Britaniya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 8773 km, avtomobil yo'llari — 101315 km, port shaharlari — Gvadar, Karachi.

**Tarixi.** Zamonaviy Pokiston hududida m. a. 3—2-ming yilliklarda dunyodagi eng qadimgilardan biri hisoblangan Xarapp sivilizatsiyasi mavjud bo'lgan. M. a. 1500-yilda Hind sivilizatsiyasini tashkil qilgan oriy qabilalari, mamlakatning forslar tomonidan bosib olinguniga qadar bo'lgan Pokiston tarixi hamda m. a. VI asrgacha bo'lgan Hindiston tarixi bilan chambarchas bog'liqidir. M. a. IV asrda Pokiston Buyuk Aleksandr (Iskandar Zulqarnayn) imperiyasi tarkibiga kirgan. Zamonaviy Pokiston hududida islom dini VIII asrda tarqala boshladi. Temuriylar, Bobur Mirzo va uning avlodlari (1526—1857-yy.) davrida esa shimoliy Hindistonning musulmon hukmdorlari boshqaruvi hind knyazliklarining katta qismiga tarqaldi. XIX asrda zamonaviy Hindiston hududi ingliz qo'shnulari tomonidan bosib olinib, Britan Hindistoni mustamlakasi tarkibiga kirdi. 1885-yilda hindlar tomonidan Hindiston Milliy Kongressini tashkil etish jarayoniga qo'yilmagan musulmonlar 1940-yilda avtonom musulmon davlatini tashkil etish talabi bilan

chiqqan va o‘zlarining Hind musulmonlari ligasini tashkil qilishgan. 1947-yilda Hindiston mustaqillikka erishgandan so‘ng Pokiston davlati shu yili tashkil etilib, 1956-yilda esa yangi qabul qilingan konstitutsiyasiga asosan Pokiston Islom Respublikasi deb e’lon qilindi. Pokiston va Hindiston o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlar boshlandi. 1965- va 1971-yillarda hind qurolli kuchlari Pokistonning sharqiy qismini ishg‘ol qilganidan so‘ng, 1974-yilda shu hududda mustaqil Bangladesh davlati tashkil etildi. Shu bilan birga Pokiston Hindiston bilan Jammu va Kashmir shtatlari xususida ham bahs olib bormoqda. 1977-yilda harbiy to‘ntarish oqibatida mamlakatda hokimiyat tepasiga general Ziyo ul-Haq keldi. Ziyo ul-Haq vafotidan so‘ng 1988-yilda Pokistonda erkin parlament saylovlari o‘tkazilib, ularda Benazir Bxutto boshchiligidagi Xalq Partiyasi g‘alaba qozondi. 1990-yilda mamlakat prezidenti Is’hoq Xon muddatidan ilgari parlament saylovlarini belgilab, unda Islom demokratik alyansi g‘alaba qozondi.

## POLSHA

*Rasmiy nomi — Polsha Respublikasi. Poytaxti — Varshava. Hududi — 312683 km<sup>2</sup>. Aholisi — 38622700 kishi (2003). Davlat tili — polyak. Dini — katolik. Pul birligi — zlotiy.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Markaziy Yevropa davlati. Janubda Chexiya (chegara uzunligi — 790 km) va Slovakiya (539 km), sharqda Ukraina (529 km), Belarus (416 km) va Litva (103 km), g‘arbda Germaniya (416 km), shimolda Rossiya (Kalininograd oblasti 210 km) davlatlari bilan chegaradosh. Shimolda mamlakat Boltiq dengizi bilan tutashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 3582 km, sohil bo‘ylab chegara uzunligi — 788 km. Mamlakat hududi asosan tekislikda joylashgan, mamlakatning 2/3 qismiga yaqini Polsha pasttekisligida yastanib yotibdi. Polsha shimolida Boltiq tizmasi joylashgan. Janubda va janubi sharqda Kichik-polyak va Lyublin tepaliklari yastanib yotadi. Janubiy

chevara bo'ylab Karpat va Sudet tog'lari cho'zilib ketgan. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi Risiy tog'i (2499 m). Asosiy daryolari — Visla va Oder. Mamlakat shimalida ko'llar ko'p. Polshada ko'mir, tabiiy gaz, mis, kumush va qo'rg'oshin konlari mavjud. Haydaladigan yerlar hududning 46% ini egallagan, o'rmon va dashtzorlar — 28%, o'tloq va yaylovlari — 13%.

Iqlimi — kontinental. O'simlik dunyosi — mamlakat hududining chorak qismi o'rmonlardan iborat. Polsha hududining 58000 hektarini egallagan Belovejsk Pushchasi o'rmoni, yovvoyi o'rmonlar florasini yaxshi saqlab qolgan o'ziga xos milliy qo'riqxona hisoblanadi. Hayvonot dunyosida yovvoyi to'ng'iz, bug'u, sirtlon, yovvoyi mushuk, kiyik va tog'li hududlarda qo'ng'ir ayiq, bo'ri kabi jonivorlarni uchratish mumkin. Belovejsk Pushchasida hayvonot dunyosining noyob namunasi bo'lgan zubrlar, ya'ni Yevropa bizoni saqlanib qolgan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. 1998-yilda Polshada ma'muriy boshqaruv qayta tuzilib, ilgarigi 49 ta voyevodalik o'miga 1999-yil 1-yanvardan boshlab mamlakat tarkibiga 16 ta voyevodalik kiritildi. Polsha mustaqil respublika sifatida 1918-yili 11-noyabrda e'lon qilindi. Milliy bayram — 3-may — Konstitutsiya kuni (1791). Ijro etuvchi hokimiyat prezidentga (davlat boshlig'i) va Ministrlar Kengashi rahbari premyer-ministriga tegishli. Oliy qonun chiqaruvchi organ — ikki palatali parlament (Milliy yig'in): yuqori palata (Senat) va quyi palata (Seym)dan tashkil topgan. Siyosiy partiyalari: Demokratik uniya, Xristian milliy birligi, Kelishuv markaz, Mustaqil Polsha konfederatsiyasi, Liberal demokratik kongress, Polsha dehqon partiyasi, Polsha respublikasi sotsial-demokratiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** XX asrning 90-yillarida iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi bozorni barqarorlashtirish, milliy valyutani mustahkamlash va davlat byudjeti defitsitini kamaytirish hamda tashqi qarzning o'sishini to'xtatish imkonini berdi. 2004-yil YIM miqdori 463000 mln dollarni (aholi jon

boshiga — 12000 dol.) tashkil etgan. Sanoat va qurilishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishildi. Sanoatning rivojlangan sohalari: mashinasozlik, kemasozlik, metallurgiya, kimyo, oziq-ovqat, to‘qimachilik. Ishlab chiqarish tizimining o‘zgartirilishi, modernizatsiya qilinishi va hukumat tomonidan ekologik dasturlarining bajarilishi, so‘nggi yillarda atrof-muhit ahvolining sezilarli yaxshilanishiga olib keldi. Qishloq xo‘jaligida xususiy sektor ustundir. Polsha javdar, bug‘doy, kartoshka, raps mahsulotlarining yirik yetishtiruvchilaridan biri. Chorvachilik ancha rivojlangan. Iqtisodiy jonlanish bandlik bozoridagi ahvolni birmuncha yaxshiladi, ammosizlar soni hali ham yuqori hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlari: Germaniya, Gollandiya, Italiya, Rossiya.

Temiryo‘llarinin umumiy uzunligi — 24313 km (11613 km elektrlashtirilgan). Avtomobil yo‘llari — 352802 km, ichki suv yo‘llari — 3997 km. Asosiy port shaharlari: Gdansk, Gdinya, Shchetsin.

**Tarixi.** V asrda zamonaviy Polsha hududiga g‘arbiy slavyan qabilalari (polyaklar, vislanlar, mozovshan, pomeranlar) kirib kelib, o‘troq hayot tarziga o‘tishdi. IX asrda Pyastlar dinastiyasi atrofida Polsha knyazlarining birlashuvi boshlandi. X asrda xristian dinini qabul qilgan va tarqatgan qirol Meshko I tomonidan polyak yerlari hududi kengaytirildi. Uning o‘g‘li Boleslav I Bogemiya, Moravyani hamda Sloveniya va Kiyev knyazligi yerlarining bir qismini bosib olgan, biroq uning hukmdorlik davridan so‘ng Polsha qirolligi inqirozga yuz tutib, bu tushkunlik XIV asr boshlari-gacha, Kazimir III Buyuk Polsha qirolligi qudratini tiklagunga qadar davom etdi.

1384-yildagi Polsha qirolichasi Yadviga va Litva buyuk knyazi Vladislav II Yagaylo o‘rtasida tuzilgan nikoh Polsha qiollarining yangi Yagaylolar sulolasiga asos soldi. 1410-yilda Gryunvald yonidagi jangda Tevton ritsarlarini tor-mor qilgan Polsha va Litva Buyuk knyazligi birlashgan qo‘sishlariga boshchilik qildi. 1569-yilda Polsha va Litva Buyuk knyazligini yagona davlat — Rech Pospolitaga birlashtirgan Litva uniyasini imzoladi. Iqtisodiy va ma’naviy o’sish davri-

dan so‘ng Polsha XVI—XVII asrlarda bir necha urushlarni (Rossiya, Shvetsiya, Turkiya bilan) boshdan kechirish bilan bir qatorda ichki ixtiloflarni ham bartaraf qilishga to‘g‘ri keldi va oqibatda davlat zaiflashib 1772-yilda Rossiya, Prussiya va Avstriya o‘rtasida bo‘lib olindi. Ikkinchisi (1793-yil) va uchinchi (1795-yil) bo‘linishdan so‘ng Polsha davlat sifatida barham topdi. 1807—1814-yil Napoleon Bonapart mamlakat hududining bir qismida Polshaning to‘rtinchi bo‘linishidan so‘ng (1815) Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilgan Varshava Buyuk Knyazligini tashkil etgan, nisbiy muxtoriyatdan foydalangan Krakov respublikasi esa Avstro-Vengriya imperiyasining bir qismiga aylandi. XIX asrda polyaklar bir necha marotaba qo‘zg‘olonga ko‘tarildilar (1830—1831, 1846, 1848, 1863, 1864), ammo ularning barchasi chor tuzumi tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Birinchi jahon urushi davrida Pilsudskiy tomonidan tashkil etilgan Polsha hududi Avstro-Vengriya tarafida Rossiya qo‘sishinlariga qarshi janglarda ishtirok etgan. 1916-yilda Germaniya va Avstriya bosib olingan zonalarning birlashgandan hamda Polshaning bo‘linishida ishtirok etgan barcha davlatlarning mag‘lubiyatga uchragandan so‘ng 1918-yilda Polsha mustaqilligi e’lon qilindi. 1919-yilning yanvarida esa Pilsudskiy boshchiligidagi mustaqil hukumat tashkil etildi. 1939-yil 1-sentabrda Polshaning g‘arbiy qismi nemis qo‘sishinlariga tomonidan bosib olinsada, sharqiy qismi Sovet ittifoqi tomonidan 1939-yil 17-sentabrda qo‘sib olingan. 1945-yil mamlakat ozod qilingandan so‘ng hokimiyat tepasiga ishchi partiyalarining «Demokratik blok»i keldi. 1947-yilda ular yagona ishchi partiyasiga birlashib, 40 yildan ziyod davr mobaynida Polshada hukmronlik qildi. 1990-yilda ilk erkin saylovlari o‘tkazildi. Unda Lex Valensa g‘olib chiqib mamlakat prezidenti bo‘ldi. U «Solidarnost» kasaba uyushmasi yetakchisi bo‘lib, 1980-yildan boshlab hukmron sinfga qarshi chiqqa boshlagan. 1995-yilda so‘l qanot partiyalari vakili Polshada demokratik islohotlar o‘tkazilishi taklifi bilan chiqdi. S. Kvasnevskiy davlat boshlig‘i etib saylandi. 2005-yilgi prezidetnlik saylovlariida L. Kachinskiy g‘olib chiqdi.

## PORTUGALIYA

*Rasmiy nomi — Portugaliya Respublikasi. Poytaxti — Lissabon. Hududi — 91985 km<sup>2</sup>. Aholisi — 10102000 kishi (2003). Davlat tili — portugal. Dini — katoliklar (97%), protestantlar. Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Pireney yarim-orolida joylashgan janubi g'arbiy Yevropadagi davlat. Atlantika okeanidagi Azor va Madera orollari ham Portugaliyaga tegishli hisoblanadi. Sharqda va shimolda Ispaniya bilan chegaradosh. G'arbda va janubda Atlantika okeani suvlari uning qirg'oqlarini yuvib turadi. Chegaralarining umumiy uzunligi — 1214 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 793 km. Portugaliyaning shimoliy va shimoli sharqiy qismi tog'lar bilan tugallangan. Asosiy tog' tizmasi Serra-de-Eshtrela. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Eshtrela (1551 m) tog'idir. Portugaliyaning markazi va janubida pasttog'liklar va tepaliklardan iborat Portugal pasttekisligi yastanib yotadi. Asosiy daryolari: Doru (Duxro), Teju (Taxo), Gvadiana. Qazilma boyliklardan temir rudasi, uran rudasi, volfram, bulardan tashqari tabiiy boyliklardan marmar, yog'och mavjud. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 32%, o'rmonlar va dashtlar 40% ini egallagan.

Iqlimiga Atlantika okeanining ta'siri kuchli. O'simlik dunyosi daraxtlarga boy, asosan yirik bargli va nina bargli daraxtlardan iborat. Hayvonlardan bo'ri, tulki va boshqalar uchraydi.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 22 okrugga bo'lingan. Portugaliya 1143-yilda mustaqillikka erishib, 1910-yili 5-oktabrda respublika deb e'lon qilindi. Milliy bayrami 10-iyun — Portugaliya kuni. Ijro etuvchi hokimiyat prezidentga (davlat boshlig'i) va premyer-ministriga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali Respublika Yig'ini tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda 18 ta siyosiy partiya ro'yxatga olingan, ularning eng yiriklari: Portugaliya sotsial-demokratik

partiyasi, Sotsialistik partiya, Portugaliya kommunistik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Portugaliya Yevropa Hamdo'stligiga a'zo bo'lib kirganidan buyon, so'nggi o'n yillikda kuchli iqtisodiy o'zgarishni boshdan kechirdi, biroq Yevropa Hamdo'stligi a'zolari ichida aholisining yashash darajasi hali ham past bo'lib qolmoqda. Sanoatning eng rivojlangan sohalari: metallga ishllov berish, kimyo, neftni qayta ishlash, to'qimachilik, baliqni konservalash, vinochilik. Turizmdan tushadigan mablag' davlat byudjetining katta qismini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida mehnatga yaroqli aholining 20% i band bo'lib, asosiy yetishtiriladigan mahsulotlar: donli ekinlar, kartoshka, uzum; chorvachilik ham rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 188700 mln dollarni (aholi jon boshiga — 17900 dol.) tashkil etgan. Savdo hamkorlari — YH mamlakatlari, AQSH.

Temiryo'llarining umumiyligi — 3613 km, avtomobil yo'llarining umumiyligi — 73661 km, ichki suv yo'llarining uzunligi — 820 km. Mamlakatning yirik portlari: Lissabon, Portu, Setubal.

**Tarixi.** Iberiyalik luzitan qabilalari yashagan zamонавији Portugaliya hududlari m. a. I asrda Rim imperiyasi tarkibiga kirgan. V—VII asrlarda qadimgi Rim imperiyasidan so'ng Luzitaniya, Provinsiya vandallar va vestgotlar bosqiniga duchor bo'ldi. 713—718-yillarda mamlakat arablar tomonidan bosib olindi. 1095-yilda tashkil topgan Portugaliya grafligi asta-sekinlik bilan mavrlar (arablar) bosib olgan hududlarni qayta ishg'ol qildi. 1493-yilda Alfonso I boshchiligidan mustaqil Portugaliya qirolligi tashkil topdi va arablarga qarshi kurash davom etdi. V asrda mamlakatda hokimiyat tepasiga Avishlar sulolasi kelgan davrda Portugaliya yirik dengiz flotiga ega bo'lган davlatga aylandi. XV asr oxirlari va XVI asr boshlarida portugaliyalik dengizchilar (Diash, Vasko da-Gama, Kabral va boshqalar) bir qator geografik kashfiyotlar qilishgan, ammo Portugaliya tom ma'nodagi Ispaniya va Buyuk Britaniya kabi imperiyaga aylana olmadi. XVI asrning ikkinchi yarmida Portugaliya monarxiyasi zaiflashib,

1580-yilda ispan hukmronligi ostiga tushib qoldi. 1840-yilgacha, ya'ni Remels tashabbusi bilan mamlakatdan ispanlar quvilib, qirol taxtiga Brogansa sulolasi asoschisi Juan VI o'tirguniga qadar, 1668-yilda Portugaliya yangidan mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Biroq, 1703-yilgi Angliya bilan tuzilgan shartnoma idora qilish ittifоq munosabatlarini o'rnatishni nazarda tutib, Portugaliya uning ta'sirida XX asrgacha yashadi. Napoleon urushlari davrida qirol sulolasi Portugaliyaning Braziyadagi koloniyalarining biriga qochib o'tib, u yerda Portugaliya fransuz qo'shinlaridan ozod qilinguniga qadar istiqomat qildilar. 1822-yilda monarch taxtga qaytganidan so'ng mamlakatning siyosiy hayoti beqaror bo'lib, qirol hokimiyati tarafдорлари va sentabrietlar (respublikachilar) o'rtasidagi doimiy kurash bilan tavsiflanadi. 1910-yilda Portugaliya Respublika deb e'lon qilindi, biroq 1932-yilda qat'iy avtoritar boshqaruviga asoslangan Estado Nabo (Yangi davlat) tuzumini e'lon qilgan Salazar diktaturasi o'rnatildi. 1968-yilda Salazar o'rniga kelgan M. Kaetanu ungacha mavjud bo'lgan siyosatini davom ettirdi, biroq 1974-yil 25-aprelda general Spinola boshchiligidagi bir guruh ofitserlar tomonidan ag'darildi. Shundan keyin mamlakatda muhim ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar roy berdi.

## PUERTO-RIKO

*Rasmiy nomi – Puerto-Riko Hamdo'stligi. Poytaxti – San-Xuan. Hududi – 9100 km<sup>2</sup>. Aholisi 3900000 kishi (2001). Davlat tili – ispan, ingliz. Dini – katoliklar (85%), protestantlar (10%), vudu. Pul birligi – AQSH dollari.*

**Geografik joylashkuvi va tabiatи.** Hamdo'stlik Puerto-Riko, Vekas, Kulebra, Mona va boshqa Katta Antil orollari arxipelagida, Shimoliy va Janubiy Amerika o'rtasida joylashgan. Shimolda Atlantika okeani, janubda Karib dengizi bilan tutashgan. Orollar tog'li hududlardan (eng baland cho'qqisi – 1338 m) iborat, zilzilalar bo'lib turadi.

Iqlimi — tropik, passatli. Orol shimolida aralash o'rmonzorlar, janubda — changalzorlar mavjud. Hayvonot olami ko'rshapalak, sudralib yuruvchilar, mollyuskalardangina iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — AQSHning ma'muriy-hududiy birligi. Davlat boshlig'i — AQSH prezidenti. Ma'muriy jihatdan Puerto-Riko 8 okrugga bo'linadi. Siyosiy partiyalari: Xalq demokratik partiyasi, Davlat respublika partiyasi, Yangi progressiv partiya, Puerto-Riko mustaqilligi partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyoti asosini qayta ishlash sanoati tashkil etadi. Yengil, oziq-ovqat, neftni qayta ishlash korxonalarini mavjud. Mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, turizm rivojlangan. Kema qatnoviga yaroqsiz tez oqar daryolari mavjud. Marganes va temir rudasi zaxiralariga ega. Yirik shaharlari: Bayamon, Ponse. 16 ta AQSH harbiy bazalari joylashgan. 2004-yil YIM miqdori 68950 mln dollarni (aholi jon boshiga — 17700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH (70% dan ortiq eksporti va 50% importi), Yaponiya, Venesuela, Dominikan Respublikasi.

**Tarixi.** 1493-yil 19-noabrda X. Kolumb tomonidan kashf qilingan va Ispaniya mulki deb e'lon qilingan. 1508-yili Kolumb tomonidan orol gubernatori etib tayinlangan Xuan Pons de Leyn birinchi shaharga asos soldi. 1898-yili Ispaniya — AQSH urushi natijasida Puerto-Riko Qo'shma Shtatlar mulkiga aylandi. 1917-yili orol aholisi AQSH fuqaroligiga ega bo'ldi. 1952-yildan Puerto-Riko o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega «erkin qo'shilgan» davlat.

## REYUNION (Reyunon)

*Rasmiy nomi — Reyunion (Reyunon) (Fransiyaning dengizorti departamenti). Poytaxti — Sen-Deni. Hududi — 2502 km<sup>2</sup>. Aholisi — 721000 kishi (2001). Tili — fransuz. Dini — islom, xristianlik (katoliklar), buddaviylik, hinduiylik. Pul birligi — fransuz franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Reyunion — Madagaskardan sharqda joylashgan Hind okeanidagi vulqonli orol.

Iqlimi — tropik. Orolning janubi g'arbiy qismi cho'l-biyobonlardan iborat. Shimoli sharqiy tomonida hind xurmosi, temir va zaytun daraxlari, daraxtsimon paporotniklar va palmalar o'sadi.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — Fransiyaning dengizorti departamenti. Orolni Fransiya tomonidan tayinlanadigan prefekt boshqaradi. O'z-o'zini boshqarish organlari — Bosh va Mintaqaviy Kengashlar. Hududiy jihatdan ikki okrugga bo'linadi. Siyosiy partiyalari: Kommunistik partiya, Demokratik tashkilotlar.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Qurilish mahsulotlari, shakar ishlab chiqarish zavodlari, konserva korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Baliqchilik va ovchilik rivojlangan. Shakarqamish, vanil va boshqa ekinlar yetishtiriladi. Mamlakat iqtisodiyotida turizm ham alohida ahamiyat kasb etadi. Importi: iste'mol va sanoat mahsulotlari. Eksporti: shakar, vanil, yorongul yog'i va boshqalar. 2004-yil YIM miqdori 4570 mln dollarni (aholi jon boshiga — 6000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya va YH mamlakatlari.

Asosiy porti — Le-Por.

**Tarixi.** Orol 1513-yil portugallar tomonidan ochilgan va bungacha bu yer kimsasiz bo'lgan. Reyunionning geografik jihatdan qulay (Yevropa va Afrika o'rta sidagi dengiz savdo yo'lida) joylashganligi rivojlanishini ta'minladi. 1869-yil Suvaysh kanalining ishga tushirilishiga qadar orol strategik jihatdan ahamiyati yuqori edi. 1642-yili fransuz dengizchilarining orolga tushishi natijasida orol Fransiyaga qo'shib olindi va Burbon deb nomlandi. XVII asr oxirida qahva plantatsiyalarida ishlatish uchun Madagaskardan qullar olib kelindi. Fransiyaning respublika deb e'lon qilinishi bilan orol nomi Reyunion deb o'zgartirildi. 1946-yil martida Reyunion «dengiz orti departamenti» maqomini oldi. 1959-yili Reyunion kommunistik partiyasi tashkil topdi.

## ROSSIYA

*Rasmiy nomi – Rossiya Federatsiyasi. Poytaxti – Moskva. Hududi – 17075000 km<sup>2</sup>. Aholisi – 144526300 kishi (2003). Davlat tili – rus. Dini – pravoslav (bundan tashqari islom, katolik, iudaizm, buddizm dinlariga e’tiqod qiluvchilar ham mavjud). Pul birligi – rubl.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Yevropa va Osiyo qit’alarida joylashgan davlat. Janubda va janubi g‘arbda Xitoy (chegara uzunligi 36456846 km), Mongoliya (3441 km), Gruziya (723 km) va Ozarbayjon (284 km), janubi g‘arbda Ukraina (1567 km), g‘arbda Finlyandiya (1313 km), Belarus (959 km), Estoniya (290 km), Latviya (217 km) va Norvegiya (167 km) davlatlari bilan chegaradosh. Rossiyaning Kaliningrad viloyati Boltiqbo‘yidagi Polsha (432 km) va Litva (227 km) bilan chegaradosh. Shu bilan bir qatorda Rossiya Yangi yer orollari, Shimoliy yer, Voygach, Frans-Iosif yerlari arxipelagi, Yangi Sibir orollari, Shimoliy Muz okeanidagi Vrangel oroli, Kurill orollari (Kuril orollarining bir qismi – Iturup, Kunashir, Shikotan, Xabomai orollari uchun Yaponiya bahs olib bormoqda) va Tinch okeandagi Saxalin oroli qarashlidir. Sharqdan Rossiya qirg‘oqlarini Yapon, Oxota va Bering dengizi hamda Bering bo‘g‘ozni suvlari, shimolda Barens, Karsk, Chukotka va Sharqiy Sibir dengizi, Laptevlar dengizi, janubda Qora va Azov dengizlari, g‘arbda Boltiq dengizi va Fin bo‘g‘ozni bilan tutashib ketgan. Chegaralarining umumiy uzunligi – 20139 km. Sohil bo‘ylab chegara uzunligi – 37653 km. Rossiya Federatsiyasi maydon jihatdan dunyodagi eng yirik davlat hisoblanadi. G‘arbda dunyodagi tekisliklarning eng yirigi – Sharqiy Yevropa tekisligi yastanib yotibdi. Rossiyaning deyarli butun Yevropa qismi joylashgan shimoli g‘arbida (eng baland nuqtasi 1191 km) Xibin tog‘lari, janubda Kavkaz tog‘lari bor. Kavkaz tog‘larida mamlakat va Yevropaning eng baland nuqtasi Elbrus (5642 m) cho‘qqisi joylashgan. Tekislik maydonlari

o‘rtacha olganda dengiz sathidan 170 m balandlikda joylashgan. Bu hududda O‘rta Rus, Valday, Volga balandliklari joylashgan. Janubda va janubi sharqda Qora dengiz bo‘ylari va Kaspiy dengiz bo‘ylari pasttekisliklari mavjud. Uraldan sharqda maydonlarining balandligi 1894 m bo‘lgan yirik botqoqlik hududlariga ega G‘arbiy Sibir tekisligi yastanib yotibdi. Yenisey va Lena daryolari orasida o‘rtacha balandligi 500—700 metr bo‘lgan hamda ba’zi hududlarida tog‘li massivlar qad ko‘targan O‘rta Sibir tog‘ tekisligi joylashgan. Hududning eng yuqori maydoni — Putoryanya yassitog‘ligi (balandligi 1701 m). Tog‘ tekislikning janubida G‘arbiy va Sharqiy Sayan tog‘ tizmalari qad ko‘targan. Sharqda tog‘ tekisliklari Markaziy Yoqut tekisligi bilan almashinadi. Lena daryosi hamda Tinch okean qirg‘oqlari orasida tog‘ tizmalari va tog‘ tekisliklaridan iborat bo‘lgan Shimoli Sharqiy Osiyo hududi joylashgan. Mamlakatning sharqiy qismi yirik daryolarning vohalarini hisobga olmaganda, tog‘lik hududlardan iborat. Kamchatka yarimorolida 120 ta vulqon bo‘lib, ulardan 23 tasi faoldir. Ulardan eng yirigi — Klyuchevskaya Sopka vulqoni (balandligi 4750 m). Mamlakatning yirik daryolari Volga, Shimoliy Dvina, Don, Irtish, Ob, Angara, Yenisey, Lena, Amur. Yirik ko‘llari — Kaspiy dengizi dunyoda maydon jihatidan eng yirigi ( $376000\text{ km}^2$ ), Baykal — dunyodagi hajmi ( $23000\text{ km}^3$ ) va chuqurligi (1620 m) bo‘yicha eng yirik ko‘ldir. Rossiya turli-tuman qazilma boyliklarining yirik zaxiralariga ega. Ularning ichida eng asosiyları — neft, gaz, temir, ko‘mir, oltin va boshqa strategik qazilma boyliklaridir. Mamlakat hududining yirikligiga qaramay qishloq xo‘jaligida yerlarning nisbatan oz qismidan foydalanadi — haydaladigan yerlar mamlakat hududining 8% ini tashkil qiladi. Hududning katta qismi doimiy muzlik zonasiga to‘g‘ri keladi.

Iqlimi — mamlakatning katta qismi mo‘tadil iqlim doirasida. Shimolining chekka hududlari va shimoliy orollar arktik iqlimga yaqin. Mamlakatning deyarli butun hududida kontinental iqlim hukm suradi. Rossiya hududining katta qismi o‘rmonlar bilan qoplangan. Bu

o'rmonlarda archa, pixta, kedr, eman, oqqayin va hokazo daraxtlar o'sadi. Arktika kengliklarida zamburug'lar, qutb polalari, iva, olxa kabi o'simliklar va daraxtlar o'sadi. Mamlakat faunasi boy va rang-barangdir. Arktika va tundra hududlarida shimoliy bug'u, qutb quyon, tyulenlar, morjlar, oq ayiqlar keng tarqalgan. Taygada ayiq, silovsin va hokazolar bor. Uzoq sharq o'rmonlarida ayiq, «qizil kitob»ga kiritilgan va kam sonli bo'lgan ussuriy yo'lbarslari, bug'ular keng tarqalgan. Cho'l zonalarida jayron, chiyabo'ri, ko'p sonli kemiruvchilar mavjud. Kavkaz regionida tog' echkisi, kavkaz bug'usi, ayiq, bars, sirtlonlar keng tarqalgan.

### *Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.*

Davlat tuzilishi — Federativ Respublika. Rossiya Federatsiyasi tarkibi 89 ta subyekt, jumladan 49 ta viloyat, 21 ta Respublika (Adigeya, Oltoy, Boshqirdiston, Buryatiya, Dog'iston, Ingushetiya, Kabardin-Balkar, Qalmiq, Qorachoy-Cherkes, Kareliya, Komi, Mari El, Mordoviya, Saxa (Yakutiya), Shimoliy Osetiya, Tatariston, Tiva, Udmurtiya, Xakasiya, Checheniston, Chuvash), 1 ta avtonom viloyat (Yahudiy), 10 ta okrug (Agin-Buryat, Komi-Permyak, Koryak, Nenes, Taymir, Ust-Ordinsk, Buryat, Xanti-Mansi, Chukotka, Evenk, Yamalo-Nenesk), 6 ta o'lka (Oltoy, Krasnodar, Krasnoyarsk, Primorsk, Stavropol, Xabarovsk)lardan iborat. Rossiya Federatsiyasi 1991-yil 24-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Sobiq Ittifoq tarqalgunga qadar avvalgi nomi RSFSR. Milliy bayramlari — 12-iyun (Davlat suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya qabul qilingan kun) va 12-dekabr (Konstitutsiya kuni). Davlat boshlig'i — prezident. Ijro etuvchi hokimiyat premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishlidir. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament, yuqori palatasi — Federatsiya Kengashi va quyi palata — Davlat Dumasi tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy siyosiy partiyalari: Rossiya bizning uyimiz, Yabloko, Rossiya Federatsiyasi kommunistik partiyasi, Rossiya liberal demokratik partiyasi, Rossiya agrar partiyasi.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Sobiq ittifoq tarqalib ketganidan so'ng Rossiya sovet iqtisodiyoti potensiali bilan birga bir qator jiddiy muammlarni: harbiy ehtiyojlarni qondirishga ixtisoslashgan iqtisod, samaradorligi past bo'lgan ishlab chiqarishni meros qilib oldi. 2004-yil YIM miqdori 1408000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 9800 dol.) tashkil etgan. Sanoatning deyarli barcha tarmoqlari mavjud (qazib oluvchi qayta ishslash, ishlab chiqarish). Eksporti asosini neft va neft mahsulotlari, tabiiy gaz, ko'mir, rangli metall, ximikatlar, harbiy texnika, yog'och va undan yasalgan buyumlar tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik qishloq xo'jalik yalpi mahsulotlarining 40% ini, chorvachilik 60% dan ziyod qismini yetishtiradi. Asosiy qishloq xo'jalik o'simliklari: bug'doy, qandlavlagi, kungabooqar, kartoshka, sholi, arpa. O'tish davrida iqtisodiyotda tizim o'zgarishlari amalga oshirilmoqda, xususiy lashtirish jarayoni boshlandi, shu vaqtning o'zida aholi turmush darajasining keskin pasayishi va ishsizlar sonining ortishi ko'zga tashlandi. 1995-yil qattiq monetar siyosatining o'tkazilishi natijasida hukumat inflyatsiya darajasini oyiga 4—5% ga pasaytirishga muvaffaq bo'ldi, biroq mamlakat iqtisodida chet el sarmoyasi kirib kelishiga, tadbirkorlik uchun zarur bo'lgan huquqiy bazaning yaratilmaganligi va siyosiy xatarlarning yuqoriligi to'sqinlik qilmoqda. Asosiy savdo hamkorlari: Yevropa mamlakatlari, Shimoliy Amerika, Yaponiya, Uchinchi dunyo mamlakatlari.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 87180 km. Avtomobil yo'llari — 879100 km (652500 km asfaltlangan). Rossiyada 120000 km (uzunligi 10 km dan ziyod bo'lgan) umumiy uzunligi 2300000 km daryolar mavjud (ba'zilari yil bo'yi kema qatnovi uchun yaroqli). Mamlakatning yirik portlari — Arxangelsk, Vladivostok, Kaliningrad, Murmansk, Novorossiysk, Naxodka, Magadan, Sankt-Peterburg, Tuapse; ichki portlari — Astraxan, Volgograd, Qozon, Krasnoyarsk, Moskva, Nijniy Novgorod, Rostov, Samara, Xabarovsk.

**Tarixi.** Zamonaliv Rossiya hududi Yevropa qismining janubida qadimda qabilalar hukmronlik qilib,

ularning ba'zilari qudratli va yirik imperiyalarga asos solgan edi: kimmeriyalar taxminan m. a. 1000-yildan 700-yilgacha, skiflar m. a. 700-yildan 300-yilga qadar, sarmatlar m. a. 300-yildan 200-yilgacha. III asrda gotlar Dondan to Dunaygacha bo'lgan hududlarda, xunnlar tomonidan 375-yilda tor-mor qilingan, gullab-yashnagan imperiyaga asos solgan. 560-yilda xunnlarni avarlar almashtirdi, VII asr boshlarida esa xazarlar o'z imperiyasiga asos soldi. Shu vaqtning o'zida Zamoniaviy Rossiya hududining shimoliy va markaziy qismlariga slavyan qabilalari kirib kela boshladи. O'z yerlarini xazar va bulg'orlardan himoya qilish uchun slavyan qabilalari yordam so'rab IX asrda Novgorod va Kiyevda muqim joylashgan varyaklarga murojaat qildilar. Varyak knyazlari Oleg, Olga, Svyatoslavlar pecheneglar, bulg'orlar hamda rus knyazliklarining madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatayotgan Vizantiya imperiyasiga qarshi ham muvaffaqiyatli harbiy harakatlar olib bordilar. 988-yilda Vladimir I ulug' xristianlikni qabul qildi va uni rus aholisi o'rtasida tarqatdi. Kiyev Rusi XI asrga kelib Vladimir II Monomax davrida o'z taraqqiyotining yuqori nuqtasiga yetdi, biroq XII asrda rus davlatlari o'rtasida Vladimir-Suzdal knyazligi va Novgorod Respublikasi yetakchi o'rirlarga ega edilar. XIII asrda rus knyazliklari mo'g'ul-tatarlar bosqiniga duchor bo'lishdi. Chingizxonning nevarasi Botuxon Moskva, Suzdal, Kiyevni bosib olib, ikki yarim asr davomida ko'pgina rus knyazliklari qaram bo'lgan Oltin O'rdaga asos soldi. Shu vaqtning o'zida Novgorod avval shvedlarga, keyinchalik Tefton ordeni ritsarlariga (Neva jangi — 1240-yil, Muz ustidagi jang — 1242-yil) qarshi kurash olib borishga majbur bo'ldi. XIV asrda Moskva Rusning diniy markaziga aylandi va uning atrofida mo'g'ul-tatarlarga qarshi kurashish g'oyasi ostida ko'pgina rus knyazliklari birlasha boshladи (Kulikovo jangi — 1380-yil). XV asrda Moskva knyazligining mavqeyi keskin o'sdi, Ivan III davrida esa Moskoviya tarkibiga Yaroslav, Rostov va Novgorod yerlari kirdi, 1547-yilda o'zini sar deb e'lon qilgan Ivan IV Grozniy Moskva davlati hududlarini sezilarli darajada ken-

gaytirishga muvaffaq bo'ldi. XVI asrda kuchli markazlashgan davlatga aylangan Moskva knyazligi Volgabo'y, Ural va G'arbiy Sibir hududlarini o'ziga bo'ysundirdi. Rech Pospolita bilan olib borilgan urush Moskva knyazlarining muvaffaqiyatsizligi bilan tugab, XVII asr boshlarida avval shvedlar, undan so'ng esa Polsha bosqinchilariga qarshi kurashishiga to'g'ri keldi. 1613-yildan 1917-yilgacha Rossiyada hukmronlik qilgan suloлага asos solgan Mixail Romanov Rus sari etib saylandi. XVII asr oxirida rus taxtiga o'tirgan Pyotr I mamlakatda bir qator jiddiy iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirdi; ta'lif, armiya, flot va ma'muriy boshqaruvi idoralari tizimi qayta tashkil qilinib, Shimoliy urush (1700—1721-yy.) natijasida Rossiya Boltiq dengiziga chiqish yo'liga ega bo'ldi. Rossiya tarixining yorqin namoyandalaridan biri Yekaterina Buyuk, 1762-yilda o'z eri Pyotr III ga qarshi qaratilgan davlat to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga keldi. Mamlakatni 1796-yilgacha boshqargan Yekaterina Buyuk Rossiya imperiyasi hududlarini sezilarli darajada ken-gaytirishga erishdi. 1812-yilda Rossiyaga, 1812-yil 14-sentabrda Moskvani ishg'ol qilgan Napoleon Bonapart boshchiligidagi fransuz qo'shinlari kirib keldi. Moskva ishg'ol qilinganligiga qaramay, fransuzlarning rus kompaniyasi to'la muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. 1825-yil Peterburgdagi Dekabristlar qo'zg'oloni rus inqilobiy harakatiga asos soldi. O'z hukmronligini 1825-yil Dekabristlar qo'zg'olonini bostirishdan boshlagan Nikolay I Rossiyani politsiyachi davlatga aylantirib, qattiq reaksiyon tuzum o'rmatdi. Nikolay I 1855-yil Rossiya halokatli mag'lubiyatga uchragan Qrim urushi davrida vafot etdi. Uning o'g'li Aleksandr I 1861-yilda krepostnoylik huquqini bekor qilib, sudlov, ta'lif va armiyani isloh qildi. XIX asrda Rossiya o'z hududlarini (Polsha, Finlyandiya), sharqga (O'rta Osiyo, Sibir), janubga (Kavkaz) qarab kengaytirishni davom ettirdi. Yaponiya bilan olib borilgan urushdagi mag'lubiyat sar tuzumining zaifligini namoyon qildi va jiddiy ichki siyosiy inqirozga (1905-yilgi rus inqilobiga) olib kelishi bilan birga shu vaqtning o'zida muhim iqtisodiy islohotlarni

amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Stalipinning islo-hotchilik siyosati mamlakatda, sanoat va savdo tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan, sezilarli iqtisodiy o'sishga olib keldi. 1914-yilda Avstriya-Vengr qo'shing'lari tomonidan Serbiya bosib olinganidan so'ng Rossiya Fransiya va Buyuk Britaniya tarafida I jahon urushiga qo'shildi. 1917-yil fevralda urush natijasida zaiflashgan Rossiyada inqilob boshlandi va uning oqibatida sar Nikolay II taxtdan voz kechib, mamlakatdagi hokimiyat Muvaqqat hukumat qo'liga o'tdi. Urushni davom ettirish tarafдорлари va qarshilar o'rtasidagi siyosiy kurash, inqilobi kayfiyatning o'sib borishi 1917-yil oktabrida bo'lib o'tgan inqilobga olib keldi va uning oqibatida mamlakatdagi hokimiyatni bolsheviklar qo'lga kiritdi. Bir necha million kishi halok bo'lgan fuqarolar urushi tugaganidan so'ng sovet hokimiyati sobiq Rossiya imperiyasining katta qismida o'rnatilgan edi. «Harbiy kommunizm» siyosati davridan so'ng 1921-yili mamlakatda yangi iqtisodiy siyosat e'lon qilindi, natijada Sovet Rossiysi 1927-yilga kelib ishlab chiqarishning urushgacha bo'lgan ko'rsatkichlariga yeta oldi. 1922-yil 30-dekabrdan Sovet Ittifoqi tashkil etilib, uning tarkibiga Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Kav-kazorti Respublikalari kirdi. 1924-yilda esa SSSR tarkibiga O'zbekiston va Turkmaniston, 1929-yilda Tojikiston, 1940-yilda Estoniya, Latviya, Litva va Moldaviyalar qo'shildi. 1927-yilga kelib mamlakatdagi butun hokimiyatni o'z qo'llariga yig'a olgan Stalin, NEPdan voz kechib, iqtisodni qat'iy rejalashtirish va yerlarni kollektivlashtirish rejasini amalga oshirishga kirishdi. Stalin tomonidan o'zgacha fikrlovchilarga qarshi o'tkazilayotgan qatag'onlar 1934-yilda Kirov o'ldirilganidan so'ng yanada kuchaydi. 1941-yil 22-iyunda mamlakat hududiga Sovet Ittifoqi hududlarining Yevropa qismini tez fursatda ishg'ol qilgan nemis qo'shing'lari bostirib kirdi. Biroq 1941-yil qishidagi Moskva ostonalaridagi va ayniqsa Stalingrad ostidagi 1943-yil nemis qo'shing'larinin mag'lubiyati oqibatida urushning borishida tub burilish yasab, SSSR va uning ittifoqchilari g'alabasini ta'minladi. Urush tugagandan

so'ng tez orada Sharqiy va Markaziy Yevropada o'z ta'sir doirasini kengaytirgan SSSR va g'arb mamlakatlari o'rtasida «Sovuq urush» davri boshlandi (Berlin qamali — 1947-yil, Koreya urushi — 1950—1953-yillar). G'arb bilan munosabatlarning iliqlashuvi Stalin vafotidan so'ng hokimiyat tepasiga 1953-yilda Stalin shaxsiga sig'inishni qattiq qoralagan N. S. Xrushchyovning hokimiyat tepasiga kelganidan boshlanadi. 1960-yillarda iqtisodda islohotlarning o'tkazilishi ma'lum oqibatlarga olib keldi. Biroq hamon davom etayotgan sanoat va qishloq xo'jaligining qat'iy markazdan turib rejalashtirilishi iqtisodiy turg'unlikka olib keldi hamda 1980-yillarning boshlariga kelib mamlakat iqtisodi past mehnat samaradorligi va byudjetning harbiy sanoat tomonga og'ib ketganligi bilan tavsiflanadi. N. S. Xrushchyov davrida, keyinchalik L. I. Brejnev hokimiyati (1964—1982-yy.) davrida ham SSSR g'arb mamlakatlariga nisbatan «tinch hamjihatlikda yashash» siyosatini o'tkazdi va Sharqiy Yevropa mamlakatlari-dagi o'z ta'sirini qiyinchilik bilan ushlab turardi (Vengriyadagi qo'zg'olon — 1956-yil, Chexoslavakiya — 1968-yil, Polshada harbiy vaziyatning joriy qilinishi). 1979-yilda SSSR kommunistik tuzumni qo'llab-quvvatlash uchun Afg'onistonga o'z qo'shinlarini kiritdi, biroq bu Sovet Ittifoqining harakati mamlakat aholisi qarshili-giga va musulmon dunyosida katta e'tirozlarga sababchi bo'ldi. 1980-yil o'rtalarida M. S. Gorbachyov tashabbusi bilan amalga oshirilgan qayta qurish mamlakatdagi iqtisodiy muammolarni hal eta olmadi, ittifoqdosh respublikalar aholisining milliy o'zligini anglash hissi o'sishi ittifoq markazi zaiflashuviga olib keldi. 1991-yil avgust to'ntarishi Sovet Ittifoqining tarqalib ketishiga turtki berdi va 8-dekabrda Rossiya Belorussiya va Ukraina, keyinchalik qolgan respublikalar tarkibiga kirgan, Boltiqbo'y davlatlaridan tashqari, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil etilganligini e'lon qildilar. Mustaqil Rossianing birinchi prezidenti etib B. N. Yelsin saylandi va u 1996-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda ikkinchi bor qayta saylandi. So'nggi yillarning zalvorli va shu vaqtning o'zida fojiali voqealaridan

biri sifatida Rossiya parlamenti tarafdorlari va hukumat qo'shinlari o'rtasidagi 1993-yilgi qurolli to'qnashuvni hamda 1995-yilgi Chechenistondagi urushni ta'kidlash lozim.

## RUANDA

*Rasmiy nomi – Ruanda Respublikasi. Poytaxti – Kigali. Hududi – 26340 km<sup>2</sup>. Aholisi – 7810100 kishi (2003). Davlat tili – ingliz, fransuz va kinyaruanda (eng katta etnik guruhlari ni – xutu (90%), tutsi (9%), va pigmeylar (14%). Dini – katoliklar (65%), majusiylar (25%), protestantlar (9%), musulmonlar (1%). Pul birligi – Ruanda franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Markaziy Afrika davlati. Janubda Burundi (chegara uzunligi – 290 km), sharqda Tanzaniya (217 km), g'arbda Zoir (217 km), shimolda Uganda (169 km) davlatlari bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi – 893 km. Mamlakat Sharqiy Afrika pasttekisligining g'arbiy qismida joylashgan. Ustunlik qiluvchi tepaliklar deñiz sathidan 1500–2000 m balandlikda joylashgan. Ruandaning yuqori nuqtasi – Xarisimbi tog'i (4507 m). Asosiy daryosi Koira-Nilning irmog'i. Mamlakatning yirik ko'li – Kivu kema qatnovi uchun yaroqlidir. Asosiy tabiat resurslari: oltin, volfram rudasi, tabiiy gaz, qalay.

Iqlimi – subekvatorial. O'simlik dunyosi inson faoliyati ta'sirida o'rmonlar o'rnini savannalar va evkalipt ekinzorlari egalladi. Tog' yon bag'irlarida fikus, palma, bambuk kabi daraxtlar uchraydi. Yirik hayvonlarni faqat Milliy bog'da uchratish mumkin. Bular timsohlar, begemotlar, fillar, antilopalar va eng asosiysi odamsimon qora gorillalar.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat boshqaruvi shakli – respublika. Mamlakat tarkibi 11 ta prefekturadan iborat. Ruanda mustaqillikni 1962-yil 1-iyunda qo'lga kiritdi (bundan oldin Belgiya mustamlakasi) va shu kun milliy bayram sifatida

nishonlanadi. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) hamda premyer-ministriga tegishlidir. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni bir palatali Milliy yig'in amalga oshiradi. Siyosiy partiyalari: Demokratiya va taraqqiyot uchun milliy respublikachilar harakati, Xutu partiyasi, Ruanda vatanparvarlar fronti, Xristian-demokratlar partiyasi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining asosini (YMM — 50%) tashkil qilib, qahva va choy umumiy eksport hajmining 90% ini tashkil qiladi. Sanoat ishlab chiqarish qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash (YMM — 17%) va tog'-kon sanoati, volfram va qalay rudasini qazib olish bilan cheklangan. 1994-yilda boshlangan fuqarolar urushi ham iqtisodning umumiy ahvoliga salbiy ta'sir qildi. 2004-yil YIM miqdori 10430 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Germaniya, Belgiya, AQSH, Italiya.

***Tarixi.*** XVI asrga kelib hozirgi Ruanda hududida boshqaruv shakliga ko'ra absolyut monarxiya bo'lgan davlat tashkil topdi. Yevropaliklar Ruandani 1858-yilda kashf qilishgan. 1898-yilda esa mamlakat hududi Urundi qirolligi bilan birgalikda Germaniya Sharqiy Afrikasi tarkibiga kirdi. 1923-yilda Belgiya Millatlar Ligasidan Ruanda—Urundi hududlarini boshqarishga mandat oldi. 1946-yilda Belgiya homiyligidagi va boshqaruvi ostidagi hududga aylangan Ruanda—Urundi 1960-yilda Kongo mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng Zoir tarkibiga qo'shilgan va shu yilning o'zida undan ajralib chiqqan. 1961-yilda o'tkazilgan referendum oqibatida Ruanda—Urundi shu yilning o'zida respublika deb e'lon qilingan va Burundi hamda Ruandaga ajralib ketdi. 1962-yilda esa to'la mustaqillikni qo'lga kiritdi. 1973-yil davlat to'ntarilishi oqibatida hokimiyat tepasiga harbiylar kelib, parlamentni ham, siyosiy partiyalarni ham tarqatib yuborishdi. 1990-yilda ko'pchiligi 1959-yilda Ugandanidan imigratsiya qilgan tutsi va xutu etnik guruhlari o'rtaida qonli to'qnashuvlar boshlanib ketdi. 1992-yilda mojaroni bostirishga erishildi va mamlakatda demokratiyalashtirish jarayoni boshlandi. Biroq 1994-yilda etnik to'qnashuvlar

yangi kuch bilan avj oldi. Ugandadagi fuqarolar urushi o‘zi bilan minglab qurbonlar va qo‘snni mamlakatlarga, asosan Burundi va Zoirga millionlab emmigrantlarning qochib chiqishiga olib keldi.

## RUMINIYA

*Rasmiy nomi — Ruminiya Respublikasi. Poytaxti — Buxarest. Hududi — 237500 km<sup>2</sup>. Aholisi 22271200 kishi (2003). Rasmiy tili — rumin. Dini — pravoslavlар (70%), katoliklar (6%), qolganlari yahudiyilar va musulmonlar. Pul birligi — ley.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Yevropa qit’asining janubi sharqida joylashgan davlat. Sharqda Moldova (chegara uzunligi — 450 km), shimolda Ukraina (1531 km), janubda Bolgariya (608 km), janubi g‘arbda Yugoslaviya (1476 km), g‘arbda Vengriya (443 km) davlatlari bilan chegaradosh. Janubiy-sharqda Ruminiya Qora dengiz bilan tutashib ketgan. Chegaralaring umumiy uzunligi — 2508 km, sohil bo‘ylab chegara uzunligi — 234 km. Ruminiya Bolqon yarimorolining shimalida, Quyi Dunay havzasida joylashgan. Mamlakatning markaziy va shimaliy qismida Sharqiy va Janubiy Karpat tog‘lari hamda Transilvan yassitog‘ligi yastanib yotibdi. Ruminiyaning yuqori nuqtasi Moldoveanul tog‘i (2544 m). G‘arbda G‘arbiy Rumin tog‘lari joylashgan. Mamlakatning janubi sharqida Dobruja yassitog‘ligi mavjud. Quyi Dunay tekisligi mamlakatning janubini egallagan. Shunday qilib, relyefi turfa va uyg‘unlashgan holda taqsimlangan. Mamlakat markazida Karpat tog‘lari yarim aylana hosil qilib hududning 31% ini egallagan, tepaliklar va tog‘ tekisliklari 33%, pastliklar esa 36% ni egallaydi. Mamlakatning asosiy daryosi — Dunay. Asosiy tabiiy resrurslari — neft, tabiiy gaz, ko‘mir, temir rudasi, rangli metallar. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 63% ini, yaylov va o‘tloqlar 33% ga yaqin, o‘rmonlar va o‘rmon-zorlar 28% ini tashkil qiladi.

Iqlimi — mo'tadil kontinental. O'rmonlarida buk, eman, oq qayin, grab va archa daraxtlari o'sadi. Hayvonot dunyosida ayiq, bug'i, tog' echkilari, quyon, qushlardan o'rdaklar, g'ozlar, oqqushlar, laylak va Augrinadan yozda uchib keladigan pelikanlar hamda flamingolar mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 40 ta uyezd, maxsus maqomga ega bo'lgan Buxarest munitsipiyanisiga bo'lingan. Usmoniyalar imperiyasidan Ruminiya 1878-yilda mustaqillik oladi. Milliy bayram — 1 dekabr — Barcha tarixiy rumin hududlarining yagona davlatga birlashgan kuni. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va hukumat boshlig'i premyer-ministriga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Senat (yuqori palata) va Deputatlar palatasi (quyi palata)dan iborat parlament amalga oshiradi. Yirik siyosiy partiyalari: Ruminiyaning sotsial-demokratik partiyasi, Rumin milliy birligi partiyasi, Ruminiya Mars partiyasi, Mehnat Sotsialistik partiyasi, Ruminiya vengrlarining demokratik ittifoqi, Ruminiya agrar-demokratik partiyasi, Demokratik partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Ruminiya iqtisodi bozor iqtisodiga o'tish bosqichida. Ruminiyaning so'nggi yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari mamlakatda iqtisodiy o'sish jarayoni davom etayotganligini tasdiqlamoqda. Sanoatning yaxshi rivojlangan tarmoqlari: tog'-kon sanoati, yog'ochni qayta ishslash, kimyo sanoati, mashinasozlik, metallurgiya, neft qazib olish va neftni qayta ishslash, oziq-ovqat. Ruminiya bug'doy va makkajo'xori yetishtiruvchi yirik davlat hisoblanadi.

2004-yil YIM miqdori 171500 min dollarni (aholi jon boshiga — 7700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 11380 km (3758 km elektrlashtirilgan), avtoyo'llar — 72816 km. Asosiy portlar: Konstansa, Sulina (dengiz porti), Breila, Galau (Dunay daryosida).

**Tarixi.** II asrda hozirgi Ruminiya hududini rimliklar bosib oladilar va o'zlarining Dakiya viloyatini tashkil qiladi. III asrdan boshlab mamlakat hududiga got, xunn, skif, avar qabilalari hujum qilib turdilar, VI—VII asrlarda esa bu yerlarga slavyan qabilalari kirib kelib o'troq hayot kechira boshladi. XIII asrda vengrlar Transilvaniyani bosib oladi va rumin aholisini Dunay vodiysiga siqib chiqaradi. XIV asrda yuqori iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasiga ega bo'lgan Moldaviya va Valaxiya rumin knyazliklari tarkib topdi.

Stefan Buyuk va Minoy Jasurlarning qahramonona qarshiligiga qaramasdan, Moldaviya va Valaxiya turklar tomonidan bosib olindi. XVI asr oxirlarigacha turk hukmronligi ostida qolib ketdi, to boshqaruv turklar tomonidan tayinlangan grek-folatlari qo'liga topshirilgunga qadar. XIX asr boshlarida Moldaviya va Valaxiya Rossiya yordami bilan avtonomiyani qo'liga kiritdi, 1859-yilda esa Aleksandr Kuza boshqargan yagona Ruminiya davlatiga birlashtirildi. 1878-yilda Rossiya—Turkiya urushi davrida to'la mustaqillikni qo'liga kiritdi va 1881-yilda Avstro-Vengriya va hamda Germaniya bilan ittifoqchilik shartnomasini imzolagan Ruminiya qirollik deb e'lon qilindi. Biroq XX asr boshlariga kelib bu ittifoq zaiflashdi va Birinchi jahon urushi davrida Ruminiya qiroli Ferdinand Rossiya va uning ittifoqchilari tarafida turib jangovar harakatlarda ishtirok etdi. Urush tugagach, Ruminiya o'z tarkibiga Transilvaniyani, Bukovina, Banata va Bessarabiyanı qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi. 1929-yilda parlament boshqaruvi Jema-Kodoreanu boshchiligidagi «Temir gvardiya» profashistik tuzumi bilan almashindi, 1938-yilda mamlakatda Antonesku diktaturasi o'rnatildi. 1939-yilda nemis qo'shinlari Shimoliy Transilvaniyani bosib olgani bilan bir vaqtida SSSR Bessarabiyanı qo'shib oldi (anneksiya). Fashistik Germaniya tarafida urush domiga tortilgan Ruminiya, Stalingrad jangidan so'ng qiroq Mixay davlatining tashqi siyosiy yo'naliishini o'zgartirib ittifoqchilar tarafida jang qila boshladi. Shu vaqtning o'zida Antonesku diktaturasi ag'darildi va mamlakatda Milliy birdamlik hukumati tuzildi. Mamlakat ozod

qilinganidan so‘ng SSSR ta’siri doirasiga tushib qoldi va 1947-yilda qirol Mixay taxtdan voz kechgach, Ruminiya respublika deb e’lon qilindi. Hokimiyat tepasiga 1965-yilda kelgan Chaushesku Sovet Ittifoqi va sotsialistik mamlakatlar siyosatidan farq qiladigan tashqi siyosat yurita boshladi va shu vaqtning o‘zida mamlakatda diktatorlik kommunistik tuzumini o‘rnatdi. Bu tuzum 1989-yilda armiya qo‘llab-quvvatlagan xalq qo‘zg‘oloni oqibatida ag‘darildi. 1989-yil 25-dekabrda «Milliy Qutqaruв Kengashi» Chaushesku va uning xotini Yelenani otib o‘ldirish haqida buyruq berdi. 1990-yilning may oyida erkin saylovlar o‘tkazilib, unda prezidentlik lavozimiga Iliesku saylandi.

## SALVADOR

*Rasmiy nomi — El-Salvador Respublikasi. Poytaxti — San-Salvador. Hududi — 21393 km<sup>2</sup>. Aholisi — 6740000 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — katolik. Pul birligi — Salvador koloni.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Markaziy Amerikadagi davlat. Sharq va shimol tomondan Honduras (chegaraning uzunligi 342 km), g‘arb va shimoli g‘arbda Gvatemala bilan (203 km) chegaradosh. Mamlakat janubda Tinch okean, janubi sharqda esa Foneska qo‘ltig‘i suvlari bilan tutashib ketgan. Chegaralarining umumiy uzunligi 545 km, sohil bo‘ylab chegara uzunligi — 307 km. Mamlakat hududi asosan vulqon etaklaridan iborat. Eng baland nuqtasi — Santa-Ana vulqoni (2381 m). Qirg‘oq bo‘ylab torgina qirg‘oqbo‘yi tekisligi cho‘zilgan. Uning eni 10—20 km dan oshmaydi. Mamlakatning asosiy daryosi — Lempa. Asosiy tabiy boyliklari: neft va gidroenergetik resurslar. Ishlov beriladigan maydoni — 27%, o‘tloq va yaylovlar 29% ni tashkil etadi.

Iqlimi — tropik. Mamlakatda siyrak past bo‘yli daraxtlar (chaparro, mimoza va b.) uchraydigan quruq savannalarga tez-tez duch kelish mumkin; Tinch okean

qirg‘oqlarida dub va qarag‘ayzor o‘rmonlar saqlanib qolgan, qirg‘oqqa yaqin yerlarda esa bambukzorlar mavjud. Salvadorda noyob balzamli (malhamli) daraxtlardan bir necha o‘n minglabi o‘sadi. Boshqa qimmat-baho turlardan ispan kordi, sariq daraxt, sapodilya, qizil daraxt ham uchraydi. Mamlakatning hayvonot olami ancha xilma-xil. Markaziy Amerika tapiri, chumolixo‘r, bo‘rsiq, dangasa, jayra va maymunlar ko‘p uchraydi, shuningdek, qoplon, puma, otselotlar ham bor, sudraluvchilardan esa bo‘g‘ma va zaharli ilonlarning boshqa turlari mavjud. Savannalarida kaltakesak, Meksika bug‘usi, kayot va xilma-xil mayda kemiruvchilar yashaydilar. Daryolarida timsohlar bor. Qushlarning bir necha yuz xillari (to‘tiqush, tukanlar, qarg‘alar, yovvoyi g‘ozlar, kolibrilar va b.) hisobga olingan.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat 14 departamentga bo‘lingan. Salvador Ispaniyadan mustaqillikni qo‘lga kiritishga 1821-yilning 15-sentabridan kurasha boshlagan, biroq faqat 1841-yildagina to‘la mustaqillikka erishgan. Milliy bayrami — 15-sentabr — Mustaqillik kuni. Mamlakat va hukumat boshlig‘i — prezident. Oliy qonunchilik organi — Qonunchilik Assambleyasi (bir palatali parlament). Eng yirik siyosiy partiyalari: Milliy respublika ittifoqi (ARENA), Xristian-demokratik partiya (XDP), Demokratik konvergensiya (FK), Salvador Kommunistik partiyasi (SKP).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i — qishloq xo‘jaligi bo‘lib, u ichki milliy ishlab chiqarish (YMM)ning 25% i va eksportning 66% ga yaqinini ta’minlaydi (asosiy eksport mahsuloti — qahva, u umumiy eksport hajmining 45% ini tashkil qiladi). Boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari — shakar-qamish, sholi, boshoqli, donli va yog‘ olinadigan ekinlar. Oziq-ovqat sanoatidan (YMM — 18%) tashqari to‘qimachilik, neft va kimyo sanoati ham rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 32350 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Germaniya, Vengriya, Meksika.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 302 km, avtoyo'llar — 10000 km (shundan 1500 km asfaltlangan). Mamlakatning asosiy portlari: Akaxutla, Kutuko, La-Union.

**Tarixi.** Avval mayyalar, keyin atsteklar imperiyalarning kattagina qismi bo'lgan hozirgi Salvador hududi ispanlar tomonidan 1523-yili kashf qilingan. Alvarado boshchiligidagi konkistadorlar mahalliy hindularning qariyb hammasini qirib tashladilar, 1528-yili esa San-Salvador va Sonsonate shaharlariiga asos soldilar. Salvador to 1821-yilgacha Gvatemala mustamlakasining bir qismi bo'lib, o'sha yili Ispaniyadan mustaqillikka erishdi.

1823-yili Salvador Markaziy Amerika Birlashgan Hududlari tarkibiga kirdi, to'la mustaqillikni esa 1841-yili qo'lga kiritdi. Mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat bir nechta harbiy diktaturalarni boshidan o'tkazdi. Ularning orasida Martinez tuzumi (1933—1944) alohida o'rinn tutadi. 1969-yili Salvador bilan Gonduras o'rtasida harbiy mojaro bo'lib o'tdi. 1979-yili mamlakatda hokimiyatni harbiy xunta egal-lab oldi. Xunta Farabundo Marti nomidagi Milliy ozodlik fronti isyonchilariga qarshi urush olib borishiga to'g'ri keldi. O'n yildan ko'proq davom etgan fuqarolar urushi 75000 kishining o'limi, lagerlarga minglab qamalganlar, shuningdek, jiddiy iqtisodiy inqirozga sabab bo'ldi. 1992-yili qarama-qarshi tomonlar o'rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishi mamlakatda demokratiyalashtirish yo'lida ma'lum bir qadamlar qo'yilishiga imkon yaratdi.

## SAN-MARINO

*Rasmiy nomi — San-Marino Respublikasi.  
Poytaxti — San-Marino. Hududi — 61 km<sup>2</sup>.  
Aholisi — 28800 kishi (2005). Davlat tili —  
italyan. Dini — katolik. Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Janubiy Yevropadagi davlat. Italiya hududida, Apennin yarimorolining shimoliy qismida joylashgan (chegarasining

uzunligi — 39 km). Mamlakat tik qoyali tog'larda joylashgan. Eng baland cho'qqisi — Titanoning (738 m) yaqinida poytaxti San-Marino joylashgan.

Iqlimi — subtropik. Mamlakat hududida bir nechta dub va kashtan daraxt-zorlari saqlanib qolgan. Tog' etaklarida Makvis changalzorlari (drok, mirt, lavr, bodom) bor. Yoqimli hidli, efir moyli o'simliklar ko'p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 9 okrugdan iborat. San-Marino davlatiga afsonalarga ko'ra eramizning 301-yili asos solingan. Milliy bayrami — 3-sentabr — Respublikaga asos solingan kun. Ijroiya hokimiyati ikkitita teng huquqli kapitan-regentlarga (davlat boshliqlari) va Davlat Kongressiga (Vazirlar Mahkamasi) tegishli. Oliy qonunchilik organi — Katta general kengash (bir palatali parlament). Eng e'tiborli siyosiy partiyalari: San-Marino progressiv-demokratik partiyasi (SMPDP), San-Marino sotsialistik partiyasi (SMSP), San-Marino xristian-demokratik partiyasi (SMXDP).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Turizm iqtisodining eng muhim sohalaridan biri (San-Marinoga har yili 2 milliondan ziyodroq sayohatchilar tashrif buyuradi). Bu ichki milliy daromadning 60% ini tashkil qiladi. Daromadlarining yana bir muhim manbyi — chet ellik kolleksionerlarga markalar sotish. Aholining turmush darajasini G'arbiy Yevropa mamlakatlarining shu sohadagi ko'rsatkichlariga qiyoslash mumkin. 2004-yil YIM miqdori 1000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 34600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorı — Italiya.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 104 km.

**Tarixi.** Afsonalarga ko'ra San-Marinoga 301-yilda tarki dunyo qilgan avliyo Marinus asos solgan. IX asrda hozirgi San-Marino hududi avtonom davlat bo'ldi, XIII asrda esa mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Uni Rim papasi Nikolay IV 1291-yili tan oldi. San-Marino Napoleon urushlari davrida ham o'z mustaqilligini saqlab qoldi, uning mustaqilligi Vena Kongressi tomonidan 1815-yili ham tan olingan. 1862-yildan buyon mamlakat amalda Italiya protektorati ostida.

## SAN-TOME VA PRINSIPI

Rasmiy nomi — San-Tome va Prinsipi Demokratik Respublikasi. Poytaxti — San-Tome. Hududi — 964 km<sup>2</sup>. Aholisi — 175900 kishi (2003). Davlat tili — portugal. Dini — katolik. Pul birligi — dobra.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrika qit'asi qirg'oqlaridan uncha uzoq bo'limgan Gvineya qo'l-tig'idagi vulqondan hosil bo'lgan San-Tome, Prinsipi va bir qator mayda orollarda joylashgan davlat. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 209 km. Mamlakatning relyefi tog'li. Mamlakatning eng baland cho'qqisi Piko de-Tome (2024 m) bo'lib, u San-Tome orolida joylashgan. Asosiy tabiiy boyligi — baliq. Mamlakat hududining 75% ini o'rmon va changalzorlar egallagan.

Iqlimi — ekvatorial va tropik. Orollar quyuq ekvatorial o'rmonlar bilan qoplangan, qirg'oq bo'yalarida qalin mangro changalzorlari bor. Mamlakatning hayvonot dunyosi unchalik boy emas: o'rmonlarida maymunlar — gveretslar, drillar, makakalar ko'p; qushlar ham ko'p (kattakon bananxo'rlar, nishli qushlar); xilma-xil kaltakesaklar, xameleonlar, ilonlar mavjud. Dengiz faunasi boy: ko'plab qisqichbaqasimonlar va chig'a-noqlilar bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. San-Tome va Prinsipi davlati o'z mustaqilligini 1975-yilning 12-iyulida qo'lga kiritgan (avval Portugaliyaning dengizorti mustamlakasi edi). Bu sana milliy bayram — Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadi. Qonunchilik portugal umumiy huquqiga asoslangan. Ijroiya hokimiyati prezidentga (davlat boshlig'i) va Bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonunchilik hokimiyati bir palatali parlament — Milliy Assambleya tomonidan amalga oshiriladi. Eng yirik siyosiy partiyasi — San-Tome va Prinsipini ozod qilish Harakati — Sotsial-demokratik partiyasi (MSLTP-SDP)

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining eng muhim tarmog'i hisoblanadi: kakao eksporti umumiy eksportning

85% ini tashkil qiladi. Boshqa eksport mahsulotlari: kokos yong'og'i, palma mevasi, kopra. Ayni paytda San-Tome oziq-ovqat mahsulotlarining 90% ini chet-dan olib keladi. Baliqchilik rivojlangan. Turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. 2004-yil YIM miqdori 211080 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Portugaliya, Gollandiya, Xitoy.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 300 km. Portlari — Santo-Antonio, San-Tome.

**Tarixi.** San-Tome va Prinsipi orollari 1471-yili portugaliyaliklar tomonidan kashf qilingan. Ular bu koloniyalarni jinoyatchilar surgun qilinadigan joyga aylantirganlar. 1951-yili Portugaliyaning dengizorti provinsiyasi (viloyat) maqomini olgan San-Tome va Prinsipi 1975-yili mustaqil davlat bo'ldi.

## SAUDIYA ARABISTONI

*Rasmiy nomi — Saudiya Arabiston Qirolligi. Poytaxti — Er-Riyod. Hududi — 2200000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 24293800 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — islam. Pul birligi — Saudiya riali.*

**Geografik joylashkuvi va tabiat.** Bu davlat janubi g'arbiy Osiyoda Arabiston yarimorolida joylashgan. Janubda Yaman (chegara uzunligi 1458 km), shimolda — Iraq (814 km), Iordaniya (728 km) va Quvayt (222 km), janubi sharqda Ummon (676 km) va Birlashgan Arab Amirliklari (457 km), sharqda Qatar bilan (60 km) chegaradosh. G'arbda mamlakat Qizil dengiz va Akaba qo'lltig'i hamda sharqda Fors qo'lltig'i bilan tutashib ketgan. Chegaralarining umumiy uzunligi — 4415 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 640 km. Mamlakat hududi asosan sahrodan iborat. Qirg'oq bo'ylab torgina vodiylar joylashgan. Janubi g'arbida uncha katta bo'limgan tog' tizmalari bor. Mamlakatning eng baland nuqtasi — Daka cho'qqisi (3353 m). Shimolda Suriya cho'lining bir qismi joylashgan. Mamlakatning janubi sharqiy qismini Katta sahro (Rub-el-Xali) egallagan. Mamlakatning suv resurslari

juda kam. Hududining markaziy qismidagi bir necha daryolar yozga borib qurib qoladi. Mamlakat hududida boy neft, tabiiy gaz konlari mavjud, shuningdek, temir rudasi, mis, oltin ham bor. Ishlov beriladigan yerlar hududining faqatgina bir foizini egallaydi, o'tloq va yaylovlardan 39% qismida joylashgan.

Iqlimi — kontinental, subtropik va tropik. O'simliklari asosan yarim sahro va sahro xarakteriga ega. Qishki, bahorgi yomg'irlar davrida yovvoyi achchiq tarvuzlar, astragal, saksovullar o'sadi. Tal va sudr deb ataluvchi yolg'iz daraxtlar onda-sonda uchraydi. Mamlakatning hayvonot dunyosi ancha xilma-xil. Bo'ri, shoqol, fene kulkisi, qum kiyigi, nubiya tog' echkisi uchraydi. Kemiruvchi va sudraluvchilar — kichik bo'g'ma ilonlar, efa, agama va kaltakesaklar ko'p. Qushlar olami ham boy: burgutlar, kalxatlar, griflar, sapsan — yirtqichlar serob. Qirg'oq pasttekisliklari chigirkalar ko'payish makonidir. Qizil dengizda va Fors qo'lltig'ida marjonlarning 2000 dan ziyod turi bor, ayniqsa, qora marjonlar qimmat baholanadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — mutlaq teokratik monarxiya. Mamlakat tarkibiga 13 ta viloyat kiradi. Saudiya Arabistoni 1932-yilning 23-sentabrida mustaqil davlat bo'lgan (milliy bayrami — Qirollik e'lon qilingan kun). Qonunchilik islom dini qonunlariga asoslangan. Davlat va hukumat boshlig'i — qiro.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining asosiy sohasi — neft qazib chiqaruvchi sanoat (YMMning 35% ini va amalda eksportdan keladigan daromadlarning hammasini tashkil qiladi). Dunyoda neftning eng katta zaxirasiga ega. Saudiya Arabistoni neftning eng yirik eksportchisi hisoblanadi va OPEKda yetakchi rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi juda tez rivojlanmoqda (YMM — 10%), asosiy qishloq xo'jalik ekinlari: bug'doy, arpa, sitrus, xurmo (xurmo yetishtirish bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda). 2004-yil YIM miqdori 310200 mln dollarni (aholi jon boshiga — 12000 dol.) tashkil qildi. Makka shahri butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi, chunki bu yerda islom dinining asoschisi

Muhammad payg‘ambar dunyoga kelgan. Zam-zam qudug‘i va Ibrohimga avliyo Gavriil tomonidan sovg‘a qilingan qora tosh ham muqaddas hisoblanadi va ular ham shu shaharda joylashgan. Haram (Baytulloh) masjidi ham qadimiy, muqaddas Ka‘ba atrofida qurilgan. Madinadagi Muhammad payg‘ambar qabri musulmonlar uchun Ka‘badan keyin ikkinchi muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi. Eng muhim savdo hamkorlari: AQSH, Angliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 886 km, avtomobil yo‘llarining uzunligi — 74000 km (qattiq qoplamali yo‘llari 35000 km). Mamlakatning asosiy portlari: Jidda, Ras-Tannura, Yanbu.

**Tarixi.** Hozirgi Saudiya Arabistoniga arab chorvador qabilalari m. a. IX asrdan boshlab o‘rnashganlar. Arabiston yarimorolining shimoliy qismini egal-lagan qabilalar yahudiy, bobil va fors madaniyati ta’sirida bo‘lgan bir paytda Arabistonning janubidagi qabilalar o‘zlarining alohida madaniyatini yaratdilar. 570-yili Makkada payg‘ambar deb e’lon qilingan va barcha arab qabilalarini yangi, musulmon davlati Madinaga birlash-tirgan Muhammad dunyoga keldi. Muhammad payg‘ambarning izdoshlari bo‘lgan xalifalar VII asrda islom dinini Yaqin Sharqqa va Misrga tarqatdilar. VIII asrda esa yangi din Osiyoning kattagina qismi va Shimoliy Afrikaga tarqaldi. Bog‘dod xalifaligi paydo bo‘lgandan keyin Saudiya Arabistonining roli sezilarli darajada pasaydi, ammo Makka musulmonlarining diniy markazi bo‘lib qolaverdi. XIII asrda hozirgi Saudiya Arabistoniga hududi Misr mamluklari hukmronligi ostida qoldi. 1517-yili esa Usmoniyalar imperiyasi tarkibiga kirdi. XIX asr boshlariga kelib Saudiya Arabistonida vahobiylar davlati tashkil topdi va mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Tez orada vahobiylar Misr askarlari tomonidan yarimorolning markaziq qismiga siqib qo‘yildilar, ammo XX asrning boshlariga kelib vahobiylarning yetakchisi Ibn Saudning qo‘sishlari mamlakatning qariyb barcha hududida o‘z nazoratlarini o‘rnatdilar, 1932-yili esa Ibn Saud Saudiya Arabistoniga qirolligi tuzilganligini e’lon qildi. 1982-yili shahzoda Faxd taxtga chiqdi va u Fors

qo‘ltig‘idagi mojarolar paytida mamlakat hududiga Iroqqa qarshi ittifoq qo‘sishinlarini joylashtirishga ruxsat berdi. Ular esa bu yerdan 1991-yilning yanvarida Quvaytni ozod qilish bo‘yicha harakatlarini boshladilar.

## SVAZILEND

*Rasmiy nomi — Svazilend Qirolligi. Poytaxti — Mbabane. Hududi — 17363 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1161200 kishi (2003). Davlat tili — ingliz va svazi. Dini — xristianlik (60%) va majusiylar (40%). Pul birligi — lilangeni.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Afrika qit’asining janubi sharqiy qismida joylashgan davlat. Janubda, janubi sharqda, g‘arbda va shimolda JAR (chegara uzunligi — 430 km), sharqda esa Mozambik (105 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 535 km. Mamlakat g‘arbidan sharqqa tomon tepaliklari pasayib boruvchi Veld qırılıklarida joylashgan. Eng baland cho‘qqisi — 1445 m. Svazilendda bir nechta pasttekisliklar bor. Asosiy daryolari — Usutu, Kamati, Umbeluzi. Asosiy tabiiy boyliklari: ko‘mir, yog‘och, gidroenergetik imkoniyatlari, o‘rmonlari, shuningdek, uncha katta bo‘lmagan oltin va olmos konlari bor. Hududining 11% i haydaladigan yerlar, 62% i esa yaylov va o‘tloqlar.

Iqlimi — subtropik va tropik. Svazilendning o‘simlik dunyosi g‘arbda savanna, sharqda esa kserofit changal-zorlari bilan xarakterlanadi. Florasi juda boy: 2400 ga yaqin o‘simlik turi mavjud — lishayniklar va paporotniklardan tortib magnoliya va fikuslargacha o‘sadi. Faqat aloening 25 turi, orxideyalarning 12 turi, nilufar gullarining 10 turi bor. Yirik sut emizuvchilardan «ko‘k» qo‘toslar uchraydi. Shuningdek, aylana shoxli antilopalar, zebraclar, begemotlar ham bor. Daryolarida timsohlar ko‘p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Svazilend 1968-yil 6-sentabrdan mustaqil davlat bo‘ldi (undan oldin — Buyuk Britaniya protektorati). Bu sana —

Milliy bayram — Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadi. Davlat boshlig'i — qiro. Ijroiya hokimiyat Bosh vazir boshchiligidagi hukumat tomonidan boshqariladi. Qonunchilik hokimiyatini qiro va ikki palatali parlament amalga oshiradi. Siyosiy partiyalari: Imbokodvo milliy harakati, Svazilend birlashgan fronti, Ngvane milliy-ozodlik kongressi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini — qishloq xo'jaligi (YMMning chorakka yaqin qismi). Unda mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi band. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari — shakarqamish, makkajo'xori, paxta, tamaki, sitrus mevalar. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatidan tashqari konchilik (ko'mir va asbestos), yog'och sanoati rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 6018 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: JAR, Yaponiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Kanada.

***Tarixi.*** Svazilend qirolligi hozirgi Svazilend hududida XVI asrda tashkil topgan. 1906-yili Britaniya protektorati bo'lishidan avval 1902-yilda Transvaal boshqaruvida edi. 1969-yili Svazilend mustaqil davlat deb e'lon qilindi. 1973-yilda esa qiro Sobxuza II konstitutsiyani bekor qildi va barcha siyosiy partiyalar faoliyatini taqiqqladi. Hozirgi kunda Svazilend demokratik o'zgarishlar yo'lidan bormoqda.

## **SEYSEL OROLLARI**

*Rasmiy nomi — Seyshel Orollari Respublikasi. Poytaxti — Viktoriya. Hududi — 405 km<sup>2</sup>. Aholisi — 81100 kishi (2005). Davlat tili — ingliz, fransuz va kreol. Dini — katolik. Pul birligi — Seyshel rupiyasi.*

***Geografik joylashuvi va tabiat.*** Hind okeanining g'arbiy qismida, Madagaskar orollarining shimoli sharqidagi Seyshel va Amirant orollarida joylashgan davlat. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 491 km. Mae, Praslen, Siluet, La-Dig singari yirikroq orollariga marmar toshlaridan iborat torgina qirg'oq

bo‘ylari va tepaliklar xarakterlidir. Maydaroq orollar esa tekis marjon balandliklaridan iborat. Mamlakatning eng baland nuqtasi 915 m. Asosiy tabiiy boyliklari: baliq, kopra.

Iqlimi — subekvatorial. Yirik orollarda doimiy ko‘m-ko‘k tropik o‘simliklar saqlanib qolgan, palmalarning noyob turlari o‘sadi, ularning orasida yalang‘ochsimon seyshel palmasi, dengiz kokosi ham bor. Shuningdek, daraxtsimon paprotniklar ham uchrab turadi. Orollar ancha chetda joylashganligi tufayli faqat shu arxipelagdagina uchraydigan qushlar va sudralib yuruvchilar juda ko‘p. Faqat Aldabrening o‘zida ulkan toshbaqalar, qushlarning 14 ta kamyob turi uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Malalakat 13 ta kichik ma’muriy hududlarga bo‘lingan. Seyshel orollari 1976-yilning 29-iyunida Buyuk Britaniyadan mustaqil bo‘ladi. Milliy bayrami — 18-iyun — Millat kuni (1993-yili yangi konstitutsiya qabul qilingan kun). Davlat va hukumat boshlig‘i — prezident. Oliy qonunchilik organi — Xalq majilisi (bir palatali parlament). Ro‘yxatga olingan yetti-ta siyosiy partiyalardan eng yiriklari — Seyshel xalqining progressiv fronti (SHPF), Demokratik partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mehnatga layoqatli aholining 30% ga yaqini band bo‘lgan turizm industriyasi valyutasining 70% dan ko‘prog‘ini ta’minlaydi. Ishlab chiqarish baliqchilik va qishloq xo‘jaligi bilan cheklangan. Qishloq xo‘jaligida (YMMning 7% ga yaqini) asosiy savdo ekinlari — kokos yong‘og‘i, koritsa, vanil. Zaruriy oziq-ovqatning katta qismi chetdan olib kelinadi. 2004-yil YIM miqdori 632580 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Buyuk Britaniya, Baxrayn, Keniya.

Avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi — 260 km, asosiy porti — Viktoriya.

**Tarixi.** Portugallar tomonidan 1505-yili ochilgan Seyshel orollari 1742-yili Fransiya tomonidan mustamlaka qilib olindi. 1794-yili orollar Buyuk Britaniya boshqaruviga o‘tdi. Angliya 1903-yili orollarni o‘z mustamlakasi deb e’lon qildi. 1976-yili Seyshel orollari

Buyuk Britaniya Hamdo'stligi a'zosi bo'lib qolgan holda mustaqillikka erishdi. 1977-yili davlat to'ntarishi oqibatida sotsialistik davlat qurilishini e'lon qilgan A. Rene mamlakat prezidenti bo'ldi. 1991-yili mamlakat boshqaruving bir partiyali tizimi ko'ppartiyaviylik bilan almashtirildi.

## SENEGAL

*Rasmiy nomi – Senegal Respublikasi. Poytaxti – Dakar. Hududi – 196200 km<sup>2</sup>. Aholisi – 10580300 kishi (2003). Davlat tili – fransuz. Dini – islom. Pul birligi – Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Afrika qit'asining g'arbiy qismida joylashgan davlat. Shimolda Mavritaniya (chegara uzunligi – 813 km), janubda Gvineya-Bisau va Gvineya (330 km), sharqda Mali (419 km) bilan chegaradosh. Mamlakatning markaziy qismida Gambiya daryosi bo'ylab Gambiya davlati joylashgan (Gambiya bilan chegara uzunligi 740 km). G'arbda Senegal Atlantika okeani bilan tutashib ketgan. Chegaralarining umumiyligi – 2640 km, qirg'oq bo'ylab chegara uzunligi – 531 km. Mamlakat hududining katta qismi pasttekisliklardan iborat. Senegalning faqatgina janubi g'arbida balandligi 500 metrga yetadi-gan Futa-Jallon tepaliklari bor. Asosiy daryosi – Senegal. Mamlakat hududida fosforit va temir rudasi, marmar konlari bor. Hududining 27% i ishlov beriladi-gan yerlar, 20% i esa o'tloq va yaylovlar.

Iqlimi – subekvatorial, mussonli. Senegal hududi asosan savannalardan iborat. Ko'p asrlardan buyon o'rmonli mavzelarda ekin ekish uchun olov qo'yib yer tozalash usuli daraxtzorlarning tez yo'qolishiga olib keldi. Faqatgina janubi g'arbda aralash o'rmonlar qisman saqlanib qolgan. Yashash sharoitlari o'zgarishi tufayli yirik yovvoyi hayvonlar qariyb qolmagan. Milliy bog'larda fillar, jirafalar, qo'toslar va begemotlarni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – respublika. Mamlakat tarkibida 10 ta viloyat

bor. Senegal Fransiyadan mustaqillikni 1960-yili qo‘lga kiritgan. 1982-yili Senegal va Gambiya konfederatsiyasi tuzildi, lekin u 1980-yili 30-sentabrda tarqalib ketdi. Milliy bayrami — 4-aprel — Mustaqillik kuni (1960). Qonunchilik fransuz fuqarolik huquqiga asoslangan. Ijroiya hokimiyati prezident (davlat boshlig‘i) va Bosh vazir (Vazirlar Kengashi boshlig‘i) qo‘lida. Qonunchilik hokimiyatini bir palatali parlament — Milliy Kengash amalga oshiradi. O‘n sakkizta siyosiy partiyalaridan eng yiriklari: Senegal Sotsialistik partiyasi (SSP), Senegal demokratik partiyasi (SDP), Senegal mustaqillik va mehnat partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining asosiy sohasi — baliqchilik. Ishlab chiqarish baliqni qayta ishlash va qishloq xo‘jalik mahsulotlari, neftni tozalash va fosforit qazib chiqarish bilan cheklangan. Qishloq xo‘jaligida (baliqchilik bilan birga YMM — 20%) mehnatga layoqatli aholining 75% i band. Asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari — yeryong‘oq (ekin maydonlarining 40% ga yaqini mamlakat eksporti uchun juda muhim bo‘lgan ana shu ekinni yetishtirish uchun foydalilaniladi), makkajo‘xori, tariq, sorgo, sholi, paxta. So‘nggi yillarda turizm tez rivojlanmoqda. 2004-yil YIM miqdori 18360 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH mamlakatlari (asosan Fransiya), Mali, Kot-d’Ivuar, Nigeriya, Jazoir.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 1034 km, avtomobil yo‘llari — 14700 km (qattiq qoplamlamiyo‘llari — 3777 km), ichki suv yo‘llari — 897 km. Mamlakatning asosiy portlari: Dakar, Kaolak.

**Tarixi.** IX asrda tukuler qabilalari yashaydigan hozirgi Senegal hududida Tekrur qirolligi shakllangan bo‘lib, XIV asrda undan Serer va Uolof qirolliklari ajralib chiqqan. XVI asrda hozirgi Senegal hududidagi davlatlar Mali imperiyasi tarkibiga kiradi. XV asrdan boshlab mamlakat portugal dengizchilari tomonidan tadqiq etildi, biroq mamlakatni mustamlakaga aylanadirish XVII asrning boshlarida fransuzlar tomonidan boshlandi. Inglizlar ikki marta — 1758—1779-yillari va 1807—1817-yillarida fransuzlarni Senegaldan quvib

chiqarishdi, lekin 1854-yili Buyuk Britaniya bilan raqobatda Fransiya yengib chiqdi. 1895-yili esa Senegal fransuz mustamlakasi deb e'lon qilindi. Dakar Fransuz G'arbiy Afrikasi poytaxti bo'lib qoldi. 1958-yili Fransuz Hamjamiyati tarkibida o'zini o'zi boshqarish huquqini qo'lga kiritgan bu mamlakat 1959-yili Mustaqil Mali federatsiyasi tarkibiga kirdi, lekin 1960-yili federatsiyadan chiqdi va mustaqil davlat deb e'lon qilindi. 1963-yili mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga binoan Senegal prezidentlik respublikasi deb e'lon qilindi. 1982-yili Senegal Gambiya bilan Senegambiya federatsiyasiga birlashdi. Biroq mavritan va senegal jamoalari o'rtasidagi kelishmovchiliklar 1989-yili federatsianing tarqalib ketishiga olib keldi.

## SEN-PYER VA MIKELON

*Rasmiy nomi — Sen-Pyer va Mikelon (Fransianing hududiy birligi). Poytaxti — Sen-Pyer. Hududi — 242 km<sup>2</sup>. Aholisi — 7000 kishi (2005). Davlat tili — fransuz. Dini — katolik. Pul birligi — Fransiya franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Fransianing hududiy birligi bo'lib, Nyufaundlend (Kanada) orolining janubida, Atlantika okeanining shimoli g'arbida 8 ta mayda (eng yiriklari — Sen-Pyer, Langlad, Mikelon) orollardan iborat arxipelagda joylashgan davlat. Orollar toshli pasttekislik va yassitog'liklardan iborat.

Iqlimi — dengiz iqlimi. Orollarda to'tiqush, kolibri, hasharotlar ko'p. Dengizda ko'plab baliq turlari uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Siyosiy tuzilishi — Fransianing hududiy birligi. Boshqaruv rahbari — prefekt, Fransiya hukumati tomonidan tayinlanadi. Ma'muriy hududlarga bo'linmagan. Siyosiy partiyalari: Fransiya partiyalarining mahalliy bo'limlari amal qiladi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Aholining asosiy mashg'uloti — baliq ovlash. Mahalliy

sanoat asosini baliqni qayta ishlash tashkil etadi. Mashinasozlik, kemasozlik korxonalar mavjud. Iqlimi va yerning unumsizligi sababli qishloq xo‘jaligi rivojlanmagan. Mikelon orolida qoramol, cho‘chqa, qo‘y boqladi. 2004-yil YIM miqdori 900 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Kanada, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya.

Asosiy porti: Sen-Pyer. Xalqaro aeroport mavjud.

**Tarixi.** 1520-yili portugallar tomonidan kashf qilin-gan. 1604-yili fransuzlar tomonidan egallab olingan. 1816-yilgacha Buyuk Britaniya tarkibiga ham o‘tib turgan. 1946-yili Fransiyaning dengizorti hududi, 1976-yili dengizorti departamenti, 1985-yili Fransiya hududiy birligi maqomini oldi.

## SENT-VINSENT VA GRENAVIN

*Rasmiy nomi — Sen-Vinsent va Grenadin. Poytaxti — Kingstaun. Hududi — 389 km<sup>2</sup>. Aholisi — 117500 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik. Pul birligi — Sharqiy Karib dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Karib dengizining janubi sharqiy qismidagi Sent-Vinsent va Grenadin orollarida joylashgan davlat. Sohil bo‘ylab chegara uzunligi — 84 km. Mamlakat hududi vulqon otlishidan hosil bo‘lgan tepaliklardan iborat orollar.

Iqlimi — tropik mo‘tadil. Orollarning o‘rta qismi butunlay o‘rmon bilan qoplangan, biroq qimmatli turlari kam, asosan palma, non daraxtlari uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya, Britaniya Hamdo‘sstligi a’zosi. Sent-Vinsent 1979-yilning 27-oktabrida mustaqil davlat bo‘ldi (avval Buyuk Britaniya mustam-lakasi). Milliy bayramlari: 22-yanvar — Sent-Vinsent va Grenadin kuni, 27-oktabr — Millat kuni. Qonunchilik ingliz umumiyluq huquqiga asoslangan. Davlat rahbari — Britaniya monarxi (ayni paytda qirolicha Yelizaveta II), uning vakolatlarini general-gubernator amalga oshiradi.

Ijroiya hokimiyat Bosh vazir boshchiligidagi Vazirlar Mahkamasiga tegishli. Oliy qonunchilik organi — Majlis palatasi. Eng yirik siyosiy partiyalari: Yangi demokratik partiya (YDP), Sent-Vinsent leyboristik partiyasi (SVLP), Birlashgan xalq harakati (BXH), Progressiv demokratik partiya (PDP).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Iqtisodiyotining eng muhim sohasi — qishloq xo‘jaligi (banan — asosiy eksport mahsulotlaridan biri). Rivojlanib borayotgan turizm ham daromadning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarishi asosan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan iborat. 2004-yil YIM miqdori 900 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, AQSH, Karib havzasi davlatlari.

Avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi — 1184 km. Porti — Kingstaun.

***Tarixi.*** Sent-Vinsent oroli Kolumb tomonidan kashf qilingan va XVII asrgacha ispan mustamlakasi bo‘lib qolaverdi. XVII—XVIII asrlarda orol Fransiya bilan Buyuk Britaniya o‘rtasida talash bo‘ldi. Sent-Vinsent va Grenadin 1762-yili Buyuk Britaniyaning to‘la hukmronligi ostiga o‘tdi va 1783-yili mustamlaka deb e’lon qilindi. 1958—1962-yillarda orollar Vest-Indiya Federatsiyasiga kirdi, 1979-yili esa mustaqil davlat deb e’lon qilindi.

## **SENT-KITS VA NEVIS**

*Rasmiy nomi — Sent-Kits va Nevis Federatsiyasi. Poytaxti — Baster. Hududi — 261 km<sup>2</sup>. Aholisi — 38900 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik. Pul birligi — Sharqiy Karib dollari.*

***Geografik joylashuvi va tabiat.*** Karib havzasiagi ikki orolda (Sent-Kits va Nevis) joylashgan davlat. Shamolli orollar guruhiga kiradi. Qirg‘oq bo‘ylab chegara uzunligi — 135 km. Ichki qoyali qismga ega

orollar vulqon oqibatida paydo bo'lgan. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Mizeri tog'i (1155 m) Sent-Kits orolida joylashgan.

Iqlimi — tropik, mo'tadil issiq. Orollarning o'rmon bilan qoplangan tog'lari juda ko'rkam.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya, Britaniya Hamdo'stligi a'zosi. Mamlakat Buyuk Britaniyadan mustaqillikni 1983-yil 19-sentabrda qo'lga kiritgan. Bu kun Milliy bayram (Mustaqillik kuni) sifatida nishonlanadi. Qonunchilik ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Davlat boshlig'i — Britaniya monarxi (ayni damda qirolicha Yelizaveta II). Ijroiya hokimiyati ham Bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli. Oliy qonunchilik organi — Milliy Majlis (bir palatali parlament). Eng yirik siyosiy partiyalari: Xalq birligi harakati (XBH), Leyboristik partiya (LP), Birlashgan milliy harakat (BMH), Nevis reformistik partiyasi (NRP).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Mamlakat iqtisodiyoti an'anaviy tarzda shakarqamish yetishtirish va qayta ishslash bilan bog'liq (shakar — asosiy eksport mahsuloti). Boshqa qishloq xo'jalik ekinlari: sholi, yams, banan. So'nggi yillarda turizm tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2004-yil YIM miqdori 342320 mln dollarni (aholi jon boshiga — 8800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, KARIKOM mamlakatlari, Buyuk Britaniya.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 300 km. Asosiy portlari: Baster (Sent-Kits), Charlstaun (Nevis).

**Tarixi.** 1493-yili Kolumb kashf etgan bu orollar Ispaniya mustamlakasiga aylandi. XVII asrning boshlarida esa Buyuk Britaniya qo'l ostiga o'tdi. XVII—XVIII asrlarda orollar Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida talash bo'ldi, biroq 1783-yili Parij shartnomasi Buyuk Britaniyaning Sent-Kits va Nevisga bo'lgan huquqini tasdiqladi. Britaniya Hamdo'stligi doirasida 1967-yili muxtoriyatni qo'lga kiritgan orollar 1983-yilning sentabrida mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

## **SENT-LYUSIYA**

*Rasmiy nomi — Sent-Lyusiya. Poytaxti — Kastri. Hududi — 616 km<sup>2</sup>. Aholisi — 166300 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — katalik. Pul birligi — Sharqiy Karib dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Karib dengizining janubi sharqiy qismidagi Sent-Lyusiya orolida (Shamolli orollar) joylashgan davlat. Qirg‘oq bo‘ylab chegara uzunligi — 158 km. Vulqondan paydo bo‘lgan orol. Shimoldan janubga tomon o‘rmon bilan qoplangan tog‘lar halqasi cho‘zilgan. Mamlakatning eng baland nuqtasi — Jimi (950 m). Orolda bir nechta keng, hosildor vodiylar bor. Asosiy tabiiy boyligi — yog‘och.

Iqlimi — tropik, mo‘tadil. O‘simlik olami juda boy, bu yerda daraxtlarning qimmatli turlari va ko‘plab orxideyaga ega bo‘lgan nam tropik o‘rmonlar saqlanib qolgan. Hayvonot olami asosan qushlardan iborat. Qirg‘oqqa yaqin dengiz suvlari baliq, qisqichbaqasimonlar va marjonlarga boy.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya, Britaniya Hamdo‘sstligi a’zosi. Mamlakat 1979-yilning 22-fevralida mustaqillik olgan (oldin Buyuk Britaniya mustamlakasi). Milliy bayrami — 13 dekabr — Millat kuni. Qonunchilik ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Davlat boshlig‘i — Britaniya monarxi (ayni paytda qirolicha Yelizaveta II), uning vakolatini general-gubernator bajaradi. Ijroiya hokimiyati Vazirlar Mahkamasiga tegishli. Qonunchilik hokimiyati Senat (yuqori palata) va Majlis palatasi (quyi palata)dan iborat ikki palatali parlament tomonidan amalga oshiriladi. Eng yirik siyosiy partiyalari: Birlashgan ishchilar partiyasi, Progressiv leyboristlar partiyasi (PLP), Leyboristlar taraqqiyot partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining rivoji asosan qishloq xo‘jaligi va turizm sohasida kuzatiladi. Mehnatga layoqatli aholining 43% i band bo‘lgan qishloq xo‘jaligi YMMning 16% ini tashkil etadi. Banan va kokos yong‘oqlari eng muhim eksport

mahsulotlaridan hisoblanadi. Sanoat tarmoqlari orasida eng rivojlanganlari — to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati. 2004-yil YIM miqdori 900 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5400 dol.) tashkil etgan. Eng muhim hamkorlari: Buyuk Britaniya, AQSH, Karib havzasi mamlakatlari.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 760 km. Porti—Kastri.

**Tarixi.** 1502-yili Kolumb ochgan Sent-Lyusiya oroli 1635-yili fransuz mustamlakasi bo'lib qoldi. XII asrda orol navbat bilan fransuzlar qo'lidan inglizlar qo'liga o'tib yurdi, ammo 1814-yili Sent-Lyusiya butunlay Buyuk Britaniya qo'liga o'tdi. 1958—1967-yillarda Sent-Lyusiya Vest-Indiya Federatsiyasiga kirdi, 1979-yilning fevralida esa mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

## SERBIYA

*Rasmiy nomi — Serbiya Respublikasi. Poytaxti — Belgrad. Hududi — 88361 km<sup>2</sup>. Aholisi — 9396411 kishi (2002). Tili — serb. Dini — pravoslav, musulmonlar ham bor. Pul birligi — serb dinori*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Serbiya Yevropanining janubi sharqida, Bolqon yarimorolining markazida joylashgan. Uning hududini G'arbiy va Markaziy Yevropa, Yaqin Sharq, Osiyo va Afrika bilan bog'lovchi magistrallar kesib o'tadi. 7 ta davlat bilan chegaradosh: Sharqda — Bolgariya, shimoli sharqda — Ruminiya, shimolda — Vengriya, g'arbda — Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, janubi g'arbiy hududlari Chernogoriya bilan chegaradosh. Umumiy chegara uzunligi — 2397 km.

Serbiyaning shimoliy qismlarida hosildor Voyvodina pasttekisliklari joylashgan. Markaziy qismida o'rmonlar bilan qoplangan tepaliklar bor. Janubida baland tog'lar, tog' daryolari kesib o'tadigan keng o'rmonli massivlar joylashgan.

Serbiya umumiy maydonining 55% i ishlov beriladigan, 24% i esa o'rmon bilan qoplangan yerlar

hisoblanadi, eng **baland tog'** — Prokletiye bo'lib, uning eng **baland cho'qqisi** — Jerivitsa (dengiz sathidan 2656 m **baland**) hisoblanadi. Yana 15 ta **cho'qqilari** 2000 m dan **baland**.

**Iqlimi** — mo'tadil kontinental, o'simlik va hayvonot dunyosi juda boy. O'rmonlarining 4/5 qismi bargli, 1/5 qismi ignabargli o'rmonlardir. Serbiya hududlarida ayiq, to'ng'iz, bo'ri, tulki, quyon, yovvoyi echki, ohu, silovsin, bug'u, tog' echkisi va hokazolar uchraydi. Qushlar dunyosi ham xilma-xil Yevropa tabiatida mavjud bo'lgan 666 turdag'i qushlardan 508 turi Serbiyada uchraydi. Daryo, ko'l va kanallarda har hil turdag'i baliqlar ko'p. Serbiya hududlari rudalar, minerallarga boy: mis, oltin, kumush, qo'rg'oshin, rux, ko'mir va hokazolar.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishiga ko'ra parlamentar respublika. Ijro etuvchi hokimiyat umumiyligi, to'g'ridan to'g'ri saylovlarda 5 yil muddatga saylanadigan prezidentga va rais boshchiligidagi Ministrlar Kengashiga tegishli. Rais parlament tomonidan tasdiqlanadigan hukumat tuzadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — 1 palatali parlament — Skupshina. Skupshina deputatlari (250 ta) 4 yil muddatga xalq tomonidan saylanadi.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Sanoatining rivojlangan sohalari: oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo, metallga ishlov berish, avtomobil, qishloq xo'jalik texnikasini ishlab chiqarish, maishiy asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, dori-darmon, keng iste'mol mollarini va yog'ochni qayta ishlash sanoati yaxshi taraqqiy etgan. Qishloq xo'jaligida asosan makkajo'xori, bug'doy, qandlavlagi, kartoshka, olxo'ri va uzum yetishtiriladi. Chorvachilik ham taraqqiy etgan. 2006-yil YMM 43,46 mlrd doll. (aholi jon boshiga 5200 kishini tashkil etgan).

**Tarixi.** Hozirgi Serbiya hududlarida m. a. II ming yillikning 2-yarmida illiriy, frakiy, keyinchalik kelt qabilalari yashay boshlagan. VI—VII asrlarda Serbiya hududlarida slavyanlar paydo bo'lgan. IX asrning 2-yarmida serblar xristianlikni qabul qilgan. X asr o'rtalarida yirik davlat — serb knyazligi paydo bo'lgan. 1217-yili qirollik-

ka aylangan. 1389-yili Kosovo maydonidagi jangda serblar turk qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchragan. Shundan so'ng Serbiya turklarga qaram bo'ldi, 1459-yili esa Turkiya tarkibiga qo'shib yuboriladi. XVIII asr oxirdagi Rossiya, Turkiya urushlari serb xalqining milliy ozodlik harakatiga turtki bo'ldi. Turkiya sultonining 1830—1833-yillardagi farmonlariga ko'ra Serbiya Turkiya panohi ostidagi o'zini o'zi idora qiladigan avtonom knyazlik deb e'lon qilindi. 1838-yili Turkiya sultoni Serbiyada konstitutsiya joriy qildi. 1918-yil 1-dekabrda Serb, Xorvat va Slovenlarning birlashgan qirolligi tuzildi. 1941-yil aprelda Serbiya nemis-fashist qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Nemislar Belgradda general M. Nedich boshchiligidagi qo'g'irchoq «Serb hukumati»ni tuzishdi. 1945-yil 29-noyabrdagi Yugoslaviya Federativ Xalq Respublikasi e'lon qilingach Serbiya Yugoslaviya tarkibidagi respublikalardan biriga aylandi. XX asrning 90-yillari boshlari YSFR parchalanishi oqibatida Serbiya Chernogoriya bilan birgalikda yagona konfederatsiyaga birlashdi. 2006-yil mayda o'tkazilgan xalq referendumi natijalariga ko'ra mustaqil davlatga aylandi.

## SINGAPUR

*Rasmiy nomi — Singapur Respublikasi. Poytaxti — Singapur. Hududi — 622 km<sup>2</sup>. Aholisi — 4608600 kishi (2003). Davlat tili — ingliz, xitoy (mandarin lahjasi), malay, tamil. Dini — buddaviylik (30%), xristianlik (20%), islam (18%), induizm, taoizm, konfutsiylik (15%). Pul birligi — Singapur dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Mamlakat Singapur oroli va 50 dan ziyod kichik orollarda joylashgan Janubi Sharqiy Osiyodagi davlat. Singapur oroli Malay yarimorolidan Joxor bo'g'ozi, Sumatra orolidan Singapur bo'g'ozi bilan ajratilib turadi. Qirg'oq bo'ylab chegara uzunligi — 193 km. Mamlakat landshafti — pasttekisliklar. Markazda tepaliklar joylashgan. Asosiy milliy boyligi — baliq. Iqlimi mussonli, ekvatorial. O'simliklar asosan tropik o'rmonlar qoldiqlaridan

iborat, qirg'oq bo'ylarida mango changalzorlari bor. Orollarda paporotniklar va bambuklarning juda ko'p xillari mavjud, orxideyalarning ko'pligi hayratga soladi. Singapur faunasi, eng avvalo, qushlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Sut emizuvchilardan maymunlar va noyob jonzotlar — lemurlar yashaydilar.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Malayziyadan mustaqilligini 1965-yil 9-avgustda qo'lga kiritgan (Milliy bayrami — Respublika Milliy kuni). Qonunchilik ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Ijroiya hokimiyati prezidentga (davlat boshlig'i) va Bosh vazirga (hukumat boshlig'i) tegishli. Qonunchilik bir palatali parlament tomonidan amalga oshiriladi. Yigirmata siyosiy partiyalardan eng yirigi Xalq harakati partiyasi (XHP) bo'lib, u mustaqillikni qo'lga kiritgandan buyon hukmron partiya hisoblanadi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Singapurda sanoat, ayniqsa elektronika va kemasozlik sohalari yaxshi rivojlangan. Singapur — jahoning eng yirik savdo portlaridan biridir. Qishloq xo'jaligida asosan kauchuk yetishtiriladi. Kauchuk Singapurning asosiy eksport mahsuloti hisoblanadi. 2004-yil YIM miqdori 120900 mln dollarni (aholi jon boshiga — 27800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Malaziya, Yaponiya, Gonkong.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 38 km. Avtomobil yo'llari uzunligi — 2597 km.

**Tarixi.** XIV asrgacha bugungi Singapur hududlari Shri-Vidjaya imperiyasi tarkibiga kirgan. Undan so'ng Majapa Xit podsholigi tomonidan bosib olingan. XIV asrda bu yerlarning Malakka sultonligi o'z mulkiga aylantirgan. 1819-yil ingliz Tomas Reflz bu hududlarni sulton Johordan sotib olib Singapur shahriga asos solgan. Shundan so'ng Singapur Britaniya mustamlakachilik siyosatining asosiy tayanch nuqtalaridan biriga aylandi. II jahon urushi yillarda mamlakat yapon bosqinchilari tomonidan bosib olindi. Urushdan so'ng Singapur Britaniya mustamlakasi bo'lib qolaverdi. 1959-yil muxtoriyat huquqini oldi. 1965-yil avgustida Singapur o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi.

## SLOVAKIYA

*Rasmiy nomi — Slovakiya Respublikasi. Poytaxti — Bratislava. Hududi — 49035 km<sup>2</sup>. Aholisi — 5430000 kishi (2003). Davlat tili — slovak. Dini — katoliklar (60%), protestantlar (23%), pravoslavlavl (12%). Pul birligi — slovak kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Markaziy Yevropada joylashgan. Janubda — Vengriya, shimolda — Polsha, g'arbda — Chexiya va Avstriya, sharqda Ukraina bilan chegaradosh. Mamlakatning markaziy va janubiy qismi tekisliklardan iborat. Shimoli g'arbida va sharqida G'arbiy va Sharqiy Karpat tog'lari joylashgan. Shimolda Baland Tatra tog'lari bor. Asosiy daryolari: Dunay, Gron, Vag, Bodrog.

Iqlimi — mo'tadil, kontinental. Asosiy yerosti boyliklari: temir rudasi, surma, magneziy, marganets. Mamlakatning 1/3 qismi o'rmonzorlardir (dub, buk, archa, qarag'ay). Hayvonot olami kambag'al (bo'ri, tulki, ayliq, quyon, bug'u, tipratikan, tustovuq, kaklik).

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Slovakiyaning davlat tuzilishi — respublika. BMT va XVF a'zosi. Davlat boshlig'i — prezident. Hukumat boshlig'i — Bosh vazir. Oliy qonun chiqaruvchi organ — Milliy Kengash. Ma'muriy jihatdan 8 hududga bo'linadi. Siyosiy partiyalari: Demokratik Slovakiya uchun harakat, Demokratik so'llar partiyasi, Slovakiya milliy partiyasi, Xristian-demokratik harakat.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Slovakiya industrial-agrar mamlakat. Gandlov va Madri-Kamenda iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan ko'mir konlari mavjud. Rossiyadan keladigan gaz va neft trassalari o'tadi. Tog'-kon sanoati rivojlangan. Gidroelektrostantsiyalar ko'p. Slovakiyaning dehqonchilik uchun yaroqli yerlari hududining 1/3 qismini tashkil etadi (bug'doy, arpa, lavlagi, makkajo'xori, kartoshka yetishtiladi). Vag vodiysida tamakichilik va bog'dorchilik rivojlangan. Mamlakatda chorvachilik ham taraqqiy etgan. Tog'li kurortlar mavjud. 2004-yil YIM miqdori 78890 mln dollarni (aholi jon boshiga — 14500 dol.)

tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Chexiya, Rossiya, Italiya, Polsha.

Asosiy daryo portlari: Bratislava, Komarno.

**Tarixi.** M. a. V asrda mamlakat hududida frakiy qabilalari yashagan. M. a. III asrda bu yerda keltlar paydo bo'ldi. I asrda mamlakat hududi rimliklar tomonidan egallangan. VI asrdan boshlab Slovakiyaga slavyan qabilalari ko'chib kela boshladgi. X asrda Buyuk Moraviya davlati tarkibiga qo'shildi. XI asrda Vengriya qirolligiga tobe bo'ldi. XVI asrda Janubiy Slovakiya usmoniyalar tomonidan istilo qilindi, qolgan qismi Gabsburglar imperiyasi tarkibiga o'tdi. XVII asrda mamlakat to'liq Gabsburglar Avstriyasi tarkibiga kiritildi. 1867-yildan Slovakiya yangi tashkil topgan Avstro-Vengriya tarkibida bo'ldi. 1918-yili Avstro-Vengriya tarqatilishi bilan Slovakiya Chexiya bilan birlashdi va Chexoslovakija davlatini tahkil etdi. 1939-yili Germaniya «Myunxen bitimi»ga ko'ra Chexoslovakijani egal-lab, «mustaqil Slovakiya» davlatini tashkil ettirdi. Slovakiya II jahon urushida Germaniya tarafida turib urushgan. 1945-yil Slovakiya sovet qo'shinlari tomonidan ozod etildi va kommunistik rejim o'rnatildi. 1968-yili Chexoslovakiyada demokratik islohotlar o'tkazildi, senzura bekor qilindi. Bunga javoban mamlakatga SSSR, GDR, Polsha va Bolgariya qo'shinlari kiritildi. Bu siyosiy holat «Praga bahori» nomini olgan. Kommunistik rejim qayta tiklandi. 1989-yili «yumshoq inqilob» natijasida kommunistlar hokimiyati ag'darildi. 1992-yili Chexiya bilan bo'lgan uzoq tortishuvlardan so'ng davlat ikki qismga — Chexiya va Slovakiyaga ajratildi. 1993-yil 1-yanvarda Slovakiya mustaqillik deklaratsiyasini e'lon qilib, BMTga a'zo bo'ldi.

## SLOVENIYA

Rasmiy nomi — Sloveniya Respublikasi. Poytaxti — Lyublyana. Hududi — 20250 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1935700 kishi (2003). Davlat tili — sloven. Dini — katoliklar (96%), pravoslavlavl (1%), musulmonlar (1%). Pul birligi — tolar.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Bolqon yarimorolining shimoliy qismida, Yevropaning janubi sharqida joylashgan davlat. Janubda va janubi sharqda — Xorvatiya, g'arbda — Italiya, shimolda — Avstriya, shimoli sharqda — Vengriya bilan chegaradosh. G'arbiy sohillari Adriatika dengizi bilan tutashgan. Mamlakat g'arbida Yuliy Alplari viloyati joylashgan. Sharqda tog'lar, daryo vodiylari bilan almashinib turadi. Mamlakat markazida baland bo'limgan tog'lar ustunlik qiladi. Mamlakatning eng baland nuqtasi Triglav (2863 m) tog'idir. Asosiy daryolari: Drava va Sova. Karet ko'llari va tog' muzliklari uchrab turadi.

Iqlimi — mo'tadil kontinental. Foydali qazilmalardan: qo'ng'ir ko'mir, qo'rg'oshin, rux, simob, uran va kumush mavjud. Mamlakat hududining 50% ini o'rmonlar egallagan. Eman, archa kabi daraxtlar keng tarqalgan. Hayvonlardan ayiq, qobon, silovsin, kiyik va ohularni uchratish mumkin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni ikki palatali parlament amalga oshiradi, u Davlat Kengashi hamda Davlat yig'inidan tashkil topgan. Ma'muriy jihatdan mamlakat 60 ta provinsiyaga bo'lingan. Yirik siyosiy partiyalari: Xristian-demokratlar partiyasi, Liberal demokratik partiyasi, Sotsial demokratik partiyasi, Xalq demokratik partiyasi, Sloveniya milliy partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sloveniya — industrial-agrar davlat. Uning iqtisodi sanoat ishlab chiqarishga asoslangan. Ko'mir, qo'rg'o-shin, rux rudalari qazib olinadi va qayta ishlanadi. Poytaxt Lyublyanada va Yesenitse shahrida og'ir sanoat korxonalari joylashtirilgan. Ammo sanoat tarmoqlari asosini mashinasozlik, kimyo, yengil sanoat tashkil etadi. Metallurgiya, yog'ochni qayta ishlash, teriga ishlov berish, sport mollari ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish yaxshi taraqqiy etgan. Bu mahsulotlar tashqi bozorlarda chiqariladi. Yangi sanoat tarmoqlari elektron uskunasozlik, kimyo va farmakologiya sanoati, transport mashinasozligi kabilalaridan iborat. Poligrafiya sohasini alohida qayd etib o'tish

zarur. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining 40% ini o'simliklar o'stirish, 55% ini chorvachilik, 5% ini uzumchilik va mevachilik tashkil etadi. Yaylov chorvachiligi Alp va Subalp viloyatlari hamda Karetda keng tarqalgan. O'rmonchilik iqtisodning favqulodda muhim sohalaridan bo'lib qolmoqda. Hukumat keyingi yillarda turizm sohasidagi xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirmoqda. Turizmdan kelib tushadigan daromadlar asosiy valyuta tushumlari manbalaridan biridir. 2004-yil YIM miqdori 39410 mln dollarni (aholi jon boshiga — 19600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Italiya, Fransiya, Xorvatiya, Avstriya.

Asosiy portlari: Koper, Piran.

**Tarixi.** M. a. I asrda bu yerlar Rim imperiyasi tarkibiga kirgan. Sloveniya hududiga slavyanlar VI asrda kirib kelishgan. M. a. 628—258-yillarda bu hududlar Samo davlati, keyinchalik Kariptoniya tarkibiga kirgan. XI—XIII asrlarda Sloveniya hududida bir qator feodal knyazliklar — Shtiriya, Krayna va boshqalar vujudga keldi. XVI asr boshlaridan mamlakatning deyarli butun hududi Avstriya Gabsburglari tomonidan bosib olingan edi. 1809—1813-yillarda Ilmiriy provinsiyalari sifatida Napoleon davlati tarkibiga kirgan. XIX asrning 70-yillarida madaniy va milliy avtonomiya shiorlari ostidagi milliy-ozodlik harakatlari kuchayib bordi. 1918-yili Sloveniya Serblar, Xorvatlar va Slovenlar qirolligi tarkibiga qo'shildi (1929-yildan Yugoslaviya davlati nomini oldi). 1941-yilda Yugoslaviya Germaniya, Italiya, Vengriya qo'shnulari tomonidan ishg'ol qilindi. Nemis bosqinchilariga qarshi kurashga Yugoslaviya Xalq ozodlik armiyasi otlandi. II jahon urushidan so'ng Sloveniya Yugoslaviya federatsiyasi tarkibiga kirdi. Italiya bilan imzolangan tinchlik shartnomasiga ko'ra slovenlar ko'pchilikni tashkil qilgan hududlarning barchasi Yugoslaviya tasarrufiga topshirildi. Yugoslaviya tarkibida Sloveniya keng madaniy va iqtisodiy avtonomiyaga ega bo'ldi. 1980-yillarning oxirlarida Sloveniya siyosiy rahbariyati ko'ppartiyaviylik asosidagi saylovlarni o'tkazishga qaror qildi. 1990-yil aprelda Yugoslaviyada birinchi bor ko'ppartiyaviylik asosida demokratik saylovlarni o'tkazildi. 1991-yil 21-avgustda Sloveniya

mustaqillik to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qildi. 1991-yil oktabrida to‘la mustaqil davlatga aylandi. Sloveniya 1992-yil may oyida BMTga a’zo bo‘ldi.

## **SOLOMON OROLLARI**

*Rasmiy nomi — Solomon Orollari. Poytaxti — Xoniara. Hududi — 28370 km<sup>2</sup>. Aholisi — 509200 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik. Pul birligi — Solomon orollari dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Tinch okeanining janubiy qismida Solomon orollarida (Gvadalkanal, Nyu-Jorjiya, Malayta, Santa-Izabel, Santa-Krus orollarida va boshq.) joylashgan davlat. Ko‘pchilik orollarning relyefi tog‘li: Marjon atollarida tekisliklar bor. Asosiy tabiiy resurslari: baliq, yog‘och, oltin, qo‘rg‘oshin, sink, nikel, fosforitlar.

Iqlimi — uzoq davomli namlik mavsumi va issiq. Orollarning katta qismi noyob daraxt turlari mavjud bo‘lgan o‘rmonlar bilan qoplangan. Nisbatan quruq yerlarda savannalar, qirg‘oq bo‘ylarida mangro o‘simliklari bor. Orollarning hayvonot dunyosi ancha kambag‘al: xaltalilar, ko‘rshapalaklar va kemiruvchilar uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitusion monarxiya. Mamlakat 7 ta okrugga bo‘lingan. Solomon orollari 1978-yil 7-iyulda mustaqil davlat bo‘lgan (ilgari — Buyuk Britaniyaning protektorati edi). Davlat boshlig‘i — Britaniya monarxi (hozirgi vaqtida qirolicha Yelizaveta II), ijroiya hokimiyat premyer-ministriga tegishli. Qonunchilik Milliy parlament tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalari: Xalq ittifoqi partiyasi, Solomon orollari birlashgan partiyasi, Solomon orollari liberal partiyasi, Solomon orollari leyboristlar partiyasi, Solomon orollari milliy harakati partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyotining asosini qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va o‘rmonchilik (YMMning 70% i) tashkil etadi. Asosiy eksport qilinadigan mahsulotlari — baliq, yog‘och,

kopra, palma yog'i. Sanoat mahsulotlarining katta qismi va neft mahsulotlarini chetdan keltiradi. 2004-yil YIM miqdori 866 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1700 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari — Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Tailand.

Temiryo'llari yo'q, avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 1300 km. Porti — Xoniara.

**Tarixi.** Solomon orollari 1568-yili ispan dengizchisi Mendonya de Neyra tomonidan kashf qilingan. Orollarning shimoliy qismi 1885-yili Germaniya protektorati deb e'lon qilingan, janubiy qismi esa Buyuk Britaniya mulklariga qo'shildi. 1899-yili Germaniya Buganvil va Buka orollaridan boshqa hamma orollarni Buyuk Britaniyaga berdi. Buning evaziga inglizlar Germanianing G'arbiy Samoani bosib olish huquqini tan olishdi. 1914-yili Buganvil va Buka Avstraliya qo'shinlari tomonidan bosib olindi va 1920-yili Avstraliya boshqaruvi ostiga o'tdi. Ikkinci jahon urushida orollarning bir qismi yapon qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilindi, ikkinchi jahon urushidan keyin esa Solomon orollari yana Britaniya protektoratiga aylandi. 1978-yili Solomon orollarining mustaqilligi e'lon qilindi va Britan Hamdo'stligi davlatlari safiga kirdi.

## SOMALI

Rasmiy nomi — *Somali Demokratik Respublikasi*. Poytaxti — *Mogadisho*. Hududi — 637657 km<sup>2</sup>. Aholisi — 8025200 kishi (2003). Davlat tili — somali va arab. Dini — islam (99% aholi musulmon sunniylar). Pul birligi — *Somali shillingi*.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrikaning sharqiy qismida, Somali yarimorolida joylashgan davlat. G'arbda Efiopiya (chegara uzunligi 1600 km), janubi g'arbda Keniya (682 km), shimoli g'arbda Jibuti (58 km) bilan chegaradosh. Sharqda va janubda mam-lakat Hind okeani bilan, shimolda Aden ko'rfazi bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi —

2340 km. Sohil bo'ylab chegara uzunligi esa — 3025 km. Mamlakat relyefi tekis va tepalikli tekisliklardan, shimolda tepaliklardan iborat. Somalida uran, temir rudasi, boksitlar, qo'rg'oshin, surma, mis zaxiralari bor.

Iqlimi — quruq va issiq tropik. Somalining deyarli 90% hududi yarimcho'llar va quruq savannalardan iborat. Bu yerda ko'p yillik o'tlar, akatsiyalar ko'p. O'rmonlarda palmalar, 20 metrli fikuslar bor. Savannalarda antilopalar, zebralalar, jirafalar va leopardlar yashaydi. Daryo havzalarida fillar, karkidonlar uchraydi. Maymunlar ko'p. Somalining markaziy qismida balandligi 7 metrgacha bo'lgan termit uyalari bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 18 ta viloyatga bo'lingan. Somali 1960-yil 1-iyuldan mustaqil (ilgari Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan) davlat hisoblanadi. Bu sana Milliy bayram — Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadi. Ijroiya hokimiyat mamlakat konstitutsiyasiga ko'ra prezidentga va premyer-ministr boshchiligidagi Ministrler Kengashiga tegishli. Fuqarolar urushi tufayli hukumat amalda mamlakatni nazorat qila olmayapti. Mamlakatda 15 dan ortiq urug'-qabilachilik asosida tuzilgan harbiy-siyosiy tashkilotlar bor. Ulardan eng yiriklari — Birlashgan Somali kongressi, Somali milliy harakati, Somalini qutqarish demokratik fronti, Somali milliy alyansi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Dunyoning eng kambag'al davlatlaridan biri bo'lgan Somalida iqtisodiyotning muhim sektori qishloq xo'jaligi (YMMning 40% i va taxminan eksportdan keladigan foydaning 65% ini tashkil qiladi) hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida asosan chorvachilik bilan shug'ullaniladi. 2004-yil YIM miqdori 4597 mln dollarni (aholi jon boshiga — 600 dol.) tashkil etgan. Asosiy eksport qiladigan mahsuloti bananlar, bundan tashqari shakarqamish, sorgo va makkajo'xori ham yetishtiriladi. Sanoati uncha katta bo'limgan shakar, to'qimachilik va neft korxonalarini bilan cheklangan. XX asrning 90-yillari boshida yuritilgan beqaror siyosiy holat ishlab chiqarish hajming sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Asosiy

savdo hamkorlari — AQSH, Italiya, Germaniya, Saudiya Arabistonи.

Avtomobil yo'llarining umumiyligi — 15215 km. Mamlakat portlari: Barbara, Mogadisho.

**Tarixi.** II—VII asrlarda hozirgi Somali hududlari efioplarning Aksum davlati tarkibiga kirgan. VII asrdan Somaliga arablar kirib kelishdi. Ular bu yerda islam dinini va arab tilini yoyishdi, XIX asrgacha saqlanib turgan bir qator sultonliklarini tuzishdi. XIX asrning oxirlarida mamlakatni yevropaliklar tomonidan mustamlakalashtirish boshlandi. Hozirgi Somali hududlari Buyuk Britaniya, Italiya va Fransiya davlatlari o'rtasida bo'lib olindi. Britaniya Somalisi 1960-yil 26-iyunda mustaqillik oldi, 1960-yil 1-iyulda Italiya Somalisining mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng esa yagona Somali davlati tuzildi. 1969-yili harbiylar davlat-to'ntarishi o'tkazib mamlakat prezidentini o'ldirishdi. 1977-yili Somali Efiopiyaga qarshi urush boshladı, biroq unda mag'lubiyatga uchradi. Mamlakatda boshlangan fuqarolar urushi 1991-yili general Barrening qulashiga va BMT homiyligidagi harbiy intervensiyaning boshlanishiga olib keldi. Biroq bu ham Somalidagi urushayotgan urug'larni o'zaro yarashtira olmadi.

## SUDAN

*Rasmiy nomi — Sudan Respublikasi. Poytaxti — Kartum. Hududi — 2505813 km<sup>2</sup>. Aholisi — 38114200 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — musulmonlar (70%), majusiyilar (25%), xristianlar (5%). Pul birligi — Sudan dinori.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Afrika qit'asining shimoli shargida joylashgan davlat. Sharqda Efiopiya va Eritreya (chegara uzunligi — 2221 km), g'arbda Chad respublikasi (1360 km), markaziy Afrika respublikasi (1165 km) va Liviya (383 km), shimolda Misr (1273 km), janubda Zoir (628 km), Uganda (435 km) va Keniya (232 km) bilan chegaradosh. Sharqda Sudan Qizil dengiz bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiyligi — 7697 km, sohil

bo'y lab chegara uzunligi esa 853 km. Sudan Afrika davlatlari orasida hududi bo'yicha eng yirigi hisoblana-di. Uni 3 ta fizik-geografik regionga bo'lish mumkin: shimolda Liviya va Nubiya cho'llari 30% hududini egal-lagan; markazida Kardofan va Darfur tekisliklari bor; janubini keng botqoqlar va changalzorlar egallagan. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Kineti tog'i (3187 m) bo'lib, u Sudanning janubi sharqida joylashgan. Mamlakatning asosiy daryolari — Nil, Oq Nil, Moviy Nil. Asosiy foydali qazilmalari: neft, temir rudasi, sink, mis, xrom, volfram, kumush. Haydaladigan yerlar mamlakat- hududining 5% ini, o'tloq va yaylovlari 24% ini, o'rmon va to'qayzorlar 20% ini egallaydi.

Iqlimi — issiq va quruq.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalar.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 9 ta viloyatga bo'lingan. Sudan 1956-yili 1-yanvarda Misr va Buyuk Britaniyadan mustaqillik olgan. Bu sana Milliy bayram sifatida nishonlanadi (Mustaqillik kuni). Qonunchilik ingliz umumiyligi huquqshunosligiga va islom huquqshunosligiga asoslangan. Ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyat prezidentning (davlat va hukumat boshlig'i) va Milliy Assambleyaning qo'lida to'plangan. 1989-yil 30-iyundagi davlat to'ntarishidan so'ng siyosiy partiyalar faoliyatini taqiqlab qo'yilgan.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sudan iqtisodiyoti fuqarolar urushi, doimiy siyosiy be-qarorlik va yuqori inflyatsiya tufayli chuqur inqirozni boshidan kechirmoqda. YMM 1994-yili 23,7 mlrd dollar (YMM aholi jon boshiga 870 dollar)ni tashkil etgan. Iqtisodiyotda davlat sektori ustunlik qiladi. Xususiy sektorning asosini qishloq xo'jaligi va savdo tashkil qiladi. Iqtisodiyotining asosiy sektori bo'lgan qishloq xo'jaligi (YMMning 35% i)da ishga yaroqli aholining 80% i band (eksportning yarmidan ko'prog'i paxta). Ishlab chiqarish asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq. Noqulay ob-havo sharoiti mamlakatning iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashtirmoqda. Hozirgi kunda Sudan aholi daromadining ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda oxirgi o'rinalardan birini egallaydi. 2004-yil YIM miqdori 76190 mln dollarni (aholi jon boshiga —

1900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — G'arbiy Yevropa, Saudiya Arabiston, AQSH, Yaponiya, Sharqiy Yevropa mamlakatlari.

Temiryo'llarinig umumiy uzunligi — 5516 km, avtomobil yo'llarinig umumiy uzunligi — 20703 km, ichki suv yo'llari — 5310 km. Mamlakatning asosiy porti — Port-Sudan.

**Tarixi.** M. a. III ming yillikda hozirgi Sudan hududida Nubiya sivilizatsiyasi shakllangan bo'lib, qadimgi Misr tarixi bilan chambarchas bog'liq. Nubiya shohligi Misr sivilizatsiyasi bilan munosabatlarini uzganidan so'ng m. a. 350-yili Efiopiya shohi tomonidan bosib olindi. VI asrga kelib hozirgi Sudan hududida bir nechta xristian davlatlari shakllandı. Biroq ular XV asrda qora tanli musulmonlar tomonidan bo'ysundirilib, Sennar sultonligini tuzishdi, bu vaqtida mamlakat g'arbida Darfur sultonligi ham tuzilgan edi. XVIII asr oxirlarida ushbu musulmon davlatlarining zaiflashganligidan foydalanib 1820-yili Misr Sudanni bosib oldi. XIX asrning 60-yillarida Sudanda Misrning bosib olinishi bilan Buyuk Britaniyaning ta'siri kuchaya boshladi. 1951-yil oktabrida Misr qiroli Farrux Britaniya bilan kelishuvni buzib, o'zini Sudanning qiroli deb e'lon qildi. 1956-yil Sudan mustaqillikka erishdi. Sudan mustaqillikka erishganidan so'ng bir nechta davlat to'ntarishlarini o'z boshidan kechirdi. Ulardan biri 1971-yili sodir bo'lib, uning natijasida general Nimeyra hokimiyat tepasiga keldi. Nimeyra tez-tez sodir bo'lib turadigan qurg'oqchilik va ochlik tufayli mamlakatni inqirozdan olib chiqa olmadi. Fuqarolar urushi 1985-yil Nimeyra hukumatining qulashiga olib keldi. 1986-yil esa mamlakatda demokratik saylovlar bo'lib o'tdi. Yangi tuzilgan hukumat ham 1989-yili general al-Bashir tomonidan ag'darildi. Shundan so'ng fuqarolar urushi yana butun mamlakatni qamrab oldi.

## SURINAM

Rasmiy nomi — Surinam Respublikasi. Poytaxti — Paramaribo. Hududi — 163820 km<sup>2</sup>. Aholisi — 435400 kishi (2003). Davlat tili —

*golland. Dini – induizm (27%), protestantlik (25%), katoliklar (23%), musulmonlar (20%), majusiyalar (5%). Pul birligi – Surinam guldeni yoki florin.*

**Geografik joylashkuvi va tabiat.** Janubiy Amerikaning shimoli sharqida joylashgan davlat. Janubda Braziliya (chegara uzunligi — 597 km), g‘arbda Gayana (600 km), sharqda fransuz Gvianasi (510 km) bilan chegaradosh. Shimolda Surinam Atlantika okeani bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 1707 km. Sohil bo‘ylab chegara uzunligi esa 386 km. Mamlakatning katta qismi balandligi 1280 m gacha bo‘lgan Gvian yassitog‘linining shimoli sharqida joylashgan. Hududi asosan tepaliklardan iborat. Shimolda qirg‘oqbo‘yi botqoqlik tekisliklar bor. Bosh daryolari — Maroni, Karonteyn. Asosiy tabiiy resurslari: boksitlar, temir rudasi, yog‘och, baliq, krevetkalar.

Iqlimi — subekvatorial issiq. Daraxtlarning noyob turlari mavjud bo‘lgan doimiy yashil o‘rmonlar Surinam hududining 90% ini egallaydi. Shimolda savannalar bor. Mamlakat faunasi tropik selvasiga xos.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 10 ta okrugga bo‘lingan. Surinam 1975-yili 25-noyabrda Niderlandiyadan mustaqillik olgan (ilgari Nederland Gvianasi bo‘lgan). Milliy bayramlari: 25-fevral — Ozodlik va yangilanish kuni (1980), 25-noyabr — Mustaqillik e’lon qilingan kun (1975). Ijroiya hokimiyat prezidentga (davlat boshlig‘i) va vitse-prezidentga (uning o‘zi premyer-ministr) tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Milliy Assambleya tomonidan amalga oshiriladi.

Eng yirik siyosiy partiyalari: Demokratiya va taraqqiyot uchun yangi front, Milliy demokratik partiya, Surinam milliy partiyasi, Islohotlar taraqqiyot partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Surinam iqtisodiyoti 1982-yili Gollandiya moliyaviy yordam berishni to‘xtatganidan so‘ng og‘ir qiyinchiliklarni boshdan kechirdi, shuningdek, siyosiy beqarorlik ham sanoat taraqqiyotiga va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda

o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Sanoatining yetakchi tarmoqlari alyuminiy ishlab chiqarish (umumiyligi eksport hajmining 70% i), boksitlar qazib olish, yog‘ochni qayta ishlash. Qishloq xo‘jaligida (YMMning 11% i) asosiy yetishtiriladigan ekin sholi (qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 60% i) hisoblanadi. 2004-yil YIM miqdori 1940 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Norvegiya, Niderlandiya, AQSH, Germaniya, Braziliya.

Temiryo‘llarining umumiyligi — 166 km, avtomobil yo‘llari — 8300 km, ichki suv yo‘llari esa 1200 km. Asosiy porti — Paramaribo.

**Tarixi.** Hindularning aravak, varau va karib qabilalari istiqomat qilib kelgan hozirgi Surinam hududlari ilgari inglizlarga tegishli bo‘lgan, 1667-yili esa Gollandiyaga berilgan. 1954-yili muxtor provinsiya maqomini olgan Surinam 1975-yili noyabrida mustaqil respublika bo‘ldi. 1980-yilgi harbiy to‘ntarishi oqibatida mamlakatda hokimiyat harbiylar qo‘liga o‘tdi. 1988-yili harbiylar hukumatni fuqarolik hukumatiga bergenidan so‘ng demokratiyaga qaytish boshlandi va mamlakatda erkin prezident saylovlari bo‘lib o‘tdi.

## SURIYA

*Rasmiy nomi — Suriya Arab Respublikasi.  
Poytaxti — Damashq. Hududi — 185200 km<sup>2</sup>.  
Aholisi — 17585500 kishi (2005). Davlat tili — arab. Dini — islom. Pul birligi — Suriya funti.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Suriya Janubi G‘arbiy Osiyoda joylashgan davlat. Shimolda Turkiya (chegara uzunligi — 822 km), sharqda Iroq (605 km), janubda Iordaniya (375 km) va Isroiil (79 km), g‘arbda Livan bilan (375 km) chegaradosh. Mamlakat hududining asosiy qismini tekisliklar egallagan. Janubda Suriya cho‘llari joylashgan. G‘arbda Suriya O‘rta Yer dengizi bilan tutashib ketgan.

Mamlakatning g‘arbiy qismida Ansoriya va Antilivan tog‘ tizmalari joylashgan. Suriyaning eng baland cho‘qqisi — Xerman (2814) ham shu yerda joylashgan.

Asosiy daryolari: Frot va Al-Asi. Mamlakat neft, fosfat, marganets konlariga boy. Hududining 28% ida dehqonchilik qilinsa, 46% i yaylovlardan iborat.

Suriya iqlimi ancha iliq bo'lib, O'tra Yer dengizi sohillari boshqa hududlardan keskin farq qiladi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezidentlik respublikasi. Mamlakat 14 ta ma'muriy hududga bo'lingan. Suriya 1946-yil 17-aprel-da o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Davlat va ijroiya hokimiyat rahbari — prezident. Oliy qonun chiqaruvchi organi bir palatali parlament — Xalq Kengashi. Yirik siyosiy partiyalari: Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi, Milliy sotsialistik partiya, Taraqqiyot milliy fronti (7 ta partiyani birlashtirgan).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** 1991-yil bo'lib o'tgan Iroq—Quvayt urushidan so'ng Suriya arab va G'arbiy Yevropa davlatlaridan sezilarli darajada moliyaviy yordam oldi. Bu narsa mamlakatning tashqi qarzlarini to'lashga va neftni qayta ishslash sanoatini rivojlantirishga yordam berdi. Neft va fosforit qazib olish Suriya sanoatining asosini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi umummiliy mahsulotning 30% ini yetishtiradi. 2004-yil YIM miqdori 60440 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3400 dol.) tashkil etgan. Asosiy ekinlar: paxta, bug'doy, arpa. Suriya o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay olmaydi. Asosiy savdo hamkorlari: Yevropa Ittifoqi davlatlari.

Temiryo'llari uzunligi — 1998 km. Avtomobil yo'llari — 31569 km. Asosiy portlari — Tartus va Baniyaz.

**Tarixi.** Bugungi Suriya hududlari tarixning turli davrlarida turli xil davlatlar tarkibiga kirgan. M. a. XVI asrda qadimgi Misr, m. a. XIV asrda Xett podsholigi, m. a. XII asrga kelib bu hududlar yahudiylar tomonidan ishg'ol qilingan. M. a. VII—VI asrlarda bu hududlar ossuriyaliklar tomonidan egallangan. M. a. 539-yilda forslar, m. a. 333-yilda Aleksandr Makedonskiy imperiyasi tarkibiga kirdi. M. a. III asrda salavkiylar sulolasi Suriya podsholigiga asos soldi. M. a. 64-yildan bu podsholik Rim imperiyasi tarkibiga kiritildi. 636-yilda bu hududlar arablar tomonidan bosib olindi. Keyin

Suriya salibchilar tomonidan tashkil etilgan Quddus podsholigi tarkibiga kirdi. 1516-yildan 1920-yilgacha Suriya Usmoniyalar imperiyasining tarkibiy qismi bo'lib qoldi. 1920-yili Fransiya Suriyani boshqarish huquqini oldi. 1914-yil sentabrda Suriya o'z mustaqilligini e'lon qilgan bo'lsa-da, amalda 1946-yilning 17-apreldidan to'la mustaqillikka erishdi.

## SERRA-LEONE

*Rasmiy nomi — Serra-Leone Respublikasi.  
Poytaxti — Fritaun. Hududi — 71740 km<sup>2</sup>.  
Aholisi — 5732700 kishi (2003). Davlat tili —  
ingliz. Dini — majusiylilik (52%), islom (40%),  
xristianlik (8%). Pul birligi — leone.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrika qit'asining g'arbiy qismida joylashgan davlat. Shimolda va sharqda Gvineya (chegara uzunligi 652 km), janubi sharqda Liberiya (306 km) bilan chegaradosh. G'arbda va janubi g'arbda mamlakat Atlantika okeani bilan tutashib ketgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 958 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi esa 402 km. Mamlakat hududining katta qismi Leon-Liberiya tepaligida joylashgan. G'arbida va janubida qirg'oqbo'yi mangro botqoqliklari bor. Tabiiy resurslaridan nisbatan muhimlari — olmos, boksitlar, titan rudasi, temir rudasi, oltin. Ishlov beriladigan yerlar umumiy hududining 25% ini, o'tloq va yaylovlar 31% ini, o'rmon va to'qayzorlar 29% ini egallaydi.

Iqlimi — ekvatorial nam. Serra-Leone hududlarining taxminan yarmini savannalar, sharqida tog'lar va janubida ekvatorial o'rmonlari bor. O'rmonlarda juda ko'p maymunlar (shimpanze, babuinlar, makakalar), qoplon, giyena, antilopa, zebraclar bor, kichik begemotlar saqlanib qolgan. Shuningdek, noyob dengiz hayoni — lamantin ham uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — harbiy tartib. Mamlakat tarkibida — G'arbiy viloyat va 3 ta provinsiya (sharqi, shimoliy, janubiy) bor. Serra-Leone 1961-yil 27-aprelda mustaqillikka

erishgan (ilgari Buyuk Britaniyaning protektorati bo'lgan). Bu kun Milliy bayram (Respublika kuni) sifatida nishonlanadi. Qonunchilik ingliz huquqshunosligiga va mahalliy qabilalar qonunlariga asoslangan. Butun hokimiyat Muqqat Milliy Boshqaruv Kengashiga tegishli. Mamlakat parlamenti (Deputatlar palatasi) 1992-yil 29-aprelda sodir bo'lgan davlat to'ntarishidan so'ng tarqatib yuborilgan. Siyosiy partiyalar: Serra-Leone xalq partiyasi, Xalq demokratik partiyasi, Milliy birlik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi ilg'or tarmoq hisoblanadi (YMMning 1/3 qismini tashkil qiladi). Asosiy eksport qiladigan mahsulotlari — qahva va kakao. YMMning 10% ini tashkil qiladigan sanoat (olmos, boksitlar, rutil) va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash bilan cheklangan. 2004-yil YIM miqdori 3335 mln dollarni (aholi jon boshiga — 900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Nigeriya.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 7400 km (shundan 1150 km. tosh yotqizilgan yo'llar), ichki suv yo'llari — 800 km. Asosiy portlari — Bonte, Pepel, Fritaun.

**Tarixi.** 1460-yili portugallar tomonidan ochilgan hozirgi Serra-Leone hududlari uzoq vaqt davomida G'arbiy Afrikaning qul savdosi markazlaridan biri bo'lib keldi. 1787-yili Amerikada ozodlikka erishgan sobiq qullar Serra-Leone qirg'oqlarida inglizlar yordamida o'z turar joylariga asos soldilar. 1808-yili Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylantirilgan bu mamlakat 1961-yili Britan Hamdo'stligi doirasida muxtoriyatga erishdi. 1971-yilgi davlat to'ntarishi natijasida Serra-Leone mustaqil davlat deb e'lon qilindi. 1992-yili navbatdag'i davlat to'ntarishi o'tkazildi va hokimiyatga harbiylar kelishdi. Ular parlamentni tarqatib yuborishdi va siyosiy partiyalar faoliyatini taqiqlab qo'yishdi.

## TAILAND

*Rasmiy nomi — Tailand Qirolligi (Pratet-Tai). Poytaxti — Bangkok. Hududi — 513115 km<sup>2</sup>. Aholisi — 64265300 kishi (2003). Davlat tili — tay. Dini — buddaviylik (95%). Pul birligi — bat.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Janubiy-Sharqiy Osiyodagi davlat. Shimol va g'arbda Tailand Myanma (chegara uzunligi — 1800 km), shimoliy sharqda Laos (1754 km), janubiy-sharqda Kamboja (803 km), janubda Malayziya (506 km) bilan chegaradosh. Mamlakatning janubiy-g'arbida Andaman dengizi, janubiy-sharqida Siam qo'lltig'i joylashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 4863 km. Qirg'oq chizig'inining uzunligi — 3219 km. Mamlakat hududining yarmi past-teklisliklardan iborat. Ulardan eng yirigi Menam past-tepaligi bo'lib, u mamlakatning asosiy daryosi Menam-Chao-Pral havzasida joylashgan. Mamlakatning sharqiy qismini Korat yassitog'ligi egallaydi. Tailandning shimoliy va g'arbiy qismi tog'lar bilan o'rالgan. Asosiy tog' tizmasi — Tanentaunji. Eng baland cho'qqisi — Intxanon (2595 m). Asosiy tabiiy boyliklari: tabiiy gaz, qalay, kauchuk, volfram, qo'rg'oshin, yog'och, baliq. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 34% ini, o'ram va yaylovlari 30% ini tashkil qiladi.

Iqlimi — tropik. Tailandning florasi tropik bo'lib, o'simliklarning 10000 ga yaqin turi mavjud. O'rmonlarda yang, takyan, turli xil palmalar, terokarpus bambugi o'sadi. Hindiston fili, yo'lbars, qoplon, bengal mushugi, Himolay ayig'i, Hindiston bo'rsig'i, kiyikning bir necha turi, 70 turga yaqin ilon, qushxo'r o'rgimchak, 600 ga yaqin kapalak, turli hasharotlar hayvonot dunyosini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat tarkibiga 73 provinsiya (changvada) kiradi. Mustaqil Tailand davlati 1238-yilda tuzilgan. 5-dekabr qirolning tug'ilgan kuni milliy bayram hisoblanadi. Davlat boshlig'i — qirol. Ijro etuvchi hokimiyat Bosh vazir boshchiligidagi huku-

matga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Senat (yuqori palata) va Vakillar palatasi (quyi palata)dan iborat Milliy Assambleya tomonidan amalga oshiriladi. Asosiy siyosiy partiyalari: Demokratik partiya, Tay milliy partiyasi, Xalq partiyasi, Yangi umid partiyasi, Ijtimoiy harakat partiyasi, Paoangtam partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Tailand Osiyodagi iqtisodiy rivojlangan davlatlardan biri. So'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida kuzatilmogda. Jadal rivojlanayotgan turizm mamlakatning asosiy valyuta manbalaridan biriga aylandi. Sanoatning to'qimachilik, zargarlik, elektron, qazib olish (Tailand volfram ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi, qalay ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egallaydi), qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalari rivojlangan. Qishloq xo'jaligi hozirgi kunda iqtisodda muhim o'rinni egallamaydi. Shunga qaramay qishloq xo'jaligi (YMM — 12%) mehnatga yaroqli aholining 60% i band. Tailand dunyoda guruch va kauchukning asosiy ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi hisoblanadi. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya, Singapur, Gonkong, Germaniya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 3940 km, avtomobil yo'llari — 44534 km, ichki suv yo'llari — 4000 km. 2004-yil YIM miqdori 524800 mln dollarni (aholi jon boshiga — 8100 dol.) tashkil etgan. Asosiy portlari: Bangkok, Sattaxip, Pattoni, Pxuket.

**Tarixi.** I asrda hozirgi Tailand hududining janubida Mon qirolligi vujudga keladi va VI—VII asrlarda o'zining qudrati cho'qqisiga ko'tariladi. IX asrdan mamlakat hududi kxmerlar imperiyasi hukmronligi ostida qoladi. VIII asrda hozirgi Xitooning janubiy qismlarida o'z davlatlariga asos solgan tay qabilalari XIII asrda Menam daryosi bo'ylab janubga siljiydi va 1220-yilda Siam qirolligi tashkil etishadi. Siam qirolligi 1569—1584 hamda 1767—1782-yillarda Birjaning hukmronligiga qaram bo'lgan. 1782-yilda taxtga hozirgi kungacha hukmronlik qilayotgan Rama sulolasini o'tiradi. Ingliz va Fransuz mustamlakalari bilan o'ralgan Siam mustamlakaga aylanishdan qutulib qoladi va XIX asrning o'rtalarida Buyuk Britaniya hamda Fransiya bilan

foyDALI bitimlar imzolaydi. 1932-yilda yangi Konstitutsiya qabul qilinadi. Konstitutsiyaga ko'ra parlament tuzilib, davlat boshqaruvi konstitutsion monarxiyaga aylantirildi. 1939-yildan davlat Tailand deb atala boshlaydi. II jahon urushiga Tailand Yaponiya tarafida kira-di, lekin 1944-yilda o'zining tashqi siyosatini o'zgartirib AQSHning ittifoqchisiga aylanadi. 1976-yilning oktabrida harbiy xunta hokimiyatni egallab, parlamentni tarqatib yuboradi va yangi Konstitutsiyani qabul qiladi. Qo'shni Kambodjaning Vyetnam qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilinishi Tailand hukumatiga ikkita yirik muammoni keltirib chiqaradi: Kambodjalik emigrant-larning ommaviy oqimi va Vyetnam bilan chegaradagi harbiy to'qnashuvlar. 1980-yilda hokimiyatga fuqarolar hukumati qaytadi, lekin navbatdagi davlat to'ntarishi (1932-yildan beri 16-si)dan so'ng hokimiyatga yana harbiylar keladi.

## TAYVAN

*Rasmiy nomi — Tayvan Respublikasi (Xitoy Respublikasi). Poytaxti — Taybey. Hududi — 36002 km<sup>2</sup>. Aholisi — 22603000 kishi (2003). Davlat tili — xitoy (mandarin). Dini — buddaviylik (45%), konfutsiylik va daosiylik (33%) uyg'unlashgan dinka e'tiqod qiladi. Pul birligi — Yangi Tayvan dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Sharqiy Osiyoda, Tayvan orolida joylashgan davlat. Sohilining uzunligi — 1448 km. Orolning sharqiy sohillari Tinch okean, shimoli Sharqiy Xitoy dengizi, janubi Janubiy Xitoy dengizi bilan tutashib ketgan. Materikdan orolni Tayvan bo'g'ozi ajratib turadi. Tayvanning shimolidan janubiga qadar Tayvanshan tog'i joylashgan. Eng yuqori cho'qqisi Yuyshan (3997 m). Orolning g'arbiy qismi tekislikdan, sharqiy qismi esa qir-adirlardan iborat. Asosiy daryolari — Chjoshuysi, Donshuyxe. Orolda katta bo'lмаган нефт, табиий газ, ко'мир конлари бор. Haydaladigan yerlar 24% ni tashkil etadi.

Iqlimi — musson. Mamlakatning florasi xilma-xil

bo'lib, 3800 ga yaqin o'simlik turlari mavjud. 2000 metrgacha bo'lgan balandlikda tropik va subtropik o'rmonlar, 2000 metrdan yuqori balandlikda bargli va ninabargli daraxtlar o'sadi. Hayvonot olami vakillaridan olmaxon, kiyik, formoza qora ayig'i, to'ng'iz kabi 60 ga yaqin sut emizuvchilar uchraydi. Sudraluvchilar va hasharotlar ko'p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Konstitutsiyaga ko'ra Tayvan respublika hisoblanadi. Tayvanning Xitoydan mustaqil ekanligini jahon hamjamiyati tan olmagan. Ijro etuvchi hokimiyati prezident (davlat boshlig'i) va yuan (palata) Bosh vaziriga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Milliy Majlis (qonun chiqaruvchi yuan). Siyosiy partiyalari: Gomindan, Demokratik progressiv partiya, Yangi partiya, Ishchi partiyasi, Sotsial-demokratik partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Tayvan iqtisodi barqaror taraqqiyot bilan xarakterlanadi. So'nggi o'ttiz yil ichida YMMning yillik o'sishi o'rtacha 9% ni tashkil etgan. Sanoatining rivojlangan tarmoqlari: elektron, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, kemasozlik, neft sanoati. Qishloq xo'jaligining (YMM — 4%) asosiy ekinlari: sholi, mevalar, choy. Chorvachilik va baliq ovlash rivojlangan. Tashqi savdo bo'yicha Tayvan hozirgi kunda dunyoda 13-o'rinni egallaydi. 2004-yil YIM miqdori 576200 mln dollarni (aholi jon boshiga — 25300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Gonkong, Yaponiya, YH davlatlari.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 1600 km, avtomobil yo'llari — 20041 km. Portlari: Gaosyun, Szilun, Xualyan.

**Tarixi.** XIII asrda Tayvanga kirib kela boshlagan xitoyleklar (xan elati) sekin-asta kelib chiqishi malayyaliklardan bo'lgan mahalliy aholi bilan chatishib ketadi. Tayvan 1590-yilda portugallar tomonidan egallanadi. Portugallar orolga Formoza (ajoyib) deb nom berishadi. 1662—1682-yillarda Tayvan gollandlarga qaram bo'lgan. 1683-yili esa orol Xitoy imperiyasi tarkibiga kirgan. 1895-yilda orolni Yaponiya bosib olgan va 1945-yilgacha orol yaponlarga qaram bo'lgan. 1949-yilgi Xitoy inqilobidan so'ng Chan Kayshi boshliq hukumat

orolga qochadi va Chan Kayshi umrining oxirigacha (1975) Tayvan respublikasi prezidenti bo'ladi. 1955-yilda Tayvan AQSH bilan o'zaro xavfsizlik to'g'risida shartnoma imzolaydi.

## TANZANIYA

*Rasmiy nomi — Tanzaniya Birlashgan Respublikasi. Poytaxti — Dodoma. Hududi — 945050 km<sup>2</sup>. Aholisi — 35922500 kishi (2003). Davlat tili — ingliz va suaxili. Dini — islom, xristian va mahalliy dinlar. Pul birligi — Tanzaniya shillingi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Afrikaning janubi sharqiy qismidagi davlat. Shimolda Keniya (chegaraning uzunligi — 769 km) va Uganda (396 km), janubda Mozambik (756 km), Malavi (475 km) va Zambiya (338 km), g'arbda Burundi (451 km) va Ruanda (217 km) bilan chegaradosh. G'arbda Tanganika ko'li Tanzaniyani Zoirdan ajratib turadi. Mamlakatning sharqida esa Hind okeani joylashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 3402 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 1424 km. Sohilbo'yi tekisliklardan iborat. Mamlakat hududining asosiy qismini dengiz sathidan o'rtacha 1200 m baland bo'lgan yassitog'lik tashkil qiladi. Shimoli sharq va janubi g'arbda kichik tog'lar bor. Afrikaning eng baland cho'qqisi — Kilimanjaro vulqoni (5895 m) Keniya bilan chegarada joylashgan. Afrikaning eng yirik uchta ko'llari — Tanganika, Viktoriya, Nyasa — qisman Tanzaniyaga tegishli. Qazilma boyliklardan qalay, temir rudasi, ko'mir, fosforitlar, olmos, oltin bor. Mamlakat hududining 5% ini haydaladigan yerlar, 17% ini o'rmon va to'qaylar, o'tloq va yaylovlar 40% ini tashkil etadi.

Iqlimi — ekvatorial musson. O'simlik dunyosining asosini savanna o'simliklari va o'rmonlar tashkil etadi. Hayvonlardan jirafa, oq karkidon, fil, zebra, antilopalar va turli maymunlar uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — prezident respublikasi. Mamlakat tarkibiga

25 ta viloyat (20 tasi materikda, 5 tasi orollarda) kiradi. Tanganika mustaqillikka 1961-yilning 9-dekabrida erishadi. 1963-yilning 19-dekabrida esa Zanzibar mustaqillikka erishadi. 1964-yilning 26-aprelida Tanganika Zanzibar bilan birlashadi. 1964-yilning 29-oktabridan bu davlat Tanzaniya Birlashgan Respublikasi deb atala boshlaydi. Milliy bayramlari: 9-dekabr — Mustaqillik e'lon qilingan kun (1961), 26-aprel — Ittifoq kuni (1964). Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat prezident va Milliy Assambleya (parlament) tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalari: Inqilobiy partiya (Chama Cha Mapinduzi), Qayta tiklash va taraqqiyot uchun milliy konvensiya, Birlashgan fuqarolar fronti.

### *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Tanzaniya iqtisodi sezilarli darajada qishloq xo'jaligi (YMM — 58%) bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (asosan qahva, choy, paxta, sizal, keshyu, tamaki, chinnigul) eksportning 85% ini tashkil etadi. Sanoat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, olmos va neft qazib olish hamda neftni qayta ishlash bilan chegaralangan. 2004-yil YIM miqdori 23710 mln dollarni (aholi jon boshiga — 700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Italiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 3555 km, avtomobil yo'llari — 81900 km. Portlari: Dor-us-Salom, Mtvara, Ianga va Zanzibar (okean), Mvenda va Kigoma (ichki).

**Tarixi.** Tanganika sohillari va unga yaqin orollarda (Zanzibar) VII—VIII asrlardayoq arablar o'mashishgan edi. 1505-yilda bu hududlarga portugallar kirib keladi, ammo ular o'z ta'sirini XVII asrning oxirlarida yo'qotishadi. XVIII asrda Zanzibar Ummon sultonligiga qaram bo'ladi. Ummon sultonlari 1832-yilda o'z qarorgohlarini Zanzibarga ko'chirishadi. 1856-yilda mustaqil Zanzibar sultonligi tashkil topadi. 1890-yilda sultonlik Britaniya protektorati deb e'lon qilindi. Mamlakatning bantu qabilalari istiqomat qiladigan markaziy viloyatlarini mustamlakaga aylantirish

XIX asrda inglizlar va nemislar tomonidan boshlanadi. 1885-yilda Tanganika hududida Germaniya Sharqiy Afrikasi Kompaniyasiga asos solinib, 1891-yilda bu hududlar Germaniya mustamlakasiga aylantiriladi. 1920-yilda Millatlar Ligasi Tanganikani boshqarish mandatini Buyuk Britaniyaga topshirdi. 1947-yilda bu yerlar BMT otalig‘idagi hududlar maqomini oladi. Tanganika (1961) va Zanzibar (1963) mustaqillikka erishgandan so‘ng 1964-yilning aprelida yagona davlat Tanzaniya tashkil topadi.

## TERKS VA KAYKOS OROLLARI

*Rasmiy nomi — Terks va Kaykos orollari (Buyuk Britaniya mulki). Poytaxti — Kokbern — Taun. Hududi — 430 km<sup>2</sup>. Aholisi — 20500 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik (aholining ko‘p qismi protestantlar). Pul birligi — AQSH dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Atlantika okeanida Bagam orollar arxipelagining janubiy-sharqiy qismida, Shimoliy va Janubiy Amerika o‘rtasida joylashgan, 30 oroldan iborat (shulardan 8 tasida odam yashaydi). Orollar marjonli ohaktoshlar bilan qoplan-gan, qoyalar bilan o‘ralgan. Terks va Kaykos orollarini Terks-Aylend qo‘ltig‘i ajratib turadi.

Iqlim — tropik, passatli. Orollarda mangrzonlar, qarag‘ayli o‘rmonlar bor. To‘tiquish, kolibri va boshqa turdag qushlar yashaydi, hasharotlar ko‘p.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — Buyuk Britaniyaning dengizorti hududi. Mulkni Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadigan gubernator boshqaradi. Ma’muriy-hududiy jihatdan bo‘linmagan. Siyosiy partiyalari: Xalq demokratik harakati, Milliy taraqqiyot partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Qurilish materiallari ishlab chiqaradigan, baliq konserva mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar bor. Mak-kajo‘xori, meva-sabzavotlar, agava yetishtiriladi. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Yamayka.

2004-yil YIM miqdori 235750 mln dollarni (aholi jon boshiga — 11500 dol.) tashkil etgan. Asosiy portlari: Kokbern-Taun, Providensyales, Sol-Key, Kokbern-Xarbor.

**Tarixi.** Orollar 1512-yilda ispanlar tomonidan kashf etilgan va bu yerda odam yashamagan. XVII asrda bu yerga Bermud orollaridan mustamlakachilar kelib joylasha boshlagan. 1766-yilda orollar Buyuk Britaniya tasarrufiga o'tgan, lekin 1873-yildan 1962-yilgacha Yamayka tarkibida bo'lgan. 1959-yilda ichki o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'ldi.

## TOGO

*Rasmiy nomi — Togolez Respublikasi. Poytaxti — Lome. Hududi — 56785 km<sup>2</sup>. Aholisi — 5429300 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — mahalliy dinlar (50%), xristianlik (35%), islam (15%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Afrikaning g'arbida joylashgan davlat. G'arbda Gana (cheгаранing узунлиги — 877 km), sharqda Benin (644 km), shimolda Burkina-Faso (126 km) bilan chegaradosh. Janubda mamlakat sohillari Gvineya ko'rfazining suvleri bilan yuviladi. Chegaraning umumiy узунлиги — 1647 km. Sohilining узунлиги — 56 km. Sohilbo'yлари pasttekslikdan iborat. Mamlakat shimolida kichik tepaliklari mavjud savannalar joylashgan. Markaziy qism qiradirlardan iborat. Janubda balandligi 986 metrgacha bo'lgan yassitog'liklar joylashgan. Asosiy daryo — Mono. Tabiiy boyliklari: fosforitlar, marmar. Haydaladigan yerlar hududning 25% ini, qolgan hududlarini о'rmon va to'qaylar tashkil etadi.

Iqlimi — subekvatorial. Mamlakatning janubiy qismida kokos palmalari bilan baobablar o'sadi. Markaziy va shimoliy qismlarda savanna o'simliklari o'sadi. Hayvonot olami qoplon, fil, begemot, arslon, antilopa, timsoh va maymunlardan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat

tuzilishi — respublika. Togo 1960-yilning 27-aprelida mustaqillikka erishadi (avval Fransiya mustamlakasi). Milliy bayrami — 27-aprel (mustaqillik kuni). Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va Vazirlar Kengashini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli. Mamlakatda ro'yxatdan o'tgan 40 dan oshiq siyosiy partiyalardan eng yiriklari — Adolat va demokratiya uchun ittifoq, Demokratik oppozitsiya jamoasi (KOD-2), Yangilanish uchun faoliyat qo'mitasi (KAR), Togolez xalqi birlashmasi (RPT).

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Iqtisodning asosiy sektori — qishloq xo'jaligi (YMM — 35%). Qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli aholining 78% i band. Eksport umumiy hajmining taxminan uchdan bir qismi kakao, qahva, paxtaga to'g'ri keladi. Sanoatning asosiy tarmog'i — fosforitlarni qazib olish (eksportning 40% i). 2004-yil YIM miqdori 8684 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH, Afrika davlatlari, AQSH, Yaponiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 515 km, avtomobil yo'llari — 6462 km. Porti — Lome.

**Tarixi.** Hozirgi Togoning sohilbo'yи hududlari portugallar tomonidan XVI asrda kashf etiladi. XVIII asrda bu hudud G'arbiy Afrika qul savdosining asosiy savdo markazlaridan biriga aylanadi. 1884-yilda Togo Germaniyaning protektorati deb e'lon qilinadi. Birinchi jahon urushi davrida Togo britan va fransuz qo'shinlari tomonidan egallanadi. 1919-yildan Buyuk Britaniya va Fransyaning hamkorligidagi boshqaruvi ostida qoladi. 1956-yilda Togoning Britaniya qismi Oltin Qirg'oq (hozirgi Gana) tarkibiga kiradi, Fransiya Togosi esa muxtoriyatga erishadi. 1960-yilda Fransiya Togosi o'z mustaqilligini e'lon qildi. Togo Respublikasida 1960-yildan keyin bir necha bor harbiy davlat to'ntarishlari bo'lib o'tdi. 1991-yildan beri mamlakatda fuqarolik hukumati o'rnatilgan.

## TOJIKISTON

*Rasmiy nomi — Tojikiston Respublikasi. Poytaxti — Dushanbe. Hududi — 143100 km<sup>2</sup>. Aholisi — 6863600 kishi (2003). Davlat tili — tojik. Dini — islam. Pul birligi — somoniy.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Markaziy Osiyoda joylashgan davlat. Janubda Afg'oniston (chegaraning uzunligi — 1206 km), shimol va g'arbdagi O'zbekiston (1161 km), shimolda Qirg'iziston (870 km), sharqda Xitoy (414 km) bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiyligi — 3651 km. Tojikiston hududining 90% dan oshig'ini tog'lar tashkil qilib, mamlakat hududining yarmidan oshig'i dengiz sathidan 3000 m balandlikda joylashgan. Tojikistonning shimoliy-g'arbiy va markaziy qismlarida Zarafshon, Turkiston, Hisor, Oltoy tog' tizmalari, janubiy sharqida Pomir tog' tizmasi joylashgan. Eng baland cho'qqisi 7498 m. Tog' tizmalari bir-biridan vodiylar bilan ajralgan. Yirik vodiylari — Hisor va Vaxsh. Asosiy daryolari — Sirdaryo, Amudaryo. Yirik ko'li — Qorako'l. Asosiy tabiiy boyliklari: neft, gaz, ko'mir, uran, gidroresurslarga boy.

Iqlimi — kontinental. O'simlik dunyosi boy. Yaylov va tog'oldi o'simliklari, archa, yong'oq, olcha, jiyda ko'plab o'sadi. Shoqol, jayra, quyon, xongul, to'ng'iz, yovvoyi mushuk, qor barsi, arxar, yovvoyi parrandalar, kaltakesak, ilonlar (kapcha, gyurza, efa) fauna asosini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibiga Sug'd va Xatlon viloyatlari hamda Tog'li Badaxshon viloyati kiradi. 1991-yil 9-sentabrda Tojikiston mustaqilligi e'lon qilinib, ushbu kun milliy bayram — Mustaqillik kuni deb qabul qilingan. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (Oliy Kengashning raisi) va Bosh vazir boshchiligidagi Vazirlar Mahkamasiga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Oliy Kengash. Eng yirik siyosiy partiyalari: Erkin mehnat partiyasi, Tojikiston xalq partiyasi, Kommunistik partiya.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Tojikiston — agrar-industrial davlat. Fuqarolar urushi natijasida Tojikiston iqtisodi chuqur inqirozni boshidan kechirmoqda. Hukumat bozor munosabatlariga o'tishni qo'llayapti. Lekin mamlakat iqtisodida davlat ulushi hanuzgacha asosiyidir. Kimyo, yengil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i paxtachilikdir (paxta tolasi asosiy eksport mahsulotidir). Paxtachidikdan tashqari ipakchilik, bog'dorchilik, sabzavotlar va uzum yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. 2004-yil YIM miqdori 7950 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: Rossiya, O'zbekiston, Qирг'изистон, Turkmaniston.

Temiryo'llarining umumiyligi — 480 km, avtomobil yo'llari — 29900 km.

**Tarixi.** Hozirgi Tojikiston hududi m. a. VI asrda Ahamoniylar davlati tarkibiga, m. a. IV asrda esa made-doniyalik Iskandar imperiyasi tarkibiga kirgan. M. a. III asrdan Grek-Baqtriya, keyinroq Kushon davlatiga qaram bo'lgan. VIII asrda hozirgi Tojikiston hududiga arablar bostirib kiradi. IX—X asrlarda bu hududlar Samoniylar davlati, XII asrda Xorazmshohlar davlati, XIII asrda Mo'g'o'llar davlati, XIV asrning ikkinchi yarmida Temur va temuriylar davlatiga qaram bo'lgan. XVI asrдан XIX asrning ikkinchi yarmigacha Buxoro xonligi (amirligi) tarkibiga kirgan. 1868-yili Rossiya imperiyasi hozirgi Tojikiston hududlarini bosib oladi. 1917-yilgi davlat to'ntarishidan so'ng Tojikiston hududida sovet hokimiyyati o'rnatiladi. 1924-yildan Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibiga kiradi. 1929-yildan Tojikiston SSR maqomini oladi. 1991-yili mustaqillikka erishgandan so'ng Tojikistonda fuqarolar urushi boshlanadi. Hozirgi kunda Tojikiston demokratik jamiyat qurish yo'lidan bormoqda.

## **TONGA**

*Rasmiy nomi — Tonga Qirolligi. Poytaxti — Nukualofa. Hududi — 748 km<sup>2</sup>. Aholisi — 112400 kishi (2005). Davlat tili — tonga va ingliz.*

|| Dini – protestantlik (metodist) (50%), katolik.  
Pul birligi – paanga.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Tinch okeanning janubi g‘arbiy qismidagi davlat. 150 dan oshiq orollarda joylashgan. Sohillarining umumiy uzunligi — 419 km. Orollarning aksariyati korallardan, qolgalari — vulqon natijasida vujudga kelgan.

Iqlimi — tropik. Tonganing o‘simlik dunyosi asosan daraxtsimon paporotnik va kazuarinlarning tropik o‘rmonlaridan iborat. Hayvonot dunyosini kaltakesalalar, ilonlar va hasharotlar tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — konstitutsion monarxiya. Tonga mustaqillikka 1970-yilning 4-iyunida erishdi (avval Buyuk Britaniya mustamlakasi). 4-iyun — Milliy bayrami (Mustaqillik kuni). Davlat boshlig‘i — monarx. Ijro etuvchi hokimiyat Bosh vazir boshchiligidagi Vazirlar Mahkamasiga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ — qonun chiqaruvchi Assambleya (bir palatali parlament). Siyosiy partiyalari: Inson huquqlari uchun harakat, Xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining asosiy tarmog‘i qishloq xo‘jaligidir (YMM — 50%). Kokos yong‘og‘i, banan, vanil donalari umumiy eksport hajmining 2/3 qismini tashkil etadi. Baliqchilik rivojlangan, oziq-ovqat mahsulotlari chet eldan, asosan Yangi Zelandiyadan import qilinadi. Sanoat sohasi YMMning 11% ini tashkil etadi. Chet el valyutasini keltiradigan asosiy manba turizmdir. 2004-yil YIM miqdori 258520 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: Yangi Zelandiya, Avstraliya, AQSH, Yaponiya.

Avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi — 198 km. Asosiy porti — Nukualofa.

**Tarixi.** Aholisi polineziyaliklardan iborat bo‘lgan hozirgi Tonga hududiga kiruvchi orollar 1616-yilda gollandlar tomonidan kashf etiladi. Uzoq davom etgan to‘qnashuvlardan so‘ng Tonga 1845-yilda mustaqil qirollikka aylanadi. Lekin 1900-yilda Tonga Buyuk Britaniya protektorati deb e’lon qilinadi. 1970-yilda Tonga mustaqillikka erishdi. Tonga Britaniya Hamdo‘stligi tarkibiga kiradi.

## TRINIDAD VA TOBAGO

Rasmiy nomi — *Trinidad va Tobago Respublikasi*. Poytaxti — *Port-of-Speyn*. Hududi — 5130 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1088600 kishi (2005). Davlat tili — ingliz. Dini — katolik (32%), induizm (24%), anglikan (14%), boshqa protestant dinlari (14%), islom (6%). Pul birligi — *Trinidad va Tobago dollarasi*.

**Geografik joylashkuvi va tabiat.** Karib dengizi havzasida, Trinidad, Tobago va bir qator mayda orollar da joylashgan davlat. Sohilining uzunligi — 362 km. Mamlakat hududining asosini kam sonli qir va past tog'lardan iborat tekisliklar tashkil etadi. Asosiy tabiiy boyliklari: neft va tabiiy gaz. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 14% ini, o'rmon va to'qaylar 44% ini tashkil etadi.

Iqlimi — subekvatorial. Trinidadning sharqiy qismida tropik o'rmonlar bo'lib, bu o'rmonlarda ispan kedri, maxogoni, qizil sandal, balsa kabi daraxtlar o'sadi. Butalardan bugenvilley, puyya, yovvoyi poynsettiya keng tarqalgan. Pekari, otselot, opossum, agupi, maymunlar, ko'rshapalaklar orolning hayvonot dunyosini tashkil etadi. Toshbaqa, kaltakesak, ilonlar ko'p. Timsohlar uchraydi. Orolda kolibrining 40 dan ortiq turi bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibiga 9 graflik kiradi. Trinidad va Tobago mustaqillikka 1962-yilning 31-avgustida erishdi (ilgari Buyuk Britaniyaning mustamlakasi bo'lgan). Bu sana milliy bayram hisoblanadi (Mustaqillik kuni). Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va Bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi Oliy organi ikki palatali parlament. Parlament yuqori — Senat va quyi — Vakillar palatalaridan iborat. Yirik siyosiy partiyalari: Milliy xalq harakati, Birlashgan Milliy kongress, Birlik va taraqqiyot uchun harakat.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Trinidad va Tobagoning iqtisodi asosini neft qazib chiqarish (YMMning choragini, umumiy eksport

hajmining 80% ini tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligining (YMM — 5%) asosiy ekinlari: kakao donlari, qahva, shakarqamish, sitruslar. 2004-yil YIM miqdori 11480 mln dollarni (aholi jon boshiga — 10500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Venesuela, Karib havzasi davlatlari, YH davlatlari.

Avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi — 8000 km (4000 km asfaltlangan). Mamlakatning asosiy porti — Port-of-Speyn.

**Tarixi.** Trinidad oroli 1498-yilda Kolumb tomonidan kashf etiladi. Orol 1552-yilda Ispaniya, 1797-yilda Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanadi. Tobago oroli gollandlar tomonidan 1632-yilda mustamlakaga aylantiriladi. Keyinchalik orolga egalik qilish huquqi fransuzlarga o‘tadi. 1814-yilda Napoleon mag‘lubiyatga uchragach, orol Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanadi. 1888-yilda ikki orolning boshqaruvi birlashtiriladi. 1950-yilda Trinidad va Tobago o‘zini o‘zi boshqaruv huquqiga ega bo‘ladi. 1962-yilda Trinidad va Tobago Britaniya Hamdo‘sligi tarkibidagi mustaqil davlatga aylanadi. 1976-yilda Trinidad va Tobagoda respublika tuzumi o‘rnatildi.

## TUVALU

*Rasmiy nomi — Tuvalu. Poytaxti — Funafuti. Hududi — 26 km<sup>2</sup>. Aholisi — 11636 kishi (2003). Davlat tili — tuvalu va ingliz. Dini — protestantlik. Pul birligi — Australiya dollari va Tuvalu dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Tinch okeanning janubiy-g‘arbiy qismidagi davlat. Sohilining umumiy uzunligi — 24 km. Shimoli g‘arbdan janubi sharqqa tomon 600 km uzunlikdagi masofada joylashgan 9 ta marjon (korall) orollar Tuvaluni tashkil etadi. Asosiy orol — Funafuti. Asosiy tabiiy boyligi — baliq.

Iqlimi — subekvatorial. O‘simlik dunyosi asosan paporotnik va mangrozorlardan iborat. Hayvonot dunyosini cho‘chqa, it, kalamush, dengiz qushlari, kaltakesaklar tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Britaniya Hamdo'stligi tarkibidagi mustaqil davlat. Tuvalu mustaqillikka 1918-yilning 1-oktabrida erishdi (avvalgi nomi — Ellis orollari). 1-oktabr — Milliy bayram (Mustaqillik kuni). Davlat boshlig'i — Britaniya monarxi (hozirgi kunda qirolicha Yelizaveta II). Ijro etuvchi hokimiyat Britaniya monarxining vakili — general-gubernator va hukumat boshlig'i Bosh vaziriga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalari yo'q.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodi asosan baliqchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan iborat. Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlari — kokos yong'og'i va kopra (kokos yong'og'ining mag'zi). Turizmning rivojlanishiga orollarning juda uzoqda joylashganligi to'sqinlik qiladi. Hukumat marka va tangalar sotishdan ham katta daromad oladi. 2004-yil YIM miqdori 12799 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: Fiji, Avstraliya, Yangi Zelandiya.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 8 km. Portlari: Funafuti, Nukufetau.

**Tarixi.** Nikunua oroli ingliz J. Bayron tomonidan 1764-yilda kashf etiladi. Hozirgi Tuvalu hududini tashkil etuvchi qolgan orollar 1788-yilda Gilbert tomonidan kashf etiladi. 1892-yilda Gilbert va Ellis orollari Britaniyaning protektorati deb e'lon qilinadi. 1915-yilda bu orollar Buyuk Britaniyaning mustamlakasiga aylanadi. 1974-yilda o'tkazilgan referendum natijasiga ko'ra Ellis orollari Tuvalu deb nomlangan mustaqil davlatga aylanadi. Gilbert orollari 1979-yilda mustaqillikka erishib Kiribati Respublikasini tashkil etadi.

## TUNIS

**Rasmiy nomi** — Tunis Respublikasi. Poytaxti — Tunis. Hududi — 164150 km<sup>2</sup>. Aholisi — 9924700 kishi (2003). Davlat tili — arab. Davlat dini — islom. Pul birligi — Tunis dinori.

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Shimoiy Afrikada joylashgan davlat. G'arbda Jazoir (cheгаранинг узунлиги — 965 км), janubda Liviya (459 км) билан chegaradosh. Shimol va sharqdan mamlakat sohillarini O'rta Yer dengizining suvlari yuvib turadi. Chegaraning umumiy uzunligi — 1424 km. Sohilining uzunligi — 1148 km. Mamlakat hududining 1/3 qismini Atlas tog'lari va mamlakat shimolidagi balandligi 1520 metr-gacha bo'lgan yassitog'lik tashkil etadi. Markaziy qismida ayrimlari dengiz sathidan pastda joylashgan sho'r ko'lllar (shott yoki chott) mavjud bo'lgan tekislik va past-tekisliklar bor. Janubda Sahroi Kabirning shimoliy qismi joylashgan. Asosiy daryosi — Majarda. Tunisda neft, temir rudasi, fosforitlar, qo'rg'oshin konlari bor. 2004-yil YIM miqdori 70880 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7100 dol.) tashkil etgan. Haydaladigan yerlar hududining 20% ni, o'tloq va yaylovlar 19% ni tashkil etadi.

Iqlimi — subtropik. Mamlakat shimolida agava, opunsa, yovvoyi zaytun, eman o'sadi. Janubda tikanli butalar, lishayniklar, sahro daraxtlaridan talxa va etal o'sadi. Yirik hayvonlardan Tunisda qora qoplon, tog' qo'yi uchraydi. Sahroda qoraxal silovsin, yovvoyi mushuk, gepard, shoqol, tulki kabi yirtqichlar, kichik gekkonlar, echkiemarlar, ilonlar (qum bo'g'ma iloni, efa, shoxdor qora ilon) uchraydi. Ayrim yillarda mamlakat hududi chigirtka bosqiniga duchor bo'ladi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Davlat 20 provinsiyaga bo'lingan. O'z navbatida provinsiyalar 212 tumanni o'z ichiga oladi. Tunis 1956-yil 20-martda mustaqillikka erishadi (avval Fransiya mustamlakasi bo'lgan). 20-mart milliy bayram (Mustaqillik kuni) hisoblanadi. Qonunchiligi fransuz fuqarolik umumiyluquqiga va islom qonunlariga asoslangan. Davlat boshlig'i — prezident. Prezident Bosh vazir va hukumatni tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Deputatlar palatasi (bir palatali parlament)ga tegishli. Eng yirik siyosiy partiyalari: Demokratik konstitutsion uyushma, Yangilanish harakati, Demokratlar va sotsialistlar harakati, Xalq birligi partiyasi, Progressiv sotsialistik harakat.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Tabiiy boyliklarga boy emasligiga qaramasdan, Tunis Afrikaning taraqqiy etgan davlatlari qatoriga kiradi. YMM 1993-yilda 37,1 mlrd (jon boshiga — 4250) dollarni tashkil etadi. Sanoatning eng rivojlangan tarmoqlari: tog'-kon (fosforitlar), to'qimachilik, oziq-ovqat. Qishloq xo'jaligi (YMM — 16%) mamlakatni 80% ga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligida bug'doy, arpa yetishtirish va zaytun moyini ishlab chiqarish muhim o'rinni egallaydi. Jadal rivojlanayotgan turizm iqtisodining asosiy tarmoqlari dan biriga aylanmoqda. Asosiy savdo sheriklari: YH davlatlari, Yaqin Sharq davlatlari, AQSH, Jazoir.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 2115 km, avtomobil yo'llari — 33000 km. Portlari: Bizerta, Sus, Tunis.

**Tarixi.** M. a. XII asrdayoq Tunis sohillarida dastlabki Finikiya koloniyalari, eng mashhuri Karfagen vujudga keladi. Mamlakatning markaziy qismlarida esa barbar qabilalari yashagan. M. a. VI asrda Karfagen imperiyasi o'z qudratining cho'qqisiga ko'tariladi. M. a. 146-yilda Karfagen qadimgi Rim bilan kurashda qulaydi. Qadimgi Rim bu hududga lotin tili va Rim madaniyatini, III asrda esa xristianlikni olib kiradi. V asrda vandallar tomonidan egallanib talon-taroj qilingan hozirgi Tunis hududi 633-yilda Vizantiya imperiyasi tarkibiga kiradi. 647-yildan Tunisga arablar bostirib kiradi va o'z hokimiyatini o'rnatadi. IX—XII asrlarda Tunisda abbosiyalar va fotimiylarning sharqiy sulo'lalari hukmronlik qiladi. 1159—1160-yillarda Abdulmo'min Shimoliy Afrikaning g'arbiy qismidagi musulmonlarni o'ziga bo'ysundiradi va barbarlarning almuxiyalar sulo'lasiga asos soladi. 1574-yilda Tunis hududi turklar tomonidan egallanib, XIX asrning oxirlariga qadar Usmoniyalar imperiyasi tarkibiga kiradi. 1830-yilda Yevropa davlatlari bu hududga intervensiya uyush-tirishadi. XIX asrning oxirida Tunis Fransiyaga qaram bo'ladi. Lekin bey rasman davlat boshlig'i hisoblangan. 1925-yilda Dastur partiyasining tuzilishidan boshlangan ozodlik kurashi natijasida Tunis 1956-yilning mart oyida mustaqillikka erishadi. 1957-yilning

25-iyulida Habib Burg'iba beyni hokimiyatdan chetlashtirib, Tunisni respublika deb e'lon qiladi.

## TURKIYA

*Rasmiy nomi — Turkiya Respublikasi. Poytaxti — Anqara. Hududi — 779452 km<sup>2</sup>. Aholisi — 68109500 kishi (2003). Davlat tili — turk. Dini — islom. Pul birligi — turk lirası.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Janubi G'arbiy Osiyo (hududining katta qismi) va Janubi Sharqiy Yevropada joylashgan davlat. Mamlakatning Yevropa va Osiyodagi hududlarini bir-biridan Bosfor, Dardanell bo'g'ozlari hamda Marmar dengizi ajratib turadi. Janubda Suriya (cheгаранing uzunligi — 822 km) va Iroq (331 km), sharqda Eron (499 km), shimoli sharqda Armaniston (268 km), Gruziya (252 km), Ozarbayjon (Naxichevan viloyati — 9 km), shimoli g'arbda Bolgariya (240 km) va Gretsiya (206 km) bilan chegaradosh. Shimolda Qora dengiz, g'arbda va janubi g'arbda O'rta Yer dengizi joylashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 2627 km. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 7200 km. Hududining katta qismini Kichik Osiyo va Armon tog'lilari egallagan. Mamlakatning eng baland cho'qqisi Katta Ararat tog'idir (5165 km). Mamlakatning markaziy qismida Anatoliya yassi-tog'ligi, janubda Tavr tog'lari, shimolda Pont tog'lari joylashgan. Asosiy daryolari: Frot, Dajla, Qizil Irmoq. Yirik ko'llari: Van, Tuz (sho'r ko'llar). Turkiyada ko'mir, temir rudasi, xrom, mis konlari bor. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 30% ini, o'rmon va to'qaylar 26% ini, yaylov va o'tloqlar 12% ni tashkil etadi.

Iqlimi — subtropik, g'arbiy va janubiy sohillari O'rta Yer dengizi iqlimiga xos, mamlakat ichkarisida kontinental. Turkiyaning florasi boy bo'lib, unda o'simliklarning 6700 turi uchraydi. Shularning uchdan bir qismi Turkiya hududidan boshqa joyda uchramaydi. Ohu, to'ng'iz, qoplon, ayiq, bo'rsiq, muflon, kemiruvchilar, Kichik Osiyo qora iloni, O'rta Yer dengizi toshbaqasi,

kaltakesak, agamalar hayvonot dunyosining asosini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibiga 75 ta viloyat kiradi. 1923-yilning 29-oktabridan respublika hisoblanadi (avval — Usmoniyalar imperiyasi). 29-oktabr milliy bayrami — Respublika e'lon qilingan kun. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i), Prezident Kengashi va Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni bir palatali parlament Buyuk millat majlisi amalga oshiradi. Yirik siyosiy partiyalari: To'g'ri yo'l partiyasi, Sotsial-demokratik xalq partiyasi, Vatan partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Turkiya hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kiradi. Sanoatining rivojlangan tarmoqlari: tog'-kon (ko'mir, xromit, mis, bor), metallurgiya, neft, to'qimachilik, oziq-ovqat, qurilish. Qishloq xo'jaligida (YMM — 18%) tamaki, paxta, donli o'simliklar, dukkaklilar, sitruslar, qandlavlagi yetishtiriladi. Chorvachilik rivojlangan. Turkiya oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini o'zi qoplaydi. Turizm rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 508700 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7400 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: Germaniya, AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 8401 km, avtomobil yo'llari — 49615, ichki suv yo'llari — 1200 km. Asosiy portlari: Istanbul, Izmir.

**Tarixi.** Hozirgi Turkiya hududida m. a. 1900-yilda Xett davlati, m. a. XII asrda Frigiya, m. a. VII asrda Lidiya davlatlari vujudga keladi. M. a. VI asrda bu hududlar forslar davlati, m. a. 333-yildan makedoniyalik Iskandar tomonidan bosib olinadi. M. a. II asrda Rim imperiyasi tarkibiga kiradi. V asrda hozirgi Turkiya hududlari Vizantiya imperiyasi tarkibiga kiradi. XI asrda Turkiya hududlarini saljuqiylar egallab, Egey dengizidan Turkistongacha bo'lgan hududlarda ulkan imperiya tashkil qilinadi. XIII asrning oxirida Saljuqlar davlati bir nechta kichik davlatlarga bo'linib ketadi. XIV asrda Usmoniyalar barcha kichik davatlarni birlashtirishga erishadi. 1453-yilda Vizantianing poytaxti Konstantinopol (Istanbul) zabit etiladi. Sulaymon davrida

(1520—1566) Usmoniyalar Janubiy Yevropa, O'rta Sharq va Shimoliy Afrika (Marokashdan tashqari)ni bo'ysun-diradilar. XVII asrning boshlarida Usmoniyalar davlati o'z qudratini yo'qota boshlaydi va Bolqon hamda Arabiston yarimorollaridagi ozodlik kurashlariga yetarli qarshilik ko'rsata olmaydi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Usmoniyalar imperiyasi hudud jihatidan ancha qisqaradi. I jahon urushidan so'ng Usmoniyalar davlati barcha mustamlakalaridan ayrıldi. Sulton Mahmud VI tomonidan imzolangan Sevr shartnomasidan (1920) norozi bo'lgan Mustafo Kamol 1918-yilda Turkiyaga bostirib kirgan yunon qo'shinlariga qarshi kurashni boshlaydi. 1923-yilda Mustafo Kamol Otaturk Turkiyani Respublika deb e'lon qiladi va 1938-yilga qadar mamlakatni boshqaradi. Ikkinci jahon urushi davrida Turkiya o'z neytralitetini e'lon qiladi. 1959-yilda Kipr mojarosi natijasida turk — yunon munosabatlari yomonlashadi. 1974-yilda Turkiya qo'shinlari tomonidan Kipr orolining bir qismining bosib olinishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada keskin-lashtiradi. Iqtisodiy inqirozlar natijasida 1971 va 1980-yillarda harbiylar hokimiyatni egallahadi. Hozirgi kunda Turkiya hukumatining asosiy muammolaridan biri mustaqil Kurdiston davlatini tuzishga harakat qilayotgan kurdlar masalasıdır.

## TURKMANISTON

*Rasmiy nomi — Turkmaniston Respublikasi.  
Poytaxti — Ashxobod. Hududi 488100 km<sup>2</sup>.  
Aholisi — 4775500 kishi (2003). Davlat tili — turkman. Dini — islom. Pul birligi — manat.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Markaziy Osiyodagi davlat. Shimolda va sharqda O'zbekiston (cheгаранing uzunligi — 1621 km), shimolda Qozog'iston (379 km), sharqda va janubda Afg'oniston (744 km), janubda Eron (922 km) bilan chegaradosh. G'arbda mamlakat Kaspiy dengizining suvlari bilan tutashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 3736 km. Sohilining uzunligi — 1768 km. Mamlakat hududining

katta qismi pasttepalik bo'lib, unda Qoraqum sahrosi joylashgan. Sahroning maydoni — 375 ming km. Mamlakatning shimoli g'arbida Kaspiy dengizi bo'yida Qora Bo'g'oz — Ko'l ko'rfazi joylashgan. Ko'rfaz dengiz sathidan 35 m past. Janub va janubi g'arbda Kopetdog' tog'lari bor. Yirik ko'l — Sariqamish sho'r ko'li. Asosiy daryo — Amudaryo. Turkmaniston neft, gaz, kaliy va osh tuzlari, rangli va noyob metallarga boy. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 2% ini, yaylovlari 69% ini tashkil etadi.

Iqlimi — keskin kontinental. O'simlik dunyosini cho'l va adir o'simliklari tashkil etadi. Sahroda jayron, shoqol, tulki, echkilar, pancha ilon, agama, tekislik va tog'larda tog' echkisi, gurza, toshbaqa, turli kemiruvchilar yashaydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. 1991-yilning 27-oktabrida Turkmaniston mustaqil bo'ldi. Mustaqillik kuni (27-oktabr) — Milliy bayram hisoblanadi. Davlat boshlig'i — prezident. Prezident Bosh vazir (Vazirlar Kengashi raisi)ni tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Majlis (bir palatali parlament). Ro'yxatdan o'tgan yagona siyosiy partiya — Turkmaniston demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sanoatining asosini neft va gaz qazib chiqarish va neftni qayta ishlash tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida paxta, mevalar, sabzavotlar yetishtiriladi. Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlari — paxta tolasi, dizel yoqilg'isi, mazut, qo'lda to'qilgan gilamlar. 2004-yil YIM miqdori 27600 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari — Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 2120 km, avtomobil yo'llari — 13000 km. Asosiy porti — Turkmanboshi.

**Tarixi.** M. a. I ming yillikda hozirgi Turkmaniston hududida Marg'iyona, Parfiya, Midiya davlatlari mavjud edi. M. a. VI asrlarda bu hududlar forslar davlati, m. a. IV asrda makedoniyalik Iskandar davlati tarkibiga kiradi. VIII asrda bu hududga arablar bostirib

kiradi va mahalliy aholi orasida islom dinini targ'ib etadi. IX—X asrlarda bu hududlar Tohiriylar va Somoniylar davlatlari, XI—XIII asrlarda Saljuqiylar davlati tarkibiga kiradi. XIII asrda mo'g'ullar bostirib kiradi va hozirgi Turkmaniston yerlarini o'z imperiyasi-ga qo'shib olishadi. XIV asrning ikkinchisi yarmidan XV asrning oxirlarigacha Turkmaniston hududlari Temur va temuriylar davlatiga kiradi. XVII—XIX asrlarda hozirgi Turkmaniston hududlari Eron shohlari, Xiva va Buxoro xonlari o'rtasida talash bo'lgan. XIX asrning 80-yillarida bu hududlar Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinadi. 1917-yilgi davlat to'ntarilishidan so'ng Sovet hokimiyati o'rnatiladi. 1991-yilda Turkmaniston mustaqillikni qo'lga kiritadi.

## UGANDA

*Rasmiy nomi — Uganda Respublikasi. Poytaxti — Kampala. Hududi — 236600 km<sup>2</sup>. Aholisi — 25632800 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — katolik (33%), protestanlik (33%), mahalliy dinlar (18%), islom (16%). Pul birligi — Uganda shillingi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Afrikaning sharqidagi davlat. Sharqda Keniya (chegara uzunligi — 933 km), g'arbda Zoir (765 km), shimolda Sudan (435 km), janubda Tanzaniya (396 km) va Ruanda (169 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 2698 km. Mamlakat asosan balandligi 1100—1500 m bo'lган yassitog'likda joylashgan. G'arbda Ruvenzori tog' massivi bo'lib, unda mamlakatning eng baland cho'q-qisi — Margarita tog'i (5109 m) joylashgan. Ugandada ko'llar ko'p. Ularning yiriklari — Mobutu-Sese-Seko, Koga, Eduard va Viktoriya (qisman). Asosiy daryo — Ail (irmoqlari bilan). Asosiy qazilma boyliklari: mis, kobalt. Mamlakat hududining 23% ini haydaladigan yerlar, 30% ini o'rmon va to'qaylar, 25% ini o'tloq va yaylovlar tashkil etadi.

Iqlimi — subekvatorial. Ugandaning asosiy qismini savannalar tashkil etadi. Aloe, zontsimon oqmiya,

bassiy yong‘og‘i, kigemiya, temir daraxt o‘sadi. Hayvonot olamini fil, begemot, jirafa, arslon, maymunlaridan — tog‘ gorillasi, oq-qora kolobus, serkopitekus (kamdan kam uchraydi) tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 10 ta provinsiyaga bo‘lingan. Mustaqillikka Uganda 1962-yilning 9-oktabrida erishgan (avval Buyuk Britaniyaning protektorati). Bu kun milliy bayram (Mustaqillik kuni) hisoblanadi. Davlat boshlig‘i — prezident. Ijro etuvchi hokimiyat prezident hamda Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament — Milliy Kengash tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Demokratik partiya, Uganda Xalq kongressi, Konservativ partiya, Harakat.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sanoatining asosiy tarmoqlari — tog‘-kon, oziq-ovqat va yengil sanoat, tuproqning unumдорligi va qulay iqlim sharoiti tufayli qishloq xo‘jaligi rivojlanmoqda (YMM — 57%). Mamlakat eng ko‘p daromadni asosiy eksport mahsuloti — qahvadan oladi. Qahvadan tashqari choy, paxta, tamaki eksport qilinadi. Mamlakat o‘zini o‘zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlaydi. 2004-yil YIM miqdori 39390 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Buyuk Britaniya, Keniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 1300 km, avtomobil yo‘llari — 26200 km (2000 km ga yaqini qattiq qoplamlari). Asosiy porti: Djindja (Viktoriya ko‘lida).

**Tarixi.** Hozirgi Uganda hududida dastlab Kitara davlati vujudga keladi. XV asrda markaziy Ugandada Unror davlati yetakchilik qiladi. XIX asrning o‘rtalariga kelib Uganda qirolligining mavqeyi ortadi. 1862-yilda inglizlar Ugandaga kirib kelishadi. 1890-yildan Uganda Britaniya protektoratiga aylanadi. 1962-yilda Uganda mustaqillikka erishadi. 1963-yildan respublika deb e’lon qilinadi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng mamlakatda bir necha bor harbiy to‘ntarishlar bo‘lib o‘tadi. Shunday to‘ntarishlardan birida 1971-yili hokimiyatga general

Amin keladi. Diktator Amin hukmronligi yillarida 300000 ga yaqin aholi qirib yuboriladi, mamlakat iqtisodiyoti inqirozga yuz tutdi. Amin 1979-yilda Tanzaniya armiyasi yordamida hokimiyatdan chetlashtiriladi. Shundan so'ng ham mamlakatda davlat to'ntarishlarini keltirib chiqaradigan fuqarolar urushi davom etadi. So'nggi davlat to'ntarishi Uganda 1986-yilda amalga oshirilgan.

## UKRAINA

*Rasmiy nomi — Ukraina Respublikasi.*

*Poytaxti — Kiyev. Hududi — 603700 km<sup>2</sup>.*

*Aholisi — 49100000 kishi (2003). Davlat tili — ukrain. Dini — pravoslav. Pul birligi — grivna.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Sharqiy Yevropadagi davlat. Shimolda va sharqda Rossiya (chegara uzunligi — 1576 km), shimolda Belarus (891 km), janubi g'arbda Moldova (939 km), g'arbda Polsha (428 km), Vengriya (103 km) va Slovakiya (90 km) bilan chegaradosh. Janubda Ukraina Azov va Qora dengizlari bilan tutashgan. Mamlakat hududining asosiy qismini Sharqiy Yevropa tekisligi tashkil etadi. Shimolda Pomssk, markaziy qismida Dneprbo'yı, janubda Qora dengizbo'yı pasttekisliklari mavjud. Janubi g'arbda balandligi 2061 m gacha bo'lgan Ukraina Karpati, janubda balandligi 1545 m gacha bo'lgan Qrim tog'lari joylashgan. Asosiy daryolari — Dnepr, Shimoliy Donets, Prut, Janubiy Bug, Dunay. Bir nechta yirik suv omborlari bor. Asosiy qazilma boyliklari: qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir, neft, tabiiy gaz, temir, marganets, simob, rux, qo'rg'oshin, titan, magniy, alyuminiy, sirkoniy rudalari. Mamlakat hududining 56% ini haydaladigan yerlar, 12% ini o'tloq va yaylovlardan tashkil etadi.

Iqlimi — kontinental. Ukrainianada 4000 turga yaqin gul va paporotniksimon o'simliklar o'sadi. Mamlakat hududining 15% ga yaqinini o'rmonlar tashkil etadi. O'rmonlarda qarag'ay, eman, qora qayin, archa, terak, jo'ka, olxa, oq qayin, grab (qayinsimonlar), oq

qarag‘ay, qayrag‘och o‘sadi. Ukrainada sut emizuvchilarning 100 ga yaqin, qushlarning 360, baliqlarning 200 ga yaqin turi uchraydi. O‘rmonlarda los, kosulya, to‘ng‘iz, olmaxon, qunduz, silovsin, o‘rmon suvsari, Yevropa ohusi, ayiq, yovvoyi mushuk, Qrim ohusi, tulki, bo‘rsiq, qizilishton, qorayaloq, qur, qarqur, ko‘k turna uchraydi. Katta qo‘shtoyoq, ko‘rsichqon, yumron-qoziq, dasht burguti, bezgaldoq, to‘rg‘ay, dasht qora iloni, sariq ilon, kaltakesaklar dasht faunasini tashkil etadi. Daryo bo‘ylarida ondatra, daryo toshbaqasi, SUV ilon, qurbaqa, yovvoyi o‘rdak, qarqara uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibiga 24 ta viloyat va Qrim avtonom respublikasi kiradi. Ukraina 1991-yil 24-avgustda o‘z mustaqilligini e’lon qiladi (avval SSSR tarkibida). 24-avgust — milliy bayram (Mustaqillik kuni). Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig‘i) va Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Rada. Yirik siyosiy partiyalari: Ukraina Xalq Ruhi, Ukraina respublika partiyasi, Ukraina demokratik partiyasi, Demokratik tiklanish partiyasi, Ukraina dehqondemokratik partiyasi, Ukraina Xalq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Ukraina rivojlangan sanoat tarmoqlariga ega. Sanoatning asosiy tarmoqlarini qora metallurgiya, rangli metallurgiya, mashinasozlik, energetik mashinasozlik va elekrotexnika sanoati, radioelektron sanoat, aviatsiya, traktorsozlik, kemasozlik, kimyo sanoatlari tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi asosan donli ekinlar, texnik ekinlar va chorvachilikka ixtisoslashgan. Bug‘doy, makkajo‘xori, arpa, tariq, qandlavlagi, kungabooqar, kanop, kartoshka yetishtiriladi. Uzumchilik va bog‘dorchilik rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 299100 mln dollarni (aholi jon boshiga — 6300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: MDH va Boltiqbo‘yi respublikalari, Germaniya, Polsha, Chexiya, Xitoy, Italiya, Shveysariya.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 22800 km, avtomobil yo‘llari — 273700 km, ichki SUV yo‘llari — 4500 km. Asosiy portlari: Nikolayev, Odessa, Xerson, Sevastopol.

**Tarixi.** Hozirgi Ukraina hududi m. a. VII asrda skiflar imperiyasi tarkibiga kirgan. III asrda gotlar Dondan Dunaygacha bo‘lgan hududlarda o‘z davlatlari ni tashkil etishadi. Xunnlardan so‘ng bu hududlarga sharqiy slavyanlar va xazarlar kirib kelishadi va ikki o‘rtada kurash boshlanadi. O‘z hududlarini xazarlardan himoya qilish maqsadida slavyanlar varyaglarni yordamga chaqirishadi. Varyag knyazi Oleg 882-yilda Kiyev Rusiga asos soladi. 988-yilda Vladimir Buyuk xristianlikni qabul qiladi. Kiyev Rusi Yaroslav Mudriy (1019—1054) va Vladimir II Monomax (1113—1125) davrida gullab-yashnaydi. XIII asrda Botuxon boshchiligidagi mo‘g‘ul-tatar qo‘sinchiligi Kiyev davlatini tugatadi. Kiyev davlati yerlari Polsha va Buyuk Litva Knyazligi o‘rtasida bo‘lib olinadi. 1647-yilda Andrusov shartnomasiga ko‘ra sharqiy Ukraina yerlari Rossiya tarkibiga kiradi. 1793-yilda Yekaterina butun Ukraina yerlari (Galitsiyadan tashqari, Galitsiya 1919-yilgacha Avstro-Vengriya imperiyasi tarkibiga kirgan) bosib oladi. 1917-yilning noyabrida Vinnichenko va Petlyura Kiyevda Ukraina Avtonom Respublikasini tuzishadi. Ular bilan bir vaqtida Xarkovda bolsheviklar Ukraina Sovet Respublikasini tuzishadi. Brest — Litva shartnomasidan so‘ng 1918-yilning martida nemis qo‘sinchilari Ukrainani okkupatsiya qiladi va 1918-yilning dekabrigacha Petlyura hokimiyatni o‘z qo‘liga olguncha qolishadi. 1920-yilda Petlyura va bolsheviklar o‘rtasidagi kurashga Polsha qo‘shiladi va Riga shartnomasiga ko‘ra g‘arbiy Ukraina yerlari 1921-yilda Polshaga o‘tadi. Sovet Ukrainianasi esa 1922-yilda Sovet Ittifoqi tarkibiga kiradi. Ikkinci Jahon urushi davrida Ukraina nemis qo‘sinchilari tomonidan okkupatsiya qilinadi. 1944-yilda Sovet qo‘sinchilari Ukrainianadan nemislarni quvib chiqaradi. 1945-yilda Ukrainianaga Sharqiy Galitsiya, Rutenya, shimaliy Bukovina va Bessarabiyaning bir qismi qo‘shiladi. 1945-yilda Qrim viloyati Ukraina tarkibiga kiradi. 1986-yilning 26-aprelida Ukraina hududida insoniyat tarixidagi eng fojiali halokatlardan biri — Chernobil atom elektrostansiyasida portlash ro‘y beradi. 1991-yilda Ukraina o‘z mustaqilligiga erishadi. 2004-yilning oxirida navbatdagi prezident saylovlarida prezidentlikka nom-

zodlardan birining tarafdorlari saylov natijalaridan norozi ekanliklarini bildirib tartibsizliklar uyuştirishadi. Mamlakatda «to‘q sariq inqilob» deb nom olgan siyosiy inqiroz vujudga keladi.

## UMMON

*Rasmiy nomi – Ummon Sultonligi. Poytaxti – Maskat. Hududi – 306000 km<sup>2</sup>. Aholisi – 2807100 kishi (2003). Davlat tili – arab. Dini – islom. Pul birligi – Ummon riali.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Arabiston yarimorolida joylashgan, janubi g‘arbiy Osiyo davlati. G‘arbda Saudiya Arabistoni (chegara uzunligi 676 km), janubi g‘arbda Yaman (288 km) davlati bilan chegaradosh. Mamlakatning sharqiy va janubiy qirg‘oqlarini Arab dengizi suvlari, shimoliy qirg‘oqlarini Ummon ko‘rfazi suvlari yuvib turadi. Quruqlikdagi chegaralarning umumiyligi 2,092 km. Mamlakatning katta qismi tog‘li hududlardan iborat. Ummon ko‘rfazi qirg‘oqlari bo‘ylab Hojar tog‘i tik qoyalari yastanib yotibdi. Tog‘lar va Ummon ko‘rfazi o‘rtasida tor Al-Botina pasttekisligi joylashgan. Mamlakatning markaziy qismida Rub-al-Xoli qumli cho‘lining sharqiy chegarasi joylashgan. Ummon boy neft zaxiralariga ega bo‘lib, foydali qazilmalardan mis, xrom va tabiiy gaz ham qazib olinadi. Iqlimi – quruq cho‘l zonasasi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – mutlaq monarxiya (sultonlik). Mamlakat tarkibiga 3 ta gubernatorlik (viloyat) – Maskat, Musondam, Zufar kiradi. Ummon 1650-yilda mustaqillikga erishgan (ilgari Portugaliya mustamlakasi). 18-noyabr amaldagi sultonning tug‘ilgan kuni milliy bayram sifatida nishonlanadi. Qonunchilik islom qonunlari va ingлиз umumiyligi huquqiga asoslangan bo‘lib, sulton Oliy sud instansiysi hisoblanadi. Davlat va hukumat boshlig‘i sulton (sulton Qabus ibn Said ibn Teymur davlatni 1970-yil 23-iyuldan buyon boshqarib kelmoqda). Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Milliy yig‘in amalga oshiradi. Siyosiy partiyalar taqiqlangan.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Mamlakat iqtisodi neftni qazib olish sanoatiga asoslangan. Neft yalpi milliy mahsulotning 40% ga yaqin qismini, eksportdan tushadigan daromadlarning 20% dan ziyodrog'ini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida, baliqchilikni kiritgan holda, mehnatga layoqatli aholining 60% i band. Asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari: xurmo, banan, chorvachilik ham rivojlangan. Yiliga 100 ming ton-naga yaqin baliq ovlanadi. 2004-yil YIM miqdori 38090 mln dollarni (aholi jon boshiga — 13100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Singapur, AQSH.

Avtomobil yo'llarining umumiyligi — 26000 km (shundan 6000 km asfalt yo'llar). Port shahri — Maskat.

**Tarixi.** M. a. 536-yili zamонавиј Ummon hududi forslar tomonidan bosib olingan edi. Yangi davr boshlarida O'rta Yer dengizi hamda Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdoning asosiy qismi Ummon orqali o'tardi. VII asr o'rtalarida Ummon mamlakatga islomni olib kirgan arablar tomonidan bosib olinadi. XVI asrda portugaliyaliklar Maskatni ishg'ol qiladilar, biroq 1650-yilda mamlakatdan yevropaliklarni haydab chiqarib, Ummon mustaqillikni qo'lga kiritadi. 1741-yilda mamlakatdan eronlik bosqinchilarni quvib yuborgan Ahmad ibn Said avlodi 1733-yili Maskat sultonligiga asos soladi. Ibn Saidlar hozirgi kunlarda ham shu shaharlarda hukmronlik qilmoqdalar. 1798-yili Maskat va Buyuk Britaniya o'rtasida do'stlik, savdo hamda kema qatnovlari to'g'risidagi shartoma imzolangan. Bu shartnomalari muddatlari 1891-yil hamda 1970-yillarda mamlakat rahbari «Ummon sulton» unvonini olganidan so'ng ikki marotaba qayta uzaytirilgan.

## **URUGVAY**

*Rasmiy nomi — Sharqiy Urugvay Respublikasi. Poytaxti — Montevideo. Hududi — 176200 km<sup>2</sup>. Aholisi — 3413400 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — katolik. Pul birligi — Urugvay pyesosi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Janubiy Amerikaning janubi sharqiy qismida joylashgan davlat. Sharqda va shimolda Braziliya (chegara uzunligi — 985 km), g'arbda Argentina (579 km) bilan chegaradosh. Janub va sharq tomonidan Atlantika okeani bilan tutashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 1564 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 660 km. Urugvay hudud jihatidan Janubiy Amerikadagi kichik davlatlar dan biridir. Mamlakat relyefi kichik tepaliklari bo'lган tekislikdan iborat. Hududning o'rtacha balandligi 200—300 m. Sohil bo'yida unumdor pasttepaliklar mavjud. Asosiy daryolari — Urugvay, Rionegro. Qazilma boyliklarga kambag'al. Asosiy tabiiy resurslarini unumdor tuproq va gidroenergetik imkoniyatlar tashkil etadi. Mamlakat hududining 22% i haydaladigan yerlar, 78% i o'tloq va yaylovlardir.

Iqlimi — subtropik. O'simlik dunyosini asosan yaylov o'simliklari tashkil etadi. O'rmonlarida tropik daraxtlar o'sadi. Puma, tapir, to'ng'iz, tulki, kiyik, yovvoysi mushuk, chumolixo'r, kolibri, Amerika strausi, boyo'g'li, jo'rchi, yirik o'rgimchaklar va sudraluvchilar faunani tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibiga 19 ta departament kiradi. Urugvay Braziliyadan 1828-yil 25-avgustda mustaqillikka erishadi. Shu sana milliy bayram — Mustaqillik kuni hisoblanadi. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Senat (yuqori palata) va Vakillar palatasi (quyi palata) dan iborat Bosh Assambleya amalga oshiradi. Yirik siyosiy partiyalari: Milliy partiya (Blanko), Kolorado partiyasi, Xristian-demokratik partiya, Urugvay sotsialistik partiyasi, Urugvay kommunistik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** YMM 1994-yilda 23 mlrd (aholi jon boshiga — 7200) dollarni tashkil etgan. Sanoat go'sht va baliqni qayta ishlash, jun, teri, shakar, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida katta maydonlar chorva boqish uchun ajratilgan. Asosiy ekinlari — bug'doy, sholi, sorgo. Regional iqtisodiy hamkorlik doirasida Urugvay Braziliya, Argentina va

Paragvay bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatgan. 2004-yil YIM miqdori 49270 mln dollarni (aholi jon boshiga — 14500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: Braziliya, AQSH, Argentina, Xitoy, Italiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 3000 km, avtomobil yo'llari 49900 km (6700 km qattiq qoplamlari), ichki suv yo'llari — 1600 km. Porti — Montevideo.

**Tarixi.** Charrua va Guarani hududlari o'mashgan hozirgi Urugvay hududi 1516-yilda ispaniyalik Dias de-Solis tomonidan kashf etiladi. XVII asrda boshlangan mustamlakachilik hindular orasida xiristianlikni targ'ib etish bilan davom etgan. 1726-yilda Montevideoga asos solgan ispanlar XVIII asrda hozirgi Urugvay hududini Rio-le-La-Plata vitse-qirolligi tarkibiga kiritadi. XIX asrning boshlarida mamlakatda mustaqillik uchun kurash boshlanadi, lekin 1816-yilda Urugvay portugallar tomonidan bosib olinib, Braziliyaga qo'shib yuboriladi. 1828-yilda mustaqillikka erishgandan so'ng Urugvayda balankos (konservatorlar) va kolorados (liberallar) taraf-dorlari o'rtasida fuqarolar urushi boshlanadi.

Mamlakatning yirik siyosiy arboblaridan biri Batle-Ordokes 1903—1915-yillarda demokratik jamiyatning poydevorini qo'yib beradi. Lekin uning vafotidan so'ng Urugvayda harbiy diktatura o'rnatiladi. 1952-yildan 1966-yilgacha mamlakatni kollegial hukumat boshqaradi. 1970-yilda mamlakatda tupamaros — milliy-ozodlik harakati tarafdarlarining qo'zg'oloni boshlandi. Qo'zg'olon 1972-yilda hukumat qo'shnlari tomonidan bostiriladi. 1973-yilda Urugvayda navbatdagi harbiy davlat to'ntarishi bo'lib, 1984-yildagina harbiylar hokimiyatni fuqarolar hukumatiga topshiradi.

## FALASTIN

*Rasmiy nomi — Falastin davlati. Poytaxti — yo'q, mamlakat ikkiga bo'lingan — Iordan daryosi g'arbiy sohili va G'azo sektoriga. Hududi — 26000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2133313 kishi (1995). Davlat tili — arab va ivrit. Dini — islom. Pul birligi — Isroil shekeli hamda Iordan dinori.*

## ***Geografik joylashuvi va tabiat.*** Yaqin

Sharqdagi mamlakat. Uzoq muddat davomida Isroil tomonidan bosib olingan Falastin davlati hududi hozirgi kunda Falastin ma'muriyati boshqaruvi ostidadir. Mamlakat ikki qismga bo'lingan: 1) Iordan daryosi g'arbiy sohili (maydoni — 5873 km) shimolda, g'arbda va janubda Isroil, sharqda esa Iordaniya bilan chegaradosh; 2) G'azo sektori (maydoni 378 km) janubda Misr bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiy uzunligi — 468 km, sohil chizig'ining uzunligi — 40 km. Mamlakat hududi tepaliklardan iborat. Falastin tabiiy boyliklarga boy emas. Ishlov beriladigan yerlar hududning 27% ini tashkil etadi, 32% esa o'tloqlar va yaylovlardan iborat.

Falastin iqlimi O'rta Yer dengizi hududiga xos issiq, yozda quruq, qishda yomg'irli. O'simlik dunyosida yashil eman, terpentin daraxti, Iyerusalim sosnasi, yassitog'lik, tog'li hududlarda — tabor emanı va sinamora keng tarqalgan. Hayvonot dunyosi ham boy hisoblanib, 400 ga yaqin qush turlari, shulardan boyo'g'li, laylak ko'p uchraydi. Hayvonot dunyosida sirtlonlar, yovvoyi cho'chqalar, quyonlar, tipratikanlar, ilonlar, kaltakesaklar keng tarqalgan.

### ***Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.*** Hozirgi kunda Falastinda mamlakat hududining Falastin ma'muriyati boshqaruvi ostiga o'tish jarayoni hamda davlat organlarini tashkil qilish va shakllantirish ishlari olib borilmoqda. Asosiy siyosiy partiyalari — Falastin Ozodligi tashkiloti (FATH) va Hamas.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*** Falastinning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilgan omil bu uning uzoq davr Isroil qurolli kuchlari bosqini ostida bo'lganlidigidir. Falastin aholisining katta qismi pul topish uchun Isroil va Fors ko'rfazi mamlakatlariga borib ishlaydilar. 1990-yilgi Fors ko'rfazidagi inqiroz ko'pgina falastinliklarni ortga qaytib G'arbiy sohil ishsizlari sonini to'ldirishga majbur qildi.

### ***Tarixi.*** M. a. III ming yillikda zamonaviy Falastin hududida qadimgi Xanaan sivilizatsiyasi tashkil etildi. M. a. XII asrda Falastinning qirg'oqbo'yi hududlari filistimlyanlar tomonidan, qolgan qismi esa Isroil — Iudey davlatiga asos solgan iudey qabilalari tomonidan

bosib olindi. Iudey davlatlari qulaganidan so'ng Falastin Ahamoniylar, Ptolomeylar, Saljuqiyilar, Nim imperiyasi, Vizantiya davlatlari tarkibiga kirgan. VII asrda Falastin arablar, XI asrda salibchilar tomonidan ishg'ol qilingan. 1516-yilda Falastin Usmoniylar imperiyasining bir qismi, uning inqirozidan so'ng ingliz protektorati bo'lgan. 1947-yilda BMT Falastin davlati hududida ikki davlat — arab va yahudiylar davlatlari tashkil etilishi haqida e'lon qildi. Biroq Falastin davlatiga tegishli yerlarning katta qismi Isroil tomonidan ishg'ol qilingan bo'lsa, qolgan qismi Iordaniya davlati tomonidan qo'shib olindi. 1964-yilda tashkil etilgan Falastin Ozodligi Uyushmasi Yasir Arofat boshchiligidagi 1989-yilda Falastin davlati tuzilishi haqida e'lon qildi. 1997-yilda Isroil va Falastin Ozodligi Uyushmasi o'rtasida kelishuv imzolani, unga ko'ra Isroil Falastinning avtonom bo'lish huquqini tan olgan. Biroq davlat institutlarini tashkil qilish hozirgi kunda murakkab ichki siyosiy sharoitda olib borilmoqda.

## FARYER OROLLARI

*Rasmiy nomi — Faryer Orollari (Daniya mulki). Ma'muriy markazi — Torsxvan (ma'muriy markaz). Hududi — 1400 km<sup>2</sup>. Aholisi 46900 kishi (2005). Davlat tili — daniya, faryer. Dini — lyuteranlik (95%). Pul birligi — Daniya kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Atlantika okeanining shimoli sharqiy qismida Norvegiya dengizida joylashgan davlat. Faryer orollari o'z ichiga 18 ta o'r ganilgan va bir nechta o'r ganilmagan orollarni qamrab oladi. Orollar vulqonli kelib chiqishga ega bo'lib, ularning yuzasi asosan cho'qqilidir. Eng baland nuqtasi — 882 m. Mamlakat iqlimi yumshoq qish va salqin yoz bilan tavsiflanadi. Orollarda asosan yaylov o'simliklari, torfyaniklarda mox va lishayniklar ko'plab uchraydi. Qirg'oq suvlari turli-tuman baliqlar hamda kitlar uchrab turadi. Qirg'oqlarida qushlar koloniyalari keng tarqalgan.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalar.** Faryer orollari — Daniya Qirolligining o‘z-o‘zini boshqaradigan dengizorti ma’muriy birligi. Davlat boshlig‘i — Daniya monarxi. Komissioner uning manfaatlarini orollarda ifoda qiladi. Hukumat rahbari — premyer-ministr. Qonun chiqaruvchi organi — 32 deputatdan iborat parlament. Oliy ijro etuvchi organi — Landsstyur (koalitsion hukumat). Ma’muriy jihatdan 49 ta munitsipaliyaga bo‘lingan.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining asosiy tarmoqlari baliq ovlash va qayta ishslash, kemasozlik, qurilish va hunarmandchilik. Noqulay iqlim sharoiti va haydaladigan yerkarning yo‘qligi tufayli qishloq xo‘jaligi zaif rivojlangan. Baliqning jahon bozorlaridagi narxi o‘sishi orollar iqtisodining tez sur’atlar bilan o‘sishiga olib keldi. Bu o‘z navbatida ishsizlikni kamaytirdi hamda ishchi kuchi yetishmovchiliginin vujudga keltirdi. Baliq — orollarning asosiy eksport mahsulotidir. Orollar atrofida yaqinda ochilgan neft zaxiralari iqtisod tuzilishini asta-sekinlik bilan o‘zgartirish va uning Daniyaga qaramligini kamaytirish ishonchini bermoqda. 2004-yil YIM miqdori 1100 mln dollarni (aholi jon boshiga — 22000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Daniya, Germaniya, Fransiya.

**Tarixi.** Orollar VI asrda Irlandiya monaxlari tomonidan kashf qilingan bo‘lib, bu yerda ular dastlabki makonlarga asos solishgan. IX asrda orollarga norvegiyaliklar kirib keldi. 1035-yildan boshlab Faryer orollari Norvegiya Qirolligining tarkibiy qismiga aylandi. Shundan so‘ng 1380-yilda Norvegiya bilan birgalikda orollar Daniya Qirolligiga qo‘shilib ketdi. Ikkinchi jahon urushi davrida orollar nemis bosqinchilarini to‘xtatish maqsadida inglizlar tomonidan egallandi. 1948-yilda esa orollar hozirgi kundagi maqomini qo‘lga kiritdi.

## FIDJI

**Rasmiy nomi** — Fidji Respublikasi. Poytaxti — Suva. Hududi — 18333 km<sup>2</sup>. Aholisi — 868500 kishi (2003). Davlat tili — ingliz.

**Dini – protestantlik, iudaizm. Pul birligi – Fidji dollari.**

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Tinch okeanining janubiy qismida Fidji orollarida (jami 844 ta orol) joylashgan davlat. Eng yirik orollari – Viti-Levu va Vanua-Levu. Sohil bo‘ylab chegara uzunligi – 1129 km. Orollarning relyefi vulqonlar natijasida paydo bo‘lgan tog‘ tizmalari mavjud yassitog‘liklardan iborat. Asosiy tabiiy boyliklari: baliq, oltin, mis. Hududning 8% ini haydaladigan yerlar, 65% ini o‘rmon va to‘qaylar tashkil etadi.

Iqlimi – tropik, okean iqlimi. Tog‘ yonbag‘irlari tropik o‘rmonlar bilan qoplangan. Tekis hududlarda yaylov o‘simliklari o‘sadi. Fidjining hayvonot olami kambag‘al. Ko‘p tarqalgan sut emizuvchilar – ko‘rshapalak va uchar tulki. Orollarga olib kelingan hayvonlar dan mangustalar keng tarqalgan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – respublika. Fidji mustaqillikka 1970-yilning 10-oktabrida erishdi (avval Buyuk Britaniya mustamlakasi). Shu sana milliy bayram hisoblanadi (Mustaqillik kuni). Qonunchiligi ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig‘i) va Bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Fidji siyosiy partiyasi, Fidji milliy birlashgan fronti, Yer egalari partiyasi, Milliy federativ partiya, Leyboristik partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodining asosiy tarmog‘i – qishloq xo‘jaligi (YMM – 23%). Asosiy eksport mahsulotlari – shakar va kopra (kokos mag‘zi). Ishlab chiqarish asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va baliqni qayta ishlash bilan bog‘liq. Asosiy valyuta manbayi turizm hisoblanadi. 2004-yil YIM miqdori 5173 mln dollarni (aholi jon boshiba – 5900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, YH davlatlari.

**Tarixi.** Orollarning bir qismi 1634-yilda Tasman tomonidan, qolgan qismi 1774-yilda Kuk tomonidan

kashf etilgan. 1874-yilda Fidji Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanadi, lekin ma'lum ma'noda o'zini o'zi boshqarish huquqini saqlab qoladi. Britaniya Hamdo'stligi a'zosi Fidji mustaqillikka 1970-yilda erishadi. 1987-yilda podpolkovnik Rabuk boshchiligidagi davlat to'n-tarishidan so'ng Fidjida respublika tuzumi o'rnatiladi.

## FILIPPIN

*Rasmiy nomi — Filippin Respublikasi. Poytaxti — Manila. Davlat tili — filippin. Hududi — 299765 km<sup>2</sup>. Dini — katolik. Aholisi — 84620000 kishi (2003). Pul birligi — Filippin pyesosi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Tinch okeanning g'arbiy qismida, Malayya arxipelagining Filippin orollarida joylashgan davlat. Filippinga tegishli 7100 dan ortiq orollar bor. Eng yirik orollari — Luson, Mindanao, Samar, Panay, Palawan, Negros, Mindoro, Leyte. Mamlakat g'arbda Janubiy Xitoy, sharqda Filippin, Janubda Sulavesi dengizlari bilan tutashgan. Shimolda Filippin orollarini Tayvan orolidan Bashi bo'g'ozi ajratib turadi. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 36289 km. Eng yirik o'n bir orol mamlakat hududining 92% ini tashkil etadi. Eng baland cho'qqisi Mindanao orolidagi Apo tog'idir (2954 m). Asosiy tabiiy boyliklari: yog'och, neft, nikel, kobalt, kumush, oltin, mis. Mamlakat hududining 26% i haydaladigan yerlar, 40% i o'rmon va to'qaylardir.

Iqlimi — tropik. Filippin hududining deyarli yarmini tropik o'rmonlar tashkil etib, bu o'rmonlarda palma, kauchuk daraxti, banyan, apitong, mayyapis, lauan, bambuk o'sadi. Dengiz sathidan 1200 m balandlikda buta va yaylov o'simliklari o'sadi. Ohu, mangust, qobon, turli qushlar va sudraluvchilar hayvonot olamini tashkil etadi. Sohilbo'yi suvlarida turli xil baliqlar va mollyuskalar uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Mamlakat tarkibiga 74 ta provinsiyani o'z ichiga olgan 12 ta ma'muriy

rayon kiradi. Filippin AQSHdan o‘z mustaqilligiga 1946-yilning 4-iyulida erishadi. Milliy bayrami — 12-iyun — Mustaqillik kuni (1898-yil Ispaniyadan). Davlat va hukumat boshlig‘i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ Senat (yuqori) va Vakillar palatasidan (quyi) iborat Kongressdir. Yirik siyosiy partiyalari: Filippinliklarning demokratiya uchun kurashi, Lakas-Filippin demokratik partiyasi, Millatchilar partiyasi.

### *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Sanoatining eng rivojlangan tarmoqlari (YMM — 35%) elektron, to‘qimachilik, kimyo, yog‘ochni qayta ishlash, oziq-ovqat, farmatsevtika. Qishloq xo‘jaligi (YMM — 30%) ham mamlakat iqtisodida muhim o‘rin egallaydi. Filippin kokos yong‘oqlari va kokos mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik davlat hisoblanadi. Sholi, makka-joxori, shakarqamish, banan, ananas, mango yetishtiriladi. Chorvachilik rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 430600 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5900 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Germaniya, Yaponiya, Gonkong, Buyuk Britaniya, Tayvan, Singapur.

Temiryo‘llarining umumiy uzunligi — 378 km, avtomobil yo‘llari — 156200 km, ichki suv yo‘llari — 3219 km. Asosiy portlari: Davao, Manila, Sebu.

**Tarixi.** V asrdan boshlab hozirgi Filippin hududida turli xalqlar va madaniyatlarning qorishgan sivilizatsiyasi shakllanadi. VII—XV asrlarda Filippin hind-malaya dengiz qirolliklariga qaram bo‘lgan. 1521-yilda portugaliyalik Magellan tomonidan kashf etilgan. XVI asrning dastlabki choragida ispan mustamlakasiga aylanadi va shu davrdan shahzoda Filipp (kelajakda qirol Filipp II) sharafiga Filippin deb ataladi. Ispan — Amerika urushi davrida Filippin AQSHga qaram bo‘ladi (1898). Filippin qo‘sishlari kurashga kirishib 1899-yilning yanvarida mamlakatni respublika deb e’lon qilishadi. Lekin amalda Filippin AQSHga qaramligicha qolaveradi. 1942-yilda Filippin yapon qo‘sishlari tomonidan bosib olinadi. 1946-yilda rasman mustaqillik e’lon qilinsa ham, iqtisodiy va siyosiy jihatdan Filippin uzoq muddat AQSH ta’siri ostida qoladi. 1968-yildan 1972-yilgacha xristian va musulmonlar o‘rtasida fuqaro-

lar urushi bo‘ladi. 1965-yilda prezidentlikka saylangan Markos 1979-yilda harbiy davr qonunini qabul qiladi. 1986-yilda u hokimiyatni Korason Akinaga topshiradi. 1992-yilda Fidel Ramos prezident etib saylanadi.

## FINLYANDIYA

*Rasmiy nomi — Finlyandiya Respublikasi. Poytaxti — Xelsinki. Hududi — 338145 km<sup>2</sup>. Aholisi — 5190800 kishi (2003). Davlat tili — fin va shved. Dini — lyuteranlik (90%). Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Shimoliy Yevropadagi davlat. Janub va sharqda Rossiya (chegaraning uzunligi — 1313 km), shimolda Norvegiya (729 km), g‘arbda Shvetsiya (586 km) bilan chegaradosh. Mamlakatning g‘arbini Botnik qo‘ltig‘i, janubini Fin qo‘ltig‘i suvlari yuvib turadi. Chegaraning umumiy uzunligi — 2628 km, sohilining uzunligi — 1126 km. Mamlakat hududining katta qismi tekisliklardan iborat. Hududning 30% ini botqoqliklar tashkil etadi. Mamlakatning shimoliy g‘arbida Laplandiya joylashgan, relyef tog‘li hududlarga o‘zgaradi. Shu tog‘larda mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Xaltiotunturi (1328 m) tog‘i joylashgan. Finlyandiya — ko‘llar mamlakati. 60000 ga yaqin ko‘l bor. Ko‘llarning eng yiriklari — Pyayyanne, Sayma, Inari, Piyelinen. Asosiy daryolari — Tornio, Kemi, Oulu. Mamlakat hududida titan, magniy, mis, rux, temir, nikel rudalari topilgan. Muhim tabiiy boyliklaridan biri yog‘ochdir. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 8% ini, o‘rmonlar 76% ini tashkil etadi.

Iqlimi — mo‘tadil, shimolida kontinental. Finlyandiya hududining katta qismini o‘rmonlar tashkil etadi. O‘rmonlarda qarag‘ay, archa, eman, zarang, qoraqayin, qoraqarag‘ay, shimolida tundra o‘simpliklari o‘sadi. Shimol bug‘usi, los, olmaxon, quyon, tulki, qunduz, ayiq, bo‘ri, silovsin, 250 ga yaqin parranda va qush turlari hayvonot olamini tashkil etadi. Daryo va ko‘llarida turli baliqlar ko‘p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — parlament respublikasi. Finlyandiya ma'muriy jihatdan 5 ta lyan (guberniya)ga, muxtoriyat huquqiga ega bo'lgan Aland orollariga bo'linadi. Lyanlar kixlakunta (uyezd)larga bo'lingan. Finlyandiya 1917-yil 6-dekabrda mustaqillikka erishadi (avval Rossiya mustamlakasi). 6-dekabr milliy bayram — Mustaqillik kuni hisoblanadi. Qonunlar shved umumiy huquqiga asoslangan. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va Bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ — parlament (bir palatali). Yirik siyosiy partiyalari: Finlyandiya markazi, Finlyandiya sotsial-demokratik partiyasi, Milliy koalitsion partiya, Liberal xalq partiyasi, Finlyandiya qishloq partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Finlyandiya qayta ishlash tarmoqlariga asoslangan rivojlangan bozor iqtisodiga ega. Bundan tashqari mashinasozlik, kemasozlik, kimyo, oziq-ovqat, to'qimachilik sanoatlari rivojlangan. Yog'och va bir qator qazilma boyliklarni hisobga olmaganda Finlyandiya xomashyo va energiya importiga qaram. Iqlim sharoiti tufayli qishloq xo'jaligi don yetishtirish va chorvachilik bilan cheklangan. 2004-yil YIM miqdori 151200 mln dollarni (aholi jon boshiga — 29000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Rossiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 5924 km, avtomobil yo'llari — 78400 km, ichki suv yo'llari — 3700 km. Asosiy portlari: Kotka, Turku, Xelsinki.

**Tarixi.** I asrning oxirlarida Estoniyadan kelgan finlar hozirgi Finlyandiyaning janubiy hududida o'rnatishshadi. 800-yillarga kelib finlar Kareliyagacha yetib borishadi va fin-ugor guruhiga mansub boshqa elatlar bilan aralashib ketishadi. Keyinroq mamlakat janubini vikinglar egallahshadi. 1150-yilda Finlyandiya to'liq Shvetsiyaga qaram bo'ladi. Shvetsiya Finlyandiyaga xristianlikni olib keladi. 1809-yilda Finlyandiya rus podshosi Aleksandr I tomonidan bosib olinadi. Avvaliga Finlyandiya ma'lum avtonomiyaga ega bo'ladi. XIX asrning oxirlarida Finlyandiyada majburiy ruslashtirish

siyosati amalga oshirila boshlaydi. Rossiyada inqilob bo'lgach, Finlyandiya mustaqillikka erishadi va qisqa muddatli monarxiyadan so'ng mamlakat respublika deb e'lon qilinadi. Sovet — fin urushida Finlyandiya mag'lubiyatga uchraydi. Ikki o'rtada tuzilgan sulhga ko'ra Finlyandiya Kareliya va Laplandiyadan ajraydi. 1960-yilda Finlyandiya Skandinaviya davlatlarining umumiy bozoriga a'zo bo'ladi.

## FOLKLEND OROLLARI

*Rasmiy nomi — Folkland (Malvin) Orollari. Poytaxti — Port-Stenli. Hududi — 12200 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2800000 kishi (2000). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik. Pul birligi — Folkland funti.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Folkland orollari — Atlantika okeanining janubi g'arbiy qismidagi arxipelag. Arxipelag ikki yirik — Soledad va Gran-Malvin orollaridan tashkil topgan. Bundan tashqari 200 ga yaqin mayda orollar ham uning tarkibiga kiradi. Orollar cho'kma jinslardan tashkil topgan. G'arbiy Folkland orolining eng yuqori nuqtasi — Adam tog'i (706 m)

Iqlimi — salqin okean iqlimi. O'simlik dunyosi kambag'al, torf botqoqliklari mavjud. Hayvonot dunyosida dengiz jonivorlari ustunlik qiladi, bu yerda: tyulenlar, qisqichbaqalar, baliqlarning ko'plab turlari va qushlar juda ko'p.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Orollarni Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadigan gubernator boshqaradi. Ma'muriy-hududiy bo'linishga ega emas. Og'ir samolyotlarni qabul qilish uchun qo'nish maydoni va bazasi mavjud. Siyosiy partiyalari: Folkland orollarining milliy taraqqiyot partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mahalliy aholining asosiy mashg'uloti — qo'ychilik, baliqchilik. Qoramol va otlar ham boqiladi. Oziq-ovqat ishlab chiqarish va junga qayta ishlov berish fabrikalari ham mavjud. Kartoshka, karam, piyoz, lavlagi, arpa

kabi madaniy o'simliklar yetishtiriladi. 2004-yil YIM miqdori 700 mln dollarni (aholi jon boshiga — 25000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, Argentina.

**Tarixi.** Arxipelagni o'rganish uchun birinchi jiddiy urinish golland dengizchisi Sebald Veyert tomonidan amalga oshirildi. Orollarga Sebaldin orollari nomi berilib, ular geografik xaritalarga kiritildi. 1760-yil yanvarida inglizlar g'arbiy va sharqiy orollarni ajratib turgan bo'g'ozni kashf qilishdi va unga ingliz floti g'aznachisi lord Folkend nomini beradilar. Keyinchalik butun arxipelag shu nom bilan atala boshlandi. XVIII asrda orollarga San-Malo portidan yo'lga chiqqan fransuz dengizchilari serqatnov bo'lib qolishdi. Shu tariqa bu arxipelag o'zining ikkinchi, Malvin orollari nomiga ega bo'ldi. Bu nom rasman Argentina va Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlarida ishlatiladi. 1764-yilda Malvin orollariga mashhur dengizchi Lui Antuan de Bugenvil boshchiligidagi dengiz ekspeditsiyasi kelib tushdi. U Soledadning sharqiy qirg'oqlarida doimiy manzilgoh — Port-Sen-Luiga asos soldi. Aynan shu yerda orollar Fransiya mulki deb e'lon qilindi. Buyuk Britaniya Fransiyani arxipelagdan siqib chiqarishga uringan. 1765-yilda ingliz dengizchisi Jon Bayron sharqiy Folkendga qurollangan otryad tushirib, Port-Egmont fortiga asos solib, orollarni ingliz mulki deb e'lon qildi. Angliya va Germaniya bilan olib borilgan Yetti yillik urushda band bo'lgan Fransiya arxipelagni Ispaniyaga 25 ming funt-sterlingga sotib yubordi. Ispaniya va Angliya munosabatlari shu darajada keskinlashdiki, harbiy to'qnashuv yuz berishi tayin bo'lib qoldi. Uzoq davom etgan mojarolardan so'ng Ispaniya Angliyaga Port-Egmontni qaytarib berishi uchun rasmiy London arxipelag suverenitetidan voz kechishga majbur edi. Biroq inglizlar 1774-yil orollarni Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilgan holda o'z garnizonini olib chiqib ketdi. Keyingi yillarda Riodelya-Plata vitse-qirolligining tarkibiy qismi deb e'lon qilingan Malvin orollariga Ispaniya va Janubiy Amerikadan ko'chmanchilar kelib o'rasha boshladи. XIX asr boshlarida Buyuk Britaniya butun La-Plata hududini bosib olishga urindi. Biroq

inglizlar mahalliy aholining jiddiy qarshiligiga duch keldi. 1816-yili La-Plataning birlashgan provinsiyalari Ispaniyadan mustaqilligini e'lon qilib, 1826-yilda Argentina respublikasini ta'sis etgan konstitutsiyani qabul qildi. Malvin orollari va kontinental shelf doirasi-dagi barcha ispan orollari respublika tarkibiga kiritildi. 1820-yilda kapitan Devid Juitt boshchiligidagi «Eroina» argentin fregati Malvin orollariga yetib keldi va bu yerda Argentina respublikasi bayrog'i ko'tarildi. 1833-yilning 3-yanvarida inglizlar Soledaddan harbiy va fuqarolik X. M. Mineda boshchiligidagi hukumatni va shu yerda qolgan argentinaliklarni quvib chiqardi. Argentina hech qachon Buyuk Britaniyaning arxipelagga bo'lgan hududiy huquqlarini tan olmagan va bir yarim asr davomida orolning mustaqilligi tiklanishini talab qilib kelmoqda.

## FRANSIYA

*Rasmiy nomi — Fransiya Respublikasi. Poytaxti — Parij. Hududi — 551000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 60180500 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — katolik (90%). Pul birligi — yevro.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Yevropaning g'arbidagi davlat. Janubda Ispaniya (chegara uzunligi — 623 km) va Andorra (60 km), janubi sharqda Monako (4,4 km), shimoli sharqda Belgiya (620 km) va Lyuksemburg (73 km), sharqda Shveysariya (573 km) va Italiya (451 km) davlatlari bilan chegaradosh. Janubda mamlakat O'rta Yer dengizi, g'arbda Biskay ko'rfazi, shimoli g'arbda La-Mansh va Pa-de-Kale bo'g'ozlari bilan tutashgan. O'rta Yer dengizidagi Korsika oroli, to'rtta dengizorti departamentlari — Martinika, Gvadelupa, Reyunion, Fransuz Gvianasi hamda dengizorti hududlari — Fransiya Polineziyasi, Yangi Kaledoniya, Sen-Per va Mikelon, Tinch okeandagi bir qator arxipelaglar Fransiyaga tegishli. Chegarasining umumiy uzunligi (metropoliya va Korsika) — 2892,4 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 3427 km. Mamlakatning g'arbi va shimoli tekis-

liklardan iborat. Markaz va sharqda o'rta balandlikdagi Markaziy massiv, Vogezi, Yura tog'lari joylashgan. Janubi g'arbda Ispaniya bilan tabiiy chegara hosil qilgan Pireney tog'lari yotadi. Bu tog' tizmasining eng baland nuqtasi — Pik-de-Vinmal (3298 m). Mamlakatning janubi sharqida Fransiya va G'arbiy Yevropaning eng baland cho'qqisi — Monblan tog'i (4807 m) joylashgan Fransuz Alplari yotadi. Asosiy daryolari — Sena, Rona, Luara, Garonna. Ko'llar Fransiyada ko'p emas, eng yirik ko'l — Jeneva (aksariyati Shveysariyada joylashgan). Asosiy tabiiy boyliklari: ko'mir, temir rudasi, boksitlar, rux, baliq, yog'och. Haydaladigan yerlar hududning 32% ini, o'rmon va to'qaylar 27% ini, o'tloq va yaylovlari 23% ini tashkil etadi.

Iqlimi — mo'tadil, Korsika orolida subtropik. Mamlakatning to'rtdan bir qismini o'rmonlar tashkil etadi. O'rmonlarda eman, qarag'ay, qoraqayin, qayrag'och, oq qayin, archa, kashtan kabi daraxtlar, O'rta Yer dengizi bo'yalarida zaytun, tok, palma, agavalar o'sadi. Hayvonot dunyosini ayiq, tog' echkisi, muflon, tulki, bo'rsiq, ohu, kosulya, to'ng'iz, olmaxon, kaklik, burgut, flamingo (janubda) tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Mamlakat tarkibiga 96 departamentga bo'lingan 22 ta viloyat kiradi. Bundan tashqari dengizorti departamentlar va dengizorti hududlar ham Fransiya tarkibiga kiradi. Franklar qirolligi V asrda tashkil topadi. Birinchi respublika 1792-yilda e'lon qilingan. So'nggi Konstitutsiya (V respublika) 1958-yil 28-sentabrda qabul qilingan. Milliy bayram 14-iyul — Bastiliya olingen kun (1789). Davlat boshlig'i — prezident. Prezident Bosh vazir (Ministrler Kengashi raisi)ni tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Senat (yuqori palata) va Milliy Majlis (quyi palata)dan iborat parlament tomonidan amalga oshirildi. Yirik siyosiy partiyalari: Respublikani qo'llash birlashmasi, Fransuz demokratik ittifoqi, Respublikachilar partiyasi, Fransuz sotsialistik partiyasi, So'l radikal harakat, Fransiya kommunistik partiyasi, Milliy front.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Fransiya dunyoning yuqori taraqqiy etgan sanoat, katta

qishloq xo'jaligi resurslariga ega bo'lgan mamlakatlari-dan biridir. Sanoatning asosiy tarmoqlari (YMMning 1/4 qismi): mashinasozlik, kimyo, avtomobil, samolyotsozlik, elektron, metallurgiya, tog'-kon, to'qimachilik, oziq-ovqat. Unumdar yerkarning katta maydonlari, zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi, hukumat subsidiyalari Fransiyani G'arbiy Yevropada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi yetakchi davlatga aylantirdi. Mamlakat iqtisodida tobora xizmat ko'rsatish sohasining salmog'i ortmoqda. 2004-yil YIM miqdori 1737000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 28700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH davlatlari, AQSH, Yaponiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 34568 km (11674 km elektrlashtirilgan), avtomobil yo'llari — 1551400 km (803000 km asfaltlangan), ichki suv yo'llari — 15000 km. Asosiy portlari: Bordo, Gavr, Dyunkerk, Nant-Sen-Nazer, Ruan.

**Tarixi.** M. a. I asrning o'rtalarida Galliya (hoz. Fransiya) qadimgi Rim tomonidan bosib olinadi. Franklar Galliyaga V asrda kirib kelishadi. Frank qirolligi Karolinglar sulolasi vakili Karl Buyuk davrida qudrat cho'qqisiga ko'tariladi. 987-yilda hokimiyatga Kapetinglar sulolasi keladi. G'arbiy Yevropada Fransiyaning ta'siri XIII asrda Fillip II Avgust va Lyudovik IX davrida ortadi. XIV asrda hokimiyatga Valua sulolasi keladi. 1337-yildan 1453-yilgacha Fransiya Angliya bilan «Yuz yillik urush» olib boradi. Shu davrda ingliz qo'shinlariga qarshi ozodlik kurashini Janna d'Ark boshlaydi. XVIII asrning oxirida absolyutizmning krizisga uchrashi avvaliga podsho hokimiyatining cheklanishiga (1789-yilda Bastiliyaning olinishi, Milliy Assambleyaning tuzilishi), keyinchalik esa I respublikaning tuzilishiga (1792) olib keldi. 1793-yilda krepostnoylik huquqi bekor qilindi. 1799-yili Napoleon Bonapart davlat to'ntarishi o'tkazib diktatura o'rnatdi va 1804-yilda o'zini Napoleon I nomi bilan imperator deb e'lon qildi. Bosqinchilik urushlari natijasida Fransiya deyarli butun Markaziy va G'arbiy Yevropani o'ziga bo'ysundirdi. 1812-yilgi Rossiyaga yurish «Buyuk armiyaning» yakson qilinishi bilan tugadi. 1814-yilda

rus qo'shinlari Parijni bosib olishdi, bu holat Fransiyada Burbonlar restavratsiyasiga olib keldi. 1815-yilda Napoleon qisqa muddatga hokimiyatga qaytdi («100 kun») va Waterloo mag'lubiyatidan so'ng u butunlay hokimiyatni qo'ldan boy berdi. Fransiya inqilobdan oldingi chegaralarga qaytdi. 1830-yilgi inqilob burjua monarxiyasining o'rnatilishiga olib keldi. Navbatdagi 1848-yilgi inqilob natijasida Fransiyada II respublika e'lon qilindi. Imperator Napoleon III 1852-yili monarxiyani qayta tikladi. 1853—1856-yillarda Fransiya Rossiyaga qarshi Qrim urushida ishtirok etdi. 1870—1871-yillardagi Fransiya—Prussiya urushi Elzas va Lotaringiyaning boy berilishi bilan tugadi. 1871-yil — Parij Kommunasining tuzilishi va halokati. III Respublika Konstitutsiyasi 1875-yilda qabul qilindi. 1914—1918-yillarda Fransiya I Jahon urushida ishtirok etdi va g'alaba qozondi. Uning natijalariga ko'ra, Versal shartnomasi bo'yicha Elzas va Lotaringiyani o'ziga qaytarib oldi. Shuningdek, Saar viloyati, Togo va Kamerun ham Fransiyaga o'tdi. II Jahon urushi davrida Fransiya nemis qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilindi: mamlakat 2 qismga bo'lindi (bosib olingan hududlar va Muxtor Fransiya davlati). 1944-yili Normandiyaga ittifoqchi qo'shinlar tushirildi va Fransiya ozod qilindi. 1946-yili IV Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi. Fransiya 1949-yili NATOga a'zo bo'lib kirdi. 1945—1954-yillarda Vyetnamdagi mustamlaka urushlari natijasida Fransiya Hindixitoyni boy berdi. 1957-yilda mamlakat YH a'zosi bo'ldi. 1958-yilda ijroiya hukumat huquqlarini kengaytirgan yangi Konstitutsiya (V Respublika) qabul qilindi. 1960-yili Fransiyada mustamlaka tizimining parchalanish jarayoni boshlandi. 1962-yili Jazoir mustaqillikka erishdi. 1966-yili Fransiya NATO harbiy tashkilotidan chiqdi. Fransiya 1970—1990-yillarda Yevropa integratsiyasining faol tarafdoi bo'lib keldi. 2005-yilda kelib chiqishi Osiyo va Afrikadan bo'lgan muhojirlarning morozilik chiqishlari qator tarbibsizliklarni keltirib chiqardi. 2007-yil may oyidagi prezidentlik saylovlarda N. Sarkozy g'olib chiqdi.

## FRANSUZ POLINEZIYASI

*Rasmiy nomi — Fransuz Polineziyasi. Poytaxti — Papeete. Hududi — 4200 km<sup>2</sup> Aholisi — 270400 kishi (2005). Tili — fransuz. Dini — protestant-kalvinistlar (54%), katoliklar (30%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Fransuz Polineziyasi — Okeaniyada, Tinch okeanning sharqiy qismida joylashgan. Fransuz Polineziyasi bir-biridan uzoq masofada joylashgan, jami 130 oroldan iborat, 5 arxipelagdan tashkil topgan. Fransuz Polineziyasining bir qismi vulqonlar natijasida paydo bo‘lgan, bir qismi esa marjon orollari hisoblanadi. Shamol yo‘lidagi tog‘ yonbag‘ri orollar, doim yashil o‘rmonlar, shamoldan panadagi orollar qoyalar bilan o‘ralgan.

Iqlimi — ekvatorial, tropik passatli. Foydali qazil-malardan fosfat va kobalt konlariiga ega. O‘simplik dunyosi — orollarnikiga xos. Pandanus, kakos, non daraxti, palma o‘sadi. Vodiylari tropik o‘rmonlari bilan band. Hayvonat dunyosi sudralib yuruvchilar va qush-larga boy. Bu yerda albatros, chayka, to‘ti, bulbul, kabutar va boshqalar ko‘p tarqalgan.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Fransuz Polineziyasi — Fransianing dengizorti avtonom hududi. Boshqaruv boshlig‘i — oliv komissar. Ijroiya hokimiyyati rais boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi organ — Hududiy Assambleya (41 deputat). Ma’muriy-hududiy jihatdan 5 okrugga bo‘linadi. Siyosiy partiyalari: Sotsialistik partiya, Polineziya ittifoqi, Polineziya respublikasi uchun birlashuv.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodining asosini chet ellik turistlarga xizmat ko‘rsatish, shuningdek, gavhar eksporti tashkil etadi. 80-yillarda orollarda fosfat va kobalt konlari ochildi. YMMda qishloq xo‘jaligining ulushi kam, mahsulotlarining asosiy qismini mayda xo‘jaliklar beradi. Vanil, ananas, banan yetishtiriladi. Baliqchilik rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 4580 mln dollarni (aholi jon boshiga — 17500 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, AQSH.

Asosiy dengiz porti — Papeeti (Tomti orolida).

**Tarixi.** Taxminan 2000 yil oldin bu orollarda dastlab odamlar Samoa arxipelagidan suzib kelishgan. 1995-yil yevropaliklar (ispan Mendanya) tomonidan Fransuz Polineziyasi orollari tarkibiga kiruvchi Markaz orollari kashf etildi. Yevropaliklar dastlab XIII asrda kelib o'rnashishganlar. XIX asrning 40-yillarida orollarning asosiy qismini Fransiya bosib oldi va o'z nazoratini o'rnatdi. 1885-yildan 1958-yilgacha bosib olingan hududlar Fransuz Okeaniyasi deb nomlandi. 1958-yil mamlakat Fransyaning dengizorti hududi maqomini oldi. Polineziya Fransuz gubernatori tomonidan 1977-yil martgacha boshqarildi, keyin ichki o'z-o'zini boshqaruv huquqini qo'lga kiritdi, gubernator oliy komissarga almashtirildi. 1996-yilda Polineziya Fransyaning avtonom hududi maqomini oldi. Fransiya orollar ustidan to'la nazoratni o'z qo'lida ushlab qoldi.

## X I T O Y

*Rasmiy nomi — Xitoy Xalq Respublikasi.  
Poytaxti — Pekin. Hududi — 9597000 km<sup>2</sup>.  
Davlat tili — xitoy tilining mandarin dialekti.  
Aholisi — 1286975500 kishi (2003). Dini —  
konfutsiylik, daosiylik, buddaviylik, xristianlik,  
islom. Pul birligi — yuan.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Osiyoning sharqidagi davlat. Shimoli sharqda (chegara uzunligi — 36,5 km) va shimoli g'arbda Rossiya (40 km), shimolda Mongoliya (4670 km), shimoli sharqda Shimoliy Koreya (1416 km), shimoli g'arbda Qozog'iston (1533 km) va Qирг'изистон (858 km), g'arbda Pokiston (523 km), Tojikiston (414 km), Afg'oniston (76 km), janubi g'arbda va janubda Hindiston (3380 km), janubda Myanma (2185 km), Vyetnam (1281 km), Nepal (1236 km), Butan (470 km), Laos (423 km) janubiy sharqda Makao (0,34 km) bilan chegardosh. Janubda Janubiy Xitoy dengizi, sharqda Sariq va Sharqiy Xitoy dengizlari bilan tutash. Chegarasining umumiyligini — 2214334 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi —

14500 km. Xitoy hududining kattaligi jihatidan dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Xitoyning janubida Nanlin va Yunnan—Tuychjou tog'lari qad ko'targan. Janubiyg'arbda Himolay—Karakorum, Nanshanya, Kunlenya tog'lari bilan o'ralgan. O'rtacha balandligi taxminan 4500 m bo'lgan Tibet tog'lari joylashgan. Nepal bilan chegarada dunyodagi eng baland cho'qqi Jomolungma (Everest — 8848 m) joylashgan. G'arbda va shimoliy g'arbda Tokla-Makan cho'li yotadi. Xitoyning shimolida Gobi cho'li yoyilgan. Shimoliy-sharqda Katta Xingan, Kichik Xingan tog'lari joylashgan. Asosiy dar-yolari — Yanszi, Xuanxe, Sungari, Sinszyan. Yer osti boyliklari quyidagilarga boy: temir rudasi, ko'mir, neft, rtut, volfram, qalay, surma, marganets, molibden, rux, qo'rg'oshin, alyuminiy, uran. Haydaladigan yerlar umumiy maydoning — 10%, o'tloq va maysazorlar — 31% ini egallaydi.

Iqlimi — hududining kattaligi tufayli iqlim turli-cha: mo'tadil, subtropik va tropik. Xitoyning o'simlik dunyosi xarakter jihatidan ikki zonaga: sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linadi. Sharqiy qismda o'simliklar turi 25000 dan ortiq. G'arbiy qismda o'simliklar ko'proq bir yillikga ega. Braxmaputra vodiyisida ignabargli o'rmonlar: qarag'ay va kedrning har xil turlari o'sadi. Bo'ri, tulki, ayiq, yo'lbars, sobol, kolonok, oq sichqon, olmaxonlar va boshqalar yashaydi.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) Konstitutsiyaga ko'ra xalq demokratik diktaturasi o'rnatalgan sotsialistik davlat. Mamlakat tarkibida — 22 provinsiya, 5 avtonom rayon va 3 markaziy — Pekin, Shanxay va Tyanszin bor. Xitoy Xalq Respublikasi 1949-yil 1-oktabrda tashkil topgan. 1-oktabr — Milliy bayram — XXR e'lon qilingan kun. Ijro etuvchi hokimiyat XXR raisi (davlat boshlig'i)ga, Umumxitoy xalq vakillari yig'ilishi doimiy qo'mitasi raisi, Davlat Kengashi raisi (hukumat boshlig'i)ga tegishli. Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi — Umumxitoy xalq vakillari yig'ilishi. Mamlakatda boshqa siyosiy partiyalar paydo bo'lganiga qaramay, siyosiy hayotni Xitoy Kommunistik partiyasi belgilaydi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.**

80-yillarda Xitoy rahbarlari markazlashtirilgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tkazishga kirishdi. Buning uchun qishloq xo'jaligida kollektivizatsiyadan fermerlik tizimiga o'tildi. Qishloq xo'jaligi yalpi milliy mahsulotning 30% ini ta'minlaydi. Sanoatning birmuncha rivojlangan tarmoqlari — metallurgiya, mashinasozlik, ko'mir qazib olish, neft qazib olish, to'qimachilik, kimyo, harbiy sanoat. 2004-yil YIM miqdori 7262000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Gonkong, Yaponiya, AQSH, Rossiya, Tayvan, Germaniya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — taxminan 54000 km. Avtomobil yo'llari — 1300000 km, ichki suv yo'llari — 138600 km. Asosiy portlari: Guanchjou, Dalian, Sindao, Shanxay.

**Tarixi.** Birinchi Xitoy sulolasi — Sin (m. a. XVIII—XI asrlar), m. a. XIV asrda In nomini olgan. M. a. 1111-yilda davlat chjou qabilalari tomonidan zabit etilgan. M. a. VII asrda Chjou davlati bir nechta podsholiklarga bo'linib ketgan. M. a. III asrda 36 ta provinsiyaga bo'lingan. Markazlashgan Sin imperiyasi paydo bo'ldi. Bu imperiya davrida xunnlar hujumidan himoyalanish maqsadida Buyuk Xitoy devori qurilgan. M. a. 206-yilda Sin imperiyasi o'rnila paydo bo'lgan Xan imperiyasi m. a. 140—87-yillarda o'z rivojlanishining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan. «Uch qirollik» davridan keyin mamlakatda hokimiyat 907-yilgacha hukmronlik qilgan Tan sulolasi qo'liga o'tgan. 1226-yilda mo'g'ullar bosqinidan keyin mamlakatda mo'g'ullardan bo'lgan Yuan sulolasi hukm surgan. 1368-yilda hokimiyat Xitoy imperatori qo'liga o'tadi va Min dinastiysi davri boshlanadi. Xitoy hukmronlari 1628—1645-yillarda ko'tarilgan qo'zg'olonlarni bostirish uchun manchjur qabilalari ko'magiga tayanadi. Manchjurlar 1644-yilda hokimiyatni qo'lga kiritadi va 1912-yilgacha mamlakatni idora qiladi. Imperiya hududini Sibir, Oltoy, Pomir va Nepalgacha kengaytirgan manchjurlar hukumati XIX asrda ko'plab ichki va tashqi muammlarga duch keladi. 1912-yilda Sun Yatsen Gomindan hukumatiga asos soladi. Sun Yatsen o'limidan keyin Chan Kayshi guruhi kommunistlar bilan aloqani uzib

Nankinda milliy hukumat tuzadi. 1938-yilda yapon qo'shinlarining bostirib kirishidan keyin gomindanchilar bosqinchilarga qarshi kurashish uchun kommunistlar bilan birlashadilar. Gomindanchilar mag'lubiyatga uchrab, Tayvanga qochadi, kommunistlar esa Mao Szedun boshchiligidagi 1949-yil 1-oktabrda Xitoy Respublikasining tashkil topganini e'lon qiladi.

## XORVATIYA

*Rasmiy nomi — Xorvatiya Respublikasi. Poytaxti — Zagreb. Hududi — 56538 km<sup>2</sup>. Aholisi — 4422200 kishi (2003 y). Davlat tili — xorvat. Dini — katoliklar (77%), pravoslavlavl (12%), musulmonlar (1,5%). Pul birligi — kuna.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Yevropaning janubi sharqida, Bolqon yarimorolida joylashgan davlat. Sharqda va janubi sharqda Bosniya va Gersogovina (chevara uzunligi — 842 km), shimolda Sloveniya (455 km) va Vengriya (292 km), sharq va janubda Yugoslaviya (254 km) bilan chegaradosh. Xorvatiyaga Adriatika dengizidagi eng yiriklari Krk, Sres, Xvar, Korchula, Brach kabi bir qator orollar tegishli. Chegarasining umumiy uzunligi — 1843 km, sohil bo'ylab chevara uzunligi — 5090 km (materik qismi — 1078 km, orollarniki — 4012 km). Mamlakat hududi asosan tekislik va pasttekisliklardan iborat. Adriatika dengizi sohilida Dinor tog'i (eng baland nuqtasi — Troglav cho'qqisi — 1913 m), Velebet tiz-masi va Kapela tizmasi joylashgan. Asosiy daryolari: Sava, Dunay. Xorvatiya neft, tabiiy gaz, ko'mir, marganets, xrom, temir rudalariga ega. Hududning 32% i haydaladigan yerlar, 18% i o'tloq va yaylovlardir, 15% i o'rmon va to'qaylardir.

Iqlimi — O'rta Yer dengizi tipidagi iqlim. Hududning katta qismi ninabargli o'rmonlar bilan qoplangan. Bargli o'rmonlar ham uchraydi. Adriatika dengizi sohillarida asosan butalar o'sadi. Hayvonot olami boy. Dalmatin orollarida mangustlar uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzumi — parlament respublikasi. Mamlakat tarkibiga

102 jupaniy (rayon) kiradi. Xorvatiya mustaqillikka 1991-yilning 26-iyunida erishdi (avval YSF SR tarkibida bo'lgan). Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va rais boschchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Xorvatiya Sobori (yuqori va quyi palatadan iborat). Yirik siyosiy partiyalari: Xristian-demokratik hamdo'stlik, Sotsial-demokratik partiya, Xalq partiyasi, Demokratik partiya, Sotsial-liberal partiya, Sotsialistik partiya, Xristian-demokratik partiya.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

Yugoslaviya tarqalguncha Xorvatiya Sloveniya kabi iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan hudud hisoblanardi. Serbiya bilan urush tugagandan so'ng Xorvatiya katta miqdordagi tashqi qarz, vayron etilgan infrastruktura, sobiq yugoslav respublikalari bilan iqtisodiy aloqalarning uzilganligi kabi muammolarni muvaffaqiyatli bartaraf etdi. Sanoatning taraqqiy etgan tarmoqlari: kemasozlik, neftni qayta ishlash, mashinasozlik, kimyo, yog'ochni qayta ishlash, elektrotexnika, elektron, farmatsevtika, oziq-ovqat, to'qimachilik. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik (makkajo'xori, bug'doy, qandlavlagi, kungabooqar, kanop) yetakchi. Uzum yetishtirish rivojlangan. Etnik guruhlar o'rtasidagi nizolar tugagandan so'ng turizm mamlakatning assosiy daromad manbayiga aylanmoqda. 2004-yil YIM miqdori 50330 mln dollarni (aholi jon boshiga — 11200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH davlatlari, Sobiq Yugoslaviya Respublikalari.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 2698 km, avtomobil yo'llari — 32071 km (23305 km qattiq qoplimali), ichki suv yo'llari — 785 km. Portlari: Dubrovnik, Riyeka, Split (dengiz), Vukovar, Osiyek (ichki).

***Tarixi.*** I asrda hozirgi Xorvatiya hududi Rim provinsiyasi Pannoniya tarkibiga kirgan. VII asrda Karpat tog'laridan ko'chib kelgan xorvatlar bu hududda 925-yili Xorvat qirolligiga asos soldi. 1102-yilda Xorvatiya Venger qirolligi tarkibiga kiradi va turk (1526—1599) hamda fransuz (1809—1813) okkupatsiyalarini hisoblamaganda 1918-yilgacha bu qirollikka tobe bo'ladi. 1919-yilda mamlakat serblar, xorvatlar va slovenlar qirolligi tarkibiga kiradi. 1941-yilda Pavelich

rahnamligidagi ustashlarning millatchilik harakati Germaniya va Italiya tan olgan mustaqil Xorvatiya davlatini tashkil etadi. Fashist Germaniyasining mag'lubiyatidan so'ng Xorvatiya Yugoslaviya tarkibiga kirdi. 1991-yilda Xorvatiya o'z mustaqilligini e'lon qiladi, natijada serblar va xorvatlar o'rtaida harbiy nizo kelib chiqadi.

## CHAD

*Rasmiy nomi — Chad Respublikasi. Poytaxti — Ndjamen. Hududi — 1284000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 9253500 kishi (2003). Davlat tili — fransuz va arab. Dini — musulmonlar (50%), xristianlar (25%), majusiyalar (25%). Pul birligi — Afrika franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Markaziy Afrikadagi davlat. Sharqda — Sudan (chegara uzunligi — 1360 km), janubda — Markaziy Afrika Respublikasi (1197 km), g'arbda — Niger (1175 km), Kamerun (1094 km) va Nigeriya (87 km), shimolda — Liviya (1055 km) davlatlari bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 5968 km. Katta suvsiz tekisliklar mamlakatning markaziy qismida joylashgan. Shimoldagi hududlar Sahroi Kabir doirasida. Shimoli g'arbda mamlakatning eng baland nuqtasi — Emi Kusi (3415 km) bo'lgan Tibesti tog'lari mavjud. Janubda pasttekisliklar joylashgan. Eng katta ko'li — Chad. Mavjud neft konlari ekspluatatsiya qilmaydi, uran konlari bor. Hududining kattaligiga qaramay haydaladigan yerlar 2%, yaylov va o'tloqlar 36%, o'rmon va to'qaylar 11% ni tashkil qiladi.

Iqlimi — tropik cho'l iqlimidir. Asosan cho'l va savanna o'simliklari o'sadi. Daraxtlardan dum palmasi va boabab uchraydi. Fil, karkidon, yovvoyi ho'kiz, jirafa, antilopa, arslon, qoplon, gepard, shoqol, giyena, begemot, timsoh, flamingo, saqoqush, maymunlardan pavian va kolobuslar hayvonot olamini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 14 ta prefekturaga bo'lingan. Chad mustaqillikka 1460-yilning 11-avgusti-

da erishdi (avval fransuz Ekvatorial Afrikasi hududining bir qismi bo'lgan). 11-avgust — Milliy bayrami (Mustaqillik kuni). Ijro etuvchi hokimiyat — prezident (davlat boshlig'i) va Bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliv organ — Milliy Konfederatsiya. Siyosiy partiyalar orasida eng obro'lisi hukmron Najot vatanparvarlik harakatidir.

***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*** Chad Afrikaning fuqarolar urushi, Liviya bilan nizolar, tez-tez bo'ladigan qurg'oqchiliklar tufayli nochor ahvoldagi iqtisodga ega bo'lgan kambag'al davlatlardan biridir. Iqtisodining asosiy tarmog'i — 80% mehnatga layoqatlî aholi band bo'lgan qishloq xo'jaligi (YMMning 45% i)dir. Paxta umumiy eksport hajmining 48% ini tashkil etadi. Sorgo, yeryong'oq, sholi, tariq, kartoshka, maniok ekiladi. Chorvachilik rivojlangan. Sanoat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va to'qimachilik bilan chegaralangan. 2004-yil YIM miqdori 15660 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1600 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Fransiya, Nigeriya, Kamerun, AQSH.

Temiryo'llari yo'q, avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 31322 km (asosan tuproq yo'llar), ichki suv yo'llari uzunligi — 2000 km.

***Tarixi.*** IX asrning boshlarida hozirgi Chad hududi da Kanem qirolligi tashkil topadi. XI asrda ushbu qirollik hukmdorlari islomni qabul qilishadi va o'z hududlarini kengaytirishadi. Chad ko'lidan g'arbda XIV asrda vujudga kelgan Borno qirolligi XVI asrda Kanemni o'ziga bo'ysundiradi. XIX asrning oxirida hozirgi Chad hududi Sudan imperatoriga qaram bo'ladi, keyinroq esa Fransiya bu hududlarni bosib oladi va 1910-yilda Chadni Fransuz Ekvatorial Afrikasi tarkibidagi mustam-laka deb e'lon qiladi. 1958-yilda fransuz Hamdo'stligi doirasidagi muxtoriyatni qo'lga kiritgan. Chad 1960-yilning avgustida mustaqillikka erishadi. 1968-yilgi Milliy ozodlik fronti va hukumat o'rtasidagi to'qnashuvlardan so'ng mamlakatga fransuz qo'shinlari kiritiladi. Fransuz qo'shinlari Chadni 1975-yilda davlat to'ntarishi natijasida hokimiyatga general Mallum kelganidan so'ng tark etishadi. 1973-yildan 1989-yilgacha Chad Liviya bilan

o'zining shimoliy hududlari uchun urush olib boradi. 1979-yilda Milliy ozodlik fronti va hukumat o'rtaida tinchlik shartnomasi tuziladi, lekin bu shartnomalar tez orada buziladi va mamlakatda davlat to'ntarishlari bo'lib turgan (1982- va 1990-yy.), natijada fuqarolar urushi boshlanadi.

## CHERNOGORIYA

*Rasmiy nomi — Chernogoriya Respublikasi.  
Poytaxti — Setine. Hududi — 13,8 ming kv.km.  
Aholisi — 672,5 ming kishi (2003). Tili — serb.  
Dini — pravoslav. Pul birligi — yevro (milliy valyutasiga ega emas).*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Bolqon yarimorolining shimoliy qismida joylashgan. Shimoli g'arbda — Xorvatiya (chegara uzunligi — 14 km) shimolda Bosniya va Gersegovina (225 km), sharqda — Serbiya (203 km), janubda — Albaniya (172 km) bilan chegaradosh. G'arbiy sohillarini Adriatika dengizi suvlari yuvib turadi. Chernogoriya hududi sohilbo'y, tekislik, yassitog'lik va tog'li hududlardan iborat. Chernogoriyaning katta qismi Dinara tog'ligida joylashgan, eng baland joyi — Durmitor cho'qqisi (2522 m), janubi g'arbida Chernogoriya karstli platosi bor.

Iqlimi — mo'tadil kontinental.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Konstitutsiyasiga ko'ra Chernogoriya demokratik ijtimoiy va ekologik davlat hisoblanadi. Hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo'linadi. Davlat boshlig'i prezident bo'lib, umumiy saylov yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi organ — Skupshina (parlament). Ma'muriy-hududiy jihatidan 21 obshinaga bo'linadi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Alp tog'larida chorvachilik, g'allakorlik, bog'dorchilik, uzumchilik taraqqiy etgan. Sanoati mineral xomashyo qazib olish va unga ishlov berish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslashga ixtisoslashgan. Boksit, qo'rg'oshin, rux ruda-

lari, qo'ng'ir ko'mir, tuz qazib olinadi. Metallurgiya, alyuminiy, yog'ochsozlik, elektrotexnika, kema ta'mirlash, to'qimachilik va tamaki korxonalarini bor.

**Tarixi.** I asrda Chernogoriya hududi Rimning Dolmatsiya, 297-yildan Prevalitana provinsiyasiga qo'shilgan. 493-yildan Chernogoriya bir qismi ostgotlar davlatiga, 536-yildan esa Vizantiya tarkibiga kirdi. VII asrda Chernogoriya hududida slavyanlar joylashgan. IX asrda xristiyanlik qaror topdi. 1499-yilda Chernogoriya hududi Usmoniyalar imperiyasi tarkibiga qo'shib olindi. Napoleon urushlari va serblarning mustaqillik uchun olib borgan kurashlarida (1804—1805) Chernogoriya Rossiya va Serbiya tomonida bo'ldi. 1852-yil Chernogoriya merosiy knyazlik deb e'lon qilindi. 1878-yili Berlin kongressi qaroriga binoan mustaqil davlat deb tan olindi. Chernogoriya 1918-yil Serb, Xorvat va Slavyanlar qirolligi tarkibiga kirdi 1945-yili 19-noyabrda YSFR e'lon qilingach, Chernogoriya Yugoslaviya tarkibiga kirdi. XX asrning 90-yillari boshlarida YSFR parchalanishi oqibatida Chernogoriya Serbiya bilan birgalikda yagona konfederatsiyaga birlashdi. 2006-yil 21-mayda o'tkazilgan xalq referendumni nati-jalariga ko'ra Chernogoriya mustaqil davlatga aylandi.

## CHEXIYA

*Rasmiy nomi — Chexiya Respublikasi. Poytaxti — Praga. Hududi — 78864 km<sup>2</sup>. Aholisi — 10310000 kishi (2003). Davlat tili — chex. Dini — katolik (65%), protestantlar (15%), pravoslavlavl (13%). Pul birligi — chex kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Markaziy Yevropadagi davlat. Shimolda — Polsha (chegara uzunligi — 658 km), shimolda va g'arbda — Germaniya (646 km), janubda — Avstriya (362 km), sharqda — Slovakiya (214 km) davlatlari bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 1880 km. Mamlakat hududini shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin: g'arbda — Bogemiya, sharqda — Moraviya. Hududining g'arbiy qismi past tog'lar bilan o'ralgan tekisliklar, tepe-

liklar va yassitog'liklardan iborat. Bu hududlarda ruda tog'lari, Chex o'rmoni, Shumava joylashgan. Sudetdag'i Snejka tog'i (1602 m) mamlakatning eng baland nuqtasi hisoblanadi. Sharqiy hududlar tepaliklardan iborat. Asosiy daryolari — Vltava, Morava, Laba (Elba), Oder. Asosiy tabiiy boyliklari — ko'mir, kaolin, grafit.

Iqlimi — mo'tadil kontinental. Tog'larida ninabargli o'rmonlar, tekis hududlarida eman, zarang, qoraqayin o'sadi. Qo'ng'ir ayiq, tulki, to'ng'iz, bo'ri, sernalar hayvonot olamini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 8 ta o'lkaga bo'lingan. Chexiya 1993-yil 1-yanvarda Chexoslovakianing parchalanishidan so'ng mustaqil davlatga aylandi. Milliy bayramlari — Kirill va Mefodiy kuni, 6-iyul — Yan Gus yondirilgan kun, 28-oktabr — Chexoslovakija ozod etilgan kun. Davlat boshlig'i — prezident, ijro etuvchi hokimiyat rais boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Senat (yuqori palata) va Deputatlar palatasi (quyi palata)dan iborat parlamentga tegishli. Yirik siyosiy partiyalari: Fuqarolik demokratik partiyasi, Chexiya va Moraviya kommunistik partiyasi, Chexoslavak xalq partiyasi, Fuqarolik demokratik alyansi, Chexoslovak sotsial-demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Chexiya sobiq sotsialistik blok davlatlari orasida iqtisoda sezilarli o'zgarishlarga erishgan davlatdir. Sanoating eng rivojlangan tarmoqlari: yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat. Mashinasozlik va transport uskunalari, yoqilg'i, kimyo-viy moddalar, minerallar, metallar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilinadi. Rivojlangan qishloq xo'jaligi Chexiyaga oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. 2004-yil YIM miqdori 172200 mln dollarni (aholi jon boshiga — 16800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Slovakiya, Avstriya, Italiya, Rossiya.

Temiryo'llarining umumiyligi — 9434 km, avtomobil yo'llari — 55890 km.

**Tarixi.** M. a. V asrda kelt qabilalari o'rnashgan hozirgi Chexiya hududi V—VI asrlarda slavyan qabi-

lasi chexlar tomonidan egallanadi. IX asrda Kirill va Mefodiy tomonidan xristianlik tarqatilgan Bogemiya IX asrning oxirlarida Buyuk Moraviya qirolligi tarkibiga kiradi. Chex qirolligi o‘zining qudrat cho‘qqisiga Muqaddas Rim imperiyasi imperatori Karl IV hukmronligi davrida chiqadi. XV asrning boshlarida Praga universitetining rektori Yan Gus katolik cherkovini reformatsiya qilish tashabbusi bilan chiqadi, lekin 1415-yil 6-iyulda inkvizitsiya tomonidan yoqib yuboriladi. 1620-yilda Bogemiya o‘zining avtonomiyasini yo‘qotib, gabsburglarga tobe bo‘ladi. 1918-yilda Avstriya — Vengriya imperiyasi parchalangandan so‘ng mustaqil Chexoslovakiya Respublikasi e’lon qilinadi. 1939-yilda Sudet viloyati Germaniya tomonidan bosib olinadi, mamlakatning qolgan hududlari Germaniya protektorati deb e’lon qilinadi. Mamlakat nemis qo‘sishnalaridan ozod etilgach, kommunistlarning ta’siri kuchayadi va 1948-yilda ular hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishadi. 1968-yilda Chexoslovakiya komunistik partiyasining birinchi kotibi A. Dubcek «odambashara sotsializm» qurish to‘g‘risida e’lon qiladi, lekin mamlakatni liberallashtirish 1968-yil 21-avgustda Varshava Shartnomasi (Ruminiyadan tashqari) davlatlarining qo‘sishlari tomonidan to‘xtatiladi. Parlament raisligiga A. Dubcek, Respublika prezidentligiga V. Gavel saylanadi. Mamlakat aholisi 1992-yilgi referendumda Chexoslovakianing ikki davlatga bo‘linishi uchun ovoz beradi va 1993-yil 1-yanvarda Chex Respublikasi tashkil topadi.

## CHILI

*Rasmiy nomi — Chili Pespublikasi. Poytaxti — Santyago. Hududi — 756626 km<sup>2</sup>. Aholisi — 15665200 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — katolik. Pul birligi — Chili pyesosi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Janubiy Amerikaning janubi g‘arbiy sohilida joylashgan davlat. Sharqda — Argentina (chegara uzunligi — 5150 km) va Boliviya (861 km), shimola — Peru (160 km) davlatlari

bilan chegaradosh. G'arbda va janubda mamlakat Tinch okean bilan tutashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 6171 km. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 6435 km. Mamlakat shimoldan janubga Tinch okean bo'ylab 4300 km cho'zilgan. Chili hududini 3 ta fizik-geografik hudud tashkil etadi: sharqda — And tog'lari, markazda — Uzun vodiy va pasttogg'lar, shimolda — Atakama cho'li joylashgan. Mamlakat markazida joylashgan vodiyning uzunligi — 1000 km, eni — 40—80 km bo'lib, aholi zich joylashgan hudud hisoblanadi. Eng baland nuqtasi — Oxos-del-Salado (6880 m) tog'i. Vulqonlar ko'p, zilzilalar tez-tez bo'lib turadi. Asosiy daryolari: Loa, Elki, Maypo, Akongagua. Chilining janubida ko'llar bor. Asosiy tabiiy boyliklari: mis, temir rudasi, qimmatbaho metallar, molibden, yog'och. Haydaladigan yerlar hududining 7%, o'rmon va to'qaylar 21%, yaylov va o'tloqlar 18% ini tashkil etadi.

Iqlimi: shimolda — tropik cho'l, markazda — subtropik va o'rtalik dengiz tipli, janubida — mo'tadil okean tipli. Tamarugo, notofagus, kanelo, alerse daraxtlari mavjud. Hayvonot dunyosi puma, tulki, brone-nosets, kiyik, kolokolo mushugi, skuns, magellan iti, kaltakesaklar, to'tiqush, o'rdak, kondorlardan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. 12 region va alohida poytaxt okrugi mamlakat tarkibiga kiradi. Mustaqillikka Chili 1810-yilning 18-sentabrida erishdi (avval Ispaniya mustamlakasi). Ushbu kun milliy bayram — Mustaqillik kuni deb qabul qilingan. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Senat (yuqori palata) va Deputatlar (quyi palata)dan iborat Milliy Kongress. Asosiy siyosiy partiyalari: Xristian-demokratik partiya, Chili birlashgan sotsialistik partiyasi, Demokratiya uchun partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat sanoatining asosiy tarmog'i tog'-kon sanoatidir. Chili mis eksport qilish bo'yicha dunyoda yetakchilardan hisoblanadi. Sanoatning boshqa tarmoqlarini metallurgiya, yog'ochni qayta ishslash, oziq-ovqat, to'qimachilik tashkil etadi. O'rmonchilik va baliqchilikni o'z ichiga olgan qishloq xo'jaligi YMMning 7% ini

tashkil etadi. Chorvachilik rivojlangan. Bug'doy, dukkaklilar, qandlavlagi, kartoshka, uzum, mevalar yetishtiladi. Chili mevalar, baliq va yog'och mahsulotlari ning yirik eksportchisidir. 2004-yil YIM miqdori 169100 mln dollarni (aholi jon boshiga — 10700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH davlatlari, AQSH, Yaponiya, Braziliya.

Temiryo'llarinin umumiyligi — 7766 km, avtomobil yo'llari — 79025 km, ichki suv yo'llari — 725 km. Asosiy portlari: Irike, Valparaiso.

**Tarixi.** Araukanlar yashagan hozirgi Chili hududi 1520-yilda portugaliyalik dengizchi F. Magellan tomonidan kashf etiladi. 1536-yildan ispanlar mustam-lakachilik siyosatini boshlashadi. 1541-yilda Santyagoga asos solinadi, Chili esa Peru vitse-qirolligi tarkibiga kiritiladi. Nodir metallarning yo'qligi va mamlakat materikning asosiy kommunikatsiyalaridan uzoqligi tufayli metropoliya Chiliga katta qiziqish bildirmasdi. 1818-yilda Ispaniyadan mustaqillikka erishgandan so'ng Chilida bir necha bor davlat to'ntarishlari bo'ladi. 1879—1883-yillardagi Tinch okean urushi natijasida Chili mis konlariga boy bo'lgan Atakamaga ega bo'ladi. Mis konlaridan unumli foydalanish iqtisodiy taraqqiyotni yuqori darajaga olib chiqadi. 1964—1970-yillardagi xristian-demokratlar hukmronligidan so'ng hokimiyatga S. Alende boshliq sotsialistlar keladi. Bu hukumat iqtisodni davlat mulkiga aylantirish va yer islohoti o'tkazishini e'lon qiladi. 1973-yilning sentabrida mamlakatda harbiy to'ntarish bo'ladi. Prezident S. Alende o'ldiriladi, hokimiyatni esa general Pinochet boshliq harbiy xunta egallaydi. Iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi va chet el investitsiyalarining jalb qilinishi Pinochetga Chilini Janubiy Amerikada iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish imkonini beradi. Biroq Chili xalqining ichki siyosatdan noroziligi va jahon hamjamiyatining harbiy xuntani qoralashi Pinochetni konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishga majbur etadi. 1990-yilda parlament saylovlar o'tkaziladi va unda xristian-demokratlar g'olib chiqishadi. 1994-yilgi prezident saylovlarida ham xristian-demokratlar g'olib chiqishadi.

## SHARQIY TIMOR

*Rasmiy nomi — Sharqiy Timor. Poytaxti — Dili. Hududi — 14925 km<sup>2</sup>. Aholisi — 997900 kishi (2003). Davlat tili — indonez. Dini — islom. Pul birligi — Indoneziya rupiyasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Timor orolining sharqiy qismida joylashgan, Indoneziya bilan chegaradosh.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat organlari va siyosiy partiyalari shakllanish jarayonida.

**Tarixi.** 1999-yilda referendum o'tkazilib, aholining 78% i Indoneziyadan ajralib chiqish va mustaqillik uchun ovoz berdi. 2002-yil may oyida BMT dunyo xaritasida yangi Sharqiy Timor davlatining paydo bo'lganligi haqida e'lon qildi.

## SHVEYSARIYA

*Rasmiy nomi — Shveysariya Konfederatsiyasi. Poytaxti — Bern. Hududi — 41288 km<sup>2</sup>. Aholisi — 7318600 kishi (2003). Davlat tili — nemis, fransuz, italyan, retoroman. Dini — kataliklar (50%), protestantlar (48%). Pul birligi — Shveysariya franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Markaziy Yevropadagi davlat. Janubda va janubi sharqda — Italiya (chegaraning uzunligi 740 km), g'arbda, janubi g'arb va shimoli g'arbda — Fransiya (573 km), shimolda — Germaniya (334 km), sharqda — Avstriya (164 km) va Lixtenshteyn (41 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 1852 km. Shveysariya — tog'li mamlakat. Uning katta qismida Alp tog'lari joylashgan. Mamlakatning eng baland nuqtasi — Dyufur tog'i (4634 m). Alp muzliklarining maydoni — 2000 km<sup>2</sup>. Shimoli g'arbda Yura tog'lari bor. Markaziy qismida Shveysariya yassitog'ligi joylashgan. Asosiy daryolari: Reyn, Rona, Tichino. Yirik ko'llari: Jeneva, Boden. Asosiy tabiiy resurslari: yog'och, gidroenergetik

potensial. Mamlakat hududining 10% i haydaladigan yerlardan, 40% i yaylov va o'tloqlardan iborat. Atlantika okeanining ta'siri va mamlakat orfografik tuzilishining murakkabligi ko'pincha iqlimning nam bo'lishiga sabab bo'ladi. Shveysariyaning o'simlik dunyosi asosini ninabargli va subalp o'rmonlar tashkil etadi. Tog'larda saldanella, primula hamda Shveysariyaning norasmiy ramzi hisoblangan edelveys o'sadi. Yovvoyi echki, suvsar, quyon, sug'ur, ayiq, tulki, bo'ri, to'ng'iz, burgut, karqur hayvonot olamini tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — federativ respublika. Mamlakat tarkibida 23 kanton bor (ulardan uchtasi yarim kantonlarga bo'lingan). Shveysariya Konfederatsiyasi 1291-yilning 1-avgustida tashkil topgan. Ushbu kun milliy bayram — Konfederatsiya tashkil topgan kun hisoblanadi. Federal konstitutsiya 1874-yilda qabul qilingan. Har bir kanton o'zining konstitutsiyasi, parlamenti va hukumatiga ega. Davlat va hukumat boshlig'i — konfederatsiya prezidenti. Hukumat Federal Kengash deb nomланади. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Kantonlar senati (yuqori palata) va Milliy Kengash (quyi palata)dan iborat ikki palatali parlament Federal Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Shveysariya radikal-demokratik partiyasi, Shveysariya xristian-demokratik partiyasi, Shveysariya sotsial-demokratik partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Yuqori darajada rivojlangan sanoat davlati. Shveysariya aholi boshiga daromad darjasini bo'yicha jahonda yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Qazilma boyliklarning yo'qligiga qaramay Shveysariya jahon bozorlarida kuchli raqobatchi hisoblanadi, bundan tashqari bu davlat iqtisodiy barqarorlik va aholining bandligini yuqori darajada ushlab turadi. Metallga ishlov berish, mashinasozlik, uskunasozlik, kompyuter texnikasi, transport vositalari, soatsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoatining eng taraqqiy etgan tarmoqlaridir. Iqtisodining muhim tarmoqlaridan biri — bank ishi. Shveysariya dunyoning moliyaviy markazlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi (YMMning 5% i)

asosan chovachilikka ixtisoslashgan. 2004-yil YIM miqdori 251900 mln dollarni (aholi jon boshiga — 33800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH davlatlari, AQSH, Yaponiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 5174 km (99% elektrlashtirilgan), avtomobil yo'llari 61500 km, ichki suv yo'llari — 65 km. Asosiy daryo porti — Bazel.

**Tarixi.** Kelt qabilalari — ret va gelvetlar yashagan hozirgi Shveysariya I asrda qadimgi Rim tomonidan bosib olinadi. V asrda bu hududga german qabilalaridan burgundlar va allemanlar kirib kelishadi va hozirgi Roman Shveysariyasi hamda Alleman Shveysariyasi joylashgan hududlarda o'rashishadi. VI asrdan hozirgi Shveysariya hududi Franklar qirolligi, keyinroq Burgundiya, 1032-yildan Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga kirgan. XII—XIII asrlarda bu hududda bir qator mustaqil knyazliklar shakllanadi. Shular orasida XIII asrning oxirlariga kelib Gabsburg knyazligi obro' qozonadi. 1291-yilda uchta shveysar kantoni (Uri, Shvits va Untervalden) ittifoq tuzib, gabsburglarga qarshi kurashadilar. Qator mag'lubiyatlar (1315-yil — Morgatan, 1351-yil — Syurix, 1386-yil — Zempaxdava va boshqalar)dan so'ng gabsburglar 1389-yilda Konfederatsiyani tan oladilar. 1498-yilda Konfederatsiyaga yana besh kanton qo'shiladi. Shveysariya Konfederatsiyasining harbiy qudrati Yevropa davlatlari tomonidan tan olinadi (Shveysariyaning rasman tan olinishi 1648-yilgi Vestfaliya shartnomasi bilan mustahkamlangan) va ular XV—XVI asrlarda yollanma shveysar qo'shinlarini harbiy yurishlarga jalb qila boshlashadi. Reformatsiya XVI asrda mamlakatni ikkiga bo'lib, fuqarolar urushini keltirib chiqaradi. Katolik va protestantlar o'rtasidagi janglardan birida protestant ruhoniysi U. Svingli halok bo'ladi. Shundan so'ng ikki o'tada shartnomalar tuzilib, unga ko'ra to'rt kantonda kalvinizm, yetti kantonda katolik dini tan olinadi. Shveysariya XVII asrda neytralitet e'lon qiladi. Neytralitet bir marotaba, 1798—1814-yilgi Napoleon urnshi davrida buziladi. Lekin 1815-yilgi Vena kongressi Shveysariyaning xalqaro maqomini tasdiqlab, uning neytralligi va chegaralarining daxlsizligini kafolatlaydi. Shu davrdan qo'shilmaslik

siyosati mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi va Shveysariya bu siyosatga ikkita jahon urushlarida ham amal qildi.

## SHVETSIYA

*Rasmiy nomi — Shvetsiya Qirolligi. Poytaxti — Stokgolm. Hududi — 449964 km<sup>2</sup>. Aholisi — 8901100 kishi (2003). Davlat tili — shved. Dini — lyuteranlar (94%), katoliklar (1,5%). Pul birligi — shved kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Skandinaviya yarimorolining katta qismini egallagan Shimoliy Yevropadagi davlat. Shvetsiyaga Boltiq dengizidagi Gotland va Aland orollari hamda mamlakat sohili yaqinidagi qator mayda orollar tegishli. Shvetsiya g‘arbda va shimolda Norvegiya (chegara uzunligi — 1619 km), shimoli sharqda Finlyandiya (586 km) davlatlari bilan chegaradosh. Sharqda Shvetsiya Boltiq dengizi va Botnika qo‘ltig‘i, janubi g‘arbda Kattegat va Skagerrak bo‘g‘ozlari bilan tutashgan. Eresunn tor bo‘g‘oz Shvetsiyani DANIYAGA tegishli bo‘lgan Zelandiya orolidan ajratib turadi. Chegarasining umumiy uzunligi — 2205 km, sohil bo‘ylab chegara uzunligi — 3218 km. Mamlakat hududining asosiy qismi yassitog‘liklar va tepaliklari bor tekisliklardan iborat. Shimol va g‘arbda Skandinav tog‘lari (eng baland nuqtasi — Kebnekayse tog‘i — 2123 m) joylashgan. Mamlakat sharqida Norland yassitog‘ligi joylashgan. Shvetsiyaning janubiy qismida ko‘p sonli ko‘llardan iborat vodiylar. Yirik ko‘llari — Vettern va Venern. Asosiy daryolari — Kaliks-Elv, Shellefte-Elf, Ume-Elf, Turne-Elf. Mamlakat temir rudasi, qo‘rg‘oshin, rux, mis, kumush va yog‘ochga boy. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 7%, o‘rmonlar va to‘qaylar 64% ini tashkil etadi.

Iqlimi — mo‘tadil. Mamlakat hududining yarmidan ko‘prog‘i o‘rmonlardan iborat (23 mln ga). Ninabargli o‘rmonlar ko‘p. Mamlakat janubida aralash o‘rmonlar mavjud. Shimolda asosan mox va lishayniklar o‘sadi. Bug‘u, kiyik, tulki, o‘rmon suvsari, olmaxon, quyon,

o'rdak va oqqushlar hayvonot dunyosini tashkil etadi. Daryolari va Boltiq dengizi turli baliqlarga boy.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat tarkibiga 24 len (guberniya) kiradi. Milliy bayrami — 6-iyun — Shved Bayrog'i kuni. Davlat boshlig'i — monarx. Ijro etuvchi hokimiyat — Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — bir palatali parlament — Riksdag tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Shvetsiya xalq-demokratik ishchi partiyasi, Mo'tadil koalitsion partiya, Xalq partiyasi, liberallar, So'l partiya, Atrof-muhitni himoya qilish partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Shvetsiya samarali ijtimoiy ta'minot, aholining yuqori turmush darajasi hamda fuqarolarning ish bilan to'la bandligini ta'minlaydigan iqtisodiyotga ega. Mamlakat zo'r transport kommunikatsiyasiga va malakali ishchi kuchiga ega. Iqtisodining asosini yog'ochni qayta ishlash, qog'oz-sellyuloza sanoati, metallurgiya, gidro-energetika va avtomobilsozlik tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida chorvachilik muhim o'rinn tutadi. Don mahsulotlari, qandlavlagi, kartoshka asosiy ekinlar hisoblanadi. So'nggi yillarda hukumat tomonidan o'tkazilayotgan islohotlar — soliqlarni kamaytirish, davlat korxonalarini xususiy lashtirishdan iborat bo'lib, ular ishlab chiqarish hajmining o'sishiga, narxlarning barqarorligini saqlab qolishga, ishsizlik darajasini kamaytirishga qaratilgan. 2004-yil YIM miqdori 255400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 28400 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Germaniya, Buyuk Britaniya, Daniya, AQSH, Norvegiya.

Temiryo'llarinining umumiy uzunligi — 12000 km. Avtomobil yo'llari — 135819 km (97818 km qattiq qoplamali), ichki SUV yo'llari — 2052 km. Portlari — Evle, Gyteborg, Kalmar, Malmyo, Stokholm, Xelsingborg.

**Tarixi.** Hozirgi Shvetsiya hududida qadimda german qabilalari yashagan. VII—X asrlarda vikinglarning (sharqda ularni varyaglar deb atashgan) ta'siri sharqqa, avvaliga Boltiqbo'yiga, keyinroq Rossiyaga (IX asrda varyag knyazlari Novgorod va Kiyevni

boshqarishga taklif etilgan) tarqalgan. 860-yilga kelib varyaglar Konstantinopol bilan savdo qilishgan. Xristianlikni mamlakatga 830-yilda frank missionerlari olib kirishgan. Bu din dastlabki xristian qirollar Olafe, Skotkonunge (XI asr) va, ayniqsa, XII asrda hukmronlik qilgan Erik IX (Avliyo) davrida keng tarqalgan. Erik IX (1150—1160) Finlyandiyaga qarshi urush boshlaydi. Finlyandiya XIII asrda Shvetsiya tomonidan bosib olinadi. 1359-yilda Shvetsiyaning Daniya va Norvegiya bilan birlashishi (Kalmar uniyasi) Shvetsiyani XVI asr boshigacha Daniyaga qaram qilib qo'yadi. Karl XII Rossiya, Daniya va Polshaga qarshi kurashgan Shimoliy urushda (1700—1721) shved armiyasi Poltava yaqinida mag'lubiyatga uchraydi va Shvetsiya XVII asrda Gustav II Adolf davrida egallagan hududlarni qo'ldan boy beradi. Karl XIII 1814-yilda Norvegiyani Shvetsiyaga qo'shib oladi (1905-yilgacha). XX asrda ikkala jahon urushlarida neytralitet e'lon qilgan Shvetsiyaning siyosiy hayotida sotsial-demokratlar mavqeyi ortadi. Sotsial-demokratik partiyaning yorqin namoyandalaridan biri Shvetsiya Bosh vaziri 1986-yili terrorchi tomonidan o'ldirilgan Ulof Palmedir.

## SHIMOLIY KOREYA

*Rasmiy nomi — Koreya Xalq Demokratik Respublikasi. Poytaxti — Pxenyan. Hududi — 120538 km<sup>2</sup>. Aholisi — 22466500 kishi (2003). Davlat tili — koreys. Dini — budda va konfutsiylik (biroq diniy faoliyat amalda deyarli yo'q). Pul birligi — vona.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Sharqiy Osiyodagi davlat. Koreya yarimorolining shimoliy qismida joylashgan. Shimolda Xitoy (chegara uzunligi — 1416 km), janubda Janubiy Koreya (238 km), shimoli sharqda Rossiya bilan (17 km) chegaradosh. G'arbdan Sariq dengiz, sharqdan Yapon dengizi o'rab turadi. Chegarasining umumiy uzunligi — 1671 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 3495 km. Mamlakat hududini asosan tepalik va tog'lar tashkil qiladi, ularning

oralig'i torgina vodiylardan iborat. Mamlakatning eng baland nuqtasi — Pektusan tog'i (2750 m). Asosiy daryolari: Amnokkan, Tedongan, Tumangan. Asosiy tabiiy boyliklari: ko'mir, qo'rg'oshin, volfram, temir rudasi, mis, oltin rux, grafit, magnezit. Hududining 20% i haydaladigan yerlar, 74% i o'rmon va changalzorlar.

Iqlimi — mo'tadil mussonli. Mamlakatning tog'li tumanlari uchun ignabargli o'rmonlar xarakterli: qarag'ay, archa, koreys oq qarag'ayi, shuningdek, tol, terak, g'ujumlar ko'proq bo'lgan aralash o'rmonlar bor. Vodiylar amalda to'laligicha qishloq xo'jalik ekinlari bilan band. Bu yerdarda sholi, soya, javdar, makka-joxori va boshoqli ekinlar ekiladi. Mamlakat hayvonot dunyosida yo'lbars, qoplon, ayiq, tulki, bo'rilarni uchratish mumkin. Qushlar olamida burgut, bekas, turna va qirg'iylar bor.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — KXDR konstitutsiyasiga binoan suveren sotsialistik davlat hisoblanadi, amalda esa mamlakatda kommunistik rejim o'rnatilgan. Mamlakat tarkibida 9 ta viloyat va ikkita markazga bo'ysunuvchi shahar bor. KXDR 1948-yil 9-sentabrda mustaqil davlat bo'ldi (avvallari Yaponiya imperiyasining Chosun viloyati edi). 9-sentabr — Milliy bayram — Mustaqillik kuni. Davlat boshlig'i — amalda cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan prezident (Kim Ir Senning vafotidan so'ng, 1994-yildan beri mamlakatni prezident Kim Chen Ir boshqaradi). Ikkita vitse-prezident, Ma'muriy Kengash rahbari va to'qqizta vitse-rahbarlar prezidentga bo'ysunadilar. Yuqori qonunchilik organi — Xalq Oliy majlisi. Mamlakatda faqat bitta siyosiy partiya — Koreya Mehnat partiyasi ro'yxatga olingan.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Foydali qazilmalar va gidroenergetik resurslarning katta hajmi mamlakat sanoat taraqqiyotining asosini tashkil qiladi. Asosan qazib chiqarish sanoati (ko'mir, temir, magnit rudalari, grafit, mis, rux, qo'rg'oshin) va og'ir sanoat rivojlangan. Iqtisodiyot ustidan o'rnatilgan davlat nazorati hatto kommunistik rejim uchun ham juda qattiq. Qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yer-

larning barchasi kollektivlashtirilgan. Qishloq xo'jaligida (YMMning chorak qismiga yaqini) mehnatga layoqatli aholining 36% i band. Asosiy ekinlari — sholi, makkajo'xori, soya, kartoshka, boshqoli ekinlar. Iqtisodiy rivojlanish va turmush darajasi bo'yicha Shimoliy Koreya Janubiy Koreyadan ancha orqada. 2004-yil YIM miqdori 40000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Gonkong, Singapur.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi 4915 km, avtomobil yo'llari uzunligi 30000 km ga yaqin. Mamlakat portlari: Vonsan, Nampxo, Chxonjin, Xinnam.

**Tarixi.** M. a. II—I asrlarda hozirgi Koreyaning hududi Xitoyning mustamlakasi edi. M. a. 37-yili Koreya yarimorolining shimolida Koreys davlati Kogure paydo bo'ladi, janubiy qismi esa ikkita qirollikka: Pekche va Sillaga bo'lingandi. X asrning oxirlarida koreys davlatlari Koryo dinastiyasi hukmronligi ostida birlashtirildi. 1321-yili mo'g'ullar Koreyani bosib olganlarida qirol saroyidagilar Chejudo oroliga bekindilar. Li dinastiyasi hukmronligi yillarda (1392—1910) mamlakatga yaponlar (XVI asr oxiri) va manchjurlar (XVIII asr) hujum qildilar, XIX asrda esa Xitoy, Yaponiya va Rossiya o'rtasida talash bo'ldi. 1910-yili Yaponiya tomonidan bosib olingen Koreya 1938-yili yapon bosqinchilariga qarshi kurash boshladidi va 1943-yili mustaqillikka erishdi. Biroq sovet va Amerika qo'shinlari bosib olgan ikki zona 38-parallel bo'yicha ikki qismiga bo'lindi. 1948-yili mamlakatning shimoliy qismida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi e'lon qilindi. 1950—1953-yillarda Shimoliy va Janubiy Koreya o'rtasida urush davom etdi. Bu urush tugagan dan keyin ham ikkala koreys davlatlari o'rtasida chegara mojarolari bo'lib turdi. Shimoldagi koreys davlatining dastalbki davridayoq undagi hokimiyat bir kishi — Kim Ir Senning qo'lida bo'ldi, u mamlakatda kommunistik diktatura o'rnatdi. Kim Ir Senning o'limidan so'ng hokimiyatni uning o'g'li Kim Chen Ir egalladi, uncha ko'p davom etmagan motam davridan so'ng u KXDRning prezidenti deb rasman e'lon qilindi.

## SHRI-LANKA

Rasmiy nomi — Shri-Lanka Demokratik Sotsialistik Respublikasi. Poytaxti — Kolombo. Hududi — 65610 km<sup>2</sup>. Aholisi — 19742400 kishi (2003). Davlat tili — tamil, singal. Dini — buddaviylik (69%), hinduiylik (15%), xristianlik (8%), islom (7%). Pul birligi — Shri-Lanka rupiyasi.

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Hindistonning janubiy sohillari yaqinidagi orolda joylashgan, Hind okeanidagi davlat. Osiyo qit'asidan Shri-Lankani Polk bo'g'ozi va Manar qo'ltig'i ajratib turadi. Sohil bo'y lab chegara uzunligi — 1340 km. Mamlakat hududi asosan tekisliklardan iborat. Janubiy va markaziy qismlarida zinasimon tog'lar bor. Eng baland nuqtasi — Pidurutalagala cho'qqisi (2524 m). Asosiy daryosi — Maxaveli-Ganga. Asosiy tabiiy resurslari: olmos va boshqa qimmatbaho toshlar, fosfatlar, marmar toshi va baliq. Mamlakat hududining 16% ini haydaladigan yerlar, 32% ini o'rmon va to'qaylar tashkil etadi.

Iqlimi — ekvatorial, subekvatorial. Banyan, daraxtsimon paprotniklar, turli xil palmalar, atlas, sandal, eben daraxtlari florasingning asosini tashkil etadi. Hayvonot dunyosini fil, qoplon, silovsin, shoqol, timsoh, turli maymunlar, ilonlar, kaltakesaklar tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Mamlakat 8 provinsiyaga bo'lingan. Shri-Lanka 1948-yilning 4-fevralida mustaqillikka erishgan (avval: Seylon — Buyuk Britaniya mustamlakasi). 4-fevral — Milliy bayram — Musta-qillik kuni. Ijro etuvchi hokimiyat prezident va Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palatali parlament tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Shri-Lanka ozodlik partiyasi, Birlashgan milliy partiya, Shri-Lanka xalq partiyasi, Shri-Lanka sotsialistik partiyasi, Yangi siyosiy partiya, Shri-Lanka kommunistik partiyasi, Tamil birlashgan ozodlik fronti, Milliy ozodlik fronti, «Tamil Ilamni qutqarish yo'lbarslari».

## **Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.**

Iqtisodining rivojlangan tarmoqlaridan biri — qishloq xo‘jaligi. Sholi, shakarqamish, don ekinlari, dukkakli ekinlar, ziravorlar yetishtiriladi. Choy (dunyoda 3-o‘rinda), kokos yong‘og‘i (umumiy eksport hajmining 1/3 qismi) eksport qilinadi. Ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, baliqni qayta ishlash bilan chegaralangan. Turizm asosiy valyuta manbalaridan biridir. 2004-yil YIM miqdori 80580 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Eron, Tayvan.

Temiryo‘llarinining umumiy uzunligi — 1948 km, avtomobil yo‘llari — 75749 km (27637 km ga tosh yotqizilgan), ichki suv yo‘llari — 430 km. Portlari — Galeye, Kolombo, Jafna, Negombo, Trinkomali.

**Tarixi.** Taxminan m. a. V asrda Shri-Lankaga Gang va Hind daryolari vodiyalaridan hind-yevropa til oilasiga mansub qabilalar kirib kelishadi va orollarda Singal davlatiga asos soldi. Orol buddaviylikni targ‘ib etish markazlaridan hisoblangan. Afsonalarga ko‘ra buddaviylikni orolga Ashokaning o‘g‘li (yoki ukasi olib kelgan). M. a. III asrning boshlaridan Shri-Lankaga Hindistonning janubidan tamillar kirib kela boshlaydi. Tamillar Shri-Lankada XII asrgacha hukmronlik qiladi. 1505-yilda orolda portugallar paydo bo‘lishdi va XVI asrning oxirida orolni mustamlakaga aylantirishadi. XVII asrda Shri-Lankani gollandlar egallab olishdi. 1802-yilda orol Buyuk Britaniyaga tobe bo‘ldi. 1948-yilda Seylon Britaniya Hamdo‘stligi tarkibidagi mustaqil davlat deb e’lon qilindi. 1972-yildan mamlakat Shri-Lanka Respublikasi deb atala boshlaydi. Tamillar va singallar o‘rtasidagi etnik mojarolar XX asrning 80-yillari boshlarida fuqarolar urushiga aylandi. Fuqarolar urushiga barham berilgan bo‘lsa-da, hanuzgacha ikki tomon o‘rtasida keskinliklar mavjud.

## **EKVADOR**

**Rasmiy nomi — Ekvador Respublikasi. Poytaxti — Kito. Hududi — 283600 km<sup>2</sup>. Aholisi —**

|| 13710200 kishi (2003). Davlat tili — ispan.  
Dini — katolik. Pul birligi — sukre.

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Janubiy Amerikaning shimoli g'arbidagi davlat. Janub va sharqda Peru (chegearaning uzunligi — 1420 km), shimolda Kolumbiya (590 km) bilan chegaradosh. G'arbda Tinch okean bilan tutashgan. Chegarasining umumiyligi uzunligi — 2010 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 2237 km. Mamlakat uchta geografik hududga bo'linadi. G'arbda maksimal kengligi 150 km bo'lgan sohilbo'yini tekisligi — Kosta joylashgan. Mamlakat markazida, Sharqiy Kordilyera va G'arbiy Kordilyera tog'lari orasida uzunligi 600 km, kengligi 100—200 km, o'rtacha balandligi 2500 km bo'lgan Serra tog'ligi yotadi. Sharqiy Kordilyerada harakatdagi vulqonlar ko'p bo'lib, ular orasida 5230 m balandlikdagi Sangay vulqoni faolligi bilan ajralib turadi. G'arbiy Kordilyerada mamlakatning eng baland nuqtasi — Chamboroso (6310 m) joylashgan. Ekvadorning sharqiy qismini, deyarli yarim hududini, Orende — Sharqiy changalzorlari egallaydi. Bu joylarga inson qadami yetmagan, aholi yashamaydi. Changalzorning ko'p qismlari tadqiq etilmagan. Changalzordan Amazonkaga quyiladigan daryolar — Napo, Pastasa, Tigre va boshqa daryolar oqib o'tadi. Asosiy tabiiy resurslari: neft, yog'och, baliq. Hududining 6% ini haydaladigan yerlar, 51% ini o'rmon va to'qaylar, 17% ini yaylov va o'tloqlar tashkil etadi.

Iqlimi — sohilbo'yida ekvatorial, tog'li hududlarida salqin. Tekislik va tog' yon bag'irlari ekvatorial o'rmonlar bilan qoplangan. Tog'larda adir o'simliklari o'sadi. Hayvonot olamini yaguar, ayiq, yovvoyi mushuk, skuns, laska, Galapagoss orollarida gigant dengiz toshbaqasi, dengiz iguanasi, pingvinlar tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 21 provinsiyaga bo'lingan. Galapagoss orollari ham provinsiya maqomiga ega. 1822-yilning 24-mayida Ekvador Ispaniyadan o'z mustaqilligiga erishgan. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Milliy Kongress (bir palatali parlament). Yirik siyosiy

partiyalari: Respublika birligi partiyasi, Sotsial-xristian partiya, Konservativ partiya, Ekvador roldosistlar partiyasi, Demokratik so'l partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sanoatning asosiy tarmog'i — neft qazib olish. Boshqa tarmoqlari — metallurgiya, qog'oz-sellyuloza, oziq-ovqat, to'qimachilik. Qishloq xo'jaligi (baliqchilik va o'rmonchilik bilan birga) YMMning 18% ini tashkil etadi. Banan, qahva, kakao donlari, baliq, krevetka eksport qilinadi. Chorvachilik rivojlangan. 2004-yil YIM miqdori 49510 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Lotin Amerikasi davlatlari, Karib havzasi davlatlari, YH davlatlari, Yaponiya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 965 km, avtomobil yo'llari — 28000 km (3600 km asfaltlangan), ichki suv yo'llari — 1500 km. Asosiy portlari: Guayakil, Esmeraldas.

**Tarixi.** XV asrda hozirgi Ekvador hududi inkler imperiyasi tarkibiga kirgan. 1526-yilda ispanlar tomonidan kashf etilgan Ekvador Pissaro va Belalkasara boshliq konkistadorlar tomonidan 1533-yilda zabit etiladi. 1822-yilda mamlakat ispan qo'shinlaridan ozod bo'lib, Kito nomi bilan Buyuk Kolumbiya tarkibiga kiradi. 1830-yilning 13-mayidan Ekvador mustaqil respublika. 1941—1942-yillardagi Peru bilan urushdan so'ng mamlakat qator harbiy to'ntarishlarni boshidan kechirdi. 1979-yilda harbiylar hokimiyatni fuqarolik hukumatiga topshiradi.

## EKVATORIAL GVINEYA

*Rasmiy nomi — Ekvtorial Gvineya Respublikasi. Poytaxti — Malabo. Hududi — 28051 km<sup>2</sup>. Aholisi — 510500 kishi (2003). Davlat tili — ispan. Dini — katolik. Pul birligi — ekvele.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Afrika qit'asining g'arbidagi davlat. Sharq va janubda Gabon (chegara uzunligi — 350 km), shimolda Kamerun (189 km) bilan chegaradosh. G'arbda mamlakat Gvi-

neya ko'rfazi bilan tutashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 539 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 296 km. Materikdagi hududdan tashqari Ekvatorial Gvineyaga Bioko, Annobon va qator mayda orollar tegishli. Ekvatorial Gvinea — tog'li mamlakat. Sohil bo'yidagi tekisliklar sekin-asta past tog'larga aylanib boradi. Orollar vulqon jismlaridan iborat. Asosiy dar-yolari — Miteleme va Benito. Asosiy tabiiy resurslari: marganets, uran, yog'och, neft.

Iqlimi — ekvatorial. O'simlik dunyosi Ebena, okume, akaju, ovenka, akoga, non, sandal daraxtlari, mimoza, fikslardan iborat. Hayvonot dunyosini turli maymunlar, qoplon, fil, antilopa, kiyik, mangust, bir necha tur ilon, qush, hasharotlar tashkil etadi. Bioko orolida jayra uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Mamlakat tarkibiga 7 ta provinsiya kiradi. 1968-yilning 12-oktabrida Ekvatorial Gvinea Ispaniyadan mustaqillikka erishdi (avvalgi nomi — Ispaniya Gvinea). Shu kun milliy bayram — Mustaqillik kuni hisoblanadi. Davlat boshlig'i — prezident, hukumatni Bosh vazir boshqaradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni prezident parlament — Xalq vakillari palatasi bilan birgalikda amalga oshiradi. Yirik siyosiy partiyalari: Ekvatorial Gvinea demokratik partiyasi, Xalq ittifoqi, Liberal-demokratik konvensiya, Sotsial-demokratik partiya.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Mamlakat iqtisodi qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik, baliqchilikka asoslangan (YMMning yarmi, eksport hajmining deyarli hammasi). Asosiy eksport mahsulotlari — qahva, yog'och, kakao donlari. Ishlab chiqarish yog'ochga ishlov berish va baliqni qayta ishlash bilan chegaralangan. Neft konlari o'rganilmoqda. Titan, temir, uran, oltin, marganets konlari ochilmagan. 2004-yil YIM miqdori 1551 mln dollarni (aholi jon boshiga — 2700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: Ispaniya, Negeriya, Fransiya, Kamerun.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 2760 km. Portlari: Bata, Malabo.

**Tarixi.** Hozirgi Ekvatorial Gvineya hududi XV asrning oxirlarida portugallar tomonidan kashf etilgan. 1778-yili Portugaliya o‘z mustamlakasini Ispaniya tasarrufiga o‘tkazishga majbur bo‘ladi. Mamlakat mustaqillikka erishguncha (1968) Ispan Gvineyasi deb atalgan. Prezident Nguema tomonidan o‘rnatalagn avtoritar tuzum 1979-yilda polkovnik Mbasogo boshchiligidagi harbiy to‘ntarishda ag‘dariladi.

## ERITREYA

*Rasmiy nomi — Eritreya davlati. Poytaxti — Asmera. Hududi — 125000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 4362300 kishi (2003). Davlat tili — arab, tigre. Dini — islam, xristian. Pul birligi — Efiopiya biri.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Sharqiy Afrikadagi davlat. G‘arbda va janubda Efiopiya (chegaraning uzunligi — 912 km), shimolda va shimoli g‘arbda Sudan (605 km), janubi sharqda Jibuti (113 km) bilan chegaradosh. Sharqda mamlakat Qizil dengiz bilan tutashgan. Chegarasining umumiyligi uzunligi — 1630 km, sohil bo‘ylab chegara uzunligi — 1151 km. Eritreya tog‘li mamlakatdir. Uning hududi Efiopiya tog‘ligining bir qismi hisoblanadi. G‘arbda tog‘lik sekinasta pasayib Sudan tekisligiga aylanadi. Sharqda esa sohilbo‘yi tekisligi joylashgan. Eritreyada oltin, mis, temir, nikel, xrom, titan, neft konlari bor. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 3% ini, yaylov va o‘tloqlar 40% ini tashkil etadi.

Iqlimi — quruq va issiq. O‘simlik dunyosini cho‘l o‘simliklari tashkil etadi. Hayvonot olami timsoh, tuyaqush, burgut, marabu, kalxat va turli dengiz baliqlaridan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Eritreya o‘z mustaqilligini 1993-yilning 24-mayida e’lon qilgan (avval Efiopiyaning bir qismi). Milliy bayramlari: 24-may — Mustaqillik kuni va 1-sentabr — Mustaqillik uchun qurollangan kurash boshlangan kun (1961). Davlat va hukumat boshlig‘i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Eritreya

Milliy Assambleyasi. Yagona siyosiy partiya — Eritreyani ozod qilish milliy fronti.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Eritreya jahoning iqtisodiy jihatdan kam taraqqiy etgan davlatlaridan biridir. Iqtisodining asosiy tarmog'i aholining 60% i band bo'lgan qishloq xo'jaligidir (YMMning 50% i, eksportning 70% i). 2004-yil YIM miqdori 4154 mln dollarni (aholi jon boshiga — 900 dol.) tashkil etgan. Sanoatining rivojlangan tarmoqlari: neftni qayta ishlash, yog'ochni qayta ishlash, to'qimachilik, teri-poyabzal, tikuvchilik, oziq-ovqat. Portlari: Aseb, Massaua.

**Tarixi.** Eritreya eramizgacha vujudga kelgan efiop qirolligi — Aksum tarkibiga kirgan. 1890-yildan Italiya mustamlakasi. 1941-yildan BMT mandatiga ko'ra Buyuk Britaniya tomonidan boshqarilgan. 1952-yilda Eritreya federatsiya a'zosi sifatida efiop imperiyasi tarkibiga kirgan. 1962-yilda, Efiopiya Eritreyani provinsiya deb e'lon qilgandan so'ng, mamlakatda mustaqillik uchun harakat boshlanib, bu harakat 1975-yilda keng miqyosga ko'tariladi. Eritreyalik qo'zg'olonchilar hukumat qo'shinlaridan ustun kelgach, 1993-yilda Eritreya referendum natijalariga ko'ra mustaqil bo'ldi.

## ERON

*Rasmiy nomi — Eron Islom Respublikasi. Poytaxti — Tehron. Hududi — 1648000 km<sup>2</sup>. Dini — islom. Aholisi — 68278800 kishi (2003). Tili — fors. Pul birligi — Eron riali*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Eron Janubi G'arbiy Osiyoda joylashgan. G'arbda Iroq (chegara uzunligi 1458 km) va Turkiya (4999 km), shimolda Turkmaniston (992 km), Ozarbayjon (611 km) va Armaniston (35 km), sharqda Afg'oniston (936 km) va Pokiston (909 km) bilan chegaradosh. Janubda Fors va Ormuz qo'ltilqlari, shimolda Kaspiy dengizi bilan tutash. Chegarasining umumiy uzunligi — 5440 km. Eronning katta qismini Eron tog'lig'i egallaydi. Shimolda Kaspiy dengizi qirg'oqlari bo'ylab Elburs tog'lari qad ko'targan.

Shimoli sharqda Kopetdog' tizmasi joylashgan. G'arbiy chegaralar bo'ylab shimoli g'arbdan janubi sharqqa tomon Zagros tog'lari cho'zilgan. G'arbda Huziston tekisligi joylashgan. Mamlakat markazida Dashti-Kabir va Dashti-Lut cho'llari joylashgan. Eronda katta daryolar kam. Asosiy daryosi — Korun. Eng katta ko'li Urmiya — shimoli g'arba joylashgan. Neft va tabiiy gaz konlariga boy. Shuningdek, boshqa foydali qazilmalari: ko'mir, temir rudasi, xrom, mis, rux, qalay, marganets, oltingugurt.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — islom respublikasi. Ma'muriy jihatdan 24 provinsiya (ostona)ga bo'linadi. 1906-yilda Konstitutsion monarxiya, 1979-yil 1-aprelda Eron Islom Respublikasi deb e'lon qilingan. (1-aprel — Milliy bayram). Ijroiya hokimiyyati Oyatulloh (davlatning diniy boshlig'i) va prezidentga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyyat — bir palatali parlament — Islom qo'mitasi Kengashi (majlis). Eron Islom Respublikasi (EIR) Konstitutsiyasiga ko'ra Eronda noislomiy siyosiy partiya va tashkilotlar faoliyati taqiqlanadi. Shunga qaramasdan mamlakatda bir qator oppozitsion partiyalar: Eron Kurdistoni demokratik partiyasi (EKDP), Eron xalq partiyasi (EXP) va boshqalar faoliyat ko'rsatadi.

***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*** Eron iqtisodiyotida ishlab chiqarish vositalari, birinchi navbatda neft qazib olish va neftni qayta ishlash sanoat korxonalari davlat mulkini tashkil etadi. 2004-yil YIM miqdori 516700 mln dollarni (aholi jon boshiga — 7700 dol.) tashkil etgan. Qishloq xo'jaligi mamlakatning asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega emas. Asosiy savdo hamkorlari: Yaponiya, Italiya, Germaniya.

Temiryo'llarining uzunligi — 4850 km, avtomobil yo'llari — 140072 km, ichki suv yo'llari — 904 km. Mamlakatning asosiy porti Eron — Iroq urushi davrida kuchli vayron qilingan.

***Tarixi.*** Forslar dastlab m. a. IX asrlarga oid Ossuriya manbalarida tilga olinadi. M. a. 556—550-yillarda Buyuk Kir II qadimgi dunyoda buyuk imperiyani

yaratgan fors podsholari sulolasiga asos soldi. Doro I (M. a. 522—486-yillarda) davrida imperiya o‘zining rivojlanish cho‘qqisiga ko‘tarildi. Imperiya hududi Hindistondan O‘rtal Yer dengizigacha kengaydi. Misr, Kichik Osiyo va Frakiya yerlari imperiya tarkibiga kiritildi. M. a. V asr oxirlarida forslarning ekspansiyasi greklar tomonidan to‘xtatildi. M. a. 330-yilda Fors imperiyasi Aleksandr Makedonskiy qo‘sishnlari tomonidan zabit etildi. M. a. 224-yilda mamlakatni to‘rt asr davomida idora qilgan sosoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi. Fors imperiyasi VI asr oxirlarida va VII asr boshlarida rivojlanishning eng yuqori darajasiga ko‘tarildi.

Arablar bosqini imperiyani zaiflashtirdi, islom dini kiritildi. XI asrda mamlakat saljuqiy turklar tomonidan zabit etilgandan so‘ng islom-fors sivilizatsiyasi inqirozga uchradi. 1221—1222-yillarda Chingizzon, XIV asrda Amir Temur tomonidan bosib olindi. XVI asr boshlari da mamlakat yana forslar — saffaviylar sulolasi tomonidan boshqarildi. XVIII—XIX asrlarda bu hududlar o‘z ta’sir doiralariga ega bo‘lish uchun intilgan Rossiya va Buyuk Britaniyaga qarshi kurashishga to‘g‘ri kelgan bir qancha fors sulolalari almashdi. 1925-yilda hokimiyatga kelgan pahlaviylar sulolasi mamlakatni 1979-yilgacha shoh Muhammad Rizo Pahlaviy hukumatga qarshi chiqishlar natijasida taxtdan ag‘darilganiga qadar idora qildi. 1934-yildan boshlab mamlakat Eron deb nomlana boshlandi. 1980-yilda Eron Islom Respublikasi deb e’lon qilindi.

## ESTONIYA

*Rasmiy nomi — Estoniya Respublikasi. Poytaxti — Tallin. Hududi — 45000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1408600 kishi (2003). Davlat tili — eston. Dini — lyuteran, pravoslav. Pul birligi — eston kronasi.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** Sharqiy Yevropaning shimoli g‘arbidagi davlat. Sharqda Rossiya (chegaranining uzunligi — 280 km), janubda Latviya (267 km) bilan chegaradosh. G‘arbdagi Estoniya Boltiq

dengizi, shimolda Fin ko'rfazi bilan tutashgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 557 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi — 1393 km. Mamlakat hududining katta qismini tekisliklar tashkil etadi. Mamlakatning janubi sharqida qir bor. Asosiy tabiiy resurslar: yonuvchi slanetslar, fosforitlar, torf, neft, kahrabo. Haydaladigan yerlar hududning 22% ini, o'rmon va to'qaylar 35% ini tashkil etadi. Iqlimi dengiz iqlimidan kontinentalga o'tuvchi. Estonianing shimolida va g'arbida keng bargli o'rmonlar, janubi va janubiy-sharqida nina bargli o'rmonlar o'sadi. Los, kosulya, qobon, quyon, tulki, silovsin, bo'rsiq, bo'ri, ayiq, turli qushlar va baliqlar faunani tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibiga 15 uezd va markazga bo'ysunuvchi 6 shahar kiradi. 1991-yilning 20-avgustida Estoniya o'z mustaqilligini e'lon qilgan (avval SSSR tarkibiga kirgan). Milliy bayram 24-fevral — Mustaqillik kuni (1918) hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va Bosh vazir boshliq hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Riygikogu (parlament). Yirik siyosiy partiyalari: Estoniya sotsial-demokratik partiyasi, Qishloq partiyasi, Estoniya yer ittifoqi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Hozirgi kunda Estoniya iqtisodida bir qator islohotlar o'tkazilmoqda. Sanoatining rivojlangan tarmoqlari: slanets qazib olish va qayta ishslash, yog'ochni qayta ishslash, kimyo, mashinasozlik, metallni qayta ishslash, qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati. Qishloq xo'jaligi asosan go'sht-sut chorvachiligidagi ixtisoslashgan. 2004-yil YIM miqdori 19230 mln dollarni (aholi jon boshiga — 14300 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: Rossiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Germaniya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 1000 km, avtomobil yo'llari — 14800 km, ichki SUV yo'llari — 500 km. Asosiy port — Tallin.

**Tarixi.** XIII asrda estonlar avval nemislar, keyinroq daniyaliklar tomonidan bo'ysundiriladi. Daniyaliklar 12—13-yili Tallinga asos solishadi. 1346-yilda hozirgi

Estoniya hududini Tevton ordeni Daniyadan sotib oladi. Ivan Grozniy hukmronligi davrida Rossiya Narva va Tartuni bosib oladi. Tevton ordeni parchalangandan so'ng (1561) Estoniya Shvetsiya, Daniya va Rech Pospolita o'rtasida bo'lib olinadi. XVII asrda Estoniya mamlakatga lyuteranlikni olib kelgan Shvetsiyaga qaram bo'ladi. Shimoliy urush (1700—1721) davrida Estoniya Petr I tomonidan zabit etilib, Nishtadt shartnomasiga ko'ra Rossiya tasarrufiga o'tadi. 1917-yilning fevral inqilobidan so'ng Estoniya mustaqillikka erishadi, lekin 1917-yilning noyabrida bolsheviklar mamlakatda sovet hokimiyatini o'rnatadi. Nemislar Estoniyani 1918-yilda bosib oladi va Estoniya muvaqqat hukumati 24-fevralda e'lon qiladi. Bu mustaqillik Germaniyaning kapitulyat-siyasidan so'ng, 1920-yilda tan olinadi. 1934-yilda mamlakatda diktatura, 1940-yilda sovet qo'shinlari bostirib kirishi oqibatida sovet hokimiyati o'rnatiladi. 1944-yilda nemis qo'shinlaridan ozod qilingan Estoniya 1991-yilgacha SSSR tarkibiga kiradi. 1991-yilda Estoniya yana o'z mustaqilligini e'lon qiladi.

## EFIOPIYA

*Rasmiy nomi — Efiopiya Federativ Demokratik Respublikasi. Poytaxti — Addis-Abeba. Hududi — 1221894 km<sup>2</sup>. Aholisi — 66557600 kishi (2003). Davlat tili — amxar. Dini — pravoslav (45%), islam (35%), majusiylik (12%). Pul birligi — bir.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Afrikaning sharqidagi davlat. Sharqda va janubi sharqda Somali (chegara uzunligi — 1626 km), g'arbda va shimoli g'arbda Sudan (1606 km), shimoli sharqda Eritreya (912 km) va Jibuti (337 km), janubi g'arbda Keniya (830 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiyligi — 5311 km. Mamlakat hududining katta qismini Efiop tog'ligi (eng baland nuqtasi Ras-Dashen tog'i — 4623 m) egallaydi. Efiopiya oz miqdordagi oltin, platina, mis zaxiralalariga ega. Mamlakat hududining 12% ini haydaladigan yerlar,

41% ini o'tloq va yaylovlar, 24% ini o'rmon va butazorlar tashkil etadi.

Iqlimi — subekvatorial. O'simlik dunyosi turli bo'lib, tropik va cho'l o'simliklaridan alp o'simliklarigacha o'sadi. Hayvonot dunyosini arslon, qoplon, fil, gippopotam, jirafa, karkidon, antilopa, silovsin, maymun, turli qushlar va hasharotlar tashkil etadi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 9 ta milliy-ma'muriy shtatlarga va poytaxt hududiga bo'lingan. Hozirgi Efiopiya hududi m. a. I ming yillikdayoq Sava podsholi-gi bo'lgan. 1889-yilda Efiopiya Italiyaning prorektoratiga aylangan. 1895-yilda mustaqillikka erishgan. Milliy bayramlari: 2-mart Adua yaqinidagi g'alaba kuni (1896) va 6-aprel — G'alaba kuni (1941). Ijro etuvchi hokimiyat Muvaqqat hukumatga, qonun chiqaruvchi hokimiyat — Muvaqqat hukumat va Vakillar Kengashiga tegishli. Davlat boshlig'i — prezident. Mamlakatda 100 dan ortiq turli siyosiy partiyalar ro'yxatdan o'tgan. Ulardan eng yirigi — Efiopiya xalqlari inqilobiy-demokratik fronti.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodi qishloq xo'jaligiga (YMMning 45% i, eksportning 90% ini) asoslangan Efiopiya Afrikaning qashshoq mamlakatlari qatoriga kiradi. 2004-yil YIM miqdori 54890 mln dollarni (aholi jon boshiga — 800 dol.) tashkil etgan. Asosiy eksport mahsuloti — qahva (eksport tushumlarining 60% ini). Ishlab chiqarish asosan qishloq-xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda oltin qazib chiqarish bilan bog'liq. Asosiy savdo sheriklari: Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Saudiya Arabistonni.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 988 km, avtomobil yo'llari — 44300 km (3650 km asfaltlangan).

**Tarixi.** Rivoyatlarga ko'ra qadimda hozirgi Efiopiya hududi Sava podsholigining bir qismi hisoblangan. II asrning oxirlarida shakllangan Aksum podsholigi VI—VII asrlarda zaiflashadi. Musulmon sulolasi Zagve (X—XIII asrlar) hukmdorligidan so'ng, hokimiyatga 1270-yilda xristian (kont) sulaymoniyilar sulolasi keladi. Islom ta'siriga qarshi turish maqsadida Efiopiya hukmdorlari XVI—XVII asrlarda Yevropa davlatlaridan

yordam so'rashadi. XIX asrning oxirida Suvaysh kanali ochilgandan so'ng Efiopiya o'ziga Italiya, Fransiya, Angliya kabi davlatlarning e'tiborini jalg qila boshlaydi. 1889-yilda Italiya va Efiopiya o'rtasida imzolangan shartnomani ikki tomon o'zicha tushunadi. Efiopiyani o'z prorektorati sifatida ko'rishni xohlagan Italiya, mamlakatga o'zining harbiy ekspeditsiyasini jo'natadi. Ammo bu ekspeditsiya 1896-yilda mag'lubiyatga uch-raydi. 1935-yilda Mussolini Somalida yashayotgan italiyaliklarning manfaatini himoya qilish bahonasida Efiopiyaga o'z qo'shinlarini kiritadi. Natijada Efiopiya va Somali bilan birlashib, Italiyaning Sharqiy Afrika mustamlakasini hosil qiladi. 1941-yilda britaniyaliklar Efiopiyani ozod qilishadi. Eritreyada milliy kayfiyatlarning ko'tarilishi, Somali bilan harbiy to'qnashuvlar, ocharchilik va qurg'oqchilik mamlakatda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozni keltirib chiqaradi. 1974-yilda harbiy to'ntarish orqali imperator Selassiye taxtdan ag'dariladi. 1975-yilda Efiopiya respublika deb e'lon qilinadi. 1977-yilda navbatdagi harbiy to'ntarish oqibatida hokimiyatga Mengistu keladi. Sovet tuzumi tarafdori bo'lgan bu hokimiyat 1991-yilning 28-mayigacha hukmronlik qiladi. 1993-yilda Eritreya mustaqil davlat sifatida Efiopiyadan ajrab chiqadi.

## YAMAYKA

*Rasmiy nomi — Yamayka. Poytaxti — Kingston. Davlat tili — ingliz. Hududi — 10957 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2695900 kishi (2003). Dini — protestantlik. Pul birligi — Yamayka dollari.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Karib dengizida, Yamayka oroli va bir qancha mayda orollar da joylashgan davlat. Sohil bo'ylab chegara uzunligi — 1022 km. Orolning katta qismini yassitog'lik va balandligi 2256 m gacha bo'lgan tog'lar egallaydi. Qirg'oq atroflari tor tekislikdan iborat. Asosiy tabiiy resurslari: boksitlar, gips, ohaktosh, marmar. Hududning 19% ini haydaladigan yerlar, 28% ini o'rmon va to'qaylar, yaylov va o'tloqlar 18% ini tashkil etadi.

Iqlimi — tropik. O'simlik dunyosi inson faoliyati tufayli qashshoqlashgan. Hozir o'rmonlar mamlakat hududining 1/5 qismini egallaydi. Tog' atroflarida adir o'simliklari o'sadi. Turli qushlar va ko'rshapalaklar orasida ko'plab uchraydi. Yovvoyi sut emizuvchilar deyarli yo'q. Sudraluvchilardan toshbaqa, zaharsiz ilon, timsoh, kaltakesaklar uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitusion monarxiya, Britaniya Hamdo'stligi a'zosi. Mamlakat 14 okrugga bo'lingan. Yamayka 1962-yilning 6-avgustida mustaqil bo'ldi (avval Buyuk Britaniya mustamlakasi). Qonunlari ingliz umumiyluq huquqiga asoslangan. Davlat boshlig'i — Britaniya monarxi (hozirgi kunda — Yelizaveta II). Orolni uning vakili general-gubernator boshqaradi. Ijro etuvchi hokimiyat general-gubernator bilan Bosh vazir boshliq hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Senat (yuqori palata) va Vakillar palatasidan (quyi) iborat parlamentga tegishli. Yirik siyosiy partiyalar: Milliy xalq partiyasi, Yamayka leyboristlar partiyasi, Milliy Demokratik harakat.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Sanoatning asosiy tarmoqlari — boksitlar qazib olishi va alyuminiy ishlab chiqarish. Chet el valyutasining asosiy manbayi turizm hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi (YMM ning 10% ini) umumiyluq eksport hakamining 17% ini ta'minlaydi. Eksport qilinadigan asosiy ekinlar — shakarqamish, banan. 2004-yil YIM miqdori 11130 mln dollarni (aholi jon boshiga — 4100 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Trinidad va Tobago.

Temiryo'llarining umumiyluq uzunligi — 294 km, avtomobil yo'llari — 18200 km. Asosiy port — Kingston.

**Tarixi.** 1494-yilda Kolumb tomonidan kashf etilgan orol, hindularning katta qismini qirib tashlagan ispanlarning mustamlakasiga aylanadi. XVI asr boshlari da orolga Afrikadan qullar keltirila boshlanadi. 1655-yildan Britaniya mustamlakasi bo'lган. Yamayka 1958-yildan o'zini o'zi boshqarish huquqiga ega bo'ldi. 1962-yildan Britaniya Hamdo'stligi tarkibidagi mustaqil davlat.

## YAMAN

*Rasmiy nomi – Yaman Respublikasi. Poytaxti – Sana. Hududi – 527970 km<sup>2</sup>. Aholisi – 19349900 kishi (2003). Tili – arab. Dini – islom. Pul birligi – yaman riali.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Janubi G'arbiy Osiyoda, Arabiston yarimorolida joylashgan davlat. Shimolda va shimoli sharqda Saudiya Arabistoni (chegara uzunligi – 1458 km), sharqda Ummon (288 km) bilan chegaradosh. G'arbda Qizil dengiz, janubda Aden ko'rfazi bilan tutash. Chegarasining umumiy uzunligi – 1746 km. Hududining katta qismini tog'li yerlar (eng baland nuqtasi En-Nabi-Shaib tog'i – 3600 m) egallagan. Shimolda va sharqda cho'llar joylashgan. Foydali qazilmalari: neft, tabiiy gaz, oltin, temir, mis, gips, toshko'mir, kvars, oltingugurt, yarim qimmatbaho toshlar.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi – respublika. Ma'muriy jihatdan 17 provinsiyaga bo'linadi. Yaman Respublikasi Yaman Arab Respublikasi (YAR) va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi (YXDR)ning birlashishi bilan 1990-yil 22-mayda tashkil topdi. Bu kun «Yaman birligi kuni» sifatida nishonlanadi. Boshqa milliy bayramlari – 26-sentabr – Inqilob kuni, 30 noyabr – Mustaqillik kuni. Ijro etuvchi hokimiyat – Prezident Kengashi (Prezident Kengashi raisi katta vakolatga ega) va premyer-ministr rahbarligidagi Vazirlar Kengashiga tegishli. Qonun chiqaruvchi organ – bir palatali parlament – Deputatlar palatasi. Asosiy siyosiy partiyalari: Umumiy xalq kongressi (UXK) va Yaman sotsialistik partiyasi (YSP).

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Hukumat siyosatining strategik yo'nalishlari neft sanoatini rivojlantirish, shuningdek, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni yaxshilash, erkin iqtisodiy hududlar yaratish. Qishloq xo'jaligi YMMning 25% ini ta'minlaydi. Shunga qaramasdan, Yaman oziq-ovqat mahsulotlarning 70% ini chetdan keltirishga majbur. Agar Sana

shahri mamlakatning siyosiy markazi bo'lsa, janubiy shahar Aden Yamanning iqtisodiy va savdo markazidir. 2004-yil YIM miqdori 16250 mln dollarni (aholi jon boshiga — 800 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH.

Avtomobil yo'llarining umumiyligi uzunligi — 51390 km. Portlari: Aden, Al-Mukallo, Salif, Xodeydo.

**Tarixi.** M. a. I ming yillikda Yaman hududida Xadramaut, Kataban, Ausan, Saba, Main davlatlari vujudga kelgan. Yaman IV asrda Efiopiya, VI asrda forslar tomonidan zabit etilgan. VIII asrda mamlakat hududida islam dini tarqaldi. X asrda mamlakatda zeydiylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. XVI asrda Yaman Usmoniyalar imperiyasi tarkibiga kiritildi. 1633-yilda Yaman hududida yana mustaqil davlat — Zeydiylar imomligi tashkil topdi. 1839-yilda Aden inglizlar tomonidan okkupatsiya qilindi. Yamanning shimalida XIX asrning 70-yillarida inglizlar hukmronligi o'rnatildi. XX asrning boshlarida mamlakat Shimoliy Yaman va Janubiy Yamanga bo'linadi. 1918-yilda Shimoliy Yaman mustaqillikka erishdi. 1962-yil Konstitutsion monarxiya respublikaga aylandi. Janubiy Yaman mustaqillikka 1967-yilda erishdi. 1970-yildan boshlab Yaman Xalq Demokratik Respublikasi deb atala boshladi. 1980-yillarda boshlangan ikki davlat o'rtasidagi muzokaralar natijasida 1990-yil 21-mayda ikki davlat birlashib, yagona davlat tashkil topdi.

## YANGI ZELANDIYA

*Rasmiy nomi — Yangi Zelandiya. Poytaxti — Wellington. Hududi — 268680 km<sup>2</sup>. Aholisi — 3951300 kishi (2003). Davlat tili — ingliz. Dini — xristianlik. Pul birligi — Yangi Zelandiya dolları.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Tinch okeanning janubiy qismida ikkita yirik orolda (Kuk bo'g'ozı ajratib turadigan shimoliy va janubiy orollarda) va bir nechta mayda orollarda (Stuart, Chatem, Kermadek, Kempbell) joylashgan davlat. Sharqda — Tinch okean,

shimolda — Fidji dengizi, g'arbda esa orollarni Avstraliya materigidan ajratib turadigan Tasman dengizi bilan tutashib ketgan. Bundan tashqari, Yangi Zelandiya Tinch okeanning markaziy qismida joylashgan Tokelau, Kuk, Niue orollariga ham egalik qiladi. Sohil bo'yab chegara uzunligi — 15134 km<sup>2</sup>. Qirg'oqlari joylarda fordlar bilan ajralgan. Hududining katta qismini tog'lar, qoyalar va tepaliklar egallagan. 200 dan ko'proq cho'qqilarning balandligi 2300 m dan oshiq. Eng yuqori nuqtasi Kuk tog'i (3754 m)da joylashgan. Faol harakatdagi vulqonlar, geyzerlar, issiq mineral buloqlar bor. Tez-tez zilzila bo'lib turadi. Mamlakatda vulqonlar natijasida paydo bo'lgan ko'llar juda ko'p bo'lib, ular-dan eng yirigi — Taupo (606 m<sup>2</sup>) ko'lidir. Bosh daryosi — Uaikato. Asosiy tabiiy resurslari — tabiiy gaz, temir rudasi, ko'mir, svinets, mis, oltin, gidroenergetik resurslar. Umumiy yerlarining yarmidan ko'prog'i (53%)ni o'tloq va yaylovlar, 38% hududini o'rmon va to'qayzorlar egallaydi.

Iqlimi — mo'tadil. Janubiy orolning tekisliklari va shimoliy orolning bir qismi tassek (qumlikda o'sadigan o'simliklar) bilan qoplangan. Tog'larda janub buki o'rmonlari, shimoliy orolda esa subtropik o'rmonlar bor. Orollarning faunasi juda o'ziga xos. Yangi Zelandyadagi qushlarning 90% i endemiklardir. Bu yerda hayvonlarning ayrim guruhlari umuman yo'q. Kam uchraydigan, uchmaydigan qushlarning ko'pchilik turlari — kivi, kakapo to'tisi, juda kam uchraydigan takaxe qushi ham uchraydi. Yangi Zelandyada eng qadimgi umurtqalilardan — tuatara yoki gatteriyalar bu yerda mamontlar paydo bo'lganga qadar ham istiqomat qilishgan.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat Buyuk Britaniya Hamdo'stligi tarkibiga kiradi. Yangi Zelandiya 10 ta provinsiyaga bo'lingan. Mamlakat 1907-yil 26-sentabrda Buyuk Britaniyadan mustaqillik olgan. Qonunchilik ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Milliy bayrami — 6-fevral — Vaytongi kuni (1840). Davlat boshlig'i rasmiy ravishda britan monarxi (hozirgi kunda qirolicha Yelizaveta II) hisoblanadi, uning nomidan

general-gubernator ish yuritadi. Amalda ijroiya hokimiyat premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Oliy qonun chiqaruvchi organ — Vakillar palatasi (bir palatali parlament)dir. Yirik siyosiy partiyalari: Yangi Zelandiya Milliy partiyasi, Yangi Zelandiya leyboristlar partiyasi, Mana Motuxake (Bizning meros).

### *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Oxirgi o'n yillik davomida hukumat Buyuk Britaniyaga bog'liq bo'lgan va agrar iqtisodiyot yo'nalishini erkin bozor munosabatlariiga asoslangan jahon iqtisodiyotiga moslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalgalashmoqda. 2004-yil YIM miqdori 92510 mln dollarni (aholi jon boshiga — 23200 dol.) tashkil etgan. Sanoatining nisbatan taraqqiy etgan tarmoqlari: oziq-ovqat ishlab chiqarish, sellyuloza-qog'oz, kimyo, mashinasozlik, to'qimachilik. Yuksak darajada rivojlangan qishloq xo'jaligida (YMM — 9%) peshqadam o'rinni chorvachilik egallaydi (qishloq xo'jalik mahsulotlarining 80% ini beradi). Mamlakat iqtisodiyotida o'rmonchilik va baliqchilik ham muhim o'rin tutadi. Muhim savdo hamkorlari — YH mamlakatlari, Yaponiya, Avstraliya, AQSH.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 4716 km, avtomobil yo'llari — 92648 km (49547 km qattiq qoplamali yo'llar), ichki suv yo'llari esa — 1609 km. Mamlakatning asosiy portlari — Vellington, Oklend.

**Tarixi.** Maori xalqlari istiqomat qilib kelgan Yangi Zelandiya 1642-yili A. Tasman tomonidan kashf etilgan. XIX asrda inglizlar tomonidan mamlakatni mustamlakalashtirish maorilar qarshilik ko'rsatganligi tufayli (1842—1846, 1860—1868-yillardagi maori urushlari) juda sekinlik bilan bordi. 1851-yilda Buyuk Britaniya mustamlakasi deb e'lon qilingan Yangi Zelandiya 1907-yili dominion maqomini qo'lga kiritdi. Britan Hamdo'stligi tarkibida mustaqillikka esa 1931-yili erishdi. Fransiya tomonidan Tinch okeanda yadro sinovlarining o'tkazilishi Yangi Zelandiya tomonidan qattiq qarshilikka duch keldi, 1985-yilgi «Grinpis ishi»dan keyin esa ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada keskinlashdi.

## **YANGI KALEDONIYA**

*Rasmiy nomi — Yangi Kaledoniya. Poytaxti — Numea. Hududi — 19100 km<sup>2</sup>. Aholisi — 207000 kishi (2003). Davlat tili — fransuz. Dini — katoliklar (60%), protestant-kalvinchilar (30%). Pul birligi — Kaledoniya franki.*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Fransyaning mulki, Okeaniyada, Tinch okeanning janubi g'arbiy qismida joylashgan. Fransyaning «dengizorti hududi» Yangi Kaledoniya (asosiy orol), Luayote va Cheterfild orollari guruhidan, Pen va boshqa orollardan iborat. Orollarning qirg'oqlari marjon riflari bilan o'rالgan bo'lib, dunyoda eng uzun (600 km) to'siqli riflarni tashkil etadi. Yangi Kaledoniya orolining sharqida vulqon otilishi natijasida paydo bo'lgan yassitog'lik mavjud. Eng yuqori cho'qqisi — Pane tog'i (1628). Mayda daryolar tarmog'i mavjud. Asosiy qazilma boyliklari: nikel (dunyo zaxiralarining 20% i), kobalt, xrom, temir rudasi, marganets, mis, ko'mir.

Iqlimi — tropik. 3000 ga yaqin o'simlik turlari mavjud. 10% hududi o'rmonlar bilan qoplangan (araukariya, agatis va boshqa daraxtlar). 61 turdag'i qushlar, ko'plab ilonlar mavjud.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** 1946-yildan Fransiya mulki. Hudud boshqaruvini Oliy komissar amalga oshiradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — Hudud Kongressi (54 deputat 6 yilga 3 ta provinsiya nomidan saylanadi). Fransiya parlamenti — Milliy yig'inda Yangi Kaledoniya 2 deputat va 1 senator vakilligiga ega. Ma'muriy jihatdan 3 provinsiyaga bo'lingan. Siyosiy partiyalari: Respublika tarkibida Kaledoniya uchun birlashma, Kanaklar ozodligi milliy sotsialistik fronti, Yangi Kaledoniya barcha uchun.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Iqtisodiyoti asosini tog'-kon sanoati tashkil etadi. Yangi Kaledoniya nikelning eng yirik zaxiralari egasidir (nikel eksporti valyuta daromadlarining 75% ini tashkil etadi). Metallurgiya, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari va

mebel ishlab chiqarish korxonalari bor. Qishloq xo‘jaligida aholining 70% i band. Chorvachilik va baliqchilik rivojlanib bormoqda. 2004-yil YIM miqdori 3158 mln dollarni (aholi jon boshiga — 15000 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, AQSH, Avstraliya, Yaponiya.

Asosiy dengiz porti: Numea.

**Tarixi.** 1774-yili melaneziyaliklar yashayotgan bu orollar ingliz sayyohi J. Kuk tomonidan kashf qilingan va Shotlandiyaning eski nomi bilan Kaledoniya deb atalgan. 1843-yili orollarga fransuz katolik missionerlari yetib kelishdi. 1853-yildan Fransiyaga qarashli. 1860-yildan esa mustamlakaga aylantirilgan. 1864—1896-yillarda Yangi Kaledoniya siyosiy mahbuslar surgun qilinadigan joyga aylantirildi. Bu yerga 4000 ga yaqin Parij Kommunasi ishtirokchilari ham surgun qilingan. 1879-yili mahalliy aholining yirik qo‘zg‘oloni fransuzlar tomonidan ayovsiz bostirildi. Yangi Kaledoniya 1946-yildan Fransiyaning «dengizorti hududi» maqomiga erishdi. 1984-yilning noyabrigacha Fransiya hukumatining Oliy komissari tomonidan boshqarilgan. 1988-yili Fransiyada o‘tkazilgan referendumga ko‘ra 1989-yildan bevosita boshqaruv bekor qilinib, avtonomiya kuchayti rildi. 1998-yili Fransiya Bosh vaziri L. Jospen imzolagan shartnomaga ko‘ra Yangi Kaledoniyada 20 yillik mustaqillikka o‘tish davri e’lon qilindi.

## YAPONIYA

*Rasmiy nomi — Yaponiya. Poytaxti — Tokio. Davlat tili — yapon. Hududi — 377535 km<sup>2</sup>. Aholisi — 127214500 kishi (2003). Dini — sintoizm, buddaviylik, xristianlik. Pul birligi — yen.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** Sharqiy Osiyoda, Tinch okeandagi Xonsyu, Kyusyu, Xokkaydo, Sikoku va qator mayda orollarda (hammasi bo‘lib 3900 orol) joylashgan davlat. Sohil bo‘ylab chegara uzunligi — 29751 km. Mamlakat landshafti tog‘lar va tekisliklardan iborat. Baland tog‘larning aksariyatida hara-

katdagi vulqonlar bo'lib, mamlakatda hammasi bo'lib 60 ta faol vulqonlar mavjud. Mamlakatning eng katta tekisligi — Kanto (Xonsyu o.). Eng uzun daryosi — Sinano (Xonsyu o.). Eng yirik ko'li — Biva ( $672 \text{ km}^2$ ). Asosiy tabiiy boyliklari: toshko'mir, mis, qo'rg'oshin, rux rudasi, baliq. Haydaladigan yerlar hududining 13% ini o'rmon va to'qaylar 67% ini egallaydi.

Iqlimi — mussonli, shimolida mo'tadil, janubida subtropik. Yaponiya hududining 2/3 qismi o'rmonlar bilan qoplangan. Mamlakatning markazi subtropik, janubi tropik, Xokkaydo oroli aralash o'rmonlar bilan qoplangan. O'rmonlarida eman, qarag'ay, bir necha tur palma, banan, fikus, bambuk, daraxtsimon paporotniklar, endemik daraxtlar, 1500—2000 m balandlikda adir o'simliklari o'sadi. Yapon orollarining hayvonot olami bir-biridan farq qiladi. Janubiy orollar uchun tropik fauna xos bo'lib, bu orollarda bir necha tur maymunlar, ko'rshapalaklar, qoraquyon — «nuro — o'sash», ko'k qush «ruri — kasegu», «xabu» zaharli iloni uchraydi. Yapon arxipelagining markaziy orollarida bo'ri, tulki, yoqutsimon it, bo'rsiq, kiyik, quyon, olmaxon, yapon manakasi, yapon qora ayig'i, ulkan salamandra hayvonot olamini tashkil etadi. Xokkaydo orolining hayvonot olami qo'ng'ir ayiq, larik sichqoni, oqsuvsar, sibir soboli, tyulen, dengiz mushuklaridan iborat. Yaponiya atrofidagi dengizlarda turli baliqlar ko'plab uchraydi.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — konstitusion monarxiya. Mamlakat tarkibiga 47 prefektura kiradi. Afsonaga ko'ra Yapon davlatiga m. a. 660-yilda imperator Dzimmu asos solgan. Milliy bayrami — 23-dekabr — Imperator tug'ilgan kun. Davlat boshlig'i — imperator (imperator Akixito mamlakatni 1989-yilning 7-yanvaridan boshqarmoqda). Amalda ijro etuvchi hokimiyat Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Maslahatchilar palatasi (yuqori) va Vakillar palatasi (quyi)dan iborat parlament tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Yaponiya demokratik partiyasi, Liberal-demokratik partiya, Yaponiya komunistik partiyasi, «Sakigake» partiyasi.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Iqtisodiy qudrati jihatidan jahonda AQSHdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Iqtisodining asosiy tarmog'i bo'lgan sanoat, xomashyo va yonilg'i importiga qaram. 2004-yil YIM miqdori 3745000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 29400 dol.) tashkil etgan. Yuksak texnologiyalarga asoslangan aloqa informatika vositalarini ishlab chiqarish, biotexnologiya tarmoqlari taraqqiy etmoqda. Yaponiya kema, avtomobil, traktor, metallga ishlov beruvchi uskunalar, turmush elektronikasi, robotlarni ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Yaponiya jahonda ishlab chiqariladigan rangli televizorlarning 60% ini, po'latning 14,3% ini, sun'iy tolalarning 12,3% ini ishlab chiqaradi. Qishloq xo'jaligining YMMdagi ulushi — 2,2%. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari import qilinadi. Jahonda ovlanadigan baliqning 15% i yapon baliqchilik flotiga tegishlidir. Asosiy savdo sheriklari: Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari, AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari, Xitoy.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 27,327 km, avtomobil yo'llari — 1111974 km (4400 km tezyurar yo'llar, 46805 km — davlat yo'llari, 128539 km — prefektura yo'llari), ichki suv yo'llari — 1770 km. Asosiy portlari: Muroran, Kitakinsyu, Kobe, Osaka, Tokio, Yokogama, Kawasaki, Kagosila, Nagoya, Nagasaki.

**Tarixi.** M. a. 660-yilda imperator Dzimmu dastlabki davlatga asos soladi. Bir necha asrlar mobaynida Yaponiya Xitoy va Koreya madaniyati ta'siri ostida qolgan. Aynan shu davatlardan VI asrda Yaponiyaga buddaviylik dini kirib keladi. 522-yilda Yamato sulolasi hokimiyatga keladi va Nara shahrini poytaxt deb e'lon qilib, Xitoy ma'muriy boshqaruv tizimini Yaponiyada joriy etishadi. 794-yildan Xeyan davri boshlanib, poytaxti Kiotoga ko'chiriladi. IX asrda yapon yozuvi shakllanadi. XI asrdan rasman hukmdor bo'lib, amalda hokimiyat syogun qo'liga o'tadi. Mamlakat poytaxti Kamakuraga ko'chiriladi. Samuraylar mamlakatda dzen-buddizmning tarqalishiga o'z hissalarini qo'shishiadi. 1274- va 1281-yillarda yaponlar mo'g'ullar hujumini qaytarishadi. O'zaro urushlardan so'ng 1615-yilda

Tokugava syogunati boshlanadi. XVII asrda Yaponiyada yevropaliklar — avval portugallar, keyinroq gollandlar paydo bo'ladi. Shunga qaramay Yaponiya XIX asrning o'rtalarigacha chet elliqlar uchun yopiq bo'lgan. 1867-yilda Tokugava sulolasining so'nggi syoguni Yesinobu hokimiyatni imperator Mukixotoga topshiradi. Poytaxt Edu (Tokio)ga ko'chiriladi. Yaponiya kuchli davlatga aylangach, 1894-yilda Tayvanni, 1905-yilda Rossiyanı Susima jangida mag'lub etib Port-Artur va Janubiy Saxalinni egallab oladi. 1910-yilda Koreyani, ikkala jahon urushlari oralig'ida Tinch okeandagi qator orollarni bosib oladi. 1931-yilda yapon qo'shnlari Manchjuriyaga bostirib kiradi, 1937-yilda Xitoyning qolgan hududlariga bosqinchilik boshlanadi. Ikkinci jahon urushiga Yaponiya 1941-yilning 7 dekabrida AQSHning Pyorl-Xarbor harbiy bazasiga hujum qilish bilan kiradi. Urush davrida Yaponiya Angliya va Fransyaning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mustamlakalarini bosib oladi. Ittifoqchi qo'shnlarning hujumi, Xirosima va Nagasakiga atom bombalarining tashlanishi natijasida Yaponiya 1945-yilning 2-sentabrida taslim bo'lganini e'lon qiladi. O'z mustamlakalarini yo'qotgalligi va urushdan og'ir ahvolda chiqqanligiga qaramay, siyosiy hayotning demokratlashtirilishi va jadal texnologik taraqqiyot oqibatida Yaponiya iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan hamda eng boy davlatlardan biriga aylandi.

## QATAR

*Rasmiy nomi — Qatar davlati. Poytaxti — Doxa. Hududi — 11437 km<sup>2</sup>. Aholisi — 817100 kishi (2003). Davlat tili — arab. Dini — islom. Pul birligi — Qatar riali*

**Geografik joylashuvi va tabiatি.** Qatar Osiyoning janubi g'arbida, Qatar yarimoroli (Arabiston yarimorolining sharqiy sohillari)da joylashgan. Janubda Saudiya Arabistoni (chegara uzunligi — 40 km) va BAA (Birlashgan Arab Amirliklari) (20 km) bilan chegaradosh. Qatar yarimoroli hamma tomonidan Fors qo'ltig'i

suvlari bilan o'ralgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 60 km. Landshafti cho'lli tekisliklardan tashkil topgan. Asosiy tabiiy resurslari: neft va tabiiy gaz.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — mutlaq monarxiya. 1971-yil 3-sentabrda mustaqil davlatga aylangan (avval Buyuk Britaniya protektorati edi). Milliy bayrami — 3-sentabr — Mustaqillik kuni. Davlat boshlig'i — amir. Siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlangan.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Neft qazib olish iqtisodining asosini tashkil etadi. Tabiiy gaz qazib olish va eksport qilish ham iqtisodda muhim o'rinni tutadi. 2004-yil YIM miqdori 19490 mln dollarni (aholi jon boshiga — 23200 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Yaponiya va Buyuk Britaniya.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 1500 km. Portlari: Doxa, Umm-Said, Xalul.

**Tarixi.** VII asrdan arab xalifaligining bir qismi, XIII—XIV asrlarda Bahrayn amirlari hukmronligida bo'lgan. XVI asrda Qatar Usmoniyalar imperiyasi tarkibiga kiritildi. 1916-yilda Britaniya protektoratiga aylantirilgan. 1971-yilda Qatar mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

## QIRG'IZISTON

*Rasmiy nomi — Qirg'iziston Respublikasi. Poytaxti — Bishkek. Tili — qirg'iz. Aholisi — 5010000 kishi (2003). Hududi — 198500 km<sup>2</sup>. Dini — islom, shuningdek, xristianlar ham bor. Pul birligi — som.*

**Geografik joylashuvi va tabiati.** O'rta Osiyoning shimoli sharqidagi davlat. G'arbda O'zbekiston (chegara uzunli 1099 km), shimolda Qozog'iston (1051 km), janubda Tojikiston (870 km) va Xitoy (858 km) bilan chegaradosh. Mamlakatning shimoliy-sharqida Tyan-Shan (eng baland nuqtasi — 7439 m), janubiy-g'arbda Pomir—Oltoy tog' tizmasi joylashgan. Asosiy daryosi Norin. Eng katta ko'li — Issiqko'l. Yer osti boyliklari — oltin, surma, rtut, ko'mir, neft, gazga

boy. Haydaladigan yerlar hududining 7%, o'tloq va maysazorlar 42% ini egallaydi.

Iqlimi — kontinental.

**Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 6 viloyatga bo'linadi. Qirg'iziston 1991-yil SSSRning parchalanishidan keyin mustaqillikka erishgan. Milliy bayrami — 31-avgust — Mustaqillik kuni. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va hukumat boshlig'i premyer-ministriga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni bir palatali parlament amalga oshiradi. Siyosiy partiyalari: Qirg'iziston Demokratik harakati, Qirg'iziston Respublika partiyasi, Erkin Qirg'iziston, Qirg'iziston kommunistlar partiyasi.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyasi.** Mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida turibdi. Bir-muncha rivojlangan sanoat tarmoqlari rangli metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari, chorvachilik, paxtachilik va boshqalar. 2004-yil YIM miqdori 8495 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1700 dol.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari — Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa MDH mamlakatlari.

Temiryo'llarining umumiyligi — 370 km. Avtomobil yo'llari uzunligi — 30300 km.

**Tarixi.** VI asrdan XII asrgacha hozirgi Qirg'iziston hududlari Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. XIII asrda mo'g'ullar tomonidan bosib olingan Qirg'iziston XVII asrda Oyrat xonligi, XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi tarkibiga kiritildi. 1870-yil Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. 1918-yilda Turkiston Respublikasining bir qismi, 1924-yildan Qora-Qirg'iz Avtonom viloyati, 1924-yildan Qirg'iziston avtonom viloyati (oblasti), 1936-yilda Ittifoq Respublikasi maqomini oldi. Sovet Ittifoqi parchalanib ketgandan keyin Qirg'iziston mustaqilligi 1991-yil 31-avgustda e'lon qilindi.

## QOZOG'ISTON

*Rasmiy nomi — Qozog'iston Respublikasi. Poytaxti — Ostona. Hududi — 2717300 km<sup>2</sup>. Aholisi — 16763800 kishi (2003). Tili — qozoq. Dini — islom (47%), pravoslav (44%), protestantlik (2%) Pul birligi — tenge.*

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Markaziy Osiyodagi davlat. Shimolda Rossiya (chevara uzunligi — 6846 km), janubda O'zbekiston (2203 km), Qirg'iziston (1051 km) va Turkmaniston (379 km), sharqda Xitoy bilan chegaradosh. Qozog'istonning g'arbiy qismi Kaspiy dengizi, janubda Orol dengizi bilan tutash. Umumiy chevara uzunligi — 12012 km. Mamlakat hududi sharqda Olttoydan g'arbda Volganing quyi qismigacha, shimolda g'arbiy Sibir tekisligidan janubda Tyan-Shan tog'larigacha cho'zilgan. G'arbda Kaspiybo'yı pasttekisligi va Mang'ishloq yarimoroli joylashgan. Shimoli g'arbda Ural va Mug'ojar tizma tog'larining janubiy tarmoqlari yotibdi. Mug'ojaridan shimoli sharqda To'rg'ay yassitog'ligi, janubda Turon pasttekisligi va Qizilqum cho'li joylashgan. Sharqda va janubi sharqda Oltoyning janubiy tizmalari qad ko'targan. Janubda Betpak-Dala va Muyunqum cho'llari bor. Asosiy daryolari — Irtish, Ural, Chu, Sirdaryo. Qozog'iston hududida Balxash ko'li va qisman Orol va Kaspiy dengizi joylashgan. Yer osti bolyiklari ko'plab foydali qazilmalarga boy: uran, rux, oltin, mis, molibden, neft, fosforit, boksit, temir, marganets, qo'rg'oshin.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Ma'muriy jihatdan 20 ta oblast (viloyat)ga bo'linadi. Qozog'iston o'z mustaqilligini 1991-yil 16-dekabrda Sovet Ittifoqi tarqalgandan keyin e'lon qilgan. 16-dekabr — Milliy bayram — Respublika kuni. Davlat boshlig'i — prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ — bir palatali parlament — Yuqori Kengash. Asosiy siyosiy partiyalari: Qozog'iston xalq birligi ittifoqi (QXBI), Qozog'iston sotsialistik partiyasi (QSP), Qozogiston xalq kongressi (QXK), Respublikachilar partiyasi.

## *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

SSSR tarqalib ketganidan keyin Qozog'istonda ishlab chiqarishning inqirozga yuz tutishi kuzatiladi. Lekin xomashyo zaxiralariga boyligi va ishlab chiqarish bazasi-ga ega ekanligi Qozog'iston iqtisodiyotining boshqa MDH davlatlariga nisbatan yaxshiroq ahvolda bo'lishiga yordam berdi. 2004-yil YIM miqdori 118400 mln dollarni (aholi jon boshiga — 1700 dol.) tashkil etgan. Birmuncha rivojlangan sanoat tarmoqlari: rangli va qora metallurgiya, tog'-kon sanoati, mashinasozlik, neftni qayta ishslash sanoati. Qozog'iston ko'p miqdorda jun, paxta, kartoshka, g'alla yetishtiradi. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Xitoy.

Temiryo'llarinining umumiy uzunligi — 14460 km, avtomobil yo'llari — 189000 km.

**Tarixi.** Hozirgi Qozog'iston hududida turkiy qabilalar VI—VIII asrlarda Turk xoqonligi, IX—XII asrlarda Qoroxoniylar podsholigi hukmronligida yashaganlar. XIII asrda mo'g'ullar bosqinidan keyin Qozog'iston Mo'g'ul imperiyasi tarkibiga kiritiladi. XIX asrda mamlakatni mustamlakaga aylantirish uchun harakat faollashadi, hozirgi Olma-Ota, Ostona qal'alari barpo etiladi. 1886-yil Qozog'istonning butun hududi Rossiyaning Turkiston provinsiyasiyaga kiritiladi. 1917-yil noyabrda Ali Xon Bukey Qozog'istonni mustaqil davlat deb e'lon qiladi va milliy davlatga asos soladi. Lekin 1919-yilda Qizil Armiya mamlakatni bosib olib, 1920-yilda Sovet avtonom respublikasi, 1936-yildan boshlab Qozog'iston Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qilinadi. 1991-yil SSSR tarqalganidan keyin Qozog'iston mustaqil davlatga aylanadi.

## QUVAYT

*Rasmiy nomi — Quvayt davlati. Poytaxti — Al-Quvayt. Hududi — 17818 km<sup>2</sup>. Aholisi — 2301000 kishi (2003). Tili — arab. Dini — islom. Pul birligi — Quvayt dinori.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Osiyo qit'asining janubi g'arbiy qismidagi davlat. Janubda

Saudiya Arabistoniga chegara uzunligi — 222 km), shimolda va shimoli g'arbda Iroq (242 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 499 km. Hududining katta qismi cho'lli pasttekisliklardan iborat. Asosiy tabiiy resurslari: neft, tabiiy gaz.

Iqlimi — yilning katta qismida issiq havo hukmronlik qiladi.

### ***Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.***

Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat tarkibi — 5 ta gubernatorlikdan iborat. Quvayt 1961-yil 19-iyunda Buyuk Britaniyadan mustaqillikni qo'lga kiritgan. Milliy bayrami — 25-fevral — Milliy kun. Davlat boshlig'i — amir. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni amir va bir palatali parlament — Milliy Majlis amalga oshiradi. Siyosiy partiyalari yo'q.

### ***Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.***

2004-yil YIM miqdori 48000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 21300 dol.) tashkil etgan. Iqtisodining asosini neft qazib olish va neftni qayta ishlash sanoati tashkil etadi. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, AQSH, Italiya, Yaponiya.

Temiryo'llari yo'q. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 4270 km. Muhim portlari: Mina-Saud, Mina-Abdulloh, Mina-al-Ahmadi.

**Tarixi.** VII asrdan Quvayt arab xalifaligi tarkibiga, XVI asrdan boshlab Usmoniyalar imperiyasi tarkibiga kirgan. 1756-yilda avtonomiya maqomini olgan Quvayt amirligi 1899-yil Britaniya protektoratiga aylandi. 1961-yilda mustaqillikni qo'lga kiritadi. 1990-yil mamlakat Iroq tomonidan bosib olinadi va Iroqning 19-provinsiyasi deb e'lon qilinadi. 1991-yil yanvarda BMT Xavfsizlik Kengashi qarori bilan ittifoqchilar qo'shinlari Quvaytni ozod qilish harakatini boshlaydi va bu harakat fevralda muvaffaqiyatli yakunlanadi.

## **G'ARBIY SAMOA**

*Rasmiy nomi — Samoa mustaqil davlati.*

*Poytaxti — Apia. Hududi — 2831 km<sup>2</sup>. Davlat tili — samoа va ingliz. Dini — aholisining yarmidan ko'prog'i protestantlar, katoliklar (45%).*

Aholisi — 201360 kishi (2003). Pul birligi — tala.

**Geografik joylashuvi va tabiatı.** Samoa arxipelagining g'arbiy qismidagi orollarda joylashgan. Okeaniyaning janubi sharqidagi davlat. Orollar relyefi sohil tekisliklaridan va vulqonli tog'lardan iborat.

### **Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari.**

Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Mamlakat ma'muriy jihatdan 11 ta okrugga bo'lingan. 1962-yil mustaqillikka erishgan. Qonunchilik ingliz umumiy huquqi va mahalliy an'analarga asoslangan. Davlat boshlig'i 5 yilga parlament tomonidan saylanadi. Ijro etuvchi hokimiyat premyer-ministr boshchiligidagi hokimiyatga tegishli. Asosiy siyosiy partiyalari: Inson huquqlarini himoya qilish partiyasi (IHHQP), Xristian-demokratik partiya (XDP), G'arbiy Samoa milliy partiyasi (G'SMP).

### **Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.**

Iqtisodining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishi kichik korxonalar va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va b. bilan cheklangan. Turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'iga aylanib bormoqda. 2004-yil YIM miqdori 1008 mln dollarni (aholi jon boshiga — 5600 dol.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari: Yangi Zelandiya, Avstraliya, Germaniya.

Temiryo'llari yo'q. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi — 2242 km. Asosiy portlari: Apia, Asou.

**Tarixi.** 1722-yilda gollandlar tomonidan ochilgan. Samoa orollari Buyuk Britaniya, AQSH va Germaniya o'rtaisdagi tortishuvlarga sabab bo'lgan. 1899-yil dekabrda orollarning g'arbiy qismi Germaniya qo'l ostiga o'tdi. 1914-yil avgustda G'arbiy Samoa o'z hukmronligini 1962-yilgacha o'rnatgan Yangi Zelandiya tomonidan bosib olindi. 1962-yil mustaqillikni qo'lga kiritdi.

## G'ARBIY SAXARA

*Rasmiy nomi — G'arbiy Saxara. Poytaxti — El-Ayun. Hududi — 266000 km<sup>2</sup>. Aholisi — 261800 kishi (2003). Tili — arab. Dini — islom. Pul birligi — pesta.*

**Geografik joylashuvi va tabiatи.** G'arbiy Afrikada joylashgan. Janubda va janubi sharqda Mavritani (chegara uzunligi — 1561 km), sharqda Jazoir (42 km), shimolda Marokash (443 km) bilan chegaradosh. Umumiy chegara uzunligi — 2046 km. Mamlakat hududining asosiy qismi suv manbalari kam bo'lgan qumliklardan iborat. Asosiy foydali qazilmalari: temir rudasi, fosforit,

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Davlat boshlig'i — prezident, qonun chiqaruvchi hokimiyat — Saxara Milliy Kengashi. Hududning huquqiy statusi va mustaqilligi haqidagi savol hozirgi kunda o'z yechimini topgani yo'q. Davlatni 70 dan ortiq davlat tan olgan.

**Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.** Aholi daromadining asosiy manbayi — baliq ovlash va fosforitlar qazib olish. Savdo va tashqi iqtisodiy aloqalar Marokash hukumati tomonidan nazorat qilinadi. Marokash G'arbiy Saxaraga da'vogar va uning boshqaruvida rahbarlik qiladi. Shuning uchun ham asosiy savdo hamkorlari Marokash savdo hamkorlarining umumiy ro'yxatiga kiradi.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 6200 km. Asosiy portlari — El-Ayun, Ad-Dakla.

**Tarixi.** Hozirgi G'arbiy Saxara hududi XIX asr oxirlarigacha Ispaniya qirolligi qo'l ostiga o'tgunga qadar shimoli g'arbiy Afrikadagi turli davlatlar tarkibida bo'lgan. 1975-yilda Ispaniya, Mavritaniya va Marokash o'rtaida Ispaniyaning G'arbiy Saxara hududlarini Mavritaniya va Marokashga berishga roziligi to'g'risida bitim imzolandi. 1976-yil Aljir mamlakatning Mavritaniya va Marokash o'rtaida bo'lib olinishiga qarshi chiqadi. POLISARIO ozodlik Frontini va 1976-yil 28-fevralda e'lon qilingan Saxara Arab Demokratik

Respublikasi (SADR)ni qullab-quvvatladi. 1979-yilda Mavritaniya G‘arbiy Saxaraning janubiy qismlaridan voz kechganidan keyin mamlakatning butun hududi Marokash nazorati ostiga o‘tdi. 1991-yil BMT rahbarligida POLISARIO Fronti va Marokash qo‘shinlari o‘rtasida harbiy harakatlarning to‘xtatilishi haqidagi bitimning imzolanishiga erishildi.

## HINDISTON

*Rasmiy nomi — Hindiston Respublikasi. Poytaxti — Dehli. Hududi — 3287732 km<sup>2</sup>. Aholisi — 1049700100 kishi (2003). Tili — hind va ingliz tillari, yana 14 ta til (bengal, tamil, tellugu va boshqalar) mamlakatning turli shtatlarida rasmiy til sifatida ishlataladi. Dini — hinduizm (82,6%), islom (11,4%), xristian (2,4%), sikx (2%), buddizm (0,7%). Pul birligi — hind rupiysi.*

**Geografik joylashuvi va tabiat.** Hindiston — Janubiy Osiyodagi davlat. Sharqda Bangladesh (chegara uzunligi — 4053 km) va Myanma (1463 km), shimolda Xitoy (3380 km), Nepal (1690 km) va Butan (605 km), g‘arbda Pokiston (2912 km) bilan chegaradosh. Mamlakat hududini uchta tabiiy zonaga ajratish mumkin. Dekan yassitog‘lari deyarli butun Hindiston yarimorolini egallagan G‘arbiy va Sharqiy Gat tog‘ tizmalarini o‘z ichiga olgan. Hind — Gang tekisligi o‘z navbatida ikki qismdan iborat: Sharqda Ganga va Braxmaputra vodiysi, shimoli sharqda Tar sahrosi. Shimoliy qismi dunyoning eng baland tog‘lari — Himolay bilan o‘ralgan. Mamlakatning assosiy daryolari — Ganga, Hind, Braxmaputra, Godovari. Foydali qazilmalari: ko‘mir (ko‘mir zaxiralari bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinda), temir rudasi, tabiiy gaz, neft, marganets, titan, xromit, olmos, ohaktosh, boksit. Hududining 55% i ekin ekiladigan yerlar, 23% i o‘rmon va changalzorlardan iborat.

**Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari.** Davlat tuzilishi — federativ respublika. Mamlakat 25 ta shtat

va 7 ta ittifoqdosh hududga bo'linadi. 1947-yil 15-avgustda mustaqillikka erishgan. Qonunchilik ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Milliy bayrami — 26-yanvar — respublika e'lon qilingan kun (1950-yil). Ijroiya hokimiyati prezident (davlat boshlig'i)ga va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ ikki palatali parlament (Sansad). Asosiy partiyalari: Hindiston Milliy Kongressi (HMK), Bxaratiya djanata parti (BDP).

### *Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari.*

Hindiston sanoatida to'qimachilik, mashinasozlik, tog'-kon, neftni qazib olish neftni qayta ishlash, farmatsevtika, elektronika va kimyo sanoati muhim o'rinn tutadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari YMMning 30% ini tashkil etadi. 2004-yil YIM miqdori 3319000 mln dollarni (aholi jon boshiga — 3100 dol.) tashkil etgan.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 61850 km. Avtomobil yo'llari — 1970000 km (960000 km qattiq qoplamali). Ichki suv yo'llari — 16180 km. Asosiy portlari: Bombey, Madras.

**Tarixi.** Hozirgi Hindiston hududida insoniyatning qadimgi sivilizatsiyalaridan biri paydo bo'lgan. M. a. 3-ming yillik o'rtalaridan m. a. 2-ming yillik o'rtalari-gacha Hinidiston hududida Hind-oriy qabilalari vayron qilingan Xarappa sivilizatsiyasi rivojlandi. M. a. VI asrda Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismi Fors imperiyasi hukmronligiga o'tdi. Musulmon bosqinchilari bosqiniga qadar (X asr oxiri) Hindiston hududida hinduizm madaniyati va dini rivojlangan turli davlatlar hukmronlik qilgan. 1398—1399-yillarda Amir Temur tomonidan Hindistonning katta qismi bosib olindi va Dehli sultanati o'zining ko'pgina vassallaridan ajralib, kuchsizlanib qoldi. Zahiriddin Bobur 1526-yilda Dehlini bosib olib, mamlakat hududida XVIII asrgacha, ya'ni yevropaliklar tomonidan bosib olinguniga qadar o'zining rivojlanishi cho'qqisiga erishgan buyuk imperiyaga asos soldi. Bu hududda o'z ta'sir doirasiga ega bo'lish uchun kurash Fransiya va Angliya o'rtasida kechdi va Angliyaning g'alabasi bilan tugadi. Britaniya tomonidan yangi mustamlakani o'zlashtirish XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida faollashdi.

1818-yilda hindlarning oxirgi qarshiligi sindirildi. XX asrning 40-yillarida Maxatma Gandhi rahbarligidagi Milliy Ozodlik harakati 1947-yil mamlakatning mustaqillikka erishishiga olib keldi, lekin mamlakat ikki qismga — Hindiston va Pokiston Islom Respublikasiga bo‘lindi. Hindiston mustaqillikka erishgandan keyin 1960-yilda Xitoy, 1965-yilda esa Pokiston bilan harbiy mojarolarga (Pokiston bilan Jammu va Kashmir shtatlari hududi bo‘yicha mojaro hozirgi vaqtda ham davom etmoqda) tortildi. Hindistonda bir necha marta diniy va milliy mojarolar ham (1984-yilda premyer-ministr Indira Gandhi va uning o‘g‘li Radviv Gandining 1991-yilda o‘ldirilishi) yuzaga keldi.

# MUNDARIJA

Kirish .....	3	Virgin orollari (Buyuk Britaniya) .....	80
O'zbekiston .....	4	Vyetnam .....	81
Australiya .....	8	Gabon .....	83
Avstriya .....	10	Gaiti .....	85
Albaniya .....	12	Gayana .....	86
Amerika Qo'shma Shtatlari	14	Gambiya .....	88
Angiliya .....	20	Gana .....	89
Angola .....	21	Gvadelupa .....	90
Andorra .....	23	Gvatemala .....	92
Antigua va Barbuda .....	24	Gviana .....	93
Antil orollari .....	25	Gvineya .....	94
Aomin .....	26	Gvineya-Bisau .....	96
Argentina .....	27	Germaniya .....	97
Armaniston .....	29	Gibraltar .....	100
Aruba .....	31	Gonduras .....	101
Afg'oniston .....	32	Gonkong .....	102
Bagam orollari .....	34	Grenada .....	103
Bangladesh .....	36	Grenlandiya .....	104
Barbados .....	37	Gretsiya .....	106
Bahrayn .....	38	Gruziya .....	107
Beliz .....	40	Guam .....	109
Belorussiya .....	41	Daniya .....	111
Belgiya .....	44	Dominika .....	112
Benin .....	46	Dominikan Respublikasi	113
Bermud orollari .....	47	Janubiy Afrika	
Birlashgan Arab Amirliklari	49	Respublikasi .....	115
Bolgariya .....	50	Janubiy Koreya .....	117
Boliviya .....	53	Jibuti .....	119
Bosniya va Gersegovina ....	55	Jazoir .....	120
Botsvana .....	57	Zambiya .....	122
Brazilija .....	58	Zimbabwe .....	123
Bruney .....	60	Indoneziya .....	125
Burkina-Faso .....	61	Iordaniya .....	127
Burundi .....	64	Irlandiya .....	130
Butan .....	65	Iraq .....	131
Buyuk Britaniya .....	67	Islandiya .....	134
Vanuatu .....	72	Ispaniya .....	135
Vatikan .....	73	Isroil .....	137
Vengriya .....	74	Italiya .....	139
Venesuela .....	77	Kabo-Verde .....	142
Virgin orollari .....	79		

Kayman orollari .....	143	Moldova .....	215
Kambodja .....	144	Monako .....	217
Kamerun .....	146	Mongoliya .....	218
Kanada .....	147	Montserrat .....	220
Keniya .....	150	Muqaddas Yelena oroli....	221
Kipr .....	151	Myanma (Birma) .....	223
Kiribati .....	154	Namibiya .....	225
Kolumbiya . ....	155	Nauru .....	227
Komor orollari .....	157	Nepal .....	228
Kongo .....	158	Niger .....	230
Kongo Demokratik Respublikasi .....	159	Nigeriya .....	232
Kosta-Rika .....	160	Niderlandiya .....	233
Kot-d'Ivuar .....	162	Nikaragua .....	236
Kuba .....	163	Norvegiya .....	238
Laos.. ....	165	Ozarbayjon .....	241
Latviya .....	167	Palau .....	243
Lesoto.. ....	169	Panama .....	244
Liberiya .....	170	Papua-Yangi Gvineya .....	246
Livan .....	172	Paragvay .....	248
Liviya .....	174	Peru .....	250
Litva .. ....	176	Pokiston .....	252
Lixtenshteyn .....	178	Polsha .....	255
Lyuksemburg .....	179	Portugaliya .....	259
Mavrikiy .....	181	Puerto-Riko .....	261
Mavritaniya .....	182	Reyunion .....	262
Madagaskar .....	184	Rossiya .....	264
Mayotta .....	186	Ruanda .....	272
Makedoniya .....	187	Ruminiya .....	274
Malavi .....	190	Salvador .....	277
Malayziya .....	191	San-Marino .....	279
Mali .....	194	San-Tome va Prinsipi .....	281
Maldiv .....	196	Saudiya Arabistoni .....	282
Malta .....	197	Svazilend .....	285
Markaziy Afrika Respublikasi .....	199	Seyshel orollari .....	286
Marokash .....	201	Senegal .....	288
Martinika .....	203	Sen-Pyer va Mikelon .....	290
Marshall orollari .....	204	Sent-Vinsent va Grenadin .....	291
Meksika .....	206	Sent-Kits va Nevis .....	292
Mikroneziya.....	209	Sent-Lyusiya .....	294
Misr .....	210	Serbiya .....	295
Mozambik .....	213	Singapur.....	297
		Slovakiya.....	299
		Sloveniya.....	300

Solomon orollari.....	303	Xitoy.....	359
Somali.....	304	Xorvatiya.....	362
Sudan.....	306	Chad.....	364
Surinam.....	308	Chernogoriya.....	366
Suriya.....	310	Chexiya.....	367
Serra-Leone.....	312	Chili.....	369
Tailand.....	314	Sharqiy Timor.....	372
Tayvan.....	316	Shveysariya.....	372
Tanzaniya.....	318	Shvetsiya.....	375
Terks va Kaykos orollari...	320	Shimoliy Koreya.....	377
Togo.....	321	Shri-Lanka.....	380
Tojikiston.....	323	Ekvador.....	381
Tonga.....	324	Ekvatorial Gvineya.....	383
Trinidad va Tobago.....	326	Eritreya.....	385
Tuvalu.....	327	Eron.....	386
Tunis.....	328	Estoniya.....	388
Turkiya.....	331	Efiopiya.....	390
Turkmaniston.....	333	Yamayka.....	392
Uganda.....	335	Yaman.....	394
Ukraina.....	337	Yangi Zelandiya.....	395
Ummon.....	340	Yangi Kaledoniya.....	398
Urugvay.....	341	Yaponiya.....	399
Falastin.....	343	Qatar.....	402
Faryer orollari.....	345	Qirg'iziston.....	403
Fidji .....	346	Qozog'iston.....	405
Filippin .....	348	Quwayt.....	406
Finlyandiya.....	350	G'arbiy Sajnoa.....	407
Folklend orollari.....	352	G'arbiy Saxara.....	409
Fransiya.....	354	Hindiston.....	410
Fransuz Polineziyasi.....	357		

# **JAHON MAMLAKATLARI**

***Qisqa ma'lumotnoma***

Qayta ishlangan ikkinchi nashri

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2007

Muharrir *I. Shoymardonov*  
Badiiy muharrir *M. A'lamov*  
Rassom *M. Samoylov*  
Tehnik muharrir *L. Xijova*  
Sahifalovchi *T. Ogay*  
Musahhihlar: *N. Oxunjonova, A. Zokirov*

Bosishga ruxsat etildi 15.06.2007. Bichimi 84x108<sup>1/32</sup>. «Tayms» garniturasi. Ofset bosma. Sharqli bosma tobog'i 21,68. Nashriyot-hisob tobog'i 22,88. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 3383. Bahosi kelishilgan narxda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.**

4256



ISBN 978-9943-00-109-1



9 789943 001091